



**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA  
XALQARO BAHOLASH TAJRIBASI:  
MUAMMO, YECHIMLAR VA  
ISTIQBOLLAR**

**XALQARO ILMYIY-AMALIY ANJUMAN  
MATERIALLARI**

**Buxoro, 2022-yil, 29-mart**

*Бошланғич таълимда халқаро баҳолаш тажрибаси: муаммо, ечимлар ва истиқболлар*

---

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ**  
**ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**  
**БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ**  
**МАКТАБГАЧА ВА БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ ФАКУЛЬТЕТИ**  
**БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ МЕТОДИКАСИ КАФЕДРАСИ**

***БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМДА ХАЛҚАРО***  
***БАҲОЛАШ ТАЖРИБАСИ: МУАММО, ЕЧИМЛАР***  
***ВА ИСТИҚБОЛЛАР***

*ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАН*

***МАТЕРИАЛЛАРИ***

**2022 йил, 29 март**

***БУХОРО – 2022***

**I мий анжуманнинг дастурий қўмитаси**

- |               |  |
|---------------|--|
| О. Х.Хамидов  | – Бухоро давлат университети ректори, иқтисод фанлари доктори, профессор, раис.              |
| О.С.Қаҳҳоров  | – илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор, раис муовини.                                |
| Ў.У. Рашидов  | – молия ва иқтисод ишлари бўйича проректор, аъзо.  |
| Қ.Р.Тўхсонов  | – мактабгача ва бошланғич таълим факультети декани, аъзо.                                    |
| Ю.Ю.Азимов    | – мактабгача ва бошланғич таълим факультети ўқув ишлари бўйича декан ўринбосари, аъзо.       |
| Н.О. Сафарова | – мактабгача ва бошланғич таълим факультети ёшлар билан ишлаш бўйича декан ўринбосари, аъзо. |
| А.Р.Ҳамроев   | – бошланғич таълим методикаси кафедраси мудири, аъзо.  |
| Ю.А. Пўлотова | – бошланғич таълим методикаси кафедраси ўқитувчиси, котиб.                                   |

**Илмий анжуманнинг ташкилий қўмитаси**

- |                |  |
|----------------|--|
| О.С.Қаҳҳоров   | – Бухоро давлат университети илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор, раис муовини.     |
| Қ.Р.Тўхсонов   | – мактабгача ва бошланғич таълим факультети декани, раис муовини.                            |
| Г.Т. Зарипов   | – ИТ, И ва ИПКТБ бўлими бошлиғи, аъзо.   |
| Ю.Ю.Азимов     | – мактабгача ва бошланғич таълим факультети ўқув ишлари бўйича декан ўринбосари, аъзо.       |
| Н.О. Сафарова  | – мактабгача ва бошланғич таълим факультети ёшлар билан ишлаш бўйича декан ўринбосари, аъзо. |
| А.Р.Ҳамроев    | – бошланғич таълим методикаси кафедраси мудири, аъзо.  |
| Ф.М.Қосимов    | – бошланғич таълим методикаси кафедраси доценти, аъзо.                                       |
| Ғ.М.Сайфуллаев | – бошланғич таълим методикаси кафедраси доценти, аъзо.                                       |
| Н.Б.Адизова    | – бошланғич таълим методикаси кафедраси катта ўқитувчиси, аъзо.                              |
| Р.А.Қўлдошев   | – бошланғич таълим методикаси кафедраси ўқитувчиси, аъзо.                                    |
| Р.Х.Жумаев     | – бошланғич таълим методикаси кафедраси ўқитувчиси, аъзо.                                    |

Тўплам Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 7 мартдаги 101-ф-сонли фармойиши билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикасида 2022 йилда ҳалқаро ва республика миқёсида ўтказиладиган илмий ва илмий-техник тадбирлар режасида белгиланган тадбирларнинг бажарилиши мақсадида 2022 йил 29 март куни Бухоро давлат университети Бошланғич таълим методикаси кафедрасида “Бошланғич таълимда ҳалқаро баҳолаш тажрибаси: муаммо, ечимлар ва истиқболлар” мавзусидаги ҳалқаро илмий-амалий анжуман материаллари асосида тузилди.

**Масъул муҳаррир:**

А.Р.Ҳамроев, педагогика фанлари доктори, доцент

**Тақризчилар:**

Б.Р.Адизов, педагогика фанлари доктори, профессор

Ю.Ю.Азимов, филология фанлари номзоди, доцент

**YANGI BAHOLASH TIZIMI: XALQARO TA'LIM JARAYONIGA  
INTEGRATSIYALASHUVNI TA'MINLAYDI**

**O.X. Xamidov**

**Buxoro davlat universiteti rektori**

Maktabda olingan bilim insonning kelgusi hayot yo'lini belgilaydi. Ko'pchilik uni baho bilan o'lchaydi. Ammo baho bilimni belgilovchi aniq mezon emas. U o'quvchilarni faollikka undovchi, rag'batlantiruvchi vosita, xolos. Har bir o'qituvchining o'z ish uslubi, baholash metodi bor. Qaysidir o'qituvchi uchun baho bu – rag'bat yoki o'quvchini 45 daqiqa ushlab turish vositasi. Shundanmi, bir sinfdan ikkinchi sinfga o'tgan bolaning bahosida keskin o'zgarish yaqqol namoyon bo'ladi. Yana, pedagoglar orasida bahoni nisbatan yuqoriroq qo'yuvchi yoki o'quvchining bilim darajasi talabga javob bersa-da, "5" ni tejaydiganlari bor. Bu usullarning qaysi biri to'g'riligi esa doimiy bahs talab mavzu.

O'quvchilarning bilim va malakasini umumiy ravishda tahlil qilish mamlakatdagi ta'lim sifati darajasini belgilaydi. Shu maqsadda o'quv yili davomida har bir ta'lim muassasasida ichki va tashqi monitoring o'tkazib boriladi. Uning natijasiga ko'ra, eng namunali maktablar ketma-ketligi, o'qituvchilar salohiyati va o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi aniqlanadi. Bu jarayon ta'lim taraqqiyotini belgilovchi muhim mezon bo'lgani uchun Xalq ta'limi vazirligi tashabbusi bilan umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilari bilimni baholash bo'yicha xalqaro dasturlarni amaliyotga joriy etish maqsadida ilk qadamlar tashlandi. Ya'ni, o'quvchilar bilimni xalqaro talablarga yetkazish, unga mosligini o'rganib borish maqsadida PISA (Programme for International Student Assessment), TIMSS (Trends in Mathematics and Science Study) kabi baholash dasturlaridan foydalanilmoqda.

PIRLS tadqiqotida o'quvchilar, maktab ma'muriyati va o'qituvchilari orasida qo'shimcha so'rovnomalarda o'tkazadi va fan sohasida to'sqinlik qilayotgan asosiy omillarni aniqlaydi. Bu esa o'sha mamlakatda ishlab chiqilgan ta'lim standartlarini va ta'lim samaradorligini boshqa davlatlar bilan solishtirib ko'rish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan bir qator rivojlangan davlatlardagi o'quvchilar bilimni baholash quyidagicha amalga oshiriladi: Jumladan: Avstraliyada o'quvchilarning bilimlari so'zlar yordamida baholanib, bu baho o'quvchilardan sir tutiladi va faqat o'qituvchigagina ma'lum bo'ladi, o'qituvchi o'quvchilarni o'zaro qiyoslagan holda ularning iqtidorlari va o'ziga xos jihatlarni aniqlaydi; Gresiya ta'lim tizimida esa, o'quvchilarning o'zlashtirish darajalari harflar yordamida baholanadi. Masalan, D (1-4) (10-12,5) - «yetarli yaxshi»; S (5-6) (12,5-15,5) - «yaxshi»; V (7-8) (15,5-18,5) – «juda yaxshi»; A (9-10) (18,5-20) – «a'lo»ni anglatadi. Gresiyada harflar yordamida ifodalanadigan 20 ballik baholash tizimi mavjud; Italiya, Ispaniya, Portugaliya kabi davlatlarda besh balli baholash tizimi amal qilib, 1 (yomon) - 5 (a'lo)ni anglatadi. Avstriyada besh balli baholash tizimi mavjud bo'lib, 5 (topshirmadi) salbiy, 1 esa (a'lo)ni anglatadi; Norvegiya ta'limida 6 balli baholash tizimida amal qilib, 0-2 – o'rtadan past; 3-4-o'rta, 5-6-o'rtadan yuqori demakdir. Finlyandiya ta'lim tizimida 7 ko'rsatkichli baholash tizimi amal qiladi va 4 («yomon») salbiy, 10 esa («a'lo») bahoni anglatadi;

Islandiya, Niderlandiya mamlakatlarida 10 balli baholash tizimi qo'llanilib, 1 («yomon») salbiy, 10 esa («a'lo») baho bilan baholanadi. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirish jarayonlarini baholashda o'quvchilarning bahoga nisbatan ijobiy mayllari, ijobiy hamda salbiy ta'sirlarining ijtimoiy-psixologik tomonlari o'rganiladi va shuning uchun baholash quyidagi vazifalarni bajaradi: o'quvchilarning o'zlashtirish darajalari, o'quv faoliyati natijalarini bosqichli nazorat orqali tekshirish va aniqlash; o'quvchilarning ta'lim jarayoniga tayyorgarlik darajalarini sertifikatlash, o'quvchilarning o'quv faoliyati natijalarini davlat ta'lim standartlariga mosligini tasdiqlash; uning bilimlari oldingi darajaga nisbatan kengayganligini ko'rsatish; o'quvchilarni tarbiyalash, o'quvchilarning o'z-o'zlariga baho berish ko'nikmalari va o'quv faoliyati natijalariga javobgarlik hissini oshirish; o'quvchilarning o'quv faoliyatlarini rag'batlantirish, ularning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda o'quv-biluv jarayonida intellektual-ma'naviy darajasini rivojlantirish imkoniyatini ta'minlash; baholash natijasida o'quvchi aqliy faoliyatining sur'ati jadallashishi va sekinlashishi mumkinligini, o'quv jarayonida o'quvchi faoliyati natijalarini tashxislash, unga tuzatishlar kiritish, bunda o'qitish jarayonida

o'quvchining o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalari darajalari uzluksiz o'lchab borilib, DTS talablaridan chetlashish holatlari vujudga kelganda, ularni bartaraf etish kabilar.

**PISA** – 15 yoshli o'quvchilarning savodxonligi va kompetensiyasini baholovchi xalqaro dastur bo'lib, Xalqaro Iqtisodiy hamkorlik va rivojlantirish tashkiloti tomonidan 3 yilda bir marta o'tkaziladi. Unda o'quvchilarning bilim sifati o'qish, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha monitoring qilinadi va 1000 ballik tizimda baholanadi.

**TIMSS** – maktabda matematika va tabiiy fanlarni o'qitish sifatining xalqaro monitoringi bo'lib, Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) tomonidan tashkil etiladi. Ushbu tadqiqot turli davlatlardagi 4–va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo'yicha egallagan bilim darajasi va sifatini solishtirish hamda milliy ta'lim tizimidagi farqlarni aniqlashga yordam beradi. Ushbu ma'lumotlar belgilangan fanlarni o'zlashtirish holatini ko'rsatishda asos bo'ladi.

Ushbu tadqiqot to'rt yilda bir marta dunyoning ko'plab ilmiy-tadqiqot markazlari va tashkilotlari, xususan, AQShning Ta'lim sohasidagi test xizmatlari (ETS-Educational Testing Services), Kanadaning statistik markazi (Statistic Canada), Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA)ning vakillari ishtirokida o'tkaziladi. Shuningdek, turli davlat mutaxassislaridan iborat maslahat qo'mitalari tashkil etiladi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning o'zlashtirish darajalarini nazorat qilish va baholash juda murakkab jarayon bo'lib u nafaqat o'qituvchilarning balki ota-onalarning muhim vazifasidir. Yuqoridagi vazifalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishi mamlakatimiz ta'lim tizimining xalqaro ta'lim jarayoniga integratsiyalashuvini ta'minlaydi. Sohadagi bo'shliqlarni aniqlashga, yangi vazifalarni belgilab olishga xizmat qiladi. Eng muhimi, o'quvchilar bilimini adolatli va shaffof baholashga erishamiz.

## **TA'LIM SIFATI - O'ZGARISH VA RIVOJLANISH GAROVI**

**Q.R.To'xsanov**

Buxoro davlat universiteti

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti dekani

Mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch bu – ilm-fan, ta'lim va tarbiya ekanligi isbot talab qilmas haqiqatdir. Bugun mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar yoshlarning oliy ta'lim bilan qamrab olinishini yanada kengaytirish, ularni bilim va malakali etib tarbiyalash, jahon taraqqiyotiga mos mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan.

Yangi O'zbekistonga ilm-fanga e'tibor yuqori cho'qqiga chiqqani bejiz emas. Chunki hozir zamonaviy hayotni ilm-ma'rifat va ta'limning taraqqiyotisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Jahonning yetakchi davlatlarida ham ta'limni rivojlantirish birinchi galdagi vazifa sifatida belgilanmoqda. Zero, mamlakatning kelgusi ravnaqi aynan shu sohada qo'lga kiritgan yutuqlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Albatta, mamlakatimiz ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish, uni xalqaro standartlarga integratsiyalash, mehnat bozori talabiga mos yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash bo'yicha hayotga tatbiq etilayotgan islohotlar e'tiborga molik. Lekin shunga qaramay, sifat borasida o'zgarishlar hali-hamon sezilmayapti. Demak, endi oliy ma'lumotli kadrlarni tayyorlashning maqsadli mezonlarini shakllantirish, oliy ta'lim muassasalaridagi ixtisoslik yo'nalishlari, mutaxassisliklarni hududlar, sohalar bo'yicha joriy etilayotgan dasturlarning talab va ehtiyojlarini inobatga olish lozim.

Shu nuqtai nazardan, davlatimiz rahbari sohadagi 4 ta ustuvor vazifani ko'rsatib o'tdi. Birinchisi oliy ta'lim muassasalari boshqaruv kengashlarining rolini oshirish va kafedralar vakolatlarini kengaytirish bo'lsa, ikkinchisi o'quv jarayonini bozor talablariga moslashtirib, ishlab chiqarish bilan uzviyligini ta'minlash va talabning o'z ustida ishlashi uchun muhit yaratishdir. O'z navbatida, oliy ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyatini oshirish, ilm-fan va innovatsiyani rivojlantirish hamda professor-o'qituvchilar va talabalar uchun qog'ozbozlikni kamaytirish, sohani raqamlashtirish orqali byurokratiya va korrupsiyani keskin qisqartirish ham ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

Tahlillarga ko'ra, bugungi kunda talabalar uchun qo'shimcha 149 mingta turar joyga ehtiyoj bor. Bu talabalar uchun qo'shimcha yotoqxonalar qurish zarur degani. Yig'ilishda yotoqxonalarni tadbirkorlar bilan xususiy sheriklik asosida tashkil etish uchun oliy ta'lim muassasasi hududidan yoki unga yaqin joydan auktsion orqali yer ajratilishi belgilandi. Mazkur binolarning birinchi va ikkinchi qavatli biznes uchun tadbirkorlarga berilib, yuqori qavatlari arzon turar joy bo'ladi. Talabalarga bu boradagi xarajatlarning 50 foizi byudjetdan qoplab berilishi ularni ko'nglini tog'dek ko'tardi, nihoyatda mamnun etdi.

O'zbekistonning ta'lim va intellektual rivojlanish darajasi bo'yicha dunyoda eng yuqori reytingga ega 30 ta davlat qatoridan joy olishini ta'minlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu borada ta'lim-tarbiya sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish, Ta'lim to'g'risidagi kodeksni ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish, unda ta'lim muassasalarini moliyalashtirish, faoliyatini baholash metodologiyalarini joriy etish hamda oliy ta'limda moliyaviy mustaqillikni belgilab beruvchi qoidalarni bayon etishni eng muhim vazifa, deb hisoblaymiz.

Xulosa o'rnida aytganda, oliy ta'lim mamlakatning ertangi taraqqiyotini belgilab beradigan, jamiyat hayotining barcha jabhasini isloh etishda hal qiluvchi vazifani bajaradigan muhim omildir. Jamiyatda oliy ma'lumotga ega, yuksak malakali mutaxassislar qancha ko'p bo'lsa, rivojlanish shuncha tez va samarali bo'ladi. Ta'lim sifati rivojlansa, har bir sohada o'zgarish, rivojlanish kuzatiladi.

# **1– SHO‘BA: BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA XALQARO BAHOLASHNING TATBIQ ETILISHI**

## **СЕКЦИЯ 1: ВНЕДРЕНИЕ МЕЖДУНАРОДНОГО ОЦЕНИВАНИЯ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ**

### **BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QUVCHILAR BILIMINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY USULLARI**

**A.R.Hamroyev,**  
BuxDU professori

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta‘limni tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmonida ta‘lim sifatiga mas‘ul idora, tashkilotlar oldiga “...uzluksiz ta‘lim tizimini mazmunini sifat jihatidan, shuningdek, professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish; o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta‘lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish” kabi qator muhim vazifalar qo‘yilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida «jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat‘iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash» masalalari ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Bu vazifalarni amalga oshirishda ona tili ta‘limining o‘rni alohida ahamiyatga ega. Jumladan, boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarning bilimini baholash jahon standartlari asosida amalga oshirish bugungi kunda o‘qitish jarayonini samarali tashkil etish, nazorat qilish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo qiladi.

PIRLS xalqaro boshlang‘ich sinf bitiruvchi o‘quvchilarining matni o‘qish va tushish savodxonligini baholash dasturi o‘tkazish davrlarida zamonga moslashtirib, topshiriqlar mazmuni va mohiyatini takomillashtirib boradi. Masalan, 4-o‘tish davri (PIRLS-2016 yil)da o‘quvchilar topshiriqlarni kompyuterda onlayn tarzida o‘tkazilib, natijalari elektron hisoblashga o‘tkaziladi.

2021-yilda o‘tkaziladigan PIRLS tadqiqotlarida raqamli format, internet orqali muloqot qilishning ko‘p sonli turlari (forum, chat, blog), ko‘p hollarda matn o‘zaro bog‘langan veb- saytlar kabi raqamli shakllarga o‘tish rejalashtirildi. Lekin shu bilan birga an‘anaviy format ya‘ni kitoblar, jurnallar, xujjatlar va gazetalardagi kabi an‘anaviy yozuv shakllarida ham beriladi. O‘quvchilarga beriladigan materiallar rag‘batlantiradigan va bir butun samaradoralikni oishiradigan va qiziqarli va tasavvur qilish jihatdan yoqadigan sifatida taqdim etiladi.

PIRLS-2021 dasturida moslanuvchan dizayn qo‘llanildi. Xalqaro dasturda qatnashayotgan mamlakatlar o‘quvchilari o‘qish va qismlarni boshqarishadi, har bir mamlakatda alohida turli xil darajadagi test shakllari moslashtirib beriladi. Mazkur yangi g‘oya boshlang‘ich sinf bitiruvchilarining turli xil o‘qish qobiliyatiga ega bo‘lgan mamlakatlar uchun o‘qish darajalarining PIRLS o‘lchovini takomillashtirib, o‘quvchilarning faolligini oshirib boradi.

“Agar bu bolalar murakkab matni o‘qishsa, unda ular faqat aniq tasvirlangan tafsilotlarni topib olishlari mumkin. Ammo agar bolalarga oddiy matn berilgan bo‘lsa yoki matn qismlarga bo‘lib taqdim etilsa, ular og‘zaki va noverbal tekshiriladigan ma‘lumotni topib chiqarib (grafikalar yoki diagrammalar yordamida), voqea voqealari va qahramonlar harakatlarining sabablari to‘g‘risida sodda xulosalar chiqarishlari, voqealar va asosiy g‘oyani sharhlay boshlaydilar.

PIRLSning muhim maqsadi - to‘rtinchi sinfda o‘qish yutuqlari bilan bog‘liq uy, jamoat, maktab va o‘quvchi omillarini o‘rganish. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun o‘quv sharoitlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar o‘quvchilar, shuningdek ularning ota-onalari, o‘qituvchilari va direktorlari tomonidan to‘ldirilgan so‘rovnomalar orqali to‘planadi.

PIRLSning vazifa sifatida topshiriqlarning 10 ta varianti taklif qilingan. Sinovlarda adabiy matn qo‘llanilgan: "Inverted sichqonchalar", "Bir loy parchasi", "Gulda gullar", "Qovoq zilzilani ogohlantiradi"; "Leonardo da Vinchi", "Antarktida" kabi mashhur ilmiy matnlar; va "Daryo bo‘ylab marshrutda" matnlari berilgan. Sinov topshiriqlarining barcha versiyalari bir xil tuzilishga va qiyinchilik darajasiga ega. Sinovning barcha variantlari ikki qismdan iborat bo‘lib, ularning har biriga 11 dan 14 tagacha savol topshiriqlari berilgan

2016-yilda o'tkazilgan PIRLS tadqiqotida materiallar 16 variantda ishlangan bo'lib, ularning har biri bir xil qiyinchilik darajasiga ega bo'lgan. Har bir o'quvchiga ikkita ya'ni badiiy va ilmiy-ommabop matnlar va har bir matn uchun 12-17 ta topshiriqlar berilgan.

PIRLS tadqiqotlari boshlang'ich sinf bitiruvchilarning monitoringi bo'lib hisoblanadi. PIRLS topshiriqlari xaqaro hamjamiyat jamoatchiligi tomonidan kitobni o'qiydigan o'quvchilar uchun eng yaxshi zamonaviy o'qish savodxonligi deb tan olingan.

Nima uchun aynan o'qish savodxonligi ta'lim tizimidagi yutuqlarning markaziy ko'rsatkichi sifatida tan olingan? Chunki matnlardan olingan ma'lumotlarni tushunish va ishlatish qobiliyati har bir bola taqdiriga va mamlakat farovonligiga sezilarli darajada ta'sir qiladi.

Tadqiqotlar natijasida o'n bir yashar o'quvchiga o'qish savodxonligini juda yuqori darajada bo'lishi umumiy o'rta ta'lim maktabini tugatgandan keyin ham ta'lim olishni davom ettirish ehtimolini kuchaytiradi.

O'quvchilarda o'qish savodxonligini yaxshilanishi iqtisodiy o'sishga boshqa savodxonliklarga nisbatan ko'proq o'z ta'sirini ko'rsatadi

PIRLSga a'zo mamlakatlar besh yilda bir marotaba ta'lim olish natijalariga bog'liq bo'lgan, yaxshi o'ylangan ta'limda o'sish imkonini beruvchi strategik qarorlar qabul qilish imkonini yaratadigan ma'lumotlar bazasiga ega bo'lishadi. Qabul qilinadigan qarorlar ko'laminin farqi shundaki unda butun mamlakatning hamda har bir sinf o'quvchisiga o'z ta'sirini ko'rsatadigan darajada bo'ladi. Mana shunday qarorlar natijasida yoshlarning o'qish savodxonligi taqdiri hal qilinadi. Dasturning har bir (5 yillik) davriy o'tishida tadqiqotning tashkilotchilari topshiriqlar ma'lumotlar bazasini ayni zamon talablariga mos darajadagi dolzarb matnlar bilan moslashtirib borishadi. O'quvchilarning yosh psixologik rivojlanishi o'sib borayotganligini inobatga olib, bolaning ta'lim-tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga e'tibor qaratib boradi.

## **STEAM TA'LIMINING QO'LLANISHI, SAMARADORLIGI VA AFZALLIKLARI**

**N.T.Tosheva, BuxDUPI dotsent**

**N.Z.Qodirova, BuxDU talabasi**

*STEAM ta'lim texnologiyasi maktab o'quvchilarini yangicha o'qitish metodikasi bo'lib, an'anaviy o'qitish metodikasidan farqli metodika hisoblanadi. U o'quvchilarni bir vaqtning o'zida to'rtta – fan (Science), texnologiya (Technology), muhandislik, (Engineering), tasviriy san'at (Art), matematika (Math) bo'yicha o'qitishga mo'ljallangan. STEAM fan bo'yicha emas, balki mavzular bo'yicha integratsiyalashgan o'qitish tizimidir.*

**Kalit so'zlar:** o'qitish usuli, fikrlash tarsi, innovatsion taraqqiyot, xalqaro mezon, o'qish savodxonlogi, xorijiy tajribalar, ta'lim sifatini baholash, pedagogik kuzatuv, falsafaviy qarashlar, g'oyalar, ilovalar.

*Образовательная технология STEAM – это новый метод обучения школьников, который отличается от традиционного метода обучения. Он предназначен для одновременного обучения студентов четырем предметам - науке, технологии, инженерному делу, изобразительному искусству и математике. STEAM — это интегрированная предметная система обучения, а не наука.*

**Ключевые слова:** метод обучения, образ мышления, инновационное развитие, международные критерии, читательская грамотность, зарубежный опыт, оценка качества образования, педагогическое наблюдение, философские взгляды, идеи, приложения.

*STEAM educational technology is a new method of teaching school students, which is different from the traditional method of teaching. It is designed to teach students four subjects at the same time - Science, Technology, Engineering, Fine Arts, and Mathematics. STEAM is an integrated subject-based learning system, not science.*

**Keywords:** teaching method, way of thinking, innovative development, international criteria, reading literacy, foreign experience, quality assessment of education, pedagogical observation, philosophical views, ideas, applications.

Respublika xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o'rnatish, o'quvchi-yoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g'oyalari va ijodkorligiga bog'liq.

STEAM texnologiyasi ta'limdan farqli ravishda bilimlarni alohida emas, o'zaro mutanosib holda olib borishni ta'minlab beradi. O'quvchi o'zida nostandart fikrlash, muammoga bir nechta yechim topish va ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantiradi va bu uning kelajakdagi faoliyatida juda qo'l keladi. STEAM

ta'lim tizimi nima? STEAM ta'lim tizimi o'zi nima? Agar ushbu qisqartmani yoysak, quyidagilarni olamiz: STEAM bu - S - *science*, T - *technology*, E - *engineering*, A - *art* va M - *math*. Ingliz tilida bu shunday bo'ladi: tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika. Ushbu yo'nalishlar zamonaviy dunyoda eng mashhur bo'lib kelayotganini unutmang. Shuning uchun bugungi kunda STEAM tizimi asosiy tendentsiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda. STEAM ta'limi yo'nalishi va amaliy yondashuvni qo'llash, shuningdek, barcha beshta sohani yagona ta'lim tizimiga integratsiyalashuviga asoslangan. Agar ushbu qisqartmani yoysak, quyidagilarni olamiz: STEAM bu — S – *science*, T – *technology*, E – *engineering*, A – *art* va M – *math*. Ingliz tilida bu shunday bo'ladi: tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika. Ushbu yo'nalishlar zamonaviy dunyoda eng mashhur bo'lib kelayotganini unutmang. Shuning uchun bugungi kunda STEAM tizimi asosiy tendentsiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda. STEAM ta'limi yo'nalishi va amaliy yondashuvni qo'llash, shuningdek, barcha beshta sohani yagona ta'lim tizimiga integratsiyalashuviga asoslangan. STEAM yondashuvi o'quv samaradorligiga qanday ta'sir qiladi? Uning asosiy g'oyasi shundan iboratki, amaliyot nazariy bilimlar singari muhimdir. Ya'ni, o'rganish paytida biz nafaqat miyamiz bilan, balki qo'limiz bilan ham ishlashimiz kerak. Faqat sinf devorlarida o'rganish tez o'zgaruvchan dunyo bilan hamqadam emas. STEAM yondashuvining asosiy farqi shundaki, bolalar turli xil mavzularni muvaffaqiyatli o'rganish uchun ham miyani, ham qo'llarini ishlatadilar. Ular olgan bilimlarni o'zlari "uqib oladilar". STEAM ta'limi nafaqat o'qitish usuli, balki fikrlash tarzidir. STEAM ta'lim muhitida bolalar bilimga ega bo'ladilar va darhol undan foydalanishni o'rganadilar. Shuning uchun, ular o'sib ulg'ayganlarida va hayotiy muammolarga duch kelganda, atrof muhitning ifloslanishi yoki global iqlim o'zgarishi bo'ladimi, bunday murakkab masalalarni faqat turli sohalaridagi bilimlarga tayanib va birgalikda ishlash orqali hal qilish mumkinligini tushunadilar. Bu erda faqat bitta mavzu bo'yicha bilimga tayanish etarli emas.

STEAM yondashuvi bizning ta'lim va ta'limga bo'lgan qarashimizni o'zgartirmoqda. Amaliy qobiliyatga e'tibor berib, talabalar o'zlarining irodasini, ijodkorligini, moslashuvchanligini rivojlantiradi va boshqalar bilan hamkorlik qilishni o'rganadi. Ushbu ko'nikmalar va bilimlar asosiy ta'lim vazifasini tashkil etadi, ya'ni. bu butun ta'lim tizimi nimaga intilishini. Ta'limga ushbu yangi yondashuv qanday paydo bo'ldi? Bu nazariya va amaliyotni birlashtirishning mantiqiy natijasidir. STEAM Amerikada ishlab chiqilgan. Ba'zi maktablar bitiruvchilarning martabalarini e'tiborga olishdi va fan, texnologiya, muhandislik va matematika kabi fanlarni birlashtirishga qaror qilishdi va STEM tizimi shu tarzda shakllandi. (Fan, texnika, muhandislik va matematika). Keyinchalik bu erda Art qo'shildi va endi STEAM oxirigacha shakllandi. O'qituvchilar ushbu mavzular, aniqrog'i ushbu fanlardan bilimlar kelajakda talabalarning yuqori malakali mutaxassis bo'lib etishishiga yordam beradi, deb hisoblashadi. Oxir oqibat, bolalar yaxshi bilim olishga intilishadi va uni darhol amalda qo'llashadi. Dunyo o'zgarib bormoqda, hatto ta'lim bir joyda turmasa ham. So'nggi o'n yilliklardagi o'zgarishlar yoqimli, ammo shu bilan birga bizni havotirlantiradi. Ushbu yangi narsalarning ixtiro qilinishi bilan odamlar ilgari duch kelmagan ko'plab yangi muammolar mavjud. Har kuni yangi ish turlari va hattoki butun kasbiy sohalar paydo bo'ladi, shuning uchun zamonaviy o'qituvchilar o'qitadigan bilimlari va mahoratlari vaqt talablariga javob beradimi yoki yo'qmi deb o'ylashlari kerak. O'zingizning g'oyangizni topishga bilim yordam beradi, ammo haqiqiy ish bu g'oyani haqiqatga aylantiradi. Agar biz an'anaviy ta'limning asosiy maqsadi bilimlarni o'rgatish va bu bilimlardan fikrlash va ijod qilish uchun foydalanish deb aytsak, STEAM yondashuvi bizni olgan bilimlarni haqiqiy ko'nikmalar bilan birlashtirishga o'rgatadi. Bu maktab o'quvchilariga nafaqat ba'zi bir g'oyalarga ega bo'lish, balki ularni amalda qo'llash va amalga oshirish imkoniyatini beradi. O'sha. haqiqatda ishlatilishi mumkin bo'lgan bilimgina haqiqatan ham qadrlidir. STEAM yondashuvining eng mashhur namunasi – Massachusetts Texnologiya Instituti (MIT). Ushbu dunyo universitetining shiori "Mens et Manus" (Aql va qo'l). Massachusetts Texnologiya Instituti bolalarga STEAM tushunchasini oldindan o'rganish va tanishish imkoniyatini berish uchun STEAM kurslarini ishlab chiqdi va hattoki ba'zi ta'lim muassasalarida STEAM o'quv markazlarini yaratdi. Statistikaga ko'ra, 2011 yildan buyon STEAM-kasblarga bo'lgan talab darajasi 17% ga oshdi, oddiy kasblarga bo'lgan talab esa faqat 9,8% ga oshdi, bu esa butun dunyo bo'ylab ushbu ta'lim tizimiga katta talabni ko'rsatadi. Lekin bunday yuqori talab nima bilan bog'liq? Ko'pgina mamlakatlarda STEAM-ta'lim ba'zi sabablarga ko'ra ustuvor ahamiyatga ega: Yaqin kelajakda dunyoda va shuning uchun O'zbekistonda muhandislar, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish mutaxassislariga talab juda yuqori bo'ladi. Uzoq kelajakda biz tabiiy fanlar bilan birgalikda texnologiya va yuqori texnologiyali ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan kasblarga ega bo'lamiz, ayniqsa bio va nanotexnologiya mutaxassislariga katta talab bo'ladi. Mutaxassislar texnologiya, tabiiy fanlar va muhandislikning turli sohalaridan keng qamrovli ta'lim va tajribaga muhtoj bo'ladi. Integratsiyalashgan ta'lim Xo'sh, bu ta'lim tizimi va fanlarni

o'qitishning an'anaviy usuli o'rtasidagi farq nima? STEAM-ta'lim o'quvchilar ilmiy usullarni amalda qanday qo'llashni tushunishga kirishadigan aralash muhitni nazarda tutadi. Ushbu dastur bo'yicha talabalar, matematika [va fizika bilan bir qatorda](#), o'z robotlarini ishlab chiqadigan va ishlab qaradigan robotlarni o'rganadilar. Darslarda maxsus texnologik uskunalari ishlatiladi. 2014-yilda Quddusda bo'lib o'tgan "STEAM forward" xalqaro konferensiyasida quyidagi bayonotlar bildirildi:

- Bolalarni STEAMga jalb qilish. Ushbu ta'lim maktabgacha yoshdan boshlab boshlanishi kerak, shuning uchun dasturlarni bolalar bog'chalariga kiritish kerak.
- Fan tili ingliz tilidir. Agar ilm-fanni o'rganish va olim bo'lishni istasangiz, bu tilni bilishingiz kerak.
- Qizlar uchun Steam-ta'lim dasturlari kerak. Ilm-fan sohasidagi qizlar, ularning tartiblilik tufayli, o'g'il bolalar qila olmaydigan narsalarni qilishlari mumkin.
- Science is fun! Ilm-fan quvnoq bo'lishi kerak, u o'quvchilar uchun qiziqarli va o'ziga jalb qiluvchi bo'lishi kerak.

STEAM texnologiyasi ta'limdan farqli ravishda bilimlarni alohida emas, o'zaro mutanosib holda olib borishni ta'minlab beradi. O'quvchi o'zida nostandart fikrlash, muammoga bir nechta yechim topish va ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantiradi va bu uning kelajakdagi faoliyatida juda qo'l keladi. Masalan: Texnologiyalar rivojlangan hozirgi davrda robototexnika istiqbolli sohalaridan biri hisoblanadi. STEAM va robototexnika darslari o'zaro uyg'unlikda olib borilganda o'quvchilar quyidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi:

– [C dasturlash tili](#)

- Elektronika asoslari
- Sodda va murakkab sxemalar yasash
- 3D dizayn va 3D modellashtirish
- 3D printerdan 3D modellarni chiqarish
- Arduino dasturlash
- Tranzistor va mikrochiplar bilan ishlash
- Qo'shimcha modul va sensorlar bilan ishlash (RGB, WiFi, PIR, [LCD display](#), RFID)
- Mustaqil ravishda turli xildagi Arduino proyektlar yasash.

Mamlakatimizda Prezident maktablarida "STEAM" dasturi bo'yicha ta'lim beriladi. Umumta'lim muassasalarining 4-sinf bitiruvchilari mantiqiy fikrlash testlari, yozma imtihon va suhbatlar natijalariga ko'ra kira oladilar. Baholash Xalq ta'limi vazirligi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Ta'lim jarayoni xorijiy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan o'quv rejalari va dasturlari bo'yicha ingliz tilida amalga oshiriladi. 9–11-sinflarda o'qitish o'quvchilarning qiziqishlari va xususiyatlarini inobatga olgan holda, ayrim fanlar va ularni o'rganish darajasini tanlab olish orqali o'quv jarayonini individuallashtirishni ko'zda tutadi. Maktablarda «STEAM – ta'lim» (Science – tabiiy fanlar, Technology – texnologiyalar, Engineering – texnik ijodkorlik, Art – san'at, Mathematics – matematika) dasturi joriy etiladi. O'quvchilarning qiziqishlaridan kelib chiqqan holda sinfdan tashqari amaliy mashg'ulotlar o'tkazish nazarda tutiladi.

Bitiruvchilarga belgilangan tartibda davlat tomonidan tasdiqlangan ma'lumot to'g'risidagi hujjat (shahodatnoma, attestat) bilan bir qatorda xalqaro darajadagi tegishli dastur diplomi (International [Baccalaureate](#), Advanced Placement yoki International Advanced Levels) beriladi. Bunday diplom bilan xorijiy mamlakatlarning yetakchi oliy ta'lim muassasalariga kirish mumkin bo'ladi. AQSh Shimoliy Jorjiya universitetining pedagogika fanlari doktori, professor Karli Vomak-Ven sentyabr oyidan O'zbekistonda ish boshlaydi. Ikki oy mobaynida davlat ta'lim standartlarini baholashga va qayta ko'rishga yordam beradi. Xususan, ta'lim jarayoniga STEAM dasturini joriy etishda o'z tajribasidan kelib chiqqan holda maslahat berib boradi. AQSh professori Fulbrayt dasturi bo'yicha Xalk ta'limi vazirligiga maslahatchi etib tayinlandi. Ushbu dastur AQShlik yuqori malakali mutaxassislar va olimlarni tajriba almashish uchun jalb etish imkonini beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Preschool educational practice. Guidelines for preschool teachers. State of israel ministry of education preschool education division. 2010.
2. The Whole-Brain Child: 12 Revolutionary Strategies to Nurture Your Child's Developing Mind by Daniel J. Siegel and Tina Payne Bryson. 2011.
3. I.V. Grosheva, G.E.Djanpeisova, U.T. Mikailova, M.A. Ismailova, D.A. Kenjabayeva, N.B. Gulyamova, N.A. Miftayeva "O'yin orqali ta'lim olish". O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim Vazirligi. T.:2020 y.

**БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИ ХАЛҚАРО БАҲОЛАШ (PIRLS)  
ТИЗИМИГА ТАЙЁРЛАШГА ДОИР АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР**

**Азимов Юнус Юсупович**

Бухоро давлат университети Бошланғич таълим методикаси кафедраси доценти,  
филология фанлари номзоди.

**Юсуфзода Шабнами Юнус**

Бухоро давлат университети Бошланғич таълим методикаси кафедраси ўқитувчиси

*Мазкур мақолада PIRLS халқаро баҳолаш тизимига ўтиш учун Бошланғич мактабларимиз олдида турган долзарб муаммолар борасида фикр – мулоҳазалар юритилади.*

**Таянч сўзлар:** PIRLS, халқаро қиёсий баҳолаш, компетентлиг, миллий марказ, халқаро ўқиш саводхонлиги, матнни ўқиш ва тушуниш, компетенция элементлари.

*В данной статье рассматриваются текущие задачи, стоящие перед нашими начальными школами при переходе на международную систему оценивания PIRLS.*

**Ключевые слова:** PIRLS, международная сравнительная оценка, компетентность, национальный центр, международная грамотность чтения, чтение и понимание текста, элементы компетенции.

*This article discusses the current challenges facing our primary schools in transitioning to the PIRLS international assessment system.*

**Keywords:** PIRLS, international comparative assessment, competence, national center, international reading literacy, reading and text comprehension, elements of competence.

Бугунги давр талабларига тўлақонли жавоб берадиган таълим ва тарбия тизимини яратиш катта маблағ ҳамда сифат ўзгаришларини талаб қилади. Бу ўзгаришларни, айниқса, бошланғич таълимдан бошлаш мантиқан тўғри ҳисобланади. Айни дамда юздан ортиқ мамлакатлар халқаро баҳолаш тизими - PIRLS га қўшилмоқда. Бу баҳолаш тизимига қўшилиш ҳамма мамлакатларга ҳам насиб қилмайди. Чунки унинг муайян талаблари бор. Унга жавоб бера олган мактабларгина қўшила олади. Бизнинг бошланғич синф мактабларимиз шунга тайёрми? Халқаро баҳолаш тизими (PIRLS) қўйган талабларга ўқувчиларимиз жавоб бера оладими? Чунки биринчи навбатда таълимнинг сифати, унинг компетентлиги, мамлакатнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланишининг муҳим омили сифатида рақобатга чидамли малакали мутахассисларни тайёрлаш глобаллашув даврининг муҳим хусусиятларига айланмоқда. Иккинчидан, глобал тараққиёт жараёни ёш авлодни тарбиялаш ва билим беришда дунё мамлакатларининг мақсадларини умумийлашишига олиб келмоқда. Шу боис ёш авлоднинг интеллектуал фаоллигини шакллантириш нафақат муайян бир мамлакат, балки халқаро ҳамжамият учун ҳам муҳим масалага айланди. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018-йил 8-декабрда “Халқ таълими тизимида таълим сифатини баҳолаш соҳасидаги халқаро тадқиқотларни ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори асосида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси ҳузурида Таълим сифатини баҳолаш бўйича халқаро тадқиқотларни амалга ошириш Миллий маркази ташкил этилган эди. Бундай марказнинг ташкил этилиши юқорида таъкидлаган мақсадимиз йўлидаги дадил қадамлардан биридир.

**PIRLS** (Progress in International Reading Literacy Study - Халқаро ўқиш саводхонлигини ўрганишдаги тараққиёт) бу 4-синф ўқувчиларнинг матнни ўқиш ва тушуниш даражаларини баҳолаб берувчи халқаро қиёсий баҳолаш мезонидир.

Таъкидлаш жоизки, бундай тадқиқот халқ таълими соҳасидаги ишчилар, олимлар, [методистлар](#), ўқитувчилар, ота-оналар ва жамоат вакиллари учун катта аҳамиятга эгадир ва шу билан бирга улар олдида катта масъулиятли вазифаларни ҳам қўяди. Ана шу вазифалар бажарилсагина бизнинг бошланғич синф ўқувчилари ҳам халқаро баҳолаш тизимига уланиш ҳуқуқини қўлга кирита оладилар. Бу учун умумтаълим мактабларининг Бошланғич таълим бўғини раҳбарлари, бошланғич синф ўқитувчилари ҳамда ота-оналар биргаликда ҳаракат қилишлари лозим. Биринчи навбатда, масъул раҳбарлар, ўқитувчилар ҳамда ота-оналар олдида нима вазифалар қўйилади аниқлаб олишимиз лозим. Бу учун **PIRLS** халқаро баҳолаш тизими талабларига бир назар соламиз. **PIRLS** тадқиқотлари Халқаро таълим институтлари ассоциацияси (IEA) томонидан мувофиқлаштирилади. Таълим ютуқларини баҳолаш халқаро ассоциацияси (IEA - International Association for the Evaluation of Educational Achievement) томонидан ташкил этилган.

Халқаро тадқиқотни ташкил этиш учун барча масъулият Chestnut Hill (Massachusetts, AQSН) Бостон коллежига юклатилган. Тадқиқот учун топшириқларни тайёрлаш Германия (Gamburg) маълумотлар марказида амалга оширилади. Илк бора тадқиқот 2001-йилда ўтказилган. Тадқиқот ҳар 5 йилда бир маротаба ўтказилади. **PIRLS** тадқиқотда иштирок этувчи турли мамлакатларда бошланғич синфга мактаб ўқувчиларини қабул қилиш ёши турлича. Кўплаб мамлакатларда мактабга олти ёшдан қабул қилишади ва тўртинчи синфни 10.5 ёшда тугатишади. Бирок, Англия, Янги Зеландия, Тринидад Тобагода- мактабга 5 ёшдан қабул қилишади ва аҳамиятли жиҳати **PIRLS** халқаро тадқиқотида ушбу мамлакатларнинг 5-синф ўқувчилари халқаро тадқиқотда иштирок этишади. Швесия, Дания ва кўплаб Шарқий давлатларда- мактабга 7 ёшдан қабул бошланади ва ушбу мамлакатларнинг ўқувчилари қолган тенгдошларига нисбатан энг катта (10,7-10,9) ёшни ташкил этади. Бизнинг мамлакатда ҳам мактабда 7 ёшдан қабул қилиниши боис ушбу параметрлар асосида иш юритамиз.

**PIRLS** тадқиқотида ишлатиладиган матнлар 4 синф ўқувчилари ёшига мос тарзда танланган. Бу тадқиқотда танланадиган матннинг узунлиги билан боғлиқ қуйидаги меъёр берилган:

**PIRLS:1000** та сўзгача **PIRLS-literacy** ўқиш саводхонлиги даражаси паст бўлган мамлакатлар учун 400-500 та сўз

Мамлакатимиздаги амалдаги бошланғич таълим дастуридаги 4-синф битирувчи ўқувчиларда шакланган фанга оид компетенция элементларида қўйилган талабга диққатингизни қаратамиз: бир дақиқада 50-55 сўзни ўқий олади (2.159). Шундан келиб чиқиб **PIRLS** халқаро баҳолаш топшириқларидаги матн узунлигини олсак бизнинг ўқувчилар бу учун 18-20 дақиқа вақт сарфлайди. Бу меъёрга ҳали тайёр эмасмиз. **PIRLS-literacy** талаблари асосида ҳисобласак бизнинг ўқувчилар бу учун 7-9 дақиқа вақт сарфлайди. Бу қиёслашимиз ҳали бир параметр учун. Қолган мезон талаблари ҳам анча юқори. Шулардан келиб чиқиб, айтиш мумкинки, биз ҳали халқаро баҳолаш тизимига мослашимиз учун анча ишларни амалга оширишимиз керак. Бу учун биз нималарга эътибор қаратишимиз даркор. **Биринчидан**, 2021 йилда ўтказиладиган **PIRLS** халқаро баҳолаш дастурида 70 га яқин давлатлар қаторида мамлакатимиздаги 4-синф ўқувчилари ҳам илк маротаба иштирок этган эди. Натижалар қандай бўлган билмаймиз. Улар ҳеч қаерда таҳлил этилмади ва муҳокама қилинмади. Ана шу натижалар чуқур таҳлил этилиши керак. Камчиликларимиз нимада эканлиги аниқланиб, аниқ чора – тадбирлар ишлаб чиқиш, керак бўлса Бошланғич таълим дастурига ўзгаришлар киритиш лозим. **Иккинчидан**, умумтаълим мактабларимиздаги Бошланғич таълим бўғини замон талабларига жавоб берадими? **PIRLS** халқаро баҳолаш талабларига мувофиқ бу тизимга киришни хоҳловчи мактаб маъмурияти сўровномаси орқали мактаб қуввати, жойлашуви, жиҳозланиши, таълимий ресурслар, мактабда ўқув жараёнининг ташкил этилиши, мактаб муҳити ўрганилиб, жаҳон андозалари қиёсида чуқур таҳлил этилади. Бунга тўлақонли жавоб берадиган Бошланғич мактабларимиз борми? **Учинчидан**, Бошланғич синф ўқитувчилари савияси ҳам сўровнома орқали аниқланади. Сўровномада ўқитувчилар ҳақидаги маълумотлар, мактабнинг жиҳозланиши, хавфсизлик, мактаб муҳити, ўқитиш усули, малака ошириш масалалари кенг қамровли таҳлил этилади ва ҳаққоний баҳо берилади. Бунга бошланғич синф ўқитувчилари тайёр бўлишлари керак. **Тўртинчидан**, ота-оналар сўровномасида ота-оналар ҳақидаги маълумотлар, оиладаги таълимий ресурслар, фарзандини мактабга тайёрлаш, мактабга қабул қилинишидан аввалги кўникма ва малакалари, ота-оналарнинг мактабга ва ўқишга муносабати танқидий ўрганилади ва бунга шаффоф баҳо берилади. Булар бежиз эмас, албатта. Чунки тадқиқотнинг 2016 йил натижаларига кўра, 50 та мамлакат ичида, Россия, Сингапур, Гонконг, Ирландия ва Финляндия мамлакатлари юқори натижаларни қайд этган бўлса, шулар орасида россиялик ва сингапурлик ўқувчилар матнни ўқиш ва тушуниш бўйича энг юқори натижаларни кўрсатганлар. Шунингдек, Россиянинг бошланғич синф ўқувчилари ушбу мезон бўйича дунёда етакчилик қилган. Шуниси ибратлики, мазкур давлатларда ўқиш саводхонлиги бўйича юқори натижалар қуйидаги омиллар билан боғлиқ бўлганлиги аниқланган: оиладаги китобхоналар ичида болалар учун мўлжалланган китобларнинг кўплиги, уйларда рақамли қурилмаларнинг мавжудлиги, ўқимишли ва зиёли ота-оналар, уларнинг китобга бўлган чексиз муҳаббати, ушбу оилалардаги болаларнинг мактабга боргунга қадар мактабгача таълим муассасаларида ўқиш-ёзишни ўрганганлиги. Шунини ҳам таъкидлаш жоизки, ушбу мамлакатларда болаларни мактабгача таълим муассасаларига қамраб олиш кўрсаткичи ниҳоятда юқори.

Бизларнинг биринчи навбатдаги вазифамиз юқорида тилга олганимиз муаммоларни тезда ҳал қилиш чора-тадбирларини кўришимиз ҳамда бошланғич мактабларимизнинг **PIRLS** халқаро баҳолаш тизимига қатнашиш кўрсаткичини юқори кўтаришимиз керак.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. <https://lex.uz/docs/-4097073>
2. Umumiy o'rtta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi boshlangich ta'lim (ona tili, o'qish, matematika, tabiyot, 1-4-sinf). Toshkent, 2017, 159- bet.
3. Umumiy o'rtta ta'limning Milliy o'quv dasturi. Ona tili (1-11-sinf). Toshkent, 2021.

**ХАЛҚАРО ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ТАЛАБАЛАР ФАОЛЛИГИНИ ОШИРИШ ВА БАҲОЛАШНИНГ ТАТБИҚ ЭТИЛИШИ**

**С. Мирзаев,**

Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш  
муҳандислари институти Миллий тадқиқот университети  
Бухоро табиий ресурсларни бошқариш институти

*Мақолада таълим жараёнида дарсларни ташкил этиши, интерфаол методлар асосида ўқитишнинг ўзига хос хусусиятлари талабалар фаоллигини ошириши ва баҳолаш тадқиқ этилган.*

**Калит сўзлар:** Индивидуал, ижодий қобилият, ахборот, таълим кўникма, малака, жараён, билим, компетенция, касбий маҳорат, субъект, фаол, ҳаракат, материал, парадигма, муаммо.

*В статье рассматривается организация занятий в учебном процессе, особенности преподавания на основе интерактивных методик, повышение и оценка активности учащихся.*

**Ключевые слова:** Индивидуал, творческая способность, информация, образовательный навык, квалификация, процесс, знания, вознаграждение, профессиональное мастерство, субъект, активный, действие, материал, парадигма, проблема.

*The article discusses the organization of classes in the educational process, the features of teaching based on interactive techniques, increasing and evaluating the activity of students.*

**Keywords:** Individual, creative ability, information, educational skill, qualification, process, knowledge, reward, professional skill, subject, active, action, material, paradigm, problem.

Янги парадигма таълим олувчиларда билим, кўникма ва малакаларни шакллантириш билан бир қаторда уларда компетентлик, ижодий қобилият, касбий маҳорат ва юксак маданиятни ривожлантиришни назарда тутди. Чунки бугунги кунда таълим жараёнида ёндашувлар ўзгарди, яъни таълим олувчи пассив объектдан фаол субъектга айланди. Демак, ўқув жараёни шундай ташкил этилиши керакки, унда таълим олувчи фаол ҳаракати орқали билим ва кўникмаларни мустақил ўзлаштириши, ижодий ишлаш қобилиятини доимо ривожлантириб боришга имконият яратиш керак. Бу эса таълим жараёнининг фаоллаштиришни талаб этади. Ўқув жараёнида таълим олувчиларни фаоллаштиришнинг асосий мақсади ўқитувчи томонидан берилган ўқув ахборотига таяниб, уларни мустақил билим олишга ўргатиш, материални мустақил ўзлаштириш ва ижодий қобилиятларини шакллантириш ва ривожлантиришдан иборатдир. Агар ушбу қобилиятлар шакллантирилмаса таълим олувчи имкониятлари рўёбга чиқмай қолади. Бу имкониятлар фақат замонавий ўқитиш технологияларини ва фаол усулларни қўллаш орқали таъминланади. Замонавий ўқитиш технологияларининг анъанавий ўқитиш технологияларидан фарқи шундаки, унда барча фаолиятлар шахсга йўналтирилади ва ўқув материали мустақил ўзлаштиришга қаратилади. Бу эса таълим жараёнини “таълим олувчи-ўқув адабиётлари ва воситалари-таълим берувчи” тартиботида амалга оширишни талаб этади. Ўқитувчи мустақил ишлаш учун топшириқ қўяди, таълим олувчи эса уни мустақил тарзда ўқув адабиётлари, воситалари ва бошқа таълим ресурсларидан фойдаланиб ўрганишга ҳаракат қилади. Бу замонавий ўқитиш технологиясининг асосий хусусиятидир. [1, 21 б.]; Бугунги кундаги жамиятдаги ўзгаришлар, яъни ахборотларнинг кун сайин янгилалиши, техника ва технологиялар ҳамда меҳнат бозорининг ўзгариши янги таълим парадигмасига олиб келди. Бу парадигма шахсга йўналтирилган таълимга асосланиб, келажакда мустақил ҳолда муаммоларни ҳал қиладиган, ижодий ишлайдиган ва эркин фикрлайдиган шахсни тарбиялашга йўналтирилган. Таълим олувчини мустақил билим олишга қизиқтириш орқали унда ўрганишга интилишни орттириш мумкин. Бу эса таълим олувчида ўзлаштирилаётган билим ва кўникмаларнинг нафақат бугунги ҳолатини ўрганиш, балки унинг келажакдаги ривожланишини ҳам билишга интилади. Ўқув материали эса чуқур ва мустақил эгалланади. Демак, мустақил ва ижодий изланувчи кадрларни тайёрлашда таълим олувчининг хоҳиш-истагини ва қизиқишни инобатга олиш муҳим ҳисобланади. Чунки шахсининг мустақил фикрлаши, шакллантириш ва ривожлантириш ўқув жараёнида қўлланиладиган таълим методлари ва воситалари орқали таълим олувчининг интилиши ва хоҳиши билан қиладиган ҳаракатларни фаоллаштириш орқали амалга

оширилади. Шунинг учун ҳам таълим олувчиларнинг билим олиш ва ўрганиш фаолиятини фаоллаштиришда ўқитувчи фаолияти муҳим аҳамиятга эга. [2, 32 б.]; Таълим олувчиларнинг мустақил ва эркин фикрлаш қобилиятларини ривожлантиришда ўқитувчининг педагогик маҳорати муҳим рол ўйнайди. Ўқитувчи қанчалик таълим олувчиларни фаоллаштириб ундаги ёқимли эмоционал таъсир кўрсата олса, янги ўқув материални ўзлаштириш жараёнида уларнинг фаолияти шунча фаоллашади. Шунинг билан таъкидлаш жоизки, ўқув мақсадига қафолатли эришиш учун билим, кўникма ва малакаларини шакллантириш жараёнининг ҳар бир даврида ўқитувчи таълим олувчининг мустақил фикр юритиш фаолиятини ташкил этади. Шунингдек, онглилик таълим олувчининг билимларини ва кўникмаларини мустақил бажариши ва унинг моҳиятини тушуниришда намоён бўлади. Онгли фикр юритиш таълим олувчининг фан бўйича ўқув мақсадларини, мазмуни ва ўзи бажариши лозим бўлган амалий ишлар, машқлар ва топшириқларнинг моҳиятини тушунишидир. Мустақил фикрловчи таълим олувчи берилган вазифа ёки топшириқни ўз вақтида ва аниқ бажаришга интилади. Таълим олувчиларни фаоллаштириш орқали уларнинг ижодкорлик қобилиятларини ривожлантириб борилади. Олий ўқув юртларида таълим жараёнида таълим олувчиларнинг мустақил ишлаш ва эркин фикрлаш қобилиятларини ривожлантириш ва ўқув жараёнини фаоллаштириш бугунги куннинг долзарб вазифаларидан ҳисобланади. [2, 43 б.]; Таълим олувчиларнинг фаол иштирокини таъминлайдиган замонавий ўқитиш технологиялари ва методларидан фойдаланиш муҳим аҳамиятга эга. Замонавий ўқитиш технологиялари ва методларини қўллаш орқали таълим жараёнида ижодий муҳитни ҳосил қилиш, таълим олувчиларни фаоллигини оширишга эришиш мумкин. Бу ерда ўқитувчи эса билимларни узатувчи эмас, балки таълим олувчиларнинг билим ва кўникмаларини мустақил ўзлаштирилишини ташкил қилди ва таълим жараёнининг маслаҳатчисига айланади. Таълим олувчиларда мустақил ва ижодий фикрлашни ривожлантириш учун интилади. Ижодий фикрлашни ривожлантиришнинг асосий йўлларида бири бу таълим олувчиларни мунозарали ва муаммоли саволларни ёки ижодий топшириқларни бажаришга жалб этиш, савол ва топшириқларнинг ечимларини мустақил излашга ва топишга ўргатишдан иборатдир. Фаол таълим методларидан максимал фойдаланиш орқали фанларининг ўқув мақсадларига таълим олувчиларнинг мустақил ўрганиш фаолиятини фаоллаштиришга ва таълим натижаларига самарали эришиш мумкин. [3, 34 б.]; Ўқитувчилар эса таълим олувчиларнинг мустақил билим олишга ва ўрганишга интилишларини доимо рағбатлантириб боришлари лозим. Таълим олувчи индивидуал яхши ишлайдими, ёки кичик гуруҳларда ишлашни ёқтирадими, бунинг ўқитувчи ҳам яхши билиши керак. Мустақил ва ижодий ишлаш учун савол, лойиҳа ва топшириқларни ишлаб чиқишда қуйидагиларга эътибор қилиш тавсия этилади:

1. Савол ва топшириқларда реал вазиятларга боғлиқ муаммолар акс эттирилиши керак;
2. Савол ва топшириқлар таълим олувчилар мустақил ва ижодий ишлаш фаолиятини турли йўллар билан ривожлантиришни кўзда тутати;
3. Савол ва топшириқлар мураккаблик даражаси таълим олувчиларни қабул қилиш имкониятига мос келиши.
4. Савол ва топшириқлар мазмунида акс эттирилган воқеалар, ҳодисалар ва жараёнлар ўртасидаги ўзаро алоқадорлик бўлиши керак;
5. Таълим олувчиларнинг ўзлаштириш имкониятига мос келиши керак;
6. Савол ва топшириқлар шундай қўйилиши керакки, таълим олувчи унга маълум бўлган тушунчалардан, у ҳали ўзлаштирилмаган янги тушунчани келтириб чиқариш имконини бериши керак;
7. Савол ва топшириқларни бажариш ёки ечимини қўллаш таълим олувчига маълум бўлмаган янги тушунчалар билан ўзаро таҳлил қилинади, ижодий фикрлаш асосида янги билимлар шаклланади.

Таълим олувчиларнинг савол ва топшириқларни ёки лойиҳаларни бажариш жараёнини ўқитувчи томонидан доимий назорат қилиб борилиши, маслаҳатлар бериб борилиши керак. Таълим олувчи ўқув материални босқичма-босқич бажариши ҳамда ечимини таҳлил қилиши натижасида умумий ўзлаштиради. Таълим олувчининг ижодий ва изланиш қобилиятларини ривожлантириб бориш учун савол ва топшириқлар мураккаблик даражасини ошириб бориш керак. Агар гуруҳда айрим таълим олувчилар дастлабки билим кўникмалар яхши ўзлаштирилган, айримлариники паст ёки ўртача даражаларда бўлса у ҳолда таълим жараёни кичик гуруҳларда ёки индивидуал шаклларда ташкил этилади. [4, 26 б.];

Индивидуал шакл асосан ижодий топшириқларни бажаришга йўналтирилади. Ҳар бир таълим олувчининг индивидуал хусусиятларини ўрганиши муҳим аҳамиятга эга бўлиб таълим

сифатини ошириш ва ҳар бир таълим олувчининг ижодий қобилиятларини ривожлантириш учун шароит яратади. Таълим олувчилар мустақил ва ижодий қобилиятларини ҳам дарсларда, ҳам дардан ташқарида ривожлантириб бориш мумкин. Бундай ривожланиш таълим олувчининг онгини ўсишига, ўқишга бўлган иштиёқининг ошишига имкон беради ва келажакда юқори малакали кадрни тарбиялашга кўмаклашади. Мустақил ва ижодий ишлаш жараёнида таълим олувчида жараёнлар ва ходисалар, объектлар ҳақида билимлар шаклланади, уларда ўқув материални чуқур ўрганиш, таҳлил қилиш ҳамда мустақил қарорлар қабул қилиш, назарий билимларни амалда қўллаш кўникмалари ривожланади. Таълим олувчиларни ўқув жараёнида фаоллаштириш учун уларнинг дастлабки билим даражаси, ўзлаштирган қўшимча ҳамда эгалланган назарий билимларни амалиётда қўллаш олиш малакаларни ўрганиш, таҳлил қилиш лозим. Чунки дастлабки билим ва кўникмаларни таҳлил қилмай туриб, таълим олувчиларни фаоллаштириш тўғрисида фикр юритиш қийин. Ана шу таҳлиллар асосида таълим методлари ва шакллари танлаб олинади.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Азизходжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат (ўқув қўлланма) . –Т., 2006.
2. Расулев А. А., Хайдаров М. М. Ўқитишнинг интерфаол методлари: Ўқув-услубий қўлланма. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2015.– 47 б.
3. Ҳамдамова М. Ёшларнинг интеллектуал салоҳиятини ривожлантириши механизмининг педагогик-психологик асослари (услубий тавсиялар), 2007.
4. Ҳодиев Б.Ў., Болтабаев М.Р. “Олий ўқув юртидаги тарбиявий ишларга психологик ёндашувлар”. -Т.: 2009.

## **XALQARO TADQIQOTLAR TAJRIBASIDA O'QUVCHILAR SAVODXONLIGINI BAHOLASH**

**N.T.Tosheva**

BuxDUPI Maktabgacha ta'lim  
kafedrasi mudiri, dotsenti

**Sh.SH.Murodova**

BuxDUPI 1-bosqich magistri

*O'qish savodxonligi – jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma tilning shakllarini idrok etish va amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir. Asosiy e'tibor, tushunishni namoyon qilishdan o'zlashtirilgan ma'lumotlarni qanday qilib yangi loyihalar va vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatlarini namoyon qilishga qaratilmoqda. O'qish darslarida o'quvchini qalban yuksak, ma'naviy boy qilib tarbiyalashda ajdodlarimiz yaratgan betakror asar durdonalaridan foydalangan holda bilim berish hamda odob-axloq qoidalariga o'rgatish muhim ahamiyatga ega.*

**Kalit so'zlar:** *innovatsion taraqqiyot, xalqaro mezon, o'qish savodxonlogi, xorijiy tajribalar, ta'lim sifatini baholash, pedagog kadrlarning malakasini oshirish, pedagogik kuzatuv, falsafaviy qarashlar, g'oyalar, ilovalar.*

*Reading literacy - is the ability to comprehend and apply forms of written language that are required and valued by society. The focus is on demonstrating the ability to apply the information learned in new projects and situations, rather than demonstrating understanding. The student's heart is high in reading lessons. It is important to educate and teach the rules of etiquette using the unique masterpieces created by our ancestors.*

**Keywords:** *innovative development, international criteria, reading literacy. Foreign experience, assessment of the quality of education, professional development of teachers, pedagogical observation, philosophical views, ideas, applications.*

*Читательская грамотность – это способность понимать и применять формы письменной речи, которые требуются и ценятся обществом. Основное внимание уделяется демонстрации способности применять полученные знания в новых проектах и ситуациях, а не демонстрации понимания. Важно обучать школьников правилам этикета, используя уникальные шедевры, созданные нашими предками, чтобы воспитать школьника бодрым, духовно богатым.*

**Ключевые слова:** *инновационное развитие, международные критерии, читательская грамотность, зарубежный опыт, оценка качества образования, повышение квалификации учителей, педагогическое наблюдение, философские взгляды, идеи, приложения.*

Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yoʻlida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari boʻlmish yoshlarni ijodiy gʻoyalari va ijodkorligini har tomonlama qoʻllab-quvvatlash, ularning bilim, koʻnikma va malakalarini shakllantirish hamda ilgʻor xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yoʻlda xalqaro tajribalarni oʻrganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yoʻnalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir.

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrning jamiyat oldiga qoʻyayotgan talablari kun sayin ortib bormoqda. Strategik maqsadlarga erishish yangi marralarni zabt etish rivojlangan davlatlar qatoridan oʻrin olish uchun mamlakatda bilimli tajribali va zamonaviy fikrlaydigan yuksak saviyali kadrlar mutaxassislarining oʻrni beqiyos. Buning zaminida inson kapitali sodda qilib aytganda inson uning salohiyatini kashf etish hamda uni maʼlum maqsadlarga erishish yoʻlida safarbar qilish kabi ulugʻvor vazifalar turadi.

Soʻnggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy oʻsish koʻrsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarida malakali kadrlar va yetuk mutaxassirlarga boʻlgan talabni yanada oshirmoqda. Bu oʻz-oʻzidan oʻquvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va oʻqituvchilarning har tomonlama taʼlim-tarbiyaga eʼtiborini kuchaytirishni talab etadi. Yuqoridagi talablarning taʼlim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi taʼlim va fan sohalarini rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali taʼlim sifatini oshirishga qaratilgan ilgʻor tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi. “Rivojlangan mamlakatlarda taʼlimning toʻliq sikliga investitsiya kiritishga, yaʼni bola 3 yoshdan 22 yoshgacha boʻlgan davrda uning tarbiyasiga sarmoya sarflashga katta eʼtibor beriladi. Chunki bu shu sarmoya jamiyatga 15-17 barobar miqdorda foyda keltiradi. Bizda esa bu koʻrsatkich 4 barobarni tashkil etadi. Inson kapitaliga eʼtiborni kuchaytirishimiz, buning uchun esa barcha imkoniyatlarni safarbar etishimiz shart” Shavkat Mirziyoyev Oʻzbekiston Respublikasi prezidenti. Taʼlim sifatini baholash xalqaro tadqiqotlarida ishtirok etish Oʻzbekistonga nima beradi? Xalqaro standartlar darajasida yuqori iqtisodiy samaraga asoslangan milliy baholash tizimini yaratish imkonini beradi. Oʻzbekistonda turli tashkilotlarning yetakchi mutaxassislarini jalb qilgan holda xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish orqali mahalliy mutaxassislarimizda monitoring tadqiqotlarini oʻtkazish madaniyati rivojlanadi, taʼlim sifatini baholashning xalqaro standartlarga moslashuviga olib keladi. Milliy taʼlim sifatini baholashdagi nazorat materiallarini xalqaro tadqiqotlarda qoʻllaniladigan nazorat materiallari sifatini darajasida ishlab chiqish imkonini beradi. Qanday xalqaro baholash dasturlari mavjud? PISA – oʻquvchilarni taʼlimiy yutuqlarini baholash xalqaro dasturi PIRLS – matnni oʻqish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot TIMSS – maktabda matematika va aniq fanlar sifatini tadqiq qiluvchi xalqaro monitoring ICILS - kompyuter va axborot savodxonligi boʻyicha xalqaro tadqiqot kabi bir qator xalqaro dasturlar mavjud boʻlib, ular rivojlangan davlatlardagi taʼlim sifatini yanada oshirishdagi mezon sifatida keng qoʻllanilmoqda.

Milliy taʼlim tizimini isloh qilish, taʼlim mazmunini, pedagog kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish dasturlarini takomillashtirish hamda mutaxassislar tomonidan darsliklarning yangi avlodini yaratishda qoʻllaniladi. Tadqiqotlarda olingan natijalar mamlakatdagi taʼlim sifati va uning xalqaro standartlarni hisobga olgan holda egallagan oʻrni toʻgʻrisida xulosalar chiqarish imkonini beradi. Xalqaro tadqiqotlar taʼlim sohasidagi milliy tadqiqotlarni sifatli oʻtkazishga ijobiy taʼsir koʻrsatadi. Xalqaro standartlar darajasida yuqori iqtisodiy samaraga asoslangan milliy baholash tizimini yaratish imkonini beradi.

Oʻzbekistonda turli tashkilotlarning yetakchi mutaxassislarini jalb qilgan holda xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish orqali mahalliy mutaxassislarimizda monitoring tadqiqotlarini oʻtkazish madaniyati rivojlanadi, taʼlim sifatini baholashning xalqaro standartlarga moslashuviga olib keladi.

Milliy taʼlim sifatini baholashdagi nazorat materiallarini xalqaro tadqiqotlarda qoʻllaniladigan nazorat materiallari sifatini darajasida ishlab chiqish imkonini beradi.

#### ***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI***

- 1. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq taʼlimi tizimida taʼlim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” 2018-yil 8-dekabrda 997-sonli qarori.*
- 2. “PISA-2018 Kompyuter format xalqaro tadqiqot vositalari”: Toʻplam – “Axborot-tahlil markazi” AQ. Astana. 2016-126 bet.*
- 3. "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - (3) III/2020 ISSN 2181-063X 237*  
<http://oac.dsmi-qf.uz>

4. *PISA 2012 Assessment and Analytical Framework (mathematics, reading, science, problem solving and financial literacy).*

3. *“PISA-2018 Kompyuter format xalqaro tadqiqot vositalari”: To‘plam – “Axborot-tahlil markazi” AQ. Astana. 2016-126 bet.*

4. *ttp://markaz.tdi.uz/- Ta’lim sifatini baholashda xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi*

## **O‘QUVCHILARNI TIMSS DASTURI BO‘YICHA TAYYORLASHNING AHAMIYATI VA TATBIQIY MASALALAR**

**A.Y. Alimov,**

Navoiy davlat pedagogika instituti

katta o‘qituvchisi

*Ushbu maqolada TIMSS xalqaro baholash dasturi mazmuni va boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matematik savodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirishga oid masalalar keltirilgan.*

**Tayanch so‘zlar:** *Ta’lim mazmuni, son, o‘lchov, geometriya, faktlar, baholash, dastur, kompetensiya, o‘quvchi, o‘qituvchi.*

*This article discusses the content of the TIMSS International Assessment Program and issues related to the development of mathematical literacy in elementary school students.*

**Keywords:** *Learning content, number, measurement, geometry, facts, assess, program, competence, student, teacher.*

*В данной статье обсуждается содержание Международной программа оценивания, как TIMSS и вопросы, связанные с развитием математической грамотности у учащихся начальной школы.*

**Ключевые слова:** *Содержание обучения, число, измерение, геометрия, факты, оценивать, программа, компетенция, ученик, учитель.*

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda 997-sonli “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asosida PIRLS, TIMSS, PISA va TALIS xalqaro tadqiqotlarini O‘zbekistonda joriy etilmoqda. Jumladan, TIMSS (Trends in International mathematics and science study) 4- va 8- sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan o‘zlashtirish darajasini baholash dasturi bo‘lib, bu tadqiqot to‘rt yilda bir marta o‘tkaziladi. Tadqiqotning har to‘rt yillik davriyligida uzluksiz ravishda ishtirok etish global miqyosda mamlakatimiz ta’lim tizimining samaradorligini kuzatib borish imkonini beradi. Ushbu TIMSS dasturi O‘zbekiston Respublikasi milliy baholash tizimini takomillashtirish, kompetensiyaviy baholash tizimini joriy qilish orqali ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, o‘quvchilarning o‘quv dasturi asosida egallagan bilim darajasi va sifatini solishtirish hamda milliy ta’lim tizimidagi farqlarni aniqlash bilan bir qatorda, qo‘shimcha ravishda maktablarda matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha berilayotgan ta’lim mazmuni, o‘quv jarayoni, ta’lim muassasasining imkoniyatlari, o‘qituvchilar salohiyati, o‘quvchilarning oilalari bilan bog‘liq quyidagi savollarga javob izlanadi:

1) O‘quvchilarning boshqa davlatlardagi tengdoshlariga nisbatan matematika va tabiiy fanlardan savodxonligi qanday darajada ekanligi?

2) Matematika va tabiiy fanlar o‘quvchilar uchun qiziqarli fanlar hisoblanadimi?

3) O‘quvchilarning matematika va tabiiy fanlarni o‘zlashtirishlarida oila tomonidan qanday hissa qo‘shilmoqda?

4) Mamlakatimizda matematika va tabiiy fanlarni o‘qitish jarayoni qanday tashkil etilgan?

5) Mamlakatimizda matematika va tabiiy fanlar o‘qitish jarayonining boshqa davlatlarga nisbatan o‘ziga xosligi nimalarda namoyon bo‘ladi?

6) Mamlakatimiz o‘qituvchilarining metodlari boshqa mamlakatlar o‘qituvchilari metodlaridan nimasi bilan farq qiladi?

Biz namuna sifatida TIMSS tadqiqot dasturi masalalarida ayrimlarini keltiramiz:

1. Kamola qutilarga tuxumlarni joylashtiradi. Har bir qutiga 6 donadan tuxum joylashtirish mumkin. Unda hammasi bo‘lib 94 dona tuxum bor. Hamma tuxumlarni joylashtirishi uchun unga eng kamida nechta quti kerak bo‘ladi?

Javob: \_\_\_\_\_

2. Anora va Dinora 560 zed(so`m) ni o`zaro bo`lishib olishdi. Agar Dinora barcha pulning  $\frac{3}{8}$  qismini olgan bo`lsa, Anorada qancha zed(so`m) pul qoladi?

Javob: \_\_\_\_\_

3.  $\frac{4}{14}$  va  $\frac{1}{2}$  kasrlar teng.  $\checkmark$  o`rniga qanday son qo`yiladi?  
**A) 6 B) 7 C) 11 D) 14**

4. Agar ketma-ket kelgan uchta butun sonlardan ikkinchisi  $2n$  ga teng bo`lsa, ularning yig`indisini qancha?

**A)  $6n+3$  B)  $6n$  C)  $6n-1$  D)  $6n-3$**

5. Ushbu  $(0,-1)$ ,  $(1,3)$  raqamlar juftligiga mos tenglamani toping?

**A)  $x + y = -1$  B)  $2x + y = 5$  C)  $3x - y = 0$  D)  $4x - y = 1$**

6. Bizga tenglik  $a+b=25$  berilgan bo`lsa,  $2a+2b+4$  ifodaning qiymatini toping.

Javob: \_\_\_\_\_

7. Do`konda oxirgi haftada sotilgan gazli suv o`rtacha miqdorining 50 foizini oddiy shisha idishlarda sotilgan suvni tashkil qildi. Unga ko`ra kichik oddiy shisha idishdagi gazli suvdan 40 % va katta oddiy shisha idishdagi gazli suvdan 10 % sotilgani ma`lum bo`ldi. Keyingi haftada sotuvchi 1200 dona shisha idishdagi gazli suv buyurtma qilishi kerak. Sotuvchi oddiy shisha idishdan qancha buyurtma qilishi kerak?

**A) 120 B) 480 C) 600 D) 720**

8. 36 sonini tub ko`paytuvchilarga ajrating?

**A)  $6 \cdot 6$  B)  $4 \cdot 9$  C)  $4 \cdot 3 \cdot 3$  D)  $2 \cdot 2 \cdot 3 \cdot 3$**

9. Agar  $t$  soni 6 va 9 sonlari orasida joylashgan bo`lsa, u holda  $t+5$  soni qaysi sonlar juftligi orasida joylashgan bo`ladi?

**A) 1 va 4 B) 10 va 13 C) 11 va 14 D) 30 va 45**

10. Quyidagilardan qaysi biri berilgan ifodaga ko`proq mos keladi?

**7,21 \* 3,86**

**10,09**

**A)  $\frac{7*3}{10}$  B)  $\frac{7*4}{10}$  C)  $\frac{7*3}{11}$  D)  $\frac{7*4}{11}$**

11. Qaysi son ga teng?  $\frac{3}{5}$

**A) 0,8 B) 0,6 C) 0,53 D) 0,35**

12. Ushbu  $3\frac{5}{6}$  son

ni o`nli kasr ko`rinishida yuzdan birlar xonasigacha yaxlitlab yozing.

Javob: \_\_\_\_\_

13. Qaysi kasr 0,125 ga teng kuchli?

**$\frac{125}{100}$  A)  $\frac{125}{1000}$  B)  $\frac{125}{10000}$  C)  $\frac{125}{100000}$  D)  $\frac{125}{1000000}$**

14. Qaysi son  $k$  soniga yaqinroq?  $k = \frac{3}{4}$

**A) 0,34 B) 0,43 C) 0,74 D) 0,79**

15. Yig`indini hisoblang:  $\frac{4}{100} + \frac{3}{1000}$

**A) 0,043 B) 0,1043 C) 0,403 D) 0,43**

16. Quyidagi ifodalarning qaysi biri berilgan ifodaga mos keladi?  $3p^2+2p+2p^2+p$

**A)  $8p$  B)  $8p^2$  C)  $5p^2+3p$  D)  $7p^2+3p$**

17. Agar  $a=3$  bo`lsa,  $a^2 - 6a + 36$  ifodaning qiymati nimaga teng?

**A) 58,5 B) 27 C) 22,5 D) 21**

18.  $xy+1$  ifoda nimani anglatadi?

**A) 1 va  $y$  ni qo`shib,  $x$  ga ko`paytirish B)  $x$  va  $y$  ni 1 ga ko`patirish**

**C)  $x$  va  $y$  ni qo`shib, keyin 1 ni qo`shish D)  $x$  va  $y$  ni ko`paytirib, keyin 1 ni qo`shish**

19.  $y = \frac{a+b}{c}$ ,  $a = 8$ ,  $b = 6$ ,  $c = 2$  bo`lsa,  $y$  ning qiymati nimaga teng?

**A) 7 B) 10 C) 11 D) 14**

20.  $k=7, L=10$ . Agar ga teng bo'lsa,  $P$  ning qiymatini toping.  $P = \frac{3kL}{5}$

Javob: \_\_\_\_\_

21. Tengsizlikni yeching:  $9x - 6 < 4x + 4$

Javob: \_\_\_\_\_

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ina V.S. Mullis, Michael O. Martin, TIMSS 2019 Assessment Frameworks. TIMSS & PIRLS International Study Center, Lynch School of Education, Boston College

2. A.A.Ismailov va boshqalar. Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning matematik savodxonligini baholash (Matematika fani o'qituvchilari, metodistlari va soha mutaxassislari uchun metodik qo'llanma). "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi– Toshkent, 2019-yil

## BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINI XALQARO BAHOLASH DASTURLARI ASOSIDA ISHLASHGA TAYYORLASH

Sh. Yo'ldosheva, TDPU dotsenti, p.f.n.

M. Hamrayev, TDPU dotsenti, f.f.n.

*Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini xalqaro baholash dasturlari asosida ishlashga tayyorlashda ona tilidan amaliy mashg'ulot darslarida qo'llanadigan innovatsion texnologiyalar va ularning nazariy bilimlarni amalda qo'llashga o'rgatishdagi ahamiyati, qo'llash metodikasi yoritilgan.*

**Kalit so'zlar.** PIRLS, PISA, TIMSS, motivatsiyalash, oliy ta'lim, boshlang'ich sinf, mavzu, Venn diagrammasi, "Blits" metodi, "Ha va y o'q" testi, til faktlari, yopiq test, fe'llarning yasalishi, metod.

*В данной статье описаны инновационные технологии, используемые на практических занятиях по родному языку при подготовке будущих учителей начальных классов к работе на основе международных оценочных программ, и их значение при обучении теоретическим знаниям на практике, методы применения.*

**Ключевые слова.** PIRLS, PISA, TIMSS, мотивация, высшее образование, начальная школа, тема, диаграмма Венна, Блиц-метод, языковые факты, закрытый тест, образование глагола, метод.

*This article describes innovative technologies used in practical classes in the native language in preparing future primary school teachers for work on the basis of international assessment programs, and their importance in teaching theoretical knowledge in practice, methods of application.*

**Keywords.** PIRLS, PISA, TIMSS, motivation, higher education, elementary school, topic, Venn diagram, Blitz, language facts, closed test, verb formation, method.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018- yil 8- dekabrda "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilingan edi. Respublikamizda o'quvchilar bilmini baholash xalqaro dasturlarining (PIRLS, PISA, TIMSS) joriy qilinishi milliy ta'lim tizimi sohasidagi katta yutuqlardan biri bo'ldi. O'quvchilarni mazkur dasturlar talablari asosida tayyorlash maqsadida "Milliy dastur" va u asosida darsliklar yaratilib amaliyotga joriy qilinmoqda.

Xalq ta'limi sohasidagi o'zgarishlar mutaxassislar tayyorlovchi oliy ta'lim o'quv me'yoriy hujjatlarida, ta'limni tashkil etish mazmuni va shakllarida yangilanishni taqozo etadi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari oliy ta'lim dargohida o'qishlari jarayonida o'quvchilar bilmini baholash xalqaro dasturlari PIRLS, PISA TIMSSning talablarni o'zlari bajara olishni va ayni vaqtda dastur mohiyati hamda talablarini o'quvchilarga singdirish, dastur asosida ishlash metod va usullarini ham o'rganadilar. Kuzatishlarimiz bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda oliy ta'limda ona tilidan amaliy mashg'ulotlarda innovatsion texnologiyalardan Venn diagrammasi, "Aqliy hujum", klaster, Blits, muammoli izlanish, taqdimot metodlari, turli shakldagi testlardan foydalanish talabalarning bilimlarni chuqur o'zlashtirishlarida, olgan bilimlarini amaliyotda qo'llashga o'rgatishda samarali natijalar berishini ko'rsatdi. Quyida innovatsion metodlarning ba'zilari haqida to'xtalib o'tamiz.

"Blits" metodi.

**Бошлангич таълимда халқаро баҳолаш тажрибаси: муаммо, ечимлар ва истиқболлар**

Bu metod talabalarda ma’lum bir faoliyat yoki tushunchalarning ketma-ketligi, uzluksizligi, bog’liqligi, bosqichma-bosqichligi hamda tartibini aniqlash malaka va ko’nikmalarini rivojlantirishda yordam beradi. Buning uchun pedagog tomonidan ma’lum ketma-ketligi mavjud bo’lgan faoliyat yoki tushunchaning o’rinlari almashtirilgan holda beriladi. Talabalar ushbu ketma-ketlikni topishi, tartibga keltirishi, o’z o’rniga qo’yib chiqishi lozim. Bu topshiriqda talabalar o’z javoblarini va guruhiy javobni berish imkoniyatiga ega bo’ladilar. Quyida “Sodda gap va uning turlari” mavzusiga oid Blits topshirig’idan namuna keltiramiz

№	Topshiriqlar	Tala ba javobi	To’g’-ri javob	Javoblar
1	G’alabani ishonch bilan zabt etdim.			Ikki bosh bo’lakli yoyiq gap.
2	Kurashsiz g’alabaga erishib bo’lmaydi.			Nominativ gap
3	Bahor keldi.			Infinitiv
4	Qimirlagan qir oshar.			Egasi topiladigan gap.
5	Birovni kutish. Bundan qiyin ish yo’q.			Ikki bosh bo’lakli gap
6	Birlashgan o’zar, birlashmagan to’zar.			Egasi topilmaydigan gap
7	Bahor. Dalalar yashil libos kiyib olgan.			Qo’shma gap.
8	Xalq buyuk murabbiydir.			Ikki bosh bo’lakli yig’iq gap.

“Ha va yo’q” testi. Test qanday shaklda, qanday ko’rinishda bo’lmasin, o’quvchilar va talabalar bilmini nazorat qilish, nazariy o’rganilgan mavzularni amalda qo’llay olish ko’nikma va malakalarni hosil qilishda eng qulay va eng maqbul variantlardan hisoblanadi. Ta’lim jarayonida o’rganilayotgan mavzuning xususiyatlarini hisobga olgan holda “Ha va yo’q” testidan ham foydalanamiz. Bu testning o’ziga xos tomoni shundaki, talaba olgan bilimlariga tayanib, til faktlarini analiz, sintez va umumlashtirish orqali ikki javodan birini tanlaydi. Bu kabi yopiq testlarini tashkil etishda kompyuter juda qulay vositadir. Quyida “Fe’llarning yasalishi” yuzasidan tashkil etilgan test namunasini keltiramiz.

№	Savollar	ha	yo’q
1	Fe’llar morfologik usulda yasaladimi?		
2	Fe’llar morfologik-sintaktik usulda yasaladimi?		
3	<b>-la</b> qo’shimchasi yordamida butun sondan fe’l yasaladimi?		
4	<b>-la</b> qo’shimchasi yordamida sondan fe’l yasaladimi?		
5	<b>-la</b> qo’shimchasi yordamida olmoshdan fe’l yasaladimi?		
6	<b>-la</b> qo’shimchasi yordamida o’zlik olmoshidan fe’l yasaladimi?		

“Venn diagrammasi” metodi.

“Venn diagrammasi” metoditalabalarda tizimli fikrlash, solishtirish, tahlil ko’nikmalarini rivojlantiradi. “Venn diagrammasi”-grafik ko’rinishda bo’lib ikki va undan ortiq til faktlarini tahlil qilish va o’rganishda qo’llaniladi.

Diagramma ikki va undan ortiq aylananing kesishmasidan hosil bo’ladi. Bu metoddan ayni bir mavzu doirasida yoki turli mavzularni o’rganishda foydalanish imkoniyatlari mavjud. Masalan, sifat so’z turkumi o’rganilganda “Sifatlarda daraja kategoriyasi” mavzusida “Venn diagrammasi” metodidan foydalanilsa, “Sifat va sifatdosh”, “Ravishdosh va ravish” mavzusida turli so’z turkumlari o’rganilgandan so’ng, “Leksikologiya” va “So’z tarkibi” mavzularida til faning ikki bo’limi o’rganilgandan so’ng foydalanish mumkin.

Bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilari dars berish metodikasini na faqat metodika darslarida, balki har bir darsda va har bir o’qituvchidan o’rganadilar. Ona tili amaliy mashg’ulot darslarida qo’llaniladigan turli innovatsion metodlar talabalarining kelgusi faoliyatlarida PIRLS, PISA dasturlari asosida ishlashlarida, o’quvchilarni imtihonlarga muvaffaqiyatli tayyorlashlarida katta ahamiyatga ega bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, PF-6108-son, 2020-yil 6-noyabr

2. Hamroyev M., Muhameova D., Shodmonqulova D., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh. Ona tili (darslik) Moliya- iqtisod, Toshkent, 2007-yil.

3. Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi, Toshkent, Noshir, 2009.

4. <https://baxtiyor.uz/yangi-pedagogik-texnologiya-metodlariga-qisqacha-tarif/>

## **BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLIGIDA MASHQLARGA XALQARO BAHOLASH DASTURI BO'YICHA YONDASHUV**

**M. R. Hamroyeva, BuxDU o'qituvchisi**

**Z. R. Homidova, BuxDU talabasi**

*Ushbu maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida xalqaro baholash dasturi bo'yicha yondashuv va uning ahamiyati haqida so'z yuritilgan. Bunda fikrlar darslikdagi mashqlar asosida izohlangan.*

**Kalit so'zlar:** ta'lim, PISA, PIRLS, TIMSS, ICILS, darslik, savodxonlik, mashq, kompetensiya, axborot, Anvar Obidjon.

So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassislariga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o'z-o'zidan o'quvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o'qituvchilarning har tomonlama ta'lim-tarbiyaga e'tiborini kuchaytirishni talab etadi.

Qayd etish lozimki, Prezidentimiz farmoni bilan "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" tasdiqlangan bo'lib, unda O'zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA xalqaro baholash dasturining reytingi bo'yicha jahonning birinchi o'ttizta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish ustuvor vazifa etib belgilangan edi. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori asosida dunyoda ta'lim sifatini baholash bo'yicha yetakchilik qilib kelayotgan xalqaro baholash dasturlari, jumladan, PISA va PIRLS dasturlarida ishtirok etishga kirishildi.



Xalqaro baholash dasturlarida muvaffaqiyatli ishtirok etish, bevosita ta'lim sifatini oshirish bilan bog'liqdir. Unda ishtirok etish, nafaqat O'zbekiston, balki, jahon hamjamiyatida o'quvchilarning o'quv dasturlarini yodda saqlab qolganligini baholashdan ularning kompetensiyalarini baholash, ya'ni maktabda egallagan bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olishi, ijodiy va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish va uni baholashga o'tishda muhim vosita bo'lib hisoblanadi.

O'zbekistonda turli tashkilotlarning yetakchi mutaxassislari jalb qilgan holda xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish orqali mahalliy mutaxassislarning monitoring tadqiqotlarini o'tkazish madaniyati rivojlanadi, ta'lim sifatini baholashning xalqaro standartlarga moslashuviga olib keladi.

Milliy ta'lim sifatini baholashdagi nazorat materiallarini xalqaro tadqiqotlarda qo'llaniladigan nazorat materiallari sifatida darajasida ishlab chiqish imkonini beradi.

PISA – o'quvchilarni ta'limiy yutuqlarini baholash xalqaro dasturi, PIRLS – matnni o'qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot, TIMSS – maktabda matematika va aniq fanlar sifatini tadqiq qiluvchi xalqaro monitoring, ICILS - kompyuter va axborot savodxonligi bo'yicha xalqaro tadqiqot kabi bir qator xalqaro dasturlar mavjud bo'lib, ular rivojlangan davlatlardagi ta'lim sifatini yanada oshirishdagi mezon sifatida keng qo'llanilmoqda.

Boshlang'ich ta'limda 3-sinf o'qish darsligi asosida Pirls test namunasiga quyidagilarni misol qilib keltirishimiz mumkin : „ So'nggi axborot “ Anvar Obidjon she'ri ( Bo'lib o'tti qishloqda kecha zo'r shamol.) Ushbu she'r nima haqida yozilgan.?



Ushbu topshiriqni bajarish uchun o'quvchi dastlab shu she'rni yodga olishi, she'r mazmuni va voqealar rivojini yodga olib, fikrlab javobni belgilashi talab etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat ramzlari berilgan qatorni ko'rsating?



O'zbekiston Respublikasi 2021-yilda 3 ta (o'qish savodxonligi, matematik savodxonlik, tabiiy-ilmii savodxonlik) yo'nalish bo'yicha ishtiroki etishi ko'zda tutilmoqda. Monitoring jarayoni uchun nazorat (testlar, yozma ishlar, so'rovnoma, og'zaki savollar, audio(video) materiallarini tayyorlashda ularning umumiy hajmiga nisbatan 20% gacha o'quvchilarning psixofiziologik xususiyatlariga mos keladigan, o'quv dasturi va darsliklardan tashqari, xalqaro tajribalarda (PISA, TIMSS va h.k.) qo'llanilgan materiallardan foydalanish mumkinligi belgilab qo'yilgan. Barcha imkoniyatlar yosh avlodning intellektual rivojlanishini ko'zlash maqsadida tashkil etilmoqda, zero, Yangi O'zbekistonning taqdiri salohiyatli yoshlar qo'lidadir.

## **BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING BILIMINI BAHOLASHDA XALQARO BAHOLASH TADQIQOTLARINING O'RNI** **Sh.T. Qayumova, GulDU doktoranti**

*Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilimini baholashda xalqaro baholash tadqiqotlarining o'rni, ta'lim tizimidagi ahamiyati va mazmuni yoritilgan*

**Kalit so'zlar.** TIMSS, PISA, PIRLS, TALIS, kompetensiya, o'quv dasturi, baholash mazmuni

*This article discusses the role, importance and content of international assessment research in the education system in assessing the knowledge of primary school students.*

**Keywords.** TIMSS, PISA, PIRLS, TALIS, competence, curriculum, assessment content

*В данной статье рассматриваются роль, значение и содержание международных оценочных исследований в системе образования при оценивании знаний учащихся начальных классов.*

**Ключевые слова.** TIMSS, PISA, PIRLS, TALIS, компетентность, учебная программа, содержание оценивания

Hozirgi vaqtda har bir insonning hayoti va kasbiy faoliyatida texnogen komponentning o'sishi kuzatilmoqda. Shuning uchun nafaqat kelajakdagi mutaxassisni, balki har bir maktab o'quvchisini to'laqonli matematik savodxonlik bo'yicha tayyorlashning ahamiyati ortib bormoqda. Matematikani o'qitishning maqsadlari ham kuchaytirilmoqda.

Ular matematikaning o'ziga xos jihatlariga, fanni o'rganishni va amaliy qo'llanilishini ham rivojlantiradigan shaxsiy xususiyatlariga mos kelishi kerak. Matematik savodxonlikni o'rganish doimiy e'tiborni, qat'iyatni, diqqatni jamlay olish qobiliyatini talab qiladi, ya'ni aqlni rivojlantirishda ham, xarakterni shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Chunki amaliy hayot uchun zarur bo'lgan hisoblash, geometrik tasvirlar, formulalar, funksiyalar, grafiklar, diagrammalar, jadvallar bilan bog'liq bilimlar uchun zarur bo'lgan materiallarni o'zlashtirish lozim. Demak, matematik savodxonlik – bu shaxsning turli hayotiy vaziyatlar (kontekstlar) va masalalar ustida matematik mulohaza yuritish, berilgan muammoni matematika yordamida ifodalay olish, muammoni yechishda matematikani qo'llay olish va olingan natijalardan muammoning yechimini talqin qilish va baholashda foydalana olish qobiliyatidir.

Kelajak egalarining zamonaviy bilim, intellektual salohiyat, ilmu ma'rifat, erkin fikr, ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish, jahonda e'tirof etilgan uslub va an'analarni qo'llash malakasiga ega bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Ta'lim tizimidagi islohotlar ana shu maqsadga qaratilgan bo'lib, xalqaro mezon asosida dunyoning yuksak taraqqiy etgan davlatlarida qo'llanayotgan va katta samara berayotgan ta'lim texnologiyalari, baholashning xalqaro talablariga muvofiq bo'lishiga qaratilmoqda. Dunyoning yuksak

taraqqiy etgan davlatlarida ta'lim sohasida baholashning PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS kabi xalqaro baholash dasturlari amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etilmoqda. Taraqqiyot odimlari bilan jahonga yuz tutayotgan mamlakatimizda ham ta'lim sohasida baholashning xalqaro mezonlari qo'llanilmoqda. Ma'lumki, ta'lim sifatini xalqaro standartlar asosida baholash orqali dunyo mamlakatlari bilan qiyosiy tahlillar olib borish maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2018 yil 8 dekabrda "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror qabul qilingan. Qarorda ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tashkil etilib, ta'lim sifatini belgilash bo'yicha qator xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etishi belgilangan. Qolaversa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonida inson kapitalini shakllantirishning asosiy bo'g'ini bo'lgan tizimda amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar va ularni hayotga tatbiq etish yo'llari atroflicha belgilab berildi. Jumladan, unda mamlakatimizning 2030 yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) - o'quvchilarning ta'lim sohasidagi yutuqlarini baholash bo'yicha xalqaro dastur reytingida jahonning 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish vazifasi qo'yilgan. Xalq ta'limida sodir bo'layotgan mazkur o'zgarishlar bevosita oliy ta'lim muassasalari bilan ham bog'liq bo'lib, maktab va oliy ta'lim muassasalari hamkorlik aloqalari yuksalishiga sabab bo'lmoqda.

PISA - o'quvchilarni ta'lim sohasidagi yutuqlarini baholash bo'yicha xalqaro dastur bo'lib, undagi test jahon davlatlaridagi maktab o'quvchilarining bilimi va ularni amaliyotda qo'llay olish mahoratini baholaydi. Dasturning asosiy maqsadi - 15 yoshli o'quvchilar ta'lim dargohida olayotan bilim va tajribalarini ijtimoiy munosabatlarda va inson faoliyatida uchraydigan turli xil hayotiy vazifalarni yechishda qanchalik foydalana olish qobiliyatini baholashdir. Ushbu sinov har uch yilda bir marotaba o'tkaziladi. Testda faqat 15 yoshdagi o'smirlar ishtirok etadi. Maktabdagi ta'lim sifatini monitoring qilishga qaratilgan PISA dasturi asosiy uch yo'nalishda: o'qish, matematika va ijtimoiy fanlar savodxonligi bo'yicha olib boriladi. Umuman olganda, PISA dasturi davlatlarning ta'lim sohasidagi siyosatiga sezilarli darajada ta'sir o'tkazadi. Har bir davlat o'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida o'zining ta'lim sohasidagi kuchli va kuchsiz tomonlarini xolisona aniqlab, boshqa davlatlarga nisbatan mavqeiini ko'radi hamda ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini takomillashtirishda o'z yo'nalishlarini va strategiyasini belgilab oladi.

PIRLS - tadqiqotida 50 dan ortiq davlatlar ishtirok etib kelmoqda. Mazkur xalqaro tadqiqotning maqsadi turli xil ta'lim tizimidan iborat bo'lgan davlatlardagi boshlang'ich maktab o'quvchilarining matnini o'qish va qabul qilish bo'yicha tayyorgarligi hamda o'quvchilarning har xil yutuqlarga erishishga sabab bo'luvchi ta'lim tizimidagi o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iborat. Albatta bunday tadqiqot xalq ta'limi sohasidagi ishchilar, olimlar, metodistlar, o'qituvchilar, ota-onalar va jamoat vakillari uchun katta ahamiyatga egadir.

TMSS - ham jahon mamlakatlari ta'lim tizimida keng tadbiq etilmoqda. TMSS dasturi Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi IEA (International Association for the Evaluation of Educational Achievements) tomonidan tashkil etilgan bo'lib, ushbu tadqiqot 4 va 8 sinf o'quvchilari orasida matematika va ijtimoiy fanlar bo'yicha ta'limning sifati, darajasi, fanga bo'lgan munosabati, qiziqishini aniqlaydi. Har 4 yilda bir marotaba olib boriladi.

Ushbu tadqiqot PIRLS tadqiqotiga o'xshab, o'quvchilar, maktab ma'muriyati va o'qituvchilari orasida qo'shimcha so'rovnomalar o'tkazadi va fan sohasida to'stinlik qilayotgan asosiy omillarni aniqlaydi. Bu esa o'sha mamlakatda ishlab chiqilgan ta'lim standartlarini va ta'lim samaradorligini boshqa davlatlar bilan solishtirib ko'rish imkonini beradi. Shu paytga qadar TMSS tadqiqotlari natijalariga ko'ra AQSh, Singapur, Gonkong, Koreya Respublikasi, Yaponiya, Rossiya, Buyuk Britaniya kabi davlatlarning ta'lim tizimi eng yuqori ko'rsatkichlarni egallagan. Ta'kidlash lozimki, ayni shu davlatlarda yuqori texnologiyalarni o'zlashtirish, sanoatlashtirish va yuksak darajadagi taraqqiyot erishish maqsadida aniq fanlarni yuqori darajada o'zlashtirishga alohida e'tibor qaratilib, unda o'quvchilar tug'ma iste'dod va qobiliyatlardan ko'ra o'z ustida doimiy ishlash hamda aniq fanlarni o'qitishda guruh yoki sinfdagi o'quvchilar sonining 16 nafardan oshmasligi belgilangan. Bunday tajriba AQShda ham mavjud bo'lib, 1999 yildan boshlab bitta o'qituvchi 40 minutlik dars mashg'uloti davomida 16 ta bolaga bilim va tarbiya bera olish imkoniyatiga ega ekanligi inobatga olgan holda prezident qarori bilan ta'lim muassasalaridagi guruhlarda o'quvchilar soni 16 nafar etib belgilangan.

Umuman olganda mamlakatimizda aynan mana shunday xalqaro dasturlarning ta'lim tizimini baholash va monitoring qilishdagi ishtiroki mavjud emasligi yoki o'quvchi yoshlar bilimlari darajasini baholash yoki monitoring qilishning —Milliy dasturil yaratilmaganligi, hududlar kesimida yoshlar tomonidan u yoki bu fanni o'zlashtirish darajasining sifati va soxada amalga oshirilishi lozim bo'lgan

ishlar ko'lamini belgilab borish va tegishli islohotlar o'tkazish imkoniyatini cheklab qo'yimoqda. Shuningdek, boshlang'ich va umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi o'qitish darajasining islohotlar tempidan ortda qolayotganligi yaqin kelajakda malakali kadrlar tanqisligini keltirib chiqaradi. Shuni inobatga olgan holda quyidagi takliflarni amalga oshirish joiz deb hisoblaymiz:

1. Xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda o'quvchilar uchun TIMSS olimpiadalari joriy qilish;
2. Xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda o'quvchi yoshlar bilimlari darajasini baholash yoki monitoring qilishning eTIMSS, ePIRLS deb nomlangan platformalarini yaratish;
3. Ilm-fan yutuqlarining eng ilg'or natijalari va adabiyotlarning ingliz tilida nashr qilinishini inobatga olgan holda, maktablarda ingliz tilini o'rgatuvchi turli xorijiy dasturlarni tadbiq etish masalasini ko'rib chiqish;
4. Maktabgacha ta'lim hamda umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi guruh va sinflarda xalqaro tajribada sinalgan usullardan kelib chiqqan holda o'quvchilar sonining maksimal hamda minimal ko'rsatkichlarini belgilab qo'yish;
5. Maktab dars jadvaliga Xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko'rish uchun alohida dars soati qo'shilib, o'quvchilarni tayyorlash;
6. Malaka oshirish insitutlarida o'qituvchilarni xalqaro tadqiqotlar bo'yicha malakaga ega bo'lishlari uchun malaka oshirish kurslarini joriy etish;

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Akiba, M., LeTendre, G.K., & Scribnyer, J.P. (2007). Teacher quality, opportunity gap, and national achievement in 46 countries. *Educational Researcher*, 36(7), 369–387.
2. Andyers, Y., Rossbach, H.G., Weinyert, S., Ebyert, S., Kugyer, S., Lehl, S., & von Maurice, J. (2012). Home and preschool learning environments and their relations to the development of early numeracy skills. *Early Childhood Research Quarterly*, 27(2), 231–244.
3. Barrows, S., Petyerson, P.E., & West, M.R. (2017). What do parents think of their children's schools? *Education Next*, Spring 2017, pp. 8-17.
4. Baomyert, J., Kuntyer, M., Blum, W., Brunnyer, M., Voss, T., Jordan, A., & Tsai, Y.-M. (2010). Teachers' mathematical knowledge, cognitive activation in the classroom, and student progress. *American Educational Research Journal*, 47(1), 133–180.

### БОШЛАНГИЧ ТАЪЛИМДА ХАЛҚАРО БАҲОЛАШНИ ТАТБИҚ ЭТИШДА КИТОБХОНЛИК МАДАНИЯТИНИНГ ЎРНИ

**С.И.Холматова,**

Ўзбекистон республикаси олий ва  
ўрта махсус таълим вазирлиги хузуридаги  
Бош илмий методик марказ  
мустақил татқиқотчиси

*Ушбу мақолада бошлангич синф ўқувчиларининг маънавий-интеллектуал даражасини ривожлантиришида халқаро баҳолаш талабларидан келиб чиқиб ўқувчиларда китобхонлик маданиятини шакллантиришининг интенсив шакл ва методларини амалиётга тадбиқ этиш ҳақида фикр юритилган.*

**Таянч сўзлар:** халқаро баҳолаш дартури, PIRLS тадқиқотлари, маънавий-интеллектуал даража, китобхонлик маданияти, халқаро талаблар, стандартлар.

*В данной статье рассматривается внедрение интенсивных форм и методов формирования культуры чтения у учащихся, исходя из требований международного оценивания в развитии духовно-интеллектуального уровня учащихся начальных классов.*

**Ключевые слова:** международная программа оценки, исследование PIRLS, духовно-интеллектуальный уровень, культура чтения, международные требования, стандарты.

*This article discusses the implementation of intensive forms and methods of forming a culture of reading in students, based on the requirements of international assessment in the development of the spiritual and intellectual level of primary school students.*

**Keywords:** international evaluation program, PIRLS research, spiritual-intellectual level, reading culture, international requirements, standards.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 8 декабрдаги “Халқ таълими тизимида таълим сифатини баҳолаш соҳасида халқаро тадқиқотларни ташкил этиш тўғрисида”ги 997-сонли қарори қабул қилинди. Қарорга мувофиқ қуйидаги халқаро баҳолаш дастурлари PIRLS

(инглизча – Progress in International Reading Literacy Study – матнни ўқиш ва тушуниш даражасини аниқловчи халқаро тадқиқот)да бошланғич синф ўқувчиларининг матнни ўқиш ва қабул қилиш ҳамда уларнинг ютуқлари, турли таълим тизимларида инновацион жараёнларни ўрганиш, таҳлил қилиш ва баҳолаш мақсад қилиб олинган. Бу халқаро баҳолаш дастури- бошланғич таълимда ўқиш ва ўқитишни яхшилаш ва мактабдан ташқарида таълим олишни, маълумотга эга бўлиш ва ўз ҳаётий тажрибасида фойдаланиш кўникмаларини баҳолашни ўз ичига қамраб олади. Маълумки, PIRLS тадқиқотлари Халқаро таълим институтлари ассоциацияси (IEA) (International Association for the Evaluation of Educational Achievement) томонидан мувофиқлаштирилади ва таълим ютуқларини баҳолаш халқаро ассоциацияси томонидан ташкил этилади.

Ушбу дастурда ўқиш саводхонлигининг кўплаб ўқиш назарияларини ўз ичига қамраб олган бўлиб, ўқувчининг матн билан ишлаш жараёнида конструктив ва интерактив мулоқот асосида матн устида мушоҳада юритиш, ўқиш кўникмалари онгли равишда амалга ошириш кўзда тутилган. Бунда кенг қамровли жараён анъанавий китоблар, журналлар, ҳужжатлар ва газеталар, шунингдек, синфда ва синфдан ташқари ўқиш мақсадига қаратилган. PIRLS ўқиш мақсадларининг ҳар бирида тўртта кенг тушуниш жараёнини бирлаштиради: *диққатни жамлаш ва аниқ кўрсатилган маълумотларни топиш, тўғридан тўғри хулосалар чиқариш, ғоялар ва ахборотни талқин қилиш ва уйғунлаштириш, контент ва матн элементларини баҳолаш ва танқид қилиш*. Матнлар PIRLS дастурида мураккаблигига қараб, ўртача 500 дан 800 тагача, ўқувчиларининг ўқиш саводхонлиги даражаси паст бўлган мамлакатлар учун 400–500 та, PIRLSда эса, тахминан, 1000 та сўздан иборат бўлиб, танланган матнлар учун аниқлик ва изчиллик муҳим мезон ҳисобланади.

Халқаро дастурларда иштирок этиш ёш авлоднинг интеллектуал-маънавий даражасини аниқлаш, шу орқали натижа ва самарадорликнинг янги йўналишларини белгилаб олишга имконият яратса, миллий баҳолаш тизимининг янада такомиллаштириш халқаро баҳолаш дастурларида муваффақиятли иштирок этишини таъминлаш билан бирга уларнинг креативлигини ва компетентлигини ва ўз навбатида таълим сифатини янада ривожланишига хизмат қилади. Ушбу халқаро баҳолаш дастури бошланғич синф ўқувчисини ўйлантиришга, фикрлай олиш доирасини кенгайтиришда, яъни интеллектуал-маънавий салоҳиятини ривожлантириш йўналтирилган экан, бошланғич синфларда китобхонлик маданиятини шакллантириш муҳим аҳамиятга эга. Бошланғич синф ўқувчиларининг интеллектуал-маънавий даражасини ривожланишида китобхонлик маданиятини шакллантириш масаласи халқаро баҳолаш дастурини (PIRLS) амалиётга қўллаш ва юқори самарадорликка эришишнинг асосий муҳим омилдир. Бошланғич синф ўқувчиларининг маънавий-интеллектуал даражасини ривожлантириш, китобхонлик маданиятини оптимал-интенсив шакл ва методларини танлаш, замонавий ахборот ресурсларидан мақсадли фойдаланиш ўқувчиларнинг муаммоларни ҳал этиш қобилиятини ривожлантириш, компонентлар, тушунчалар, кўникмалар, жараёнларни ўрганиш ва баҳолаш йўналишларини таъминлаб беришда муҳим аҳамият касб этади.

Бошланғич синф ўқувчиларнинг маънавий-интеллектуал даражасини ривожлантиришда китобхонлик маданиятини шакллантириш эҳтиёжини англаган ҳолда педагогик имкониятлардан фойдаланиши мақсадга мувофиқдир. Шу жумладан, бошланғич синф ўқувчиларининг ўқиш маданиятини халқаро баҳолаш дастури (PIRLS) асосида баҳолашда уларда китобхонлик маданиятини шакллантиришда куйидагиларга эътибор қаратиш лозим:

➤ бошланғич синф ўқувчиларнинг интеллектуал-маънавий даражасини халаро дастур (PIRLS) асосида баҳолашга тайёрлашда китобхонлик маданиятини ривожлантиришнинг оптимал-интенсив шакл ва методларидан фойдаланиш;

➤ бошланғич синф ўқувчиларнинг интеллектуал-маънавий даражасини ривожлантиришнинг учта ўзаро боғлиқ компонентлари- тушунчалар, кўникмалар, жараёнларни ўрганиш ва таҳлил қилиш;

➤ бошланғич синф ўқувчиларининг халаро дастур (PIRLS) мезонларини бажаришда рақамли таълим технологияларидан фойдаланиш;

➤ бошланғич синф ўқувчиларнинг китобхонлик маданиятини шакллантириш орқали ўз навбатида таълим сифат-самарадорлиги янада такомиллаштиришга эришиш;

➤ бошланғич синф ўқувчиларининг китобхонлик маданиятини шакллантириш асосида халқаро дастур (PIRLS) га иштирок этиш ва ижобий натижаларни қўлга киритиш;

➤ бошланғич синф ўқувчиларининг китобхонлик маданиятини шакллантириш халқаро баҳолаш дастурлари (PIRLS) да муваффақиятли ўринларни эгаллашга хизмат қилади.

Демак, бошланғич таълимда халқаро баҳолаш дастурлари асосида бошланғич синф ўқувчиларининг интеллектуал-маънавий даражасини аниқлаш, балки уларнинг таълим мазмунини ўзлаштиришлари учун инновацион ўқитиш усуллари тadbик этиш орқали умумэтироф қилинган халқаро талаблар ва стандартларга муносиб бўлишларини таъминлашдан иборатдир.

#### **ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР**

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 8 декабрдаги “Халқ таълими тизимида таълим сифатини баҳолаш соҳасида халқаро тadbикотларни тashкил этиш тўғрисида”ги 997-сонли қарори.

2. Исмоилов А ва бошқалар *Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash (Ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo'llanma)*. Т.: Шарк, 2019. 92 б.

3. Международное исследование «Изучение качества чтения и понимания текста» PIRLS 2001. Институт стратегии развития образования, Российской академии образования Центр оценки качества образования. Тетрадь 1.

4. Рустамова Н.Р Умумий ўрта таълим мактаблари бошланғич ва юқори синф ўқувчилари медиамаданиятини шакллантиришнинг муҳим йўналишлари // Мактаб ва ҳаёт. – Тошкент, 2017. – №3. – Б. 25-28.

### **XALQARO TADQIQOTLARDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING O'QISH SAVODXONLIGINI BAHOLASH**

**Adizova Nodira Baxtiyorovna**

Buxoro davlat universitetining

Pedagogika instituti dotsenti,

**Hasanova Mingjamol Husniddin qizi**

BuxDU Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim

fakulteti 4-kurs talabasi

*Ushbu maqolada jahon tajribalariga tayangan holda PIRLS xalqaro baholash dasturida mamlakatimiz boshlang'ich sinf o'quvchilarining ishtiroki va ularning o'qish savodxonligini baholash haqida fikr yuritilgan.*

**Tayanch so'zlar:** *PIRLS, tadqiqot, xalqaro baholash, ta'lim, jahon tajribalari, ta'lim sifati, o'qituvchi, o'quvchi, o'qib tushunish ko'nikmasi.*

Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarida malakali kadrlar va yetuk mutaxassilarga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o'z-o'zidan o'quvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o'qituvchilarning har tomonlama ta'lim- tarbiyaga e'tiborini kuchaytirishni talab etadi.

Yuqoridagi talablarning ta'lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta'lim va fan sohalarini rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta'lim sifati oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi. Ta'lim sifati va samaradorligini oshirish yo'lida xorijiy ilg'or tajribalarni o'rganish, xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimiz o'quvchilari xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etishi ham yurtimizda ta'lim sifati oshirishga qaratilgan muhim jarayon hisoblanadi.

O'tgan 2021- yilda o'tkazilgan PIRLS xalqaro baholash dasturida 70 ga yaqin davlatlar qatorida mamlakatimizdagi boshlang'ich sinf o'quvchilari ham ilk marotaba ishtirok etdi. Har besh yilda o'tkaziladigan PIRLS dasturi 4-sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmasini xalqaro darajada baholaydi. O'quvchilarning erishgan yutuqlarini baholash barcha o'quvchilardan emas, balki ushbu qatlam vakillari sifatida tanlab olingan o'quvchilardan ob'ektiv testlarni o'tkazish orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, maktab direktorlari, o'qituvchilar, o'quvchilar, hattoki ota-onalardan so'rovnomalar o'tkazilib, ta'lim sifati ta'sir etuvchi omillarga doir qimmatli ma'lumotlar to'planadi.

PIRLS xalqaro tadqiqoti boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o'qish va o'qitishni yaxshilashda ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga xizmat qilishi mumkin bo'lgan tahlillarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturi hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda PIRLS ta'rifi ko'ra, o'qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyati hamdir.

O'quvchi bu jarayonning faol qatnashuvchisi bo'lib, ma'no yaratadi, matn ustida mushohada yuritadi va samarali o'qish strategiyalarini ongli ravishda tanlab qo'llaydi. Har bir matn turi odatiy shakl va qoidalarga amal qilgan holda o'quvchiga matnni sharhlashga yordam beradi. Har qanday matn turli shaklga ega bo'lishi mumkin. Bular an'anaviy kitoblar, jurnallar, hujjatlar va gazetalar, shuningdek, raqamli ko'rinishdagi yozma shakllarni ham o'z ichiga oladi.

PIRLS boshlang'ich sinf o'quvchilarining sinf va sinfdan tashqari o'qishini baholashda ikkita keng qamrovli maqsadga, ya'ni "badiiy tajriba orttirish", "axborotni olish va undan foydalanish"ga qaratiladi.

Tadqiqotdagi matnlar murakkabligiga ko'ra, o'rtacha 500 dan 800 tagacha, o'quvchilarning o'qish savodxonligi darajasi past bo'lgan mamlakatlar uchun 400–500 ta so'zdan iborat bo'ladi. Matnning mazmuni 9-10 yoshdagi o'quvchilarga mos, ayrim madaniyatlarga juda xos bo'lgan mavzulardan chetlashgan, shuningdek, qiziqarli hamda o'quvchiga unchalik tanish bo'lmaydi.

PIRLS tadqiqotida o'qish savodxonligining darajalari quyidagicha tavsiflanadi: Eng yuqori daraja (625 ball va undan yuqori) – O'quvchilar matnni yaxlit o'zlashtira oladi va ayni paytda uning alohida qismlarini bir-biri bilan bog'liq holda tushunadi. Muallifning g'oyasini izohlashda o'z fikrini asoslash uchun matnga tayana oladi.

Yuqori daraja (550 ball) – O'quvchilar matnning ahamiyatli xabarlarini tushunadi, matnga asoslanib o'z xulosalarini chiqaradi, matn mazmuniga ham, shakliga ham baho bera oladi, uning ayrim til xususiyatlariga e'tibor qarata oladi.

O'rta daraja (475 ball) – O'quvchilar matndan axborot topa oladi, matn shakli va tilining ba'zi xususiyatlaridan foydalanib, matnga asosan o'z xulosalarini chiqaradi.

Quyi daraja (400 ball) – O'quvchilar matnda aniq berilgan va cheklash oson bo'lgan xabarni ajratib oladi.

Bundan tashqari tadqiqot jarayonida quyidagi so'rovnomalar ham olinad:

- O'quvchilar so'rovnomasi;
- O'qituvchilar so'rovnomasi;
- Ota-onalar so'rovnomasi;
- Maktab ma'muriyati so'rovnomasi;

PIRLS tadqiqotida yetakchi bo'lgan davlat o'quvchilarining bilim darajasi yuqori bo'lishining sababi o'rganilganda ularning uyida kitoblar va raqamli qurilmalarning mavjudligi, ziyoli ota-onalar va ularning kitobga bo'lgan muhabbati, bola maktabga borgunga qadar o'qish-yozishni o'rganganligi hamda maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olish ko'rsatkichining yuqoriligi qayd etilgan.

PIRLS tadqiqotida O'zbekiston Respublikasining ishtirok etishi ta'lim sifatini oshirish, xalqaro miqyosda mamlakat nufuzini mustahkamlash bilan birga, o'quvchilar bilimini xalqaro talablar darajasiga olib chiqishga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Bakhtiyorovna, Adizova Nigora, and Adizova Nodira Bakhtiyorovna. "The role of the fun genre in children's spiritual development." Middle European Scientific Bulletin 4 (2020): 38-40.
2. Rakhmonovich, Adizov Bakhtiyor, and Adizova Nodira Bakhtiyorovna. "Microtoponyms formed on Different bases in Bukhara District." Middle European Scientific Bulletin 10 (2021).
3. Bakhtiyorovna, Nodira Adizova. "Place Names and Related Concepts Study." European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630) 14 (2022): 153-157.
4. Rakhmonovich, Adizov Bakhtiyor, and Nodira Adizova Bakhtiyorovna. "LINGUISTIC CLASSIFICATION OF TOPONYMS OF BUKHARA DISTRICT." Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL) 2.09 (2021): 1-7.
5. K. Qosimova va b. Ona tili oqitish metodikasi. – T.: Noshir. 2009.
6. S. Matchonov. Adabiyot darslarida tahlil va talqin uygunligi. Til va adabiyot talimi. 7- son, 2020.
8. H. Bakiyeva. 4- sinf oqish darslarida adabiy tahlil konikmalarini shakllantirish. –T.: Nodirabegim. 2021.
9. S. Matchonov va b. 4-sinflarda oqish darslari. –T.: Yangi yol poligraf servis. 2007.

**4-SINF “ONA TILI” DARSLARIDA GAP BO'LAKLARINI O'QITISHNING ROLI VA XALQARO BAHOLASH DASTURLARIDAGI AHAMIYATI**

**M.B.Aliyeva,**

**Buxoro shahar 26-maktab o'qituvchisi**

*Ushbu maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida gap bo'laklarini o'qitish va xalqaro baholash dasturlari haqida mulohazalar yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *shaxs, gap, uyushiq bo'lak, gap bo'lagi, nutq, so'z, matn*

*В данной статье обсуждаются программы обучения предложениям и международные оценочные программы на уроках родного языка в начальной школе*

**Ключевые слова:** *лицо, предложение, связная речь, часть речи, слово, текст*

*This article discusses parts of speech and international assessment programs in elementary school native language classes.*

**Keywords:** *person,*

*sentence, cohesive part, part of speech, speech, word, text*

Jamiyatimizda aholi o'rtasida til o'rganishga ehtiyoj kundan kunga oshib boryapti. Dunyoning ko'pgina tillarini o'rganish yaxshi albatta. Biroq, inson eng avvalo o'z fikrini o'z ona tilida chiroyli bayon eta olishi dolzarb masala. Bu esa boshlang'ich va o'rta ta'lim davridagi ona tili darslarida o'quvchi faoliyatini tashkil etishning sifat darajasi bilan chambarchas bog'liq. Boshlang'ich sinf ona tili darsliklarida o'quvchilar ona tilining sir-asrorlarini hamda insonlarga munosabatni, atrofda bo'layotgan voqea-hodisalarni o'z nutqida ifoda etishni o'rganadi. Shularni hisobga olgan holda har bir o'quv yili boshida o'quvchi yoshiga, uning psixofiziologik xususiyatlariga moslab darslik hamda o'quv reja tuziladi.

Gap bo'laklarini o'rgatish jarayonida hozirgi zamonga mos holda, xalqaro baholash dasturlari talablari doirasida ish olib borish lozim. Ushbu baholash dasturi 4-sinflarga ham PIRLS dasturi ( PROGRESS IN INTERNATIONAL READING LITERACY STUDY- boshlang'ich sinf o'quvchilarini matnni o'qish va tushunish savodxonligi sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqot dasturi) bo'yicha boshqa mamlakatlardagi tengdoshlariga nisbatan matnni o'qish va tushunish darajalarini solishtirish imkonini beradi. Ilk bora 2001-yilda o'tkazilgan (35 mamlakat) tadqiqot har 5 yilda bir marotaba o'tkaziladi. Shundan so'ng bu dasturning ishtirokchi mamlakatlari soni oshib borgan. 2006-yilda 40 mamlakat, 2011- yilda 45 mamlakat, 2016-yilda 50 mamlakat ishtirok etgan. Tadqiqotning doimiy ishtirok etuvchi davlatlarida shuni sezish mumkinki, o'quvchilarning o'qish savodxonligi bo'yicha natijalari yaxshilanmoqda.

Bugungi kunda bizning mamlakatimizda ham o'qish savodxonligiga katta e'tibor berilayotganligi bevosita ona tili darslarining ham sifatli hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda va ona tili bilan o'qish fani integratsiyalashgan holda o'tilayotganligi xalqaro tadqiqotda yaxshi natijalar ko'rsatishiga muhim omil bo'lib xizmat qilishi kerak, albatta. Matn mazmunini qayta hikoya qilishda uning ayrim so'zlarini eslab qolish muhim ahamiyatga ega. Bunda tilimizning yanada ma'nodorligi, gaplardagi bosh bo'laklar hamda ikkinchi darajali bo'laklarning qay tarzda qo'llanganini bilish uchun ular haqida biroz bo'lsa-da ma'lumotga ega bo'lishi lozim. “Gap bo'laklari” bo'limidagi mavzularga yanada ko'proq soat ajratib, ikkinchi darajali bo'laklarning turlarini ham aytib o'tish lozimligini, qanday kelishik qo'shimchalari bilan qo'llanishiga qarab, qaysi so'roqlarga javob bo'lishiga qarab ikkinchi darajali bo'laklarni aniqlash lozimligini taklif bildirmoqchiman. Chunki 4-sinf o'quvchisi gap bo'laklari mavzusidan so'ng, uyushiq bo'lakli gaplar mavzusini o'rganadi. Uyushiq bosh bo'laklar, ya'ni ega va kesimning uyushib kelishi haqida ma'lumot biroz to'liq o'rganiladi. Aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol kabi bo'laklar uyushganda ikkinchi darajali bo'laklar uyushgan, deyiladi xolos. Ikkinchi darajali bo'laklarning nomlanishini, so'roqlarini ham aytib o'tish va darslikka ham qoida asosida kiritish lozim deb o'ylayman. Chunki o'quvchilar ko'proq qoida asosida o'rgansa, so'ng qoidani mashqlar asosida tahlil qilsa, shunga asosan o'zi ham hajman kichik bo'lsa-da, ijodiy matnlar yaratib borsa, ikkinchi darajali bo'laklar, ya'ni aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol haqida ham yoshiga mos holda ma'lumotga ega bo'lib borsa fikrlash qobiliyati yana ham rivojlanib boradi deb o'ylayman hamda xalqaro baholash dasturlari topshiriqlariga tayyor bo'lib boradi. Dasturlarning test va topshiriqlari o'quvchilarda o'qilgan matnning har bir so'ziga diqqat bilan e'tibor berishni va eslab qolish lozimligini, har qanaqasiga savollar qo'yilganda ham to'g'ri javobni topa olish qobiliyatini namoyon qilishni talab etadi. O'quvchi ona tilidan so'z turkumlari hamda gap bo'laklari haqida tushunchaga ega bo'lsagina, qahramonlarning qanday esda qolarli sifati orqali aniqlashni, izohlashda qanday bo'laklar ishlatilganini, harakat qayerda va qachon sodir bo'lganligini tezda xotirlaydi hamda topshiriqni ijobiy yecha oladi, o'ylashimcha.

Darslikdagi topshiriq: Bir xil so'roqqa javob bo'lgan so'zlarni toping. Ularning gapdagi vazifasini aniqlang. Qaysi ustunda berilgan gaplarda fikr ixcham ifodalangan? Ushbu mashqda shu kabi savollarga javob topish jarayonida quyidagi xulosa ya'ni qoida kelib chiqishini o'quvchilarning o'zlari ham sezishadi va o'qituvchi yordamida yana misollar keltirilib, qoida o'quvchilarga o'rgatiladi.

Gapda kesimlar uyushib kelishi mumkin.

Kesim uyushgan ushbu gapda qolgan bo'laklarni ham uyushtirib, gapni boshqacha usulda ham tahlil qilish mumkin. Masalan to'ldiruvchini uyushtirsak: Men she'rni, maqolni va topishmoqlarni o'qidim va yodladim. O'z-o'zidan qoida kelib chiqadi.

Gapda ikkinchi darajali bo'laklar ham uyushib kelishi mumkin.

O'qituvchi mashqlar mazmuni jihatdan ham ko'proq yondashib borsa, tushunilishi murakkab bo'lgan so'zlarni izohlash uchun lug'at ishlari olib borsa o'quvchining fikrlash darajasi ham rivojlanib, ta'lim sohasi rivojlanib borgan va xalqaro baholash dasturlarining doimiy a'zosi bo'lib, yuqori o'rinlarni egallab kelayotgan davlatlar qatoriga qo'shiladi deb o'ylayman.

Ona tili darslarini o'qitish jarayonida pedagogdan har tomonlama kuchli bilim va ijodkorlik, qobiliyat bo'lishi talab etiladi. O'qituvchining ham bilimi, ham ijodkorlik qobiliyati yuksak bo'lsagina hozirgi zamon talabi darajasidagi yosh avlodga bilim bera oladi. O'qituvchining ijodkorlik qobiliyati o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmay, o'z ustida ko'proq ishlashi, izchil o'qib o'rganishi orqali shakllanadi. Chunki kelajak –yoshlarniki. Zamonaviy bilim va mantiqiy fikrlash qobiliyati yuqori bo'lgan yosh avlodgina kelajakda Vatan ravnaqiga hissa qo'shib, jahon yoshlari bilan raqobatlasha oladigan kadr bo'lib yetishadi.

*Foydalanilgan adabiyotlar:*

*I.D.N.Xayrullayeva "3-4-sinf "Ona tili" darsliklarining tadrijiy taraqqiyoti": -monografiya, Globe Edit,2021.133b*

[2.www.markaz.tdi.uz](http://www.markaz.tdi.uz)

[3.uzedu.uz](http://3.uzedu.uz)

## **BOSHLANG'ICH TA'LIMDA XALQARO BAHOLASH TIZIMIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI**

**M.H.Hakimova,**

*BuxDU kata o'qituvchisi*

**M. Sh. Hamidova,**

*BuxDU talabasi*

*Ushbu maqolada Xalqaro baholash dasturi PIRLS (Progress In International Reading And Literacy Study) dunyoning turli mamlakatlari milliy ta'lim tizimida o'qish savodxonligi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar va natijalarni qiyoslashga doir ma'lumotlar haqida fikr yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *PIRLS, PISA, TIMSS, xalqaro baholash dasturi, milliy ta'lim tizimi, o'qish savodxonligi.*

*This article discusses the work of the International Assessment Program PIRLS (Progress In International Reading And Literacy Study) to compare the work done and the results of the national education system in different countries around the world.*

**Keywords:** *PIRLS, PISA, TIMSS, international assessment program, national education system, reading literacy.*

*В этой статье обсуждается работа Международной программы оценки PIRLS (Progress In International Reading And Literacy Study) по сравнению проделанной работы и результатов национальной системы образования в разных странах мира.*

**Ключевые слова:** *PIRLS, PISA, TIMSS, международная программа оценки, национальная система образования, грамотность чтения.*

Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo'lgan yoshlarning ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo'lda xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo'nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, ilmiy tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir.

Ta'lim sifati va samaradorligini oshirish yo'lida xorijiy ilg'or tajribalarni o'rganish, xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyatga ega. Bu borada O'zbekiston Respublikasida

qo'yilayotgan amaliy qadamlarga xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarning tashkil etilishi to'g'risida hukumat qarorining qabul qilinishi Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasidek (IEA-International Association for the Evaluation of Educational Achievement) nufuzli tashkilot bilan hamkorlik aloqalarining yo'lga qo'yilishini misol sifatida keltirish mumkin.

1958-yildan buyon ushbu tashkilot ta'lim sohasiga oid ko'plab mavzular bo'yicha o'ttizdan ortiq qiyosiy tadqiqotlarini o'tkazdi. Jumladan, matematika va tabiiy fanlar (TIMSS), o'qish (PIRLS), fuqarolik va fuqarolik ta'limi (ICCS), kompyuter va axborot texnologiyalari bo'yicha savodxonlik (ICILS) kabi yo'nalishlarda o'quvchilarning bilim va ko'nikmalari, umuman olganda ta'lim olish jarayonida erishgan yutuqlarini baholab kelmoqda.

IEA tashkiloti tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarning aksariyati o'quvchilarning akademik faoliyatini bir yoki bir nechta fanlardan yoki fanlararo uyg'unlik asosida baholashni o'z ichiga oladi, bu esa dunyo bo'yicha umumiy va har bir mamlakat kesimida ta'lim jarayonlarini chuqur tahlil qilishga yordam beradi.

Ushbu dasturning ko'p yillar davomida muvaffaqiyatli faoliyat olib borayotganiga 2021-yilda 20 yil to'ladi.

Progress in International Reading and Literacy Study (PIRLS) – boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnini o'qish va tushunish darajasini baholash uchun; Boshqacha qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o'qish va o'qitishni yaxshilash uchun ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga oid ma'lumotlarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturidir.

Trends in International Mathematics and Science Study (TIMSS) - 4 va 8- sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash uchun; The Programme for International Student Assessment (PISA) - 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash uchun.

Shuningdek, PIRLS, yosh o'quvchilar tomonidan maktabda va maktabdan tashqarida ta'lim olishning katta qismini tashkil etuvchi, ya'ni badiiy tajriba orttirish, ma'lumot olish va undan foydalanish ko'nikmalarini baholash kabi ikkita keng qamrovli maqsadlarni ifodalaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5712-son Farmonida 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan.

PIRLS dasturi 2001-yilda Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA-International Association for the Evaluation Educational Achievement) tomonidan tashkil etilgan. Xalqaro tadqiqotni tashkil etish uchun barcha mas'uliyat (Massachusetts, AOSh) Boston kollejiga yuklatilgan. Shuningdek, tadqiqot uchun topshiriqlarni tayyorlash Germaniya (Gamburg) ma'lumotlar markazida amalga oshiriladi.

O'qish savodxonligi o'quvchilarning ilmiy va shaxsiy muvaffaqiyatini o'sishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi, shuningdek, PIRLS ta'lim sohasida olib borilayotgan siyosatning muvaffaqiyatga ta'sirini baholash uchun qimmatli vosita hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda PIRLS ta'rifi ko'ra, o'qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyati hamdir.

Butun dunyo bo'ylab o'qish savodxonligining rivoji odamlarning nima sababdan o'qishlari bilan bevosita bog'liq. Umuman olganda, bu sabablar zavqlanish va shaxsiy qiziqish uchun o'qishni yoki ta'lim va jamiyat hayotida munosib ishtirok etishni o'z ichiga oladi. Ko'pgina yosh o'quvchilarning dastlabki mutolaasi aksariyat hollarda hikoya (masalan, hikoya to'plamlari yoki rasmlar kitoblari) yoki o'quvchilarga atrofidagi dunyo haqida ma'lumot beradigan va savollarga javob beradigan ma'lumotli matnlardan iborat bo'ladi. Yosh o'quvchi uchun o'qish savodxonligining har ikki maqsadi ham muhim hisoblanadi. Shuning uchun PIRLS har bir o'qish turini baholashda matnlarni teng bo'lishni asosiy maqsad qilib olgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. *Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash. (Boshlang'ich sinf o'qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo'llanma) «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. Toshkent-2019.*
2. *Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning matematik savodxonligini baholash. (Matematika fani o'qituvchilari, metodistlari va soha mutaxassislari uchun metodik qo'llanma) «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. Toshkent- 2019.*
3. *Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholas (Ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo'llanma) «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. Toshkent – 2019.*

**TA'LIM SIFATINI BAHOLASHNING ILG'OR TAJRIBALARI**

**Sh.M. Farmonova,**

**BuxDU o'qituvchisi**

Ma'lumki, o'zgarishlar davrida ta'lim tizimi ijtimoiy jarayonlardan kelib chiqqan holda shiddat bilan rivojlanishni taqozo etadi. Ta'lim orqali jamiyatda kelajakdagi vazifalarni bajarishga qodir bo'lgan yangi avlod shakllantiriladi. Shuni inobatga olgan holda umumta'lim maktablari va maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yosh avlodning har tomonlama puxta bilim olishi uchun zarur sharoit va imkoniyatlar yaratishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bunday islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilmoqda bu holat malakali kadrlar va yetuk mutaxassilarga bo'lgan talabning yanada oshib borishiga turtki bo'lmoqda. Bunday talabning qondirilishi o'z navbatida yoshlar o'rtasida kitobxonlik va darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o'qituvchilarning har tomonlama ta'lim tarbiyaga e'tiborini kuchaytirishning zamonaviy ijtimoiy innovatsiyalar orqali amalga oshirish ehtiyojini vujudga keltirmoqda. Shunday talablarning bugungi kun ta'lim tizimi uchun juda muhim ekanligini inobatga olgan holda aksariyat xorijiy davlatlarda ta'lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ayrim ilg'or tajribalarni o'rganib chiqdi.

Xususan, dunyoda ta'lim sifati, saviyasi va darajasini aniqlab beruvchi PISA (O'quvchilarni ta'limdagi yutuqlarini baholash xalqaro dasturi), PIRLS (Matnni o'qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot), TIMSS (Maktabda matematika va aniq fanlar sifatini tadqiq qiluvchi xalqaro monitoring) kabi bir qator xalqaro dasturlar mavjud bo'lib, ular rivojlangan davlatlardagi ta'lim sifatini yanada oshirishdagi mezon sifatida keng qo'llanilib kelinmoqda.

PISA - o'quvchilarni ta'lim sohasidagi yutuqlarini baholash bo'yicha xalqaro dastur bo'lib, undagi test jahon davlatlaridagi maktab o'quvchilarining bilimi va ularni amaliyotda qo'llay olish mahoratini baholaydi. Dasturning asosiy maqsadi - 15 yoshli o'quvchilar ta'lim dargohida olayotan bilim va tajribalarini ijtimoiy munosabatlarda va inson faoliyatida uchraydigan turli xil hayotiy vazifalarni yechishda qanchalik foydalana olish qobiliyatini baholashdir. Ushbu sinov har uch yilda bir marotaba o'tkaziladi. Testda faqat 15 yoshdagi o'smirlar ishtirok etadi. Maktabdagi ta'lim sifatini monitoring qilishga qaratilgan PISA dasturi asosiy uch yo'nalishda: o'qish, matematika va ijtimoiy fanlar savodxonligi bo'yicha olib boriladi.

Birgina 2015 yilning o'zida 70 dan ortiq davlatlar PISA xalqaro dasturi sinovida ishtirok etgan. Umuman olganda, PISA dasturi davlatlarning ta'lim sohasidagi siyosatiga sezilarli darajada ta'sir o'tkazadi. Har bir davlat o'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida o'zining ta'lim sohasidagi kuchli va kuchsiz tomonlarini xolisona aniqlab, boshqa davlatlarga nisbatan mavqeini ko'radi hamda ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini takomillashtirishda o'z yo'nalishlarini va strategiyasini belgilab oladi.

PIRLS - tadqiqotida 50 dan ortiq davlatlar ishtirok etib kelmoqda. Mazkur xalqaro tadqiqotning maqsadi turli xil ta'lim tizimidan iborat bo'lgan davlatlardagi boshlang'ich maktab o'quvchilarining matnni o'qish va qabul qilish bo'yicha tayyorgarligi hamda o'quvchilarning har xil yutuqlarga erishishga sabab bo'luvchi ta'lim tizimidagi o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iborat. Albatta bunday tadqiqot xalq ta'limi sohasidagi ishchilar, olimlar, metodistlar, o'qituvchilar, ota-onalar va jamoat vakillari uchun katta ahamiyatga egadir.

TMSS - ham jahon mamlakatlari ta'lim tizimida keng tadbiiq etilmoqda. TMSS dasturi Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi IEA (International Association for the Evaluation of Educational Achievements) tomonidan tashkil etilgan bo'lib, ushbu tadqiqot 4 va 8 sinf o'quvchilari orasida matematika va ijtimoiy fanlar bo'yicha ta'limning sifati, darajasi, fanga bo'lgan munosabati, qiziqishini aniqlaydi. Har 4 yilda bir marotaba olib boriladi. Ushbu tadqiqot PIRLS tadqiqotiga o'xshab,

o'quvchilar, maktab ma'muriyati va o'qituvchilari orasida qo'shimcha so'rovnomalar o'tkazadi va fan sohasida to'sqinlik qilayotgan asosiy omillarni aniqlaydi. Bu esa o'sha mamlakatda ishlab chiqilgan ta'lim standartlarini va ta'lim samaradorligini boshqa davlatlar bilan solishtirib ko'rish imkonini beradi. 2015 yil TMSS tadqiqotlari natijalariga ko'ra AQSh, Singapur, Gonkong, Koreya Respublikasi, Yaponiya, Rossiya, Buyuk Britaniya kabi davlatlarning ta'lim tizimi eng yuqori ko'rsatkichlarni egallagan. Shuni e'tirof etish lozimki, ayni shu davlatlarda yuqori texnologiyalarni o'zlashtirish, sanoatlashtirish va yuksak darajadagi taraqqiyot erishish maqsadida aniq fanlarni yuqori darajada o'zlashtirishga alohida e'tibor qaratilib, unda o'quvchilar tug'ma iste'dod va qobiliyatlardan ko'ra o'z ustida doimiy ishlash hamda aniq fanlarni o'qitishda guruh yoki sinfdagi o'quvchilar sonining 16 nafardan oshmasligi belgilangan. Bunday tajriba AQShda ham mavjud bo'lib, 1999 yildan boshlab bitta o'qituvchi 40 minutlik dars mashg'uloti davomida 16 ta bolaga bilim va tarbiya bera olish imkoniyatiga ega ekanligi inobatga olgan holda prezident qarori bilan ta'lim muassasalaridagi guruhlarda o'quvchilar soni 16 nafar etib belgilangan.

Umuman olganda mamlakatimizda aynan mana shunday xalqaro dasturlarning ta'lim tizimini baholash va monitoring qilishdagi ishtiroki mavjud emasligi yoki o'quvchi yoshlar bilimlari darajasini baholash yoki monitoring qilishning **tizimi** yaratilmaganligi, hududlar kesimida yoshlar tomonidan u yoki bu fanni o'zlashtirish darajasining sifati va soxada amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar ko'lamini belgilab borish va tegishli islohotlar o'tkazish imkoniyatini cheklab qo'ymoqda. Shuningdek, boshlang'ich va umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi o'qitish darajasining islohotlar tempidan ortda qolayotganligi yaqin kelajakda malakali kadrlar tanqisligini keltirib chiqaradi.

Shuni inobatga olgan holda quyidagi takliflarni amalga oshirish joiz deb hisoblaymiz:

1. Xalqaro ta'lim sifatini baholash dasturlarida O'zbekistonning ishtiroki masalasini atroflicha o'rganib chiqish va ushbu dasturlarda ishtirokini ta'minlash.

2. Xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda o'quvchi yoshlar bilimlari darajasini baholash yoki monitoring qilishning tizimini yaratish.

3. Ilm-fan yutuqlarining eng ilg'or natijalari va adabiyotlarning ingliz tilida nashr qilinishini inobatga olgan holda, maktablarda ingliz tilini o'rgatuvchi turli xorijiy dasturlarni tadbiq etish masalasini ko'rib chiqish.

4. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya berishga mas'ul mutaxassislarning malaka talablarini aniq mezonlar orqali belgilab qo'yish va bolalarning umumiy ta'limga yo'naltirilishida butunlay mas'ulligini qonun bilan belgilab qo'yish.

5. Maktabgacha ta'lim hamda umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi guruh va sinflarda xalqaro tajribada sinalgan usullardan kelib chiqqan holda o'quvchilar sonining maksimal hamda minimal ko'rsatkichlarini belgilab qo'yish.

6. Psixologik testlar yordamida boshlang'ich sinflardagi iste'dodli bolalarni ajratib olib 8-9 yoshlilar uchun har bir maktabda ixtisoslashgan sinflar tashkil etish.

## **BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIDA XALQARO BAHOLASH DASTURLARI HAQIDAGI TUSHUNCHALARNI RIVOJLANTIRISH VA AMALIY YORDAM KO'RSATISH**

**Ro'ziyeva M.Y., Boshlang'ich ta'lim nazariyasi  
kafedrasi mudiri, f.f.f.d. (PhD), dotsent**

Ma'rifatparvar olim Abdulla Avloniy bundan yuz yillar avval aytgan "Tarbiya biz uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidir" degan iborasi ayni kunda ham o'z qimmatini yo'qotgan emas. Darhaqiqat, dunyo bilan bo'ylashishimiz uchun yoshlarimizning ta'lim-tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Albatta, mustaqillikning ilk yillaridan boshlab yurtimizda ta'lim tizimini isloh etishga katta e'tibor qaratildi va bugungi kunga kelib sohada ma'lum yutuqlarga erishildi. Uzluksiz ta'lim tizimida, xususan, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta'lim turlarida katta o'zgarishlar yuz berdi. Ammo globallashuv davrida jahonda ilm-fan, texnika va texnologiyalar shiddat bilan rivojlanayotganini aslo ko'zdan qochirib bo'lmaydi. Bu esa o'z navbatida ta'lim, ilm-fan oldiga yangi talablarni ko'ndalang qo'ymoqda. Ta'lim tizimini muntazam isloh etish, o'qitishning zamonaviy usul va vositalarini takomillashtirish, ta'lim mazmunini boyitib borish, demak, bugungi kunning ham dolzarb talabi bo'lib qolaveradi.

Kadrlar tayyorlash milliy tizimining globallashuv jarayonida bozor talablariga to'liq javob bermasligi, ta'lim tizimida o'quv jarayonining moddiy-texnika va axborot bazasi takomiliga

yetkazilmaganligi, yuksak malakali pedagog kadrlarning yetishmasligi, hozirgi zamon talablariga mos o'quv-uslubiy va ilmiy adabiyotlar kamligi, fan, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasida o'zaro aloqaning zaifligi tizimdagi kamchiliklardan hisoblanadi. Bugungi kunda o'quv muassasalarini bitirib chiqayotgan o'quvchi va talabalarda mustaqil fikrlash layoqati to'la rivojlangan, deb bo'lmaydi. Ularda ilm-fan yutuqlariga, amaliyotga tayangan yechimlar qabul qilish uchun malaka va bilim yetarli emas. Shu bois maktab, kollej va akademik litseylarni bitirgan yoshlarimizning ko'pchiligi mustaqil hayotda o'z o'rmini topa olmayapti. Tizimdagi o'qituvchi-pedagoglar katta qismining bilim va kasbiy salohiyati pastligi jiddiy muammo bo'lib qolmoqda, malakali, bilimdon, bozor talablariga mos pedagog kadrlarga ehtiyoj katta. Ta'lim va ishlab chiqarish sohalarining samarali hamkorligini ta'minlash, tayyorlanayotgan kadrlarning bilimi sifatiga nisbatan ta'lim muassasalarining buyurtmalarini shakllantirish mexanizmlarini ishlab chiqish ham dolzarb masala sanaladi. Ta'lim sifatini ta'minlash uchun oliy ta'lim muassasalari faoliyatini baholashda jamoatchilik va kadrlar buyurtmachilarining zamonaviy qarashlari va yondashuvlarini yanada takomillashtirishni talab etadi. Yevropaning rivojlangan davlatlari ta'lim tizimida qabul qilingan «Jamoatchilik va kadrlar buyurtmachilari» tamoyillaridan keng foydalanish ham yaxshi samara beradi. Xalqaro standartlar, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini inobatga olgan holda, o'quv dasturlari, darsliklar va o'quv qo'llanmalari, o'qitish uslubiyatini muntazam takomillashtirish, ta'limning barcha bosqichlarida tabiiy-ilmiy va muhandislik fanlarini o'qitishning amaliy tizimini joriy etish, o'qitishning barcha bosqichlarida xorijiy tillarni o'rganishni kengaytirish lozim. Shu bilan birga, pedagog va olimlarning xalqaro mehnat bozori sharoitlariga moslashishini ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

Kelgusida ham rivojlangan mamlakatlar tajribalari chuqur o'rganilib, mamlakatimizga xos xususiyatlar, qadriyatlar, sharoitlar inobatga olingan holda kadrlar tayyorlash tizimini tubdan modernizatsiya qilishimiz lozim. Hozir oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan malaka oshirish, chet el professorlarini O'zbekistonga olib kelib ma'ruza o'qitish, bakalavr va magistr dasturlarini rivojlangan mamlakatlardagi o'quv dasturlariga yaqinlashtirish ishlari olib borilmoqda. Xuddi shu tizim asosida oily ta'lim tizimida ishlayotgan tajribali o'qituvchilarni maktablarga biriktirish, kafedralarning hududiy filiallarini ochish orqali maktab o'qituvchilari salohiyatini rivojlantirish ishlari ham jadal olib borilmoqda. Bugungi kunda hamkorlikni boshlagan oliy va xalq ta'limi tizimlari oldida turgan asosiy maqsad ham shu - boshlang'ich sinf o'qituvchilariga amaliy yordam berish. Shu bilan birga ularga xalqaro baholash dasturlarini o'rgatuvchi ko'chma seminar-trening kurslarini tashkil etishga kelishish, kafedra huzurida shunday o'quv kurslari tashkil qilib, ularda viloyat xalq ta'limi xodimlarini o'qitish va sertifikatlar bilan taqdirlash.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo'lgan yoshlarning ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg'or xorijiy tajribalar xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo'lda xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo'nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, ilmiy tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir.

## **XALQARO TADQIQOTLARDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING O'QISH SAVODXONLIGINI BAHOLASH**

**N.Normurodova- TDPU Boshlang'ich ta'limda ona tili  
va uni o'qitish metodikasi kafedrasini dotsenti, PhD**

*Annotatsiya. Ushbu maqolada xalqaro tadqiqotlarning ahamiyati, mazmuni va ularning yo'nalishlari haqida fikr yuritilgan. O'qish savodxonligi, PIRLS – boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnini o'qib tushunish darajasini baholash, axborot olish va undan foydalanish, badiiy tajriba orttirish haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** xalqaro tadqiqot, o'qish savodxonligi, o'qib tushunish, badiiy tajriba.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются важность, содержание и направление международных исследований. Читательская грамотность, PIRLS - предоставляет информацию по оценке уровня понимания прочитанного учащимися начальных классов, получению и использованию информации, получению художественного опыта.

**Ключевые слова:** международное исследование, читательская грамотность, понимание прочитанного, художественный опыт.

**Annotation.** *This article discusses the importance, content and direction of international research. Reading literacy, PIRLS - provides information on assessing the level of reading comprehension by primary school students, obtaining and using information, obtaining artistic experience.*

**Key words:** *International study, reading literacy, reading comprehension, artistic experience.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasida davlat va jamiyat ahamiyatiga molik dolzarb masalalar qatorida ta'lim sifatini oshirishga, xalqaro baholash jarayonlariga munosib tayyorgarlik ko'rish masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Xalq ta'lim vazirligi, Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, uning huzuridagi Milliy markaz, Toshkent viloyati boshqarmasi bilan hamkorligidagi faoliyat xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik ko'rish yo'lida amalga oshirilayotgan vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Qayd etish lozimki, Prezidentimiz farmoni bilan "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" tasdiqlangan bo'lib, unda O'zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA xalqaro baholash dasturining reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish ustuvor vazifa etib belgilangan edi.

Savodxonlik so'zi o'quvchilarning kelajakda o'z rejalarini amalga oshirishda, ya'ni bilim olishni davom ettirish, mehnat faoliyatiga tayyorgarlik ko'rish, ijtimoiy hayot va mehnatda ishtirok etishda asosiy vositasi sifatida savodxonlarcha o'qish ko'nikmasini egallashdagi muvaffaqiyatini anglatadi.

O'qish savodxonligi – jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma tilning shakllarini idrok etish va amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir.

Ushbu nuqtayi nazar o'quvchilarning o'qishdan olingan ma'lumotlardan foydalanish qobiliyatiga tobora ko'proq e'tibor qaratadigan zamonaviy jamiyatda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Asosiy e'tibor tushunishni namoyon qilishdan o'zlashtirilgan ma'lumotlarni qanday qilib yangi loyihalar va vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatlarini namoyon qilishga qaratilmoqda.

PIRLSning o'qishdagi yutuqlarni baholash doiralari IEA tomonidan 1991-yilda o'qish savodxonligi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlardan foydalangan holda, ilk marotaba, 2001-yildagi tadqiqotlar uchun ishlab chiqilgan.

Hozirgi vaqtda PIRLS ta'rifi ko'ra, o'qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyati hamdir.

O'qish savodxonligining bu ko'rinishi konstruktiv va interaktiv jarayon sifatida ko'plab o'qish nazariyalarini aks ettiradi. O'quvchining matn bilan ishlashi jarayonida o'quvchi va matn orasidagi muloqot orqali (shuning uchun ham bu jarayon interaktiv deyiladi) o'quvchi ma'noni yaratadi (shuning uchun ham bu jarayon konstruktiv inglizcha «construct» – yaratmoq deyiladi). O'quvchi bu jarayonning faol qatnashuvchisi bo'lib, ma'no yaratadi, matn ustida mushohada yuritadi va samarali o'qish strategiyalarini ongli ravishda tanlab qo'llaydi. Har bir matn turi odatiy shakl va qoidalarga amal qilgan holda o'quvchiga matnni sharhlashga yordam beradi. Har qanday matn turli shaklga ega bo'lishi mumkin. Bular an'anaviy kitoblar, jurnallar, hujjatlar va gazetalar, shuningdek, raqamli ko'rinishdagi yozma shakllarni ham o'z ichiga oladi.

PIRLS yosh o'quvchilarning sinfdan va sinfdan tashqari o'qishining ikkita keng qamrovli maqsadiga qaratilgan. Bular badiiy tajriba orttirish hamda ma'lumot olish va ulardan foydalanish uchun o'qishdir. Bundan tashqari, PIRLS o'qish maqsadlarining har birida to'rtta keng tushunish jarayonini birlashtiradi. Bular: diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topish, to'g'ridan to'g'ri xulosalar chiqarish, g'oyalarni va axborotni talqin qilish va uyg'unlashtirish, kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilish.

PIRLS – boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni o'qib tushunish darajasini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqot dasturidir. Boshqacha qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o'qish va o'qitishni yaxshilash uchun ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga oid ma'lumotlarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturidir.

Shuningdek, PIRLS, yosh o'quvchilar tomonidan maktabda va maktabdan tashqarida ta'lim olishning katta qismini tashkil etuvchi, ya'ni badiiy tajriba orttirish, ma'lumot olish va undan foydalanish ko'nikmalarini baholash kabi ikkita keng qamrovli maqsadlarni ifodalaydi.

Butun dunyo bo'ylab o'qish savodxonligining rivoji odamlarning nima sababdan o'qishlari bilan bevosita bog'liq. Umuman olganda, bu sabablar zavqlanish va shaxsiy qiziqish uchun o'qishni yoki ta'lim va jamiyat hayotida munosib ishtirok etishni o'z ichiga oladi. Ko'pgina yosh o'quvchilarning dastlabki mutolaasi aksariyat hollarda hikoya (masalan, hikoya to'plamlari yoki rasmiy kitoblar) yoki o'quvchilarga

atrofidagi dunyo haqida ma'lumot beradigan va savollarga javob beradigan ma'lumotli matnlardan iborat bo'ladi.

Yosh o'quvchi uchun o'qish savodxonligining har ikki maqsadi ham muhim hisoblanadi. Shuning uchun PIRLS har bir o'qish turini baholashda matnlarni teng bo'lishni asosiy maqsad qilib olgan.

**Badiiy tajriba orttirish.** Adabiyotni tushunish va baholash uchun har bir o'quvchi tilni tushunishi va badiiy shakllarni bilishi kerak. Yosh o'quvchilar uchun adabiyot hali duch kelmagan vaziyatlar va his-tuyg'ularni o'rganish imkoniyatini taqdim etishi mumkin. Badiiy adabiyotda tasvirlangan voqealar, harakatlar va oqibatlar o'quvchilarga haqiqiy hayotni yoritibgina qolmay, tasavvur qilishlari mumkin bo'lgan vaziyatlarni bilvosita his qilish va aks ettirishga imkon beradi.

PIRLSda ishlatiladigan badiiy matnlarning asosiy shakli – bu badiiy to'qimaga asoslangan hikoyalardir.

**Axborot olish va undan foydalanish.** Axborot matnlarining maqsad va vazifalari turli xil bo'ladi. Axborot matnining asosiy vazifasi axborotni taqdim etish bo'lsa-da, mualliflar ko'pincha o'zlari tanlagan mavzularni yoritishda turli maqsadlarni ko'zda tutadi. Ko'pgina axborot matnlarining maqsadi to'g'ridan to'g'ri ma'lumot berish, masalan, biografik ma'lumotlar yoki vazifani bajarish bosqichlarini taqdim qilishdir, shu bilan birga, ko'p hollarda matnda muallifning subyektiv qarashlari ham aks etadi. Masalan, muallif fakt yoki tushuntirishlarning qisqacha xulosasini taqdim etishi, o'z dalillariga o'quvchini ishonitirishga harakat qilishi yoki turli nuqtayi nazarlarni keltirishi mumkin.

Yosh o'quvchilar ilmiy, tarixiy, geografik yoki ijtimoiy, shu jumladan, bir qator ma'lumotlarni qamrab olgan, turli shakldagi axborot matnlarini o'qishlari mumkin.

**Tushunish jarayonlari.** PIRLS, odatda, 4-sinf o'quvchilarining keng qamrovli to'rtta tushunish jarayonini baholaydi.

Bular: diqqatni jamlash va aniq ma'lumotni topish, to'g'ridan to'g'ri xulosalar chiqarish, g'oyalar va axborotni talqin qilish, uyg'unlashtirish, kontekst va matn elementlarini baholash hamda tanqid qilish jarayonlaridir.

PIRLSda har bir matn parchasi (yoki parchalari) yoki matn yuzasidan beriladigan savollar to'rtta tushunish jarayonini baholash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

O'quvchilar matndan ma'no hosil qilar ekan, ular aniq tushuntirilmagan g'oyalar yoki ma'lumotlarga nisbatan tushuntirishlar beradi. Xulosalash o'quvchilarga matndan tashqariga chiqishga imkon beradi. Ko'pgina hollarda muallif matnni o'quvchining aniq yoki bevosita xulosa chiqarishi uchun yaratadi.

O'quvchilar oddiy xulosalar bilan bir qatorda, matndagi g'oyalar va axborotlarni talqin qilishda va uyg'unlashtirishda konkret yoki umumiy ma'nolarga e'tibor berishlari yoki tafsilotlarni umumiy mavzular va g'oyalar bilan bog'lashlari mumkin.

To'liq javob berish uchun o'quvchidan barcha matnni yoki hech bo'lmaganda uning muhim qismlarini, shuningdek, matndan tashqaridagi fikrlarni yoki axborotni tushunish talab qilinadi.

**Matn va mazmunga oid birliklarni baholash va tanqidiy tahlil qilish.** Matn mazmuni o'quvchining shaxsiy fikridan kelib chiqib, xolislik bilan baholanishi va tanqid qilinishi mumkin. Bu jarayon o'quvchidan xolis baho berish, rad etish, ma'qullash, matn mazmuniga nisbatan betaraflikni bildirish kabilarni talab qiladi. Masalan, o'quvchi matnda keltirilgan fikrlarni tasdiqlashi, e'tiroz bildirishi yoki boshqa manbalardan olingan ma'lumotlar bilan matnda berilgan g'oyalarni taqqoslashi mumkin.

PIRLS tadqiqotida ishlatiladigan matnlarning xususiyatlari. Matnlar PIRLS dasturida murakkabligiga qarab, o'rtacha 500 dan 800 tagacha, o'quvchilarining o'qish savodxonligi darajasi past bo'lgan mamlakatlar uchun 400–500 ta, PIRLSda esa, taxminan, 1000 ta so'zdan iborat bo'ladi. PIRLS matnlari uchun aniqlik va izchillik muhim mezon hisoblanadi.

Matnni baholash va tanqidiy tahlil qilish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Matnda berilgan ma'lumotning aniq va to'liqligini baholash;
- Tasvirlangan voqeani haqiqatan sodir etilishi ehtimolini baholash;
- Insonlarning o'ylari va bajaradigan ishlarini o'zgartirishda muallifning fikrlari qanchalik aniqligini baholash;
- Matn sarlavhasi asosiy mazmunni qanchalik yoritib berishini baholash;
- Metafora yoki nutq ohangi kabi til xususiyatlari ta'sirini tasvirlash;
- Muallifning asosiy mavzuga oid qarashlarini aniqlash.

PIRLS tadqiqotida ishlatiladigan matnlar uchun quyidagi mezonlar belgilangan.

**Uzunligi:** 1000 ta so'zgacha. PIRLS-literacy o'qish savodxonligi darajasi past bo'lgan mamlakatlar uchun 400-500 ta so'z

**Мавзу:** Badiiy matnlar asosiy mavzuga ega bo'lib, u berilgan matndan tashqari o'quvchi tomonidan umumlashtiriladi. Axborot matnlari o'quv materiallardan olinmagan mavzuni yoritib berishi kerak.

**Тил:** 40 dan ortiq tillarga tarjima qilinadi, shuning uchun tarjima qulay bo'lishi muhimdir. Metafora yoki epitet kabi aniq ifodali tasvirlash so'zlari tanlanadi. Hech qanday so'zlashuvga oid so'z yoki jargon ishlatilmaydi hamda ortiqcha texnik ifodalar olib tashlanadi. Haddan ziyod texnik vositalar ishlatilmaydi.

**Мазмуни:** matnning mazmuni 9–10 yoshdagi o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos kelishi, ayrim madaniyatlarga juda xos bo'lgan mavzulardan chetlanishi, shuningdek, matn shu yoshdagi maktab o'quvchilari uchun qiziqarli va zavqli bo'lishi hamda o'quvchi uchun unchalik tanish bo'lmasligi lozim. Matn shu yoshdagi maktab o'quvchilari uchun qiziqarli va zavqli bo'lishi kerak. -Yaxshi yozilgan va unchalik tanish bo'lmagan bo'lishi lozim.

**Бог'лиqlik va ketma-ketlik:** sujetning mantiqiy tuzilishiga rioya qilish muhimdir. Oddiy va murakkab gaplarning bir xil ishlatilishi. Agar dialog ustunlik qilsa, ma'lumotni birlashtirib, murakkab gaplarni qo'shish kerak. Axborot matnda matnning tuzilishi va ma'lumotning mantiqiy ketma-ketligini sarlavhalar, jadvallar, grafiklar kabi vizual elementlar bilan bog'liqligini kuzatish shartdir.

Yu.M.Kolyagin fikriga ko'ra, ta'lim tizimida integratsiya ikki xil ma'noda qo'llanilishi mumkin:

1. O'quvchilarda atrofimizdagi olam haqida bir butun, yaxlit tasavvurni shakllantirish (bunda integratsiyaga ta'lim maqsadi sifatida qaraladi).

2. Predmetlardan beriladigan bilimlarni yaqinlashtirishning umumiy platformasini topish (bu erda integratsiya-ta'lim vositasi hisoblanadi).

**Birinchi ma'no bo'yicha integratsiya.** O'quvchi bilim dargohiga dastlabki qadamini qo'yishidanoq, dunyoni yaxlit, bir butun, uning barcha elementlari o'zaro bog'langan tizim sifatida tasavvur qilib olin.

**Ikkinchi ma'noda integratsiya.** O'quv fanlaridan beriladigan bilimlarning o'zaro to'qnash(uchrash)gan eri(nuqtasi)da yangi tasavvurlarni ang'lay olin. Dastlab, fanlardagi fikr(g'oya)lar to'qnashgan nuqtada avvaldan bo'lgan tabaqalashgan bilimlardagi kamchiliklarni to'ldirishga, ular o'rtasida bo'lgan bog'lanishlarni tarkib toptirishga da'vat etsin. Huddi manashu tarzda olib boriladigan integratsiyalash jarayonni PISA, PIRLS dasturlari talablari asosida olib borilishi kerak bo'ladi. Bu jarayon fanlarni o'qitish jarayonini baholash dasturlari asosida olib borish ya'ni fanlarni baholash dasturlari bilan integratsiyalash hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. SH. Mirziyoyev. "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" 2022-yil 28-yanvar. PF-60

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni. –O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjati, 2017 yil, 6-son, 70-modda.

3. PIRLS 2021 Assessment Framework. Ina V.S. Mullis, Michael O. Martin. International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA), TIMSS & PIRLS International Study Center, Lynch School of Education, Boston College. 2019. www.timssandpirls.bc.edu.

4. PIRLS 2011 Assessment Framework. Ina V.S. Mullis, Michael O. Martin, Ann M. Kennedy, Kathleen L. Trong, Marian Sainsbury. International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA), International Study Center, Lynch School of Education, Boston College Chestnut Hill. 2009.

5. Framework and Specifications for PIRLS Assessment 2001. Jay R. Campbell, Dana L. Kelly, Ina V.S. Mullis, Michael O. Martin, Marian Sainsbury. International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA), International Study Center, Lynch School of Education, Chestnut Hill. 2001.

6. PIRLS 2016 Teacher Questionnaire. International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA). 2015.

## **БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМГА ЗАМОНАВИЙ ЁНДАШУВ**

**Г.Т.Зарипов**

*Бухоро давлат университети доценти*

**С.Болтаев**

*БухДУ жисмоний маданият факультети талабаси*

Ҳозирги жамият томонидан бошланғич таълим жараёни олдида жуда катта ижтимоий талаб кўйилган. Бу эса уни изчил такомиллаштириб боришни тақозо этади. Айниқса, бугунги кундаги

илм-фан ва техника, технологиялар, ишлаб чиқариш тараққиёти, шахс эҳтиёжларининг ривожланиши, жамият талабларининг глобаллашуви таълим мазмунини узлуксиз янгилаб боришни талаб қилмоқда. Бошланғич синф ўқув хоналарининг янги замонавий ахборотлаштириш марказлари компьютерлар билан жиҳозланиши, интернет тармоғига уланишини таъминлаш энди мактабга қадам қўяётган кичик мактаб ёшидаги болаларнинг билим олишга бўлган қизиқиш ва интилишларини кучайтириб, уларнинг тезда мактаб муҳитига мослашиш имкониятини беради. Кўп миқдорли ахборотлар ёрдамида уларнинг дунёқараши ва тафаккурлари кенгайиб, мустақил фаолият кўрсатиш имконияти тутилади. Бунинг натижасида эса ўқувчиларда ўзига ишонч, дадиллик ва ўз-ўзини бошқариш хусусиятлари шакллана боради.

Маълумки, кичик мактаб ёшидаги бола учун ўйин фаолиятдан бирданига ақлий фаолият жараёнига кириши бирмунча қийинчиликларни вужудга келтиради. Билим эгаллаш иштиёқида бўлган ва моддий оламнинг турли қирраларига қизиқувчан бу ёшдаги болаларда билимларни ўзлаштириш жараёнида, албатта, толиқиш ҳолати рўй бериши муқаррар. Ана шундай вазиятни назарда тутган ҳолда, мактабда маданий кўникмаларни шакллантирувчи шароитлар яратиш мақсадга мувофиқдир. Бунинг учун мактабда қишки боғ, сув ҳавзаси ва дам олиш хоналари ташкил этиш лозим. Бу эса кичик мактаб ёшидаги боланинг она табиатга ижобий муносабатини шакллантириб, ҳар бир фаслнинг ўзига хос кўркини англаш ва табиат инъомларини идрок эта олишига ундайди. Шунингдек, мактабда дам олиш хоналарининг ҳам ташкил этилиши ақлий толиқиш рўй бераётган ўқувчида руҳий енгилланиш имконини берадиган қулай шароит ҳисобланади.

Мактабда ўқитувчи ва ўқувчилар ўртасида ҳамкорлик муҳитининг таъминланиши билимларни ўзлаштириш жараёнини бир қадар енгиллаштиради. Яъни, бунда ўқитувчи ҳар бир ўқувчини яқиндан, яқка тарзда ўрганиш имконига эга бўлиб, унинг шахсидаги индивидуал хусусиятларини аниқлаш орқали ёндашиш йўллари белгилайди. Ўқитувчи ўқувчилар билан доимий суҳбатда, ҳамкорликда бўлиши натижасида, улар билан сирлашиш, тил топишиш ҳамда қизиқиш ва қобилиятларини аниқлаб йўналтириш имкониятига ҳам эга бўладилар. Бу эса, ўз навбатида таълим-тарбия жараёнида ўзлаштириш даражасининг яхшиланиши учун муҳимдир. Ҳозирги кунда ўқувчиларга замонавий билимларни бериш учун ўқитувчининг ўзи билимдон, бой педагогик тажрибага эга бўлиши лозимдир. Янги давр ўқитувчиси ижодкор, билимдон, изланувчан бўлиш билан бирга ҳар бир ўқувчи қалбига йўл топиб, таълим-тарбия жараёнида уларнинг ёш ва индивидуал хусусиятлари, имконият ва қизиқишларини ҳисобга олган ҳолда, ижодий ҳамкорлик қила оладиган, келгусидаги ҳаётида ўз ўрнини тўғри танлашларида ижобий таъсир кўрсатадиган касб эгаси бўлиши керак. Бунинг натижасида ўқувчининг ўзлаштириши яхшиланиб, билимдонлик даражаси ривожланади.

Таълим жараёнини инсонпарварлаштириш сари ижобий қадамлар қўйилаётган бир шароитда ўқувчилар фаолиятини эркин, демократик ёндашув асосида ташкил этиш устувор масалалардан ҳисобланади. Шу нуқтаи назардан, таълимнинг истиқболдаги мазмунида ўқувчиларда ўзи қизикқан ўқув фанини чуқурроқ ўзлаштириши учун ўзи хоҳлаган ва ёқтирган ўқитувчидан таълим олишга интилиш кучаяди. Бу ҳолат иқтидорли, касб-хунарга лаёқатли ўқувчилар сафининг кенгайишини таъминлайди.

## **BOSHLANG'ICH TA'LIMDA XALQARO BAHOLASH TIZIMI**

**M. J. Yarashov,  
BuxDU o'qituvchisi**

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada Xalqaro baholash dasturi PIRLS dunyoning turli mamlakatlari milliy ta'lim tizimida o'qish savodxonligi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar va natijalarni qiyoslashga doir ma'lumotlar haqida fikr yuritilgan.*

***Kalit so'zlar:** PIRLS, PISA, TIMSS, xalqaro baholash dasturi, milliy ta'lim tizimi, o'qish savodxonligi.*

***Annotation:** This article discusses the work of the International Assessment Program PIRLS to compare the work done and the results of the national education system in different countries around the world.*

***Keywords:** PIRLS, PISA, TIMSS, international assessment program, national education system, reading literacy.*

***Аннотация:** В этой статье обсуждается работа Международной программы оценки PIRLS по сравнению проделанной работы и результатов национальной системы образования в*

*разных странах мира.*

**Ключевые слова:** *PIRLS, PISA, TIMSS, международная программа оценки, национальная система образования, грамотность чтения.*

Yurtimizning ma'naviy va ilmiy salohiyati rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo'lgan yoshlarning ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo'lda xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo'nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, ilmiy tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir.

Ta'lim sifati va samaradorligini oshirish yo'lida xorijiy ilg'or tajribalarni o'rganish, xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyatga ega. Bu borada O'zbekiston Respublikasida qo'yilayotgan amaliy qadamlarga xalq ta'limi tizimida ta'lim sifati baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarning tashkil etilishi to'g'risida hukumat qarorining qabul qilinishi Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasidek (IEA-International Association for the Evaluation of Educational Achievement) nufuzli tashkilot bilan hamkorlik aloqalarining yo'lga qo'yilishini misol sifatida keltirish mumkin.

1958-yildan buyon ushbu tashkilot ta'lim sohasiga oid ko'plab mavzular bo'yicha o'ttizdan ortiq qiyosiy tadqiqotlarini o'tkazdi. Jumladan, matematika va tabiiy fanlar (TIMSS), o'qish (PIRLS), fuqarolik va fuqarolik ta'limi (ICCS), kompyuter va axborot texnologiyalari bo'yicha savodxonlik (ICILS) kabi yo'nalishlarda o'quvchilarning bilim va ko'nikmalari, umuman olganda ta'lim olish jarayonida erishgan yutuqlarini baholab kelmoqda.

Ushbu tadqiqotlar yuqori texnik va ilmiy talablar asosida o'tkaziladi. Shuningdek, o'rganilayotgan holatlarning xususiyatidan kelib chiqib, amaliy tadqiqotlar bilan birga kuzatuv kabi samarali usullardan ham foydalaniladi. Bu dasturning muvaffaqiyatli faoliyat olib borayotganiga 2021-yilda 20 yil to'ladi.

Trends in International Mathematics and Science Study (TIMSS) - 4 va 8- sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash uchun; The Programme for International Student Assessment (PISA) - 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash uchun;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5712-son Farmonida 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta'limi tizimida ta'lim sifati baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan ta'lim sifati baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan.

PIRLS dasturi 2001-yilda Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA-International Association for the Evaluation Educational Achievement) tomonidan tashkil etilgan. Xalqaro tadqiqotni tashkil etish uchun barcha mas'uliyat (Massachusetts, AOSh) Boston kollejiga yuklatilgan. Shuningdek, tadqiqot uchun topshiriqlarni tayyorlash Germaniya (Gamburg) ma'lumotlar markazida amalga oshiriladi.

Xalqaro baholash dasturi PIRLS (Progress In International Reading And Literacy Study) dunyoning turli mamlakatlari milliy ta'lim tizimida o'qish savodxonligi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar va natijalarni qiyoslashga yo'naltirilgan.

Tadqiqotlar 2001, 2006, 2011, 2016-yillarda o'tkazilgan bo'lib, 2021-yil tadqiqotning beshinchi davriyligi hisoblanadi. Shuni ta'kidlash joizki, 2021-yilda o'tkaziladigan tadqiqotlar 2001-yildan boshlab uzluksiz qatnashib kelayotgan davlatlarning 20 yil davomida erishgan yutuqlarini baholash imkonini beradi. Har besh yilda o'tkaziladigan PIRLS dasturi 4-sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini xalqaro darajada baholaydi. Mazkur dastur IEA tashkilotining 4- sinf o'quvchilarini matematika va tabiiy fanlardan savodxonligini baholaydigan TIMSS dasturini to'ldirishga yo'naltirilgan bo'lib, Boston kollejidagi TIMSS va PIRLS xalqaro o'quv markazi IEA tashkilotining Gamburg va Amsterdam shaharlaridagi idoralari bilan yaqindan hamkorlikda boshqariladi. 2016-yildan boshlab qo'shimcha tanlov asosida ePIRLS tizimi joriy qilingan bo'lib, u o'quvchilarning onlayn o'qish savodxonligini baholashga mo'ljallangan. Internet o'quvchilar uchun ma'lumotlar olishning boshlang'ich yo'li hamda maktab fanlari doirasida izlanishlar olib borish uchun markaziy manba hisoblanadi. 2021-yilda o'tkaziladigan PIRLS tadqiqotlarida dasturning birinchi marta raqamli formatga (digital PIRLS, lekin shu bilan birga an'anaviy qog'oz format bo'ladi) o'tishi hamda ePIRLS, 2016-yilda boshlangan internet muhitida boshqariladigan

onlayn o'qishni kompyuterda baholash ko'zda tutilmoqda.

PIRLS dasturida qatnashuvchi mamlakatlar soni yildan yilga ko'payib bormoqda. Masalan, dasturda 2001-yilda 35 ta mamlakat qatnashgan bo'lsa, 2006- yilda 40 ta, 2011-yilda 45 ta, 2016-yilda 50 ta mamlakat va navbatdagi 2021-yilda o'tkaziladigan tadqiqotda 60 ta mamlakatning ishtirok etishi rejalashtirilgan.

2016-yilda tadqiqotga Rossiya Federatsiyasining 42 ta hududidan 206 ta umumiy o'rta ta'lim maktabi va 4577 ta boshlang'ich sinf o'quvchilari jalb etilgan bo'lib, tadqiqot natijalariga ko'ra Rossiya Federatsiyasi dunyo bo'yicha birinchi o'rinni egallagan.

PIRLSning o'qishdagi yutuqlarni baholash doiralari IEA tomonidan 1991- yilda o'qish savodxonligi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlardan foydalangan holda, ilk marotaba, 2001-yildagi tadqiqotlar uchun ishlab chiqilgan.

Shundan buyon PIRLSning baholash doiralari tadqiqotning har bir davri uchun, shu jumladan, 2021-yildagi tadqiqot davri uchun ham yangilandi.

PIRLS yosh o'quvchilarning sinfda va sinfdan tashqari o'qishining ikkita keng qamrovli maqsadiga qaratilgan. Bular badiiy tajriba orttirish hamda ma'lumot olish va ulardan foydalanish uchun o'qishdir.

Bundan tashqari, PIRLS o'qish maqsadlarining har birida to'rtta keng tushunish jarayonini birlashtiradi. Bular: diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topish, to'g'ridan to'g'ri xulosalar chiqarish, g'oyalar va axborotni talqin qilish va uyg'unlashtirish, kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilishdan iborat.

Butun dunyo bo'ylab o'qish savodxonligining rivoji odamlarning nima sababdan o'qishlari bilan bevosita bog'liq. Umuman olganda, bu sabablar zavqlanish va shaxsiy qiziqish uchun o'qishni yoki ta'lim va jamiyat hayotida munosib ishtirok etishni o'z ichiga oladi. Ko'pgina yosh o'quvchilarning dastlabki mutolaasi aksariyat hollarda hikoya (masalan, hikoya to'plamlari yoki rasmlı kitoblar) yoki o'quvchilarga atrofıdagi dunyo haqida ma'lumot beradigan va savollarga javob beradigan ma'lumotli matnlardan iborat bo'ladi. Yosh o'quvchi uchun o'qish savodxonligining har ikki maqsadi ham muhim hisoblanadi. Shuning uchun PIRLS har bir o'qish turini baholashda matnlarni teng bo'lishni asosiy maqsad qilib olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jobirovich Y. M. The Role Of Digital Technologies In Reform Of The Education System //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – T. 3. – №. 04. – C. 461-
2. Ярашов М. THE IMPORTANCE OF USING DIGITAL TECHNOLOGY IN PRIMARY SCHOOL MATHEMATICS EDUCATION //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – T. 10. – №. 9.
3. Ярашов М. ТА'ЛИМ ТИЗИМИДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИŌ'РНИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – T. 5. – №. 5.
4. Ярашов М. BOSHLANG'ICH SINFI MATEMATIKA TA'LIMINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI IJODIY TASHKIL ETISH JARAYONI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – T. 5. – №. 5.
5. YARASHOV M. BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING TADBIQ ETISH METODIKASI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – T. 8. – №. 8.
6. YARASHOV M. BOSHLANG 'ICH SINFI MATEMATIKA TA'LIMINI IJODIY TASHKIL ETISHDA TA'LIM TAMOIYILLARINING O 'RNI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ. – 2020. – T. 1. – №. 1.
7. Jobirovich Y. M. Advantages of the Introduction of Digital Technologies into the Educational Process //Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT. – 2021. – T. 7. – C. 17-20.
8. Yunus Y. S. Features of Logical Thinking of Junior Schoolchildren //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 10. – №. 1.
9. Olloqova M. O. Intensive education and linguistic competence in mother tongue //ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL. – 2021. – T. 11. – №. 1. – C. 580-587.
10. Xolıqulovıch J. R. Using anthropometric units in "Esdaliklar" by Sadrıddin Ayniy //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – T. 2. – №. 2. – C. 295-298.

## 2–SHO‘BA: BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QUVCHILAR BILIMINI VAHOLASHDA PIRLS XALQARO TADQIQOTLARI

### СЕКЦИЯ 2: МЕЖДУНАРОДНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ PIRLS ПО ОЦЕНИВАНИЮ ЗНАНИЙ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ

#### PIRLS ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QUVCHILAR O‘QISH SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISH METODLARI

**U. A. Masharipova**

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,  
p.f.b.f.d. (PhD), dotsent*

*Ushbu maqolada boshlang‘ich sinfdagi PIRLS tizimi asosida badiiy matnni tahlil qilishda interfaol metodlardan foydalanish masalalari yoritilgan.*

**Tayanch so‘zlar:** boshlang‘ich ta‘lim, PIRLS, badiiy asar, savodxonlik, donyoqarash.

*В данной статье рассматривается использование интерактивных методов анализа художественного текста на основе системы PIRLS в начальной школе.*

**Ключевые слова:** начальное образование, PIRLS, художественное произведение, грамотность, научное мировоззрение.

*This article discusses the use of interactive methods for analyzing a literary text based on the PIRLS system in elementary school.*

**Keywords:** primary education, PIRLS, fiction, literacy, science.

Ta‘lim sifatini yaxshilash va oshirish jamiyatning barcha sohalarida faoliyatni yaxshilashga olib keladi. Boshlang‘ich ta‘lim – bolaning hayotidagi qimmatli, mohiyati jihatdan yangi bosqich: u ta‘lim muassasasida tizimli ta‘limni boshlaydi, uning tashqi dunyo bilan o‘zaro munosabatlar ko‘lami kengayadi, ijtimoiy mavqeyi o‘zgaradi va o‘zini namoyon qilish zarurati ortadi. Boshlang‘ich ta‘lim o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, uni uzliksiz ta‘limining barcha keyingi bosqichlaridan keskin ajratib turadi. Bu davrda ta‘lim faoliyati asoslari, kognitiv qiziqishlar va bilishga motivatsiya shakllanadi; qulay ta‘lim sharoitida bolaning o‘zini o‘zi anglashi va o‘zini o‘zi qadrlashi rivojlanadi.

Zamonaviy axborot muhitining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda kitob mutolaasiga mehr uyg‘otish oson emas. Bola kitobni zavq bilan o‘qishi uchun ko‘plab omillar mos kelishi kerak: maktabda o‘qitish xususiyatlari, uyda o‘qishga bo‘lgan munosabat va oxir-oqibat, har bir o‘quvchining moyilligi.

Bu vazifa O‘zbekistonning zamonaviy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ma‘lumki, davlatimiz rahbari ijtimoiy, ma‘naviy-ma‘rifiy sohalarida yangi ish tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha beshta muhim tashabbusni ilgari surdi. To‘rtinchi tashabbus yoshlar ma‘naviyatini yuksaltirish, kitobxonlikka mehr qo‘yish borasida tizimli ishlarni tashkil etishga qaratilgan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini dars jarayonlarida ma‘naviyatini yuksaltirish, milliy qadriyatlarga o‘rgatib borish bugungi kunning asosiy talabidir. Bu borada Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ta‘kidlaganlaridek, “Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma‘naviyatdir. Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma‘naviyat”<sup>1</sup>. O‘qish darslari uchun tanlangan mavzular o‘quvchilarga ta‘lim berish bilan birga milliy qadriyatlarga asoslanib tarbiya berishni ham ko‘zda tutadi. Boshlang‘ich sinflarda milliy hamda jahon adabiyoti namunalarini o‘qitish orqali o‘quvchilarning ma‘naviy-axloqiy dunyosi, adabiy-estetik didini shakllantirish hamda ularda mustaqil fikrlash, obrazli tafakkurga oid bilim, ko‘nikma, malakalarni hosil qilish va rivojlantirish; o‘quvchilarni badiiy adabiyotga qiziqtirish, asarlarni o‘rgatish jarayonida borliq va inson tabiati, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar, shuningdek, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish orqali o‘quvchilarning ma‘naviyatini, dunyoqarashini kengaytirib borish bilan mustahkamlanadi.

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish” masalalariga bag‘ishlangan videoselektordagi nutqi. –Toshkent. 2022-y. 19-yanvar.

Ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslanish va innovatsiyaga intilish, o'quvchilarni faollashtirishga qaratilgan turli interfaol metodlardan foydalanish, ta'lim maqsad va mazmunini samarali amalga oshirishga yordam beradi. So'nggi paytlarda kommunikativ yondashuvdan interaktiv yondashuvga o'tish metodikasidan foydalanilmoqda. Ma'lumki, interfaol metodlar o'quvchilarning nafaqat o'qituvchi bilan, balki bir-biri bilan o'zaro munosabatlariga qaratilgan bo'lib, bu o'quv jarayonida o'quvchilar faoliyatining ustunligiga yordam beradi. Qoidaga ko'ra, interfaol darslarning asosiy tarkibiy qismlari o'quvchilar tomonidan bajariladigan interfaol mashqlar va topshiriqlardir. Interfaol mashqlar va topshiriqlarning muhim farqi shundaki, ularni bajarish orqali o'quvchilar nafaqat o'rganiladigan materialni o'zlashtiradilar va mustahkamlaydilar, balki yangi bilimlarni ham o'zlashtiradilar, bu esa ularning ko'nikma va malakalarini rivojlantiradi. Interfaol metodlar darsning muhim va asosiy interfaol mashq va topshiriqlaridir. PIRLS xalqaro tadqiqotidagi muvaffaqiyat o'qituvchi tomonidan o'qish darslarida qo'llaniladigan metodlarga ham bog'liq.

Erkin yozish metodi – besh daqiqali inshoning boshqa ko'rinishi, o'quvchilarning muayyan mavzu bo'yicha o'z xayollariga kelgan barcha narsalarni to'xtamasdan yozish mashqi.

Qulayligi: mazkur mashqda o'qituvchining ixtiyorida ko'p imkoniyatlar bo'ladi. Masalan, juftliklarga o'z fikrlarini butun guruh bilan o'rtoqlashishni taklif etish va guruhli aqliy hujum vaziyatini yaratish mumkin.

Hamidulla Yoqubovning “O'jar toshbaqa” masali (3-sinf)

So'zlarni izohlang: *Qaysar, manqurt*.

(Qaysar -o'zboshimcha, bebosh, aytganini qiladigan)

(Manqurt- o'zligini unutgan, o'zligini yo'qotgan, o'z dunyo qarashiga ega bo'lmagan, qo'lidan har narsa keladigan xavfli kishi).

Topshiriq.

1. Har ikkala mavzuda matn tuzing.

2. Manqurtligi tufayli global muammoga aylangan guruhlar haqida ma'lumot bering.

Quyida Go'zal Begimning “Opa-singil daryolar” ertagini o'rganish yuzasidan topshiriqlardan namuna keltirildi.

1- Topshiriq. *Berilgan ta'riflar qaysi bir daryoga mos ekanligini toping. Mos javobni “+” ishorasi bilan belgilang.*

№	Ta'riflar	Amudaryo	Sirdaryo	Zarafshon
1	Tojikistonning Panj viloyatidan Orol dengizigacha bo'lgan masofada yumushlarni bajaradi.			
2	Qaddi raso, yuzlari tiniq, sochlari Amudaryoday shovullab turadi.			
3	Har bir qilg'i o'ziga yarashardi.			
4	Qoraqum va Qizilqum cho'llarini ikkiga ajratib turadi.			
5	Norin va Qoradaryo kabi daryolarning birlashishidan hosil bo'lgan.			
6	O'zbekiston orqali Turkman eliga o'tib, suv tashiydi.			
7	Chaqqonlikda opasi Amudaryoga teng kelolmasa ham, harakatdan to'xtamaydi.			
8	Orol dengiziga quyiladigan daryo.			
9	Shahd-u shiddati juda mo'l, ko'plab ishlarni yolg'iz o'zi bajaradi			

2- Topshiriq. *Nuqtalar o'rniga mos so'zlarni qo'ying.*

1. ... Tojikistonning Panj viloyatidan Orol dengizigacha bo'lgan masofada yumushlarni bajarar, shirindan shaker zilol suvini ulashar ekan.

2. U Qoraqum va ... cho'llarini ikkiga ajratib turarkan.

3. ... orqali Turkman eliga o'tib, suv tashiydi, qaytib kelib, ... dengiziga quyilarkan.

4. Sirdaryo ... va Qoradaryo kabi daryolarning birlashishidan hosil bo'lib, bu sirni hammadan sir tutib yasharkan.

5. Ayniqsa, opalari ... "yaxshilik qil-u, suvga ot, suv bilmasa baliq bilur, baliq bilmasa Xoliq bilur", degan maqolni tez-tez tarorlar ekan.

6. Birlikda ... bor.

3-Topshiriq. *Savollarga javob bering.*

1. Uch opa-singil daryolarning nomlarini ayting.

2. Bu daryolar haqida qo'shimcha ma'lumotlarni bilasizmi?

3. Bu daryolar qaysi davlatdan oqib o'tadi?

4. Orol dengiziga quyiladigan daryo nomini ayting.

5. Qaysi daryo uchta davlat hududidan oqadi?

6. Odamlar bir-birini qanday duo qilar ekan? Nima uchun?

7. Opa-singil daryolar nimadan hafa bo'lishar ekan?

8. Siz yana qanday daryolarni bilasiz?

9. Siz nima deb o'ylaysiz, muallif bu ertakni nima maqsadda yozgan?

Demak, interfaol metodlar yuqori bilim, muloqot, faollik, tezkor fikrlash, jamoaviylik, motivatsiya hamda o'z fikrini og'zaki va yozma erkin bayon eta olish qobiliyatini ta'minlash imkonini beradi, degan xulosaga kelish mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish" masalalariga bag'ishlangan videoselektordagi nutqi. –Toshkent. 2022-y. 19-yanvar.

2. Masharipova U. The Development of Innovative Culture of Primary School Teachers as a Pedagogical Problem. *Международный журнал прогрессивных наук и технологий (IJPSAT, ISSN: 2509-0119) (Vol. 19 No. 1 February 2020, pp. 285-287* <http://ijpsat.ijst-journals.org/index.php/ijpsat/article/view/1667/885>

3. Umarova M, Hamraqulova X, Tojoboyeva R "Oqish kitobi" 3- sinflar uchun "O'qituvchi" nashryot-matbaa ijodiy uyi Toshkent-2019. -216 b.

4. PIRLS 2021 Assessment Framework. Ina V.S. Mullis, Michael O. Martin. International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA), TIMSS & PIRLS International Study Center, Lynch School of Education, Boston College. 2019. [www.timssandpirls.bc.edu](http://www.timssandpirls.bc.edu)

## **PIRLS HALQARO BAHOLASH TIZIMIGA KITOB O'QISH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH ORQALI ERISHISH**

**Y.Y.Azimov**

Buxoro davlat universiteti Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida dotsenti f.f.n.

**R.A. Qo'ldoshev.**

Buxoro davlat universiteti Maktabgacha ta'lim kafedrasida mudiri, p.f.b.f.d (PhD)

*Mazkur maqolada PIRLS xalqaro baholash tizimiga o'tishga kitob o'qish madaniyatini shakllantirishning o'rnini borasida fikr-mulohazalar yuritiladi.*

**Tayanch so'zlar:** PIRLS, xalqaro qiyosiy baholash, kitob o'qish madaniyati, O'qish daftari, she'riy kitoblar, axborot-resurs markazlari, kitoblar burchagi, xalqaro o'qish savodxonligi.

*В данной статье рассматривается роль культуры чтения при переходе на международную систему оценивания PIRLS.*

**Ключевые слова:** PIRLS, международная сравнительная оценка, культура чтения, книга чтения, книги поэзии, центры информационных ресурсов, книжный уголок, книжный уголок, международная грамотность чтения.

*This article discusses the role of reading culture in the transition to the international PIRLS assessment system.*

**Keywords:** PIRLS, international comparative assessment, reading culture, reading book, poetry books, information resource centers, book corner, book corner, international reading literacy.

PIRLS xalqaro tadqiqoti boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o'qish va o'qitishni yaxshilashda ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga xizmat qilishi mumkin bo'lgan tahlillarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturi hisoblanadi. Hozirgi vaqtda PIRLS ta'rifiga ko'ra, o'qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyati hamdir.

“Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida”gi Prezidentimizning farmoyishlarini bu boradagi birinchi ustuvor qadam desak mubolag'a bo'lmaydi. Gap yoshlar tarbiyasi va ma'naviyati haqida borar ekan, bu Vatan taqdiriga daxldorlik hissini tuyadigan har bir kishining burchi ekanini anglamog'imiz zarur. Darhaqiqat, mamlakatimiz istiqbolga erishgach, barcha jabhalarda, xususan, ta'lim sohasida, ayniqsa, boshlang'ich ta'limda o'qitishning sifat va samaradorligini oshirish borasida qator tadbirlar ishlab chiqildi va ayni zamonda ularni amalga oshirish borasida ulkan yutuqlarga erishmoqdamiz. Jumladan, boshlang'ich sinf o'quvchilarining dunyoqarashini, ularning savodxonligini oshirish maqsadida darslarda turli zamonaviy vosita va usullardan foydalanish keng yo'lga qo'yilmoqda.

Insonda mustaqil fikrlash, xulosa chiqarish va mustaqil amal qilish qobiliyati zamona va uning taraqqiyotiga mos tarzda shakllanmas ekan, uning har qanday turdagi faoliyatining natijasiyu samarasi ham talab darajasida bo'lmaydi. Chunki jamiyat taraqqiyoti mislsiz darajada ilgarilab bormoqda va bu hodisa insoniyat oldiga katta vazifalarni, keng qamrovli faoliyatni hamda uning yelkasiga cheksiz mas'uliyat yukini yuklamoqda. Bu esa insonni tezkor, tadbirkor va har qanday vaziyatda to'g'ri hamda aniq xulosa chiqarib, amal qilish qobiliyatiga ega shaxs bo'lishga undamoqda. Shunday ekan, inson tabiatiga shu xislatlarni yoshligidanoq sistemali tarzda singdirib, uni bosqichma-bosqich takomillashtirib borish maqsadga muvofiq.

Ayni vaqtda, turli texnologiyalar rivojlangan zamonda, yoshlarimiz juda kam kitob o'qishadi, ularning mutolaa doiralari nihoyatda mahdud, deb noliymiz. Darhaqiqat, shunday. Hatto oliy o'quv yurtlarida testdan yuqori ball to'plab, talaba degan sharafli nomga musharraf bo'layotgan ko'pchilik talabalarimizning ham kitobga mehrlari ibrat olgulik darajada emas. Shular orasida umumiy o'rta ta'lim maktablarini bitirib, o'ntacha kitob o'qimaganlari ham topiladi. Natijada o'quvchi oliy o'quv yurti talabasi bo'lgandan keyin yelkasiga tushadigan yukni tortolmay qoladi. Kuzatishlarimizdan xulosa qilib aytish mumkinki, ushbu nuqsonning kelib chiqish sabablaridan biri o'quvchilarda mustaqil mutolaa qilish malakasini shakllanmaganligidadir. Agar bu ish boshlang'ich sinflardan boshlab ta'lim bir tizim va me'yor asosida yo'lga qo'yilsa, samarasi ham ko'ngildagiday bo'ladi.

Mamlakatimiz endi birinchi marotaba PIRLS xalqaro tadqiqoti doirasida olib boriladigan musobaqalarga qatnashdi. Ushbu xalqaro musobaqaga mamlakatimiz ulushini ko'paytirish uchun birinchi navbatda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish ko'nikmalari va mustaqil mutolaa malakasini shakllantirish kerak. Bunga erishish uchun esa quyidagi ish usullaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi deb o'ylaymiz:

**Birinchiidan**, har bir sinfda kitoblar burchagi (kichik sinf kutubxonasi)ni tashkil qilish lozim. O'quvchi qancha ko'p kitob olami bilan bog'liq bo'lsa va uning ta'sirida yursa, u bilan har kuni bevosita va bilvosita muloqot qilsa, ularga bo'lgan mehri shuncha ortadi. Buxoro shahar 23-umumiy o'rta ta'lim maktabining oliy toifali o'qituvchisi Oydin Adizova ota-onalar va maktab ma'muriyati yordamida tajriba sifatida o'zi dars beradigan sinfda sinf kutubxonasini tashkil qilgan edi. Unga har o'n besh kunda o'quvchilardan kutubxona mudiri (mudirasi) tayinlanadi. Kimning davrida o'quvchilar ko'proq kitob o'qisalar, o'sha yangi kitob bilan rag'batlantiriladi. Eng ko'p kitob o'qigan bola ham kutubxonadan o'ziga yoqqan kitobni olish imtiyoziga ega bo'ladi. Bu usul juda yaxshi samara bergan edi.

Ko'pincha o'qituvchilarimiz kitoblar burchagini nomigagina tashkil etib qo'yadilar. Unda uch-to'rtta kitob rasmiyat uchun qo'yiladi. Aslida ana shunday befarq munosabat va mas'uliyatsizlik o'quvchilarning kitobga bo'lgan mehrlarini so'ndiradi. O'qituvchi ishining samarasini ko'rmoqchi bo'lsa, kitoblar burchagini har oyda yangi kitoblar bilan to'ldirib borishi kerak. Burchak yonida har bir sinf o'quvchisi o'qishi shart bo'lgan hamda o'qituvchi tavsiya etgan kitoblar ro'yxati osib qo'yilishi lozim. Bundan tashqari, burchakda (yo kichik sinf kutubxonasida) «O'qish daftari» (o'quvchilarning mutolaa qilgan kitoblarini hisobga olish daftari)ning ham bo'lishi o'qituvchi ishini ancha yengillashtiradi. Daftar o'qituvchi tayinlagan mutasaddi talaba tomonidan to'ldirib boriladi. Har ikki oyda eng ko'p kitob mutolaa qilgan o'quvchilarning rasmlari maxsus burchakda namuna va ibrat sifatida chiqarilib qo'yiladi.

**Ikkinchiidan**, boshlang'ich sinf o'quvchilariga ko'proq bolalarga bag'ishlangan she'riy kitoblarni o'qish tavsiya etilsa, maqsadga erishish osonroq bo'ladi. Chunki bolalarga bag'ishlangan she'rlar

ohangdor va ravon o'qiladi, satrlar (misralar) qisqaligi sababli ular tez o'qilib, bolani zeriktirmaydi, uni yod olish va takrorlash oson, kitob sahifasida belgilar (harflar) miqdori oz bo'lganligi sababli bola ko'zini toliqtirmaydi, she'rlarni o'qish va yodlash jarayonida bolalarning bog'lanishli nutqi rivojlanadi, eshitish va qabul qilish sezgilari, yod olish va yoddan aytish qobiliyati shakllanadi. Biz bu bilan boshlang'ich sinf o'quvchilari nasriy asarlarni o'qimasin demoqchi emasmiz. Imkon qadar afsona, masal, hikoya kabi janrlarning nazmiy shakllaridan ko'proq foydalanilsa, samarasi ham shu qadar ko'zga ko'rinarli bo'lishini yana bir karra ta'kidlamoqchimiz, xolos.

**Uchinchi**dan, bolalarning mutolaa qilgan asarini so'zlab berishini to'g'ri yo'lga qo'yish zarur. Agar o'quvchi mutolaa etgan she'riy masal yo afsonani mustaqil hikoya qilish malakasini egallasa, uning atrofida bilan muloqot chegarasi ham kengayadi.

Hozirgi vaqtda turli xil hayvonlarning maska (rasm niqobi)si, insonlar qiyofasi maskalari magazinlarda sotilmoqda. O'qituvchi ana shulardan foydalanib bolalar o'qigan afsonalar asosida sahna ko'rinishlari tashkil etsa, rollarni ham o'quvchilarning o'zlari ijro etishsa, ularning kitobga bo'lgan munosabatlari ham ijobiy tomonga o'zgaradi. Ikkinchi dan, o'zlari o'qigan asarni sahna ko'rinishda ko'rib, uning mazmun-mohiyatini yanada teranroq anglash, o'qib olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu bilan birga, ularda mustaqil o'qish ko'nikmasi rivojlanadi, o'zlariga bo'lgan ishonch mustahkamlanadi. Natijada u ko'proq kitob o'qish, bilim va tafakkur doirasini kengaytirishga harakat qiladi. O'qituvchi ehtiyotkorlik bilan o'quvchining bu xohish va maylini ham nazorat qilishi va rag'batlantirib borishi lozim. Ana shundagina kutilgan natijaga erishish osonroq bo'ladi.

**To'rtinchi**dan, o'qituvchi birinchi sinfdan boshlab o'quvchilarni kutubxona bilan doimiy aloqada bo'lishini ta'minlashi va nazorat qilib borishi zarur. Bu jarayon jamoa bo'lib kutubxonaga borish, uning faoliyati va ishlash tartibi bilan tanishishdan boshlanadi. O'qituvchi o'z sinf jamoasini tantanali ravishda kutubxonaga olib boradi va kitoblar olamining o'ziga xos xususiyatlari borasida kutubxonachi yordamida o'quvchilarga qiziqarli hikoyalar aytib beradi, kitob olish va topshirish qoidalarini bilan yaqindan tanishtiradi, yangi nashr etilgan bolalar adabiyotidan namunalar ko'rsatib, ularni o'qishga da'vat etadi. Bolalarga faqat maktab kutubxonasi haqidagina ma'lumotlarni berib, cheklanmaslik kerak. Ular yashaydigan shahar (tuman) kutubxonalari, ular joylashgan manzillar, ularning kitob fondi, ishlash vaqtlariyu u yerdagi tartib qoidalar, mazkur kutubxonadagi o'qish zallari borasida ham ma'lumotlar berish lozim. Agar imkoni bo'lsa shunday kutubxonalarga ekskursiyalar tashkil etilsa nur ustiga a'lo nur bo'lar edi. Bunday tadbirlar o'quvchilarning kitobga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi. Bu ishlar bosqichma-bosqich amalga oshirilsa yanada yaxshiroq samara beradi. O'quvchi o'zi bilmagan holda kitoblar olamiga kirib boradi va uning sehirli olamiga maftun bo'lganini sezmay qoladi.

Yuqorida aytilgan taklif va mulohazalar o'qish darslari bilan mantiqiy bog'liqlikda va ma'lum tizim asosida muntazam amalga oshirilib borilsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining kitob o'qish madaniyatini hamda mustaqil mutolaa malakasini shakllantirish muammolari kamaygan va bolalar kitobxonligi ancha rivojlangan bo'lar edi. Bu esa mamlakatimiz boshlang'ich maktab 4-sinf o'quvchilarining PIRLS xalqaro baholash tizimida tashkil etiladigan musobaqalarga qatnashish imkoniyatini ta'minlashga zamin yaratadi.

## **“PIRLS” XALQARO TADQIQOTI: TARIXI, MAQSADI, METODOLOGIYASI, IMKONIYATLARI**

**Sh.U.Sariyev,**

Nizomiy nomidagi TDPU “Boshlang'ich ta'limda ona tili va uni o'qitish metodikasi” kafedrasi dotsent v.b.,  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada PIRLS xalqaro tadqiqoti tarixi, maqsadi, metodologiyasi, imkoniyatlari va ta'lim tizimidagi ahamiyati haqida so'z yuritilgan.*

**Аннотация:** *В этой статье обсуждаются история, цель, методология, возможности и важность международных исследований PIRLS в системе образования.*

**Annotation:** *This article discusses the history, purpose, methodology, opportunities and importance of international PIRLS research in the education system.*

**Tayanch so'zlar:** PIRLS, xalqaro tadqiqot, baholash dasturi.

**Ключевые слова:** PIRLS, международная программа исследований, программа оценки.

**Keywords:** PIRLS, international research program, evaluation program.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2018-yil 8-dekabrda qabul

qilingan 997-son qarori asosida mamlakatimizda ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko'rish va samarali natijalarga erishish bo'yicha ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda.

**PIRLS**[1] xalqaro o'qish va tushunishni aniqlash so'rovi butun dunyo bo'ylab boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish va tushunish darajasi va sifatini tadqiq etadi va solishtiradi, shuningdek, milliy ta'lim tizimlaridagi farqlarni aniqlaydi.

**Tarixi:** PIRLS loyihasi Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) homiyligida yaratilgan. Ma'lumot sifatida aytib o'tish joizki, 1958-yildan buyon IEA o'quvchilarning matematika, tabiiy fanlar hamda o'qish salohiyati bo'yicha savodxonliklarini baholash jarayonida ta'lim tizimidagi kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar hamda maqbul tavsiyalar yaratishi bilan boshqa xalqaro tashkilotlardan ajralib turadi.

Xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish uchun barcha mas'uliyat Chestnut Hill (Massachusetts, AQSH) Boston kollejiga yuklangan. Xalqaro tadqiqotlar uchun topshiriqlarni tayyorlash Gamburdagi (Germaniya) ma'lumotlar markazida amalga oshiriladi.

Tadqiqot davriy ravishda har 5 yilda bir marta o'tkaziladi.

**Maqsadi:** PIRLS – matnni o'qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqotning maqsadi turli xil ta'lim tizimidan iborat bo'lgan davlatlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish bo'yicha tayyorgarligi hamda o'quvchilarning har xil yutuqlarga erishishga sabab bo'luvchi ta'lim tizimidagi o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iborat. Albatta, bunday tadqiqot xalq ta'limi sohasidagi xodimlar, olimlar, metodistlar, o'qituvchilar, ota-onalar va jamoat vakillari uchun katta ahamiyatga ega.

**Tadqiqot metodologiyasi:** ushbu tadqiqot boshlang'ich sinflarni tugatgan o'quvchilarning bilimlarini tekshiradi, chunki boshlang'ich sinflarning oxirgi yili o'quvchilar rivojlanishidagi muhim bosqich hisoblanadi – bu vaqtda o'quvchilar o'qishni shunday o'zlashtirishlari kerakki, u ularning keyingi ta'lim olishlari uchun vosita bo'lishi lozim.

Barcha mamlakatlarda maktablarni tanlash mamlakatdagi barcha maktablar ro'yxatidan ehtimollik usuli bilan, ushbu maktabda so'ralgan parallel o'quvchilar sonini hisobga olgan holda, amalga oshiriladi. Tadqiqot jarayonlarini standartlashtirishga katta e'tibor beriladi. PIRLS tadqiqoti xalqaro muvofiqlashtiruvchi markaz tomonidan ishlab chiqilgan yagona ko'rsatmalar va qoidalarga muvofiq ravishda qat'iy olib boriladi. Tadqiqotning har bir bosqichi (namuna olish, tarjima qilish va moslashtirish, test va so'rovnomalar, ma'lumotlarni tekshirish va qayta ishlash) xalqaro ekspertlar tomonidan nazorat qilinadi.

PIRLS so'rovi o'quvchilar tomonidan maktab vaqtida va undan tashqarida eng ko'p qo'llaniladigan o'qishning ikki turini baholaydi:

- *o'qishda adabiy tajribani egallash maqsadida o'qish;*
- *axborotni o'zlashtirish va undan foydalanish maqsadida o'qish.*

Tadqiqotning kontseptual qoidalariga muvofiq, badiiy va axborot (ommabop) matnlarni o'qishda o'qish qobiliyatining to'rtta guruhi baholanadi:

- *aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topish;*
- *xulosalarni shakllantirish;*
- *axborotni talqin qilish va umumlashtirish;*
- *matn mazmuni, lingvistik xususiyatlari va tuzilishini tahlil qilish va baholash.*

Bajarilgan ishlarni sifat va miqdoriy baholash uchun PIRLSda quyidagi tizimdan foydalanadi:

- *javoblar tanlovi mavjud topshiriqlar **1 ball** bilan baholanadi;*
- *hodisalar ketma-ketligini belgilash bo'yicha topshiriqlar **1 ball** bilan baholanadi;*
- *javobi erkin tuzilgan topshiriqlar topshiriqning murakkabligiga qarab **1 dan 3 ballgacha** baholanadi.*

Natijalarni yakuniy qayta ishlash uchun zamonaviy test nazariyasi qo'llaniladi.

Xalqaro ekspertlarning ta'kidlashicha, PIRLS tadqiqotining natijalari maktab o'quvchilarining o'qish va rivojlanishidagi muvaffaqiyatlarga (maktab va oilaning ta'lim resurslari, ota-onalarning qiziqishi va bolalarning o'qish madaniyatini shakllantirishdagi ishtiroki va boshqalar) ta'sir ko'rsatadigan omillarning regressiv tahlilini ham ta'minlaydi.

O'zbekiston PIRLS-2021 baholash tizimida ishtirok etdi. PIRLS xalqaro dasturida qatnashish O'zbekistonga boshlang'ich sinf o'quvchilari orasida o'qish qobiliyatlari darajasini mustaqil ravishda obyektiv baholash imkonini beradi. Bundan tashqari, O'zbekiston ta'limining ochiqligi va integratsiyalashuvi dunyoning yetakchi ta'lim tizimlarining xalqaro hamjamiyatiga integratsiyalashuvini ta'minlaydi.

PIRLS tadqiqoti hozirgacha **5 marta** o'tkazildi: 2001, 2006, 2011, 2016, 2021[2]. Quyidagi jadvalda (2001, 2006, 2011, 2016-yillarda) PIRLS xalqaro tadqiqotida ishtirok etgan va yetakchi beshlikdan o'rin olgan davlatlarni ko'rishimiz mumkin:

PIRLS natijalari			
2001-yil	2006-yil	2011-yil	2016-yil
1. Shvetsiya	1. Rossiya	1. Gongkong	1. Rossiya
2. Niderlandiya	2. Gongkong	2. Rossiya	2. Singapur
3. Angliya	3. Kanada (Alberta provinsiyasi)	3. Finlandiya	3. Gongkong
4. Bolgariya	4. Singapur	4. Singapur	4. Irlandiya
5. Latviya	5. Kanada (Britaniya Kolumbiyasi provinsiyasi)	5. Shimoliy Irlandiya	5. Finlandiya

#### **PIRLS tadqiqotiga o'quvchilarni qanday tayyorlash kerak?**

1. Sinfdan o'qish darslarini eng yuqori sifatda olib borishni ta'minlash.
2. O'quvchilarni uyda o'qishga rag'batlantirish.
3. O'quv dasturining PIRLSga mos kelishini ta'minlash.
4. PIRLS baholash vazifalarini yaxshilab o'rganish va ularga ko'nikish.

#### **Amaliy tavsiyalar:**

1. Tadqiqot sohasida ilg'or o'qituvchilarni aniqlash, ularning ish va dars rejasini ommalashtirish, dars metodikalarini yozib olish.
2. E'tiborni PIRLS va boshlang'ich sinf bitiruvchilari uchun o'quv mashg'ulotlari sifatiga ko'proq qaratish.
3. PIRLSni rivojlantirish uchun har bir maktabdan eng ilg'orlarni aniqlash, fikr almashish.

#### **Manbalar:**

1. <https://ru.wikipedia.org/wiki/PIRLS>
2. <https://timssandpirls.bc.edu/pirls2021/index.html>

### **BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING BILIMINI BAHOLASHDA ARIFMETIK MASALALARNING O'RNI**

**F.M.Qosimov**

Buxoro davlat universiteti Boshlang'ich ta'lim metodikasi  
kafedrasida dotsenti,

**G.Shoirova**

BuxDU talabasi

*Bu maqolada boshlang'ich o'quvchilariga arifmetik masalalarni yechishga o'rgatishning usullari yoritilgan.*

**Tayanch so'zlar:** masala, arifmetik masala, arifmetik amal, misol, topshiriq.

Boshlang'ich sinflarda matematik bilimlar berish jarayonida arifmetik masalaning ahamiyati, mohiyati to'g'risida ko'p gapirilgan:

a) arifmetik masala o'quvchilarga arifmetik amallarning ma'nosini chuqur tushuntirishga, amallar xossalari mohiyatiga to'la yetishga ko'maklashadi;

b) o'quvchilar tafakkurini hayotiy faktlar bilan boyitadi, chunki masalada hayotiy haqiqat aks ettiriladi;

c) o'quvchilarda matematik tilni shakllantiradi. O'quvchi istalgan matematik ifoda, topshiriq, matnga qarab uning talabini sharhlab bera oladigan bo'ladi;

d) o'quvchida mantiqiy tafakkur rivojlantiriladi;

e) istalgan masala tarbiyaviy ahamiyatga ega. U hayot taraqqiyoti dinamikasini ochib beradi;

f) masala yechish jarayonida o'quvchilarda fanga nisbatan qiziquvchanlik mustaqillik va erkin fikrlash uyg'onadi;

g) istalgan arifmetik masala nazariya bilan amaliyotini bog'lash borasidagi asosiy vositadir;

h) masala yechish jarayonida o'quvchilarda ijodiy fikrlash shaklanadi, hayotiy voqelikni tassavvur qila oladi;

i) masalalar orqali o'quvchilar bilimni baholash ularning fikrlash qobiliyatlarini o'stiribgina qolmay erkin fikrlashlari uchun muhim ahamiyat kasb etadi

Yuqorida qayd etilganlarning boshlang'ich sinflar uchun ahamiyatini to'ldirib, arifmetik masala deganda shunday savolni tushunmoq kerakki, masala shartida berilgan sonni faktlar ustida arifmetik amallar bajarilib undagi noma'lum topiladi, deb ta'rif berish mumkin. Masala savoliga javob uni yechib topiladi. Yechish deganda masalada berilganlar bilan izlanayotgan miqdor o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash tushuniladi.

Shu munosabat bilan istalgan arifmetik masalani uch qismga bo'lish mumkin:

1. Masalaning sharti bilan.
2. Undagi sonli faktlar.
3. Masalaning savoli

Yuqorida keltirilgan barcha argumentlar boshlang'ich sinfda matematika o'qitishda o'qituvchi, arifmetik masalalar yechishga jiddiy e'tibor bilan qarashi kerakligini va maktabda butun matematika kursini o'zlashtirish ishi arifmetik masalalarga qaratilib ko'rilishi zarurligini ko'rsatadi.

Shunday savol tug'iladi, arifmetik masala bilan misol o'rtasida qanday farq bor?

Misol bu sonli ifoda bo'lib, unda amallar va ularning bajarilish tartibi amal belgilari orqali berilgan bo'ladi. Ammo har qanday sharti, sonli faktlari va savoli bo'lgan matn masala bo'la olmaydi. Bunda ham o'ziga xos talablar mavjud.

Masala o'z mazmuni bilan o'quvchilarga yaqin va tanish bo'lib, u o'quvchini o'rab olgan hayot voqealarini o'zida aks ettirishi kerak. Tuzilishi jihatdan oddiy, tushunarli, iloji boricha qisqa matnli bo'lishi kerak.

Sonli faktlar hayotiy, real, imkoniyat chegaramizga sig'adigan, mantiqan to'g'ri tanlangan va taraqqiyot dinamikasini ochib beradigan bo'lishi kerak.

Boshlang'ich sinf darsliklarini tahlil qilganimizda 1-sinfning ikkinchi yarim yiligidan boshlab, har bir darsda hech bo'lmaganda bir yoki bir necha masalaga duch kelamiz. Masalalarni o'quvchilarga tushuntira olish o'qituvchining mahoratiga bog'liq bo'ladi. O'qituvchi esa kuchli bilim va metodik mahoratga ega bo'lgan, bolalarni chin dildan sevuvchi inson bo'lishi kerak

Masala tuzish ishi boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ancha murakkabligini unutmaslik kerak. Chunki bolalar masala tuzayotganda kerak bo'lgan miqdorlar sonini, ularni bir-biriga bog'lashni hali yaxshi bilishmaydi. Masalaga savol qo'yishda qiynalishadi. Shuning uchun avval o'qituvchining o'zi masalaning qanday yuzaga kelishini amaliy tarzida tuzib ko'rsatadi.

1. Masalan, I sinfda noma'lum qo'shiluvchini topishga doir masala "Stolda 29 ta daftar yotibdi. 12 tasi katakli daftar, qolganlari esa bir chiziqli daftar. Nechta daftar bir chiziqli?" yechilsa, unda o'quvchilar ko'z o'ngida shunga o'xshash quyidagicha masalani tuzib ko'rsatish mumkin.

O'qituvchi stoliga bir qancha daftar qo'yadi. Bir o'quvchiga shu daftarlar ustiga yana ikkita daftar qo'shishni aytadi. So'ngra hamma daftarlar sanaladi va oldin stol ustida nechta daftar bo'lganligini aniqlash maqsadida masala tuziladi va yechiladi. Yoki noma'lum kamayuvchini topishga doir masala "Zarinada bir nechta daftar bor edi. U o'rtog'iga ikkita daftarini berganidan keyin uning 9 ta daftari qoldi. Zarinada nechta daftar bo'lgan?" yechilgach, noma'lum ayriluvchini topishga doir "Do'konda 100 dona changyutgich bor edi. Bir nechta changyutgich sotilgan keyin 91 ta changyutgich qoldi. Nechta changyutgich sotib yuborilgan?" degan masala 2-sinf 47 betdagi 4-masalani yechilgandan keyin berilsa maqsadga muvofiqdir. Keyinchalik rangli rasmlar yuzasidan masalalar tuzish, tuzdirish orqali bu kabi ijodiy ishlar kengayib boradi. Masala tuzish uchun rasmlarda berilgan ma'lumotlar o'quvchilarga ancha tanish bo'lib, bunda o'quvchilarning asosiy vazifasi rasmini o'qib unga savol qo'yishdan iborat bo'ladi.

Masalan, 2 ta likopcha tasvirlangan. 1-likopchada 3 ta olma bor. Ikkinchi likopchada 2 ta olma bor.

Shu rasm asosida masala tuziladi: "Bir likopchada uchta olma, ikkinchi likopchada 2 ta olma bor. Ikkala likopchada nechta olma bor?"

2. Masalalar tuzishda bolajonlarni mehnatsevarlikka o'rgatish, kasbga yo'naltirish maqsadida 57-betdagi 1-masalani "Bir matodan kastyumga 30 m, shimga 24 m, nimcha tikishga kastyum bilan shim uchun qancha mato ketgan bo'lsa, shundan 34 m kam mato ishlatildi. Nimcha tikish uchun qancha mato ishlatilgan?" ko'rinishdagi masala yechgach, darhol sinf hayotidan shunga o'xshash masala tuzishlari, tikuvchilik kasbiga qiziqtirish mumkin.

3. Matematikani hayot bilan bog'lashda predmetlar aro bog'lanish ham katta ahamiyatga ega. Masalan, tabiatshunoslik darslarida hosil qilgan gorizont tomonlari bo'yicha mo'ljal ola bilish malakalarini mustahkamlash maqsadida ushbu mazmundagi harakatga doir masalalarni yechtirish va tuzdirib yechtirish mumkin.

Aeroportda bir vaqtda g'arbiy va sharqiy yo'nalishda 2 ta samolyot uchdi. Ulardan birining tezligi soatiga 600 km, ikkinchisi esa 720 km. 3 soatdan keyin samolyotlar bir-biridan qancha uzoqlikda bo'lgan?

Yoki qishloq xo'jaligi materiali asosida ham ko'plab masalalar tuzish mumkin.

I. Boshlang'ich sinf o'quvchilari har bir ishga sidqidildan yondashib, havas bilan kirishadilar, lekin ular o'z faoliyatlarida ba'zi bir qiyinchiliklarga duch kelib ishning uddasidan chiqa olmasalar, ularning qiziqishi keskin pasayib ketishi mumkin. Natijada o'quvchilarda o'z qobiliyatiga ishonmaslik, loqaydlik kabi salbiy holatlar yuzaga keladi.

Bunday holatlarni oldinini olish uchun o'qitish metodlaridan mahorat bilan foydalanish va o'quvchilarga nisbatan samimiy munosabatda bo'lishi kerak.

Ishni shunday tashkil etmoq kerakki o'quvchi har doim ishdan qoniqsin, quvonib xursand bo'lib yursin.

Shuning uchun ham ishga ijobiy yaqinlashib dars paytida turli matematik materiallardan, matematik maqol va topishmoqlardan unumli foydalanish kerak.

Ayniqsa, ijodiy fikrlashga qaratilgan o'yinlardan foydalanish har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisining ishchanligiga, ijodkorligiga bog'liqdir.

Masalan, Anvar o'rdak bilan qo'ylarni boqib yurar edi. Vali undan: "Sen nechta o'rdak va qo'y boqib yuripsan?"- deb so'radi. "hamma o'rdak va qo'ylarning boshlari 30 ta, oyoqlari esa 84 ta. Qani o'zing o'ylab ko'r-chi?"-dedi Anvar. Lekin Vali topa olmadi. Qani bolajonlar siz Valiga yordam bering-chi? (Anvar 12 ta qo'y va o'rdak boqib yuribdi).

Masalalar yechishga ijodiy yaqinlashishni yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi ishlarni bajarish mumkin:

1. Tayyor shart asosida masala tuzib yeching.

Bor edi – 30 ta va 9 ta konfet

Olindi – 26 ta konfet

Qoldi - ?

2. Ifodalar bo'yicha masalalar tuzib yechish.

a)  $32:4+32$

b)  $(32-4)+32$

3. Jadval bo'yicha masalalar tuzing va ularni yeching.

	<b>Bor edi</b>	<b>Jo'natishdi</b>	<b>Qoldi</b>
	40 ta yashik	?	15 ta yashik
	?	23 ta yashik	8 ta yashik
	100 ta yashik	52 ta yashik	?

II. O'quvchilar sodda arifmetik masalalar yecha boshlagandan boshlab, I sinf oxirida teskari masala to'g'risida dastlabki tushunchaga egalar. Masalan, jadval asosida to'g'ri va teskari masala tuzib yeching.

	<b>1 ta yashikdagi olmaning og'irligi</b>	<b>Yashiklar soni</b>	<b>Hamma yashiklarning og'irligi</b>
	6 kg	3 ta	?
	6 kg	?	18 kg
	?	3 ta	18 kg

Jadvalda tasvirlanganidek, har bir soda masaladan 2 ta teskari masala tuzish mumkin. Bunda teskari masalalarning soni, amaldagi komponentlari sonidan kelib chiqadi. Murakkab arifmetik masalalar to'g'rida gapirganda teskari masalalar soni masalada berilgan sonli faktlar miqdoridan kelib chiqadi. Chunki birinchi berilgan to'g'ri masalani yechib, uning javobini kelgusi masalalarda ishlatish, har bir berilgan sonli faktni noma'lum deb olib, teskari masala tuzish va uni yechish mumkin.

Teskari masalalar tuzib, uni yechish o'quvchiga zavq bag'ishlaydi. Oldingi masalani to'g'ri yechganiga ishonch hosil qildiradi. O'z qobiliyatiga tayanib ish qilishga undaydi, fanga qiziqishi oshadi. Fikrimizni quyidagi masala bilan asoslaymiz:

Ombordan magazinga har birida 6 kg dan olma bo'lgan 4 yashik va 8 kg nok bo'lgan 1 ta yashik jo'natildi. Hammasi bo'lib necha kg meva jo'natilgan?

Ushbu masalaga qisqacha shartni tuzamiz:

Olma -6 kg dan 4 yashik

Nok- 8 kg dan 1 yashik

Hammasi- ?

Yechim:  $6*4+8*1=24+8=32$  kg

Javob: 32 kg.

1-teskari masala quyidagicha bo'ladi:

Olma -? 4 yashik

Nok -8 kg dan 1 yashik

Hammasi- 32 kg

Qisqa shartga ko'ra bolalarga masala tuzish taklifi kiritiladi va shu taklif asosida bolalar 1-teskari masalani tuzadilar. Bu teskari masalaning yechimi quyidagicha:  $(32-8*1):4=6$  kg.

2-teskari masala:

Olma - 6 kg , 4 yashik

Nok - ? 1 yashik

Hammasi- 32 kg

Yechish:  $(32-6*4):1=8$  kg

Javob: 8 kg.

3-teskari masala:

Olma- 6 kg dan? yashik

Nok - 8 kg dan 1 yashik

Hammasi - 32 kg

Yechish:  $(32-8*1):6=4$

Javob: 4 yashik

4 –teskari masala:

Olma – 6 kg dan 4 yashik

Nok – 8 kg dan? yashik

Hammasi 32 kg

Yechish:  $(32-6*4):8=1$

Javob: 1 yashik

Masalalarga nisbatan bunday yondashish o'quvchilarga matematik tilni rivojlantiriladi, ularda nutq madaniyatini o'stiradi. O'quvchilar bir masaladan bir necha masala matnini tuzadi va uni yechadi.

## **PIRLS- XALQARO O'QISH SAVODXONLIGINI BAHOLASH TADQIQOTI XUSUSIYATLARI VA BAHOLASH BO'YICHA KO'RSATMALAR**

**G. I. Idiyeva**

Buxoro davlat universitet

pedagogika instituti 1-kurs magistranti

*PIRLS - boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnini o'qib tushunish darajasini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqot dasturidir. O'quvchilarning o'qib tushunish ko'nikmasini qay darajada rivojlanganligini, xalqaro miqyosda taqqoslash imkoniyatini yaratib beradi. Ta'lim tizimida har bir davlatning xalqaro nufuzini oshiradi.*

**Kalit so'zlar:** *PIRLS, tadqiqot, matn, baho, ta'lim, savodxonlik, fikr mazmun, mezon, ta'lim sifati.*

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora - tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tashkil etildi. Shunga binoan o'quvchilarning ta'lim sohasidagi yutuqlarini baholash va nazorat qilish ishlarini amalga oshiradi.

PIRLS-(Progress in International Reading Literacy Study) IEA (Xalqaro ta'lim yutuqlarini baholash assotsatsiyasi tomonidan tashkil etilgan bo'lib, butun dunyo bo'ylab boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnini o'qish va tushunish darajasi va sifatini solishtiradi, umumiy natijalarni chiqarib beradi, shuningdek, milliy ta'lim tizimlaridagi farqlarni aniqlaydigan monitoring tadqiqotidir. Hozirgi paytda bu tushuncha o'qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyati hamdir.

Bu tadqiqot barcha o'quvchilardan emas, balki ushbu qatlamning vakillari sifatida tanlab olingan o'quvchilardan obyektiv testlarni olish orqali baholaydi, shuningdek maktab direktorlari, o'qituvchilar, o'quvchilar, ota-onalar orasida so'rovnomalar o'tkazib, ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi qimmatli ma'lumotlar to'playdi. Berilgan matnga u adabiy yoki publistik bo'lishidan qat'iy nazar matnini to'g'ri tahlil qilish, undagi ma'noni anglash, mushohada yuritish, odatiy shakl, qoidalardan voz kechgan holda ongli anglash orqali o'quvchiga sharhlashga yordam beradi. PIRLS tadqiqotlariga tayyorlash avvalambor, boshlang'ich sinf o'qituvchisi zimmasiga katta ma'suliyat yuklaydi. Bola 1-sinfga qabul

qilinganidan boshlab badiiy asarni to'g'ri ang'lay olishi, idrok qila olishi, voqealar rivojini ketma - ketligini aniq tassavvur qilgan holda joylashtira olishi, o'quvchidan aniqlik, o'qituvchidan yuksak mahorat talab etadi.

PIRLS 4- sinf o'quvchilarining ikkita keng qamrovli maqsadiga, fikr yo'nalishiga qaratilgan.

Bular:

- kitobxonning badiiy tajriba orttirishi ( 50 %)
- ma'lumot olish va ulardan foydalanish maqsadida o'qish (50%)

Badiiy va ommaviy matnlarni o'qishda tadqiqot o'qish qobiliyatining to'rtta guruhini baholaydi:

- aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topish;
- xulosalarni shakllantirish;
- axborotni talqin qilish va umumlashtirish;
- matn mazmuni, til xususiyatlari , tuzilishini tahlil qilish va baholash.

Yosh o'quvchi uchun o'qish savodxonligining har ikki maqsadi ham muhim hisoblanadi. Shuning uchun PIRLS har bir o'qish turini baholashda matnlarni teng bo'lishni asosiy maqsad qilib olgan.

PIRLS tadqiqotida ishlatiladigan matnlarning xususiyatlari. Tekshirish uchun maktab o'quvchilariga ikkita matn beriladi: ilmiy ommabop va badiiy. O'qishdan so'ng bolalar har biri uchun bir nechta savollarga javob berishi kerak. Matnlarda mavzu, til, mazmun, bog'liqlik va ketma - ketlik asosiy qo'yiladigan mezonlar sanaladi. Ularni tanlab olishda o'quvchilardan tanlab olinmaganligi, 9-10 yoshli o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos kelishi, matn syujetining mantiqiy ketma-ketligiga sarlavhalar, jadvallar, grafiklar kabi visual elementlarga rioya qilinganligi, oddiy va murakkab matnlar tengligiga e'tibor qaratilganligi asos sifatida olinadi. Bu materiallar 40 dan ortiq tillarga tarjima qilinadi. Shuning uchun tarjima qulay. aniq bo'lishi, metafora yoki epitet kabi ifodali tasvirlash so'zlaridan foydalanish muhimdir. Hech qanday so'zlashuvga oid yoki jargonlar ishlatilmaydi, ortiqcha texnik ifodalar olib tashlanadi. Tadqiqotda matnlar murakkabligiga qarab:

- o'rtacha 500 - 800 ta so'z;
- o'qish savodxonligi darajasi past mamlakatlar uchun 400-500 ta so'z ;
- PIRLSda 1000 ta so'zdan iborat.

Savol matni va javoblar bir - biriga mos kelsa, o'quvchilar uchun matndagi savolga javob topish hech qanday qiyinchilik yaratmaydi. Biroq, o'quvchilar savol va javobning og'zaki tuzilishini solishtirganda eng elementar sinonimik almashtirishlar qiyin bo'lib tuyuladi.

PIRLS tadqiqotlari har 5 yilda o'tkazib kelinadi. Birinchi marta 2001- yilda o'tkazilgan bo'lib, unda 35 ta davlatdan Shvetsiya, Niderlandiya, Angliya, Bolgariya yetakchilik qilgan. 2006 – yilda o'tkazilgan tadqiqotda 40 ta davlatdan Rossiya, Gonkong, Singapur o'quvchilari eng yaxshi natijalarni qayd etdi. Bunda 10 ta matn hamda ular uchun 126 ta topshiriq tayyorlangan. Har bir matn uchun 11 dan 14 tagacha topshiriq uchun 80 daqiqa, har bir qism uchun 40 daqiqa vaqt ajratilgan. 2011-yilgi tadqiqotda 45 mamlakatdan Gonkong, Rossiya, Finlandiya, Singapur o'quvchilari o'qishni o'rganishda eng mvaffaqiyatli bo'lgan. Ushbu mamlakatlarning 4-sinf o'quvchilari barcha ishtirokchi davlatlar orasida eng yaxshi natijalar qayd etgan. 2016-yilda 50 ta davlat ishtirok etgan bo'lsa, 2021- yilda bu ko'rsatkich 60 taga yetdi.

Baholash mezonlari. Oliy daraja 625 ball va undan yuqori ko'rsatkichga ega bo'lib, o'quvchilar matnni yaxlit o'zlashtira oladi. Muallifning g'oyasini ifodalashda o'z fikrlariga tayana oladi.

Yuqori daraja 550 ball va undan yuqori natijalar bo'lib, o'quvchilar matnning ahamiyatli xabarlarini tushunadi. Matnga asoslanib o'zi xulosa chiqara oladi, matn mazmuniga ham shakliga ham baho bera oladi.

O'rta daraja 475 ball bo'lib, o'quvchilar matndan axborot topa oladi, matn shakli va tilining ayrim xususiyatlaridan foydalanib xulosa chiqaradi.

Quyi daraja 400 ball, o'quvchilar matnda aniq bo'lgan va cheklash oson bo'lgan xabarni ajrata oladi.

#### Charlining qobiliyati

Yoz fasli endigina boshlangan edi. Charli o'zining uyi oldidagi bog'da ishlayotgan edi. U sakrab ketayotgan do'sti Deyvni ko'rib qoldi. U to'xtadi va qo'l silkidi. "Yozda nima qilmoqchisan?"- deb so'radi Charli. "Bizning futbol jamoamiz katta turnirga tayyorlanmoqda. Mening o'ylashimcha, bu yil g'olib bo'lamiz", deb javob berdi Deyv. "Voy...bu juda zo'rku",- dedi Charli. Deyv yugurib ketdi, Charli esa urug'larni ekishda davom etdi. "Futbol jamoasida bo'lganimda edi",- deb o'yladi u. Men tayyorgarlikni boshlashim kerak....

1. Hikoyaning boshida Charli qayerda edi?

- A. o'zining bog'ida B. maktabda C. ko'chada D. o'zining uyida

2. Kim futbol turniriga tayyorlanayotgan edi ?

Xulosa. PIRLS tadqiqotida ishtirok etish: ta'lim sifatini oshishiga, xalqaro miqyosda mamlakat nufuzini oshirishga, ta'lim tizimini xalqaro talablar darajasiga olib chiqishga, ta'lim olish va moliyaviy jozibadorlikni yuksalishi uchun asosiy omil bo'ladi.

**Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash metodik qo'llanma. Sharq nashriyoti, Toshkent 2019, 4-15.

2. Международное исследование "Изучение качества чтения и понимания текста".  
<https://gtmarket.ru/research/pirls>

3. <https://ru.m.wikipedia.org/wiki/PIRLS>

**PIRLS XALQARO TADQIQOTINING TA'LIM TIZIMIDAGI AHAMIYATI**

**G. H. Saidova,**

Toshkent davlat pedagogika  
universiteti dotsent, PhD

*ushbu maqolada ta'lim sifati va samaradorligini oshirish yo'lida xorijiy ilg'or tajribalarni o'rganish, xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi, bu borada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ishlar, shu jumladan, PIRLS tadqiqotiga doir amalga oshirilgan ishlar va ularning tahlillari haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** PIRLS, badiiy tajriba orttirish matnlari, axborot olish va undan foydalanish, tushunish jarayonlari

*В данной статье рассматривается изучение передового опыта повышения качества и эффективности образования, внедрение международных стандартов, работа, проводимая в нашей стране в этом направлении, в том числе работа, сделанная по исследованию PIRLS и их анализ. идет.*

**Ключевые слова:** PIRLS, тексты для приобретения художественного опыта, получение и использование информации, процессы понимания.

*This article discusses the study of best practices for improving the quality and efficiency of education, the introduction of international standards, the work carried out in our country in this direction, including the work done on the study of PIRLS and their analysis. goes.*

**Key words:** PIRLS, texts for the acquisition of artistic experience, obtaining and using information, processes of understanding.

Ta'lim sifati va samaradorligini oshirish yo'lida xorijiy ilg'or tajribalarni o'rganish, xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyatga ega. Bu borada O'zbekiston Respublikasida qo'yilayotgan amaliy qadamlarga xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarning tashkil etilishi to'g'risida davlat qarorining qabul qilinishi Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) bilan hamkorlik aloqalarining yo'lga qo'yilishini misol sifatida keltirish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi 5712-son Farmonida 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan.

Shuningdek, konsepsiya doirasida o'quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish kompetensiyalari va malakalarining rivojlanishiga alohida urg'u berishni hisobga olgan holda, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta'lim dasturlari va yangi davlat ta'lim standartlarini joriy etish, o'quvchilarning bilim darajasini baholashda xalqaro PISA, TIMSS, PIRLS va boshqa dasturlarda doimiy ishtirok etish nazarda tutilgan.

PIRLS dasturi 2001-yilda Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA-International Association for the Evaluation of Educational Achievement) tomonidan tashkil etilgan. Xalqaro tadqiqotni tashkil etish uchun barcha mas'uliyat Boston kollejiga yuklatilgan. Shuningdek, xalqaro tadqiqot uchun topshiriqlarni tayyorlash Germaniya (Gamburg) ma'lumotlar markazida olib

boriladi.

PIRLS-Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) tomonidan har 5 yilda bir marotaba o'tkaziladi. Tadqiqot boshlang'ich sinf o'quvchilarning erishgan yutuqlarini o'rganishda barcha o'quvchilardan emas, balki ushbu qatlamning vakillari sifatida tanlab olingan o'quvchilardan obyektiv testlarni o'tkazish orqali baholaydi.

Xalqaro baholash dasturi PIRLS (Progress In International Reading And Literacy Study) dunyoning turli mamlakatlari milliy ta'lim tizimida o'qish savodxonligi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar va natijalarni qiyoslashga yo'naltirilgan.

2021-yilda o'tkazilgan PIRLS tadqiqotlarida dasturning birinchi marta raqamli formatda bo'lib o'tdi.

PIRLS dasturida qatnashuvchi mamlakatlar soni yildan yilga ko'payib bormoqda. Masalan, dasturda 2001-yilda 35 ta mamlakat qatnashgan bo'lsa, 2006-yilda 40 ta, 2011-yilda 45 ta, 2016-yilda 50 ta mamlakat va 2021-yilda o'tkazilgan tadqiqotda 60 ta mamlakatning ishtirok etidi.

2016-yilda tadqiqotga Rossiya Federatsiyasining 42 ta hududidan 206 ta umumiy o'rta ta'lim maktabi va 4577 ta boshlang'ich sinf o'quvchilari jalb etilgan bo'lib, tadqiqot natijalariga ko'ra Rossiya Federatsiyasi dunyo bo'yicha birinchi o'rinni egallagan.

O'qish savodxonligi haqida ko'plab ta'riflar berish mumkin. o'qish savodxonligi - jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma tilning shakllarini idrok etish va amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir.

Ushbu nuqtayi nazar kelib chiqib o'quvchilarning o'qishdan olgan ma'lumotlardan foydalanish qobiliyatiga tobora ko'proq e'tibor qaratadigan zamonaviy jamiyatda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Asosiy e'tibor tushunishni namoyon qilishdan o'zlashtirilgan ma'lumotlarni qanday qilib yangi loyihalar va vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatlarini namoyon qilishga qaratilmoqda.

PIRLSning o'qishdagi yutuqlarni baholash doiralari IEA tomonidan 1991-yilda o'qish savodxonligi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlardan foydalangan holda, ilk marotaba, 2001-yildagi tadqiqotlar uchun ishlab chiqilgan.

Shundan buyon PIRLSning baholash doiralari tadqiqotning har bir davri uchun yangilandi.

Shunday qilib, o'qish savodxonligi yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyati hamdir.

O'qish savodxonligining bu ko'rinishi ijodiy va birgalikdagi jarayon bo'lib, o'quvchining matn bilan ishlashi jarayonida o'quvchi va matn orasidagi muloqot orqali o'quvchi ma'noni yaratadi. O'quvchi bu jarayonning faol qatnashuvchisi bo'lib, ma'no yaratadi, matn ustida mushohada yuritadi va samarali o'qish strategiyalarini ongli ravishda tanlab qo'llaydi. Har bir matn turi odatiy shakl va qoidalarga amal qilgan holda o'quvchiga matnni sharhlashga yordam beradi. Har qanday matn turli shaklga ega bo'ladi. Bular an'anaviy kitoblar, jurnallar, hujjatlar va gazetalarni o'z ichiga oladi.

PIRLS dagi matnlar 2 turli bo'ladi. Bular badiiy tajriba orttirish hamda ma'lumot olish va ulardan foydalanish uchun o'qishdir.

Bundan tashqari, PIRLS o'qish maqsadlarining har birida to'rtta keng tushunish kompetensiyalarini birlashtiradi. Bular: diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topish, to'g'ridan to'g'ri xulosalar chiqarish, g'oyalar va axborotni talqin qilish va uyg'unlashtirish, kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilish.

Butun dunyo bo'yicha o'qish savodxonligining rivojlanishi odamlarning nima sababdan o'qishlari bilan bevosita bog'liq. Umuman olganda, insonlar zavqlanish, shaxsiy qiziqish, ta'lim va jamiyat hayotida munosib ishtirok etish uchun o'qiydilar. Ko'pgina yosh o'quvchilarning dastlabki mutolaa manbalari hikoya (masalan, hikoya to'plamlari yoki rasmlı kitoblar) yoki o'quvchilarga atrofıdagi dunyo haqida ma'lumot beradigan va savollarga javob beradigan ma'lumotli matnlardan iborat bo'ladi.

Yosh o'quvchi uchun o'qish savodxonligining har ikki maqsadi ham muhim hisoblanadi. Shuning uchun PIRLS har bir o'qish turini baholashda matnlarni teng bo'lishni asosiy maqsad qilib olgan.

**Badiiy tajriba orttirish matnlarida** tasvirlangan voqea hodisalar, harakatlar va ularning oqibatlar o'quvchilarga haqiqiy hayotni anglatibgina qolmay, hali duch kelmagan voqea hodisalarni tasavvur qilishlari mumkin bo'lgan vaziyatlarni bilvosita his qilish va aks ettirishga imkon beradi.

O'quvchilar *voqealar, voqea joylari, obrazlar, asar muhiti, hissiyotlar va g'oyalar bilan yo'g'rilgan matnni o'qiydi va matndan* huzurlanadi. Adabiyotni tushunish va uni qadrlash uchun, har bir o'quvchi matnda sodir bo'ladigan voqealar, hissiyotlar, tildan foydalanish san'ati hamda badiiy shakl haqida bilimni o'z hayolidan o'tkazishi kerak. Matn hikoya qilib beruvchi yoki uning asosiy qahramonini kelajakda nima qilmoqchi ekanini bildirib turishi mumkin. Murakkabroq matnlar esa undanda ko'proq

dunyoqarash yoki keskinliklarga ega bo'lishi mumkin. Matnning g'oyasi va undagi ma'lumotlar to'g'ridan-to'g'ri yoki dialoglar hamda voqealar ko'rinishida tasvirlanadi.

PIRLS xalqaro dasturida qo'llanilgan badiiy matnlarning asosiy shakli badiiy janrga mansub bo'ladi. Ishtirokchi mamlakatlardagi o'quv dasturlari va madaniy jihatdan yuzaga keladigan farqlaridan kelib chiqib, PIRLS xalqaro dasturi doirasida ayrim badiiy matnlarni topshiriq sifatida tanlab olish qo'shimcha murakkablik tug'diradi. Misol uchun, sher'iy matnlarni tarjima qilish o'quvchilar uchun qiyinlik tug'dirgani bois, ularni topshiriqlarga qo'yilmaydi.

**Axborot olish va undan foydalanishda** matnlarining maqsad va vazifalari turli xil bo'ladi. Axborot matnining asosiy vazifasi o'quvchiga axborotni taqdim etadi, mualliflar ko'pincha o'zlari tanlagan mavzularni yoritishda turli maqsadlarni ko'zda tutadi. Ko'pgina axborot matnlarining maqsadi to'g'ridan to'g'ri ma'lumot berish, masalan, biografik ma'lumotlar shu bilan birga, ko'p hollarda matnda muallifning subyektiv qarashlari ham aks etadi. Bunda, muallif dallillarning qisqacha xulosasini taqdim etishi, o'z dalillariga o'quvchini ishonitirishga harakat qilishi yoki turli nuqtayi nazarlarni keltirishi mumkin. Axborot matnlari ilmiy, tarixiy, geografik, ijtimoiy, shu jumladan, bir qator ma'lumotlarni qamrab olgan turli shakllarda bo'lishi mumkin.

**Tushunish jarayonlari.** PIRLS 4-sinf o'quvchilarining keng qamrovli to'rtta ko'nikmalarni baholaydi. Bular: diqqatni jamlash va aniq ma'lumotni topish, to'g'ridan to'g'ri xulosalar chiqarish, g'oyalar va axborotni talqin qilish, uyg'unlashtirish, kontekst va matn elementlarini baholash hamda tanqid qilish jarayonlaridir. PIRLS har bir matn parchasi (yoki parchalari) yoki matn yuzasidan beriladigan savollar yuqoridagi to'rtta jarayonini baholash uchun asos bo'ladi.

O'quvchilar matndan ma'no hosil qilish ekan, ular har qanday aniq tushuntirilmagan g'oyalar yoki ma'lumotlarga nisbatan tushuntirishlar beradi. Xulosalash o'quvchilarga matndan tashqariga chiqishga imkon beradi. Ko'pgina hollarda matn mualliflari matnni o'quvchining aniq yoki bevosita xulosa chiqarishi uchun yaratadi. Ular o'quvchilarning o'z fikriga ega bo'lish ko'nikmasiga undashadi. To'liq javob berish uchun o'quvchidan barcha matn tushunishlari talab qilinadi.

PIRLS tadqiqotida ishlatiladigan matnlarning xususi-yatlari. Matnlar PIRLS dasturida murakkabligiga qarab, o'rtacha 500 dan 800 tagacha, o'quvchilarining o'qish savodxonligi darajasi past bo'lgan mamlakatlar uchun 400-500 ta, PIRLSda esa, taxminan, 1000 ta so'zdan iborat bo'ladi. PIRLS matnlari uchun aniqlik va izchillik muhim mezon hisoblanadi. Matnning mazmuni 4-sinf o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos kelishi, maktab o'quvchilari uchun qiziqarli va zavqli bo'lishi shu bilan birgalikda o'quvchi uchun unchalik tanish bo'lmasligi lozim. Matndagi sujetning mantiqiy tuzilishiga rioya qilish muhimdir. Axborot matnda matnning tuzilishi va ma'lumotning mantiqiy ketma-ketligini sarlavhalar, jadvallar, grafiklar kabi vizual elementlar bilan bog'liqligini kuzatish muhim.

Xalqaro tadqiqotlarning natijalariga ko'ra, umumiy xulosalar shundaki, o'quvchilarning ta'limdagi yuksak yutuqlari hamda tayyorgarlik sifatini ta'minlovchi ikki omilga, ya'ni, samarador ta'lim berish va malakali o'qituvchiga bog'liq. Demak ta'lim sifatini oshirishda o'qituvchilarning o'rni beqiyos. Shuni aytish joiz-ki xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko'rish va unda samarali ishtirok etish uchun o'qituvchilarga bir qator vazifalar qo'yiladi. Ular o'z kasbiy mahorati va malakasini oshirib borishi, zamonaviy pedagogic texnologiyalar, interfaol metodlar qo'llashi, o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirishi, fandagi tushunchalarni kundalik hayotdagi vaziyatlar bilan bog'lash, tayanch maktablarda tashkil etiladigan treninglarda muntazam, faol ishtirok etishi, past o'zlashtiradigan o'quvchilar bilan ishlashi, individual yondashishi, o'quvchilarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish, amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishdan iborat.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. PIRLS 2021 Assessment Framework. Ina V.S. Mullis, Michael O. Martin. International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA), TIMSS & PIRLS International Study Center, Lynch School of Education, Boston College. 2019. [www.timssandpirls.bc.edu](http://www.timssandpirls.bc.edu).

2. PIRLS 2011 Assessment Framework. Ina V.S. Mullis, Michael O. Martin, Ann M. Kennedy, Kathleen L. Trong, Marian Sainsbury. International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA), International Study Center, Lynch School of Education, Boston College Chestnut Hill. 2009.

3. Framework and Specifications for PIRLS Assessment 2001. Jay R. Campbell, Dana L. Kelly, Ina V.S. Mullis, Michael O. Martin, Marian Sainsbury. International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA), International Study Center, Lynch School of Education, Chestnut Hill. 2001.

4. PIRLS 2016 Teacher Questionnaire. International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA). 2015.

## **BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILAR BILIMINI BAHOLASHDA PIRLS XALQARO TADQIQOTLARINING TASHKIL ETILISHI**

**M. R. Hamroyeva**

Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi

**M.A.Sharipova**

BuxDU talabasi

*Ushbu maqolada boshlang'ich sinf ona tili darolarida PIRLS xalqaro baholash tadqiqotlarining tashkil etilishi va uning ahamiyati haqida so'z yuritilgan.*

***Kalit so'zlar:** ta'lim, PIRLS, IEA, TIMSS, matn, tadqiqot, darslik, savodxonlik, mashq, kompetensiya, axborot.*

PIRLS matnini o'qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot hisoblanadi.

Tadqiqotlar 2001, 2006, 2011, 2016 hamda 2021-yillarda o'tkazilgan. Har besh yilda o'tkaziladigan PIRLS dasturi 4-sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmasini xalqaro darajada baholaydi.

Mazkur dastur 4-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlardan bilim darajasini baholaydigan TIMSS dasturini to'ldirishga yo'naltirilgan bo'lib, Bo'ston kollejidagi TIMSS va PIRLS xalqaro markazi, IEA tashkilotining Gamburg va Amsterdam shaharlaridagi idoralari bilan yaqindan hamkorlikda boshqariladi.

O'quvchilarning bilimlarini baholash barcha o'quvchilardan emas, balki ushbu qatlam vakillari sifatida tanlab olingan o'quvchilardan obyektiv testlarni o'tkazish orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, maktab direktorlari, o'qituvchilar, o'quvchilar va hatto ota-onalardan so'rovnomalari o'tkazilib, ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillarga oid kerakli ma'lumotlar to'planadi.

PIRLS xalqaro tadqiqoti boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o'qish va o'qitishni yaxshilashda ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga xizmat qilishi mumkin bo'lgan tahlillarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturi hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda PIRLS ta'rifi ko'ra, o'qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyati hamdir.

Tadqiqot doirasida asosiy e'tibor tushunishni namoyon qilishdan o'zlashtirilgan ma'lumotlarni qanday qilib yangi loyihalar va vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatlarini namoyon qilishga qaratilmoqda.

O'quvchilar bu jarayonning faol ishtirokchisi bo'lib, ma'no yaratadi, matn ustida fikr yuritadi va samarali o'qish strategiyalarini ongli ravishda tanlab qo'llaydi. Har bir matn turi odatiy shakl va qoidalarga amal qilgan holda o'quvchiga matnni sharhlashga yordam beradi. Har qanday matn turli shaklga ega bo'lishi mumkin. Bular an'anaviy kitoblar, jurnallar, hujjatlar va gazetalar, shuningdek, raqamli ko'rinishdagi yozma shakllarni ham o'z ichiga oladi.

PIRLS boshlang'ich sinf o'quvchilarining sinf va sinfdan tashqari o'qishini baholashda ikkita teng qamrovli maqsadga, ya'ni "badiiy tajriba orttirish", "axborotni olish va undan foydalanish"ga qaratiladi. O'z navbatida, ushbu maqsadlarning har biri to'rtta tushunish jarayonini birlashtiradi. Bular:

diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topish;

to'g'ridan-to'g'ri xulosalar chiqarish;

kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilish;

g'oyalar va axborotni talqin qilish va uyg'unlashtirish.

Tadqiqotdagi matnlar murakkabligiga ko'ra, o'rtacha 500 dan 800 tagacha, o'quvchilarning o'qish savodxonligi darajasi past bo'lgan mamlakatlarda uchun 400-500 ta, PIRLSda esa, taxminan 1000 ta so'zdan iborat bo'ladi.

Matnning mazmuni 9, 10 yoshdagi o'quvchilarga mos, ayrim madaniyatlarga juda xos bo'lgan mavzulardan chetlashgan, shuningdek, qiziqarli hamda o'quvchiga unchalik tanish bo'lmaydi.

Eng yuqori daraja (625 ball va undan yuqori) O'quvchilar matnni yaxlit o'zlashtira oladi va ayni paytda uning alohida qismlarini bir-biri bilan bog'liq holda tushunadi. Muallifning g'oyasini izohlashda o'z fikrini asoslash uchun matnga tayana oladi.

Yuqori daraja (550 ball) O'quvchilar matnni ahamiyatli xabarlarini tushunadi, matnga asoslanib o'z xulosalarini chiqaradi, matn mazmuniga ham shakliga ham baho bera oladi, uning ayrim til xususiyatlariga e'tibor qarata oladi.

O'rta daraja (475 ball) O'quvchilar matndan axborot topa oladi, matn shakli va tilining ba'zi xususiyatlaridan foydalanib, matnga asosan o'z xulosalarini chiqaradi.

Quyi daraja (400 ball) O'quvchilar matnda aniq berilgan va cheklash oson bo'lgan xabarni ajratib oladi.

Tadqiqotda O'zbekistonning boshlang'ich sinf bitiruvchilari boshqa davlatlardagi tengdoshlariga nisbatan qanchalik darajada yaxshi o'qiydi? O'zbekiston o'quvchilarining o'qish savodxonligi qay darajada? O'qish 4-sinf o'quvchilari uchun sevimli mashg'ulotmi? Bugungi kunda bizning mamlakatimizda o'qishni o'rgatish jarayoni qanday tashkil etilgan? Boshlang'ich sinflarimizning o'qituvchilari foydalanayotgan metodlar boshqa mamlakat o'qituvchilari foydalanayotgan metodlardan farq qiladimi? Oila tomonidan o'quvchilar savodxonligini rivojlantirishga qanday hissa qo'shilmogda? kabi asosiy masalalar o'rganiladi.

Shuningdek, tadqiqotda ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish va tahlil qilish maqsadida anketa so'rovnomalari ham o'tkaziladi. Bundan asosiy maqsad o'quvchining maktabdagi va uydagi ta'lim olish sifati, ota-onalarning farzandini bilim olishda qay darajada qo'llab-quvvatlashi tahlil qilinadi.

Tadqiqotning 2016-yil natijalariga ko'ra, 50 ta mamlakat ichida, Rossiya, Singapur, Gonkong va Irlandiya kabi mamlakatlar eng yuqori natijalarni qayd etishdi.

Mazkur davlatlarda o'qish savodxonligi bo'yicha yuqori natijalar quyidagi omillar bilan bog'liq: uydagi kitoblar va raqamli qurilmalarning mavjudligi, ziyoli ota-onalar va ularning kitobga bo'lgan muhabbati, bola maktabga borgunga qadar o'qish-yozishni o'rganganligi hamda maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olish ko'rsatkichining yuqoriligi.

2021-yilda o'tkazilgan PIRLS xalqaro baholash dasturida 70 ga yaqin davlatlar qatorida mamlakatimizdagi 4-sinf o'quvchilari ham ilk marotaba ishtirok etishdi. Bundan ko'zlangan maqsad ta'lim sifatini oshirish, xalqaro miqiyosda mamlakat nufuzini mustahkamlash bilan birga, o'quvchilar bilimini xalqaro talablar darajasiga olib chiqishdan iborat.

## **BOSHLANG'ICH TA'LIM TIZIMI SIFATINI OSHIRISHDA PIRLS KABI XALQARO TADQIQOTLARNING ROLI**

**SH.N.Qurbonova**

Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi

**N To'yboyeva**

*BuxDU talabasi*

*Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'quvchilarini PIRLS xalqaro tadqiqotga tayyorlash masalalari haqida ko'rsatib otilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mehnat tarbiyasini shakllantirishda innovasion ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning muhim jihatlari ochib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *pedagogik texnologiya, innovasion texnologiya, ta'lim-tarbiya, didaktik vosita, ta'lim samaradorligi.*

*В данной статье рассматривается подготовка учащихся начальных классов к международному опросу PIRLS. Усилены важные аспекты использования инновационных образовательных технологий в формировании трудового воспитания учащихся начальных классов.*

**Ключевые слова:** *педагогическая технология, инновационная технология, учебно-воспитательное, дидактическое средство, эффективность обучения.*

*This article discusses the preparation of primary school students for the international PIRLS survey. Strengthened important aspects of the use of innovative educational technologies in the formation of labor education of primary school students.*

**Keywords:** *pedagogical technology, innovative technology, educational, didactic means, learning efficiency.*

O'quvchilarning erishgan yutuqlarini baholash barcha o'quvchilardan emas, balki ushbu qatlam vakillari sifatida tanlab olingan o'quvchilardan ob'ektiv testlarni o'tkazish orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, maktab direktorlari, o'qituvchilar, o'quvchilar, hattoki ota-onalardan so'rovnomalari o'tkazilib, ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillarga doir qimmatli ma'lumotlar to'planadi. PIRLS xalqaro

tadqiqoti boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o'qish va o'qitishni yaxshilashda ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga xizmat qilishi mumkin bo'lgan tahlillarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturi hisoblanadi. Tadqiqot doirasida asosiy e'tibor tushunishni namoyon qilishdan o'zlashtirilgan ma'lumotlarni qanday qilib yangi loyihalar va vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatlarini namoyon qilishga qaratilmoqda. O'quvchi bu jarayonning faol qatnashuvchisi bo'lib, ma'no yaratadi, matn ustida mushohada yuritadi va samarali o'qish strategiyalarini ongli ravishda tanlab qo'llaydi. Har bir matn turi odatiy shakl va qoidalarga amal qilgan holda o'quvchiga matnni sharhlashga yordam beradi. Har qanday matn turli shaklga ega bo'lishi mumkin. Bular an'anaviy kitoblar, jurnallar, hujjatlar va gazetalar, shuningdek, raqamli ko'rinishdagi yozma shakllarni ham o'z ichiga oladi. PIRLS boshlang'ich sinf o'quvchilarining sinf va sinfdan tashqari o'qishini baholashda ikkita keng qamrovli maqsadga, ya'ni "badiiy tajriba orttirish", "axborotni olish va undan foydalanish"ga qaratiladi. O'z navbatida, ushbu maqsadlarning har biri to'rtta keng tushunish jarayonini birlashtiradi. Bular:

diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topish;

to'g'ridan-to'g'ri xulosalar chiqarish;

kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilish;

g'oyalar va axborotni talqin qilish va uyg'unlashtirish.

PIRLS tadqiqotida O'zbekiston Respublikasining ishtirok etishi ta'lim sifatini oshirish, xalqaro miqyosda mamlakat nufuzini mustahkamlash bilan birga, o'quvchilar bilimni xalqaro talablar darajasiga olib chiqishga xizmat qiladi. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol uslublar (innovation pedagogik va axborot texnologiyalari)dan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar o'quvchilar egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, xat o'xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. Bugungi kunda ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishga alohida e'tibor berilyapti. O'quv-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarning to'g'ri joriy etilishi o'qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa o'qituvchidan ko'proq mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab etadi. Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovation jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o'zlashtirish va o'zlashtirgan bilimlarini o'zlari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak.

Shuning uchun ham, ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari interfaol uslublar, innovation texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularning ta'limda qo'llanishiga oid bilimlar, tajriba o'quvchilarni bilimli va yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Interfaol metod — ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi faollikni oshirish orqali ularning o'zaro harakati, ta'siri ostida bilimlarni o'zlashtirishni kafoiatlash, shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Uning asosiy mezonlari — norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish, mustaqil o'qish, o'rganish, seminarlar o'tkazish, o'quvchilarni tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriq, vazifalar berish, yozma ishlar bajarish va boshqalardan iborat. Demak, PIRLS tadqiqotida O'zbekiston Respublikasining ishtirok etishi ta'lim sifatini oshirish, xalqaro miqyosda mamlakat nufuzini mustahkamlash bilan birga, o'quvchilar bilimni xalqaro talablar darajasiga olib chiqishga xizmat qiladi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Satbayeva «Mehnat va uni o'qitish metodikasi». Darslik. T.: TDPU. 2015-yil.

2. Sh.Mirziyoyev Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent – "O'zbekiston" – 2016.56B.

3. Qurbonova S. N., Abdullayeva F. TARBIYA DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH //Scientific progress. – 2021. – T. 2. – №. 6. – C. 1030-1035.

4. Mukhamadovna T. M., Djamshitovna K. M., Narzullayevna Q. S. Art as a significant factor of forming world outlook of students //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 11.

5. Kurbanova S. Art as a significant factor of forming world outlook of students //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – T. 1. – №. 1.

6. Narzullaevna K. S., Nilufar T. Methodology for conducting technology lessons on working with paper and cardboard //ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL. – 2021. – T. 11. – №. 1. – C. 588-596.

## **BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QUVCHILARNING IJODIY FIKRLASH BILIMINI BAHOLASHDA PIRLS XALQARO TADQIQOTLARI**

**M.Y.Ro‘ziyeva,**

Buxoro davlat universiteti dotsenti (PhD),

**L.F.Salixova, BuxDU talabasi**

*Mazkur maqolada boshlang‘ich ta‘lim sinf (7-11 yoshdagi) o‘quvchilarida ijodiy fikrlash bilimni baholash, hamda ularning tafakkurini rivojlantirishda, ularni baholashda PIRLS xalqaro tadqiqotlari haqida ochib beriladi*

**Kalit so‘zlar:** o‘quvchi, ijodiy fikrlash, xalqaro tadqiqotlar, kreativlik, baholash, tafakkur, PIRLS  
*This article discusses PIRLS international research in the assessment of creative thinking in primary school students (7-11 years old), as well as in the development of their thinking.*

**Keywords:** pupil, creative thinking, international research, creativity, evaluation, thinking, PIRLS  
*В данной статье рассматриваются международные исследования PIRLS по оценке творческого мышления у учащихся начальных классов (7-11 лет), а также по развитию их мышления.*

**Ключевые слова:** читатель, креативное мышление, международное исследование, креативность, оценка, мышление, PIRLS.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o‘shish ko‘rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassilarga bo‘lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o‘z-o‘zidan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining darslarga qiziqish xususiyatini oshirish, ularning ijodiy fikrlashini ta‘minlash va o‘qituvchilarning har tomonlama ta‘lim-tarbiyaga e‘tiborini kuchaytirishni talab etilyapti.

Yuqoridagi talablarning ta‘lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta‘lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta‘lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg‘or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi. Ta‘lim sifati va samaradorligini oshirish yo‘lida xorijiy ilg‘or tajribalarni o‘rganish, xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyatga ega.

2021-yilda o‘tkaziladigan PIRLS xalqaro baholash dasturida 70 ga yaqin davlatlar qatorida mamlakatimizdagi 4-sinf o‘quvchilari ham ilk marotaba ishtirok etadi. Tadqiqotlar 2001, 2006, 2011, 2016-yillarda o‘tkazilgan bo‘lib, 2021-yil tadqiqotning beshinchi davriyligi hisoblanadi. Har besh yilda o‘tkaziladigan PIRLS dasturi 4-sinf o‘quvchilarining o‘qib tushunish ko‘nikmasini xalqaro darajada baholaydi.

Mazkur dastur 4-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy fanlardan bilim darajasini baholaydigan TIMSS dasturini to‘ldirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, Boston kollejidagi TIMSS va PIRLS xalqaro markazi, (IEA-International Association for the Evaluation of Educational Achievement) tashkilotining Gamburg va Amsterdam shaharlaridagi idoralari bilan yaqindan hamkorlikda boshqariladi.

Hozirgi kunda ushbu PIRLS testlari 3-sinf, 4-sinf o‘qish darsligi yordamida yaratilgan. Ushbu testlar yuqori saviyada tuzilgan bo‘lib, ular o‘quvchilarning darslikni shunchaki o‘qishini emas, balki berilgan asarning muallifi kimligi, she‘rlarning har bir qatoridan olingan savollar, asarning faqatgina ichidan emas, ushbu asar yuzasidan o‘quvchilarning mustaqil fikrini so‘raladi.

“4-sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash bo‘yicha o‘tkaziladigan PIRLS xalqaro tadqiqotiga tayyorgarlik ko‘rish uchun 3-mashq daftarining baholash mezonini” dan misollar berib o‘tamiz:

4-sinf o‘qish darsligida “Kichik loy bo‘lagi” asari berilgan. “4-sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash bo‘yicha o‘tkaziladigan PIRLS xalqaro tadqiqotiga tayyorgarlik ko‘rish uchun 3-mashq daftarining baholash mezonini”da ushbu hikoya bo‘yicha 11 ta vazifa berilgan. Ushbu vazifalar o‘quvchilarning yosh va bilim xususiyati asosida tayyorlangan. Masalan:

**KICHIK LOY BO‘LAGI, 1 - VAZIFA**

1. Quyida loy bo'lagi hikoyasida nima jarayonlar ro'y berganligi to'grisida izohlar keltirilgan. Keltirilgan izohlarni sodir bo'lgan jarayonlar ketma-ketligi bo'yicha raqamlab chiqing. 1 raqami qo'yilgan.

Yomg'ir loy bo'lagini nam va yumshoq holatga keltirdi.

Bolakay loy bo'lagini guldonga aylantirmoqchi bo'ldi.

Qizcha loy bo'lagidan chashka yasadi.

Loy bo'lagi qurib qoldi.

**Loy bo'lagi yog'och qutida yotar edi.**

**Maqsad:** Badiiy o'qish savodxonligi tajribasini orttirish

**Faoliyat:** aniq shaklda berilgan ma'lumotni topish

O'quvchilarning erishgan yutuqlarini baholash barcha o'quvchilardan emas, balki ushbu qatlam vakillari sifatida tanlab olingan o'quvchilardan obyektiv testlarni o'tkazish orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, maktab direktorlari, o'qituvchilar, o'quvchilar, hattoki ota-onalardan so'rovnomalar o'tkazilib, ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillarga doir qimmatli ma'lumotlar to'planadi.

**1 – Javob qabul qilinadi**

Ushbu javoblarda hikoya voqe'alarining to'g'ri ketma-ketligi berilgan.

Javob mazmuni: Javobda izohlar quyida ko'rsatilganidek raqamlangan. Har bir izoh namunaga mos keladigan raqamga ega bo'lsa, javob qabul qilinadi.

**0 – Javob qabul qilinmaydi**

Ushbu javoblarda voqealarning tegishli ketma-ketligi aniqlanmagan.

Javob mazmuni: Javobda barcha gaplar namunaga mos keladigan raqamlarga ega emas.

**0 – Javob mavjud emas**

Savolga javob berishning imkoniyati yo'q edi (chop etishda xatolik, sahifa o'tkazib yuborilgan yoki boshqalar).

Belgilangan joyda javob qayd etilmagan.

Gaplarning to'g'ri tartibi

4 Yomg'ir loy bo'lagini nam va yumshoq holatga keltirdi.

2 Bolakay loy bo'lagini guldonga aylantirmoqchi bo'ldi.

5 Qizcha loy bo'lagidan chashka yasadi.

3 Loy bo'lagi qurib qoldi.

1 Loy bo'lagi yog'och qutida yotar edi.

PIRLS xalqaro tadqiqoti boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o'qish va o'qitishni yaxshilashda ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga xizmat qilishi mumkin bo'lgan tahlillarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturi hisoblanadi.

Tadqiqotda O'zbekistonning boshlang'ich sinf bitiruvchilari boshqa davlatlardagi tengdoshlariga nisbatan qanchalik darajada yaxshi o'qiydi? O'zbekiston o'quvchilarining o'qish savodxonligi qay darajada? O'qish 4-sinf o'quvchilari uchun sevimli mashg'ulotmi? Oila tomonidan savodxonlikni rivojlantirishga qanday hissa qo'shilmogda? Bugungi kunda bizning mamlakatimizda o'qishni o'rgatish jarayoni qanday tashkil etilgan? O'zbekiston o'qishni o'rgatish jarayonining boshqa davlatlarga nisbatan o'ziga xosligi bormi, agar shunday bo'lsa u nimada namoyon bo'ladi? Boshlang'ich sinflarimizning o'qituvchilari foydalanayotgan metodlar boshqa mamlakat o'qituvchilari foydalanayotgan metodlardan farq qiladimi? kabi asosiy masalalar o'rganiladi.

Shuningdek, tadqiqotda ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish va tahlil qilish maqsadida anketa so'rovnomalari ham o'tkaziladi. Jumladan, o'quvchilar so'rovnomasi orqali ishtirokchi haqida ma'lumotlar, oiladagi ta'limiy resurslar, maktabga, o'qituvchiga, o'quv faniga munosabat, o'quvchilar o'rtasidagi munosabat, o'quv fanlari bo'yicha o'zini baholash, sinfdan tashqari mashg'ulotlar to'grisida ma'lumotlar to'planadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

11. Salixov.Sh. va boshq. Psychological Characteristics Of Increasing Cognitive Activity In Elementary School Students //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.

12. 4-sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash bo'yicha o'tkaziladigan PIRLS xalqaro tadqiqotiga tayyorgarlik ko'rish uchun 3-mashq daftarinin baholash mezonini

13. Sh. Salihov. Psychological Features of Formation of Emotional-Will Sphere of Athlete Personality // Intellektual archive. – 2020. – Т. 9. – №. 1. – С. 226

## **EMOTION IS A PHENOMENON THAT IS THE BASIS OF BEHAVIOR**

**Beisanbayeva Balzhan Sabyrzhanovna**

Shymkent University, Shymkent, Republic of Kazakhstan

**Makhkamova Muattar Uktamovna**

2nd year master of the Tashkent

State Pedagogical University named after Nizami. Tashkent, Uzbekistan

Emotion is considered an important form of knowledge in modern theories. Emotional psychology is a well-known area of psychology. In modern psychology of emotion there are different definitions of the concept of "emotion". However, the practical relevance of all theorists-psychologists lies in the lack of a generally accepted definition of this concept of "emotion". Therefore, the category of "emotion" is of great interest to professionals. In this regard, E. We consider Roche's study of the internal structure of the category of emotions analyzed by the prototype current. P. According to Wittgenstein, according to this flow, the natural category is determined by the prototype. The category of emotions is described by the following 4 variables.

1. Frequency.
2. Prototyping.
3. Non-categorical.
4. Dominance.

A. Ortoni, J. Chlorine and A. Collins (45) argues that in his Congetative Structure of Emotion, emotion should include only mental manifestations with valence, that is, concerns such as positive or negative, surprise, curiosity, insecurity, and the like should not be considered in emotional psychology. However, according to special studies, surprise is emotional.

K. "Human behavior is a fundamental principle of behavior, the organization and intensification of perception, thinking and action of emotions, all emotions have adaptive functions that develop during evolution," says Izar.

Emotions are the main motivational system of a person. Mauer: "Emotions can change behavior, so they play an important role in human life. At the same time, emotions show the high order of the intellect. Behavior - the main driving force of behavior is emotion. This emotion affects the whole subject. Let's look at it separately.

Emotions and body. Electrophysiological changes occur in the facial muscles during emotion. Changes also occur in the electrical activity of the brain, blood circulation and respiratory tract. (Simonov, 1975); As a result of extreme anger or fear, the heart rate rises to 40-60 beats per minute. Such a sudden change in somatic functions in the presence of strong emotions has led to a greater or lesser interconnection of all neurophysiological systems. Such changes affect perception, thinking, and the subject's actions. Changes can also lead to mental disorders.

Emotions and perceptions are closely linked. Emotions, like other motivational situations, affect perception. Normally, the subject perceives the world correctly, and people who are sad or anxious tend to actively ignore the assessment of others.

In addition, emotions affect other parts of cognitive processes. As a result, the subject's behavior changes.

Tomkins and Isard emphasize that knowledge plays a major role in the perception of emotions. General emotion is called fundamental. Because it consists of 3 components:

1. Special internally determined nerve substrate;
2. A complex characterized by facial or nervous muscles;
3. Characteristic or phenamenological properties of subjective anxiety.

These 3 components combine to express emotion. And this emotion has different characteristics:

1. Curiosity is a positive emotion that is often anxious, it motivates reading, skills, learning and creativity. That is, as a result of this interest, the subject's processes towards something increase.

2. Joy is the maximum necessary emotion. It is characterized by a sense of confidence. This is a joy from the point of view of Tomkins - it occurs as a result of a sharp decrease in the gradient of nerve stimulation.

3. Surprise is manifested in several types of emotions, but it is not an emotion. The peculiarity of surprise is that it is always characterized by a transitional situation. It occurs as a result of a sudden increase in nerve stimulation.

4. Grief is a feeling of loneliness. He feels lonely, has no contact with people, looks at himself with pity.

In general, based on these characteristics, we conclude: "We see different aspects of human behavior through emotions." And what is an emotion? Before defining it, let's look at a few theories.

Freud's psychoanalytic theories play an important role in the history of psychology and behavioral science for a number of reasons. Freud developed heuristic concepts such as the development of consciousness, mechanisms of conservation of color dynamics, compression, ascent, stability, variability, child sexuality. All this is the concept of affect (emotion).

Freud's theory of instinctive interest is the core of the classical psychoanalytic theory of motivation. Thus, Freud said: "Affect or emotion is the only driving force in mental life." In addition, in his later works, he emphasizes that "affect or emotion is an intrapsychic factor as a force that stimulates the imagination and desire in the human psyche."

Defining psychoanalytic theories, Rapaport defines instinctual interest or motive as an intrapsychic force.

Based on various theories, he gives the following insights into the mechanism of emotion: Thus, the perceived object states that the unrecognized instinct is the initiator of energy mobilization, if there are no open ways to release this energy (ie, when this instinctive demand is in conflict) finds a way and leads to different actions. As a result, the "emotional type" or emotional feeling can be simultaneous or one after the other or single chin. Due to the rarity of open ways of instinct in our society, there are often various intense emotional discharges. Therefore, in our mental life, except for "instinctual emotions" (sudden rise, fear, etc.), there is a whole hierarchy of emotional emergence (ie, based on conventionality, intelligence).

About emotions, Rapaport: "The mechanism of thinking about the recognition of reality as a set of affect signals":

"There is no behavior that is accompanied by very strong emotions (there is no behavior that accompanies a stronger feeling than attachment)," said John Bowlby.

So, to give a full definition of emotion, we will focus on three aspects:

- a) Feeling of emotions;
- b) processes occurring in the nervous, endocrine, respiratory and other systems of the body;
- b) The emotional complexes that are transferred to control are, more precisely, determined by color.

Thus, according to the definition given by Shacher / 44 /, emotion is a function combined with the function of arousal of physiology, its value and the attitude of the subject to the situation. This is due to the cognitive theory of emotions.

Lazarus and Averil describe human evaluation of events and life situations as a phenomenon arising from cognitive processes, while Arnold defines evaluation as an intuitively automated process. Considering this problem on a neurological level, Tomkins shows that emotion occurs with changes in neuronal stimulation. Thus, behavior is a general term widely used in psychological traditions. Behaviorists have used the term to describe the nature of a controlled reaction, but many scientists have used it to describe any bodily function (affective, cognitive, or motor). In this regard, emotion was not considered as a behavior, it was considered as a phenomenon underlying the behavior.

#### **References.**

1. Psychodiagnostic services to determine the psychological characteristics of schoolchildren. - Almaty: 2014 - 122 p.
2. Mukanov MM Youth and pedagogical psychology. - Almaty: 2012 - 230 p.
3. German T.A. Condition of neuropsychological stress. L., 2011.
4. Nemov RS Psychology. In 3 t. v.3. M., 1996.
5. Nurmukhambetova TR Experimental psychology. I т. - Shymkent: 2016.

## **OPPORTUNITIES FOR FORMATION OF NATIONAL CONSCIOUSNESS FOR YOUTH**

**Zheldybaeva Aisha Madibekovna**

Shymkent University, Shymkent, Republic of Kazakhstan

[zheldibaeva.606@mail.ru](mailto:zheldibaeva.606@mail.ru)

**Dzhumaev Mamanazar Irgashevich K.P.N. Professor**

Tashkent State Pedagogical University named after Nizami. Tashkent,  
Uzbekistan. www. tdpu.uz Mob. +998909991474 [mamanazaruz@bk.ru](mailto:mamanazaruz@bk.ru),

Modern and traditional education requires harmonious, effective principles in the educational process, the creative use of ethno-didactic opportunities of folk pedagogy in the educational process in school practice in combination with the achievements of modern scientific pedagogy. People's experience and didactic ideas, derived from the sources of folk pedagogy, are the main goals and objectives of teaching and learning at the current stage of social development. All didactic elements of folk practice are applied to high school students for all-round growth, development and maturity. Therefore, the requirement of the principle is that the personality is formed in the national school. This principle requires the analysis of the experience and didactic ideas of the people, the definition of criteria and goals, the effective organization of the content of education in the modern school. This principle requires that elements of folk pedagogy in national schools should not be used outside the classroom.

The main content of the principle of organizing the practice of folk pedagogy in all lessons of students is the education of personal activity. A person's personal development, as seen from all angles, is due to the acquisition of social legal experience. Teaching and learning of students in the national school learns from the experience of folk pedagogy, can be used in all lessons of students (teaching, useful social work, games, physical education and art) creates a favorable environment for filling the practical content of folk pedagogy. Centuries-old experience of the people, national cultural values contribute to the comprehensive formation of personality. The teacher should include elements of folk pedagogy in lesson planning and ensure that students are actively involved in the lesson. Taking into account the basic principles of folk pedagogy.

In order to organize ethno-didactic opportunities of folk pedagogy, it is necessary to follow the basic principles of folk pedagogy: folk, cultural and natural education, education through work, the connection of education with life. It is based on the principles of folk pedagogy, folk experience and didactic ideas. Based on these principles, the history of pedagogy and the didactic system are analyzed. It is required to master the traditional knowledge and experience of the people in folk pedagogy. The rules for the organization of the educational process in the school are proposed: a special selection of knowledge of the roots of the regional population, living standards, knowledge of customs and traditions. Principles related to the national development program.

In a sovereign interethnic state, it is very difficult to master the common national values in socio-cultural and economic changes, to orient different nationalities in school education. The strength and strategic development of the nation-state depends on social needs and national cultural education. Socio-economic development and strategic approaches in the country, regional national development, arises from national differences, is the direction of creation, design, organization of cultural values in national education in secondary schools. The main direction of development of the nation-state is revealed on the basis of the organization of the educational process in the practice of folk pedagogy. Analyzing the rules, the "rule" of ethno-didactic ideas of folk pedagogy in the organization of teachers' work is taken into account in school practice: 1) Reliable examples of special selection: description of folk traditions, inclusion of national art, language, religion and other values modernization of the defense of the nation-state; 2) socio-political and economic issues in the transition period of the new sovereign state, along with the study of the heritage of social values, the creation of management programs for the development of the nation and the resolution of conflicts in education; 3) to be able to feel the history of each nation living in Kazakhstan, to awaken students to the practice of folk pedagogy with the help of educational materials. The principle of individual approach. Qualifications and skills are formed in the didactic work of the educational system. An element of preservation of the traditional classroom system of education, lessons are conducted in such a way that the actions of teachers and students are evaluated on paper, scored, percentage, which does not solve the problems of life. According to the law, the price crystal of today's universal education is aimed at eliminating the source of talent in general.

Bundan ta'lim bo'yicha qator xalqaro tashkilotlarning tadqiqotlari ham dalolat bermoqda. Shu o'rinda, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD)ning 15 yoshli o'quvchilarning ona tili, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlik darajasini baholashga qaratilgan PISA - o'quvchilar yutuqlarini baholash xalqaro dasturi tadqiqotlari natijalari e'tiborga molik.

Bundan tashqari, ta'limiy yutuqlarni baholash xalqaro uyushmasi (IEA) tomonidan tashkil etilgan TIMSS - matematika va tabiiy fanlar ta'lim sifatining xalqaro monitoringi dasturini ham keltirish mumkin. Ushbu tadqiqot o'quvchilarning turli davlatlarda matematika va tabiiy fanlardan bilim darajasi va sifatini solishtirishga hamda milliy ta'lim tizimidagi farqlarni aniqlashga ko'maklashadi.

Tadqiqotlar natijalariga asoslangan holda matematika fanini o'qitishga xalqaro baholash dasturlarining mazmuni, baholash me'zonlari va mexanizmlari mahalliy sharoitdan kelib chiqqan holda joriy etilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

STEAM (S – science - tabiiy fanlar T – technology - texnologiya, E – engineering - muhandislik, A – art - san'at, M – mathematics - matematika) ta'lim texnologiyasi aniq fanlar blok-modulida o'quvchilarning egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini kundalik hayot bilan bog'liqligini ko'rsatishda dars va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quv tadqiqotlarini o'tkazish, tajribalarni bajarish, loyihalashtirishga yo'naltirilgan ijodkorligini tarbiyalash, yangiliklar yaratishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirishga qaratilgan.

**Matematik mazmun standartlari (bilim va ko'nikmalar).** Qisqacha tavsifi: asosiy matematik tushunchalar va munosabatlar mohiyatini tushunish va ulardan tipik o'quv topshiriqlarini bajarishda foydalanish.

Ushbu standartlar o'quvchilar matematikani o'rganish orqali nimani tushunishi va nimalarni bajarishga qodir bo'lish kerakligini belgilab beradi. Matematikada tushunishning o'ziga xos belgilaridan biri – bu o'quvchining matematik o'zlashtirish darajasidan kelib chiqqan holda muayyan matematik ifodaning to'g'ri yoki noto'g'ri ekani yoki muayyan matematik qoidaning qayerdan kelib chiqishini asoslab berish qobiliyatidir. Matematik tushuncha mohiyatini tushunish va tipik amallarni bajarish ko'nikmasi bir xilda muhim bo'lib, ular muayyan murakkablik darajasidagi standart topshiriqlar yordamida baholanadi.

Matematik amaliyot standartlari kompetensiyalar qisqacha tavsifi: O'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarini amaliy masalalarni yechishda va notanish vaziyatlarda qo'llay olish (kompetensiyalar).

Mazkur standartlar ham umumlashgan mazmundagi amaliy tatbiq standartlardan iborat bo'lib, ular o'quvchilarning quyidagi aqliy faoliyati sohalarini qamrab oladi (kelgusida ishlatish qulay bo'lsin uchun aqliy faoliyat sohalari, mos ravishda M1, M2, M3, M4 va M5 bilan kodlanadi):

- **mulohaza yuritish (M1);** matematikaga oid fikrni asoslash, isbotlash yoki o'zgaralar fikriga munosabat bildirish uchun mantiqan asosli va tushunarli dalillarni keltirish;

- **modellash (M2):** o'quv va hayotiy muammolarni matematika tilida ifodalash, ularning matematik modelini qurish;

- **muammoni yechish (M3):** matematikani qo'llab muammoni hal qilish;

- **mulohaza qilish (M4):** matematik tushuncha, belgi va timsollar asosida matematika tilida o'zaro mulohaza qilish;

- **ma'lumotlar bilan ishlash (M5):** ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va turli shakllarda tasvirlash. Matematik amaliyot standartlari har bir sinf kesimida mazmun standartlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, tegishli mazmun standartlarida o'z aksini topgan. Amaliyot standartlari mazmun standartlarining mazmuniga mos bo'lgan, tegishli yosh fiziologik imkoniyatlari va aqliy faoliyat sohalaridan kelib chiqib singdirilgan. a) bir necha turdagi ma'lumotlarni taqdim etish uchun masshtabi berilgan chiziqli va ustunli diagrammalarni yasash. Diagrammada keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib, "qancha ko'p?" va "qancha kam?" ko'rinishidagi bir va ikki qadamli masalalarni yechish. Masalan, diagramma chizsak, undagi har bir kvadrat 5 ta uy hayvonini ifodalashi mumkin. b) bir o'lchov birligining yarmi va to'rttdan biri

belgilangan chizg'ich yordamida uzunliklarni o'lchab ma'lumotlar qatorini hosil qilish. Gorizontalk shkala tegishli birliklarda – nomanfiy butun sonlar, yarimlar yoki choraklarda belgilab chiqilgan bo'lsa, diagramma yasash orqali ma'lumotlarni tasvirlash. a) sodda kombinatorika (to'plam elementlarini muayyan qoida asosida saralash imkoniyatlar sonini aniqlash) ga doir masalalarni yechish. Matematika fani bo'yicha milliy ta'lim standartlarini yaratishga yondashuv tizimli, yani muayyam tizimga solingan bo'lib, u "Al-jabr" deb nomlanadi. Bu nomda o'ziga xos "tiklanish" ma'nosi mujassamlangan.

Standartlar ta'limning boshlang'ich davridanoq barcha o'quvchilarni imkon qadar keng qamrab olib, ularning o'qish jarayonida to'liq ishtirok etishi uchun imkoniyat va ta'lim sohasida maxsus ehtiyojlarga ega bo'lgan o'quvchilarning maksimal darajadagi ishtirokini ta'minlash uchun tegishli sharoitlarni yaratib berishi lozim. Standartlar barcha o'quvchilarga Shu bois, amaliyot standartlarini har bir sinf kesimida yana alohida aniqlashtirib o'tirmaymiz.

Matematik ta'limga kompetensiyaviy yondashuv kasbiy, shaxsiy va jamiyatdagi kundalik hayotda uchraydigan holatlarda samarali harakat qilishga imkon beradigan turli ko'rinishdagi malakalarni o'quvchilar tomonidan egallashni nazarda tutadi. Shunday qilib, kompetensiyaviy yondashuvda matematik ta'limning asosini amaliy, tadbqiqiy yo'nalishlarini kuchaytirishga qaratiladi.

O'quvchilarda tayanch kompetensiyalarini shakllantirish, kichik o'quv tadqiqotlarni bajarish orqali umumta'lim fanlarini o'rganishga qiziqishni kuchaytirish maqsadida fan o'quv dasturlariga amaliy mashq va tatbiq hamda loyiha ishi kiritildi. Bu holat nafaqat muayyan o'quv fani bo'yicha o'zlashtirish sifatini yaxshilaydi, balki fanlararo va fanning kundalik turmush bilan bog'lanish imkoniyatlarini ochadi va ta'lim samaradorligini oshiradi.

Matematika darslarini tashkil qilishda nazariyadan ko'ra ko'proq amaliyotga e'tibor berish hamda o'quvchilarga tayyor o'quv materiallarini berishga asoslangan yondashuvdan ma'lum darajada voz kechish talab qilinadi. Matematika darslarida ko'proq keys, tadqiqot, loyiha, kichik o'quv kashfiyotlari kabi interaktiv metodlardan foydalanish tavsiya etiladi. O'quvchilarda kichik tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishda kuzatish, tajriba, o'lchashlar, analiz (tahlil) va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslash va analogiya kabi ilmiy izlanish metodlaridan o'rnida foydalanish talab etiladi. O'quvchilarda bilim va ko'nikmalarni shunchaki shakllantirib qolmasdan, ularni hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish kompetensiyalarini ham tarkib toptirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Izlanishlarimizning maqsadiga ko'ra mustaqil fikrlash xususiyatlarining xarakteristikasini ko'rib chiqamiz.

**Fikrlashning chuqurligi** matematik fakti va masalaning mohiyatiga kirib borish qobiliyatida, asosiyini ikkinchi darajalidan ajrata bilishda ifodalanadi.

**Elastikligi** faoliyatining bir usulidan ikkinchi usuliga osongina o'tish, faoliyat usulini maqsadga muvofiq o'zgartira olish qobiliyatida ifodalanadi.

**Fikrlashning faolligi** masalani yechishga qaratilgan tirishqoqlikning doimiyligi.

**Fikrlashning tanqidiyligi** masalani yechish yo'li to'g'ri tanlanganligiga baho bera olish qobiliyati, faoliyat usulining unumliligida, natijaning to'g'riligida, faoliyatni doimo normada saqlash qobiliyatida ifodalanadi.

**Ratsional fikrlash** turli parametrlarga qo'yib faoliyat usullarini taqqoslash qobiliyati, masalani yechishda kam vaqt sarflanadigan usullarini topa olishda ifodalanadi.

**Fikrlashning originalligi** qo'yilgan muammo yoki berilgan masalaning ajoyib, boshqa usullardan farqli usul bilan yechishdir. U ko'pincha fikrlashning teranligi va chuqurligining natijasida namoyon bo'ladi.

**Fikrlashning mustaqilligi** masalaning yechish usulini mustaqil, birovning yordamisiz topa olishida, faoliyatning oraliq va oxirgi natijalarini ko'ra bilishda, fikr-muloxazalarining mustaqil, erkin va asosligida ifodalanadi.

Mustaqil fikrlashning ijodiy xususiyatlari tahlil qilinayotganda o'quvchilardagi matematik rivojlanishiga tashxis qo'yishda, bizning nazariyamizda, o'quvchilar quyidagi xususiyatlarga ega yoki yo'qligini aniqlab olishimiz muhimdir. Bular: teranlik, elastiklik, mustaqillik, fikrlashning faolligi, tanqidiylik va turlilik, umumiylik, ratsionallikdir. Bunday xususiyatlar o'quvchilarda faqatgina matematika bo'yicha emas, balki matematikaga yaqin bo'lgan fanlardan ham o'rganish sifatini oshiradigan didaktik ahamiyatga egadir.

Ijodiy fikrlashning ajratilgan xususiyatlar tizimidagi mustaqillik fikrlashning ijodiy, mahsulotli xususiyati deb o'rganilmoqda. M.G.Davletshin mahsulotli fikrlash tushunchasiga teranlik, elastiklik, mustahkamlik, qarama-qarshiliklarni sezish kabi xususiyatlarni kiritmoqda. Z.Nishanova mahsulotli fikrlashga turli xususiyatlarni kiritmoqda. Mualliflarning ko'pchiligi ijodiy fikrlash uchun fikrlashda mustaqillikka ega bo'lish muximdir.

Krutetskiy fikricha ijodiy va mustaqil fikrlash o'rtasidagi farqning muhimligi shundaki, ijodiy fikrlash va bu mustaqil fikrlashdir, ammo har qanday faol fikrlash ham mustaqil va mustaqil fikrlash ijodiy fikrlash bo'la olmaydi. O'quvchining ijodiy fikrlashining muhim qismlaridan biri – bu intuitsiya (**faxm**)dir. Intuitsiya tushunchasi turli ilmlarda foydalaniladi: falsafa, mantiq ilmi, matematika, psixologiya; bunda ushbu tushunchaga turlicha ma'no kiritilmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora tabirlari to'g'risida. Uzbekiston Respublikasi prezidentining PQ-4708-son 07.05.2020 Qarori

2. Стратегия действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017-2021 годах. к Указу Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017 года № УП-4947

2. Дрига, В. И. Развитие профессиональной карьеры современного педагога в условиях креативного образования / В. И. Дрига // Стандарты и мониторинг в образовании.— 2012.— № 4.— С. 48–51

3. Локтионова Т.Е., Сергеева М.Г. Комфортная образовательная среда в образовательной организации: современный подход к проектированию. Профессиональное образование и общество . — 2018. — №3(27). — 43-106 с.

4. Жумаев М. Методика преподавания математики для начальных классов. Учебник. Туроникбол. Ташкент, 2016. 426 с.

5. Давыдов В.В. Психологическая теория учебной деятельности и методов начального обучения, основанных на содержательном обобщении. -Томск, 1992. -112с.

6. Фридман Л.М. Как научиться решать задачи. Москва.: [Просвещение](#) 2005. 132 ст.

7. Петерсон Л.Г. Моделирование как средство формирования представлений о понятии функции в 4-6 классах средней школы. Дис. на соиск. уч. степ. канд. пед. наук. -М., 1984. -201с.

8. Kayumova N.A. Oliy ta'lim muassalari talabalarini ilmiy tadqiqot ishiga yo'naltirish muammolari va ularning yechimlari. Zamonaviy ta'lim. №11, 2018 yil 7-13 b.

## **BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA MILLIY O'QUV DASTURINI JORIY ETISH MASALLARI**

**Z. A. Saydivaliyev**

Toshkent shahar Yashnabod tumani  
215 –maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

*Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda matematikadan milliy o'quv dasturini amaliyotga joriy etishning ilmiy-metodik asoslari haqida mulohazalar suningdek, Respublika ta'lim inspeksiyasi tomonidan milliy o'quv dasturi loyihasi muhokamasi haqida so'z yurutamiz.*

**Kalit so'zlar.** *Mulohaza, texnologiya, maqsad vazifa, o'quv dasturi, ta'lim standarti, boshlang'ich ta'lim, matematika, bilim va ko'nikma.*

*В этой статье мы обсуждаем научно-методические основы реализации национальной учебной программы по математике в начальной школе, а также обсуждение проекта национальной учебной программы Республиканской инспекцией образования.*

**Ключевые слова.** *обратная связь, технология, цели, учебная программа, образовательные стандарты, начальное образование, математика, знания и навыки.*

*In this article, we discuss the scientific and methodological foundations for the implementation of the national curriculum in mathematics in primary school, as well as the discussion of the draft national curriculum by the Republican Inspectorate of Education.*

**Key words:** *feedback, technology, goals, curriculum, educational standards, primary education, mathematics, knowledge and skills.*

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi bugungi kunda matematikani sohlar bo'yicha o'qitishning muhim masalalarni dolzarbligini asoslamoqda. Matematika olamni, dunyoni bilishning asosi bo'lib, tevarak- atrofimizdagi voqea va hodisalarning o'ziga xos qonuniyatlarini ochib berishda juda katta ahamiyatga egaki, matematik bilimlarsiz ishlab chiqarish va fanning rivojlanishini tasavvur qilib bo'lmaydi. Shuning uchun ham *matematik madaniyat* — umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Matematika fanini o'qitishdan ko'zlangan zamonaviy maqsad va vazifalar quyidagilardan iborat:

- o'quvchilarda kundalik faoliyatda qo'llash, fanlarni o'rganish va ta'lim olishni davom ettirish uchun zarur bo'lgan matematik bilim va ko'nikmalar tizimini shakllantirish va rivojlantirish;

- jadal taraqqiy etayotgan jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yurita oladigan, aniq va ravshan, tanqidiy hamda mantiqiy fikrlay oladigan shaxsni shakllantirish;

milliy, ma'naviy va madaniy merosni qadrlash, tabiiy-moddiy resurslardan oqilona foydalanish va asrab-avaylash, matematik madaniyatni umumbashariy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida tarbiyalashdan iborat.

Bundan ta'lim bo'yicha qator xalqaro tashkilotlarning tadqiqotlari ham dalolat bermoqda. Shu o'rinda, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD)ning 15 yoshli o'quvchilarning ona tili, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlik darajasini baholashga qaratilgan PISA - o'quvchilar yutuqlarini baholash xalqaro dasturi tadqiqotlari natijalari e'tiborga molik.

Bundan tashqari, ta'limiy yutuqlarni baholash xalqaro uyushmasi (IEA) tomonidan tashkil etilgan TIMSS - matematika va tabiiy fanlar ta'lim sifatining xalqaro monitoringi dasturini ham keltirish mumkin. Ushbu tadqiqot o'quvchilarning turli davlatlarda matematika va tabiiy fanlardan bilim darajasi va sifatini solishtirishga hamda milliy ta'lim tizimidagi farqlarni aniqlashga ko'maklashadi.

STEAM (S – science - tabiiy fanlar T – technology - texnologiya, E – engineering - muhandislik, A – art - san'at, M – mathematics - matematika) ta'lim texnologiyasi aniq fanlar blok-modulida o'quvchilarning egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini kundalik hayot bilan bog'liqligini ko'rsatishda dars va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quv tadqiqotlarini o'tkazish, tajribalarni bajarish, loyihalashtirishga yo'naltirilgan ijodkorligini tarbiyalash, yangiliklar yaratishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirishga qaratilgan.

**Matematik mazmun tandartlari (bilim va ko'nikmalar).** Qisqacha tavsifi: Asosiy matematik tushunchalar va munosabatlar mohiyatini tushunish va ulardan tipik o'quv topshiriqlarini bajarishda foydalanish. Ayniqsa ehtimollar nazariyasi va statistikaning quyidagisodda elementlari tarkib topgan:

1) murakkab bo'lmagan jadvallar ko'rinishida berilgan ma'lumotlarni o'qish, tayyor jadvallarni to'ldirish;

2) ma'lumotlarni to'plash, taqdim etish va sharhlash.

3) Berilgan ob'ektlarni xossasiga qarab to'plamga tegishli yoki tegishli emasligini aniqlash va ob'ektlar to'plamidan berilgan xossaga ega bo'lgan bir yoki bir nechtasini ajratish;

4) Berilgan narsalarni xossasiga ko'ra bir yoki bir nechta to'plamga ajratish, narsalar juftliklarini tuzib, to'plamlarni soni bo'yicha taqqoslash, ifodalash va tartibga solish.

5) Bir nechta buyumlarning uzunliklarini eng yaqin butungacha o'lchash orqali yoki bir xil buyumni qayta-qayta o'lchash orqali aniqlash. Gorizontall shkalada sonlarni belgilab, son o'qida o'lchash natijalarini ko'rsatish.

6) to'rttagacha sondan iborat bo'lgan ma'lumotlar qatorini tasvirlash uchun nuqtali va ustunli diagrammalarni (bir xil o'lchov birliklarda) chizish. Ustunli diagrammada keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib, qo'shish, ayirish va taqqoslashga doir sodda masalalarni yechish.

7) bir necha turdagi ma'lumotlarni taqdim etish uchun masshtabi berilgan chiziqli va ustunli diagrammalarni yasash. Diagrammada keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib, "qancha ko'p?" va "qancha kam?" ko'rinishidagi bir va ikki qadamli masalalarni yechish. Masalan, diagramma chizsak, undagi har bir kvadrat 5 ta uy hayvonini ifodalashi mumkin.

8) bir o'lchov birligining yarmi va to'rttdan biri belgilangan chizg'ich yordamida uzunliklarni o'lchab ma'lumotlar qatorini hosil qilish. Gorizontall shkala tegishli birliklarda – nomanfiy butun sonlar, yarimlar yoki choraklarda belgilab chiqilgan bo'lsa, diagramma yasash orqali ma'lumotlarni tasvirlash.

9) sodda kombinatorika (to'plam elementlarini muayyan qoida asosida saralash imkoniyatlar sonini aniqlash) ga doir masalalarni yechish. Ushbu standartlar o'quvchilar matematikani o'rganish orqali nimani tushunishi va nimalarni bajarishga qodir bo'lish kerakligini belgilab beradi. Matematikada tushunishning o'ziga xos belgilaridan biri – bu o'quvchining matematik o'zlashtirish darajasidan kelib chiqqan holda muayyan matematik ifodaning to'g'ri yoki noto'g'ri ekani yoki muayyan matematik qoidaning qayerdan kelib chiqishini asoslab berish qobiliyatidir. Matematik tushuncha mohiyatini tushunish va tipik amallarni bajarish ko'nikmasi bir xilda muhim bo'lib, ular muayyan murakkablik darajasidagi standart topshiriqlar yordamida baholanadi.

10) O'zgaruvchilarning qiymati yoki berilgan ma'lumotlarga ko'ra sodda grafik, murakkab bo'lmagan diagramma, jadvallar, shkalalar tuzish.

11) O'lchovlar bo'yicha ma'lumotlar to'plamini birlik kasrlarda ( $1/2$ ,  $1/4$ ,  $1/8$ )

aks ettirish uchun chiziqli grafik yasash. Chiziqli grafikda keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib,

kasrlarni qo'shish va ayirish bilan bog'liq masalalarni yechish. Masalan, chiziqli grafikda hashorotlar to'plamidagi eng uzun va eng qisqa namunalar orasidagi farqni aniqlash va sharhlash;

12) To'plamlarning birlashmasi va kesishmasi haqida tasavvurga ega bo'lish, ularni Venn diagrammasi yordamida tasvirlash.

Standartlar ta'limning boshlang'ich davridanoq barcha o'quvchilarni imkon qadar keng qamrab olib, ularning o'qish jarayonida to'liq ishtirok etishi uchun imkoniyat va ta'lim sohasida maxsus ehtiyojlarga ega bo'lgan o'quvchilarning maksimal darajadagi ishtirokini ta'minlash uchun tegishli sharoitlarni yaratib berishi lozim.

Matematik ta'limga kompetensiyaviy yondashuv kasbiy, shaxsiy va jamiyatdagi kundalik hayotda uchraydigan holatlarda samarali harakat qilishga imkon beradigan turli ko'rinishdagi malakalarni o'quvchilar tomonidan egallashni nazarda tutadi. Shunday qilib, kompetensiyaviy yondashuvda matematik ta'limning asosini amaliy, tadbqiqiy yo'nalishlarini kuchaytirishga qaratiladi.

O'quvchilarda tayanch kompetensiyalarini shakllantirish, kichik o'quv tadqiqotlarni bajarish orqali umumta'lim fanlarini o'rganishga qiziqishni kuchaytirish maqsadida fan o'quv dasturlariga amaliy mashq va tatbiq hamda loyiha ishi kiritildi. Bu holat nafaqat muayyan o'quv fani bo'yicha o'zlashtirish sifatini yaxshilaydi, balki fanlararo va fanning kundalik turmush bilan bog'lanish imkoniyatlarini ochadi va ta'lim samaradorligini oshiradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora tabirlari to'g'risida. Uzbekiston Respublikasi prezidentining PQ-4708-son 07.05.2020 Qarori

2. Стратегия действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017-2021 годах. к Указу Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017 года № УП-4947

2. Дрига, В. И. Развитие профессиональной карьеры современного педагога в условиях креативного образования / В. И. Дрига // Стандарты и мониторинг в образовании.— 2012.— № 4.— С. 48–51

3. Локтионова Т.Е., Сергеева М.Г. Комфортная образовательная среда в образовательной организации: современный подход к проектированию. Профессиональное образование и общество . — 2018. — №3(27). — 43-106 с.

4. Жумаев М. Методика преподавания математики для начальных классов. Учебник. Туроникбол. Ташкент, 2016. 426 с.

5. Давыдов В.В. Психологическая теория учебной деятельности и методов начального обучения, основанных на содержательном обобщении. -Томск, 1992. -112с.

6. Фридман Л.М. Как научиться решать задачи. Москва: Просвещение 2005. 132 ст.

7. Петерсон Л.Г. Моделирование как средство формирования представлений о понятии функции в 4-6 классах средней школы. Дис. на соиск. уч. степ. канд. пед. наук. -М., 1984. -201с.

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI PIRLS XALQARO BAHOLASH DASTURIGA TAYYORLASHDA "MILLIY O'QUV DASTURI" DAN FOYDALANISH

**A. S. Abdusamatov**

Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

**X. Sh. Ibragimova**

Termiz davlat universiteti talabasi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada PIRLS xalqaro baholash dasturi doirasidagi savodxonlikning o'quvchilar bilimini shakllantirish, zehni oshirishga qaratilgan yo'llari, "Milliy o'quv dasturi"ning xalqaro baholash dasturiga uzviy ravishda bog'liqligi hamda ona tili va o'qish savodxonligini PIRLS dasturidagi o'qish savodxonligi bilan birgalikda olib borish haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** o'qish savodxonligi, matn, konstruktiv, interfaol, milliy o'quv dasturi

Ta'lim bor joyda tarbiya ham bor bo'lgandek, ta'lim sifatli bo'lsa, mamlakat tayanchi bo'lgan yoshlar har tomonlama taraqqiy etib boradi. Unib, o'sib kelayotgan yoshlarimizni bilimli, kuchli va tarbiyali qilib voyaga yetkazish barchamizning burchimizdir. Shu munosabat bilan yurtimizda qilinayotgan ulkan ishlar, olib borilayotgan islohotlar va bir necha yaqin yillar ichida ta'lim tizimining ko'zgusi bo'lgan baholash tizimining isloh qilinishi, monitoring jarayonlari, reyting va modulli tizimi kabilar sinab ko'rilayotgani hali bu boradagi muammolarning keng qamrovli taklif va yechimlar kutilayotgani buning yana bir bor isbotidir.

Yurtimizning ham ta'lim tizimini yuksaltirish maqsadida ulkan ishlar olib borilmoqda va shulardan biri bu xalqaro baholash tizimiga a'zo bo'lganimizdir. Bu orqali o'quvchilarning kreativ, tanqidiy va mantiqiy fikrlashini oshiriga qaratilgan bo'lib, ularni rivojlantirishda PIRLS xalqaro baholash dasturining ham o'rni beqiyosdir. PIRLS xalqaro baholash dasturining asosiy maqsadi o'quvchilarning o'qish savodxonligini oshirishga qaratilgan va unda 4-sinf o'quvchilarining qatnashishi ko'zda tutilgan. Buning sababi esa, ushbu rivojlanish davrida o'quvchilar o'qish ko'nikmasini hosil qilgan bo'lib, endi bu ko'nikmadan boshqa fanlarni o'rganishda foydalanayotgan bo'ladi.

O'qish savodxonligi insonlarning o'qishdan ko'zlangan maqsadlari bilan bevosita bog'liqdir. Ko'pgina yosh o'quvchilar endigina o'qishni boshlaganlarida asosan hikoyali matnlar (masalan, hikoyalar yoki suratli kitoblari) yoki o'quvchilar o'zlarini o'rab turgan muhit haqida informatsion va savollarga javob beruvchi ma'lumotlarga boy matnlarni o'qiydi. O'quv dasturiga ko'ra, kitob va boshqa bosma materiallardan ma'lumot olish uchun o'qish muhim ahamiyatga ega ekanligi bois, yosh o'quvchilar o'qish savodxonligini rivojlantirib, o'rganish uchun o'qishlari kerakligi talab qilinadi. Unda o'quvchilarning matnni o'qib tushunishlari, yangidan-yangi g'oyalar, boshqa madaniyatlari va turli mamlakatlar haqida tasavvurga ega bo'lishlariga imkon beradigan qobiliyat haqida kengroq tushunchaga ega bo'lishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Bundan tashqari, u shaxsni hamda jamiyatni o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish, shuningdek, "biror harakatni bajarish uchun o'qish", vositasi sifatida yozma matnlar va boshqa turdagi ma'lumotlar ustida mulohaza yuritishni o'z ichiga oladi. Endilikda o'quvchilardan ravon o'qish va asosiy tushunish ko'nikmasi orqali tushungan yoki idrok etganlarini yangi vaziyatlar yoki loyihalarga nisbatan qo'llay olish qobiliyatini namoyon etishga o'tishni talab etilmoqda.

Biz yuqorida o'qish savodxonligi haqida fikr yuritdik, ammo o'qish savodxonligi nima ekanligini aytib o'tmadik. Keling, birinchi o'qish savodxonligi nima degan savolga javob beraylik.

O'qish savodxonligi – shaxs o'zining bilim va salohiyatini rivojlantirish, jamiyatda o'z o'rnini topish maqsadiga erishishi yo'lida matnlarni tushunish, ulardan foydalanish, ular ustida mulohaza yuritish hamda ularga munosabat bildirish qobiliyatidir. Undan tashqari o'quvchilarning tushunish va shaxs tomonidan qadrlanadigan hamda jamiyat tomonidan talab etiladigan barcha yozma til shakllaridan foydalana olishi hamdir. O'qish savodxonligiga nisbatan bildirilgan bunday yondashuv konstruktiv va interfaol jarayon sifatida o'qish savodxonligiga oid turli nazariyalar aks ettiradi. O'qish savodxonligida birinchi navbatda matnga alohida e'tibor beriladi, chunki savodxonlikda o'quvchi matnni tushunishi orqali barcha ko'zlangan maqsadga erishiladi. Savodxonlikda matn mazmuni muayyan o'qish tarzi asosida o'quvchi va matn o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik orqali hosil qilinadi. O'quvchi matndan anglashilgan ma'noni tez ilg'ab oladigan, matn ustida mulohaza yuritadigan, samarali o'qish strategiyasidan xabardor va o'qish ustida tafakkur qiladigan shaxs sifatida gavdalanadi.

Matnlar odatda, ulardan anglashilgan mazmunni turli usulda shakllantirish yordamida, ularda aks etgan fikr-mulohazalarni qay tartibda tashkillashtirilgani va taqdim etilganiga qarab farqlanadi. Matn tuzilishi va shakliga ko'ra, yozma materiallari bilan to'ldirilgan qisqa so'zlar va iborali matnlargacha bo'lib, ular bir-biridan keskin farq qiladi. Ma'lum matn janriga xos bo'lgan mazmun, tarkib va uslub o'quvchiga matnni o'qib tushunishga yaqindan yordam beradi. Mamlakatimizning ham xalqaro baholash dasturiga a'zo bo'lganligi va bu test jarayonida yaqin yillar ichida yurtimizning ham ishtirok etishi munosabati bilan turli xildagi innovatsiyalar kiritilmoqda. Shular jumlasidan biri sifatida "Milliy o'quv dasturi" ishlab chiqildi va o'quvchilarning kreativ fikrlashiga ham alohida e'tibor berildi. Maktablarda ham o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishning ahamiyati mehnat bozori talabiga ko'ra ortib borilmoqda. Maktab o'quvchilarni o'z qobiliyatlarini kashf etishlariga, rivojlanishlariga va aniqlashlariga shu bilan bir qatorda, kreativ qobiliyatini namoyon etishga PIRLS dasturida ham alohida e'tibor berilgan va bizning "Milliy o'quv dasturi"miz shu dastur yuzasidan qisman bo'lsada ishlab chiqilganini ko'rishimiz mumkin.

"Milliy o'quv dasturi"mizni yanada shakllantirib o'quvchilarning mantiqiy fikrlanini oshirish uchun ularda PIRLS dasturidagi kabi matn doirasida test ishlab chiqilsa, o'quvchilarning har jihatdan shakllantirishimiz va qaysidir jihatdan ko'zlangan maqsadga erishishga keng yo'l ochilishi ehtimoldan holi emas. Keling, biz sizlar bilan "Milliy o'quv dasturi" asosida o'qitilayotgan 2-sinf ona tili va o'qish savodxonligidagi kitobidan bir matnni misol sifatida keltiraylik.

#### **Ixtirochilar tanlovi**

*"Galaktikada bir kun" asaridan*

Uzoq kutilgan tanlov boshlandi. Birinchi bo'lib sahnaga Ibrohim ismli bola chiqdi.

- Men ko'p ixtirochilar qilganman, - Ibrohim jiddiy ohangda gap boshladi. –Hozirda robotlarim qishloq xo'jaligida mehnat qilyapti.

- Xo'sh Ibrohim, bu safar bizni nima bilan lol qoldirasiz? – deb so'radi hakamlarning biri.

Bolakay biroz hozirlandi. Uning ko'krak kerib turishidan biror olamshumul ixtiro qilganini payqash qiyin emasdi.

- Marhamat, Bog'bonrobot bilan tarnishing, - dedi u qo'llarini ko'tarib.

Sahnaga to'rt g'ildirakli, bir qarashda changyutkichni eslatadigan droid chiqib keldi. Bog'bonrobot sahna bo'ylab turli harakatlar qilib yurarkan, yosh ixtirochi g'oz turib unga ta'rif bera boshladi:

- Bog'bonrobot yirik bog'larda ishlash uchun yaratildi. Unga daraxtlarni sug'orish, hasharotlardan himoya qilish va hosilni yig'ib olish dasturlari o'rnatilgan.

So'ng Ibrohim Bog'bonrobotga o'rnatilgan uskunalarni ham birma-bir tanishtirib chiqdi:

- Bu qurilmaning qo'llari, - u robotning ikki yonidagi uzun-uzun qo'llarga ishora qildi. – ular bilan hosilni yig'ib olish mumkin. Temir qo'llar belkurak vazifasini ham bajaradi. Daraxt tagini yumshatish ham, uni sug'orish ham shu qo'llar bilan qilinadi. Robotning orqa tarafidagi maxsus naycha bilan dori purkaladi. Bu esa mevali daraxtni turli hasharotlardan himoya qilish uchun zarur.

Tanlovga yig'ilgan hayrat bilan Bog'bonrobotni kuzatishardi. Ular ixtirochi bolani "Oyangga rahmat!", "E, qoyil!" deb olqishlardi.

*Matn yuzasidan savollar.*

1. Ixtirochilar tanlovini o'tkazishdan maqsad nima?

- A. Xalqni og'irini yengillatish
- B. Eng yaxshi ixtirochini aniqlash
- D. Hech qanday maqsadsiz o'tkazilgan

2. Sahnaga birinchi bo'lib kim chiqdi?

- A. Ibrohim
- B. Hakamlardan biri
- C. Bog'bon

3. Bog'bonrobotning boshqa robotlardan afzaligi nimada edi?

Javob \_\_\_\_\_.

4. Bog'bon robotni bir ko'rganda nimaga o'xshatdi?

Javob \_\_\_\_\_.

5. Robotning ikki yonidagi uzun qo'llari nima vazifani bajaradi?

- A. Dori purkalaydi
- B. Mevali daraxtlarni hashoratlardan qo'riqlaydi
- C. Hosilni yig'ib oladi.

Yuqorida ko'rib o'tgan namuna matnimiz singari sinf darsliklarini takomillashtirish orqali yuqori marralarni bemalol ko'zlay olamiz hamda xalqaro baholash dasturining maktabda tutgan o'rni va o'quvchilarni o'qib o'zlashtirishlari orasidagi ijobiy bog'lanishni yanada takomillashtirishga erishamiz.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, PIRLS xalqaro baholash tadqiqotida o'quvchilarni o'qitish jarayonining ahamiyati, o'qitish jarayonining tashkil etilishida birgalikdagi samaradorligini oshirish, o'qib o'zlashtirish ko'rsatkichlarini rivojlantirishda muhim ekanligi ko'rsatib o'tiladi. PIRLS tadqiqotida o'quvchilarning bilim olishlari uchun alohida ahamiyatga ega va ularni o'rganish uchun yaratilgan muhit va o'quvchilarning savodxonlik darajasiga beriladigan urg'uni o'z ichiga oladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ismoilov A.A va boshqalar. O'quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo'ljallangan axborotnoma 3-son. Toshkent-2021

2. Ina V.S. Mullis va Michael O. Martin. PIRLS 2021 baholash qamrov doirasi. Toshkent – 2021

3. Von Davier, M. Cho, Y & Pan T. (2019) Effects of Discontinue Rules on Psychometric Properties of Test Scores. Psychometrika, vol. 84

4. Yamamoto K, Khorramdel L & von Davier, M. (2013) Chapter 17: Scaling PIAAC Cognitive Data. In: Technical Report of the Survey of Adult Skills (PIAAC).

5. Yan D, von Davier, A & Lewis L. (2014; Eds). Computerized multistage testing: Theory and applications (pp. 3-20). New York, NY: CRC Press.

6. Mavlonova K va boshqalar. Ona tili va o'qish savodxonligi. Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021 – 120 b.

**O'QUVCHI MANTIQUIY TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH –MILLIY DASTUR  
TALABI SIFATIDA**

**M.M.Qosimova**

BuxDU dotsenti

**N.Ergasheva**

BuxDU talabasi

*Maqolada o'quvchi tafakkurini oshiruvchi asosiy vositalar milliy dastur talabiga mos kelishi haqida fikr yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *tahlil, sintez, qiyoslash, umumlashtirish, xulosalash.*

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarga bilim berishning zamonaviy pedagogic innovatsion uslublarni joriy etish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti keying 10 yil ichida dunyoning taraqqiy etgan mamlakatlar qatoriga kirishi boshlang'ich sinf o'qituvchilarining berayotgan bilimlari bilan bevosita bog'liqdir. O'quvchilar bilish faoliyatini o'rganishda zamonaviy didaktika ta'lim psixologiyasi yutuqlaridan foydalanadi. O'quv materiali yosh va mazmunga bog'liq holda bu faoliyatning o'ziga xosligi ta'lim jarayoni psixologik qonuniyatlarini o'rnatadi, bilish faoliyatida o'quvchilarning individual va tipik xususiyatlarini ko'rib chiqadi.

O'zlashtirish jarayonida tahliliy-sintetik faoliyat, shuningdek qiyoslash, mavhumlashtirish, umumlashtirish va aniqlashtirish kabi fikriy operatsiyalar muhim rol o'ynaydi.

Tahlil - bu, bilish predmetini qismlarga fikran bo'lishdir.

Sintez - alohida elementlar yoki qismlarni bir butunga fikran birlashtirishdir.

Jumladan, o'qituvchining «bitta o'nlik va ikkita birlikdan iborat son necha deb ataladi», - degan savoliga javob berayotib, o'quvchilar sintezdan foydalanadilar (O'n va ikkita bir 12 sonini tashkil etadi); «25 sonida nechta o'nliklar va birliklar bor», - degan savolga javob berishda, o'quvchilar sonlar tahlilini amalga oshirishadi.

Taniqli psixologlar (N.A. Menchinskaya, D.N. Bogoyavlenskiy, M.G. Davletshin, E. Foziyev, G'. Shoumarov va boshqalar) o'quvchilar tahliliy - sintetik faoliyatining umumiy qonuniyatlarini tadqiq etib, ta'limning boshlang'ich bosqichida tahlil sintezdan ortda qoladi yoki, aksincha, oldin keladi, mohiyatni qamrab olmaydi. Natijada umumlashtirish ham to'laqonli bo'lmaydi, ikkinchi darajali tasodifiy belgilarga asoslanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ko'pincha ahamiyatli belgilar sifatida tashqi, tasodifiy, lekin eng yorqinlarini ajratishadi.

Ta'lim bosqichlarining murakkablashib borishi bilan o'quvchilarda tahliliy-sintetik darajaning oshishi kuzatiladi. Tahlil sekin-asta ko'rgazmali - amaliylikdan (obyektlarni fikran bilish, mazkur obyektlar bilan amaliy harakatlar jarayonida amalga oshirilayotganda) ko'rgazmali (bilish obrazlar yordamida amalga oshirilayotganda) va so'zli - mantiqiyga (bilish mavhum tushuncha va mulohazalar shaklida amalga oshirilganda) tomon rivojlanadi. Sintez shuningdek, ancha to'liq va ko'p tomonlama bo'ladi.

Qiyoslash bu — o'xshashliklar (umumiy xususiyatlarni ajratish) va tafovutlarni (har bir qiyoslanayotgan obyektlarning o'ziga xos xususiyatlarini ajratish) topish maqsadida bilish obyektlarini qiyoslash. Bu amallar boshqa barcha asosiy fikriy operatsiyalar asosida yotadi. Boshlang'ich maktab kursi qiyoslash - sonlarni, ifoda va sonlarni, ikki ifodani, masalalarni va boshqalarni qiyoslab, undan foydalanish uchun keng imkoniyatlar ochadi.

Umumlashtirish - o'rganilayotgan obyektдан umumiy, xususiy, muhim nomuhimni ajratishdir.

Etakchi psixologlar tomonidan umumlashtirishga oid quyidagi qoida ishlab chiqilgan: o'quvchilarda to'g'ri umumlashmalarni shakllantirishning zaruriy qoidasi - muhimning doimiylikida, tushuncha, xususiyat va dalillarning nomuhim belgilarini o'zgartirishdir. Bu qoida tasavvur va tushunchalarni shakllantirishda o'ta muhim ahamiyatga ega. Jumladan, o'quvchilarga to'g'ri to'rtburchak haqida tasavvur berishda (1 sinf) bu tushuncha uchun nomuhim bo'lgan belgilarni: rangi (turli rangdagi to'g'ri to'rtburchaklarni olish) u tayyorlangan material, tekislikdagi holati, tomonlari uzunligining nisbatini o'zgartirish kerak. Boshqa barcha muhim belgilarni o'zgartirmay qoldirish, ya'ni: barcha burchaklarni to'g'ri va qarama-qarshi tomonlarini bir xil qilib qoldirish kerak. Barcha hollarda noma'lum harf X (iks, nomuhim belgi) bilan belgilash shunga olib keladiki,  $a + 2 = 7$  ko'rinishidagi ifoda tenglama hisoblanmaydi: bu holda to'g'ri umumlashmani shakllantirish tenglamada lotin alifbosidagi turli harflar bilan noma'lumni belgilashga yordam beradi.

Umumlashtirish oddiy shakllardan to ilmiy umumlashmalarga qadar rivojlanadi. Umumlashmalarning to'g'riligi uni o'quvchilar egallashining mezonini. Bu o'zlashtirilgan operatsiyalarni ko'chirib o'tkazish, ya'ni ulardan yangi sharoitlarda foydalanishga xizmat etadi.

Shu sababli zamonaviy didaktika va psixologiya ko'chirib o'tkazish muammosiga katta e'tibor beradi.

Umumlashtirib - mavhumlashtirish - bilish obyektidan bir xususiyatni chiqarib tashlab, boshqasini chiqarib tashlashdan iborat fikriy operatsiya bilan yaqin aloqadadir. Bu xususiyatlar o'rganilayotgan predmet va hodisalarning «ichiga» kirishga imkon beradi. Jumladan, o'quvchilarda "uchburchak" tushunchasini shakllantirishda tomonlari va burchaklarining nisbiy o'lchovlari, tekislikdagi holati va boshqa shu kabi belgilar chiqarib tashlanadi, faqat bittasi - uchta burchakli mazkur tipdagi geometrik figuralar mavjudligi ajratib olinadi.

Ta'limning dastlabki bosqichlaridayoq o'quvchilarning mavhumlashtirish qobiliyati namoyon bo'ladi. O'qituvchi rahbarligidagi ta'lim chog'ida bu qobiliyat rivojlanadi, mavhumlashtirish shakli ham murakkablashadi - hissiy ko'rgazmalilikdan fikriylikka o'tiladi, u ikkinchi signal sistemasi yordamida tushunchaga aylanadi.

Mavhumlashtirishga yaqin fikriy operatsiya aniqlashtirish nomini olgan. Aniqlashtirish:

1. Umumiydan xususiya fikriy o'tish sifatida;

2. Mavhumiya - umumiyga, aniqlikdan-xususiya uning turli xususiyat va belgilarini topish orqali yetishish, mavhum-umumiya aniq mazmun bilan to'ldirish, boyitish sifatida namoyon bo'ladi.

Dialektika bilishda mavhumiya va aniqlashtirish birligi o'rnatiladi. Bu birlik o'zaro aloqadagi fiziologik asosi - ikki signal tizimiga ega. Aniqlashtirish yordamida ilmiy mavhumiya mazmuni ochiladi, ular aniq predmetlarning alohida tomonlarini boshqalaridan mavhumlashtirib aks ettiradi. Mavhumlashtirishda predmetlar o'z butunligini yo'qotadi; bilish esa real voqeelikdagi predmet va hodisalar tomonlarini bir butunlikda ochib bergandagina haqqoniy bo'ladi. Bilimni chinakam egallashga mavhum tushunchalar dalillar orqali aniqlashtirilgandagina erishiladi.

Ta'lim jarayonida aniqlashtirish ikki shaklda: hissiy ko'rgazmali vositalar (predmetlar, rasmlar, chizmalar va boshqalar) va so'zli - mavhum shaklda (hikoya, tushuntirish, maxsus topshiriqlarni hal etish) amalga oshiriladi.

Maktabning muhim vazifalaridan biri - o'quvchilarga aqliy faoliyat usullari yordamida ta'lim berishdir. Aqliy faoliyat usullariga fikriy operatsiya usullari - umumlashtirish, mavhumlashtirish va boshqalar kiradi. Xususiya umumiyga umumlashtirish usuli (induktiv yo'l bilan), masalan, quyidagi amallar tartibida aks etishi mumkin: a) topshirilgan predmetlarni solishtirish; b) ularning har biri uchun umumiy bo'lgan barcha belgilarni ajratish va nomini aytish; v) predmetlarni belgilariga ko'ra birlashtirish. Umumlashtirish deduktiv yo'l bilan amalga oshirilganda (umumiydan xususiya) o'quvchilar tushunchani, aytaylik to'g'ri to'rt burchakni oldindan bilib topshirilgan geometrik figuralardan tanlab olishi va umumiy belgilarini aytishi lozim. Yangi topshiriqlarni ongli ravishda ko'chirib o'tkazish aqliy faoliyat usulini o'zlashtirganlik ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi.

Aqliy faoliyat usullari o'quv ishlari usullari bilan uzviy bog'liqdir. O'quv ishlari usullari muayyan amallar, ko'rsatmalar, tavsiyalar, qoida va hokozolar shaklida ifodalanadi. Ularning vazifasi - muayyan masalalarni hal etishda o'quvchilar tashabbusini bo'g'may, umumiy yo'nalish berishdir.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning aqliy rivojlanishi, ularning faol va mustaqilligi, ijodiy yondashuv ko'p jihatdan o'quvchilarning o'quv ishlari va aqliy faoliyat usullarini egallaganligiga bog'liq.

### **Foydalangan adabiyotlar**

1. F. Qosimov, M. Qosimova .TO DEVELOP STUDEENTY SKULLS OF NATURE CONSERVATION AND RESPECT FOR HUMAN LABOR BY TEACHING THEM TO SOLVE ENVIRONMENTAL PROBLEMS” Vol 10, Issue 1, January 2021:ACADEMICIA An International multidisciplinary Rese rch Journal.

2. M.M. Қосимова А. Қосимов. “ON SOME TYPICAL PROBLEMS TO BE SOLVED IN PRIMARY SCHOOLS” Vol 10, Issue 1, January 2021:ACADEMICIA An International multidisciplinary Rese rch Journal. 5. M.Qosimova K. Karimova “ PROBLEMS OF FINDING THE SUM COR DIFFERENCEJ OF TMO NUMBERS AND THEIR” Актуальные вопросы современной науки и образования.

3. M.Qosimova . A. Qosimov “ On some typical problems to be solved in primary schools” An International Multidisciplinary Research Journal January 2021.

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ШАРОИТИДА МИЛЛИЙ ТАЪЛИМНИ  
РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ**

**Г. Равшанова**

БухДУ мустақил тадқиқотчиси

*Мақолада мамлакатимизда халқ таълими тизимини ривожлантириши, ёш авлод маънавиятини юксалтириши борасида амалга оширилаётган ислохотлар мазмунини ёритиб берилган.*

**Калит сўзлар.** *Халқ таълими, ёш авлод, тарбия, маънавият.*

*В статье раскрывается содержание проводимых в стране реформ по развитию системы народного образования и морального воспитания подрастающего поколения.*

**Ключевые слова.** *Народное образование, молодое поколение, воспитание, духовность.*

*The article reveals the content of the ongoing reforms in the country to develop the system of public education and moral education of the younger generation.*

**Keywords.** *Public education, young generation, upbringing, spirituality.*

Маълумки, Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев раислигида 2019 йил 23 август куни халқ таълими тизимини ривожлантириш, педагогларнинг малакаси ва жамиятдаги нуфузини ошириш, ёш авлод маънавиятини юксалтириш масалаларига бағишланган видеоселектор йиғилиши [1]да давлатимиз раҳбари томонидан “Тарбия” фанини яратиш ва ўқитиш ташаббуси берилган эди. Мактаблардаги маънавий-тарбиявий ишларни янги асосда ташкил этиб, “Миллий ғоя”, “Одобнома”, “Динлар тарихи”, “Ватан туйғуси” каби фанларни бирлаштирган ҳолда, ягона “Тарбия” фанини жорий қилиш зарурлиги қайд этилганди. Мазкур ташаббуснинг рўёби сифатида, Вазирлар Маҳкамасининг 6 июль 2020 йилда «Умумий ўрта таълим муассасаларида «Тарбия» фанини босқичма-босқич амалиётга жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 422-сон қарори [3] қабул қилинди. Қарорга кўра, ягона «Тарбия» фани 1–9-синфларда – 2020-2021 ўқув йилидан, 10–11-синфларда эса, 2021-2022 ўқув йилидан бошлаб ажратилган умумий соатлар доирасида «Одобнома», «Ватан туйғуси», «Миллий истиқлол ғояси ва маънавият асослари» ҳамда «Дунё динлари тарихи» фанларини бирлаштириши кўрсатиб берилди. Бугунги кунда мамлакатимизни инновацион ривожлантириш, 2030 йилга қадар Глобал инновация индексида илғор 50 мамлакат қаторидан жой эгаллаш бўйича кенг кўламли ишлар амалга оширилмоқда. Халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясида эса, худди шу даврга бориб ўқувчилар билимини баҳолаш бўйича PISA халқаро дастури рейтингида Ўзбекистоннинг жаҳондаги етакчи 30 та мамлакат қаторидан жой эгаллаши мақсад қилиб кўйилган. Ушбу юксак мақсадларга эришишда фарзандларимиз тарбияси асосий ўрин эгаллайди, шак-шубҳасиз.

Тарбия масаласи ўз моҳият-эътибори билан миллий, умуминсоний ва гуманистик мазмунга эгадир. Ҳар бир жамият ўз олдида етук, ҳар томонлама камолга етган, ўзида бутун ижобий, олийжаноб хислатларни тўплаган баркамол авлодни тарбиялашни орзу қилади. Шунинг учун тарбия ўтмишимизнинг узок-узок даврларига бориб тақалади. Тарбияси оғир, маънавияти қашшоқ ёки маънавиятдан маҳрум бўлган одамда бирор нарса кутиш асло мумкин эмас. Чунки у яхшилик ва эзулик ҳақида умуман ўйламайди. Атрофга ва ҳатто ота-онаси, қариндош-уруғлари тақдирига ҳам бефарқ, лоқайд ҳолда шунчаки яшайди. Тарбияли, маънавиятли инсон бугунги кун ва келажак ҳақида фикр юритади, шунингдек келгуси ҳаёт ва турмушнинг равнаки учун ўз хиссасини қўшишга интилади. Зотан, мамлакатимизнинг “Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари” буюк мақсадига эришувида маънавияти юксак, баркамол инсонлар зарур.

“Ўқитувчи ва мураббийлар” куни муносабати билан ўтказилган тантанали йиғилишда Президентимиз Ш.Мирзиёев таълим ва тарбия масаласида қуйидагича фикр билдирган эди: “Ҳаммамизга аёнки, тараққиётнинг тамал тоши ҳам, мамлакатни қудратли, миллатни буюк қиладиган куч ҳам бу – илм-фан, таълим ва тарбиядир. Эртанги кунимиз, Ватанимизнинг ёруғ истиқболи, биринчи навбатда, таълим тизими ва фарзандларимизга бераётган тарбиямиз билан чамбарчас боғлиқ. Буюк юнон олими Аристотелнинг “Ватан тақдирини ёшлар тарбияси ҳал қилади”, деган сўзлари бор. Қаранг, бу фикрлар милоддан аввал айтилган. Демак, инсоният онгли ҳаёт кечира бошлаган даврдан буён таълим ва тарбия масаласи, доимо долзарб аҳамият касб этиб келмоқда” [2].

Маънавий тарбияни мунтазам ва узлуксиз олиб боришда, жамиятимизни маънавий-ахлоқий жиҳатдан мустаҳкамлаш ва тараққий эттиришда халқимизнинг бой маданий тарихини чуқур

ўзлаштириш, жаҳон маданияти тарихида муносиб ўрин эгаллаган алломаларимизнинг меросини ҳар томонлама ўрганиш катта аҳамиятга эгадир. Илми эгаллаган, маърифатли бўлган шахс жаҳолатга қарши тура олади ва камол топади.

Зардуштийлик уч асосий ахлоқий қоидага таянади: “Эзгу фикр, эзгу сўз, эзгу амал” [4]. Мана шу учта қоидага риоя қилган одам камолотга етган ҳисобланади.

Президентимиз таъкидлаб ўтганларидек, “Маърифатпарвар бобомиз Абдулла Авлонийнинг асрий кадриятларимиз асосида яратган “Туркий “Гулистон” ёхуд ахлоқ” асари шарқона тарбиянинг ноёб қўлланмаси сифатида бугунги кунда ҳам ўзининг кадри ва аҳамиятини йўқотган эмас. Биз “Тарбия” фанининг назарий асосларини ишлаб чиқишда мана шундай бебаҳо асарлардан самарали фойдаланишимиз зарур”. Абдулла Авлоний миллат ва юрт қайғуси билан, мамлакат истиқболи ва равнақи эзгу нияти билан яшади ва у билан нафас олди, ўз асарларида уни куйлаб тараннум этди. Бу борада Авлонийнинг қуйидаги сўзлари ғоятда ибратлидир:

“Ҳар бир миллатнинг дунёда борлигин кўрсатурғон ойнаи ҳаёти тил ва адабиётидур. Миллий тилни йўқотмоқ миллатнинг руҳини йўқотмакдур... Ёху, бизга на бўлди? Боболаримиз йўлидан чиқиб кетдук! Яхши қўшнингдан олгунча ёмон уйингни қидир, демишлар. Боболаримизга етишғон ва яратган муқаддас тил ва адабиёт бизга ҳеч камлик қилмас. Ўз уйимизни қидирсак ва ахтарсак, йўқотганларни ҳам топамиз. Йўқолса йўқолсун, ўзи бошимга тор эди, деб Европа қалпоғини киюб, кулгу бўлмак зўр айб ва уётдур” [5].

Абдулла Авлоний барча жаҳолатликлар, қоронғуликлар ва нодонликларнинг, миллатнинг ўзлигини англамаслигининг асосида маърифатсизлик ётишини яхши кўра олди ва у авлодларга, фарзандларга, ўғил-қизларга панду-насиҳатлар қилиб, мактабга бориш, ўқиш, ўрганиш, илм олишга давъат этади. XX аср бошидаги маърифатчилик ҳаракати намोёндалари бойлик учун, шон-шуҳрат учун майдонга чиқмаганлар. Жадидлар она Ватанни озод ва обод қилиш, миллат ва халқни ҳурриятга, мустақилликка олиб чиқиш, тўқ ва фаровон, маданиятли, ўқимишли, саводхон, илмли қилиш учун бутун куч ва эътиборини маданий-маърифий ишларга бағишладилар.

Ўзбекистон бугунги кунда дунёдаги барча давлатлар орасида такомиллашган таълим тизими билан ўз макеига эга бўлиб келмоқда. Кейинги йилларда давлат бошқарув тизими таълим тизимининг янада ривожлантириш ва такомиллаштиришга алоҳида эътибор қаратаётганлиги бежиз эмас, албатта.

#### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2019 йил 23 август куни халқ таълими тизимини ривожлантириш, педагогларнинг малакаси ва жамиятдаги нуфузини ошириш, ёш авлод маънавиятини юксалтириш масалаларига бағишланган видеоселектор йиғилишидаги маърузаси // <https://uza.uz/uz/posts/maktab-talimini-rivozhlantirish-umumkhal-arakatiga-aylanishi-23-08-2019>.

2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўқитувчи ва мураббийлар кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи // <https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-ituv-30-09-2020>.

3. Вазирлар Маҳкамасининг 6 июль 2020 йилда «Умумий ўрта таълим муассасаларида «Тарбия» фанини босқичма-босқич амалиётга жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги [422](#)-сон Қарори.

4. Фалсафа. Э.Юсупов таҳрири остида. (Ўқув қўлланма). – Т.: Шарқ, 1999. – 56 б.

5. Пардаева, М. Д. (2020). Жаҳолатга қарши маърифат билан курашишда мутафаккир жадидлар қарашларининг ўрни. *взгляд в прошлое*, 3(10).

## **BOSHLANG‘ICH SINFLARDA “GAP” MAVZUSINI O‘RGANISHDAGI IZCHILLIK**

**N.B.Adizova**

BuxDUPI dotsenti

*Bu maqolada boshlang‘ich sinflarda ona tili darslarining muhim vazifalaridan biri fikrni ifodalashda gapdan ongli foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish metodlari haqida fikr milohazalar keltirilgan.*

**Kalit so‘zlar:** dars, ta‘lim, tarbiya, metod, bilim, ko‘nikma, malaka, gap, darak gap, so‘roq gap, buyruq gap, his-hayajon gap, soddaga gap, gap bo‘laklari, gapning uyushiq bo‘laklari, undalmali gaplar.

*В данной статье представлены отзывы о способах развития умения сознательно использовать речь для выражения мыслей, что является одной из важнейших задач уроков родного языка в начальных классах.*

**Ключевые слова:** урок, обучение, воспитание, метод, знание, умение, навык, предложение, предложение, вопросительное предложение, повелительное предложение, эмоциональное предложение, простое предложение, части речи, частечные связные единицы, побудительные предложения.

Boshlang'ich sinflarda sintaksis yuzasidan beriladigan bilimlar *amaliy o'rganiladigan va nazariy o'rganiladigan* bilimlarga bo'linadi. Sintaksisga oid bilimlarni amaliy o'rganish savod o'rgatish davridayoq boshlanadi va 4-sinfda ham davom ettiriladi. Boshlang'ich sinfda "Gap", "Darak gap", "So'roq gap", "Buyruq gap", "His-hayajon gap", "Sodda gap", "Gap bo'laklari", "Gapning uyushiq bo'laklari", "Undalmali gaplar" mavzulari nazariy o'rganiladi. Bu mavzular yuzasidan turli mashqlar bajariladi.

Morfologiya va leksika, fonetika va orfografiya sintaksis asosida o'zlashtirilgani uchun tilni o'rganishda gap ustida ishlash markaziy o'rin egallaydi. Gap nutqning asosiy birligi bo'lib, boshlang'ich sinf o'quvchilari ot, sifat, son, olmosh, fe'l va ularning muhim kategoriyalarining tilimizdagi rolini gap asosida bilib oladilar. O'quvchilar ona tili leksikasini ham gap negizida egallaydilar. So'zning leksik ma'nosi va uning qo'llanish xususiyatlari so'z birikmasi yoki gapda ma'lum bo'ladi. So'z gapda bir ma'noli bo'ladi (gapdan tashqari bir necha ma'no ifodalash mumkin).

Boshlang'ich sinflarda gap ustida ishlashni shartli ravishda besh yo'nalishga bo'lish mumkin:

1. Gap haqidagi grammatik tushunchani shakllantirish (til birligi bo'lgan gapning muhim belgilarini o'rgatish).

2. Gap qurilishini o'rgatish (so'z birikmasida so'zlarning bog'lanishi ustida ishlash, gapning grammatik asosini, bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning xususiyatlari, yoyiq va yig'iq gaplar ustida ishlash).

3. O'quvchilarning nutqida gapning maqsadga va ohangga ko'ra turlaridan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish.

4. Gapda so'zlarni aniq qo'llash ko'nikmasini o'stirish.

5. Yozma nutqda gapni to'g'ri tuzib yozish (uni bosh harf bilan boshlash, tinish belgilarini qo'yish) ko'nikmasini shakllantirish.

Ishning bu besh yo'nalishi bir-biriga o'zaro ta'sir etadi va gapning ayrim tomonlarini o'rganish maqsadidagina ularning har biri mustaqil muhokama qilinadi. Gapni o'rganish va nutqda undan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish o'quvchilarning aniq bilimlarini doimiy kengaytirib, boyitib borishga asoslanadi. O'quvchi qanday yangilikni bilsa, unda bu yangilik haqida xabar berish ehtiyoji tug'iladi. U o'z fikrini ifodalash uchun qulayroq shakl qidiradi. Demak, aloqa qilish talabidan gapni mukammalroq egallash zaruriyati kelib chiqadi.

"Gap" mavzusi barcha sinflarda o'rganiladi. Gapning belgilari haqidagi bilimlar chuqurlashtirib boriladi. O'quvchilar fikr ifodalovchi nutq birligi – gap haqidagi elementar tasavvurdan gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklari, gapda so'zlarning bog'lanishi, gapning uyushiq bo'laklarini o'rganishga o'tadilar.

Gap ustida ishlashning boshlang'ich bosqichi savod o'rgatish davriga to'g'ri keladi. Bu davrda o'quvchilar gapning muhim xususiyatlari (fikr ifodalashi, tugallangan ohang bilan aytilishi) bilan tanishadilar. Gapning bu xususiyatlarini bilmasdan turib, so'zlardan gap tuzib bo'lmaydi. Agar o'quvchilar gapning bosh bo'laklarini ajrata olmasalar, gap nutqning yaxlit birligi ekanini bilmaydilar. Ega va kesim gapning qurilishi va mazmunining asosini tashkil etadi. Shuning uchun ham savod o'rgatish davrida gapning bosh bo'laklari ustida kuzatish o'tkazgan ma'qul.

Boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan sintaktik material kam bo'lsa ham, butun o'quv yili davomida, boshqa mavzularga singdirilgan holda gap ustida ishlab boriladi. Dasturga ko'ra, 1-sinfda o'quvchilarga gap haqida elementar tushunchalar beriladi. Gap tugallangan fikr bildirishi, gap so'zlardan tashkil topishi, uning oxiriga ma'lum tinish belgilari qo'yilishi haqida amaliy ma'lumotlar beriladi.

2-sinfda esa o'quvchilar gap haqida amaliy tushunchalar oladilar. Ular gapdan shu gap kim yoki nima haqida aytilganini va u haqda nima deyilganini bildirgan so'zni ajratishga o'rganadilar. Aslida gapning grammatik asosi ustida ishlash mana shundan boshlanadi va bu bosh bo'laklarni o'rganishga muqaddima bo'ladi.

3-sinf gap ustida ishlashda yangi bosqichdir. O'quvchilar gapni amaliy o'rganishdan tushuncha sifatida o'rganishga o'tadilar. Ular gapning muhim belgilarni bilib oladilar. Bu bosqichda bosh va

ikkinchi darajali bo'laklarning ta'rifi, ega va kesim atamaları kiritiladi. Bu sinfda gapda so'zlarning bog'lanishiga katta e'tibor beriladi. O'quvchilar gapning asosi (ega va kesim)ni ajratadilar, ikkinchi darajali bo'laklarni farqlaydilar va gapdagi ikki so'z (hokim va tobe so'z)ni, so'zlarning grammatik jihatdan, ya'ni qo'shimchalar orqali bog'lanishni bilib oladilar.

4-sinfda gapning uyushiq bo'laklarini o'rganish bilan gap bo'laklari haqidagi bilim kengaytiriladi.

Shunday qilib, o'quvchilarda gap bo'laklari haqidagi tasavvurni o'stirish gapni o'zlashtirishda yetakchi hisoblanadi. Birinchidan, boshlang'ich sinf o'quvchilari gap bo'laklarini ikkita katta guruhga (bosh va ikkinchi darajali bo'laklarga) bo'linishini o'zlashtiradilar. Bu sinflarda ikkinchi darajali bo'laklar turlarga ajratilmaydi. Gapni o'zlashtirish uchun bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning mohiyati ochiladi: bosh bo'laklar gapning grammatik asosini tashkil qiladi, fikr, asosan, gapning grammatik asosi orqali ifodalanadi; ikkinchi darajali bo'laklar esa bosh bo'laklarni aniqlovchilik va to'ldiruvchilik vazifasini bajaradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkin, gapni o'rganish va nutqda undan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish o'quvchilarning aniq bilimlarini doimiy kengaytirib, boyitib borishga asoslanadi. O'quvchi qanday yangilikni bilsa, unda bu yangilik haqida xabar berish ehtiyoji tug'iladi. U o'z fikrini ifodalash uchun qulayroq shakl qidiradi. Demak, aloqa qilish talabidan gapni mukammalroq egallash zaruriyati kelib chiqadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Asqarova M. va boshqalar. Kichik yoshdagi bolalar nutqini o'stirish. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2001.- B. 160.
2. Ashrapova T., Odilova M. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent, “Sharq”, 1984.-B.236.
3. Ahmedova N. Boshlang'ich sinflarda nutq o'stirish usullari. (Ta'lim jarayonida nutq madaniyatini shakllantirish masalalari). Toshkent, “Sharq”, 1999.-B.128.
4. Boshlang'ich ta'lim. Umumiy o'rta ta'limning Davlat Ta'lim Standarti va o'quv dasturi. Ta'lim taraqqiyoti. O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'lim Vazirligi axborotnomasi 7-maxsus son. - Toshkent: “Sharq”, 1999. –B. 479.

### **“ALIFBE” DARSLIGI ASOSIDA IMLO USTIDA ISHLASH**

**N.B.Adizova**

BuxDUPI dotsenti

*Maqolada 1-sinfda unli va undosh tovushlar talaffuzi ustida ishlash “Tovushlar va harflar” bo'limini o'tganda darslikda berilgan mashqlarning tahlili berib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** og'zaki nutq, yozma nutq, fonetika, urg'u, orfoepik, bo'g'in, morfologiya, so'z, bilim, jarangli undosh, jarangsiz undosh, gap, ohang.

*В статье представлен анализ выполнения уроков по произношению гласных и согласных в I классе, раздел «Звуки и буквы».*

**Ключевые слова:** устная, письменная речь, фонетика, ударение, орфоэпический, слог, морфология, слово, знания, согласная, согласная, речь, тон.

Savod darslari o'quvchini tovush-harf bilan tanishtirib, uni o'qishga o'rgatish bilan birga savodxonlikka ham zamin tayyorlashi zarur. Orfografik bilimlar o'quvchilarning nutqini o'stirish, yangi so'zlar hisobiga lug'atini boyitish, so'zlarni turli grammatik formalarda qo'llash, ularning talaffuzi ustida ishlash bilan bir vaqtda shakllantiriladi. Orfografiyani o'rgatishda og'zaki nutqqa tayanib ish ko'riladi. Chunki o'quvchilar eshitgan, o'qigan so'zlarini o'z nutqlarida qo'llaydilar. Buning uchun esa o'sha so'zlarning ma'nosini tushunishlari lozim

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida shakllantiriladigan imloviy bilim hamda sezgirlik shu davrdan boshlanishi lozim. Boshlang'ich sinfda imlo ustida ishlashni ikki davrga ajratish mumkin:

1. Imloviy bilim amaliy tarzda o'rgatiladigan davr.
2. Fonetika, so'z yasalishi, so'z tarkibi, grammatika orfografiyadan elementar nazariy bilim berish jarayonida imloviy bilim berish davri.

Xat-savod o'rgatish jarayoni imloviy bilim amaliy tarzda o'rgatiladigan davr. Xat-savod „Alifbe“ asosidagi o'qish darslarida hamda yozuv darslarida chiqariladi. Xat-savod o'rgatish davri eshitish sezgisi orqali so'z tarkibidagi tovushni farqini farqlashga tovush va harf nisbatini fahmlashga o'rgatadigan ba'zi imloviy qoidalarni amaliy o'zlashtirishda o'ta darajada mas'ul davr hisoblanadi. Ma'lumki, to'g'ri yozuvga

o'rgatishning lingvistik asoslaridan biri bo'lgan fonetik xat savod o'rgatish uchun ham ilmiy asos bo'ladi. Bu bog'liqlik imlo ustida ishlashni shu davrdan boshlash lozimligini ko'rsatadi.

“Alifbe” bilan ishlash jarayonida grammatik va fonetikadan beriladigan propedevtik (amaliy) bilimlar o'quvchilarda to'g'ri yozuv malakalarini shakllantirish imkonini beradi. Bu darslarda asosan quyidagi amaliy bilimlar beriladi: 1. Nutq, og'zaki va yozma nutq. 2. Gap, unung bosh harf bilan yozilishi va oxirig, zarur tinish belgilarining qo'yilishi. 3. So'z haqida tushuncha. 4. Bo'g'in, so'zning bo'g'inlarga bo'linishi. 5. Tovush va harf. 6. Unli tovush va undosh tovushlar hamda imloviy qoidalarni amaliy ravishda o'zlashtiradi. “Alifbe” darsligidagi so'zlar o'zbek orfografiyasining asosiy qoidalari bo'lmish “Ayrim harflarimlosi”, “Ko'chirish qoidalari”, “Bosh harflar imlosi” haqida .O'g'zaki shaklda elementlar izohlar berishni taqozo etdi. Bu o'quvchiga katta mas'uliyat yuklaydi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi, birinchi navbatda, o'zbek orfografiyasi qoidalarni yaxshi bilishi, ikkinchi navbatda, Alifbedagi qaysi o'zlar imlosi alohida izohni talab qilishini belgilab olishi, uchinchi navbatda, ular ustida qanday ishlash lozimligini ishlab chiqishi kerak. Bunda o'z ish tajribasiga suyanishi, ya'ni bolalar yozuv, ona tili darslarida qaysi so'zlar imlosida xato qilganligini hisobga olib borishi lozim Ma'lumki, bu davrda bolalarga tovush-harfni tanitish, harflarni, bo'g'inlarni qo'shib o'qitish, so'zlarni, gaplarni yozish o'rgatiladi, lekin so'zlarning imlosiga o'quvchi diqqatini tortish, qaratish yozuvga ongli munosabatni tarbiyalaydi Demak, o'qituvchining vazifasi so'zlarni o'qishga o'rgatish, ma'nosini tushuntirish, shu asosda nutqni o'stirishdagina iborat bo'lmasdan, o'quvchilarning diqqatini so'zlarning yozma shaklini kuzatishga, yozilishini ko'ruv va eshituv, qo'l harakati sezgisi orqali o'zlashtirib borishlariga qaratiladi.

O'quvchilar “Alifbe” kitobida o'qigan so'zlarini yozuv darsida yozishni o'rganadilar. Bu bog'liqlik ham savod darslarida o'qitilayotgan so'zning imlosi ustida qisman bolsada ishlab o'tishni taqozo etadi. Bu davrda asosan: a) fonetik: farzand, laylak, poyezd, arra, mix, Botir, bilan, vaqt, sinf, b) morfologik: tutdi, ko'rsatdi, Toshkentda, Ali, boqqa; v) semantik. she'r-she'r kabi orfogrammalar ustida ishlash lozim.

Savodxonlikka o'rgatish savod o'rgatishning dastlabki mavzularidan bo'lgan yozma nutqning ahamiyatini sodda va aniq tushuntirishdan boshlanadi. Bu darsda o'qituvchining yozma nutqni tushuntirishni oldin o'zi o'qitgan va hozirgi sinf o'quvchilari taniydigan o'quvchilarning yozma ishlarini taqqoslagan holda namoyish qilish va ularning qaysi biri yoqqanligini o'quvchilarning o'zlaridan so'rash bilan boshlashi ma'qul. Shundan so'ng mashhur kishilar yozuvi ko'rsatilib, ularning jamiyatdagi o'rni izohlanadi, keyin o'quvchilarning eng asosiy vazifalaridan biri o'zining yoki boshqalarning fikrini to'g'ri hamda chiroyli yozma ifodalashdan iborat ekanligi tushuntiriladi. O'quvchilarda til hodisalariga sezgirlik bilan munosabatda bo'lish hissi shu tariqa hosil qilinadi.

Savodxonlikka zamin hozirlash va imloviy sezgirlikni shakllantirish maqsadida savod darsida analitik-sintetik usulda bo'g'in-tovush, tovush-harf tahlilini uyushtirish, leksik-orfografik, morfologik-orfografik mashq turlaridan foydalanish lozim. Imlosi ustida shunday ishlar uyushtiriladigan so'zlarni lug'at minimumi va lug'at maksimumiga ajratib olish lozim. Xat-savod davrida yozilishini o'zlashtirish shart bo'lgan so'zlar lug'at minimumiga kiritiladi Ular imloga yo'naltirilgan maxsus ishlar uyushtirishni talab qilmaydi. Chunki ularning aytilishi bilan yozilishi orlasida farq yo'q. Shu tufayli bunday so'zlarni bu sinf uchun minimum sifatida ajratishni lozim topdik. Lug'at maksimumi sifatida ajratilgan so'zlar tarkibi kuzatiladi. Ularni bu davrda o'quvchilarning to'g'ri yozishlari talab qilinmaydi, lekin to'g'ri shakli o'rgatib boriladi. O'quvchilarning so'zlar talaffuzida kamchilik va xatoga yo'l qo'yilishi turli imloviy xatolarni keltirib chiqaradi. O'quvchilar talaffuzida quyidagi kabi nuqsonlar uchraydi:

1. Tovushlarning o'rnini almashtirib talaffuz qilish. turpoq, aynaldi, yogmir
2. Tovushlarni tushinib talaffuz qilish: do's(t), balan(d)s ki(y)ik, qo'z(i)choq, mosh(i)na, avgus (t), poyez (d),,
3. Bir tovushni boshqa tovush bilan almashtirib talaffuz qilish: terag, teray, qovog', jo'mrag, rubop, qurvaqa, Maxsud,,, sovol, chumchiq, valasaped, Uchqin, Komol...
4. Tovush orttirib talaffuz qilish: Nayim, Noyila ... to'g'ri talaffuzga o'rgatishning asosiy shartlaridan biri o'qituvchining adabiy orfografik talaffuz namunasidir. O'qituvchining namunasidan so'ng keyingi ishlar turli usullarda amalga oshiriladi. Masalan:

1. Butun sinfga xo'r qilib o'qitiriladi. O'qituvchi har bir o'quvchining nutq organlari harakatini kuzatadi. Talaffuzda xato qilgan o'quvchilarga qayta aytiriladi.

2. Oldin to'g'ri, so'ngra xato talaffuz qilgan o'quvchiga aytiriladi.

3. To'g'ridan-to'g'ri xato talaffuz qiladigan o'quvchiga aytiriladi va o'qituvchining talaffuzi bilan taqqoslanadi, har qanday holatda ham o'quvchilar o'qituvchining, o'rtoqlarining nutq organlari holatini kuzatishi va unga taqlid qilishi zarur.

Bu kabi ishlar o'quvchilarni so'zning xato yozilishi mumkin bo'lgan o'rnini ko'ra olishga o'rgatadi, ularda orfografik sezgirlikni tarbiyalaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Abdullayeva Q. Alifbe: Darslik.- Toshkent: "O'qituvchi", 1987.B. -174.
2. Asqarova M va boshqalar. Kichik yoshdagi bolalar nutqini o'stirish. – Toshkent: "O'zbekiston", 2001.- B. 160.
3. Ashrapova T., Odilova M. Boshlangich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent, "Sharq", 1984.-B.236.
4. Ahmedova N. Boshlangich sinflarda nutq o'stirish usullari. (Ta'lim jarayonida nutq madaniyatini shakllantirish masalalari). Toshkent, "Sharq", 1999.-B.128.
5. Boshlangich ta'lim. Umumiy o'rta ta'limning Davlat Ta'lim Standarti va o'quv dasturi. Ta'lim taraqqiyoti. O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'lim Vazirligi axborotnomasi 7-maxsus son. - Toshkent: "Sharq", 1999. –B. 479.

## **БИРИНЧИ СИНФДА ИЛМИЙ - ОММАБОП МАТНЛАРНИ ЎРГАТИШ УСУЛЛАРИ**

**Д. Омонова**

Бухоро давлат университети таянч докторанти

*Ушбу мақолада 1-синф ўқиш китобида берилган Абу Али ибн Сино илмий-оммабоп матнида унинг ҳаёти ҳақида қисқача маълумот берилса, «Китобга меҳр»да Хусайннинг ёшлик даври образи, «Ибн Сино ҳақида ривоят»да ҳам улуг алломанинг болалик даври авдалантирилган.*

**Калим сўзлар:** *илмий-оммабоп, ҳикоя таҳлили, мақола, матн, ҳикоя таҳлили ижтимоий-тарихий, жонли мулоқот*

*В этой статье дается краткий отчет о жизни Абу Али ибн Сины в популярном учебнике, в то время как «Любовь к книге» изображает юность Хусейна, а «Повествование Ибн Сины» изображает его детство.*

**Ключевые слова:** *научно-популярный, анализ рассказа, статья, текст, анализ рассказа социально-исторический, живое интервью*

*This article gives a brief account of Abu Ali ibn Sina's life in a popular textbook, first in a first-grade textbook.*

**Key words:** *popular science, story analysis, article, text, story analysis socio- historical, live communication.*

Бошланғич синф ўқиш ва синфдан ташқари ўқиш дарсларида бадий асар намуналари кенг ўрганилади. Адабиёт бўстонида куртаклари билан энди таниша бошлаган жажжи ўқувчилар ўз дарсликларида берилган матнлар мазмунини тушунмаса, ундан ўзгача шуур, завк олмаса, уларнинг китоб ўқишдан зерикиб қолиши тайин. Ўқувчиларни биринчи синфданок бадий асар ўқишга қизиқишларини ошириш, уларни адабиётга ошно қилиб ўстириш зарур ахамиятга эга. Таъкидлаш жоиз, бошланғич синф ўқиш дарсликларнинг янги авлоди адабий ва илмий-оммабоп матнларнинг мазмуни, мавзу-мундарижасига кўра мукамаллашди. Шу маънода, 1-синф ўқиш китобида ҳам ранг-баранг мавзудаги илмий-оммабоп ҳикояси таҳлилини кузатиш мумкин. Шу ўринда атама ҳақида ойдinлик киритиш мақсадга мувофиқ. Негаки, услубшунос олимлар бу тушунчани "илмий-оммабоп асар", "мақола", "матн" тарзида қўллайдилар.<sup>1</sup> Рост, берилган матн ҳажми ва жанри нуктаи назардан ифода асосли. Аммо, бошланғич синф ўқиш китобларидаги матнларнинг аксарияти асар, ёхуд мақола жанри талабларига мос келмайди. Уларнинг ифода услуби ҳам анчайин содда. Аниқроғи, кўпроқ расмий услубга яқин. Шунга кўра, "табиат, кишилар меҳнати ва ижтимоий ҳаёт ҳақида муайян билим беришга" қаратилган барча ижтимоий-тарихий мазмундаги 50-100 сўздан иборат лавҳаларни илмий-оммабоп матн тарзида яхлит ўрганиш маъкул, деб ҳисоблаймиз. Хусусан, 1-синф ўқиш китобидаги ижтимоий-тарихий, илмий ёхуд табиат ходисаларига оид матнларнинг аксарияти жуда ихчам ҳамда содда баён услубига эга. Уларни мақола ёки асар тарзида ифодалаш шундай публицистик ва адабий ҳодисага нисбатан сунъийликдек туюлади. Бинобарин, бундай матнларни кичкинтой ўқувчига мослаб тушунтиришда бошланғич синф ўқитувчиларининг касбий ва адабий билимлари ҳам муҳим роль ўйнайди. Ўқувчилар ҳар бир матнни ўқигандан сўнг унинг мазмуни ҳақида тасаввурга эга булишлари

<sup>1</sup> Қаранг: К. Qosimova va boshq. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent, "Noshir", 2009, - B.146

лозим. Шунингдек, матнда тилга олинган қахрамонларининг хатти- ҳаракати, тасвири уларни қизиқтиради ҳамда тарбиявий аҳамият касб этади.

Бошланғич синф ўқувчилари учун бундай матнларга нисбатан образ тушунчасини қўллаш мавҳумлик уйғотади. Шунинг учун образ сўзи ўрнига қатнашувчи, иштирокчи сузларини қўллаш мақсадга мувофиқ. 1- синф ўқиш китобидаги кўпгина матнлардаги образлар, қахрамонлар, персонажларга ўқитувчининг ўзи баҳо беради.

Айтайлик, 1- синф ўқиш китобида “Абу Али ибн Сино” сарлавҳали илмий-оммабоп матн берилган.<sup>1</sup> У орқали кичкинтой ўқувчи Абу Али ибн Сино ҳақидаги дастлабки маълумотлар билан танишади. Ибн Синонинг машхур ҳаким ва олим бўлганлиги, асл исми Хусайн эканлиги, улкан мутафаккирнинг ёшлигиданоқ илмга, китобга қизиқиши баландлиги, олимнинг авлодларга кўплаб китоблар ёзиб қолдиргани, беморларни даволашда ўзига хос ёндашуви, тарбиявий ўғитлари ойдинлашади. Ўқитувчи бу матнни ўтишда Ибн Синонинг она юрти– қадим Бухоро ҳамда Афсона қишлоғи тўғрисида қўшимча маълумотларга эга бўлса, жаҳон тиббиётида шуҳрат топган аллома Ибн Сино музейи ҳамда ҳаётига оид диафильмлардан фойдаланса, портретлари, ҳайкаллари эслатилса, ўқувчиларнинг олим ҳақидаги тасаввурлари анча кенгайди. Илмий-оммабоп матнлар ўқувчилар билан жонли мулоқот, мавзунини тушунтирган каби баён услуби билан ажралиб туради. Яъни матн бевосита ўқувчи ёнгинасида туриб, аниқ бир воқеа-ҳодисани сўзлаб бераётган устоз тилидан ҳикоя қилади. Бундай матнлар ўз навбатида, ўқувчиларга бадий асар ўқишга замин ҳозирлайди.

Масалан, Миркарим Осимнинг “Китобга меҳр” ҳикоясида ёш Хусайн образи кўзга ташланади. Яъни, энди бу бевосита ёзувчи қиссасидан олинган лавҳадир. Уни бадий матн, дейиш ўринли. Ўқитувчи бу бадий матнни ўтишдан илгари адабиётдаги образ тушунчасига, тарихий мавзунини бадий талқин этиш санъатидан воқиф бўлсагина, сўз санъати сеҳри ўқувчини ўзига чорлайди. Кўринадики, илмий –оммабоп матн укувчига бадий асардаги қахрамоннинг тарихий шахс эканлиги ҳақида маълумот бериб, уни ўрганишга замин ҳозирлайди. Хусайн образида Ибн Синонинг ёшлиги гавдаланади. Бунда қахрамоннинг китобсеварлиги қизиқувчанлиги намоён бўлади. Ўқувчи Хусайн образини таҳлил қилишда ўқувчиларга унинг хатти -ҳаракатига баҳо беришни сўрайди. Хусусан, Хусайнинг бозорни айланиб юриб, китоб сотиб олганига ўқувчи диққат қаратади. У бор пулига китоб сотиб олади. Уқитувчи: “Нега Хусайн айнан китоб сотиб олди? Бозорда бошқа нарсалар, кўзни қамаштирадиган нарсалар кўпму?”, деб ўқувчиларни фикрлашга чорлаши мумкин. Жажжи ўқувчилар эса: «Чунки у китобга қизиқади, китоб ўқишни яхши кўради»,–дея билагонлигини намоён этади. Ўқитувчи яна ўқувчиларга: «Хусайн ким? Кимнинг ёшлик даври?»,– деб савол берганда эса ўқувчилар Ибн Синонинг ёшлиги эканлигини топадилар. Шу тариқа, қахрамоннинг китобсеварлик, қизиқувчанлик хусусиятлари намоён бўлади. Бунда қахрамонга баҳо беришнинг дастлабли куртаклари пайдо бўлади. Ўқувчиларга китобга хавас уйғотиш мақсадида ўқитувчи: «Ибн Сино машхур олим, табиб бўлишига нима сабабчи бўлган экан?»,– деб сўраганида, ўқувчилар: «Китоб», –деб жавоб беришлари табиий. Ўқитувчи: «Барча билимларнинг асоси нима экан?», –деб ўқувчиларнинг китобга меҳрини оширишга эришади.

Бошланғич синфда ўқувчиларда хали бир қахрамонни иккинчи қахрамон билан такқослаш кўникмалари шаклланмаган бўлади. Шу маънода, дарсликдаги шоҳ ва шоир Заҳриддин Бобур ҳақидаги «Она сабоги»(Г. Комилов) ҳикояси таҳлили бундай кўникмани шакллантиришда асос бўла олади. Қахрамонлар тимсоли киёслаб ўрганишга арзигулик. Хар иккала бола ҳам қизиқувчан. Хусайн узининг билмаган саволига жавобни китобдан кидирса, жажжи Бобур онасини сурокка тутатади. Демак, қизиқувчанлик ҳам ижобий хусусият эканлигини укувчиларга уктириш зарур.

Бундан ташқари, шу дарсликдаги Ибн Сино ҳақида ривоятда ҳам Хусайн образи кузга ташланади. «Китобга меҳр» билан «Ибн Сино ҳақида» ривоятни узаро такқосласак, иккала қахрамон ҳам бир шахс экани, бирида у китобхон, бирида эса адолат пешвоси сифатида кузга ташланади. Ривоятда Ибн Сино ростгуй, зукко бола сифатида гавдалантиради.

Хуллас, 1 –синф ўқиш китобида берилган Абу Али ибн Сино илмий-оммабоп матнида унинг ҳаёти ҳақида қисқача маълумот берилса, «Китобга меҳр»да Хусайннинг ёшлик даври образи, «Ибн Сино ҳақида ривоят»да ҳам улуг алломанинг болалик даври гавдалантирилган. Хар учала матнда ҳам бир буюк шахснинг турли кирраси акс этганки, буларни мантиқий изчилликдаги матнлар, дейиш мумкин. Зотан, буюк қомусий олимлар, мутафаккирлар тўғрисидаги илмий-оммабоп матнлар ўқувчига яхлит билим бериш ва маърифий сабоқномавазифасини ўтайди.

<sup>1</sup> T. G'afforova, E.Shodmonov, G.Eshurtdiyeva. O'qish kitobi. 1-sinf uchun darslik. T., “Sharq”,2010. –B.27.

**Фойдаланилган адабиётлар**

1. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyeva Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent, "Noshir", 2009, - B.146
2. G'afforova T., E.Shodmonov, G.Eshturdiyeva. O'qish kitobi. 1-sinf uchun darslik. T., "Sharq", 2010. –B.27.
3. Tuxliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. Toshkent, 2010.

**TEKNOLOGIYA DARSLARINI MILLIY O'QUV DASTURI ASOSIDA TASHKIL QILISH**

**M.M.Tilavova**

BuxDU dotsenti

**N. I. Tursunova**

BuxDUPI magistri

*Maqolada texnologiya darslarini milliy o'quv dastur asosida tashkil etish, o'qituvchining ta'lim jarayoniga pedagogik yangiliklarni (innovatsiyalarni) ishlab chiqish va joriy etishga tayyorlash haqida so'z yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** o'qituvchi, dars, texnologiya, pedagogika, innovatsiya, faoliyat, tayyorlash, dastur, milliy, o'quv.

*В статье речь идет об организации уроков технологии на основе республиканской учебной программы, подготовке учителей к разработке и внедрению педагогических инноваций в образовательный процесс.*

**Ключевые слова:** учитель, урок, технология, педагогика, инновация, деятельность, обучение, программа, национальное, обучение.

*The article deals with the organization of technology lessons on the basis of the republican curriculum, the preparation of teachers for the development and implementation of pedagogical innovations in the educational process.*

**Key words:** teacher, lesson, technology, pedagogy, innovation, activity, education, program, national education.

Dasturda jamiyatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida yoshlarga mehnat ta'limi bormi, ularni tarbiyalash sohasida qo'yilgan maqsad va vazifalar o'z ifodasini topadi. Texnologiya fani dasturi o'quv rejasi asosida ishlab chiqiladi. Texnologiya fani o'qituvchisi o'zining kundalik faoliyatida bu dasturga amal qiladi va uning bajarilishi majburiy hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda o'qituvchi o'quv dasturiga mahalliy sharoitni hisobga olib ma'lum o'zgarishlar kiritish mumkin. Bu borada bir qancha talablar hisobga olinishi lozim. Dasturning mazmuni didaktik prinsiplarga to'la - to'kis javob berishi, ilmiy va mafkuraviy jihatdan puxta bo'lishi, murakkabligi ortib borishini hisobga olgan holda va mehnat ta'limining tanlangan didaktik tizimiga muvofiq ravishda muayyan izchilikda bayon qilinishi turmush tajribasi bilan bog'langan bo'lishi kerak. Unda mehnat o'rinlari politexnik xususiyatlariga ega bo'lishi, ularning tavsiya qilinadigan ro'yxati esa ijtimoiy ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lishi lozim.

O'quvchilarni tarbiyalash ularni bo'lajak amaliy faoliyatga tayyorlashda mehnat malakalari va ko'nikmalari katta rol o'ynaydi. Quyi sinf o'quvchilariga mehnat ta'limini berish vazifalaridan biri ularda bir qator mehnat malakalari va ko'nikmalarini shakllantirishdir. Mehnat malakalari va ko'nikmalari natijasi bo'lib qolmay, balki o'quvchilarni mehnat faoliyatiga, ijtimoiy foydali ishlab chiqarish mehnatini bajarishga jalb qilish sharti hamdir.

1-4-sinflarda mehnat ta'limi fani mazmuni shartli ravishda umumiy mehnat ta'limi tayyorgarligi, uning mazmunida mavjud bo'lgan kasblar atroficha ma'lumotlari bilan tanishish hamda shu yoshga xos maxsus tayyorgarlik qismlaridan iborat.

Texnologiya fanidan tuzilgan dastur o'quvchilar umumta'lim tayyorgarligiga, saviyasiga qo'yiladigan majburiy minimal darajani belgilab beradi. Dastur o'z mohiyatiga ko'ra o'quv dasturlari, darsliklar, qo'llanmalar, hamda me'yoriy hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi va o'zining tuzilishi hamda mazmuniga ko'ra maktab manfaatlari va vositalari muvozanatini aks ettiradi. Eng asosiysi o'quvchi shaxsi, uning intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustivorligidan kelib chiqadi.

O'quv dasturi asosida amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlari natijalaridan foydalangan holda aniqlash va nazorat qilish uchun o'quvchilarning o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalari quyidagi mezon bo'yicha baholanadi.

1. Shakllangan nazariy bilimlar.
2. Shakllangan ko'nikma va malakalar.
3. Milliy hunarmandchilik sohalari bo'yicha shakllangan umumta'lim bilimlari.
4. Milliy hunarmandchilik kasblari bo'yicha shakllangan mahorat.
5. Milliy hunarmandchilik sohasida shakllangan ijodkorlik.

Ushbu mezonning har biri quyidagi to'rttadan yo'nalish bo'yicha baholanadi:

- asboblardan foydalanishni egallash;
- moslamalar ijod qilish;
- tayyorlangan buyumlar yoki mahsulotlar sifatini aniqlash;
- erishilgan natijalarning iqtisodiy ko'rsatkichlarni aniqlash asosida baholanadi.

Boshlang'ich sinflarda texnologiya faniga tayyorlash dasturi bolalarni har tomonlama kamol toptirishga aqliy va jismoniy, axloqiy va estetik kamol toptirishga va tarbiyalashga qaratilgan bo'lib, o'z oldiga quyidagi maqsadlarni qo'yadi:

a) bolalarni mehnat tajribasini, ularni kishilar ishlab chiqarish faoliyati to'g'risidagi bilimlarni kengaytirish, mehnatsevarlikka, mehnat va mehnat kishilariga munosib munosabat ruhida tarbiyalash;

b) mehnat malakasi, mehnat madaniyatini, o'z ishi va o'rtoqlarning ishini rivojlantirish va tashkil qilish malakalarni rivoltantirish;

Dasturda 3 ta asosiy bo'lim bor:

“O'z –o'ziga xizmat ko'rsatish”;

“Texnikaga oid mehnat”;

“Qishloq xo'jalik mehnati”.

Har bir sinfda mehnatning maxsus turi – “texnikaviy modellar yasash” – uchuvchi, suzuvchi, harakatlanuvchi, eng oddiy texnikaviy o'yinchoqlar tayyorlashga vaqt ajratilgan.

Bizga ma'lumki, mehnat ta'limi darslari maktabda eng uzoq vaqt o'tiladigan o'quv fanlardan biri bo'lib, mehnat ta'limi fani o'qituvchisi rahbarligida o'quvchilar tomonidan bajariladigan aqliy va jismoniy harakatlar-mehnat faoliyati jarayonidan iborat bo'lib, yakuniy natijada ularning mehnat qurollari, vositalari va jarayonlari haqida bilimlarni hamda ma'lum sohadagi ishlab chiqarish mehnatini bajarish uchun zarur amaliy ko'nikma va malakalarini egallashlariga ongli ravishda kasb tanlashga, hamda jamiyat va shaxs farovonligi yo'lida mehnat faoliyatiga qo'shilishlariga imkon beruvchi shaxsiy sifatlarini va tafakkurlarini rivijlantirishga qaratilgan o'quv fanidir.

Maktabda mehnat ta'limi III bosqichda tashkil etilib, ulardan ko'zlangan maqsad o'quvchilarni jismoniy tomondan to'g'ri rivojlantirish, mehnat olami va kishilari, qurollari va amallari, asosiy ishlab chiqarish sohalari va kasblari bilan tanishtirish, ish qurollaridan to'g'ri foydalanish, oddiy buyumlarni yasashga oid mehnat malakalarini hosil qilish, ongli ravishda kasb tanlashga yo'naltirishdan iborat.

I bosqich: 1-4 sinflardagi mehnat darslarida o'qituvchi o'quvchilarga kishilarning hayotida mehnatning tutgan o'rni, eng sodda mehnat amallari va ish qurollari ulardan foydalanishga oid dastlabki ma'lumotlarni o'quvchilarda qog'oz, yelim, gazlama, ip, plastilin kabi materiallardangina, qaychi, pichoq kabi mehnat qurollari yordamida buyumlar, o'yinchoqlar yasash, tayyorlash orqali dastlabki mehnat ko'nikmalari shakllantiriladi. Odatda, bu darslarni qo'l mehnati yoki to'g'ridan to'g'ri mehnat darslari deb yuritiladi.

II-III bosqich yuqori sifatlardagi mehnat ta'limi darslari kiradi, ya'ni II bosqich 5-7 sinflar turkumida, III bosqich 8-9 sinflar kesimida amalga oshiriladi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida mehnat ta'limi darslarini o'qitishda o'qituvchi tomonidan o'z oldiga qo'yilgan asosiy vazifa o'quvchilarning jismoniy tomondan to'g'ri rivojlanishini ta'minlash, ijodiy qobiliyatlarini tarkib toptiradi. Bundan esa quyidagi maqsad va vazifalar kelib chiqadi:

- O'quvchilarda umummehnat ko'nikma va malakalarini shakllantirish;
- Ularning qiziqishlari;
- Qobiliyatlari;
- Kasbiy moyillikka ko'ra, kasb-hunar turlarini tanlashga asos bo'ladigan hislatlari;
- Umummehnat madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish;
- O'quvchilar tomonidan bajariladigan ishlar moddiy ne'matlar yaratishga qaratilgan aqliy va jismoniy harakatlar jarayonidan iborat.

Bolalarda buyumlarni yasash tartibi haqida, ya'ni belgi qo'yib chiqish (razmetka), tayyorlash (zagatovka), yig'ish, ishlov berish to'g'risida, ishlatib ko'rish, xato va kamchiliklarni yo'qotib ish o'rnini to'g'ri tashkil qilish va boshqalar to'g'risida tasavvur hosil bo'ladi. Bu elementlarning barchasi keyinchalik andoza (model)lar va texnikaviy o'yinchoqlar tayyorlashda qo'llaniladi, umumlashtiriladi, bolalarning ijodiy fikrini o'stiradi, to'plagan mehnat tajribasini tevarak atrofda

texnika bilan bog'lashlariga yordam beradi. Texnologiya fani dasturi talablari quyidagilarni o'z ichiga oladi;

1. Buyumlarning kundalik ehtiyoj uchun zarurligi;
2. Narsa-buyum yoki ishni bajarish jarayonida bolalarga berish mumkin bo'lgan programmada ko'rsatilgan bilim va malakalarning mazmundorligi.
3. Barcha o'quvchilarni darsda band qilish imkoniyati.

Texnologiya fani dasturi talablariga muvofiq o'quv dasturi mazmuni belgilanadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi 1-sinf o'quv dastur mazmunini shakllantirishi uchun o'quvchilarning mehnat ta'limi bo'yicha qanday ishlarni amalga oshirib borishi, u yoki bu ishni bajarish natijasida qanday ko'nikma, bilim va malakalarni egallashlarini aniq bilishlari kerak. Ana shunday holda o'qituvchi sinf uchun shu vaqtda zarur bo'lgan materiallarni tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu o'rinda muhimi, o'quvchilar mazkur materiallarni tayyorlash jarayonida dastur nazarda tutgan bilim va malakalarni egallab olishlarini nazarda tutishi kerak. Bilim va malakalar mehnatning quyidagi turlaridan:

1. Qog'oz va karton bilan ishlash.
2. Gazlama bilan ishlash.
3. Turli materiallar bilan ishlash.
4. Texnik modellashtirish.
5. Qishloq xo'jaligi mehnati turlarini egallab olishlaridan iboratdir.

2-sinf dasturining mazmuni – boshlang'ich sinflarda texnologiya fani darslaridagi ta'lim-tabiiy vazifalar umumta'lim maktablaridagi texnologiya fanining umumiy vazifalaridan kelib chiqib, quyidagi mashg'ulot turlari jarayonida amalga oshiriladi.

1. Qog'oz va karton bilan ishlash.
2. Gazlama bilan ishlash.
3. Turli materiallar bilan ishlash.
4. Texnik modellashtirish.
5. Qishloq xo'jaligi mehnati.

Har bir o'quv yilida barcha sinflarda ish turlari shu tartibda olib boriladi.

Birinchiidan, o'quvchilar ma'lum nazariy bilimlarga ega bo'ladilar, ularning fanlararo texnologik xususiyatlarini, ularning hayotda qo'llanishi bilan tanishadilar.

Ikkinchiidan, materiallarga ishlov berishda eng oddiy usullardan boshlab murakkab usullargacha amaliy o'rganadilar.

Xullas, texnologiya fani dasturida o'quvchilar texnologiya darslarida egallashi lozim bo'lgan ilmiy texnik bilimlarning, mehnat ko'nikmalarini va malakalarni hajmi hamda mazmuni belgilab boriladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Sanoqulov X.R.Xodiyeva D.P.Satbayeva. Mehnat va uni o'qitish metodikasi. Darslik.T.;TDPU. 2015.
2. Mavlonova R.A., Sanoqulov X.R., Xodiyeva D.P. Mehnat va uni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. 2007. TDPU.
3. Matlab Tilavova. Texnologiya va uni o'qitish metodikasi. Toshkent "Muharrir nashriyoti". 2019.
4. Umumiy o'rta ta'limning davlat talim standarti va o'quv dasturi. Boshlang'ich ta'lim (Ta'lim taraqqiyoti 2017-yil).

### **MILLIY O'QUV DASTURI ASOSIDA 2- SINF O'QUVCHILARIDA O'QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK XUSUSIYATLARI**

**Qoraboyev Husniddin Kamolovich**

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti*

*3- bosqich mustaqil tadqiqotchisi*

[husniddin\\_1985@inbox.ru](mailto:husniddin_1985@inbox.ru)

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada ona tili va o'qish savodxonligi faning milliy o'quv dasturi asosida o'quvchilarning o'qish savodxonligini takomillashtirishning pedagogik shart- sharoitlari sharhlangan. 2-sinf o'quvchilarida o'qish savodxonligini rivojlantirishning metodik jihatlariga oid tavsiyalar keltirilgan. O'quvchilarda o'qish savodxonligini rivojlantirish bo'yicha xulosalar keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:** Boshlang'ich sinf, o'qish savodxonligi, ongli o'qish, mustaqil fikrlash, milliy dastur, hamkorlik, asar tahlili, amaliy ko'nikmalar, samaradorlik.*

**Аннотация:** В данной статье разъясняются педагогические условия повышения читательской грамотности учащихся на основе национальной учебной программы по родному языку и читательской грамотности. Даны рекомендации по методическим аспектам развития читательской грамотности учащихся 2-х классов. Сделаны выводы о развитии читательской грамотности у учащихся.

**Ключевые слова:** Начальная школа, читательская грамотность, осознанное чтение, самостоятельное мышление, национальная программа, сотрудничество, анализ работы, практические навыки, эффективность.

**Annotation:** This article discusses the pedagogical conditions for improving students' reading literacy based on the national curriculum of mother tongue and reading literacy. Recommendations for methodological aspects of developing reading literacy in 2nd grade students are provided. Conclusions are given on the development of reading literacy in students.

**Keywords:** Primary school, reading literacy, conscious reading, independent thinking, national program, collaboration, work analysis, practical skills, efficiency.

O'qish savodxonligi mukammal bo'lgan o'quvchi boshqa fanlarda o'rganayotgan matnlarni o'qish orqali mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlaydi, olgan bilimlarini hayotda qo'llay olish layoqati rivojlantiriladi. Shuningdek, o'quvchining mantiqiy fikrlashini va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan xalqaro baholash dasturi (PISA, PIRLS) talablariga mos keladigan matnlar bilan ishlashga mo'ljallangan amaliy topshiriqlarni matnlarning mazmuniga moslashtirish o'qituvchi oldidagi asosiy vazifalardan biri. Bunda matnni tushunish, tahliliy, tanqidiy fikrlash va munosabat bildirish malakalarini shakllantirish ko'zda tutiladi.[1.4]

DTSda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ona tili o'qitishning asosiy maqsadi quyidagicha belgilangan: "o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda to'g'ri va ravon bayon qiladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o'z g'alar fikrini anglaydigan – muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirishdan iborat".[1.7] Ona tili fanini o'qitishning asosiy vazifasi sifatida "o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'z g'alar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani shakllantirish; o'quvchida grammatikaga oid o'zlashtiriladigan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, yozuv, so'zning tarkibi, so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirish; ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda to'g'ri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat" ekanligi belgilangan. [2.87] Mazkur o'quv dasturi kognitiv, ya'ni tilga oid malaka va ko'nikmani rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, Ona tili faniga shunchaki o'quv predmeti sifatida qaralmaydi. Bunda ona tili butun borliqni: tabiat, jamiyat, fanlarni, o'zlikni anglash va o'rganish vositasiga aylantiriladi. [2.98] O'quvchi Ona tili fanini o'zlashtirish jarayonida tildan turli ijtimoiy munosabatlarda to'g'ri va o'rinli foydalanishni o'rganadi.

O'quvchini xalqaro baholash – o'qish savodxonligini baholovchi PIRLS hamda PISA dasturlariga tayyorlash maqsadida o'qib tushunish malakalarini shakllantirishga qaratilgan mashq va topshiriqlar darslik mazmuniga singdiriladi.

O'qish savodxonligi deganda o'quvchining yaxshi o'qish malakalarining rivojlanganligigina emas o'qib tushunish, tinglab tushunish, og'zaki va yozma nutqning rivojlanganligi kabi amaliy ko'nikmalarning rivojlanishini tushunishimiz mumkin. [3.114] 2-sinflar uchun tayyorlangan Ona tili va o'qish savodxonligi darsligida "Sharikning tug'ilgan kuni" matni orqali o'quvchilarda o'qish savodxonligi ko'nikmalarini shakllantirishni ko'rib chiqamiz.

"Sharikning tug'ilgan kuni" matni orqali syujet ketma-ketligi, asar qahramonlarining ismi va qanday harakatlar qilganini bilib olishdan tashqari yana qanday ko'nikmalarni rivojlantirishimiz mumkinligini aniqlab olishimiz zarur. Quyidagi ko'nikmalarni sanab o'tishimiz mumkin:

1. Matndagi ma'lumotlarni o'zaro integratsiya qilish orqali ma'lum xulosalar chiqarish.
2. Matndagi voqea-hodisalarning sabab-oqibatini tushuna olish.
3. O'quvchining leksikoni uchun notanish bo'lgan so'z va birikmalarning ma'nosini kontekst asosida taxmin qila olish.
4. Matndagi ayrim grammatik ko'rsatkichlarning qanday ma'no tashiyotganini tushunish.
5. Matn hamda tasvirlarni o'zaro moslashtira olish.
6. Matndagi voqea-hodisalarni o'z hayotiy tajribasi bilan qiyoslash.
7. Matndagi voqea-hodisalarni tanqidiy ko'rib chiqish va baholash.

Shunday qilib kerakli ko'nikmalarni ajratib oldik. Xo'sh ularni qaysi mezonlar asosida baholaymiz. Oldindan shuni aytishimiz kerakki, biz sizga qanchalik mukammal mezonlarni bermaylik baribir biz sizning o'quvchilaringiz birga emasmiz. Bu mezonlarning aniq bo'lishiga ta'sir o'tkazadi albatta. Keling mezonlar haqida gaplashishdan avval yuqoridagi 7 ko'nikmani qaysi savollar bilan tekshirish mumkinligi haqida so'zlasak. 2-jadvalga e'tibor qaratsangiz ikkinchi ustunda beriladigan savollarni bimalol shakllantiruvchi baholash deb qarashimiz mumkin:

**2-jadval. "Sharikning tug'ilgan kuni" matni asosida shakllantiruvchi baholashni amalga oshirish uchun namunalari**

<b>Rivojlantiriladigan ko'nikma</b>	<b>Shakllantiruvchi baholash namunasi</b>
Matndagi ma'lumotlarni o'zaro integratsiya qilish orqali ma'lum xulosalar chiqarish.	Sharik: "Mening tug'ilgan kunim qachon?" – deb so'raganida yilnig qaysi fasli edi?
Matndagi voqea-hodisalarning sabab-oqibatini tushuna olish.	Matroskin Sharikka: "30-sentyabrni tug'ilgan kun qilaver", deb aytdi. U nima uchun bu kunni taklif qildi?
O'quvchining leksikoni uchun notanish bo'lgan so'z va birikmalarning ma'nosini kontekst asosida taxmin qila olish.	Bo'yinbog' nima?
Matndagi ayrim grammatik ko'rsatkichlarning qanday ma'no tashiyotganini tushunish.	Neftchilar kuni, Quruvchilar kunida kimlar bayram qiladi deb o'ylaysiz?
Matn hamda tasvirlarni o'zaro moslashtira olish.	Rasmlarga qarab Matroskin hamda Fyodr amaki Sharikka nima sovg'a qilmoqchi bo'lishgani haqida gapirib bering.
Matndagi voqea-hodisalarni o'z hayotiy tajribasi bilan qiyoslash.	Neftchilar kuni, Quruvchilar kunida kimlar bayram qiladi deb o'ylaysiz? Siz shunga o'xshash boshqa bayramlarni bilasizmi?
Matndagi voqea-hodisalarni tanqidiy ko'rib chiqish va baholash.	Sizningcha, berilgan sovg'alardan qaysi biri Sharik uchun ko'proq foydali edi.

Darslikdagi har bir mavzu bo'yicha amaliy ko'nikmalarni aniqlab olish va ularni o'quvchilarda tarkib toptirish o'quvchilarda o'qish savodxonligini rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi.

**Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ona tili. Umumiy o'rta ta'limning milliy o'quv dasturi. T.: 2020. 170 b.
2. Ona tili va o'qish savodxonligi. 1-qism [Matn]: darslik 2-sinf uchun / K. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 120 b.
3. Ona tili va o'qish savodxonligi [Matn]: 2-sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma / I. Azimova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 128 b.

## 4–SHO‘BA: BOSHLANG‘ICH TA‘LIMNI INTEGRATSIYALASHNING METODIK IMKONIYATLARI СЕКЦИЯ 4: МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ИНТЕГРАЦИИ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

### БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМНИ ИНТЕГРАЦИЯЛАШДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ

Г.Т.Боймуродова

БухДУ ПИ доценти, п.ф.д.

*Ушбу мақолада жаҳон тажрибаси ва халқаро таълимда рақамли технологияларни жорий этиши натижалари, бошланғич таълимда интеграциялаш масалалари, медиамаҳсулотлар, медиафаолият, электрон кундалик, онлайн-режимда назорат қилиши имкониятлари ва самарадорлиги тўғрисида маълумотлар келтирилган*

**Калит сўзлар:** *Интеграция, рақамли технологиялар, медиамаҳсулотлар, медиатаълим, медиафаолият, медиамаданият, танқидий фикрлаш, креативлик, таълим технологиялари билан жиҳозлаш, электрон кундалик, медиакомпетентлиги ва медиатаҳлил.*

*В данной статье представлена информация о мировом опыте и результатах внедрения цифровых технологий в международное образование, интеграция в начальное образование, медиапродукты, медиаактивность, электронный дневник, возможности и эффективность онлайн-мониторинга*

**Ключевые слова:** *интеграция, цифровые технологии, медиапродукты, медиаобразование, медиаактивность, медиакультура, критическое мышление, креативность, оснащение образовательными технологиями, электронный дневник, медиакомпетентность и медиаанализ.*

*This article provides information on world experience and the results of the introduction of digital technologies in international education, integration in primary education, media products, media activities, e-diary, opportunities and effectiveness of online monitoring*

**Keywords:** *Integration, digital technologies, media products, media education, media activity, media culture, critical thinking, creativity, equipping with educational technologies, electronic diary, media competence and media analysis.*

Бугунги кунда таълим соҳасида рақамли технологияларнинг жорий этилиши таълимни янги босқичга кўтариш, таълим мазмунинг ўзлаштирилиши ва унинг сифатини оширишда муҳим аҳамиятга эга. Зеро, Муҳтарам Президентимиз Шавкат Мирзиёев таъкидлаганидек “Тараққиётга эришиш учун рақамли билимлар ва замонавий ахборот технологияларини эгаллашимиз зарур ва шарт. Бу бизга юксалишнинг энг қисқа йўлидан бориш имкониятини беради. Зеро, бугун дунёда барча соҳаларга ахборот технологиялари чуқур кириб бормоқда. Албатта, рақамли иктисодиётни шакллантириш керакли инфратузилма, кўп маблағ ва меҳнат ресурсларини талаб этишини жуда яхши биламиз. Бироқ, қанчалик қийин бўлмасин, бу ишга бугун киришмасак, қачон киришамиз?! Эртага жуда кеч бўлади”. Демак, рақамли таълим технологиялардан самарали фойдаланиш, ИТ-компетенцияга эга ёш авлодни тарбиялаш ҳамда ижодий қобилиятларни шакллантириш устивор вазифалардан биридир. Шу нуқтаи назардан, ривожланган мамлакатлар Америка, Финляндия ва Корея каби давлатларнинг мактаб таълимида юқори натижаларга эришилган. Бу мамлакатларда таълим кўпроқ болаларнинг тадқиқотлари ва ҳамкорликдаги лойиҳалар доирасида мустақил ишлашига мўлжалланган, уларни бунга рақамли технологиялар рағбатлантиради. Ўқитувчига эса устоз роли берилган бўлиб, у ҳар бир ўқувчига нисбатан шахсий-мўлжалли ёндашувни қўллайди. Аммо бу тизим муваффақиятли ишлаши учун ўқитувчиларнинг ўзи таълим учун мўлжалланган рақамли воситаларнинг ишлаш тамойиллари ва механизмларини яхши тушуниши лозим. Жумладан, Финляндия мактабларида рақамли воситалар ўқувчиларга ишда ва жамиятда рақобатбардош ва кучли бўлиш имконини берадиган кўникмаларни шакллантиришга ёрдам беради. Уларнинг орасида танқидий фикрлаш, креативлик, катта ахборот оқимидан энг муҳимини ажратиб олиш ва ундан тўғри фойдаланиш, жамоада ишлаш қобилияти, аппаратура ва интерфейсларнинг ишлаш асосларини тушуниш каби кўникмаларни кўрсатиб ўтиш мумкин. Россияда ҳам таълим соҳасида кўп йиллардан буён рақамли технологиялар фаол қўлланиб келинмоқда. Мактабдаги дарсларда ва машғулотлардан сўнг болалар ўтилган материални рақамли

таълим тренажёрлари ёрдамида мустақамлайди, уй вазифаларини ва электрон кундалик орқали ўрганиш учун қўшимча материалларни олади, ота-оналар учун эса бу жараёнларни онлайн-режимда назорат қилиш имконияти мавжуд. Республикамизда умумий ўрта таълим тизимини замонавий ахборот воситалари, билан таъминлашга алоҳида эътибор қаратилган. Синф хоналарининг компьютерлар, iPad, планшетлар, смарт-доскалар ва бошқа турдаги таълим технологиялари билан жиҳозлаш ва таълим жараёнида рақамли авлоднинг - телевизор, компьютер, планшет ва смартфонлардан фойдаланиш такомиллашиб бормоқда.

Хуш, бу технологиялар қайси муаммоларни ечишга ёрдам беради? Умумий ўрта таълим мактабларида амалда қўлланилаётган рақамли таълим технологиялардан бири электрон кундаликка тўхтаниладиган бўлсак, баҳонинг тузатиб ёки ўчириб бўлмаслиги, ўқитувчининг бевосита дарс вақтида ота-оналарга шарҳ ёзиши, ўқувчиларни фаолроқ бўлишига мотивация ҳосил қилишга ундай олади. Айниқса, бошланғич синф ўқувчиларининг уй вазифаларини унитиб қўйиши, бажара олмаслигига сабаб бўлади ва пассив фаолиятини шаклланишига олиб келади. Электрон кундаликда уй вазифалари, қолдирилган дарслар, шарҳлар, баҳолар, тадбирлар ҳақидаги эълонлар ҳам акс эттирилади. Топшириқларни бажаришда ўқувчида муаммо бўлса, бевосита тизим орқали ўқитувчидан аниқлаштириб олиш имконияти мавжуд. Бундан ташқари ўқитувчи ўз навбатида, қўшимча ўқув материални тақдим этиши, видеодарсга ҳавола жўнатиши мумкин. Бундай ёндашув ўқувчида мустақилликни, интизомни ва ўз ютуқлари ва муваффақиятсизликлари учун масъулият ҳиссини шакллантиради. Қўшимча таълим ресурсларидан фойдаланиш болаларга янги билимлар ва кўникмаларга эга бўлишга ёрдам беради.

Бунда:

- ✓ бошланғич синф ўқувчиларнинг медиакомпетентлиги ва медиатаҳлил этиш қобилиятларини ривожлантиришнинг педагогик имкониятларини аниқлаш;
- ✓ бошланғич таълимда медиасаводхонлик ва медиабилымдонлик даражалари таркибига media skills (медиамаҳорат) даражасини интеграциялаш;
- ✓ бошланғич таълимда мециамаданиятни ривожлантириш механизмининг баҳолаш мезонлари асосида мециамаҳсулотни классификациялаш, фойдаланиш, таҳлил этиш ва синтезлаш;
- ✓ ўқув-блув жараёни учун ижтимоий, педагогик-психологик таъсирни баҳолаш, ўқувчилар (имконияти чекланган ўқувчилар ҳам) мециамаданиятини ривожлантиришда ёш даврлари ва таълим босқичларига кўра мециаресурслар яъни фильмотека, видеотека ва аудиоматериаллар яратиш;
- ✓ ўқув-блув жараёнида инновацион технологиялар, тренинг, дебат, ишбилармонлик ўйинлари, ролли ўйинлар асосида мециа, таълим ва касбий фаолиятни ўзаро уйғунлаштириш зарур.

Жаҳон тажрибасида рақамли таълим платформаларидан фойдаланиш, билимлар сифатини ошириш ҳамда дарсларни қолдириш фоизини камайтиришга, ўқувчиларнинг ўзлаштириш даражасини оширишга ва ўқитувчиларнинг кундалик меҳнатини осонлаштиришга ёрдам беришини кўрсатади. Демак, рақамли таълим технологиялардан фаолиятимизда жадал суръатлар билан татбиқ этиш ҳамда ўқувчиларнинг ўзлаштириш даражасини ва таълим сифат-самарадорлигини таъминлашда муҳим аҳамиятга эга.

#### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 24 январда Олий Мажлисга йўллаган Мурожаатномаси.
2. Шаронин Ю.В. Цифровые технологии в высшем и профессиональном образовании: от личносно ориентированной Smart-дидактики к блокчейну в целевой подготовке специалистов // Современные проблемы науки и образования. – 2019. – № 1.
3. Рустамова Н.Р. Медиатаълим ва мециамаданият: назария ва амалиёт. / Монография. – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2016.
4. Федоров А.В. “Медиатаълим: кеча ва бугун” монография// 2009. 234 с.т

**SINFDAN TASHQARI ISHLARDA O'QUVCHILARNING TAFAKKURINI  
SHAKLLANTIRISHNING SHAKL VA METODLARI**

**G. M. Sayfullayev, BuxDu dotsenti**

**N. Haitova, 1-kurs magistr**

*Ushbu maqolada tabiatshunoslikdan sinfdan tashqari ishlarda o'quvchilar tafakkurini shakllantirish metodlari haqida ma'lumot keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *murabbiy, gigiyena, uslub, sanitariya, tushuncha, estetik, immunitet*

*В данной статье представлена информация о способах формирования мышления учащихся во внеклассных работах по природоведению.*

**Ключевые слова:** *тренер, гигиена, приём, санитария, понятия, эстетик, иммунитет*

*This article provides information on the ways of forming the thinking of students in extracurricular activities in natural history.*

**Key words:** *trainer, hygiene, reception, sanitation, concepts, aesthetics, immunity*

O'quvchilarning hayotida muhim o'ringa ega bo'lgan dars mashg'ulotlaridan bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etish, undan oqilona foydalanishda ularga yordam berish zarur. Barcha shakllardagi sinfdan tashqari mashg'ulotlarning ichki imkoniyati o'quvchilarni ijtimoiy foydali faoliyatga faol jalb qilish, ularning tashabbusi va mustaqilligini rag'batlantirish, individual qiziqishlari va qobiliyatlarini rivojlantirishdan iboratdir. O'quvchilarning sinfdan tashqari ishlariga pedagogik rahbarlikning xususiyati ularga faqat dars mashg'ulotlarida emas, balki ijtimoiy tashkilotlar sinfdan va maktabdan tashqari har xil tadbirlar, o'quvchilarni texnik ijodkorlik va qishloq xo'jalik tajribachiligiga bevosita jalb etish orqali ham tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishini amalga oshirishdir.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil qilishda kasbga yo'naltirish ishlari texnologiyasining funksional tuzilmasi ijtimoiy ishlab chiqarish munosabatlarining, jamiyatda mavjud kasblar doirasining kengayib, chuqurlashib hamda murakkablashib borishi o'z-o'zidan shaxsga talim berish, dunyoqarishini shakllantirish, kasb tanlashga yo'llash hamda ishlab chiqarish jarayonidagi faol ishtirokining kafolati bo'lgan kasbiy malakalarini shakllantirish jarayoniga nisbatan yangicha samarali yondashuvlarni ishlab chiqishga yordam bo'luvchi ehtiyojini yuzaga keltiradi. Ma'lumki, ta'lim tizimi jamiyatda shakllangan muayyan ehtiyoj asosidagi ijtimoiy buyurtmani bajarishga yo'naltiradi. Ayni vaqtda O'zbekiston Respublikasida barkamol avlod shaxsini shakllantirish, uni kelajak hayotda o'z o'rnini topishi va raqobatbardosh kasb egasi sifatida tarbiyalash talabi ijtimoiybuyurtma sifatida yuzaga kelmoqda. Davr talabi ta'lim oluvchini ta'lim jarayoninig sust tinglovchisi bo'lishdan faol ishtirokchisiga aylantirishni taqozo etmoqda. O'quvchining ta'lim jarayonidagi yetakchilik roli quyidagi pedagogik vazifalarni hal etish imkonini beradi:

-o'quvchida bo'lajak kasbi to'g'risidagi bilimlarni va ma'lumotlarni o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyojini qaror toptirish;

-kasb tanlashga nisbatan ongli yondashuvni hakllantirish;

-mustaqil faoliyat yuritish ko'nikmalarini shakllantirish;

Bola 2 yoshga borib o'zi harakat qila boshlaydi, 3 yoshdan 7 yoshgacha markaziy va periferik nerv sistemasi funksiyasi, harakat analizatorlari rivojlanadi. 5-6 yoshdan muskullar kuchi oshib boradi. Maktab yoshda bo'lgan bolalarda bu kuch jismoniy harakat qilganda qon aylanish moslashuvining oshishi va yurakning qisqarishi natijasida oshib boradi. 4-7 yoshgacha harakat ancha rivojlanadi. Bu yoshda bolalarning miyasi katta kishilarning miyasiga tuzilishi jihatidan o'xshash bo'ladi. Tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, harakat faolligi ham ijtimoiy, ham biologik omillarga bog'liq ekan. Shaharda yashaydigan, sport bilan shug'ullanadigan bolalarda harakat faolligi boshqa qishloq bolalariga nisbatan 10 foiz past bo'ladi. Hozirgi vaqtda ovqatlanish gigiyenasiga katta e'tibor qaratilmoqda, chunki, to'g'ri ovqatlanish mustahkam sog'liq, ishchanlik, tetiklik va go'zallik garovidir. Ovqatlanish madaniyati deganda me'yorida ovqatlanish tartibi tushuniladi. Bu ovqatni qancha va qachon eyishni, dasturxonni bezashni bilishdir.

Odam sutkada qancha ovqat eyishi kerak? Bu ovqatga bo'lgan ehtiyojiga, odamning o'sishi va organizm hujayralarining muntazam yangilanishi uchun zarur bo'ladigan energiya manbai hamda qurilish materialiga, odamning yoshiga, jinsiga, ish tartibiga, yashash joyining iqlim sharoitlariga bog'liq bo'ladi. Odam sutkada qancha energiya sarflasa, ovqat bilan shuncha energiya olishi kerak.

Ibn Sino ovqatlanishda ovqatlarni oziqliligi, o'zlashtirishi, qulayligiga e'tibor qaratishni bayon etadi. U ochlikda turli jismoniy mashqlarni bajarishda qanday ovqatlanish haqida tavsiyalar beradi.

Agarda odam juda to'yib ovqat eydigan bo'lsa, semirib ketadi va xunuk oqibatlar kelib chiqadi: qandli diabet, arteraskleroz, jigar funksiyalarining buzilishi.

Hozirgi paytda ko'p ovqat eydigan, yog'li taomlarni xush ko'radigan odamlar ham bor. Hozirgi vaqtda ko'p ovqat eyish oqibatida juda ko'p odamlar semirib ketgan. Semirib ketmay deb, och yurish, muntazam to'yib ovqatlanmaslik ham yaxshi emas. Bu ham xavfli. Organizmga barcha oziq-ovqat moddalari: oqsillar, yog'lar, uglevodlar, vitaminlar va mineral tuzlar kerak bo'ladi. Oqsillar hujayralarining struktura asosini tashkil etadi, fermentlar, gormonlar, nukleoproteinlar, fibrinlar boshqa hayotiy zarur moddalar tarkibiga kiradi. Go'shtni me'yorida eyish kerak, agar go'sht ko'p eb yuriladigan bo'lsa, organizmga zarar keltiradi. Go'sht tarkibida bo'ladigan biogen omillar qon tomirlar tonusining kuchaytiradi bu esa qon bosimini oshiradi. Tarkibida boshqa qimmatli oqsillar bo'ladigan tvorog haddan ziyod eyiladigan bo'lsa, buyrakda tosh paydo bo'ladi.

Bolalar ovqatining tarkibida oqsil, vitaminlar bo'ladigan ovqat rasioni turli – tuman bo'lishi, sut, tvorog, baliq, yoki go'sht, shuningdek mineral tuzlar saqlaydigan sabzavotlar, mevalar, yog'lar, o'simlik moylari bo'lishi kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Nuriddinova M.I. Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi. T., O'qituvchi, 2005.-174b.
2. Sayfullayev G'.M. Tabiatshunoslik darslarida sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish Globe Edit. 2020.
3. Baxromov A. Atrofimizdagi olam (1-2-sinf uchun darslik) T «Cho'lpon» Nashriyoti. 2018.

## **BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI TABIAT BILAN TANISHTIRISHNING TARIXIYLIGI**

**G'. M. Sayfullayev, BuxDu dotsenti  
I. Temirova, 2-kurs magistr**

*Ushbu maqolada tabiatshunoslikni o'rganishda uning tarixiyligi milliy qadriyatlarimiz haqida materiallar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** jonli tabiat, jonsiz tabiat, Sivilizastiya, tabiat, pedagogika.

*В данной статье представлены материалы об историческом значении наших национальных ценностей в изучении природоведения.*

**Ключевые слова:** живая природа, не живая природа, Цивилизация, педагогика

*This article presents materials on the historical significance of our national values in the study of natural history.*

**Key words:** *wildlife, non-wildlife, Civilization, pedagogy*

Tabiat – bu insoniyat yashashi uchun buyuk makon, nozu-ne'matlar manbai bo'lib, uni asrash har bir insonning burchi, bu borada xalqimiz o'zining milliy-tarixiy an'analariga ega. Bu an'analar doimo rivojlantirilib, boyitib kelingan.

O'tmishdan ma'lumki, tabiat insoniyat uchun bebaho qadriyatdir. Tabiat, tug'ilish, yashash, o'sish-faoliyat maydoni. Inson tabiat bilan birga yashaydi, o'sadi, rivojlanadi.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng tabiatni muhofaza qilishga oid ma'naviy qadriyatlar ham xalq hayotida to'laroq namoyon bo'la boshladi.

Mustaqillik tufayli yurtimizda qadim-qadim zamonlarda kechgan davlatchilik taraqqiyoti, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy hayotni atroflicha tahlil va tadbiiq etish imkoniyati vujudga keldi

"Xalqning madaniy qadriyatlari, ma'naviy merosi ming yillar mobaynida Sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Uzoq vaqt davom etgan qattiq mafkuraviy tazyiqqa qaramay O'zbekiston xalqi avloddan-avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o'ziga xos an'analarini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi.

Markaziy Osiyo, jumladan O'zbekistonda bu muammoning echimiga intilish uzoq tarixga ega. Zero, "Sivilizastiya belgilarini asrab-avaylash qanchalik zarur bo'lsa, yer va suvni asrab-avaylash ham shunchalik muhimdir.

Yer, havo, suv va olov (Quyosh) Markaziy Osiyoda qadimdan e'zozlab kelingan, ajdodlarimizning zardushtiylikdan tortib to islomgacha bo'lgan barcha dinlari tomonidan munosib qadrlab kelingan"

Ta'lim-tarbiyaning o'z oldiga qo'ygan maqsadi va vazifalarini yaxshi bilmasdan turib Yosh avlodni tabiat bilan tanishtirishda ularni maqsadga muvofiq tarbiyalab bo'lmaydi. Buning uchun xalq manfaatlarini aks ettiruvchi tarbiyaning maqsadlari to'g'risidagi tasavvur qanday vujudga kelgan va bu tasavvurlar keyinchalik qanday rivojlanganligi hamda pedagogik tomondan qanday ta'rif va tavsif berilganini eslash maqsadga muvofiqdir.

Shuni aytish kerakki, hayotda har bir fanning yuzaga kelishi hayotiy zarurat natijasidir. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi ham ana shunday hayotiy zaruratning mahsulidir. Bu fan o'z oldiga ana shu tabiat elementlari vositasida yoshlarni tarbiyalashni maqsad qilib qo'yadi. Tarbiya esa pedagogikaning bosh vazifasidir.

Tabiat - bitmas-tuganmas xazinadir. O'simliklar dunyosi, hayvonot olami yosh qalbning to'g'ri o'sib shakllanishida, tabiatda bo'ladigan voqea-hodisalarning sir-asrorini o'rganib voyaga etishida katta manba bo'lib xizmat qiladi.

Tabiatdagi narsalar ikki qismdan: jonsiz va jonli tabiatdan iboratdir. Jonsiz tabiatga yer, quyosh, yulduzlar, suv, havo, toshlar, tuproq, jonli tabiatga esa o'simliklar, hayvonlar, mikroorganizmlar, odamlar kiradi. Jonsiz tabiat deyilishiga sabab ular oziqlanmaydi, o'smaydi, ko'paymaydi, rivojlanmaydi. Masalan, toshni olsak, unga suv ham, havo ham kerak emas.

Jonli tabiatga kiruvchilar esa oziqlanadilar, nafas oladilar, o'sadilar va ko'payadilar. Jonli tabiat vakillari o'simlik, havo, suv, yorug'lik, issiqlik va ozuqa bo'lmasa yashay olmaydi.

Jonli tabiatdagi barcha mavjudotlardan eng qudratlisi insondir. Inson fikrlaydi, mehnat qiladi, turli kashfiyotlar ixtiro qiladi. Tabiat insonni ma'naviy boyitishning bitmas-tuganmas manbaidir.

Tabiat bilan inson o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashda ekologik ta'lim-tarbiyaning roli nihoyatda katta. Ta'lim tizimining barcha bosqichlarida amalga oshiriladigan uzluksiz ekologik ta'lim va tarbiya insonning tabiatga, qolaversa, o'ziga nisbatan yangi munosabatlarning shakllanishini tag'ozo etadi. Bu o'z navbatida barkamol insonning shakllanishida poydevor bo'lib xizmat qilishi mumkin. Tabiatga nisbatan muhabbat uyg'otish ona Vatanga, uning tabiat yodgorliklari, tarixiy obidalari, xalqimizning an'analariga hurmat ruhida tarbiyalashga, yuksak ma'naviyatli shaxsning shakllanishiga olib keladi.

O'rta Osiyo xalqlari, jumladan o'zbek xalqi qadimdan ekologik madaniyat merosiga ega. Eng mo'tabar, qadimgi qo'lyozmamiz «Avesto» xalqimizning bebaho mulki sanaladi. Bu nodir kitob bundan o'ttiz asr muqaddam shu zaminda yashagan ajdodlarimizning biz avlodlarga qoldirgan ma'naviy tarixiy merosidir. «Avesto», ayni zamonda, bu qadim o'lkada buyuk davlat, yuksak ma'naviyat va madaniyat bo'lganligidan guvohlik beruvchi tarixiy hujjatdir.

«Avesto» tabiat, jamiyat va inson o'rtasidagi munosabatlarni ma'naviy, ruhiy va axloqiy mezonlar orqali uyg'unlashtiruvchi, kishini qurshab olgan olamni o'rganishga chorlaguvchi falsafadir.

«Avesto»da noyob dorivor gilyohlar haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud. Bundan tashqari, uy-joy, atrof-muhit, tabiatni muqofaza qilish, uni asrash to'g'risida tavsiyalar berilgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Nuriddinova M.I. Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi. T., O'qituvchi, 2005-174b
3. Sayfullayev G'.M. Tabiatshunoslik darslarida sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish Globe Edit 2020
3. Baxromov A. Atrofimizdagi olam (1-2-sinf uchun darslik) T. «Cho'lpon» Nashriyoti 2018y

**SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY TA'LIM  
TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH**

**G. M. Sayfullayev, BuxDu dotsenti**

**S. Namozova, 2-kurs magistr**

*Ushbu maqolada sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish haqida materiallar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Aqliy hujum, metod, uslub, tushuncha, motiv, g'oya, gerbariy*

*В данной статье представлены материалы по использованию современных методов обучения в обучении внеклассной работе.*

**Ключевые слова:** *метод, приём, кластер, гигиена, приём, понятия, гербарий, мотив.*

*This article presents materials on the use of interactive teaching methods in teaching natural sciences in grade 3.*

**Key words:** *trainer, hygiene, reception, sanitation, concepts, aesthetics, gerbariy.*

Boshlang'ich sinfdan ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'qish motivini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Chunki motiv o'quvchilarni ta'lim jarayoniga qiziqtiradi, o'quvchilarning darsga faol qatnashishga, bilimlarni egallashga undaydi. Interaktiv metodlar o'qish motivini rivojlantirishga katta yordam beradi.

Metodning maqsadi- guruhdan qisqa vaqt ichida ko'p miqdorda variantlarni olish, o'quvchilar nimalarni bilishini aniqlash. Mashg'ulot davomida muammoni hal eta oladigan g'oyalar taklif etilishi, umumiy tajriba yuzasidan fikr alamshish uchun zamin yaratilishi va o'quvchilar istagini bildirishi mumkin.

- "Fikriy hujum" odatda og'zaki shaklda bo'lib o'tadi o'qituvchi savol beradi, o'quvchilar esa munozaraga tushmasdan o'z fikrini galma-gal bayon qilishadi, bunda hamma o'z fikrini aytib bo'lishi kerak;

- g'oyalarning hammasini barchaga namoyish qilib ko'rsatib qo'yilmaguncha ularni muhokama qilmaslik nihoyatda muhim;

- jarayonning tartibi va maqsadini o'quvchiga tushuntirib qo'yish lozim;

- g'oyalar ro'yxati kimdagi uzunroq bo'lsa o'sha yaxshi hisoblanadi.

O'rta umumta'lim maktab o'quvchilari ta'lim-tarbiya sifatini yaxshilash uchun o'qituvchi va tarbiyachilar sinfdan va maktabdan tashqari ishlar imkoniyatidan keng ravishda foydalanadi.

Sinfdan tashqari ishlarga turli anjumanlar, kechalar, o'tkir zehnlilar musabaqasi, ekskursiyalar o'tkazish, kinoteatrlarga borish, zavod va fabrikalarga ekskursiya tashkil etish, devoriy gazetalar chiqarish va boshqalar kiradi.

Sinfdan tashqari ishlar ikki turga bo'linadi: ta'limiy va tarbiyaviy. Sinfdan tashqari ta'lim ishlariga maktabda ma'lum fan yuzasidan tashkil etiladigan ishlar: to'garaklar, olimpiyadalar va kechalar kiradi. Sinfdantashqaritarbiyaviy ishlarning asosiy maqsadi va vazifasi o'quvchilarning axloqiy, mehnat, estetik tarbiyasini yaxshilashdir. Sinfdan tashqari ishlar o'quvchi qobiliyatini rivojlantiradi, o'qishga bo'lgan havasini oshiradi va ular shaxsini har tomonlama rivojlantirish uchun imkoniyat tug'diradi.

Sinfdan tashqari ishlarning asosiy xususiyati shundan iboratki, ular maktab bilan hayot aloqasini mustahkamlaydi. Sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish san'atkorlar, ishchilar, olimlar, dehqonlar hayoti bilan yaqindan tanishish imkonini beradi. O'quvchilar turli sohada ishlayotgan kishilar bilan tanishib, ular kabi vatanga, xalqqa xizmat qilish istagi paydo bo'ladi.

Sinfdan tashqaritarbiyaviy ishlar ixtiyoriy xarakterga ega. Bolalar bunday ishlarga o'z xohishlari bilan ishtirok etadilar. Bir kishi bir necha tadbirlarda ham qatnashishi mumkin. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish tog'ri emas. Ular o'z xohishlari va qobiliyatlari asosida chora tadbirda ishtirok etishlari mumkin. Tabiatshunoslik bo'yicha sinfdan tashqari ishlarning ahamiyati va uning ijtimoiy foydali yo'nalishi. Darslardan tashqari maktabda bolalar bilan darsdan tashqari vaqtlarda har xil mashg'ulotlar: ekskursiyalar to'garak ishlari, ertaliklar, sinfdan tashqari o'qishlar, qiziqishlar bo'yicha klublar va boshqa ishlar o'tkaziladi. Bu

ishlar o'quvchilarning o'qituvchi rahbarligida ularning bilishga qiziqishlarini uyg'otish va shuningdek, maktab dasturini kengaytirish hamda to'ldirish maqsadida amalga oshiriladigan chetdagi ko'pchilik faoliyat shakli bo'lgan sinfdan tashqari ishlar nomini oladi. Tabiatshunoslik bo'yicha sinfdan tashqari ishlar darslarda olingan bilimlarni kengaytirish, chuqurlashtirish va aniqlashtirish, tabiatni o'rganishga qiziqish uyg'otish, o'quvchilar faolligi va mustaqilligini rivojlantirish, bu vaqtni tashkillashtirish imkoniyatini beradi. Sinfdan tashqari tabiatshunoslik ishlari tarbiyaviy ahamiyatga ham ega, chunki o'quvchilarning xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatadi. Ular moddiy dunyoga qarashni va mehnat madaniyatini shakllantiradi, bilishga qiziqishni va mustaqil kuzatish ko'nikmalarini rivojlantiradi, jamoatchilik hissini va tabiatga muhabbatni tarbiyalaydi. Tabiatshunoslik bo'yicha yo'lga qo'yilgan sinfdan tashqari ishlar o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish vositalaridan biridir.

Uzoq muddatli tajribalar qo'yish, gerbariy va kollektsiyalar uchun material yig'ish, model, maket va boshqa ko'rgazmali qurollar tayyorlash, jonli tabiat burchagi va o'quv-tajriba maydonchasidagi ishlar kabi sinfdan tashqari, ishlarning shakllari tabiatni o'rganishni hayot bilan bog'lash va o'quvchilarni mehnatga tayyorgarlik uchun ahamiyatli bo'lgan amaliy uquv va ko'nikmalar bilan qurollantirish imkoniyatini beradi. Bolalarning kuzatishlari va o'qituvchining tushuntirishlari bilan olib boriladigan qishloq xo'jaligi bo'yicha amaliy ishlari tabiatni boshqarish, uni inson manfaati uchun o'zgartirish to'g'risidagi ta'limot asoslarini tushunib olishlariga yordam beradi. Bolalarning ijtimoiy-foydali faoliyatlari ularni mehnatga o'rgatadi va vatanparvarlik tarbiyasiga ko'maklashadi. Sinfdan tashqari mashg'ulotlarning barcha turlari bir-biriga bog'liq bo'lishi, biri ikkinchisini to'ldirishi kerak. O'simlik va hayvonlar bilan ishlashga darslarda vujudga kelgan qiziqish sinfdan tashqari mashg'ulotlarda rivojlanishi mumkin, ayniqsa tabiatshunoslik bilan qiziqqan o'quvchilar esa yosh tabiatshunoslar to'garagiga birlashtirilishi mumkin. O'quvchilarda tabiiy ob'ektlarni kollektsiyalashtirishga moyillikni, hayvonlarga muhabbatni payqagan o'qituvchi ularning qiziqishlariga qarab mashg'ulotlar topishi, tabiat to'g'risidagi fanni chuqurroq o'rganish istagini rivojlantirish zarur.

Tabiatshunoslik bo'yicha sinfdan tashqari ishlarga tabiatni o'rganish va muhofaza qilish, o'simliklarni o'stirish, hayvonlarni parvarish qilish bilan bog'liq bo'lgan xilma-xil mashg'ulotlar kiradi. Bumashg'ulotlar darslarni takrorlamasligi va faqat darslarda olingan bilimlarga asoslanishi kerak. Bolalar e'tiborini tabiat, shuningdek maktab jonli burchagi va o'quv-tajriba maydonchasidagi kuzatishlarga qaratmoq; ko'cha va maktabni ko'kalamzorlashtirish bo'yicha, qushlarni muhofaza qilish va qishloq xo'jaligi zararkunandalariga qarshi kurash bo'yicha ijtimoiy-foydali mehnatni tashkil qilmoq lozim. Tabiatdagi amaliy ishlar kuzatishlar va tegishli kitoblar o'qish bilan birga olib borilishi kerak.

Sinfdan tashqari ishning jadal borishi uchun uni tashkil etish shakllarini puxta o'ylab chiqish zarur. Sinfdan tashqari ishlarni uch guruhga bo'lish mumkin.

Birinchi guruhga ko'plab o'quvchilarni qamrab oluvchi ommaviy ishlar, tadbirlar, ikkinchi guruhga - guruh doirasida olib boriladigan to'garak ishlari va uchinchi guruhga tabiatni o'rganishga qiziqqan yakka tartibdagi o'quvchilar bilan olib boriladigan ishlar kiradi.

Ommaviy mashg'ulotlar kinofilmlarni namoyish qilishni, tabiatga ekskursiya va poxodlar o'tkazishni, ertaliklar, o'quvchilar ishlarining ko'rgazmasini tashkil qilishni, shuningdek kompaniyalar (hosil kuni, bog' haftaligini, daraxtlar o'tkazish haftaligi, qushlar kuni va boshqalar) o'tkazishni nazarda tutadi. Guruh mashg'ulotlarga yosh geografiyachilar, yosh tabiatshunoslar, klub ishlari kiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Nuriddinova M.I. Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi. T., O'qituvchi, 2005-174b
2. Sayfullayev G.M. Tabiatshunoslik darslarida sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish Globe Edit 2020
3. Baxromov A. Atrofimizdagi olam (1-2-sinf uchun darslik) T. «Cho'lpon» Nashriyoti 2018.

## **BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA O'QUVCHILAR IMLOVIY SAVODXONLIGINI TAKOMILLASHTIRISH**

**M. A. Ibragimova**

Navoiy davlat pedagogika instituti magistranti

**M. S. Ernazarova**

Navoiy davlat pedagogika instituti professori, f. f. d. (DSc)

*Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilar imloviy savodxonligini takomillashtirish haqida to'xtalib o'tildi.*

**Kalit so'zlar:** darslik, bilim, DTS, ko'rgazmali qurollar, baho, imlo, savodxonlik.

*Совершенствование орфографической грамотности учащихся начальных классов на родном языке и на уроках читательской грамотности.*

*Ключевые слова: учебник, знания, ДТС, наглядные пособия, оценка, орфография, грамотность.*

*Improving students' spelling literacy in elementary school native language and reading literacy classes.*

**Keywords:** *textbook, knowledge, DTS, visual aids, assessment, spelling, literacy.*

Savodxonlik darslari boshlang'ich sinflarda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ayniqsa, ushbu dars jarayonlarini tashkil etishda imloning o'rni bo'lakcha. Imlo ustida ishlash va savodxonlik darslarini to'g'ri tashkil etish har bir pedagog uchun naqadar muhim ekanligini bugungi kun ustozlari bilishadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ona tilidan bilim va malakalarni hosil qilish ishlari, asosan, yozuv darslarida amalga oshiriladi. Yozuv darslarining mazmuni boshlang'ich sinf ona tili dasturini va maktab oldiga qo'yilgan talablarni asosida belgilanadi.

Yozuv darslarini tashkil etishda pedagogika va metodika tavsiyalari hisobga olinadi. Yozuv darsi va unga qo'yilgan talablarni belgilashda metodika fani sohasidagi yangiliklar, boshlang'ich sinflarda ishlayotgan eng tajribali o'qituvchilarning tajribalari asos qilib olinadi. Shunga alohida e'tibor berish kerakki har bir darsda o'quvchilarga bilim berish jarayonida tarbiyaviy tomonlarga ham alohida ahamiyat berib borish, uzaro hurmat, mas'uliyatni his etish, tengdoshlari va oila a'zolariga hurmat, g'amxo'rlik, tabiatga mehr-muhabbat singari xislatlarni singdirib borish kerak.

O'quv tarbiya ishlarida ko'zlangan maqsadga yetishish uchun o'quvchilarda quyidagi qobiliyatlarni shakllantirib borish zarur:

- 1) Gapdagi so'zlarni o'xshash tomonlariga ko'ra taqqoslab olish.
- 2) So'zlar nimani ifoda etishiga ko'ra turkumlarga ajratish.
- 3) O'qituvchi tavsiya qilgan yoki o'zi tuzgan reja asosida fikrlarni bayon ega olish.
- 4) Gaplarda grammatik tushunchalarni, orfografik qoidalarni ifodalay olish.
- 5) Darslikdagi turli mashqlar va topshiriqlarni birgalikda muhokama qilinganidan keyin uni bajara olish.

Ona tili darslari savodli yozuv darsi hisoblanadi. Shuning uchun ham yozma ishlarga alohida e'tibor beriladi. Darsning uchdan ikki qismida o'quvchilar grammatik, orfografik va nutqiy yozma ishlarni bajaradilar. Shuning uchun grammatik, orfografik bilimlarni o'zlashtirish uchun qund bilan ishlashga to'g'ri keladi. Kuzatshlardan ma'lumki, darsda o'quvchilarning osoyishta va mustaqil ishlarini ta'minlagan o'qituvchi ularning savodli bo'lishga erisha oladi.

Bunday darslarda ko'rgazmali qurollar, didaktik materiallar, texnika vositalaridan foydalanish o'z o'rnida bo'ladi. O'quvchilarning dars jarayonida yo'l qo'ygan xatolarini sekin yotig'i bilan tushuntirish lozim. O'quvchi shundagina yozuvda yo'l qo'ygan xatosini tushunib oladi va tuzatishga harakat qiladi, bilimlarni o'zlashtirishga qiziqishlari ortib boradi. Ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilarini bajargan ishlarini o'z vaqtida baholab borish ham katta ahamiyatga ega.

Boshlang'ich sinf ona-tili darsliklaridagi manbalar oz bo'lsada izlanish metodi bilan ishlashni taqozo etadi. O'quvchilar o'qituvchi rahbarligida mashq shartini o'qib unda talab etgan topshiriqlarni aniqlaydilar savollarga javob qidiradilar undagi fikrlarni umumlashtiradilar, mashqlar bajaradilar. Umumlashtirish va xulosalar asosida qoidalar ishlab chiqadilar.

Umuman ona-tili darslarini to'g'ri va qiziqarli tashkil etilishi o'quvchilarni darsga bo'lgan qiziqishlarini ortiradi.

Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida xato turlari va ularning kelib chiqish sabablari. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozuvlarida turli xatolar uchraydi. Bu uchraydigan xatolarni quyidagi turlarga ajratish mumkin.

1. Grafik xatolar. Grafik xatolarga harf shakllarini o'xshata olmaslik, harflarning o'rnini almashtirib yozish, talaffuzi o'xshash undoshlarni aniq ajratmaslik natijasida yozuvda bir harf o'rniga ikkinchisini ishlatish biror harfni tushirib qoldirish kabi xatolar uchraydi. Shularga ko'ra grafik xatolar quyidagi ko'rinishlarda bo'ladi:

1. Alisher odobli bola.
2. Kuz fasli boshlandi
3. Qobil ikki tup ko'chat ekdi
4. Olma, o'rmon, to'qmoq.

1. Fonetik xatolar. Bunday xatolar so'zlarni tog'ri talaffuz qila bilmaslik, sheva va dialektlar ta'sirida bo'ladi. Fonetik xatolar asosan quyidagi ko'rinishlarda bo'ladi.

Grafik xatolar, harflar shakllarini buzib yozish, soʻzda harflar birikmasini buzib yozish, harflarni bir-biriga notoʻgʻri ulab yozish, fonetik xatolar, dissimilatsiya hodisasi natijasida, dialekt va sheva xatolari, assimilatsiya hodisasi natijasida, tovushlar almashuvi natijasida. Masalan:

1. Borgan edi – boruvdi. (sheva xatolari)
2. Tomni – tommi. Piyolaga – piylaga. (Assimilatsiya hodisasi)
3. Goʻsht – gosh. Gʻisht – gʻish
5. Devor – devol. (tovushlar almashuvi)

Xatolar ustida ishlashda orfografik tahlilni ahamiyati katta bir necha gapni orfografik jihatdan toʻla tahlil qilish kerak.

Bu bilan oʻquvchilar soʻz maʼnosi va uning imlosini puxta oʻzlashtirib oladilar. Oʻquvchilarning toʻgʻri, xatosiz yozishga oʻrgatish va yoʻl qoʻyilgan xatolarni bartaraf etish uchun quyidagilarga eʼtibor berish kerak:

1. Eng avvalo oʻquvchilarni toʻgʻri talaffuz qilishga oʻrgatish. Yaʼni soʻz aytilganda tovushlarni aralashtirmay, tovush tushirib yoki orttirib talaffuz etmaslik. Masalan: kitob oʻrniga kitob, ruchka oʻrniga yuchka, maktab oʻrniga matab deyishga yoʻl qoʻymaslik.

2. Har bir darsda koʻpchilik uchun bir xil uchraydigan tipik xatolar doskada koʻrsatilib, tuzatiladi. Morfologik xatolar, soʻzning maʼnosini tushunmaslik, grammatik qoidalarni bilmaslik, orfografik qoidalarni unutish, parishon xotirlik, mexanik xatolar.

3. Ayrim oʻquvchilar uchun tegishli xatolar oʻsha oʻquvchi bilan birgalikda tuzatiladi.

4. Agar oʻquvchilar biror qoidani bilmasligi natijasida xatoga yoʻl qoʻygan anashu qoidani takrorlash bilan tushuntirish kerak boʻladi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki oʻquvchilar yozuvida xatolar boʻlmasligi uchun lugʻat ishiga taʼlimiy harakterdagi yozma ishlarga koʻproq oʻrin berish zarur. Imlosi qoidalashtirilmagan va qiyin soʻzlar jadvali tuzilib, sinf xonasiga oʻquvchilarga koʻrinarli qilib osib qoʻyilishi va uni vaqti-vaqti bilan almashtirib turishsa yaxshi natija beradi.

Savodxonlik darslarida imloning ahamiyati kattadir. Imloviy xatolar ustida ishlash esa ustozlarning dars jarayonida oldiga qoʻygan ilmiy maqsadlardan biri hisoblanadi. Shu sababli ham ikkisini bogʻlab savodxonlik darslarida imlo ustida ishlanishi maqsadga muvofiq boʻladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. ["Voyaga yetganlarning savodxonlik darajasi, 2015 yil yoki soʻnggi kuzatuvlar"](#). Maʼlumotlardagi bizning dunyomiz. Olingan 15 fevral 2020.
2. ["Savodli"](#). Merriam-Webster.com. Merriam-Webster. 2014 yil 19-avgust.
3. Moats, Louisa (2000). [Bosib chiqarish uchun nutq: oʻqituvchilar uchun zarur boʻlgan til](#). Baltimor, MD: Pol H. Brooks Pub. ISBN 978-1-55766-387-0.
4. Jek Gudi (1986). [Yozish mantigʻi va jamiyatni tashkil etish](#). Umumiy nuqtai. Kembrij universiteti matbuoti. ISBN 978-0-521-33962-9.
5. Xit, Shirli Bris (1983). Soʻzlar bilan ishlash usullari: jamoat va sinflarda til, hayot va ish. Stenford: Kembrij UP. ISBN 9780511841057.
6. Brayan V. koʻchasi (1984). ["Umumiy maʼlumot"](#). [Nazariya va amaliyotda savodxonlik](#). Kembrij universiteti matbuoti. ISBN 978-0-521-28961-0.

## **АРТ-ТЕРАПИЯ КАК СРЕДСТВО ГАРМОНИЗАЦИИ И РАЗВИТИЯ ПСИХИКИ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ**

**Салаева Муборак Сабуровна**

кандидат психологических наук, доцент кафедры «Педагогика и психологии начального образования», ТГПУ имени Низами

**Павлова Мария Владимировна**

студентка 1-курса Начального образования ТГПУ имени Низами

*В данной статье рассматривается проблема по теме «Арт-терапия как средство гармонизации и развития психики младших школьников».*

**Ключевые слова:** арт-терапия, научно-педагогическая деятельность, эмоциональное состояние, психологическое здоровье личности, группа, коллектив, комфорт в учебном заведении, средство художественной деятельности.

*Ushbu maqolada "Art terapiya kichik yoshdagi oʻquvchilar psixikasini uygʻunlashtirish va rivojlantirish vositasi sifatida" mavzusidagi muammo koʻrib chiqiladi.*

*Kalit so'zlar: artterapiya, ilmiy-pedagogik faoliyat, hissiy holat, shaxsning psixologik salomatligi, guruh, jamoa, ta'lim muassasasidagi qulaylik, badiiy faoliyat vositalari.*

*This article deals with the problem on the topic "Art therapy as a means of harmonization and development of the psyche of younger students."*

*Key words: art therapy, scientific and pedagogical activity, emotional state, psychological health of the individual, group, team, comfort in an educational institution, means of artistic activity.*

Среди глобальных проблем человечества, наиболее остро заявляющих о себе в XXI веке, особое место занимает психическое и физическое здоровье детей. Многочисленные подходы к решению этой проблемы чаще всего основываются на изучении внутрисемейной атмосферы, отношений ребёнка с близкими взрослыми, социального окружения, а также восприимчивости детей к заболеваниям и другим внешним факторам.

Сегодня более внимательно и уважительно относиться к эмоциональной сфере, - фактор многочисленных эмоциональных нарушений в поведении детей, проявляющихся в виде различных симптомов и не составляющих клинических форм заболеваний, а относящихся к непатологическим формам пограничного характера. Эти нарушения проявляются в виде неустойчивого настроения как эмоционального фона ребёнка (возбудимое или депрессивное настроение), в виде особенностей характера (акцентуации по типу раздражительного, гневливого или чрезвычайно угодливого поведения), в виде некоторых социально неприемлемых состояний (агрессия, страхи, фобии др.).

С точки зрения позитивного подхода, психическое здоровье есть сохранение человеком способности к развитию и обогащению личности, её индивидуализации. Поэтому обоснованным является растущий интерес в нашей стране к терапии творчеством, или арт-терапии, что объясняется ориентацией этого вида терапии на присущий каждому человеку внутренний потенциал здоровья и силы, её акцент на естественное проявление чувств, настроений, эмоций. Арт-терапия используется в социальной, педагогической, психологической работе как средство гармонизации и развития психики человека через его занятия художественным творчеством и относится к психологическому воздействию искусством.

Арт-терапия (лат. *ars* — искусство, греч. *therapeia* — лечение) представляет собой методику лечения и развития при помощи художественного творчества. Арт-терапия в современном времени считается одним из наиболее эффективных методов, используемых в работе психологами, психотерапевтами и даже педагогами.

Словосочетание «арт-терапия» в научно-педагогической деятельности понимается как забота об эмоциональном состоянии и психологическом здоровье личности, группы, коллектива, а так их комфорте в учебном заведении, средствами художественной деятельности.

Процесс восприятия искусства детьми представляет собой сложную психическую деятельность, включающую в себе познавательные и эмоциональные моменты. Арт-терапия способствует сенсорному развитию детей: способности различать цвет, форму, звуки. Принципы арт-терапии опираются на традиционные общепедагогические принципы, принципы специальной подготовки, принципы художественно-эстетического развития: принцип гуманистической направленности педагогического процесса, социально-личностного развития личности, принцип дифференцированного и индивидуального подхода, учета возрастных особенностей ребенка, принцип образовательной рефлексии, личностного целеполагания, принцип выбора индивидуального маршрута, интегративной связи предметов, продуктивного обучения, креативности.

Особенно ценно положительное влияние арт-терапии на детей с проблемами в развитии. Также искусство, используя творческие способности ребенка, помогает в символической форме воссоздать травмирующую ситуацию и позволяет найти пути ее разрешения посредством преобразования данной ситуации. Это является первым приемом арт-терапии. Второй прием тесно связан с возникновением эстетической реакции, которая позволяет изменить эмоциональное состояние с негативного на позитивное. На сегодняшний день описывается множество направлений арт-терапии, среди которых:

- изотерапия — терапия изобразительным творчеством, в первую очередь рисованием, а также работа с репродукциями, различным художественным материалом — глиной, пластилином, соломой (декоративно-прикладное искусство) и т.д.;
- музыкальная терапия — это контролируемое использование музыки в образовании и воспитании детей;

- драматерапия — воздействие через театр, образы, а также использование готовых материалов (фильмы, спектакли);
- сказкотерапия — метод, использующий сказочную форму для интеграции личности, развития творческих способностей, расширения сознания, совершенствования взаимодействия с окружающим миром;
- кинезитерапия — это все, что связано с движением: ритмопластика, танцевально-двигательная терапия;
- фототерапия — применение фотографии (слайдов) для развития и гармонизации личности, а также работа с готовыми фотоматериалами или создание оригинальных авторских снимков;
- песочная терапия — форма активного воображения, предполагающая игру с песком и миниатюрными фигурками, что, в свою очередь, позволяет активизировать фантазию и выразить возникающие при этом образы средствами художественной экспрессии.

Метод арт-терапии простой, естественный и действенный. Задача педагога создать безопасное и комфортное пространство для ребенка. Именно такая среда позволяет снять мощные механизмы защиты, доверится самому себе и миру, раскрыться и поделиться беспокойством, которое таится внутри. Техника арт-терапии – это техника активного воображения, открывающая неограниченные возможности для самовыражения и самореализации в продуктах творчества. Это оказание помощи, основанная на искусстве.

Занятия с младшими школьниками не должны ограничиваться традиционными способами. Ребенок более охотно включается в процесс, отличный от того, к чему он привык.

Изобразительные способы мотивируют деятельность, направляют и удерживают внимание. Имеет значение получение ребенком необычного опыта. Раз опыт необычен, то при его использовании снижается контроль сознания, ослабевают механизмы защиты. В таком изображении присутствует больше свободы самовыражения, а значит, неосознанной информации. Младшие школьники с удовольствием включаются в создание изображений необычным способом, например, с помощью сухих листьев или ниток. Немного фантазии, и на песке, приклеенном к бумаге, расцветут цветы, в воздух взлетит фейерверк из мелких бумажек, кляксы превратятся в бабочек, пятна краски — в невиданных животных. Ребята почувствуют свой успех, ведь они смогут победить злых чудовищ, сжечь свои страхи, помирить игрушки.

Коррекционные возможности арт-терапии:

- ✓ увеличение внимания к своим чувствам и переживаниям, возможность выйти из зоны комфорта, что повышает самооценку;
- ✓ возникновение чувства внутреннего контроля, умиротворения и порядка.
- ✓ процесс творчества дает возможность свободно выразить свои чувства, эмоции потребности и фантазии в виде рисунка, коллажа, звуковой композиции, сказочной истории, танца, являющегося безопасным способом разрядки напряжения;
- ✓ освоения новых форм опыта. Самое главное, что арт-терапия – это процесс, от которого ребёнок получает удовольствие.

Арт-терапия помогает исследовать состояние физического и ментального здоровья, так как она влияет на настроение и повседневную жизнь. Конечный результат арт-терапии – позитивное психофизическое изменение состояния ребенка – лекарство для души ребенка. Ребенок не артист, не «материал» для постановки. Театр лишь сырье для решения внутренних проблем индивидуума. Общение и совместная деятельность – это та основа, из которой фактически состоит вся жизнь ребенка. Общение – это и основное условие и главный источник его развития, познание самого себя посредством других людей. Каждый ребенок несет в себе свой опыт общения.

Таким образом, арт-терапия в образовательном учреждении – это не просто метод коррекции и развития обучающегося посредством художественного творчества, а это процесс, от которого он получает удовольствие, а также является одним из эффективных способов достижения лучшей социальной адаптации.

Исходя из выше прочитанной информации, можно сделать вывод и заключение, что арт-терапия необходима в современном мире образования, так как она является самым безопасным и нежным методом. Ее методы с каждым годом набирают актуальность, что приводит к улучшению и развитию методов подхода к ребенку. Это так же незаменимая помощь для педагогов и психологов, которые каждый раз сталкиваются с различными ситуациями в работе.

#### **Литературы:**

1. Алексеева М.Ю. Системное использование педагогом элементов арт-терапии //Среднее профессиональное образование. 2007. № 6. С. 64-66.

2. Богданович В. Новейшая арт-терапия. О чем молчат искусствоведы / В.Богданович. - Пенза: Золотое сечение, 2008. - 224 с.

3. Вальдес Одриосола М.С. Интуиция, творчество и арттерапия / М.С.Вальдес Одриосола. - М.: ИОИ, 2012. - 96 с.

4. Павлова М.В., Салаева М.С. Формирование позитивных эмоциональных состояний студентов средствами арттерапии / “Ta’lim tizimida innovatsiya, integratsiya va yangi texnologiyalar” mavzudagi masovafiy I Respublika ilmiy anjumani. - NamDU. 2022. № 1. – С.3-15.

5. Салаева М.С., Павлова М.В. Роль арттерапии в образовательном процессе // “Образование и наука в XXI веке” международный научно-образовательный электронный журнал. Выпуск № 22 (том 3) (январь, 2022)- Б.1099-1103.

## **BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA O'QITISHDA ZAMONAVIY DARS SHAKLLARI**

**G. E. Saidova, BuxDUPI katta o'qituvchisi**

*Ta'lim samaradorligi ma'lumot mazmuniga didaktik ishlov berish, ta'lim prinsiplariga qat'iy amal qilishga bog'liq bo'lganidek ta'lim metodlarini to'g'ri tanlashga ham bog'liqdir. O'qitishda ta'lim metodlarini mutaxassislar turlicha talib etishadi.*

*Эффективность обучения зависит не только от дидактической обработки информационного содержания, но и от правильного выбора методов обучения, а также от строгого соблюдения принципов воспитания. Специалисты различаются по своим методам обучения. В одних странах это трактуется как путь перехода от незнания к знанию, а в других – как способ соединения деятельности учителя и ученика.*

*The effectiveness of education depends not only on the didactic processing of information content, but also on the correct choice of teaching methods, as well as on strict adherence to the principles of education. Experts differ in their teaching methods. In some countries it is interpreted as a way of going from ignorance to knowledge, and in others as a way of connecting teacher and student activities.*

Ta'lim jarayonida zamonaviy ta'lim usullaridan foydalanish orqali ta'limning mazmuni va sifati oshadi, dars qiziqarli faol tarzda tashkil etiladi. Shu bilan birga o'quvchilarning darsdagi ishtiroki faollashdi, dunyoqarashi kengayadi, ilmiy-nazariy, amaliy-uslubiy jihatdan tajribalar orttiradilar. Ularning yozma va og'zaki nutqlari rivojlanadi hamda shakllanadi.

O'quvchilar o'z ustida mustaqil, ijodiy ishlaydilar, erkin fikr yuritadilar. Mavzuning mazmunini yoritish uchun adabiyotlarni mustaqil ravishda o'rganadilar. Kutubxonada izlanadilar, mavzu bo'yicha yangiliklarni topib o'qish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Kutubxonada ilmiy-nazariy adabiyotlar bilan ishlashga o'rganadilar. Seminar darsida o'quvchilar matndagi g'oyalarni gapirib berish orqali ularning og'zaki va yozma nutqlari uzviy holda rivojlanadi.

Hozirgi kunda multimedia, kompakt disklar orqali ta'lim jarayonida texnik vositalardan foydalanib dars o'tilmoqda. Jumladan, multimedia-ma'lum bir soatga mo'ljallangan, ovozli, dasturli, rejali, DTS ga mos keladigan dars shaklidir. Undan foydalanish uchun mavzuga oid bo'lgan ma'lum bir soatga mo'ljallangan holda mutaxassislar tomonidan multimedia yaratiladi. Matndagi mavzu ekrandagi multimedia yaratiladi. Matndagi mavzu ekrandagi multimedaning o'zi mazmunli, sifatli qilib yaratib beradi.

O'qituvchi dars jarayonida ortiqcha kuch, bilim, mehnat sarflamaydi. O'quvchilar faolligi oshadi, mustaqil, ijodiy ishlaydilar, erkin fikr yuritadilar. Darsda zamonaviy usul bilan ishlashga o'rganadilar. Kompyuter va axborot texnologiyalari bo'yicha savodxonlikka ega bo'ladilar, darsni texnik vositalar yordamida tashkil etishni o'rganadilar. O'quvchilarning dunyoqarashlari o'sadi, faolligi yanada oshadi, qiziqishlari oshadi.

O'qituvchi bu usuldan foydalanishda o'quvchilarga o'ylantiruvchi topshiriq va savollar bilan murojaat qiladi. Albatta, topshiriq va savollar mavzuga oid bo'lishi zarur. Masalan: odobnoma darsida o'qituvchi o'quvchilarga shunday topishmoqli savol bilan murojaat qilishi mumkin. Bir odam har kuni 3 ta non olar ekan. Bittasini ota-onasiga, yana birini farzandlariga berar, qolgan birini o'zi er ekan. Nima uchun u shunday qiladi ?

Albatta, yuqori sinf o'quvchilari bu topishmoqli savolni darhol topib oladilar, lekin kichik yoshdagi o'quvchilar uchun bu topishmoqli savolni echishda evrika usulidan foydalanish mumkin. Ular uchun bu savol o'ylantiruvchi bo'lib, aqliy imkoniyatlarini ishga soladilar. Ularni o'ylashga majbur qiladi.

Shuningdek, matematika darsida o'qituvchi o'quvchilarga shunday usullardan birini noan'anaviy tarzda qo'llashi mumkin.

Misol : o'qituvchi o'quvchilarga quyidagi topshiriqni beradi:

— O'ngacha bo'lgan xohlagan bir sonni o'ylang va uni bizga aytmang! O'ylagan sonni ikkiga ko'paytiring, javbini ham aytmang! Unga ikkini qo'shing, shundan so'ng chiqqan sonni ikkiga bo'ling ! Hosil bo'lgan sonni dastlab o'ylagan soningizdan ayiring! Barchangizda bir raqami qoladi.

Darhaqiqat, bu o'ylantiruvchi, qiziqarli, noan'anaviy usullardan biridir.

Bu usul orqali o'quvchilarning aqliy tafakkuri rivojlanadi, dunyoqarash va tafakkurlari orqali shakllanadi. Dars qiziqarli noan'anaviy tarzda o'tadi. O'quvchilarning darsdagi faolligi oshadi. O'z fikr-mulohazalarini erkin yuritishga sharoit yaratiladi. Har bir o'quvchilarning o'z pozitsiyasi, yo'li shakllanadi.

O'qituvchi mavzuni o'tishda o'quvchilarning kasbiy mahoratlarini oshirish maqsadida kasbga bog'lab dars o'tadi. Bu usulni qo'llashdan maqsad o'quvchilarni biror-bir kasb-hunarga qiziqtiradilar. Masalan : boshlang'ich sinflardagi odobnoma, o'qish darslari orqali o'quvchilarni kasbga qiziqtirish maqsadida kasbga bog'lab dars o'tish usulidan foydalaniladi. Bunda mavzuni yoritishda kasb-hunarga oid hayotiy misollar dars jarayonida o'quvchilarga tushuntiriladi. Tikuvchilik, pazandalik, kosibchilik, dehqonchilik, zardo'zlik, naqqoshlik, ustachilik, shofyorlik, sport ustalari haqida ma'lumotlar, bahs-munozara, suhbat, kasb-hunarni egallagan shaxslar bilan uchrashuvlar o'tkaziladi. Buni dars jarayonida qilsa ham bo'ladi. Kasb-hunar haqida o'quvchilarga ma'lumot berib turib, ularni ya'ni hunarli kishilarni darsga taklif qilish orqali ma'lum bir vaqt ichida ular o'zlarining faoliyatini kelajak uchun, jamiyat uchun foydasi haqida savol-javob qilinadi. Bu bilan dars noan'anaviy tashkil etiladi.

O'quvchilar dars jarayonida nafaqat bilim oladilar balki kasb-hunarga oid bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni egallaydilar. O'quvchilarning kasbiy qiziqishlari ortadi. Kelajakda ma'lum bir kasbni egallay olish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Dars hayotiy, noan'anaviy o'tadi. O'quvchilar mustaqil, erkin, ijodiy fikrlashga ega bo'ladilar. Dars hayotiy, noan'anaviy o'tadi. O'quvchilar mustaqil, erkin, ijodiy fikrlashga ega bo'ladilar. Shuningdek, dars jarayonida kasb-hunarga qiziqishlari ortadi.

Yuqorida keltirilgan noan'anaviy usullar o'quvchilarni birinchidan, darslarda faol qatnashishga undaydi. ularni darsga qiziqitira olish imkoniyatiga ega bo'ladi Ikkinchidan, noan'anaviy usullar orqali dars o'tishga o'quvchilar maustaqil, ijodiy ishlashga o'rganadilar, erkin fikr yuritadilar. Uchinchidan esa, dars qiziqarli tashkil etiladi, bolalar darsda zerikmaydilar, ham ijodiy ishlaydilar, ham turli manbaalar ustida ishlashga o'rganadilar va ham ularda ilmiy-nazariy, uslubiy-amaliy bilim, tajribalar rivojlanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. N.U. Bikbayeva va boshqalar "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi" T.o'qituvchi 1996 yil 16-18 betlar
2. Г.Э. Саидова. Использование современных педагогических технологий на уроке математики. Ученый XXI века • 2018 • № 12
3. M.Axmedov , N.Abduraxmonova, M.Jumayev Matematika 1-sinf darsligi T. 2019 y
4. N.Abduraxmonova, L.O'rinboyeva Matematika 2-sinf darsligi T. 2018 y
5. S.Burxonov, O'.Xudoyorov, Q.Norqulova, N.Ruzikulova, L.Goibova Matematika 3-sinf darsligi T.2019 y
6. G.E.Saidova [Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarni mantiqiy masalalar yechishni o'rgatish](#). Scientific progress 2 (6), 1021-1024
7. Гавхар Эргашовна Саидова. [Развитие логического мышления учащихся на уроках математики в начальной школе](#). international scientific review of the problems of philisophy, psychology and pedagogy 2019.

#### **NUTQIY ODOB, NUTQ JARAYONIDA TO'G'RI VA MANFAATLI SO'Z QO'LLASH SAN'ATI**

##### **F. Boboxonova, BuxDU o'qituvchisi**

*Nutqiy tarbiya ma'naviy yetuk inson tarbiyasining asosi hisoblanadi. Bu tarbiyada kitob, oila, maktab va jamiyatning o'rni juda katta. Bularning nutqiy tarbiyada tutgan o'rnini aniqlash bugungi kunda kishilik jamiyati oldida turgan muammolardan biridir.*

*Речевое воспитание является основой воспитания духовно зрелых людей. Книги, семья, школа и общество играют важную роль в этом воспитании. Определение их места в речевом образовании является одной из задач, стоящих сегодня перед человеческим обществом.*

*Speech education is the basis of education of spiritually mature people. Books, family, school and society play an important role in this upbringing. Determining their place in speech education is one of the challenges facing human society today.*

**Kalit so'zlar:** *til, nutq, madaniyat, nutqiy ko'nikma, tarbiya, varvarizm, svilizatsiya.*

BMT ning maorif, fan va madaniyat masalalari bilan shug'ullanuvchi tashkiloti – YUNESKO ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda dunyoda yetti mingga yaqin til bor, ularning faqat 200 ga yaqini davlat tili maqomiga ega. Turkiy tillarga xos go'zal xususiyatlarni o'zida mujassam qilgan ona tilimizning ana shu tillar orasida o'rin egallaganligi ko'nglimizga cheksiz quvonch bag'ishlaydi. Respublikamizning o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi asrlar davomida sayqallangan, o'z nazokatu fasohatini davrlar osha saqlab kelgan tilimizning mamlakatimiz hududida Davlat tili sifatida amalda bo'lishi, yanada rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratib berdi.

O'zbek tilini yanada rivojlantirish, uning taraqqiy etishi uchun hamma imkoniyatlarni yaratib berish dolzarflik kasb etgan bugungi kunda ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida o'zbek tilini o'qitish sifatini yaxshilash, o'quvchi va talabalarni o'zbek tilida to'g'ri va ravon so'zlashga o'rgatish, ularning nutqi madaniyatini takomillashtirish zarurligini davrning o'zi ko'rsatib turibdi. Shuning uchun nutq madaniyatini rivojlantirish maqsadida o'zbek tilini chuqur o'rganish, shu tilda so'zlash mahoratini oshirishga qaratilgan markazlarning tashkil etilishi, oliy ta'lim muassasalarida “Nutq madaniyati”, “O'zbek tili”, o'quv maqsadi “Davlat tilida ish yuritish” fanlarining kiritilishida tilimiz rolini yanada oshirish ko'zda tutilgan.

O'tgan deyarli bir asr davomida rus tilining kuchli ta'siri oqibatida o'zbek tili lug'aviy tarkibi tashqi ko'rinishdan ilm-fan, ishlab chiqarish, texnikaga oid turli xil so'zlar bilan ancha boyigan bo'lsa-da, davlatning rasmiy tili sifatidagi maqomi unutilishi, o'z vazifaviy imkoniyatlarining chegaralab qo'yilishi hisobiga ma'lum darajada qashshoqlanib, ko'pgina so'zlar iste'moldan chiqib qoldi. Ularning o'rnini boshqa tillarga oid so'zlar egalladi. “Hatto yuqori sinf o'quvchilari va oliy o'quv yurti talabalaridan tortib, ilmiy darajali va unvonli kishilarning nutqlari ham ta'sirsiz, g'aliz bo'lib qoldi. Ularning nutqida izchillik yetishmaydi, xorijiy so'zlar noo'rin ishlatiladi”. Tildagi mavjud birliklarining nutqiy vaziyat uchun eng kerakli, zarurini tanlay bilish, nutqning ifodali, ta'sirchan obrazli, qisqa, aniq, lo'nda, tushunarli bo'lishi, unda fikr takrori, ortiqchalikning bo'lmasligi, tinglovchi yoki o'quvchida ifodalanayotgan fikrga nisbatan ma'lum bir his-tuyg'u ularning uyg'onishi – bularning hammasi yaxlit holda nutq madaniyati tushunchasida mujassamlashgan. Demak, og'zaki va yozma nutq jarayonida tilda mavjud bo'lgan birliklarning to'g'ri kelganini emas, balki nutqiy vaziyat uchun mos bo'lgan ko'rinishini tanlab olib, qo'llash usullarini hamda tanlangan so'z va jumalarning adabiy til me'yorlariga qay darajada to'g'ri kelishi, shuningdek, ularning nutqda qanday vazifani bajarayotganligini nazorat va tahlil etish “nutq madaniyati” deb yuritiluvchi sohaning o'rganish ob'ekti va vazifasi hisoblanadi.

Nutq madaniyati degan tushuncha bugun yoki kecha paydo bo'lgan emas. Uning paydo bo'lishi va shakllanishi olis davrlarga borib taqaladi. U til taraqqiyotiga bog'liq holat muntazam ravishda davrga moslashadi, o'zgarib turadi. U doimiy rivojlanishda bo'lgan mukammallashtirib boruvchi jarayon sifatida xalq ruhini o'zida aks ettiradi va milliy-ma'naviy xususiyatlarni saqlab boradi. Insonning ma'naviy qiyofasini o'zida aks ettiruvchi bu jarayonga azal-azaldan har bir mamlakatda alohida jiddiy e'tibor berilganligi jahon xalqlari tarixidan ma'lum.

Qadimgi davrlardayoq tilga insonning xulqi, madaniyatini ko'rsatuvchi belgi sifatida qaraganlar. Inson faoliyatining hamma qirralari til bilan bevosita bog'liq bo'lganligi uchun til birgina aloqa qilish vositasigina emas, balki odob, axloq ziynati ham hisoblangan. Ajdodlarimizning nutq odobi to'g'risidagi qarashlari, falsafiy mushohadalari asrdan asrga o'tib puxtalanib, silliqlasha borgan, tildan foydalanib, o'z fikrlarini jozibador, go'zal tarzda ifodalash maxsus san'at darajasiga ko'tarilgan. Tildan foydalanishda qo'pol, beparda so'zlarni ishlatmaslik, manmanlik, g'iybat qilmaslik hamda yolg'on so'zlamaslik kabi bir qancha talablar qo'yilgan. Shuning uchun Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'ati turk” asarida “Erdam boshi til”, ya'ni odobning boshi tildir, deyilishi ham bejiz emas.

Nutq odobiga doir bildirilgan fikrlarni Kaykovusning “Qobusnoma”, Ahmad Yugnakiyning “Hibatul haqoyiq”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” asarlarida, shuningdek, Alisher Navoiyning deyarli hamma asarlarida ko'rishimiz mumkin. Insonni ma'naviy kamolga yetkazish – komil inson qilib tarbiyalashga ajdodlarimiz ma'naviy merosining nodir xazinasi – mumtoz kitoblarda ham asosiy masala sifatida qaraladi. Shuning uchun insoniy g'oyalarini targ'ib etishga qaratilgan mumtoz adabiyotda so'z ulug'lanadi, barcha yaratilganlar ichidan eng ulug'i bo'lgan insonning so'zi, nutqi bilan bog'liq jihatlarga alohida e'tibor beriladi. Bu holatni Ahmad Yassaviy, Sulaymon Bog'urg'oniy, Mashrab singari shoirlar ijodida ham kuzatishimiz mumkin.

Nutqiy tarbiya ma'naviy yetuk inson tarbiyasining asosi hisoblanadi. Bu tarbiyada kitob, oila, maktab va jamiyatning o'zni juda katta. Bularning nutqiy tarbiyada tutgan o'rnini aniqlash bugungi kunda kishilik jamiyati oldida turgan muammolardan biridir. Birgina ta'lim sohasida nutq madaniyatining alohida fan sifatida o'qitilishi bilan ko'zlangan maqsadga erishish qiyin, albatta.

Nutqiy ko'nikma dastlab hosil bo'ladigan joy, ya'ni oilaga dastlabki e'tiborni qaratish lozim. Bunda avvalo, oila a'zolaridan o'z nutqlarida adabiy til me'yorlariga qat'iy amal qilishlari, boshqa tillarga oid til birliklarini keraksiz holda qo'llanmaslik, turli haqoratli, beparda so'zlardan qochish talab etiladi. Bunday tarbiya bolalar bog'chasiga ham tegishli bo'lib, u yerda to'g'ri so'zlash, yolg'on gapirmaslik, ko'p gapirmaslik, o'ylab gapirish kabi nutq odobiga oid xususiyatlar bolalar ongiga singdirilishi lozim.

Kishining nutqi to'la shakllanib ulguradigan ikkinchi bosqich maktab ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, o'qituvchilik kasbining juda ma'suliyatli ekanligi seziladi. Bu davrda o'quvchi o'zbek tilining qonun-qoidalarini bilan yaqindan tanishadi, adabiy til me'yorlari, milliy til adabiy til va shevalar, ular orasidagi farqlarni o'rganadi, badiiy adabiyot bilan yaqindan tanishadi. Bu davrda o'qituvchining zimmasiga katta vazifa yuklanib, avvalo, uning o'zi nutq madaniyatini egallagan bo'lishi lozim.

Uning nutqi grammatik jihatdan to'g'ri, turli xil sheva unsurlaridan, varvarizmlardan holi bo'lishi lozim. Bolalarga boshlang'ich sinflardayoq nutqning ikki shakli – og'zaki va yozma shakli haqida sodda tarzda tushuntirib berish yaxshi samara beradi. Bunda, birinchidan, dastlab bola to'g'ri talaffuz qilish va to'g'ri yozish orasidagi farqni tushunib oladi va yozganda xatolarga kam yo'l qo'yadi.

Mutaxassislar ma'lumotlariga ko'ra, tilshunos olimlar ijod ahli so'z boyligidan qanchalik samarali foydalanishlari bilan qiziqib tadqiqot o'tkazishgan. Buning uchun dunyo sivilizatsiyasi taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan buyuk iqtidor sohiblarini tanlashibdi. Natijalarga ko'ra, o'zbek adabiy tili asoschisi, g'azal mulkingning sultoni Mir Alisher Navoiy o'z ijod javohirlarida 26 ming 35ta, ulug' rus shoiri Aleksandr Pushkin 21 ming 193ta, ingliz dramaturgi Uilyam Shkspir 20 mingdan ortiq, ispan mumtoz adabiyoti namoondasi Migel de Servantes 18mingdan ortiq, nozikta'b fors-tojik klassik shoiri – Abdurahmon Jomiy 18 ming 600ta, Abdulla o'qay 14mingdan ortiq so'zni o'z badiiy va ilmiy asarlarida ishlatganlari aniqlangan. Takroriy qo'llashlar bu hisobga kirmagan.

Kishining til birliklaridan, tasviriy ifoda vositalaridan tushungan holda tanlab olib ishlatib, o'z nutqini jozibador, ta'sirchan, yoqimli tarzda shakllanishi uchinchi bosqich, ya'ni oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida kechadi. Bu o'quv yurtlarida o'quvchi yoki talaba madaniy nutqning mohiyati, qonun-qoidalarini bilan tanishadi. Eng asosiysi, talaba kasb egasi bo'lib shakllanish barobarida kishilar bilan nutqiy muloqotga kirishishga, nutq madaniyati mezonlariga amal qilishga o'rganadi.

Shuning uchun o'qituvchi dastavval o'quvchi nutqidagi xatoliklarga barham berishga, uning nutqiy savodxonligi, og'zaki nutq madaniyatini rivojlantirishga e'tiborini qaratishi kerak. To'g'ri nutq qoidalarini yaxshi o'rganib olgan o'quvchining savodxonlik darajasi ham, nutqining rivojlanishi ham yaxshi bo'ladi. Ayniqsa, nutq o'stirishga qaratilgan tadbirlar, badiiy kechalarning tashkil qilinishi o'quvchini notiqlikning dastlabki bosqichlarini egallashiga ko'maklashadi.

## **MATEMATIKA DARSLARIDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH – TA'LIM SAMARADORLINI OSHIRISH OMILI**

**F.M. Qosimov, BuxDU dotsenti**

**M.M. Qosimov, BuxDU dotsenti**

*O'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishini ortirish maqsadida darsda dam olish daqiqalarida foydalanish mumkin bo'lgan didaktik o'yinlar haqida fikr yuritilgan.*

**Kalit so'zlar-** jimlik, nima o'zgardi, zinama-zina, kim epchil, matematik telefon, zanjircha, norvoncha

Bolalarda har bir o'yinni o'rganishda muayyan talimiy maqsad nazarda tutiladi. O'yinning eng muhim ahamiyati ham anashundadir. O'tkazish shakllari va uslublari bilan ta'limning boshqa turlaridan farq qiladigan o'yinlar talim berish jihatdan ham katta ahamiyatga ega.

Didaktik o'yinlar o'yin usullari cheksiz takrorlash va o'zgartirish, o'yinga turli narsalar kiritish imkonini beradi. Masalan, "Jimjitlik" o'yinning 5-7 xilini butun sinf bilan hamda ayrim bolalar bilan takrorlab o'tkazish mumkin. "Nima o'zgaradi?" turidagi o'yin 5xil turli ko'rsatmali material bilan o'tkaziladi. Natijada o'yin malakalarining bir xilda va mustahkam bo'lishiga hamda o'yinning har bir qoidasini tinglay bilish va unga rioya qilishga erishish imkonini beradi. Didaktik o'yinlar o'zining shakli jihatidan asosan, maktabgacha o'ynaladigan ijodiy o'yinlardan ham, o'qituvchi o'zi hikoya qilib berish

yo'li bilan tushuntiradigan va o'quvchilarni birma-bir so'rab chiqish natijasida mustahkamlanadi va shu singari o'yinlardan ham har tomonlama farq qiladi.

Didaktik o'yinlar o'qitish vazifasiga xizmat qiladi va qiziqarli, maroqli, tushunarli darajada olib boriladi. Bolalar g'olib chiqish maqsadida jon-u dili bilan mashq qiladilar, berilgan bir xil topshiriqni, albatta, bajarishga odatlanib qoladilar. Didaktik o'yinlar har bir darsning maqsadini, har bir mashqning maqsad va vazifalarini yaxshiroq tushinib olishga yordam beradi.

Didaktik o'yinlar ta'limning ko'rgazmaliligini, o'qituvchining nutqini va bolalar harakatini o'z ichiga oladi. Buning natijasida idrokda (ko'rish, eshitish sezgisi) birlik tug'iladi. Bu esa o'qituvchining aytganlarini bolalarning zehnan o'ylab olishiga va o'sha aytilganlarni ifodalab berishga, ya'ni didaktik o'yin qoidalarini o'quvchilarning o'zlari bajarishlariga imkon beradi. Didaktik o'yinlarning bu tarzda tuzilish xususiyatlari o'quvchilar faoliyatini tahlil qilish imkonini beradi. Shuning uchun ham barcha bolalar o'yin vaqtida qiziqish bilan harakat qiladilar.

Didaktik o'yinlar bolaning his-tuyg'usiga ta'sir etib, unda o'qishga ijobiy munosabat va qiziqish xislatini tarkib toptiradi. Bolalar o'yinini zo'r mamnuniyat bilan o'ynaydilar, o'yin boshlanishini esa sabrsizlik bilan kutadilar, ularning ongida ertangi o'quv kunning quvonchli manzarasi gavdalanadi.

Har bir didaktik o'yinda ko'pchilik bolalar yoki butun sinf o'quvchilari ishtirok etadi. Masalan, "Doiraviy misollar" o'yinida hamma bolalar masala yechadi, "Zanjircha" nomli didaktik o'yinda 10 nafar, "Do'koncha" nomli didaktik o'yinda 8-12 bola, "Narvoncha" o'yinida esa qariyb hamma o'quvchilar masala yechadilar va hokazo.

Bundan tashqari, o'yin jarayonida hatto bolalardan ba'zi birlari ishtirok etmasa ham, ular o'yinda imo-ishoralar vositasida qatnashadilar. Masalan, ko'zlarini yumib, kim necha marta taqillatganini tinglaydilar, "Eng yaxshi hisobchi", "Kim aniqroq va tezroq?" o'yinlarida o'z o'rtoqlarining misolni qanchalik to'g'ri-noto'g'ri yechayotganlarini kuzatib boradilar.

O'yin paytida bolalar psixologiyaning individual xususiyatlari, ularda shartli reflekslarning paydo bo'lish tezligi va ularning mustahkamligi yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi. Bu esa o'qituvchiga o'quvchilar faoliyatiga individual munosabatda bo'lish imkoniyatini beradi.

Didaktik o'yinlarning tarbiyaviy ahamiyati nimalardan iborat?

Didaktik o'yinlar hamjihatlik va intizomlilikni tarbiyalashga yordam beradi, chunki har bir o'yin g'alaba qozonishga intilish bilan bog'liq bo'lib, o'yin shartlari va qoidalari qat'iy va izchil rioya qilishni talab etadi. „Kim aniqroq va tezroq?“, „Bo'sh kelma!“, „Eng yaxshi hisobchi“, „Ko'rganini eslab qolish diktanti“ singari o'yinlarni o'tkazish paytida o'quvchilar sinf xonasida, o'quvchilarning o'zlarini tuta bilishlariga, partada tovush chiqarmay turib oyoq uchida doskaga chiqa olishlariga, o'z o'rinlariga osoyishtalik bilan qaytib kelib, tovushlarni diqqat bilan tinglashlariga, raqamlarni zehn bilan qarashlariga erishadilar.

Darsda o'yinqaroqlik qilib o'tiradigan va o'qituvchidan bitta dars davomida 10-15 martagacha tanbeh berishga majbur etadigan bolalar ham uchrab turadi. Biroq o'yin o'tkazilayotgan vaqtda bunday bolalarning xulq-atvori tamoman o'zgarib ketadi. Ular darhol o'zlarini tutib oladilar, o'qituvchining o'yin qoidalarini ko'rsatib berishini kutib o'tirmaydilar ham, qoidalarni bajon-u dil va o'zlari mustaqil bajaradilar. Didaktik o'yinlar jarayonida bolalarda uyushqoqlik, vaqtni iloji boricha tejay bilish xislatlari tarbiyalanadi.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, didaktik o'yinlar bolalarda do'stlik, birodarlik, mehnatkashlik hissini tarbiyalash va taraqqiy ettirishga yordam beradi. "Kim turgan saf yaxshiroq?", "Bilgan kishi sanashni davom ettirsin!", "Zanjircha", "Narvoncha" singari o'yinlar o'tkazilayotganda bolalar o'z o'rtoqlari, o'zi turgan saf va o'z sinflarining sharafi uchun kurashadilar.

Bir safga tizilganlar ikkinchi safda turgan o'quvchilar bilan musobaqalashayotganda topshiriqni saflardan birining bitta o'quvchisi yoki bir necha o'quvchilari, yoxud butun bir saf bajaradi. Odatda, bolalar o'z sheriklariga dalda berib turadilar, agar o'rtoqlari topshiriqni to'g'ri bajarsa, undan behad xursand bo'ladilar va u bilan faxrlanadilar. Shuni ham aytish kerakki, o'yin o'tkazilayotgan paytda bolalarda hasad, qizishib ketish singari salbiy xislatlar uchramasligi maqsadga muvofiq.

Didaktik o'yinlar ijodiy shaxsni tarbiyalashga yordam beradi, chunki har bir o'yin, uning har bir takrorlanishi topshiriqni bajarishga yangicha munosabatda bo'lishni talab qiladi, uni hal qilish zarurati esa ijodiy izlanishlarni keltirib chiqaradi.

Didaktik o'yinlarda tirishqoqlik, matonatlilik, boshlagan ishni oxirigacha yetkaza bilish singari eng kerakli irodaviy xislatlar tarbiyalanadi. Masalan, "Doiraviy misollar" o'yinida oltita misolning hammasini yechish kerak, aks holda, oxirgi sonning birinchisiga to'g'ri kelish-kelmasligini bilib bo'lmaydi. Ana shuning o'zi bolalarni faollashtirib yuboradi va ular misolni to'liq yechishga intiladilar.

Didaktik o'yinlar jarayonida bolalarda tevarak-atrof haqida tasavvur hosil bo'ladi, bu esa bolalarga topshiriq mazmunini mustaqil turlicha bajarishga yordam beradi. Ularda elementar matematik, fazoviy tasavvurlar mustahkamlanadi. Didaktik o'yinlar, ayniqsa, bolalar ham, o'qituvchi ham o'yinning qanday o'tishiga qiziqqan paytlarida o'qituvchini bolalarga yaqinlashtiradi, o'qituvchi bolalar nazarida tarbiyachigina emas, balki chinakam do'stga aylanadi. Bu esa ayniqsa, dastlabki kunlarda yuz beradigan yotsirash hollariga barham beradi. Shunday qilib, o'yinlar orqali o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida ijobiy munosabat paydo bo'ladi.

Sinfdan tashqari o'ynaladigan o'yinlar bolalarning bo'sh vaqtini samarali o'tqazish vositasidir. "Kim turgan saf yaxshiroq?", "Bilgan kishi sanashni davom ettirsin!", "Zanjircha", "Narvoncha" kabi o'yinlarni o'ynaganlar, boshqa o'yinlarni o'ynashga qiynalmaydilar. Natijada bolalar jon-dillari bilan darsdan keyin qolishga rozi bo'ladilar va o'zlariga berilgan topshiriqni tezda bajaradilar.

## MASOFAVIY TA'LIM SHAROITIDA TALABALARNING BILIM OLISHDAGI IMKONIYATLAR

**Sidiqova, BuxDU tayanch doktoranti**

*Ushbu maqolada masofaviy ta'lim sharoitida talabalarning bilim olishdagi imkoniyatlari va masofaviy o'qitishda axborot texnologiyalardan foydalanish haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** ta'lim oluvchi, texnologiya, internet, masofaviy ta'lim, kommunikatsion texnologiyalar, bilim, ko'nikma, malaka, uzluksiz ta'lim, masofaviy o'qitish.

*В этой статье представлена информация о возможностях обучения студентов в дистанционном обучении и использовании информационных технологий в дистанционном обучении.*

**Ключевая слова:** ученик, технология, интернет, дистанционное обучение, коммуникационные технологии, знание, навык, малака, непрерывное образование, дистанционное обучение.

*This article provides information on students' learning opportunities in distance learning and the use of information technology in distance learning.*

**Key words:** learner, technology, internet, distance learning, communication technology, knowledge, skills, qualifications, continuing education, distance learning.

Ta'lim oluvchilar an'anaviy texnologiyalarga nisbatan axborot va kommunikatsion texnologiyalar (AKT) yordamida bilimlarni 40-60 foizgacha tez va qisqa muddatda o'zlashtiradi. Shu bois zamonaviy sharoitda masofadan o'qitish butun dunyo miqyosida jadal rivojlanmoqda.

Masofaviy o'qitishning maqsadi talabalarning dasturiy bilim, tasavvur va ko'nikmalari asosida mustaqil ishlash samaradorligini oshirish – ularni ilmiy fikrlashga o'rgatish, o'quvfaniga qiziqishini kuchaytirish, kasbiy bilimlarini chuqurlashtirish, nazariy va amaliy mashg'ulot mobaynida faolligini kuchaytirishdan iborat. Bunday faoliyatda masofali o'qitishning ulushi kattadir. Ma'lumki, masofaviy ta'limda **o'qitish modeli** (birlamchi modeli, ikkilamchi modeli, aralash modeli, konsorsium, franchayzing, validatsiya, uzoqlashtirilgan auditoriyalar va loyihalar), **texnologiyalar** (keys, korrespondentlik ta'limi, radiotelevizion, tarmoqli va mobil ta'lim), **kategoriyalar** (sinxron va asinxron) asosiy o'rin tutadi. "Masofaviy ta'lim" tushunchasi fanga o'tgan asr 90 – yillarida kirib kelgan. Ingliz tilida "Masofaviy ta'lim" (distant education) "Masofada o'qitish" (distant learning) kabi variantlarda ham qo'llaniladi. Ta'lim jarayonlarini telekommunikatsiyalardan foydalangan holda tashkil etishni esa (tele training) deb yuritiladi.

"Masofaviy ta'lim" tushunchasi-ta'lim o'quv axborotlarini oluvchiga masofada turib, etkazib berishni ta'minlovchi (sun'iy yo'ldosh, televideniye, kompyuter tarmoqlari va boshqalar orqali) yangi axborot texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan maxsus ta'lim xizmatlari to'plami sifatida e'tirof etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarda mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonining 46-maqsadida shunday keltirilgan: "Oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizga yetkazish va ta'lim sifatini oshirish" da Oliy ta'lim muassasalari imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta'lim shakllari, shu jumladan masofaviy ta'lim shakli bo'yicha ham qabul kvotani shakllantirish (212), ishlab chiqarishdan ajralmagan holda oliy ma'lumot olish imkoniyati yanada kengaytirish, bunda bosqichma-bosqich masofaviy ta'lim shaklida kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish (213) kabi maqsadlar belgilanib olindi.

**Masofaviy ta'lim** – aholining keng qatlami uchun maxsus informatsion ta'limga qaratilgan bo'lib, masofadan turib o'quv axborotlarini almashish vositalari (yo'ldoshi, aloqa, televidenie, radio, kompyuter va b.) yordamida amalga oshiriluvchi ta'lim xizmatlari majmui hisoblanadi. Masofaviy ta'limda ta'lim jarayoni kompyuter texnikasi va telekommunikatsiya vositalari hamda boshqa yangi axborot texnologiyalarini qo'llashga asoslangan an'anaviy va innovatsion ta'lim texnologiyalari, ta'limning dasturiy-texnik vositalaridan foydalaniladi. Masofaviy ta'limda o'qish xarajatlari tejaladi, hududiy cheklanish bo'lmaydi, o'qishning xilma-xil zamonaviy texnik vositalaridan foydalaniladi, nufuzli ta'lim muassasalarining dasturlari va o'quv-uslubiy majmualaridan foydalanish imkoniyatlari vujudga keladi.

Masofaviy ta'limning maqsadi quyidagilardan iborat:

- mamlakat miqyosidagi barcha hududlar va chet eldagi barcha ta'lim olishni xohlovchilarga birdek ta'lim olish imkoniyatini yaratib berish;

- yetakchi universitetlar, akademiyalar, institutlar, tayyorlov markazlari, kadrlarni qayta tayyorlash muassasalari, malaka oshirish institutlari va boshqa ta'lim muassasalarining ilmiy-pedagogik salohiyatidan foydalanish evaziga ta'lim berish sifat darajasini oshirish;

- asosiy ta'lim va asosiy ish faoliyati bilan parallel ravishda qo'shimcha ta'lim olish imkoniyatini yaratib berish;

- ta'lim oluvchilarni ta'lim olishga bo'lgan ehtiyojini qondirish va ta'lim muhitini kengaytirish;

- uzluksiz ta'lim imkoniyatlarini yaratish;

- ta'lim sifatini saqlagan holda yangi prinsipial ta'lim darajasini ta'minlash.

Masofaviy o'qitish jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan o'quv samaradorligini oshirish uchun foydalaniladi: elektron pochta, multimedia, yangiliklar guruhlari, videokonferensiyalar, veb-serverlar. Masofadan o'qitish uchun asos veb-serverdir, chunki video yoki telekonferensiyalardan foydalangan

holda o'qituvchi va talaba o'rtasida real vaqt rejimida muloqot qilish qobiliyatini yaratish yetarli emas - ta'limda elektron muhiti kerak. O'qituvchi va talaba o'rtasidagi aloqa ikki darajada amalga oshiriladi: onlayn aloqa sinf jadvaliga va Moodle o'quv muhitida virtual aloqaga muvofiq. Shunday qilib, ko'zi ojiz bolalarni o'qitishda barcha o'quv materiallari va topshiriqlar saytga katta matn formatida joylashtiriladi, ovozi fayllardan foydalaniladi. O'qituvchi turli xil multimedia obyektlarini, turli xil va murakkablikdagi vazifalarni o'z ichiga olgan o'quv materiallarini yaratadi. Kurs muallifi har xil turdagi darslarni taqlid qilish qobiliyatiga ega. Masalan, "Ma'ruza" kabi elementdan foydalanib, nafaqat tayyor materialni taqdim etish, balki talaba bilan virtual "Evristik suhbat"ni tashkil qilish mumkin. Kursga qabul qilingan talaba o'quv materiallari, har bir dars uchun berilgan topshiriqlar, ma'lumot manbalari (taqdimot, tarixiy xarita va hujjat, diagramma, jadval, rasm va animatsiyalar) bilan tanishishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.S.Shoyimova, M.K.Xoshimova, Sh.R.Mirzayeva, M.M.Qo'ziboyeva "Ta'lim texnologiyalari", Darslik. – T.: «IJODPRINT», 2020.-310 bet.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarda mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni

3. Sidikova S. D. Theoretical and didactic principles of distance learning //ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL. – 2021. – T. 11. – №. 1. – C. 541-548.

4. Shavkatovna S. D. THE IMPORTANCE OF DISTANCE LEARNING IN THE TEACHING OF" METHODS OF TEACHING MATHEMATICS". – 2021.

5. M.Ochilov, N.Ochilova "Oliy maktab pedagogikasi" Toshkent-2008, 260 bet

## **OILADA YOSHLARNING KASBIY IJTIMOIYLASHUVINI TA'MINLASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI**

**D.A. Ubaydullayeva, TDPU magistri**

*Mamlakatimizda jamiyatni modernizatsiyalash maqsadida jamiyatning dinamik o'zgarishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy qatlam sanalmish yoshlarga islohotlarning ta'sirini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Dunyoning ko'plab mamlakatlarida ijtimoiylashuv sohasidagi ilmiy bilimlarning nazariy o'sishi ikki yo'nalishda sodir bo'ldi. **Birinchi yo'nalish** xulq-atvorni psixologik tushuntirish tizimidagi ahamiyatini kuchaytirish, bilimlar nazariyasiga asoslangan xulq-atvor uslubi, kognitiv yo'nalishning ustunligi haqida. **Ikkinchi yo'nalish** ijtimoiylashuv va ijtimoiy amaliyotning nazariy asoslarini asoslashga bo'lgan qiziqishning ortishi bilan bog'liq edi.*

*Mamlakatimizda yoshlarning kasbiy ijtimoiylashuvini modernizatsiyalash maqsadida amalga oshirilayotgan islohotlar ko'lamini butun mamlakatning irodasini e'tirof etish bilan ahamiyatlidir. Ijtimoiy munosabatlar, so'zning keng ma'nosida, jamiyatdagi turli pozitsiyalarni egallagan insonlar o'rtasidagi aloqalarni, uning ijtimoiy tuzilishini ifoda etadi.*

*Maqolada yoshlarni ijtimoiy faolligini oshirish ijtimoiy muammo sifatida ilmiy-nazariy asoslari hamda mutafakkirlarimizning yoshlar ijtimoiy faolligini amalga oshirishga doir g'oyalari tahlili haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *ijtimoiylashuv, globallashtirish, demokratlashtirish, fransuzcha-modernizatsiya, mafkuraviy immunitet, "Edip kompleksi".*

*В целях модернизации общества в нашей стране важное значение имеет изучение влияния реформ на молодежь, являющуюся социальным слоем, влияющим на динамические изменения общества. Теоретический рост научных знаний в области социализации во многих странах мира происходил в двух направлениях. **Первое направление** направлено на усиление значения бихевиоризма в системе психологического объяснения, на доминирование бихевиористского стиля поведения, когнитивного направления, основанного на теории познания. **Второе направление** было связано с возросшим интересом к обоснованию теоретических основ социального познания и социальной практики.*

*Масштабы проводимых в нашей стране реформ в целях модернизации профессиональной социализации молодежи значительны с признанием воли всей страны. Социальные отношения, в широком смысле слова, выражают отношения между людьми, занимающими различные позиции в обществе, его социальной структуре.*

*В статье уговорится о научно-теоретическом обосновании повышения социальной активности молодежи как социальной проблемы а также об анализе идей наших мыслителей по реализации социальной активности молодежи.*

**Ключевые слова:** *социализация, глобализация демократизация, Франц. - модернизация, идейный иммунитет, "Эдиповский комплекс".*

*In order to modernize the society in our country, it is important to study the impact of reforms on young people, who are a social stratum that contributes to the dynamic change of society. In many countries of the world, the theoretical growth of scientific knowledge in the field of socialization has taken place in two directions. The first direction is about strengthening the importance of behavior in the system of psychological explanation, the method of behavior based on the theory of knowledge and the superiority of the cognitive direction. The second direction is related to the growing interest in socialization and the substantiation of the theoretical foundations of social practice.*

*The scale of reforms being carried out in our country to modernize the professional socialization of young people is important acknowledging the will of the whole country. Social relations, in the broadest sense of the word, refers to the relationships between people who hold different positions in society, its social structure.*

*The article discusses the scientific and theoretical basis of increasing the social activity of young people as a social problem and the analysis of the ideas on the implementation of social activity of young people.*

**Key words:** *socialization, globalization, democratization, French-modernization, ideological immunity, "Oedipus complex".*

Jamiyatning taraqqiy etishi va umumiy rivojiga, eng avvalo, ma'naviy va ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashga qodir, zamonaviy kasblarni puxta egallagan, butun mamlakat miqiyosida barcha sohalarida modernizatsiya, demokratizatsiya qilish vazifasini amalda joriy eta oladigan kadrlarni yetishtirish muammosini hal qilish zarur hisoblanadi.

Kasbiy ijtimoiylashtirish (lot. Socials – ijtimoiy) – Shaxsning kasbiy shakllanishi jarayoni pedagogik shart-sharoitlarini ta'minlash demakdir. Ta'kidlash joizki, kasbiy ijtimoiylashuvni bolalik davridanoq aynan oilada ta'minlash o'ta dolzarb vazifalardan bo'lib, xususan bolalik davrida inson shaxsining qariyb 70%i shakllantiriladi. Shunday ekan yoshlar ravnaqi, ya'ni tarbiya bilan bir qatorda, stixiyali kechadigan jarayonlarni ham qamrab oladi. Oilada kasbiy ijtimoiylashuvni ta'minlash maqsadi qo'yilmasa, farzandning jamiyat hayotiga faol integratsiyasi masalalarida bir qancha ziddiyatli holatlarga duch kelish mumkin.

Z.T.Saliyevaning ta'rifiga ko'ra, "ijtimoiylashuv insonning madaniyat, kommunikatsiya ta'siri ostida shakllanish jarayoni, bir-birlari bilan muloqotda bo'lishlarini ifodalaydi" [Saliyeva 2010; 64]. Ba'zi o'zbek olimlarining ta'kidlashicha, o'quvchilarni kasb tanlashga tayyorlash - butun pedagoglar

jamoasining , ota-onalar va ishlab chiqarishga dahldor bo'lgan mutasaddilarning , keng jamoatchilikning ko'p yillik ta'lim-tarbiya ishidir. Yoshlarni ma'naviy va psixologik jihatdan mehnat faoliyatiga yo'naltirish ishiga har tomonlama kamol toptirishning o'zaro bog'liq jarayoni deb qaraladi, bu borada e'tiqod va qobiliyat bilan birga yoshlarning shaxsi harakatlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Kuzatishlarga qaraganda, har bir oilada har bir farzand turli kasb -hunarlariga bo'lgan qiziqishi, e'tibori, imkoniyatlari, layoqatini namoyon qiladi. Yoshlarning o'z qiziqishlarini namoyon qilish jarayonida kattalar ongida ba'zan e'tirozlarni , ma'lum anglashilmovchiliklarni ham keltirib chiqaradi. Mazkur e'tiroz farzandga nisbatan agressiya sifatida kattalar xulq-atvorida namoyon bo'ladi. Demak , oilada farzandning o'z kasbiy qiziqishlari va imkoniyatlari, layoqatini namoyon qilishi orqali ota-ona farzandni kasbga to'g'ri yo'naltira olishi dolzarb masala hisoblanadi. Agar oilada farzandning kasbiy qobiliyatlari inobatga olinmay , kasbga yo'naltirilsa , ota-ona o'z xatti-harakatlari bilan farzandning kasbiy xohish -istagi , uning ishtiyoqini to'g'ri , ya'ni mutanosib anglamaganliklari sababli farzandning primitiv , ya'ni dastlabki tarzda namoyon bo'layotgan kasbiy irodasini so'ndirib , qiziqishlarini yo'qqa chiqarib qo'yishi mumkin. Natijada , farzand kasbiy ijtimoiylashuv jarayonida qarorda adashib qolishi mumkin. Bu esa farzandning kasbiy qobiliyatlarini , uning layoqatlarini so'nishiga sabab bo'ladi. Inson faqat o'z qiziqishlari va layoqati orqali tanlagan kasbi bilangina o'zini ijtimoiy faol hayotga tayyorlaydi. Oiladanoq farzandlarning kasbiy qobiliyatlari orqali innovatsion zamonaviy kasblarga yo'naltirilmasa , postmedrn , ya'ni texnologik jihatdan o'ta ilg'or jamiyatda yashash sharoitlariga farzandlarni hozirlash imkoni bo'lmaydi. Yoshlarning kasbiy ijtimoiylashuvi muammosi barcha o'tish davrlarida ham alohida davlat va xalqlar uchun muhim ahamiyat kasb etib kelgan. O'tgan yuz yillikning boshlari mobaynida mazkur muammo global xarakter kasb etib kelmoqda, negaki butun koinotning svilisatsiyasi dunyo yoshlarining kasbiy ijtimoiylashuviga yo'naltirilganligiga bog'liq . Yuqoridagi fikrlar Najmiddin Kubro tomonidan yartilgan (“Fi-al adab “) , (“Odob qoidalari”) risolasida bayon etilgan quyidagi fikrlar bilan go'yo bir nuqatada mujassam etganek bo'ladi: Muvaffaqiyatni sa'yi- harakatda , muvaffaqiyatsizlikni esa loqaydlik va dangasalikda, baloni tilda, halovatni esa sukutda ko'rdim.” Bu borada hazrati Bahoviddin Naqshband “Chaqmoqtosh qo'limizga berilgan , faqat harakat qilish kerak, toki natija hosil bo'lsin” deb ta'kidlaganlar.

O'tmish mutafakkirlarining fikrlarini qo'llab – quvvatlagan Jaloliddin Davoniy o'z asarlarida insonni ijtimoiy mavjudot sifatida talqin etadi. Inson faqat jamiyatda , insonlar orasida va ular bilan birgalikda tashkil etilgan munosabatlar jarayonidagina shakllanadi, degan fikrni ilgari suradi. Tatqiqotlarning ko'rsatishicha yoshlarning ijtimoiy faolligini shakllanishi uni bo'lajak kasbini tanlagan davriga to'g'ri kelar ekan. Yoshlar yoki bo'lajak mutaxassislar bolaligidan yoki ma'lum bir kasb egallaguniga qadar ushbu kasbning mas'uliyati, sharaflari va uning qiyin tomonlarini , ayniqsa uning Vatan ravnaqi yo'lidagi o'rnini qanchalik anglab yetsa, unda kasbiy ijtimoiylik shuncha tez ayon bo'ladi. Pedagogika fanida shaxsni ijtimoiylashuvda taqlid tarbiyasining o'rni alohida ekanligi aniqlangan. Bu muammo J.G. Mid<sup>1</sup> va Freyd nazariyalarida ham alohida o'z ifodasini topganligini ko'rishimiz mumkin.

Tadqiqotlarda J.G.Mid bolalar, birinchi navbatda, atrofdagilarning harakatiga taqlid qilib ijtimoiy mavjudot sifatida rivojlanadilar. Taqlid shakllaridan biri o'yin hisoblanadi. O'yinlarda bolalar ko'pincha kattalarga taqlid qilishini, bola oilaning bevosita oilaning kontekstidan chetda mustaqil harakat qila oladigan mavjudotga taxminan besh yoshlarda aylana boshlaydi deyishadi. Freyd nazarida bu- “Edip kompleksi” ning debochasi Mid nazarida esa rivojlangan o'zini anglash qobiliyatining bo'lishidir.<sup>2</sup>

Yoshlardan ijtimoiy burchni his etish ko'nikmasining shakllanishi kelgusida ijtimoiy burchni astoydil ado etishga undaydi. Demak, ijtimoiy burchni his etish va uni ijro etish , amalda ko'rsatish o'rtasida farqli jihatlarning mavjudligi izlanishlar jarayonida ma'lum bo'ldi. Shundan kelib chiqib, ijtimoiy burch va ijtimoiy mas'uliyat masalasi shaxsning ijtimoiy xulq-atvor motivlari tarbiyasi ko'rinishida qaraladi.

Kasbiy ta'lim tizimida alohida e'tibor yoshlarning kasbiy layoqati va kasbiy yo'nalganliklarini diagnostika qilishning pedagogik va psixologik aspektlari o'rganildi. Yoshlarning kasbiy ehtiyoj va qobiliyatlarini erta, ayniqsa, uning kasb tanlashgacha bo'lgan davrda aniqlanib , xulosalarni berish , mamlakatimizdagi ta'lim tizimining yangi bosqichma - bosqich tuzilishida muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Bugungi davrdagi mavjud barcha an'anaviy kasbiy yo'nalishlar va hunar turlari eng qadimgi davrlardan boshlab rivojlanib kelgan.Mehnat qilish bilan insonning o'zi taaluqli bo'lgan jamiyatdagi ijtimoiy muhim obyektga aylana borgan. Mehnatning bo'linishi turli kasb , hunar egalarining turli

<sup>1</sup> М. Мид. Культура и мир детства – М:1998, с.98.

<sup>2</sup> Гидденс Э.Социология. Олиё о'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. Tarjimonlar N.Mamatov va J. Boymatov – Toshkent : Sharq, 2002-848b

moddiy , ma'naviy , ijtimoiy zarur ehtiyojlarini qoplash maqsadida yaratilgan tovarlarning ishlab chiqarilishiga olib kelgan. Bu esa, o'z o'rnida turli xil hunarlar va rang – barang kasbiy mutaxassisliklarning kelib chiqishiga sabab bo'lgan.

Hunar – mayda qo'lda ishlab chiqariladigan tovarlarni ishlab chiqarish jarayoni bo'lib, u mehnat qurollari va mehnat mahorati , yoki mutaxassislik mahoratini taqozo etadi.

Kasb – insonning ijtimoiy muhim va ahamiyatga ega bo'lgan mehnat faoliyati hisoblanadi. Kasb-hunar o'z tadrijiy rivoji jarayonida quyidagi bosqichlarni bosib o'tgan:

➤ uy -ro'zg'or hunarmandchiligi , ya'ni har bir odamning o'zi uchun ma'lum tovarlarni ishlab chiqarish;

➤ buyurtma asosida mazkur tovarlarning keng aholi qatlamlari uchun ishlab chiqarish va tarqatish , biror bir hunar bo'yicha maxsus moslashish;

➤ ma'lim tovarlarni bozorda sotish uchun maqsadli ishlab chiqarish.

Kasb -hunarlarining mana shu tarzda rivojlanishining juda katta ijtimoiy ahamiyati mavjud bo'lgan. Ma'lumki, qadimiy Sharq xalqlarining ma'daniy merosi ildizlari uzoq o'tmishga borib taqaladi. Bizning hududimizda keng tarqalgan ilk tamaddunlardan biri sifatida Zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto"dir. "Avesto"da turli kasb egalari , turli ijtimoiy qatlamlar va ularning vazifalari borasida so'z boradi. Masalan, dehqonlar, harbiylar, ruhoniylar va ularning majburiyati aniq tahlilga olinadi. <sup>1</sup>Zardushtiylikda eng hurmatli va mavqei baland ijtimoiy guruhlardan biri sifatida harbiylar so'zga olinadi. O'rta asrlarda yaratilgan ko'plab ilmiy -adabiy manbalarda : "Qobusnoma", "Kalila va Dimna" , "Guliston va Bo'ston", "Qutadg'u bilig", "Xiba ul -xaqoyiq", "Saodatnoma" kabi asarlarda insoniyat etik- estetik qadriyatlarini tizimida mehnat tarbiyasi, hamda kasb- hunarlarni egallash talabi va ularning jamiyat hayotida tutgan o'rni , farzandlarni kasbiy ijtimoiy ruhda tarbiyalash majburiyatlarini e'tiborli o'rin olgan. Sharq ma'daniyatining buyuk ensiklopedist olimlari , mutafakkirlaridan Abu Nasr Farobiy , Abu Ali ibn Sino , Abu Rayhon Beruniy, Muhammad Muso al-Xorazmiy kabilar hayotga kasb -hunarga ega bo'lishlikning eng muhim hayotiy ehtiyojlardan biri sifatida baxolashgan. Shunidek hadislar orqali ilm yo'lida qilingan har qanday say- harakat ulug'lanadi. Aytiladiki, "Bir soat ilm o'rganish bir kechalik toat -ibodatdan afzalroqdir".

Oilada yoshlarning kasbiy ijtimoiylashuvini ta'minlashning asosiy mazmuni -shu oilada farzandlarning kasbiy ijtimoiylashuvini ta'minlash uchun zarur imkoniyatlar , shart-sharoitlar yaratishni bildiradi. Bugungi davr talabi - yosh avlodni aqliy salohiyatli, zukko , mehnatkash, mas'uliyatli , vatan ravnaqi uchun munosib farzand, kasbiy salohiyati yuqori bo'lgan yetuk mutaxassis sifatida tarbiyalashdan iborat.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Zaripova G.K Naqshbandiya tariqatida ta'lim -tarbiyaning o'ziga xos pedagogik texnologiyasi . ped. Fan.nom.dis...avt. T.,2010. -25 b.

2. Isxoqov M, Otaxo'jayev A. Sug'dlarning buddaviy falsafiy-axloqiy yozma merosidan.// qadimgi yozma yodgorliklar.- T.. Yozuvchi 2000/- 37 b.

### **BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARI FAOLIYATIDA TEXNOLOGIK YONDOSHUVNING O'ZIGA XOSLIGI**

**N.B.Adizova, BuxDUPI dotsenti**

**D. Husenova, BuxDUPI 1-kurs magistri**

*Usbu maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatida texnologik yondoshuvning o'ziga xosligi, ta'limda ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash uchun texnologiya tushunchasining mazmunini chuqur anglash, darsda davomida noan'anaviy usullardan foydalanish metodlari ko'rsatib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** dars, dars, faoliyat, ta'lim, tarbiya, texnologik yondashuv, bilim, ko'nikma, malaka, pedagogik texnologiya.

*Данная статья демонстрирует специфику технологического подхода в работе учителей начальных классов, глубокое понимание концепции технологии применения передовых педагогических технологий в обучении, методов использования нетрадиционных методов на уроках.*

**Ключевые слова:** урок, урок, деятельность, обучение, воспитание, технологический подход, знание, умение, квалификация, педагогическая технология.

<sup>1</sup> Qayumov 2000: 10-19b

Jamiyatning taraqqiyoti va islohotlar davrida hayotga yangiliklarning kirib kelishi, inson mehnatining takomillashishi, qulaylikka ega bo'lishi, yangilanib borishiga bo'lgan ehtiyoj ta'lim sohasida ham bir qator o'zgarishlar bo'lishini taqozo etmoqda. Hozirgi kunga kelib ta'lim sohasida shu davrgacha erishilgan yutuqlarni asrab-avaylagan holda ma'lum stereotiplardan voz kechish vaqti keldi. Barcha sohalarida yangilanish davom etayotgan bugungi kunda mutaxassislarni yetishtirish sohasiga ham yangilik kiritish ta'lim jarayoniga yangicha, texnologik yondoshuvni taqozo etmoqda.

Mustaqillik yillarida ta'lim sohasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. O'zbekistonda ta'lim sohasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi deb belgilangandi va ta'lim tizimida ulkan islohotlar boshlab yuborildi.

Ta'limda ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash uchun texnologiya tushunchasining mazmunini chuqur anglash kerak. Texnologiya - yunoncha so'z bo'lib, «tehn»-mahorat, san'at, «logos»-tushuncha, ta'limot ma'nolarini anglatadi. Texnologiya tushunchasi - tayyor mahsulot olish uchun ishlab chiqarish jarayonlarida qo'llaniladigan usul va metodlar majmui, shunday usul va metodlarni ishlab chiquvchi va takomillashtiruvchi fan sifatida ta'riflanadi. Ishlab chiqarish jarayonlarining tarkibiy qismi bo'lgan amallar – materiallarni qazib olish, tashish, tartibga solish, saqlash va boshqalar ham texnologiya deyiladi.

Texnologiyaga ishlab chiqarish jarayonlarini tasvirlash, ularni bajarish bo'yicha qo'llanmalar, texnik qoidalar va talablar, grafiklar ham kiradi. Demak, texnologiya - bu ishlab chiqarishning ma'lum bir tarmog'ida, ishlab chiqarish jarayonlarining majmui, shuningdek, ishlab chiqarish usullarining ilmiy tavsiflanishi demakdir.

Pedagogika fani va amaliyotida qo'llanilayotgan "pedagogik texnologiya" atamasi inglizcha "an educational technology" so'zidan olingan bo'lib, aynan tarjimasida "ta'lim texnologiyasi" degan ma'noni bildiradi.

Ta'lim muassasasiga o'quvchi bilim olish uchun keladi, o'qituvchi esa o'quvchiga bilim berishdan tashqari, unga bilim berishning eng qulay, samarali yo'llarini izlab, ta'lim jarayonini tashkil etadi. Bunday faoliyatni ta'lim 11 texnologiyasi deb ham atash mumkin. Ta'lim texnologiyasi yoki pedagogik texnologiyada pedagog ta'lim berishning turli yo'l, usullarini o'z faoliyatiga joriy etish bilan birga bu jarayonning natija berishiga ishonch hosil qilishi kerak. Bu esa, o'z-o'zidan pedagogik texnologiya tushunchasiga ta'rif berishni taqozo etadi. Pedagogika fanida pedagogik texnologiya tushunchasini ta'riflashda hali yagona bir fikrga kelinmaganligi bir qancha adabiyotlarda ta'kidlab o'tilgan. Lekin shunga qaramasdan pedagogik texnologiya haqida bir qator ta'riflar mavjud. YUNESKO tashkiloti ma'qullagan ta'rif: "Pedagogik texnologiya – bu, ta'lim shakllarini optimallashtirish maqsadida texnik vositalar, inson salohiyati hamda ularning o'zaro ta'sirini inobatga olib, o'qitish va bilim o'zlashtirishning barcha jarayonlarini aniqlash, yaratish va qo'llashning tizimli metodidir". V.P.Bespalko: «O'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan, o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyihasidir. - degan edi.

Pedagogik texnologiya haqida boshqa mualliflarning ham ta'riflari mavjud. Mavjud ta'riflar tahlili pedagogik texnologiya usulining mazmunini anglash va aniqlash jarayoni hali poyoniga etmaganligidan dalolat beradi. Bu masalaga oydinlik kiritish uchun, avvalo, pedagogik texnologiyaning muhim belgilarini aniqlash talab etiladi.

Pedagogik adabiyotlarni o'rganish va tahlil etish pedagogik texnologiyaning muhim xususiyatlari, belgilari qatorida quyidagilarni ko'rsatishga imkon beradi: ta'lim jarayonini oldindan loyihalash va sinfda o'quvchilar bilan qayta ishlab chiqish; tizimli yondoshuv asosida talabning o'quv-biluv faoliyatini tavsiflaydigan ta'lim jarayoni loyihasini tuzish; ta'lim maqsadi real, aniq diagnostik bo'lishi va o'quvchining bilim o'zlashtirish sifatini obyektiv baholash; ta'lim jarayonining tuzilishi va mazmuni yaxlitligi, o'zaro bog'liq va birbiriga o'zaro ta'sir ko'rsata olishi; ta'lim shakllarini optimallashtirish (qulaylashtirish); 12 ta'lim jarayonida texnik vositalar va inson salohiyatining o'zaro ta'sirini hisobga olish; o'quvchilarning kuzatiladigan, aniqlanadigan harakatlari sifatida ta'lim maqsadlarini ko'zlagan etalon asosida oydinlashtirish; talabning faolligiga tayanib o'qitish; bilimlarni o'zlashtirish jarayonida yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlab, tuzatib borish; shakllantiruvchi va jamlovchi baholar; belgilangan mezonlarga binoan test topshiriqlarini

bajarish; ta'limning rejalashtirilgan natijasiga erishish kafolatlanganligi; ta'lim samaradorligining yuqoriligi.

Pedagogik texnologiya tushunchasining mavjud ta'riflarini uning muhim belgilari, xususiyatlarini umumlashtirilgan holda bayon qilib berdik. Ma'lumki, mantiq faniga ko'ra, biror tushunchaga ilmiy ta'rif berish uchun mazkur ta'rifda tur va jins tushunchalari uyg'unlashtirilishi va ta'riflanayotgan tur tushunchasini jins tushunchasiga kiradigan boshqa xildagi tushunchalardan farqini ko'rsatuvchi muhim belgilari ko'rsatilishi talab etiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.**

1. Avliyoqulov N.X., Musaeva N. Pedagogik texnologiyalar. Toshkent-2008-yil
2. Avliyoqulov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari – Toshkent, 2001
3. Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Ped.fan.dok. diss. T., 2003-yil

### **BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSLARIDA MANTIQUIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

**M. F. Ibrohimova, BuxDU o'qituvchisi**

*Bu tezisda boshlang'ich sinflarda mantiqiy tafakkurni shakllantirish metodikasi haqida fikr yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *mantiqiy tafakkur, mantiq, mantiqiylik, mantiqiy topshiriq, boshlang'ich ta'lim.*

*В данной дипломной работе рассматривается методика формирования логического мышления в начальной школе.*

**Ключевые слова:** *логическое мышление, логика, логичность, логическая задача, начальное образование.*

*This thesis discusses the methodology of forming logical thinking in primary school.*

**Keywords:** *logical thinking, logic, logicity, logical task, primary education.*

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishgach ayniqsa XXI asr ostonasida ijtimoiy-iqtisodiy hamda ma'naviy- marifiy sohalarga e'tibor yanada kuchaydi. Ko'plab sohalar rivojlanib ravnaq topib bormoqda. Shuni e'tiborga olish kerakki, hozirgi kunda ta'lim sohasiga yanada kuchli e'tibor berilayotgani hech kimga sir emas. Ravnaq topib borayotgan, Ijtimoiy-iqtisodiy, moddiy va ma'naviy sohalarda islohotlar amalga oshirilayotgan O'zbekiston sharoitida tafakkuri keng, mantiqiy fikrlovchi yoshlarga ehtiyojning oshishi davr talabidir. Chunki tafakkuri keng, dunyoqarashi serqirra bo'lgan insonlargina jamiyat taraqqiyotini ta'minlashga qodir bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirish muhim masaladir. Chunki kichik maktab yoshida o'quvchilarning ongli faoliyati ilm olishga chanqoq bo'ladi. Bu yoshda o'quvchilar tashqaridan olishi kerak bo'lgan bilimlarni, odob-axloq, xotiraning mustaxkamligi, diqqatning barqarorligini oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Aynan shu yoshda o'quvchilarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirish boshlang'ich sinf o'qituvchisining asosiy vazifasi hisoblanadi. Shu yoshda boshlang'ich sinf o'quvchilarini to'g'ri yo'lga solib, ularni ilm-fanga, texnologiya va boshqa kasblarga qiziqishini orttirish kerak bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlarini dadillashtirish, kasblarga qiziqishini orttirish, kelajakka teran nigohtar bilan boqish uchun ularning qalbida vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish muhimdir.

Mantiqiy tafakkurni rivojlantirish borliqni, voqeilikni, idrok etish usuli sifatida tafakkur bilan bog'liq bo'lib, boshlang'ich sinflarda arifmetik amallar bilan ishlash, mantiqiy masalalar ustida ishlash, ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan ongli foydalanish, mustaqil ishlashni tashkil etish jarayonida shakllanadi.

O'quvchilarga o'qituvchi tomonidan qo'yiladigan talablar ko'p hollarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qilmaydi. Ta'limda faqat bilimlarni tarkib toptirishga e'tiborni qaratish ta'lim sifati va samaradorligining pastlashiga olib keladi. Vaholanki, mantiqiy tafakkuri keng bo'lgan o'quvchilarginabilimlarni mustaqil o'zlashtira oladi. Shu sababli boshlang'ich sinflarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirish juda muhimdir.

“Mantiq” so'zi arab tilidan olingan bo'lib, yunon tilidan olingan “fikir”, “so'z”, “qonun” ma'nosini anglatadigan “logika” so'zining arab tilidagi ifodasi hisoblanadi. (falsafa qomusiy lug'ati)


“Mantiqiylik” bu mantiq, mantiqiy asos, qonuniylik, asosiylik demakdir.

Hech kimga sir emaski, boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirishning asosi matematika fanidir. Matematik misol-masalalarni yechish boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash, kata qulaylik yaratadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish kata ahamiyatga ega. Chunki, kichik maktab yoshida o'quvchilar o'zlari uchun kerak bo'ladigan bilimlarning tayanch asosini oladilar. Aynan shu bilimlari kelajakda o'rganiladigan fanlar uchun qulaylik yaratadi va dasturilamal sifatida xizmat qiladi.

Nizomiy nomidagi TDPU fan doktori, professor –Ibragimov Rasqul tomonidan yozilgan “Boshlang'ich maktab o'quvchilarida bilish faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari” nomli doktorlik dissertatsiyasida keng yoritilgan bo'lib, dissertatsiyada boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilish jarayoni psixologik, falsafiy tarafdin keng ochib berilgan.

Shuni takidlab o'tish kerakki, boshlang'ich sinflarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirish uchun, ko'proq mantiqiy topshiriqlardan foydalanish yaxshi natija beradi. Aynan mantiqiy topshiriqlar ustida ishlash uchun maktab boshlang'ich sinf darsliklariga murojaat qilamiz.

1-sinf matematika darsligida o'quvchilarning matematik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ko'plab mavzular o'xshash va farqlarni topishga, taqqoslash orqali fikrlashni o'stirishga qaratilgan. Xususan, 1-bob “Narsalarning xossalari” deb nomlanib, 10 ta darsni ichiga oladi. Barcha mavzular o'xshash va farqlarni aniqlash, narsalarni bir biriga-nisbati orqali farqlarni aniqlashga qaratilgan.



Bu topshiriqda to'plamlarning xossalari ko'ra to'plamlarga ajratish haqida fikrlar bayon qilingan. Shu va shunga o'xshash topshiriqlar 1-sinf o'quvchilari uchun tafakkurning kengayishiga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. *Boshlang'ich sinf matematika darslarini online o'tishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish. M.Ibrohimova.*
2. *Use day games in elementary math lessons. Mohichehra IBROHIMOVA. Pedagogical skills.*
3. *An Integrated Approach to the Use of Pedagogical Technologies in Primary School Mathematics. M. Ibrohimova. M.J.Saidova. Middle European scientific Bulletin.*

## **BOSHLANG'ICH SINFLARDA ERTAK O'QITISHNING NAZARIY VA METODIK ASOSLARI**

**N. B. Adizova, BuxDUPI dotsenti,  
M. M. Fattullayeva, BuxDUPI magistranti**

Ertak realistik hikoya sifatida tahlil qilinadi va hamma narsa o'quvchilarning aniq mazmuni jonli idrok etishini, syujetning rivojlanishini, qahramonlarning xatti-harakatlarining motivlarini, ularning munosabatlarini to'g'ri tasavvur qilishini ta'minlashga qaratilgan. Faqat ertak ustida ishlashning oxirgi bosqichida o'qituvchi bolalarni ertakning xulosasini hayotdagi o'xshash holatlarga "o'tkazish" sharoitiga qo'yadi. Bu, bir tomondan, o'quvchilar uchun ertak ertak bo'lib qolishi, ikkinchidan, ular hayotning ma'lum hodisalari haqidagi bilimlarni boyitishi uchun yetarli. Shuni ta'kidlash kerakki, o'qituvchi o'qish mahoratining ifodalilik, onglilik kabi jihatlarni shakllantirish ustida doimiy ish olib borishi kerak. Ertakning u yoki bu xarakterining xususiyatlarini payqagan o'quvchilar, go'yo o'z ovozlari uning tashqi ko'rinishini, boshqalarga munosabatini bildiradilar. Bunda so'zning lug'aviy ma'nosi, gapda qo'llanishi borasida to'g'ri tuzilgan ish muhim o'rin tutadi.

Kompozitsiyaga ega ertak bolani mantiqiy fikrlashga o'rgatadi: undagi voqealar qat'iy ketma-ketlikda sodir bo'ladi. Ertak syujet dinamikasini qamrab oladi. Oxiri qanchalik yaqin bo'lsa, qahramonlar o'rtasidagi munosabatlar shunchalik keskin va shiddatli bo'ladi. Ko'pincha, qahramonni maqsadga deyarli to'liq erishish vaqtiga olib kelgan ertak voqealarning keskin burilishlarini dastlabki holatga e'tirof etadi - va u yana adolat g'alabasi uchun kurashni boshlaydi. Ushbu uslub bolaga maqsadga erishish uchun qat'iyatlik, burchga sodiqlik va har qanday holatda ham g'alaba qozonish istagi kerakligini tushunishga yordam beradi. Ertakda qahramonlarning xarakteri, qahramonlari boshidan oxirigacha ma'lum ijobiy kuchlar yoki illatlar bilan ta'minlangan.

Ertak qahramonlari, ular bilan nima sodir bo'lishidan qat'i nazar, har doim o'z qahramonlariga sodiq qoladilar. Bola uchun ertaklarning bu xususiyati juda muhim: bu insoniy munosabatlarning zaruriy soddaligi. U odamlarning ishlari va harakatlarining murakkabligini tushunishni o'rganishdan oldin

o'zlashtirilishi kerak. So'z birikmalarining tuzilishi, so'zlarning tanlanishi tarkibning tabiati bilan belgilanadi. Sokin rivoyat, to'satdan va tezkor harakatga kelganda, o'z o'rnini tezkorlikka beradi - bunga harakat fe'llari yordamida erishiladi. Masalan, oqqush g'ozlari haqida ular: "pastga tushdi", "ko'tarildi", "ko'tarildi" va boshqalar. Fe'llarning tanlanishi voqealar dinamikasini, vaziyatning jiddiyligini aniq ifodalaydi. Shu bilan birga, kichkina tinglovchi, xuddi ertak qahramonlariga hamdard bo'lib, sodir bo'layotgan voqealarning ishtirokchisiga aylanadi. Hikoyachilar dunyoni barcha ob'ektiv moddiylik, tovushlar xilma-xilligi, ranglarning yorqinligi bilan takrorlaydi. Ertaklar quyosh nuri, o'rmon shovqini, hushtak shamoli, ko'zni qamashtiruvchi chaqmoq - bizni o'rab turgan dunyoning barcha xususiyatlari bilan to'ldirilgan.

Syujetning murakkabligi ertaklarga xos xususiyatdir. Ertakda rivojlanayotgan qahramonlar yo'q, faqat ularning harakatlari, qilmishlari takrorlanadi. Shuning uchun tahlil qilar ekanmiz: "Qahramonning qaysi xatti-harakatlari bilan uning xarakterini baholay olamiz?" degan savolni berish maqsadga muvofiqdir. Ertakning o'ziga xos xususiyati ertaklarning ko'p voqealiligidir. Qahramon bir qator sinovlardan o'tishi kerak, ular syujet o'sib borishi bilan qiyinlashadi. Ertak, albatta, qiziqarli, g'ayrioddiy bo'lib, yaxshilikning yovuzlik ustidan, yolg'onning haqiqat ustidan, hayotning o'lim ustidan g'alaba qozonishi haqida aniq ifodalangan g'oya bilan undagi barcha voqealar yakunlanadi.

Xulosa qilib aytganda, ertaklarning asosiy vazifasi fikrday oladigan, his eta oladigan, o'z fikrini ifoda eta oladigan axloqiy rivojlangan avlodni tarbiyalashdan iborat. Xalq ertaklarida ana shunday g'oya singib ketgan. Bola uchun ertak katta tarbiyaviy va kognitiv ahamiyatga ega. Bu ko'plab bolalarning sevimli janri. Turli ertaklar esa boshlang'ich sinf o'quv dasturiga kiritilgan. Bu esa boshlang'ich sinf o'quvchilarining kitobxonligida katta o'rin tutadi. Ularning tarbiyaviy ahamiyati juda kata hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Bibko NS Aralash tipdagi ertaklarni o'rganish. // NSh - 1990 - №3 - s.
2. Bibko NS Ertak o'qish qobiliyatini shakllantirishda nutq va o'qishning ifodaliligi ustida ishlash // NSh - 1991
3. Г. Маматова. Бошланғич синфларнинг ўқиш дарсларида адабий-назарий тушунчалар устида ишлаш. Пед. фан. фал. док. (PhD) Тошкент. 2020.
4. Фуломова Х. Бошланғич синфда адабий таълимни ташкил этиш методикасига янгича ёндашув. Республика илмий-амалий конференция материаллари. Жиззах. 2020.

## **КУЛЬТУРА МЫШЛЕНИЯ СПЕЦИАЛИСТА КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА: СРЕДСТВА И УСЛОВИЯ ЕЕ РАЗВИТИЯ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ**

**Ю.К.Кушназарова**

преподаватель Ташкентского государственного педагогического университет им. Низами

*Рассмотрим педагогические условия, обеспечивающие развитие культуры мышления обучающихся в процессе освоения содержания общепрофессиональных дисциплин, которые представляют научно-обоснованную, построенную с учетом четко сформулированных целей и заданных результатов систему организационных форм, отобранного содержания, средств и методов обучения.*

**Ключевые слова.** Педагогика, психология, дидактика, культура, мышления, формирования, образования, обучения.

*Let's consider the pedagogical conditions that ensure the development of a culture of thinking of students in the process of mastering the content of general professional disciplines, which represent a scientifically based system of organizational forms, selected content, means and methods of teaching, built taking into account clearly formulated goals and set results.*

**Key words.** Pedagogy, psychology, didactics, culture, thinking, formation, education, training.

Педагогика рассматривает развитие и формирование мышления в условиях обучения, воспитания и профессионального образования как опосредованное отражение внешнего мира в процессе организации и выполнения учебно-познавательной и практической деятельности. Этот процесс дает возможность человеку в зависимости от усвоенных им знаний, умений и навыков правильно оперировать информацией, успешно строить свои планы и программы поведения, задаваемых культурой конкретного общества [2].

Sinf rahbarlari o'quvchilarga ularning bosh vazifasi – o'qish ekanligini tushuntirishi kerak, chunki o'qishga mas'uliyat hissi, faqat Vatan oldidagi burchgagina emas, keng ijtimoiy qamrovli – jamoa, o'qituvchilar, ota-onalar va o'z oldidagi mas'uliyat, ularning fikrlari, ma'qullashlarini eshitishga intilish, sinf, o'quv jamoasida munosib o'rinni egallashga ham tegishli deb hisoblayman. Bola bilimga qiziqmasdan turib, o'qishga intilmaydi, muvaffaqiyatli o'qiy olmaydi. Bolada o'z kuchiga va qobiliyatiga ishonch hosil etish, o'qishga jalb etish, ilk yutuqlari uchun rag'batlantirish ayniqsa ahamiyatli. Bu esa boladagi o'qishga qiziquvchanlik qiyinchiliklarni yengishga, faolligini oshirishga, ishonch uyg'otishga va mustaqilligi kamol topishiga olib keladi. Guruhda o'quvchilar orasida o'rtoqlarcha o'zaro yordam uyushtirish kabi hislatlarni shakllantirish kerak. Chunki o'rtoqlarcha o'zaro yordam guruhda ulgurmovchilikning oldini oladi, guruh jipsligini oshiradi, jamoatchilik ruhining shakllanishiga olib keladi. «Bilim – takrorlash mevasidir», – degan edi Abu Rayhon Beruniy. Sinfda va uyda ko'p va jiddiy ishlaydigan bolalar, odatda o'qishda va mehnatda katta muvaffaqiyatlarga erishadilar. Har qanday muvaffaqiyatning zamirida tinimsiz mehnat yotadi. Bolalarni o'qishga mas'uliyat bilan qarash ruhida, ko'chirib olishga qarshi nafrat ruhida tarbiyalash kerak.

Sinf majlislarida vaqti-vaqti bilan mazkur masalalar butun mazmun-mohiyati bilan muhokama qilinishi, shu orqali o'quv mashg'ulotlariga loqaydlik bilan qaraydigan o'quvchilarga sezilarli ta'sir o'tkazish kerak.

Sinfning o'zlashtirish masalasi atrofida jamoatchilik fikrining shakllanishi, bu borada sinf devoriy gazetasi imkoniyatlaridan foydalanish yaxshi natijalar beradi.

O'quvchilarni bilimga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda ularning nazariy bilimlarini mustaqil ravishda qo'llay bilishlarini hisobga olish ayniqsa muhimdir. Bu tajriba juda ko'p maktablarda muvaffaqiyatli qo'llanilib kelinmoqda. O'quvchilarga biror bir fan bo'yicha ko'rgazmali qurol yoki biror jihoz yasab kelish buyuriladi. Bunda «Agar tirishsang, bu sening qo'lingdan keladi» degan gapni uning qulog'iga quyish kerak. Buni o'quvchi nafaqat oddiy topshiriq, balki o'qituvchining ishonchi sifatida ham qabul qiladi. To'g'risini aytganda, bunday narsalarni yasash uchun o'quvchi yetarli nazariy bilimga ega bo'lishi kerak. O'quvchi topshiriqni puxta qilib bajarishi uchun u yoki bu fan asoslarini o'rganishga, o'z bilimini chuqurlashtirishga harakat qiladi, o'zi yasayotgan o'quv quroliga, ushbu fanga nihoyatda qiziqib qoladi. Shu bilan birgalikda har bir yasalgan narsa zamirida mehnat yotganligini his qiladi, sinf va maktab jihozlarini avaylashga o'rganadi. Bilimga bo'lgan qiziqishni shakllantirish va o'stirishda guruhni, o'quv xonalarini va maktab binosini jihozlash ham katta ahamiyat kasb etadi, o'quvchilarda turli qarashlar, did, dunyoqarashni shakllantiradi, estetik zavq uyg'otadi, tegishli ma'lum sohalarga havas uyg'otadi.

Bolalarning intizomli bo'lishida sinf rahbarining xizmati katta. U darsda va darsdan tashqari vaqtlarda turli tarbiyaviy usullardan foydalanib, bolalarda intizomni tarbiyalab boradi, sinfda aniq rejim va ichki tartib o'rnatishga kirishadi; jihozlash, tozalik va tartibni joriy etib boradi.

Bu ishlarni sinf rahbari bir o'zi emas, balki o'qituvchilar, sinf jamoasi, faollari va ota-onalar bilan hamkorlikda amalga oshiradi. Sinfda intizomni saqlash faqat sinf rahbarining ishi deb tushunuvchilar ham uchrab turadi. Bu mutlaqo noto'g'ri fikr. Intizom uchun butun sinf, pedagogik jamoa ma'sul hisoblanadi. Intizomni tarbiyalash juda qiyin va murakkab tarbiyaviy jarayondir. Shunisi ham borki, ko'p vaqt qilingan mehnatni bir paytni o'zidayoq yo'qqa chiqarish mumkin. Masalan, sinf rahbari va ayrim fan o'qituvchilari darslarida bolalar jim, intizomli o'tirishadi, darslarni berilib tinglashadi, o'quv yumushlari bilan band bo'lishadi; ba'zi o'qituvchilarning darslarida buning aksi: bolalar qiy-chuv qilishadi, bir-biriga qog'oz otishadi, partaning ostiga kirib yashirinishadi, natijada o'qituvchi tajanglashadi, o'quvchilar bilan ixtilofga boradi. Bunday ayanchli manzara har bir maktab hayotida uchrab turishi tabiiy. O'quvchilarda intizomni tarbiyalamasdan turib, ularni maktabga, atrof-muhitga, kishilarga, darslarga to'g'ri munosabatda bo'lishga, uy vazifalarini bajarishga, saranjomlikka o'rgatish qiyin. Ongli intizomni tarbiyalash – maktabning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Butun sinf o'qituvchilari oldiga yagona pedagogik talablarni, qattiqqo'llikni, sinfda intizomni saqlash, o'quvchilarga bo'lgan talabchanlikni oshirishni alohida vazifa qilib qo'yish lozim.

Sharqning faylasuf shoiri Shayx Sa'diy:

Agarda muallim bo'lsa beozor,

Bolalar sinfni qilishar bozor,

deb bejiz aytmagan.

Yana shuni ham aytish kerakki, intizom deganda bolalarning partada qimirlamay o'tirishini emas, balki ongli intizomni tushunish kerak. Ko'pgina o'qituvchilar o'zicha intizom o'rnatmoqchi bo'ladilar. Sinfga qosh-qovog'idan qor yog'dirib kiradilar, dag-dag'a qilib bolalarni siquvga oladilar, gah desa qo'lga qo'nadigan qilmoqchi bo'ladilar. Bu bilan mutlaqo kelishib bo'lmaydi. Zo'ravonlik asosiga qurilgan tartib yaxshilikka olib bormaydi. Bu murg'aqk qalblarga adovat urug'ini sochadi, ularni sovuqqon, qo'rqqon, jur'atsiz, yolg'onchi, ozurda qilib qo'yadi.

Darslardagi tartib-intizomni saqlashning eng yaxshi usuli o'quvchilar ishonchini qozonishdir. Darsni qizg'in, ijodiy, ko'rgazmali qurollar yordamida, ular havasini va hayratini uyg'otish, lol qoldirish, dars o'tilgach birorta ham o'quvchini «beish» qoldirmaslik – har biriga o'ziga xos amaliy topshiriqlar berish ayni muddaodir. Intizomli bo'lish nafaqat maktabda, balki o'quvchining kelgusi hayotida ham asqotishi turgan gap. Chunki, inson hayotining chigal va murakkab so'qmoqlarida ham tartib-intizom muhim ahamiyatga ega.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. A.Xoliqov. “Pedagogik mahorat”. –T Iqtisod –moliya .2010
2. R.Mavlonova ,Rahmonqulova ,N.Voxidova ,K.Matnazorova .”Pedagogika” –Toshkent ,2013
3. A.Kosimov , F.Xoliqova .”Pedagogik mahorat va pedagogic texnologik texnologiyalar “. – Toshkent ,2004
4. S.Jo'raqulov. “Pedagogik mahorat”. –Toshkent, 2008.
5. N. Abdulhatov, O. Abubakirova “Allomalar to'g'risidagi asotirlar”. Farg'ona 2012 y.

6. Ochilov M. Ochilova N “O‘qituvchi odobi”. – T O‘qituvchi 2004
7. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi “ Oliy ta‘lim :meyyoriy hujjatlar to‘plami . – T., Sharq nashriyoti .2001.
8. J.Yo‘ldoshev , F.Yo‘ldosheva ,G .Yo‘ldosheva . “Interfaol ta‘lim sifat kafolati”. – T ., 2009

## **SPORT MURABBIYLARINI TAYYORLASHDA ETIKA MASALALARI**

**Sh. M. Salixov, BuxDU o‘qituvchisi**

*Mazkur maqolada sport murabbiylarining etika madaniyati, muomala madaniyati, muloqot jarayonida o‘z sportchilari bilan axborot almashinuvida etika qoidalariga, axloq normalariga va uning shaxs hamda jamiyat hayotidagi sport murabbiylarining hayotidagi o‘rnini shakllantirish haqida ochib beriladi.*

**Kalit so‘zlar:** *Sport murabbiysi, sport faoliyati, jismoniy tarbiya, etika madaniyati, muomala madaniyati, axloqshunoslik.*

*This article describes the ethical culture of sports coaches, the culture of behavior, the rules of ethics, ethics and its role in the lives of sports coaches in personal and social life in the exchange of information with their athletes in the process of communication.*

**Keywords:** *Sports coach, sports activities, physical education, ethics culture, behavioral culture, ethics.*

*В данной статье описывается этическая культура спортивных тренеров, культура поведения, правила этики, этики и ее роль в жизни спортивных тренеров, в личной и общественной жизни при обмене информацией со своими спортсменами в процессе общения.*

**Ключевые слова:** *спортивный тренер, спортивная деятельность, физическое воспитание, культура этики, культура поведения, этика.*

So‘nggi yillarda mamlakatimizda sportga qaratilayotgan e‘tibor bu sohada alohida yo‘nalishlarni rivojlantirish, nafaqat sportchi yoshlarni balki bo‘jak sport murabbiylarini ham tayyorlashda alohida tamoyilarga asoslanib harakat qilish yo‘llari ishlab chiqilgan. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning sportga qaratayotgan e‘tiborlari jamoaviy sport turlarini rivojlantirishga tubdan yangicha yondashishlar nafaqat sportchilarni tayyorlashda balki murabbiy shaxsini tayyorlashda ham alohida yo‘nalishlar ishlab chiqilgan. Buning yaqqol misoli sifatida Prezidentimizning beshta muhim tashabbuslarini misol qilib ko‘rsatishimiz mumkin bo‘ladi. Muhim tashabbuslarining biri sport ekanligi ham mamlakatimizda sportga qaratilayotgan e‘tiborning qanday darajada ekanligini yaqqol ko‘rsatmoqda.

Bo‘ljak murabbiylarning eng asosiy muammolaridan biri deb ko‘p muttaxislar etika madaniyatini sanab o‘tishadi. Eng avvalo etika madaniyati o‘zi nima degan savolga bo‘ljak sport murabbiylari uchun eng qiyin savollardan biri hisoblanadi. Sport mutaxislarining izlanish jarayonlarida etika masalasiga kata e‘tibor qaratish lozimligi doimo ta‘kidlab kelinadi. Murabbiy shaxsi eng avvalo sportchi yoshlarni tarbiyalash jarayonida uning yosh davrlari e‘tibor qaratishi bo‘ljak sportchilarni tayyorlashda eng avvalo etika madaniyatig aham eng muammo sifatida qarashi lozimligi doimo ta‘kidlab kelinadi. Mamlakatimizda sportning alohida davlat siyosati darajasida olib borilishi har bir olipi o‘yinlari jahon chempionatlaridan so‘ng sportchilarga yo‘naltirilayotgan moddiy e‘tibor juda kata motivasiya bo‘lib xizmat qilishi doim alohida ta‘kidlab kelinadi. Oxirgi Tokio olimpia o‘yinlaridan so‘ng nafaqat sportchilar balki ularning murabbiylariga ham moddiy qaratilgan e‘tibor ularga sportchilardan kam bo‘lmagan resurslarni jalb etish juda kata sport murabbiysiga bo‘lgan davlat miqyosidagi jarayon ekanligi muhim o‘rin tutadi.

Hozirgi zamon sport jarayonlarida murabbiy shaxsining shakllanishida nafaqat jismoniy balki yangi texnologiyalardan foydalanish ham muhim o‘rin tutadi. Olib borilayotgan barcha yangi tadqiqotlar yangi texnologiyalarda foydalanilgan holda olib borilishi ham XXI asrning texnologiyalar asri va innovatsion yondashuvni talab etishi muhim hisoblanadi. Ko‘p hollarda murabbiy etika madaniyati bo‘ljak sportchilarni tayyorlashda eng muhim omil bo‘lishi muhim vazifalardan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 31-oktabr kuni jismoniy tarbiya va sport sohasida boshqarish tizimini takomillashtirish, ommaviy sportni rivojlantirish, iqtidorli sportchilarni tanlash va tarbiyalash, sohani malakali kadrlar bilan mustahkamlash hamda zamonaviy sport inshootlarini barpo etish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilish o‘tkazildi.

Unda O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, Prezidentning Davlat maslahatchisi, tegishli vazirlik va qo‘mitalar rahbarlari ishtirok etdi.

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish ijtimoiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri etib belgilangan. Chunki sport aholi salomatligini mustahkamlash, yosh avlodni sog'lom va barkamol etib tarbiyalash orqali jamiyatda sog'lom turmush tarzini qaror toptiradi. Turli kasalliklar, yoshlar o'rtasida zararli odatlarning oldini oladi. Sport yuksak madaniyat, vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda ham muhim o'rin tutadi. Bu sohada erishilgan yutuqlar mamlakatni dunyoga tanitadi, barcha yurtdoshlarga g'urur-iftixor bag'ishlaydi.

Mustaqillik yillarida bu borada keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Aholining, ayniqsa, yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zarur sharoitlar yaratildi. Shahar va qishloqlarda zamonaviy sport komplekslari bunyod etildi. "Umid nihollari", "Barkamol avlod" va Universiada musobaqalari yoshlarni ommaviy sportga, sog'lom turmush tarziga oshno qilish vositasiga aylandi.

Iste'dodli bolalarni tanlash va professional sportchilarni tayyorlash bo'yicha uzluksiz tizim yaratildi. Umumta'lim maktablari va bolalar sport majmualaridagi mashg'ulotlarda qobiliyati ko'zga tashlangan o'g'il-qizlar bolalar va o'smirlar sport maktablari, sport kollejlariga olinib, professional yondashuvlar asosida tarbiyalanmoqda. Oliy o'quv yurtlari va o'quv-yig'in mashg'ulotlarida mahoratini oshirmoqda.

Buning natijasida mamlakatimiz sportchilari jahonning nufuzli musobaqalarida yuksak g'alabalarni qo'lga kiritib, xalqimiz salohiyatini butun dunyoga namoyon qilmoqda. Xususan, sportchilarimiz 2020-yili Tokio olimpia o'yilarida 3 ta oltin olinishi Paralimpiya o'yinlaridagi kata natijalar 8 ta oltin medal yutib olinishi ma'lum bir darajada sport murabbiylarining kata va mashaqatli etik mehnatini ko'rsatib turmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning joriy yil 15-fevraldagi «Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni mamlakatimiz sporti rivojida yangi davrni boshlab berdi. Farmonga binoan O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasi tashkil qilindi. Aholi keng qatlamini sport bilan shug'ullanishga jalb etish, jismonan sog'lom avlodni tarbiyalash, sport industriyasi va infratuzilmasini rivojlantirish, shahar va tumanlarda ommaviy sport tadbirlari va musobaqalar o'tkazish, Milliy olimpiya qo'mitasi, sport turlari bo'yicha federatsiyalar va assotsiatsiyalar bilan birgalikda iste'dodli sportchilarni tanlash, tayyorlash va mahoratini oshirish, kadrlar tayyorlash, sohaga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va xalqaro aloqalarni kengaytirish uning asosiy vazifalari etib belgilandi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Salixov.Sh. va boshq. Psychological Characteristics Of Increasing Cognitive Activity In Elementary School Students //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.
2. Salixov.Sh va boshq. Psychological Characteristics Of Increasing Cognitive Activity In Elementary School Students //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.

### **BO'LAJAK CHEMPION SPORTCHILARNI TAYYORLASHDA ULARNING TEMPERAMENTAL SIFATLARINI O'RGANISH**

**Sh. M. Salixov, BuxDU o'qituvchisi**

**T. M. Salixov, BuxDU o'qituvchisi**

*Mazkur maqolada bo'lajak sportchi chempionlarni tayyorlashda ularning individual-psixologik sifatlarini o'rganish ya'ni temperamental sifatlarini o'rganish alohida o'rin talab etadi. Eng avvalo temperament bu inson xarakter sifatlaridir, har bir sportchining kelajakda yetuk natijalarga erishishiga asosiy omil bo'lib uning xarakter sifatlari xizmat qilishi haqida ochib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Sport murabbiysi, sport faoliyati, jismoniy tarbiya, Temperament, sport psixologiyasi, sport yutuqlari. xarakter sifatlari.*

*In this article, the study of individual-psychological qualities, ie the study of temperamental qualities, requires a special place in the preparation of future athletes champions. First of all, temperament is a human character trait, and it is revealed that the character traits of each athlete will be a key factor in achieving great results in the future.*

**Keywords:** *Sports coach, sports activities, physical education, temperament, sports psychology, sports achievements. character traits.*

*В данной статье изучение индивидуально-психологических качеств, т.е. изучение качеств темперамента, требует особого места в подготовке будущих спортсменов-чемпионов. Прежде*

*всего, темперамент является чертой характера человека, и выявлено, что черты характера каждого спортсмена будут ключевым фактором в достижении высоких результатов в будущем.*

*Ключевые слова: спортивный тренер, спортивная деятельность, физическое воспитание, темперамент, спортивная психология, спортивные достижения. Черты характера.*

Odamlar o'rtasidagi individual-psixologik tafovutlarda psixikaning dinamik deb atalmish xususiyatlari muxim urin egallaydi. Eng avvalo psixik jarayonlar va holatlar intensivligi darajasi, shuningdek, ularning u yoki bu tezlikda kechishi nazarda tutiladi. Ma'lumki, odamlar xulq-atvor va faoliyat motivlari nisbatan teng bo'lganda, bir xil tashqi ta'sir etganda, bir-biridan ta'sirchanligiga va kursatayotgan energiyasiga ko'ra sezilarli darajada farq qiladilar. Jumladan, bir xil kishi sekinlikni, boshqasi shoshilishni yoqtiradi, bir xil odamlarga hissiyotlarning tez uyg'onishi xos bo'lsa, boshqasiga esa sovuqqonlik xosdir, boshqa birovni keskin imo-ishoralar, ma'noli mimika, boshqasini harakatlarda og'ir-bosiqlik, yuzining juda ham kam harakat kilishi ajratib turadi. Harakatlanish xususiyatlariga qarab farklanishlar har qanday teng sharoitlarda individning umumiy faolligi, uning harakatchanligi va uning emotsionalligiga binoan yuz beradi.

Kishining harakatlardagi o'zgarishi tabiiy ravishda ko'pincha tarbiyalangan ustanovkalar (ko'rsatmalar) va odatlarga, vaziyatning talabiga va shu kabilarga bog'liq bo'ladi. Ammo, so'z yuritilayotgan individual farqlar o'zlarining tug'ma asosiga ega bo'lishi shubhasizdir. Bu shu narsa bilan tasdiklanadiki, bunday farqlar bolaligidayok ma'lum bula boshlaydi, xulq-atvorning va faoliyatning turli sohalarida ko'rinadi va alohida barkarorligi bilan ajralib turadi.

Temperament lotin tilidagi «temperamentum» so'zidan olingan bo'lib, aralashma, qorishiq degan ma'nolarni anglatadi. Temperament tiplarining nomlari ham ana shu suyuqliklardan kelib chiqqan. Masalan, xolerik grekcha «xole» so'zidan olingan bo'lib, o't yoki safro, sangvinik «sandus» so'zidan olingan bo'lib, qon demakdir; melanxolik grekcha «melanxole» so'zidan olingan bo'lib, qora o't demakdir; flegmatik grekcha «plegma» so'zidan olingan bo'lib, balg'am, shilimshiq modda demakdir.

Yuqoridagi suyuqliklarning har biri o'z xususiyatiga ega bo'lib, harbirining o'z vazifasi, o'z ishi bor. Chunonchi, o'tning xususiyati quruqlikdir. Uning ishi – organizmdagi quruqlikni saqlab turish – badanni quruq to'tishdir. Qonning xususiyati issiqlik bo'lib, ishi organizmni isitib turishdir. Qora o'tning xususiyati namlik bo'lib, ishi badanning namligini tutib turishdir. Balg'amning xususiyati suyuqlik bo'lib, ishi badanni sovutib turishdir.

Gippokratning temperament va uning tiplariga oid ta'limoti qadiimgi zamonlardan bizning davrimizgacha saqlanib kelayotgan bo'lsa ham hech qanday ilmiy asosga ega emas.

Temperament va uning tiplari haqidagi mukammal ilmiy nazariyani mashhur rus psixologi, akdaemik I.P.Pavlov yaratgan va bu sohada «Nerv sistemasining tiplari» nomli ta'limotini kashf etdi. I.P.Pavlov asab sistemasining kuchli, muvozanatsiz, sust (xolerik temperamentga asos bo'lgan), kuchli, muvozanatli, epchil (sangvinik), kuchsiz (melanxolik), kuchli, muvozanatli, sust (flegmatik) kabi to'rtta umumiy tipini aniqladi.

Asab sistemasining ko'chi qo'zg'alish jarayoniga ham, tormozlanish jarayoniga ham taalluqli bo'lib, kuchliqo'zg'ovchilarg bardosh bera olish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Xuddi shuning singari asab sistemasidagi muvozanat asab sistemasining qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarining kuch darajasini baravar tutib tura bilishda ko'rinadi. Qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlari baravar darajada kuchli yoki kuchsiz bo'lganda, asab sistemasida muvozanat bo'ladi. Agar qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlaridan biri kuchliroq yoki kuchsizroq bo'lsa, asab sistemasida muvozanat bo'lmaydi.

Favqulodda temperamentning bir xil xususiyatlari, motiv, psixik holat va hodisalardan farqli o'laroq, ayian shu shaxsning o'zida, uning turli faoliyatlarida, xatti-harakatlarida, muomalasida ifodalanadi.

Temperament xususiyatlari deganda, alohida bir shaxsning psixik faoliyati dinamikasini belgilovchi psixikaning barqaror, o'zgarmas individual-tipologik xususiyatlari majmuasi tushuniladi. Mazkur xususiyatlar turli shakl va mazmunga ega bo'lgan motivlarda, psixik holatlarda, maqsadlarda, faoliyatlardan isbatan o'zgarmovchi, temperament tipini tavsiflovchi tuzilmani tashkil qiladi.

Shunday qilib, shaxsdagi hatti-harakatlarning, imo-ishoralarning aniq va ravshanligi, hissiy holatlarning qo'zg'alish ko'chi, barqaror va beqarorligida namoyon bo'ladigan individual sifat temperament yoki mijoz, deb aytiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

3. Salixov.Sh. va boshq. Psychological Characteristics Of Increasing Cognitive Activity In Elementary School Students //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.

## **BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING KREATIV FIKRLASH QOBILYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI**

**A. F. Qosimova, TDPU magistranti**

*Ushbu tezisdagi boshlang'ich sinif ona tili darslarida o'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning nazariy asoslari, usul va metodlari haqida yoritib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich sinf, ona tili darsi, kreativlik, qobiliyat, metodologiya, ijodiy fikrlash.

*В диссертации описаны теоретические основы, методы и приемы развития навыков творческого мышления учащихся на уроках родного языка в начальных классах.*

**Ключевые слова:** начальная школа, урок родного языка, творчество, умение, методика, творческое мышление.

*This thesis describes the theoretical foundations, methods and techniques for developing students' creative thinking skills in primary school mother tongue classes.*

**Keywords:** elementary school, mother tongue lesson, creativity, ability, methodology, creative thinking.

Bugungi kunda butun dunyoda yuz berayotgan yangi bosqichdagi yuksak rivojlanishning asosini tashkil etayotgan kuch- kreativlikdir. Hayotimizdagi bu kabi ozgarishlar ichida, albatta, ta'lim sohasiga kreativ yondashish va rivojlanish e'tiborli jihatlaridan biri hisoblanadi. Ta'limni isloh qilish va rivojlantirishga qaratilgan Davlat Talim Standarti, o'quv jarayonini tashkil qilishga doir huquqiy normalar, hukumat qarorlarining negizida yosh avlodni erkin va mustaqil, ijodiy fikrlaydigan, keng dunyoqarashli inson qilib tarbiyalash asosiy vazifa sifatida qaralmoqda. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida umumiy dunyoqarashni belgilab beruvchi faol hayotiy pozitsiya ko'nikmasi yetarli darajada shakllantirilmasa, bugungi kun talablariga va ehtiyojlariga mos keladigan kadrlar tayyorlashda qiyinchiliklarga duch kelish mumkin.

O'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosda obro'-e'tiborini tubdan oshirish, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, ijodkorlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to'laqonli joriy etishni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son farmoni ishlab chiqildi. Farmonga muvofiq ta'lim muassasalarida o'quvchilarning o'z ona tiliga bo'lgan e'tiborlari, bilimlari, bu bilimlarini ijodkorlik bilan ifodalay olishlari kerakli to'g'risidagi fikrlar joy olgan,<sup>1</sup>

XXI –asr ta'lim-tarbiyasi o'qituvchining yuqori darajadagi bilimlari, malakalari, ko'nikmalari, shaxsiy sifatleri bilan bog'liq. Bugungi globallashtirish jarayonlarining o'ziga xosligi ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchining intellektual qobiliyatlarini o'stirish orqali unda mavjud bo'lgan axborot oqimini qabul qilish, tushunish, fikrlash va qayta ishlash bilan bog'liq bo'lgan ijodkorlik ko'nikmalarini yanada rivojlantirishga yanada ko'proq e'tibor berish kerak ekanligini ko'rsatmoqda.

Kreativlik lotincha “create” so'zidan olingan bo'lib, “yaratish, yaratuvchi, ijodkor” kabi ma'nolarni anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, o'quvchilarning yangi g'oyalarni yarata olishi hamda mustaqil ijodkorlik qobiliyatlarini namoyon eta olishini ifodalaydi. Kreativlik psixologiyasining asoschisi Dj. Gilfordning fikricha, shaxsning ijodkorligi ko'proq uning intellektual salohiyati va aqliy qobiliyatlari bilan o'zaro bog'liq bo'lib, bu xususiyatlar asosan ta'lim va tarbiya jarayonida shakllanadi va rivojlanadi. Bundan kelib chiqadiki, boshlang'ich sinflar ta'lim-tarbiya jarayoni o'quvchidagi kreativlikning shakllanishi uchun asosiy zaminni hozirlar ekanki, ushbu jarayonni tashkil etishga nisbatan o'ziga xos innovatsion yondashuvni talab qiladi.

Eng avvalo, shaxsda kreativlik (ijodkorlik) sifatlarini rivojlantirish tushunchasining ma'nosini tushunib olish talab etiladi. Ijodkorlik qobiliyatiga ta'sir ko'rsatadi va o'z navbatida ichki sezgi xususiyatlarini rivojlantiradi. Ushbu ijodkorlik qobiliyati ichki sezgilar va umumiy intellekt kesishganda ijod mahsulini yaratadi. Bu borada mutafakkir Abu Ali ibn Sino qarashlarida ham kreativlikni talqin etishimiz mumkin. Uning qarashlarida o'qituvchi o'z o'quvchilarining mayl, intilish, faolligi, qobiliyati, iste'dodi va layoqatini aniqlamasdan turib, uni ijodiy fikrlashga yo'naltira olmaydi degan.

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarni kreativ va mustaqil ijodiy fikrlashga yo'naltirish, ularning ongida ma'naviy-ma'rifiy hamda ilmiy jihatdan tub o'zgarishlar hosil qila olishimiz

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son farmoni.

kerak bo'ldi. Buni amalga oshirish uchun zamonaviy texnologiya qurilmalari, multimedia hamda visual vositalardan foydalanib olib boriladigan darslar reytingini yanada ko'tarish, bunday samarali usullarni respublikamizning chekka hududlariga qadar yetib borishini ta'minlashimiz kerak. Boshlang'ich sinflarda o'tilayotgan ona tili darslarida darslikda berilgan har bir grammatik qoidani ko'r-ko'rona yodlatishdan voz kechish, o'quvchilarning mustaqil ijodiy tafakkurini shakllantirish, dars va mashg'ulotlarda o'quvchilarning erkin nutqiy malakasini yuzaga keltirishni maqsad qilib olish zarur. Boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limining bosh maqsadi yosh o'quvchilarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ushbu fikrlar mahsulini nutqiy sharoitga mos kelgan holda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri va ravon ifodalay olish va bu xususiyatni rivojlantirishga qaratilishi lozim.

Kreativ fikrlashni shakllantirishda o'qituvchi o'quv faoliyatining eng faol va asosiy tashkilotchisi bo'lib, o'quvchi ushbu uzluksiz faoliyatning sub'yekti sifatida namoyon bo'ldi. Bunda o'qitishning maqsad va vazifalari, uning vazifasi va kutilayotgan natijalari bevosita ta'lim oluvchining individual imkoniyatlari doirasida belgilanadi va shunga moslashadi. Metodikaga oid kitob va qo'llanmalarda boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlashni shakllantirishning eng muhim vositalaridan biri bu-interfaol o'qitish metodlari ekanligiga oid fikrlar mavjud. Xususan, "Keys-stadi", "Sinkveyn", "Charxpalak", "Klaster", "Qora quti", "Aqliy hujum" va shu kabi metodlarni o'quvchilardan axborot o'zlashtirish jarayonidagi faolliklarini, ijodkorlik qobiliyatlarini, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantiribgina qolmay, o'zlashtirish metodlarining to'laqonli amalga oshirishiga yordam beradi. Ona tili mashg'ulotlari bosqichli ketma-ketlik, shakl bilan mazun aloqadorligi, tilshunoslik bo'limlarining o'zaro zich bog'liqligi asosida quriladi. Boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning ona tili ta'lim sohasi bo'yicha tayyorgalik darajasiga qo'yiladigan minimal talablar quyidagi uch parametrik standart o'lchovlar orqali aks ettiriladi.

-o'qish texnikasi;

-o'zgaralar fikrini va matn mazmunini anglash;

-fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi.

Ijodiy fikrlashni rivojlantirish shartlari:

-tanqidiy fikrlash;

-sifatni tahlil qilish qobiliyati;

-tendensial munosabatlarni shakllantirish qobiliyati, voqealarning mumkin bo'lgan rivojlanishini tushunish;

-mantiqiy zanjir yaratish qobiliyati, yangi g'ayrioddiy g'oyalarni taqdim etish;

-an'anaviy sxemalar, qarorlar, harakatlar bilan chegaralanib qolmaslik;

-muammoli vaziyatlarni tezda hal qilish;

-yetarli yechimni tanlash;

-muammoga tinch yondoshish.

Ushbu mavzuni o'rganish va kuzatishlar natijasida shu xulosaga keldikki, boshlang'ich sinf o'quvchilarning fikrlash va hayot dunyosi cheksiz. Bu xususiyatni yanada rivojlantirgan holda ilmiy sohaning turli yo'nalishlarida yanada katta yutuqlarga erishish mumkin. Faqat ushbu jihatni to'g'ri va kerakli yo'lga keltirish, ularning ijodkorlik qobiliyatlarini ona tili darslarida mavzular bilan uzviy bog'liq holatda yo'naltirish maqsadga muvofiq bolar edi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat Ta'lim Standarti. 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son qarori.
3. Qosimova K., Matchonov S., Yo'ldosheva Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. T.: "Noshir", 2009
4. Yo'ldoshev J., Yo'ldosheva F., Yo'ldosheva G. Interfaol ta'lim-sifat kafolati. -T., 2008
5. Yo'ldoshev J.G., Hasanov S. Zamonaviy pedagogik texnologiya asoslari. -T.: "Iqtisod-moliya", 2009.-
6. Ikromova R., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Shodmonqulova D., 4-sinf ona tili darsligi.- "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. -T., 2013

#### **BOSHLANG'ICH SINFLARDA TURLI FANLARNING INTEGRATSIYALASHUVI**

**D.A.G'aybulloyeva, BuxDU magistranti**

*Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarida turli fanlarning ona tili, o'qish, tabiiy fan va boshqa fanlarning o'zaro integratsiyani qo'llash orqali yuqori natijalarga erishish hamda zamonaviy bilimlarning mustaxkam poydevor bo'lishiga asos bo'lib xizmat qiladi.*

**Kalit so'zlar.** *Integrativ, fanlararo, aloqa, qovushmagan, didaktik, muvofiq, izlanish.*

Zamonaviy bilimlarning har bir bo'limini qamrab oluvchi bir qator fanlar asosida tuziladi. Ular qatoriga pedagogika, tabiatshunoslik, matematika, pedagogik texnologiya, pedagogik psixologiya, ona tili, o'qish, tabiiy fan, inson yoshi psixologiyasi, fan rivojlanishi jarayonini o'rganuvchi pedagogik psixologiya kabi fanlarni kiritish mumkin.

Inson hayotining turli jarayonlarida ilmiy yo'nalish bo'lgan tizimlarning aloqalarini o'rganuvchi sinergetikaning qo'llanilishi. Bu sinfdagi integrativ kurslarning mazmuni shu fanlar ma'nosi va strukturasi asosida tuziladi.

Nazariyalar orasida integrativ kurs yaratish uchun asos bo'lib tabiiy-ilmiy nazariyalar xizmat qiladi. Shunisi e'tiborga loyiqlik, bu asosda integrativ kurslar yaratishga urinishlar ko'p bo'lgan bo'lsa ham, ular qovushmaganligi va ma'lum ketma-ketlikka, didaktik maqsadga ega emasligi bilan ajralib turadi.

Bugungi kunda mavzular integrativ mazmunga ega va tatbiq etishga katta imkoniyatlari bor, afsuski, bunday kurslar maktab faoliyatida qo'llaniluvchi material va o'qitish uslubining murakkabligi tufayli hali keng tarqalgani yo'q.

Tabiiy fanlar asosini o'rganishda o'quvchilar kitob bilan ishlash, kuzatishlar olib borish, tajribalar o'tkazish, olingan bilimlarni bir tizimga solish turli o'quv-ta'lim ish faoliyati bilan to'qnashadi. O'quvchilarni faoliyatning bir turi bilan tanishtiruvchi bir butun kurs yaratish maqsadga muvofiqdek ko'rinadi. U o'qitish jarayonining har bir vaqtida foydali bo'lishi mumkin va kichik hajmda ham tabiiy fanlarni o'qitishda, o'quvchilarning ortiqcha kuch sarf qilishlari muammosini hal qilishda, mustaqil bilim olish ko'nikmalarini rivojlantirishda yordam beradi.

Bu sinfdagi integrativ kurslarni yaratish va ularni o'quv jarayoniga tatbiq qilish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. Tabiiy fanlarni o'zlashtirishni tekshirishlar natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek o'quvchilari chet ellik tengdoshlarga nisbatan ko'p ma'lumot o'zlashtirishsa ham, uni tatbiq qilishda sezilarli darajada orqada qolishadi.

Ko'pchilik bunga sabab, asosiy ko'nikmalarning moslashtirilmaganida deb biladi. Balki, uzoq vaqt davomida an'anaviy maktabda integrativ darslarga e'tibor berilmaganidadir?

Bu yerda bugungi kungacha yaratilgan integrativ kurslarning asosiy sinflari sanab o'tildi. Lekin o'quv fanlarini integratsiyasi jarayonida qator kamchiliklar ham bo'lishi mumkin.

*Birinchiidan.* Aytib o'tilgan tabiiy integrativ kurslarni tuzish yo'llari ko'pincha bir-birini takrorlaydi va birga qo'llaniladi, bu bilan yangi asoslar yaratilib, ularni tartibga keltirish, ilmiy asos yaratish qiyinlashadi.

*Ikkinchiidan.* Integrativ kurslar fanlararo aloqaning o'mini bosa olmaydi. Bizning fikrimizcha, ular bu aloqaning tashkil etuvchilaridan biri.

*Uchinchiidan.* Tabiiy ilmiy ta'limning qulay tuzilishi shundaki, integrativ kurslar o'quv rejasining o'zgaruvchan qismiga kirib, uning regional tashkil etuvchisi hisoblanadi.

*To'rtinchiidan.* To'liq o'quv-metodik qo'llanmalarining yo'qligi integrativ kurslarning o'quv jarayoniga tatbiq etilishida qiyinchiliklar tug'diradi. Ularning mualliflari dastur tuzib, umumiy metodik ko'rsatmalar tuzishgandan so'ng to'xtab qolishadi.

*Beshinchiidan.* Integrativ kurslar uchun o'qituvchilarni rejali va maqsadga muvofiq tayyorlash tizimi hali takomillashgani yo'q.

Hozirgi vaqtda pedagogik amaliyotda fanlararo bog'lanish asosida ta'lim jarayoni integratsiya yo'llarida izlanishlar davom etmoqda. Olib borilayotgan ishning foydaliligini tan olgan holda uning xarakterini belgilab o'tamiz. Bunday tarbiyaviy ish katta samaraga ega. Mazmun va ta'lim maqsadi integratsiyasi bo'yicha masala faqat ta'lim falsafasi asosida yechish mumkin. Metodologik apparat asosidagi ta'lim falsafasi boshida fanning ideal shakllari, universal toifalari turishi kerak.

Integratsiya rusum ham, navbatdagi kompaniya ham emas. U shunday ananalar aksiki, ular bugun inson faoliyatining barcha sohalarini ta'riflab beradi. Bu faoliyat kengliklari o'zgardi, davrning dolzarb muammolari tug'ildi. Ular tabiat va inson yagona tizim va bog'liqlikda mavjudligini yodga solib, inson yashashi uchun ilmiy asoslangan foydalanishning tashkilini talab qiladilar. Zamonaviy tabiatshunoslik va texnikaning insonparvarligini, odamzod faoliyatining barcha turlarini o'z ichiga olgan bu fanlar metodologiyasidagi o'zgarishlar bilan bog'lash kerak.

Fanni anglash jarayonida ijtimoiy insonparvarlik, tabiiy-ilmiy, texnik bilim metodologiyalari o'zaro bog'lanishda ko'rinadi. Aynan integratsiya asosida tabiiy fanlar biolam ko'rsatmalaridagi, inson faoliyatini o'rganishdagi, davrning dolzarb muammolarini yechishda ko'rinadi. Boshlang'ich ta'limda barcha fanlarni integratsiyalash orqali ta'lim sifatini yanada oshirish mumkin. Chunki darsliklarimiz milliy dastur asosida siperalsimon qilib tuzilyapti. Biz darsni shunday tashkil qilishimiz kerakki,

o'quvchi olgan bilimlarini hayotda qo'llay olsin. Bizning asosiy maqsadimiz o'quvchi ijtimoiy hayotda o'z o'rniga ega shaxs sifatida shakllantirishdan iborat.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Ш.К. Амоношвили. Каждому ребёнку – индивидуальный подход. Воспитание основы.(Начальная школа,1991).
2. Л.Н Бухарева. Интеграция учебных занятий в начальной школе на краеведческой основе. (Начальная школа,1991, № 8).
3. R.A Mavlonova va boshq. «Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi». T., TDPU, 2007.

### **BOSHLANG'ICH SINFLARNING TEXNOLOGIYA DARSLARIDA SXEMA VA CHIZMALARDAN FOYDALANISH METODLARI**

**X. A. Qulmamatova, TerDU tayanch doktoranti**

*Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga texnologik operatsiyalarni bajarish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishda sxema va chizmalardan foydalanishning o'rni va ahamiyati o'rganilgan. Shuningdek, texnologik operatsiyalarni bajarish jarayoni misolida sxema va chizmalardan o'rinli foydalanganda o'quvchi ko'nikma va malakalarini rivojlantirish mumkinligi korsatib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** *texnologiya, sxema, chizma, fikrlash, qobiliyat, didaktika, gazlama.*

*В данной статье исследуется роль и значение использования схем и схем в формировании у учащихся начальных классов умений и навыков выполнения технологических операций. На примере процесса выполнения технологических операций также показано, что развивать умения и навыки школьника можно при соответствующем использовании схем и рисунков.*

**Ключевые слова:** *технология, схема, рисунок, мышление, умение, дидактика, ткань*

*This article explores the role and importance of using diagrams and charts in developing elementary school students' skills and competencies in performing technological operations. The example of the process of performing technological operations also shows that it is possible to develop the skills and abilities of the student with the appropriate use of schemes and drawings.*

**Keywords:** *technology, scheme, drawing, thinking, ability, didactics, fabric*

Respublikamizning umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'quvchilariga texnologiya fanidan darslar ilg'or texnologiyalarni qo'llagan holda o'qitiladi. O'quvchilarda ilk yoshligidan boshlab ona tabiatga qiziqishni, undagi go'zalliklarni ko'ra bilishni, turli xildagi buyumlarni tayyorlash jarayonini o'rgatish orqali bilimlar berishda konikma va malakalarni shakllantirib, fanlarni o'qitishda pedagogikaning didaktika usullaridan foydalanib ta'lim-tarbiya berilmoqda. Gazlama materiallarining turlarini o'rganish hamda ular bilan ishlashni amalda bajarishda tabiatdagi hayvonot olami, o'simliklarni, uy-ro'zg'or anjomlarini har xil turlarini kuzatish, tayyorlash bosqichlarini o'rganishga majbur qiladi. Kuzatishlar, amaliy va mustaqil ta'lim mashg'ulotlari esa badiiy ijodiy qobiliyatlarni, konstruktorlik, loyihalash g'oyalarini, tushunchalarning aniqligini uyg'otadi.

Texnologiya fanining tikish darslarida beriladigan bilim va konikmalar bolalarning bilim doiralarini kengaytirish bilan birgalikda ularning tafakkurini ham rivojlantirib boradi. Bolalarni tasavvurlarini insoniyat hayotida muhim o'rinni egallovchi hamda keng tarqalgan tabiiy va suniiy gazlama materiallari va ularning xususiyatlari, sanoatning gazlama va tolali materiallar ishlab chiqaruvchi tarmoqlari, materiallardan texnika va insonning madaniy hamda maishiy ehtiyojlarini qondiruvchi ishlab chiqarish kabilar bilan boyitadi. Texnologiya fanining amaliy mashg'ulotlari jarayonida o'quvchilar turli asboblardan hamda moslamalar, asosan qaychi, igna va o'lchov asboblari bilan ishlash malakalarini egallaydilar. Ular bu asbob va moslamalarning har xil turlari bilan tanishadilar.

Texnologiya darslarida gazlama bilan ishlaganda o'quvchilarni mehnat qilish madaniyati, o'z ishini rejalashtirish hamda mustaqil ishlashni tashkil etish ko'nikmasi rivojlanadi va takomillashadi. O'quvchilarning didlari jiddiy o'sadi, qobiliyatlari, fikrlashi va taassavurlari shakllanadi. Gazlama, ip va boshqa materiallarni bir-biriga moslab tanlash, o'quvchilarni ranglarni birikishi, gazmol va ipning rangi bir-biriga muvofiq kelishiga e'tibor berishga o'rgatadi.

O'qituvchi o'quv materiallarini darsda o'quvchilarga zamonaviy metodlar asosida ta'lim berish bilan ularning bilim, ko'nikmalarni shakllantirish orqali amaliy ishlar bilan birikib ketadigan qilib sxema va chizmalardan unumli foydalanib darslarni tashkil etishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. O'qituvchi darsda ta'limning innovatsion texnologiyalarini qo'llagan holda o'quvchilarning faolliklarini, aqliy

qobiliyatlarini o'rtiradigan, chizmalarni sodda turlarini chizishni o'rgatishida metod va usullardan samarali foydalanishi lozim.

Boshlang'ich sinflarning o'quvchilariga texnologiya fanidan o'tiladigan fan darsligidagi gazlamalardan buyumlarni bichish va tikishning dastlabki turlarini o'rganish uchun mavzularda berilgan ma'lumotlarni tahlil qilinganda bir nechta kamchiliklarni kuzatish mumkin. Masalan: Texnologiya fanining 3-sinflari uchun darslikda berilgan "Chovgun ushlagich tikish" va "Yumshoq o'yinchoq tikish" mavzularida quyidagi kamchiliklarni kuzatish mumkin. Jumladan:

1. Gazmolning tuzilishi, ulardagi iplarning to'qilishi haqidagi ilk ma'lumotlar to'liq berilmagan;
2. Mavzuda ko'rsatilgan buyumlarning chizmalarida aniq o'lchamlar yozilmagan;
3. Tikish va bichishda texnika xavfsizlik qoidalri va ishlatiladigan asosiy asboblarni hamda moslamalar (chizgich, bo'r, serkul, nina, qaychi, angishvona, to'g'nog'ich) va ularni saqlashning asosiy qoidalari bilan tanishtirilmagan va hokazolar;

Boshlang'ich sinflarning 1-4-sinflar o'quvchilari gazlamalarga ishlov berishda qo'yidagi ko'nikma, bilim va malakalarni egallab olishlari kerak:

1. Gazmol haqidagi umumiy tushunchalar bilan tanitirish. O'simlik (paxta, zig'ir)dan tayyorlanadigan gazmollar haqida dastlabki ma'lumotlar beriladi. Gazmolning tuzilishi, ulardagi iplarning to'qilishi haqidagi ilk sxemalar ma'lumotlari beriladi.

2. Gazmollar asosan nimalarga mo'ljallanganligi bilan tanishtirish: kiyim-kechak, turmush narsalarga va shu kabilar.

3. Ishlatilishi (tikish, yamash, to'qish iplari) va yo'g'on-ingichkaligiga ko'ra farqlanadigan iplar bilan tanishtirish.

4. Tikish va to'qishda ishlatiladigan asosiy asboblarni hamda moslamalar (nina, qaychi, angishvona, to'g'nog'ich) va ularni saqlashning asosiy qoidalari bilan tanishtirish.

5. Sanchiluvchan asbob va moslamalarni ishlatganda xavfsizlik texnikasi qoidalari bilan tanishtirish. Tikish vaqtida to'g'ri o'tirish qoidalari, gigiena talablarini eslatish.

6. O'qituvchi buyumlarni andozalarini tayyorlashda aniq o'lchamlari ko'rsatilgan ko'rgazmali chizmalardan va sxemalardan samarali foydalanish.

7. Kerakli uzunlikdagi ipni o'lchash, uni qirqish yo'llari bilan tanishtirish (ularni tishlab, totib uzishga yo'l qo'yimaslik), lentani o'lchash va qirqish.

8. Ip va to'laga ishlov berish usullaridan biri bilan tanishtirish.

9. Yug'on ip va toladan to'qishga o'rgatishda sxema va chizmalardan foydalanish.

10. Ninaga ip o'tkazish, tugun solish, ipni mustahkamlashni o'rgatish.

11. "Baxya", "chok" (biriktiruvchi va bezovchi) tushunchalari bilan tushuntirish va tikish usullarini chizmalar yordamida o'rgatish.

12. Oddiy andozalar tayyorlash. O'qituvchi buyumlarning chizmasiga muvofiq to'g'ri burchak shaklidagi andozalar tayyorlashda ma'lum o'lchamlarni belgilash.

13. Gazlamani andozaga ko'ra chamalash.

14. Gazlamani qaychi bilan qirqish usullarini tanishtirish va qirqib ko'rsatish.

15. Gazlamani qalam yoki bo'r bilan belgilangan to'g'ri yoki egri chiziq bo'ylab qaychida qirqishni o'rgatish.

16. Gazlamadan narsalar tikishni o'rgatishda sxema va chizmalardan unumli foydalanish.

17. Tugma qadash usullarini sxema asosida o'rgatish.

18. Chizma va sxemalar asosida mustaqil ishlarni bajarishni o'rgatish.

Xulosa qilib aytganimizda texnologiya fanining amaliy mashg'ulotlarida, mustaqil ishlarni bajarishlarida o'quvchilarga sxema va chizmalardan samarali foydalanishni va chizish usullarini to'liq o'rgatishimiz lozim. Bunda fan o'qituvchisiga yetarlicha bilim, malaka va tajriba shakllangan bolishi muhim hisoblanadi. Chunki dunyoning rivojlangan davlatlaridan: Germaniya, Finlandiya, AQSH va boshqa mamlakatlarning ilg'or tajribalarini o'rganganimizda ularning ta'lim tizimidagi metodlar maktab o'quvchilariga boshlang'ich sinfidan shakllantirib boriladi. Bunda o'quvchilar fanlarning kelgusi mavzularini qiyinchiliklarsiz o'zlashtirib, ulardagi bilim, ko'nikma, malakalar va qobiliyatlari yanada tez mustahkamlanib borgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. R.A.Mavlonova, X.R.Sanaqulov, D.P.Xodiyeva "Mehnat va uni o'qitish metodikasi" O'quv qo'llanma. 2007-yil TDPU.

2. X.R.Sanaqulov, D.P.Xodiyeva, M.T.Satbayeva. "Mehnat va uni o'qitish metodikasi". Toshkent: "Ilm - Ziyo nashriyot uyi", 2015 yil.

3. R.A. Mavlonova, M.T. Satbayeva. Mehnat o'qitish metodikasi. «Mehnat faoliyatini va darslarini tashkil etish bo'yicha o'qitish metodikasi» (ikkinchi nashr). Toshkent: «Noshir», 2013 yil.
4. X.R.Sanaqulov, D.P.Xodiyeva, A.X.Sanaqulova “Mehnat ta’limi” 3-sinf darsligi Toshkent: “Sharq” 2016 yil
5. I.Rahimov “Chizmalarni chizish va o’qish” Toshkent: ”O’qituvchi” O`quv qo`llanma.1992yil.
6. B.B.Imanov “УРОК КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВО ОБРАЗОВАНИЯ”. SCIENCE AND WORLD. International stsentifits journal. Volgograd, 2020 yil.
7. B.Imanov “Spetsifitsity Of Student Greateive Atstivity”. The Ameritsan Journal of Sotsial Stsientse and Edutsation Innovations. Published: Otstober 29, 2020 yil.
8. X.A.Qulmamatova “Texnologiya darslarida sxemalardan foydalanishning forma va metodlari”. ARES academic research in educational sciences, Scientific Journal Impact Factor. 2021/5. 978-bet.

## **BOSHLANG‘ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA FONETIK MASHQLARNI O‘QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI**

**D. U. Yo‘ldashova,**  
**Nizomiy nomidagi TDPU magistranti**

*Ushbu tezis boshlang‘ich sinflarda fonetik mashqlarni o‘rgatishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish va hozirgi kunda innovatsion texnologiyalarning ta’lim sohasida muhim ahamiyat kasb qilishiga bag‘ishlangan.*

**Kalit so‘zlar.** *Fonetik mashqlar, innovatsion texnologiya, eksperimental, logik, urg‘u, nutq, multimediy.*

*В данной диссертации основное внимание уделяется использованию инновационных технологий при обучении фонетическим упражнениям в начальных классах и важности инновационных технологий в современном образовании*

**Ключевые слова:** *Фонетические упражнения, инновационная технология, экспериментальная, логическая, ударение, речь, мультимедиа.*

*This thesis focuses on the use of innovative technologies in the teaching of phonetic exercises in the primary grades and the importance of innovative technologies in education today.*

**Key words:** *Phonetic exercises, innovative technology, experimental, logical, emphasis, speech, multimedia.*

Hozirgi , XXI asr texnologiyalar asrida, ona tilini rivojlantirishga katta e’tibor qaratilib, maktablarda, ta’lim muassasalarida ona tilini o‘qitishda turli innovatsion texnologiyalardan foydalanish ustuvorlik kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 23-yil sentabrdagi Ta’lim to‘g‘risidagi qonunda aytib o‘tganlaridiki” Ta’lim sohasidagi eksperimental va innovatsion faoliyat ta’limni modernizatsiya qilish maqsadida amalga oshiriladi hamda yangi ta’lim texnologiyalari va resurslarini ishlab chiqishga, ularni sinovdan o‘tkazishga hamda ta’lim jarayoniga joriy etishga qaratadi. Ta’lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari innovatsion o‘quv dasturlari va loyihalarini amalga oshirish hamda ularning natijalarini amaliyotga joriy etish uchun o‘z vakolatlari doirasida shart-sharoitlar yaratadi.”

Innovatsion ta’lim texnologiyasi - bu o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish va ta’lim faoliyatini uchun eng yaxshi shart sharoitlarni yaratish uchun mavjud usullar va vositalarni yangi yoki sifat jihatidan yaxshilashni o‘z ichiga olgan o‘quv va ta’lim faoliyatini tashkil etish metodologiyasi boshqa tomondan jamiyatning rivojlanishining hozirgi tendentsiyasi demakdir. Ijtimoiy-iqtisodiy sharoit o‘rta umumta’lim maktablarida ona tilini o‘qitish oldiga butunlay yangi vazifalarni qo‘yadi. Maktabni bitirib chiqqan yoshlar ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotning turli jabhalarida, muloqot va munosabatlarning barcha turlarida o‘zbek tilidan bemalol, erkin, samarali va to‘g‘ri foydalanib, uning boy imkoniyatlaridan to‘laqonli bahramand bo‘la olishlari lozim. O‘z o‘zdan kelib chiqadiki boshlangich sinf ona tili darslarida innavatsion texnologiyalarning o‘rni beqiyos. Hozirgi kunda innavatsion texnologiyalar, barcha sohalar qatori ta’lim tizimiga ham jadallik bilan kirib kelmoqda. Shuningdek, axboratlashtirilgan multimediyali ta’lim texnologiyalarini boshlang‘ich ta’limga joriy etish orqali o‘tiladigan fanlar mazmunini o‘quvchilar ongiga to‘liq va mukammal tarzda singdirish va innavatsion texnologiyalar bilan tanishtirish muhim ahamiyatga ega. Zero tilga e’tibor elga e’tibor.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqni egallashlarida fonetikadan olgan bilimlarining ahamiyati katta, fonetik bilimga asoslangan holda o'quvchilari savod o'rganish davrida o'qishni va yozishni bilib oladilar. Fonetik bilim so'zni to'g'ri talaffuz qilish, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, urg'uli bo'g'inni farqlash, orfoepik me'yorga rioya qilish asosini tashkil etadi. Fonetik bilim morfologik va so'z yasashga oid bilimlar bilan birga o'quvchilarda qator imloviy malakalar, jarangsiz va jarangli undoshlarning yozilishi, shakllantirish uchun zamin bo'ladi. Bundan tashqari gapni ohangiga ko'ra to'g'ri aytish, logik urg'u va gap qurilishidagi to'xtamlarga rioya qilish, so'zning tovush tomonini bilish uning ma'nosini tushunish va nutqda ongli qo'llash uchun muhim hisoblanadi. Fonetik mashqlar o'quvchilarning erkin fikrlashga, nutqini ravon bo'lishiga, mustaqil tarzda yangi g'oyalar ishlab chiqishiga zamin yaratadi. So'zning tovush tomonini tasavvur qilish so'zlarni talaffuzda farqlash, ayrim so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish va qo'llash uchun zarur. Bundan kelib chiqadiki fonetik mashqlar o'quvchilarning nutqini ravon, tekis bo'lishiga, ongini rivojlanishida, mustaqil fikrlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsion texnologiyalar ya'ni televizor, maginitafon, proyektor audio eshitish qurilmalari bilan tashkil qilingan dars samaradorligi yuqori darajada bo'ladi.

O'qituvchi innovatsion faoliyatining markaziy masalasi o'quv jarayonini samarali tashkil etishdan iborat. Darslar tushuntirish so'z orqali olib borilsa, o'zlashtirish 10 foizni eshtish, ko'rish namoyishlar orqali tashkil qilish orqali dars samaradorligi 50 foizni tashkil qiladi. Bundan kelib chiqadiki darslarni innovatsion texnologiyalar bilan tashkil qilish har tomonlama mavzuni chuqur o'zlashtirishini, o'quvchilarning darslarda faol ishtirokini taminlaydi. Har bir o'qituvchi o'z oquvchisini dars jarayonida faollashtira olsa, bolaning o'qish, o'zlashtirish, bilim, ko'nikma, malakalarni egallash darajasi yuqori ko'rsatkichlarni tashkil etadi.

Demak, innovatsion texnologiyalardan foydalanib o'qitishni joriy etish mavzuni idrok etish va qayta ishlash jarayonini juda xilma-xil qiladi. Kompyuter, Internet va multimedia vositalari tufayli o'quvchilarga katta hajmdagi ma'lumotlarni keyinchalik tahlil qilish va saralash bilan o'zlashtirish uchun noyob imkoniyat beriladi. O'quv faoliyatining motivatsion asoslari ham sezilarli darajada kengayadi va o'quvchilarni mustaqil fikrlash qobiliyatlarini oshiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2020-yildagi 23-sentabrdagi ta'lim to'g'risidagi qonun.
2. Karima Qosimova, Safo Matchonov, Xolida G'ulomova, Sharofat Yo'ldosheva, Sharoljon Sariyev "Ona tili oqitish metodikasi" Toshkent NOSIR nashriyoti 2009
3. "Uzluksiz ta'lim sifat va samaradorligini oshirishning nazariy uslubiy muamolari" Ilmiy konferensiya materiallari Samarqand.SamDu nashri.

## **БОШЛАНГИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИ МУСТАҚИЛ ФИКРЛАШГА ЎРГАТИШ УСУЛЛАРИ**

**А. Нисанбаева, п.ф.н., профессор**

**А. Чиналиева, ТДПУ ўқитувчи**

Таълим-тарбия тизимини тубдан ўзгартиришТ, баркамол инсонни шакллантириш эртанги тақдиримизни белгилаб берувчи долзарб масалалардан бирига айланди.

Ижтимоий-сиёсий, маданий ва маънавий юксакликка доир ислохотлар амалга оширилаётган Ўзбекистон шароитида мустақил фикрловчи ёшларга эҳтиёжнинг ошиши давр талабидир.

Ҳаётга зийрак кўз билан қарайдиган, теран фикрловчи, мустақил дунёқарашга эга, иқтидорли шахсларни камол топтириш ва тарбиялаш давлатимиз сиёсатининг устивор йўналишларидан биридир. Ўзбекистон Республикасининг "Кадрлар тайёрлаш миллий дастури" ва "Таълим тўғрисида"ги Қонунида кўрсатиб ўтилганидек, демократик жамиятда инсонни эркин ва мустақил фикрлайдиган қилиб тарбиялаш зарур. Абу Наср Фаробий, Абу Али ибн Сино, Беруний, Кайковус сингари Шарқ мутафаккирлари инсон маънавий камолотининг зарурий шартларидан бири сифатида эътироф этган мустақил ва мантикий тафаккур жараёнида ўқувчи мукамал фаоллик, ижодкорлик, ташаббускорлик кўрсатади. Натажада:

- 1) Билимларни мустақил равишда янги вазиятда қўллаш олади;
- 2) Мавзуларни ўрганиш давомида янги муаммоларни кўради;
- 3) Бир муаммонинг бир неча ечимлари бўлиши мумкинлигини англай олади;
- 4) Муаммони ҳал қилишнинг янги усуллари топиш малакаларини эгаллаб олади.

Мустақил фикрлаш ва уни шакллантириш турли даврларда турлича талқин қилинган. Бу муаммони ўрта аср мутафаккирлари асосан бадиий тимсоллар орқали изоҳлашга ҳаракат қилган бўлсалар, XIX-XX аср Ғарб ва Шарқ олимлари асарларида илмийлик устунлик қилади.

Мустақил фикрлаш бу инсон сезги органлари ва ақлий фаолиятининг биринчи натижаси ўлароқ, мустақил равишда таҳлил қилиш, умумлаштириш, индуктив ва дедуктив хулосалар чиқариш, таққослаш, аниқлаштириш, мавҳумлаштириш каби фикрий операциялардан фойдаланган ҳолда амалга ошириладиган ақлий фаолиятдир.

Бошланғич синф ўқувчиларининг мустақил фикрлаш мезонлари сифатида қуйидагиларни кўрсатиш мумкин:

- 1) ўрганилаётган материалларни мустақил таҳлил қила билиш;
- 2) муаммони ҳал эта билиш;
- 3) ҳодиса ва жараёнлардаги белгиларни таққослаш, умумлаштириш, умумлашма хулоса чиқариш;
- 4) ўз фикри ва тушунчасини мантиқий далиллаш;
- 5) ўзлаштирилган билимларни амалда қўллаш билиш.

Таълим жараёнида ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатишда муаммоли – изланиш методи самарадор усуллардан бўлиб, у ўқув муаммоси, муаммоли вазият, муаммоли савол, муаммоли топшириқ каби категорияларни ўз ичига олади. Муаммоли вазиятдан ўқувчилар муаммони ҳал этишга интилар экан, янги билимларни эгаллаш билан бир қаторда мустақил фикрлашга ҳам ўрганадилар.

Бошланғич синф ўқувчилари фаолиятида дидактик ўйинлар алоҳида аҳамият касб этади. Ундан ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатишда қай даражада фойдаланиш ўқитувчининг маҳоратига боғлиқ. Дидактик ўйинлар мазмунига кўра тинч ўйинлар, ҳаракатли ўйинлар, аралаш типдаги ўйинлар, шаклига кўра мусобақа ўйинлари, сахна ўйинларига бўлинади.

Таълим жараёнида ўқитувчининг ўқувчилар билан ҳамкорлик муносабати ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатиш жараёнига таъсир этувчи муҳим омил ҳисобланади.

Ўқувчиларнинг таълимга ихлос қўйиши ўқитувчининг мана шу ҳамкорликни ярата билиш маҳоратига боғлиқ. Бундай ҳамкорлик ўзаро мулоқотнинг шундай бир шаклидирки, унда ўқувчи ўзини таълим объекти деб эмас, балки мустақил ва эркин шахс деб билади.

Таълим жараёнини ўқитувчи ва ўқувчиларнинг ҳамкорлик муносабатларига таянган ҳолда муаммоли изланиш, мустақил ишлаш методи ва дидактик ўйинлар асосида ташкил этилиши ўқувчиларнинг билим фаолиятини ривожлантириш билан биргаликда мустақил фикрлашга ўргатишда ҳам муҳим аҳамиятга эга.

## **TECNOLOGIYA DARSLARIDA AXBOROT TECNOLOGIYALAR YORDAMIDA O'QUVCHILARNING IJODKORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI**

**I. A. Sul'tonova, Nizomiy nomidagi TDPU talabasi**

***Anotatsiya :** Ushbu maqolamizda texnologiya darslarini tashkil etishda axborot texnologiyalaridan foydalanib o'quvchilarning ijodkorligini shakllantirish samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi mashg'ulotlarni samarali o'tkazish texnologiyasini ishlab chiqish lozimligi va kerakli sifat va xususiyatlarni to'liq hisobga olish zarurligi ko'rsatilgan.*

***Kalit so'zlar :** texnologiya, pedagogik texnologiya, kasb-hunar, ta'lim-tarbiya, ijodkorlik, mahorat, texnik jihozlar.*

***Аннотация:** В данной статье необходимо разработать технологию эффективного обучения, которая служит повышению эффективности формирования творческих способностей учащихся с использованием информационных технологий в организации уроков технологии, использование современных информационных технологий в организации уроков у необходимость полного учета соответствующих качеств и атрибутов.*

***Ключевые слова:** технология, педагогическая технология, профессия, образование, творчество, мастерство, техническая оснащенность.*

***Annotation:** In this article, it is necessary to develop an effective learning technology that serves to increase the effectiveness of the formation of students' creative abilities using information technology in the organization of technology lessons, the use of modern information technology in the organization of lessons, and the need to fully take into account the relevant qualities and attributes.*

***Keywords:** technology, pedagogical technology, profession, education, creativity, skill, technical equipment.*

Mamlakatimizda ta'limga bo'lgan munosabatlarni yangi davrga olib chiqish masalasi keng muhokamada bo'lmoqda. "Ta'lim to'g'risidagi qonun" ning qabul qilinishi, "O'zbekiston respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" gi president farmoni, Beshta muhim tashabbusning ilgari surilishi va joriy etilishi orqali yoshlarning bilim olishi va kasbiy shakllanishiga bo'lgan e'tibor yana bir marotaba davlat ahamiyatidagi masala darajasiga ko'tarildi. Bu muhim xujjatlarda yoshlarimizga chuqur bilimlar berish bilan birga ijodkorligini oshirishning yo'l-yo'riqlari ko'rsatib berildi. Hozirgi davrda ta'limni axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi, mana shu sababli barchamiz ta'lim tizimiga yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish bo'yicha yanada kattaroq imkoniyatlar yaratib berdi. O'zbekistonning sharoitlarida ta'lim tizimini isloh qilish birinchi navbatda ta'lim va tarbiya tizimiga ilg'or axborot texnologiyalarning tatbiq etish bilan bog'liq.

Yuqoridagi aytib o'tilgan hujjatlarda qayd etilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun texnologiya darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanib o'quvchilarning ijodkorligini shakllantirish samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi mashg'ulotlarni samarali o'tkazish texnologiyasini ishlab chiqish lozim. Buning uchun, birinchidan, o'quvchilarni texnologiya mashg'ulotlarda ijodkorligini shakllantirish va rivojlantirish samaradorligini oshiruvchi metod va nazariyalarni tahlil qilish, ikkinchidan, mashg'ulotlarni tashkil etishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, uchinchidan, har bir o'quvchining ijodkorlikga oid fazilat va sifatlarini to'laroq e'tiborga olish muhim hisoblanadi. Boshlang'ich sinf texnologiya mashg'ulotlarda o'quvchilarning ijodkorligini shakllantirishga yordam beruvchi mashg'ulotlardan foydalanish, axborot texnologiya vositalarni ishga solish, mavzu to'g'risida ma'lumot berish, kasbga yo'llash, yo'l-yo'riq ko'rsatish, ijodkorlik ishlariga asoslanilgan pedagogik texnologiyani amalga oshirish jarayonini, o'quvchilarni ijodkorligini oshirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish tuzilmasini sxematik tarzda tasvirlab ko'rsatishimiz mumkin.

Bunda pedagogik tadqiqotlarda asoslab berilgan o'quv jarayonini loyihalash bosqichlariga amal qilish maqsadga muvofiq, ya'ni: birinchi bosqichda - amalga oshiriladigan o'quv jarayonini maqsadini, o'quvchilarni ijodkorlik sifatlarini samaradorligini oshirishga axborot texnologiyalaridan foydalanib texnologiya mashg'ulotlari mazmunini takomillashtirish orqali erishish;

ikkinchi bosqichda - shakllantirilgan maqsad asosida uni amalga oshirish yo'llarini belgilab olish, ya'ni: mashg'ulotlarning o'quvchilar extiyoji va qiziqishlariga javob bera oluvchi eng maqbul majmuasini asoslash, o'quvchilarni mashg'ulotlarga jalb qilishda ixtiyoriylik mezonini maxsus tanlov metodi bilan uyg'unlashtirish, mashg'ulotlar mazmunini tanlashda individual va individual-tabaqalashtirilgan metodlardan o'rinli foydalanish;

uchinchi bosqichda – texnologiya mashg'ulotlarida axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali o'quvchilarni ijodkorligini oshirish maqsadida ularning shaxs sifatlarini tashxis qilish metodikasini amalga oshirish.

Texnologiya mashg'ulotlar axborot texnologiyalaridan foydalanish bir tomondan dars samaradoprliğini oshirish vositasi bo'lsa, ikkinchi tomondan o'quvchilarni ijodkorligini oshirish, mehnatga va kasb tanlashga yo'llash imkoniyatlarini kengaytiradi. Masalan, onangiz uchun bayramga esdalik sovg'a tayyorlamoqchisiz. Buning uchun sovg'a tayyorlash texnologiyasini ishlab chiqishingiz lozim. **Mashg'ulotga kerak bo'ladigan ish qurollari va materiallar:** rangli qog'ozlar, yelim, qora qalam, qaychi.

**Birinchi bosqichda** qanday sovg'a tayyorlash uchun quyidagi savollarga javob topishingiz lozim.


- Qanday buyumlar yasashni bilasiz?
- Yasash uchun kerakli asbob va materiallar bormi?
- Bu material va asboblardan qanday buyumlar yasash mumkin?
- Nima yasash mumkin emas?
- Sabab nimada?

**Ikkinchi bosqich** – tabriknoma yasash rejasini ishlab chiqasiz. Buning uchun o'ziga xos tabriknoma yasashni o'ylab oling. Berilgan rasmlar sizga tabriknoma yasashda yo'l ko'rsatadi. Qaysi rasm yoqqan bo'lsa shuni tanlab oling yoki o'zingiz o'ylab toping.

**Uchinchi bosqich** – tabriknomani ketma-ketlikda tayyorlash rejasini ishlab chiqing. Rasmda to'g'ri bajarish tartibini ko'rsating. Tabriknoma yasash jarayoni tartibini o'qing. O'zingiz bajargan ish bilan solishtiring.

1. Tabriknoma asosini tayyorlang.
2. Applikatsiya uchun gul qismlarini qirqing.
3. Katta qismiga yopishtiring.
4. Kichik qismlarni yopishtiring.

**To'rtinchi bosqich** – kerakli material va asboblarni tanlang. Ish joyini tayyorlang. O'zingiz tuzgan reja asosida tabriknoma tayyorlang. Ish joyingizni yig'ishtirib qo'ying.



**Beshinchi bosqich** – ishga baho bering. Tabriknomani olib ko'rib chiqing. Sizga yoqdimi? Applikatsiya uchun tayyorlagan shakllar to'g'ri, tekis qirqlanganmi? To'g'ri yopishtirilganmi? O'rtoqlaringizga ko'rsating va birgalikda baholang.

Texnologiya darslarida amaliy mashg'ulotni tashkil etishda axborot texnologiyalaridan samarali foydalanib tashkil etish o'quvchilar qanday buyumni nima maqsadda tayyorlash kerakligi, yasalayotgan predmen qanday materialdan tayyorlanishi va qanday yasash va nima asosida yasash kerakligi haqida bilm, malaka va ko'nikmalarini egallaydi va ularning ijodkorligini oshirishda yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. "Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasbga yo'llash" N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov, O.A.Qo'ysinov Toshkent-2014
2. "Texnologiya fanini o'qitish va psixologik xizmatni tashkil etishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish" Sh.S.Sharipov, O.A.Qo'ysinov, Sh.T.Ergashev, O'.O.Tohirov, Z.S.Shamsiyeva, F.Nasrullayeva, U.Talipov Toshkent-2017
3. Maktab va hayot ilmiy metodik jurnal, Toshkent, 2015, №2

**OILADA BOLALARNI TARBIYALASH JARAYONIDA MILLIY QADRIYATLARDAN FOYDALANISH USULLARI**

**N.B.Adizova, BuxDUPI dotsenti**

**F.Ibrohimova, BuxDUPI 1-bosqich magistr**

*Maqolada o'zbek xalqi o'z ruhiy qiyofasi, milliy xususiyati, xarakteri, tuyg'usi, mijozi, xulq-atvori, axloqi, didi, ta'bi bilan alohida ajralib turishi, bola axloqini, odobini takomillashtirish avvalo oilada amalga oshirilishi haqida fikr mulohazalar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** Milliy qadriyat, komil inson, ta'lim-tarbiya, faoliyat, milliy urf-odatlar, odob, axloq,

*В статье рассказывается о том, чем отличается узбекский народ своим психическим обликом, национальным характером, характером, чувствами, клиентом, поведением, этикой, вкусом, характером, а также совершенствованием детских нравов и этикета, прежде всего, в семье. предусмотрена обратная связь.*

**Ключевые слова:** Национальные ценности, совершенный человек, воспитание, деятельность, национальные традиции, этикет, нравственность,

Milliy tarbiya inson shaxsini shakllantirishda milliy madaniy meros, an'ana va qadriyatlardan samarali foydalanish, har bir shaxsning ma'naviy kamolotiga o'ziga xos milliy yo'nalish berishga ham harakat qilishdir. Tarbiya ko'rgan kishilar qanchalik umuminsoniy qadriyatlarni singdirmasinlar, ular hamma vaqt aniq bir millatning vakili bo'lib qoladi. Millatlar qanchalik yaqinlashmasin, ularning ma'naviyati jihatidan butunlay hamjihat bo'lib ketmaydi. Har bir millat mavjud ekan, uning ma'naviyati bilan bog'liq bo'lgan tarbiyaning o'ziga xos milliy usullari, mazmuni va yo'nalishi doim takomillashib boradi. Vaholanki, biz hozirga qadar mustaqillik sharoitida ta'lim-tarbiya o'smir yoshdagi bolalarni axloqiy fazilatlarini shakllantirishda milliy tarbiyaning shaxs ma'naviy kamolotidagi o'rni haqida yetarli darajada o'rgana olganimiz yo'q.

Shuni izohlash kerakki, ta'lim, tarbiya har qanday sharoitlarda ham sof milliy an'analar, milliy tajriba doirasida qolib ketishi mumkin emas. Ta'lim, tarbiya ishlarida sof milliy mezonlar an'analar bilan cheklanish komil inson shaxsi shakllanishi imkoniyatlarini chegaralab qo'yadi. Har qanday milliy tarbiya umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'langandagina yaxshi samara beradi. Har holda jahondagi turli davrlarda, mamlakatlarda amalga oshirilgan tarbiya usullari, mazmuni, unda ko'zlanilgan maqsadlar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lganini unutib bo'lmaydi.

Tarbiya - inson ma'naviy kamolotining birinchi, asosiy poydevori bo'lib hisoblanadi. Yaxshi oilada tarbiyalanib axloq va odobning muayyan normalarini bilgan, hayot faoliyatida ularga asoslanadigan yoshlarga ma'naviy kamolotning kengroq imkoniyatlariga ega bo'ladilar. Yaxshi tarbiya zamiridagina bilim olishga ishtiyoq, oqilona amaliy faoliyat uchun zamin hozirlanadi. Tarbiyaviy zamini yaxshi bo'lmagan yoshlarda mehnat qilib, amaliy malakalar hosil qilishga ishtiyoq bo'lmaydi.

Inson omilining jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini e'tiborga olib, umumta'lim maktablarining barcha sinflarida "Milliy axloq va odob asoslari" degan umumiy bir fanni o'qitish lozim. Shuningdek, umumta'lim maktablarining barcha sinflarida o'quvchilarga, ularning yosh xususiyatlari, axloqiy, aqliy kamoloti darajasini e'tiborga olib, oddiy axloq, odob qoidalaridan to murakkab nazariy muammolarga qadar o'rgatib borish zarur. Yosh bola ota-onani, o'qituvchini, yoru-do'stlarini hurmat qilishga, salom berib, alik olishga o'rganishi ham ma'naviy kamolotning dastlabki poydevoridir.

Milliy, sharqona axloqiy fazilatlarining ko'p qirralari Abu Nasr al-Farobiy, Ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf xos Hojib, Alisher Navoiy asarlarida va Amir Temur tuzuklarida atroflicha yoritib berilgan. Z. M. Bobur o'zining "Boburnoma" asarida o'zbeklar-ga, umuman, turkiy xalqlarga xos bo'lgan axloqiy fazilatlar qatoriga quyidagilarni kiritadi: bular- iymon va e'tiqodlilik, andishalilik, oilaga muhabbat, bolajonlik, halollik, bironing haqiga xiyonat qilmaslik, farzandlarning ota-onaga mehribonligi, diniy qadriyatlarga rioya qilish, fahm-farosatlilik, savodxonlik, saxovatlilik, xushfe'llik, shirinso'zlik, do'stlarga oqibatlilik, xushbaxtlik, hayolilik, shinavandalik, oq ko'ngillilik, mehnatsevarlik va boshqalar.

Keyingi yillarda nomlari ham unut bo'layozgan ajdodlarimizning xotirasini tiklash, an'analarimizni hayotga tadbiiq qilishda Prezidentimiz qator ibratli tadbirlarni amalga oshirmoqda. Bulardan islom olamining mash'allari bo'lgan Imom Buxoriy, At-Termiziy, Bahovuddin Naqshbandiy, Abu mansur Moturudiy va ko'plab sarchashmalarga yodgorliklar qad ko'targani, nomlari abadiylashtirilganini keltirib o'tish mumkin. O'zining tarixini bilgan, o'z qadriga yetgan xalq hech qachon boshqa xalqlarni kamsitmaydi. Prezidentimizning islom dini va uning ma'naviy qadriyatlarini qayta tiklash va ularni rivojlantirish borasidagi tengsiz xizmatlarini hech mubolag'asiz buyuk ma'naviy faoliyat deb baholash mumkin. Buning natijasida xalqimiz islom dini va uning ma'naviy durdonalaridan bahramand bo'ldi.

Uyga kelgan mehmonga avvalo to'shak solib, uy to'risiga taklif etiladi, qo'liga suv quyiladi. Keyin taom qo'yilib, ketar chog'ida yana suv quyish odatimizga aylangan. buni qarangi, ovqatdan oldin va keyin qo'l yuvish yuqori gigiena talablari deb baholanmoqda.

Oilaviy marosimlar o'zbek xalq an'analariining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, ularning aksariyati bolalar hayotidagi muhim voqealarga bag'ishlanganligi uchun ham yoshlarning kamol topishida muhim o'rin tutadi. Ma'lumki, o'zbek xalqi to'yparast xalq. U to'y qilaman, elning duosini olaman, boshqalarni ham quvonchimga sherik qilaman, degan maqsadda yashaydi. Shuning uchun to'y o'zbek millati hayotida muqaddas hodisa hisoblanadi. Biroq turg'unlik yillarida o'zbek oilaviy marosimlarining bir qismi taqiqlandi, taqiqlash mumkin bo'lmaganlar (masalan, "Nikoh to'yi") yangi umumqoidalar, an'analar asosida o'zgartirila boshlandi. Mustaqillik sharoitida bu xatolarni to'g'rilash maqsadida oilaviy marosimlarning asosiy turlari, chunonchi, "Ism qo'yish", "Charlar", "Soch to'yi", "Tish to'yi", "Beshik to'yi", "Sunnat to'yi", "Muchal to'yi", "Kumush to'yi", "Otlin to'yi" kabi an'analarni tiklash uchun yo'l ochildi. 1998 yil - "Oila yili" deb e'lon qilinishi oilaviy an'analarga e'tibor berish va ularni rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlarni yuzaga keltirdi. Ijobiy an'analar quvvatlanib, salbiylari jamoatchilik tanqidiga uchradi. Oilaviy qadriyatlarining yalpi tiklanishi milliy-ma'naviy tiklanish jarayonidagi muhim bosqich bo'ldi.

Xullas, asrlar osha shakllanib, avloddan-avlodga ma'naviy meros sifatida o'tib, rivojlanib kelgan urf-odatlar, marosimlar va bayramlarni saqlamay turib, milliy tiklanish jarayonini amalga oshirish qiyin. Shu sababli, bu borada jiddiy ilmiy va amaliy ishlarni amalga oshirish mumkin. Har bir millat o'ziga xosligi, milliy madaniyati, milliy adabiyoti, milliy tili va shu millatning ruhiy tarzi majmuasida, ya'ni milliy ruhiyatda o'z ifodasini topadi. Binobarin, xalq ma'naviyati va ruhiyatini yosh avlodga singdirishni oiladan boshlash kerak. Axloqiy tarbiyani izchil va tartibli amalga oshirishda oila muhim o'rin tutadi. Insonning ma'naviy - axloqiy, ruhiy ziynati poydevori oilada qo'yiladi. Oila milliy ruhi xalq milliy ruhiyatini belgilaydi. Shu ma'noda har bir oila o'z a'zosida milliy psixologiyani shakllantiruvchi muqaddas ijtimoiy institutdir. "Bu institut necha ming yilliklar davomida jahon xalqlarining bir - birlariga o'xshamaydigan turfa milliy - ma'naviy qiyofalarini tarbiyalab kelayotir".

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Jalilova M., Ne'matova G. Takrorlash mashg'ulotlarini "Topqirlar bellashuvi" tarzida o'tkazish. Til va adabiyot ta'limi, 1994. 2-3-soni. 36-37- bet.

2. Matjon S. Maktabda adabiyotdan mustakishl ishlar. - T.: O'qituvchi, 1996.-145

3. Yusupova Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili darslarida o'quvchilar tafakkurini o'stirishning falsafiy asoslari. - T.: Fan, 2004. 164 b. \

4. Sh.Sariyev. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash orqali nutq o'stirish. -T.: Yurist-mediya markaz. 2010.

## **BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI MUSTAQIL O'QISHGA TAYYORLASH**

**N.B.Adizova, BuxDUPI dotsenti**

**Sh. Nusratova, BuxDUPI magistri**

*Usbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil o'qish ko'nikmalarini shakllantirishda ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati ta'kidlab o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** dars, bilim, ko'nikma, malaka, mustaqil o'qish ko'nikmalari, sinfdan tashqari o'qish, interfaol usullar.

*В данной статье подчеркивается воспитательная роль учащихся начальных классов в формировании навыков самостоятельного чтения.*

**Ключевые слова:** урок, знания, умения, компетенции, навыки самостоятельного чтения, внеклассное чтение, интерактивные методы.

Ulug' yozuvchilar tarixiga nazar tashlansa, iste'dodning tug'ulishi har kimda har xil kechganini ko'rish mumkin. Alisher Navoiy ilk yoshlaridanoq Fariddin Attorning «Mantiq ut-tayr» asarini yod olgan, hali o'smirlik davridayoq ilk asarlari bilan mavlono Lutfiydek benazir shoirni hayratlarga solgan bo'lsa, Usmon Nosir balog'at yoshidayoq mashhurlik darajasiga erishgan edi. Taniqli bolalar shoiri Samuil Marshak 4-5 yoshlaridanoq she'r mashq qilib 11-12 yoshlarida ilk poemalarini yaratgan bo'lsa, Quddus Muhammadiy «O'quvchiga esdalik» nomli birinchi she'riy kitobini e'lon qilganida sal kam 40 yoshda bo'lgan.

Kichintoylarning sevimli shoiri Tursunboy Adashboev so'zni so'zga juftlab, o'z hayrati-yu bor g'ayratini qog'ozga tushira boshlaganida 12-13 yoshlarda bo'lganini sog'inch bilan xotirlaydi. «Mening adabiyotga kirib kelishim, – deb yozadi shoir, – avvalo, muallimlarimning, qolaversa, Abdullajon Haitovday fidoiy, adabiyotga juda mehr qo'ygan odamlarning ta'siri tufayli bo'lgan, desam adashmayman.

Oltinchi sinfda o'qib yurgan kezlirim «Qizil O'zbekiston» (hozirgi «O'zbekiston ovozi») gazetasida mashhur olim Hodi Zarifning bir xati chiqdi. Xatda gazetxonlarga xalq ichidagi dostonlarni yozib olishga yordam so'rab murojaat etilgandi. Maktabimiz direktori gazetani olib kelib, qishloqdagi to'ylarda doston aytib yuradigan Olim qarg'a degan kishini topib, dostonini yozib jo'natgin, dedilar menga. Men bu haqda Hodi Zarifga xat yozdim. Hodi akadan: Uka, dostonning hech qayeriga qo'shmasdan, og'zidan qanday chiqsa shundayligicha yozib jo'natishingizni iltimos qilaman, degan javob keldi.

Bu «Yozi bilan Zebo» dostoni edi. Xullas, men Olim qarg'ani izladim, u kishi qo'shni qishloqda paxsa urayotgan ekan. Olim akani ish ustida topdim, tanishdim, maqsadimni aytdim. «Bo'ldi, menga bir hafta qog'oz qoralasam, senga doston aytib o'tirsam, tirikchiligim qolib ketadi. Kechqurunlari yozamiz», dedi. Kelishdik. Bir hafta deganda dostonni qoralab oldim va Hodi Zarif domlaga jo'natdim... Mana shu o'quvchilik yillaridagi qiziqishlarim meni katta adabiyotga yetaklagan bo'lsa, ajabmas».

Ko'rinadiki, ko'pchilik ijodkorlar mustaqil o'qish va izlanish natijasida buyuk kishilarga aylangan. Bu borada mustaqil o'qishga o'rgatuvchi sinfdan tashqari o'qish darslari bolalarni kichik yoshdan boshlab kitob o'qishga tayyorlaydi.

Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari o'qish o'zining lingvodidaktik, pedagogik-psixologik xususiyatlariga ko'ra bosqichlarga bo'lib o'rganishni taqozo etadi.

O'qituvchi vatanimizni dushmanlardan asragan qahramonlar kishilarni bilishlarini “Quyosh” metodi orqali aniqlab oladi.

Ilk mutolaa bosqichida STO' darslari uchun 45 daqiqa ajratiladi. Asarni o'qishdan oldin o'quvchilar asar nomi va uning mualliflari bilan tanishadilar, rasmlarini tomosha qiladilar. Daftarlari asar nomi va muallifini yozadilar. Bu davrga kelib asarni sinfdagi yaxshi o'qiydigan o'quvchilarga ma'lum tayyorgarlikdan so'ng o'qitish mumkin. Darsda turli o'yinlardan foydalanish o'quvchilarning qiziqishlarini oshiradi.

Demak, 1-4-sinf o'quvchilarini mustaqil o'qishga tayyorlashda o'quv materialining xilma xil bo'lishiga, asosiysi, ular o'quvchilarda kitob o'qishga rag'bat uyg'onishiga e'tibor qaratiladi. Quyida

mustaqil o'qish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan dars mazmuni va tashkil etish bosqichlari tuzilishi namunasini keltiramiz:

**Mavzu. Porla, millat bayrog'i!**

Darsning maqsad va vazifalari belgilab olindi:

**Ta'limiy maqsad:** o'quvchilarning to'g'ri, ongli va ifodali o'qish, she'riy matn ustida ishlay olish ko'nikmalarini takomillashtirish.

**Tarbiyaviy maqsad:** Vatan haqidagi tushunchalarini kengaytirish. Ularda Vatanga, uning ramzlariga muhabbat tuyg'usini shakllantirish, o'z Vatanini qadrlashga o'rgatish. «Ona yurtning – oltin beshiging» maqolining ma'nosini tushunishlariga erishish.

**Rivojlantiruvchi maqsad:** o'qish malakalarini rivojlantirish, lug'at boyligini oshirish, nutqini o'stirish.

Dars uch bosqichda olib borildi va ulardagi ish mazmuniga qarab metod hamda ish turlari tanlandi. Masalan, «Tez javob» didaktik o'yini, aqliy hujum, izohli o'qish, mustaqil ish, krossvord yechish, test yechish kabi.

Darsning tashkiliy qismida darsning shiori ustida ishlandi (*Bayrog'imiz – faxrimiz*).

Darsning kirish suhbat davlat ramzlari haqida bo'ldi. Bunda qiyidagi savol-topshiriqlar ustida ishlandi:

Siz Davlat ramzlaridan nimalarni bilasiz? Davlatimiz bayrog'ini tavsiflang. Gerbimizni ta'riflab bering. Konstitutsiya haqida nimalarni bilasiz? Davlat madhiyasining so'zlari va musiqasining mualliflari kimlar?

O'quvchilar Davlat ramzlari haqida kengroq tushunchaga ega bo'ladilar (bunda ularning rasmlaridan va madhiya matni yozilgan plakatdan foydalaniladi. Madhiyani magnitafondan eshittirish va unga jo'r bo'lib aytirish ham mumkin).

Mavzuga qiziqish uyg'otish maqsadida xattaxtaga Vatanimizning hozirgi ko'rinishi, hilpirab turgan bayrog'imiz tasvirlangan rasmlar ilib qo'yildi. Rasmlar yuzasidan suhbat o'tkazildi:

Bu rasmlarda nimalar tasvirlangan? Rasmdagi barcha joylarni umumiy nom bilan qanday atash mumkin? Vatanimiz ramzlari deganda nimalarni tushunasiz? Nima uchun? Bugun o'qiydigan asarimiz qanday mazmunda bo'ladi?

**Aqliy hujum.** – «Millat bayrog'i» deganda nimani tushunasiz? O'quvchilar javobi xattaxtaga yozib boriladi. Dars so'ngida o'quvchilarning o'zlari javoblarining qay darajada mukammalligini bilib oladilar. She'r nomi va uning muallifi ham xattaxtaga yoziladi.

Yangi o'qiladigan she'rning muallifi haqida o'quvchilar to'plab kelgan ma'lumotlarini bayon qildilar. Bu orqali o'quvchilar quyidagi ma'lumotlarni bilib oldilar:

Azim Suyun 1948-yilda Samarqand viloyatida tug'ilgan. Bolaligi Nurota tizma tog'larining qo'ynida o'tgan. Azim Suyun Toshkent davlat universitetini tugatgach, nashriyot, gazeta va muassasalarda faoliyat yuritadi.

Azim Suyunning birinchi she'ri 15 yoshida chop etilgan. Uning «Mening osmonim», «Zamin taqdiri», «Qaro ko'zing sening», «O'zlik», «O'zbekiyurt» kabi ko'plab kitoblari nashr etilgan. Azim Suyun ham Vatan haqida ko'plab she'rlar yozgan. Uning shunday she'rlaridan biri «Millat bayrog'i» deb nomlanadi.

**So'ng she'rni o'quvchilar ifodali o'qib berdilar.** She'r yuzasidan quyidagi savollar asosida suhbat amalga oshirildi:

– Nima uchun biz Vatanimizni sevamiz?

– Bayrog'imiz nimaning ramzi hisoblanadi? (mustaqilligimizning, tinchlikning)

O'quvchilar javobi umumlashtiriladi: – *Siz o'rganayotgan bu she'r ham Vatan va uning bayrog'i haqida. Shoir ham o'z Vatandan faxrlanib, ushbu she'rini yozgan.*

She'r matni ustida lug'at ishi o'tkazildi va quyidagi so'z ma'nosini o'quvchilar bilib oldilar:

**So'zlar ma'nosini bilib oling.**

o'tmish – *o'tgan davr, kechmish*

dorilamon kunlar – *tinch, osoyishta kunlar*

mehr – *samimiy muhabbat, yaxshi ko'rish*

porla – *yorqin nur soch, balqi*

mangulik – *abadiylik, mangu ekanlik*

hur – *ozod, erkin, mustaqil*

so'lidasan – *chap tomonidasan*

**She'r mazmuni yuzasidan suhbat o'tkazildi.**

**Topshiriq.** Quyidagi misralar ma'nosini izohlang.

Misralar	Izoh
Qora o'tmish qoldi ortda, Dorilomon kunlar yurtida.	
Mehr – ko'zda, muhabbatda	
Mangulik hur yo'lidasan, O'ngidasan, so'lidasan.	

**Suhbat uchun savollar:**

\* *She'rda Vatanimiz o'tmishi haqida nima deyilgan? Vatanimiz kelajagi haqida-chi? She'rdagi qaysi misralar sizga kuchli ta'sir qildi? Shoir nima uchun Vatan bayrog'iga «Mangulik hur yo'lidasan, O'ngidasan, so'lidasan» deb murojaat qilgan?*

**She'rni topshiriq bilan o'qitish ishi amalga oshirildi.**

O'quvchilar bir necha guruhga bo'linadi. Har bir guruhga she'rning ma'lum bir bandini o'qib, mazmunini o'zlashtirish topshiriladi. Guruhlarga quyidagicha topshiriqlar berilishi mumkin:

1-guruh uchun: Vatanimiz o'tmishi haqida fikr yuritilgan bandni o'qing.


2-guruh uchun: Vatanimiz bayrog'i tavsifiga bag'ishlangan bandni ifodali o'qing.

3-guruh uchun: Vatanimiz bayrog'iga shoirning tilaklari aks etgan bandni o'qing.

**She'rni ifodali o'qish musobaqasi.** Bu musobaqa qatorlararo o'tkaziladi. She'rning bandlari qatorlarga bo'lib beriladi, birgalikda jo'r bo'lib ifodali o'qishga ball qo'yib boriladi. Ballar jamlanib, g'olib qator e'lon qilinadi.

**Krossvord yechish.** Bunda oldindan tayyorlangan krossvord xattaxtaga osib qo'yiladi. O'quvchilar uni to'ldiradilar. (Krossvordni tuzishda she'r matnidagi so'zlardan foydalanilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi)

– Aziz o'quvchilar, quyidagi krossvordni to'g'ri bajarsangiz, Vatan ramzlaridan birining nomi kelib chiqadi.



- |   |
|---|
| <p>1. Oltinchi misradagi birinchi so'z.</p> <p>2. Uchinchi banddagi birinchi so'z.</p> <p>3. Yettinchi misradagi oxirgi</p> |
|---|

**Test topshiriqlari ustida ishlash.**

I. «Millat bayrog'i» she'rining muallifi kim?

- A) Abdulla Oripov
- B) Azim Suyun
- D) Po'lat Mo'min

II. She'r necha banddan iborat?

- A) ikki
- B) uch
- D) to'rt

III. She'rda «Porla, Millat bayrog'i» misrasi necha marta qo'llangan?

- A) 2 marta
- B) 3 marta
- D) 4 marta

IV. Quyidagi misrada tushirilgan so'zni toping.

Mehr – \_\_\_\_\_, muhabbatda.

A) ko‘zda

B) so‘zda

D) tilda

V. She‘rda qo‘llangan «hur» so‘zining ma‘nodoshini toping.

A) doimo

B) faxr

D) ozod

«BBB» jadvali o‘quvchilarga to‘ldirtirildi:

Bilaman	Bilib oldim	Yana bilishni istayman

Uyga vazifa qilib “Maktabim – qutlug‘ makonim, kitobim – oftobim” mavzusidagi quyidagi asarlarni o‘qib kelish berildi: Sulaymon Risboyev. Bolaning qanoti. Turg‘unboy G‘oipov. Sehrli qalam.

Dars davomida o‘quvchilar o‘zlari mustaqil ravishda o‘qib kelgan asarlarining mazmuni gapirib beradilar.

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarni mustaqil o‘qishga o‘rgatishda jahon ta‘limidagi ilg‘or usullar asosida yaratilgan tizimni tadbiq etish orqali ularni mustaqil o‘qishga qiziqtirish, fikrlash qobiliyatini o‘stirish, kitob bilan ishlash usullarini o‘rgatish, muntazam ravishda kitob o‘qib borishga rag‘bat uyg‘otish mumkin.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Jalilova M., Ne‘matova G. Takrorlash mashg‘ulotlarini “Topqirlar bellashuvi“ tarzida o‘tkazish. Til va adabiyot ta‘limi, 1994. 2-3-soni. 36-37- bet.

2. Yusupova Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili darslarida o‘quvchilar tafakkurini o‘stirishning falsafiy asoslari. - T.: Fan, 2004. 164 b. \

3. Sh.Sariyev. Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida matn ustida ishlash orqali nutq o‘stirish. –T.: Yurist-mediya markaz. 2010.

4. Ibrohimova Zamira. Gulgina. Kichintoylar uchun badiiy adabiyot majmuasi. 1-2-jild. –T.: ”Yangi nashr” nashriyoti. 2010.

**БОШЛАНГИЧ ТАЪЛИМДА ЎҚИТИШНИ ТАКОМИЛЛАШТРИШНИНГ АСОСИЙ ПОЙДЕВОРИ –МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ МУАММО ВА ЕЧИМЛАРИ**

**М. Х. Эшонкулова, ГулДУ ўқитувчи**

*Бугунги кунда Мактабгача таълим ташилотларида мактабга тайёрлов гуруҳларида ўқитиш болаларда конструктив билим бериш масаллари бошлангич таълим билан узвийлиги таъминланмоқда. . Қайд этиш лзимки, асосий эътибор кўриб чиқилаётган математик материалнинг болаларнинг конструктив билим олиш жараёнида тасаввур ва тафаккурни ўстиришига амалий жиҳатига, ақлий қобилиятларни ривожлантиришига, мактабга тайёрлов гуруҳи болалари амалий фаолиятдан самарали фойдаланишига қаратилган.*

**Калит сўзлар.** Математика, конструкция, бошлангич таълим, педагогика, психология,узвийлик, узлуксизлик, ўқув жараёни.

*На сегодняшний день преподавание в дошкольных образовательных организациях в дошкольных подготовительных группах в макатбе детских вопросов конструктивного знания интегрируется с начальным образованием. Следует отметить, что основное внимание уделяется практическому аспекту рассматриваемого математического материала в процессе получения детьми конструктивных знаний, развития умственных способностей, эффективного использования практической деятельности детей школьной подготовительной группы.*

**Ключевые слова.** Математика, строительство, начальное образование, педагогика, психология, непрерывность, непрерывность, образовательный процесс.

*To date, teaching in preschool educational organizations in preschool preparatory groups in makatba of children's issues of constructive knowledge is integrated with primary education. . It should be noted that the main attention is paid to the practical aspect of the considered mathematical material in the process of obtaining constructive knowledge by children, the development of mental abilities, the effective use of practical activities of children of the school preparatory group.*

*Key words. Mathematics, construction, primary education, pedagogy, psychology, continuity, continuity, educational process.*

Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси, шунингдек, Ўзбекистонни ривожлантиришнинг 2022-2026 йилларга мўлжалланган давлат дастурида ва таълим тўғрисидаги қонун ва фармонларга тегишли давлат ҳужжатларида мактабга тайёрлов гуруҳи болаларига конструктив билим беришда бўлажак тарбиячиларнинг методик тайёргарликка жиддий эътибор берилганлиги кўрсатилди.

Бу Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 7 майда Ўзбекистонда соҳалар бўйича математика фанини ривожлантириш, ўқитилишини ривожлантиришга доир чора тадбирлар режаси мазмунига жавоблиги билан асосланади.

Болаларнинг конструктив билим олиш жараёнида тасаввур ва тафаккурни ўстиришга болаларнинг ижодий қобилиятини унинг интеллектуал, сезги ва ҳаракатлари негизда ривожлантиришга ёрдам берувчи “Илк қадам” дастури асос бўлади.

Турли ОТМ факультетлар талабаларидан, МТТ турли ёшдаги тарбиячиларидан, ҳаёт таржибаси, илмий салоҳияти бор университет ўқитувчиларидан ташкил топган жамоанинг ижодий муҳити, МТТ болаларининг ижодий қобилиятини ривожлантиришга қаратилган дастурда бўлажак тарбиячилар мактабгача тайёрлов болаларнинг конструктив билим олиши учун талабаларанинг методик - математик тайёргарлигига қилган таъсири биз томондан ҳисобга олинади.

Болаларнинг конструктив билим олиш жараёнида тасаввур ва тафаккурни ўстиришга болаларининг ижодий қобилиятини ривожлантиришга қаратилган мактабгача таълим йўналиши бўлажак тарбиячилар мактабгача тайёрлов болаларнинг конструктив билим олишининг методик-математик тайёргарлигида талабанинг турли шаклдаги индивидуал методик илмий-тақиқот ишлари [педагогик ва битирув малакавий амалиёт вақтида, битирув малакавий иш ёзганда илмий-методик конференцияларда иштирок этиши]да катта аҳамиятга эга.

Мактабгача таълим йўналиши талабаларининг методик-математик тайёрланишининг ҳозирги ҳолатини таҳлил қилиш натижасида унинг олий педагогик таълимнинг янги тамойилларига мос тушмаслиги, мактабгача мактаб ривожланишининг ўзгариши ва истиқболлини етарлича ақс этмаслиги аниқланди.

Математик билимларнинг амалий фаолият, теварак-атроф билан алоқаларининг фундаментал, кетма-кет ва истиқбол талаби, мушоҳада турларининг шаклланиши (эвристик, алгоритмик, мавҳум, ижодий) ва унинг сифати, эгалланган билимларни мустақил равишда чуқурлаштириш ва кенгайтириш асосида у биз томондан шакллантирилади.

Мактабга тайёрлов гуруҳи болаларига конструктив билим беришда бўлажак тарбиячиларнинг методик тайёргарликка “мактабга тайёрлов гуруҳларида болаларга конструктив билим бериш” тушунчасининг моҳияти очиб берилди. Шу муносабат билан мазкур тушунча билан ассоциация ўйғотувчи қуйидаги тушунчаларга таъриф берилди: шахс, ривожланиш, фаолият, укув, ижодий малака, ижодий тасаввур, интуиция. Қуйидаги тушунча аниқланган: агар бола ижодий малака, ижодий тасаввур ва ижодий фаолиятга эга бўлса, унда биз уни ижодий шахс деб ҳисоблаймиз.

Элементар математикани ўргатишда бўлажак тарбиячилар мактабгача тайёрлов болаларнинг конструктив билим олишининг методик-математик тайёргарлиги” тушунчасининг моҳияти очиб берилди.

Бўлажак тарбиячилар мактабгача тайёрлов болаларнинг конструктив билим олишини методик-математик тайёргарлигининг шахсга қаратилганлиги қуйидагиларда юзага келади:

– тайёргарлик кўриш пайтида талабанинг шахсий тажрибасини ҳисобга олишда;

– муайян касбий малакага эришиш учун усулларни танлаш имкониятини тақдим этишда;

– билим олиш субъекти сифатида талабанинг янги позициясини шакллантиришда.

Бўлажак тарбиячилар мактабгача тайёрлов болаларнинг конструктив билим олишини методик-математик тайёрлаш математика курсида етакчи математик ғояларни, ясашга, қуришга, архитектурага оид, нақшлар, арнаментлар, оригами билан ишлаш, теварак-атрофда математика қонунларининг ҳаракат қилишини, математика қонунлари, фактлари, тушунчалари, муносабатларини ишлатишдан иборат. Тарбиячиларни методик-математик

тайёрлаш математикани ўқитиш жараёнида болаларни ижодий қобилиятини ривожлантирувчи бўлажак тарбиячилар тайёрлашни назарда тутади.

Бўлажак тарбиячилар мактабгача тайёрлов гуруҳи болаларнинг конструктив билим олишининг методик-математик тайёргарлиги унинг ижодий қобилиятини ривожлантиришга бўлган интилишини мақсадли ва изчил равишда шакллантириши лозим.

Болаларнинг тасаввур ва тафакқурини ривожланишида бўлажак тарбиячилар мактабгача тайёрлов болаларнинг конструктив билим олишининг методик-математик тайёргарлиги концепцияси ишлаб чиқилди.

Математика ва элементар математик тушунчаларни шакллантириш ва ривожлантириш методикаси фанлари бўйича мувофиқлаштирувчи кенгаш экспертизасидан ўтган методик педагогик технология ва ахборот технологиялари мазмунини акс эттирувчи тавсияномалар ва дарсликлар ишлаб чиқилган ва нашр этилган.

Шундай қилиб, амалга оширилган тадқиқотлар давомида барча қўйилган масалалар ҳал этилди, математикани ўргатишда болаларнинг конструктив билим олишини методик-математик тайёрлаш концепцияси яратилди, шу концепцияни амалга ошириш йўналишлари ишлаб чиқилди.

Демак, мактабга тайёрлов гуруҳларида математикани ўргатишда мактабга тайёрлов гуруҳи болаларида конструктив билим беришни ривожланиши бўйича олиб борилган тадқиқот ишига яқун **ясаб қуйидаги тавсияларни** ишлаб чиқдик :

1) махсус тайёрланган математика машғулотлари орқали ижодий малакага эга бўлишга кўмаклашиш. Бунинг учун фикрлашга ва мушоҳада қилишга ўргатиш лозим бўлади;

2) ижодий тасаввур ва интуицияни ривожлантириш - биринчи навбатда, уларни геометрик материални ва геометрияга оид топшириқлари интеграциялаш асосида фазо тушунчалари, фазо тасаввури, фазовий мушоҳада кабилар асосида ривожлантириш;

3) болага қизиқиш ўйғотувчи талабчанликни ошириб, топшириқларнинг янгилиги ва қизиқувчанлиги асосида фаолиятни рағбатлантириш.

4) мактабга тайёрлов гуруҳи болаларида конструктив билим беришни ривожлантиришда касб-хунарга қизиқишни шакллантиришга олиб келиш.

Математикани ўқитишда ривожлантириш керак бўлган мактабга тайёрлов гуруҳи болаларида конструктив билим беришни ривожлантириш таърифлари биз томондан алоҳида кўрсатилди. Математикани ўқитишда мактабга тайёрлов гуруҳи болаларида конструктив билим беришни ривожлантириш ҳақида фикр юритиш мумкин бўлган ижодий кўрсаткичлар келтирилган.

#### **Адабиётлар**

1. Людмила Куцакова. *Конструирование и ручной труд в детском саду. Программа и методические рекомендации*: мозаика-синтез; Москва; 2010 г.

2. Жумаев М. Болаларда бошлангич математик тушунчаларни ривожлантириш назарияси ва методикаси. Тошкент. Илм Зиё. 2017 йил 15 б.т.

2. Эшонқулова М.Х. *Дидактические основы формирования элементарных математических представлений у дошкольников. Педагогический Вестник Казахстана* . 2018 .МРНТИ №414.37.1054.- 43-58

3. Эшонқулова М.Х. *Тайёрлов гуруҳларида элементар математик тасаввурларни шакллантириш мазмуни*// “Илмий ахборотлари” Тошкент давлат педагогика университети илмий-назарий журнал Тошкент, 2018. № 4 (17). 47-49.

4. Эшонқулова М.Х. *Формирования элементарных математических представлений у дошкольников*//«Гуманитарный тракт» научный журнал о гуманитарных науках. ISSN 2500-1159. – P.1119-1123. Кемерово, 2019г.

5. Эшонқулова М.Х. *Методика формирования элементарных математических представлений дошкольников. Ежеквартальный научно-теоретический и практический журнал*. ISSN 2227-9652.- 228-233.

6. Эшонқулова М.Х. *Ўзбекистонда таълимни ривожлантириш механизми* // Педагогика ва психологияда инновациялар. – Тошкент, 2020. Doi Journal 10.26739/2181-9513. ISSN 2181-9513. – P.67-73.

**БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМДА ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ЎҚИТИШНИНГ  
ИНТЕНСИВ УСУЛЛАРИ ТАЖРИБАСИ**

**З. О. Дадаханова,**

*Ўзбекистон Жаҳон тиллари университети 2 курс магистранти*

Биз хорижий тили дарсида мулоқотни кучайтиришга, ўқувчининг шахсини мақсадли, ҳар томонлама ривожлантиришга қаратилган қулай ҳиссий ва психологик иқлимни яратиш айниқса муҳимлигини аниқладик.

Хорижий тилларни ўқитишнинг интенсив усуллари тажрибаси, жараённинг бундай ташкил этишининг афзалликларидан далолат беради, бу чарчок, зеркиш пайдо бўлганда, бир иш туридан иккинчисига ўтишга имкон беради. Дам олиш воситаси сифатида сеvimли ва яхши ўрганилган кўшиқлар, шеърлар, ўйинлар, топишмоқлар ёки камроқ стресс талаб қиладиган бошқа турдаги машқлар ишлатиш лозим.

Хорижий тил дарси амалий, таълимий, тарбиявий ва ривожланаётган мақсадларнинг ҳар томонлама бажарилишини ҳисобга олган ҳолда кўрилиши керак.

Ўқув жараёнининг тартиблилигини назорат қилишнинг ўта муҳимлигига қарамай, бу масала ҳали умумтаълим мактабида хорижий тилларни ўқитишнинг тўғри қамрови ва услубига эга эмас. Муаммо энг мураккабларидан бири бўлиб, унинг ечими педагогик ва психологик муаммолар мажмуаси билан боғлиқ.

Ўқувчиларнинг билим, кўникма ва малакаларини текшириш ва баҳолаш тизими, биринчи навбатда, фаннинг ўзига хос хусусиятлари ва унинг мазмуни билан белгиладиган, ўзаро боғлиқ бўлган бир қатор назорат турларига жавоб беради. Бу турларга жорий назорат, оралик назорат ва яқуний назорат киради.

Ўқув жараёнида ўқувчилар аста-секин оғзаки нутқ қобилиятлари ва кўникмаларини такомиллаштириб борадилар. Ҳар бир ўқитувчи ўз ишига ижодий ёндашиши ва ўзига хос шартларни ҳисобга олган ҳолда, ўқувчилар учун берилган муайян шароитда энг самарали бўлган иш турини танлаши керак. Ўқувчиларнинг матн асосида оғзаки нутқ кўникма ва малакаларини ривожлантириш бўйича шундай мустақил ишларини ташкил этиш мумкин. Биз бу ишни қуйидагича бажаришни таклиф қилдик. Ўқувчилар янги матнни мустақил ўқишди. Жуфтликда ишлаётганда матнга олдиндан фаоллаштирилган нутқ нақшлари ва калит сўзлар. Бу иш, шунингдек, калит сўзлар ва иборалар ёрдамида жуфт бўлиб такдим этилди. Шундан сўнг, ўқувчилар бир -бирларига матннинг мазмунини айтиб беришди, шунингдек калит сўзлар ва ибораларни ишлатишди. Бу топшириқни ҳар қандай жуфтлик бажарганидан сўнг, ўқитувчи иш натижаларини назорат қила бошлайди, жуфтларни бирма -бир тинглайди, қолган ўқувчилар эса ишни давом эттирадилар. Тайёрланмаган нутқни ривожлантириш учун ўқувчиларга матн асосида коммуникатив вазиятлар бўйича турли топшириқларни таклиф қилиш фойдалидир. Биз тахминий дарс режасини таклиф қиламиз (6 синф “Birthday are fun!” мавзуси)

**Aims:**

**Educational:** - to learn about types of birthday parties;

-to learn how to write an answer to an invitation card.

**Developing:** - to enable pupils to say what birthday party they would like to have and why;

- to enable pupils to write an answer to an invitation card.

**Socio-cultural:** - to raise awareness of the importance of writing an answer to an invitation card.

**Up bringing:** - to enable pupils to ask and say the date of birthdays;

**Activity 2b Chain Drill. 5 min**

**Objectives: to give practice in using the new phrases in sentences**

This is a usual Chain Drill activity.

**Activity 2c Work in groups of 4/5. Choose a birthday party. 7 min**

**Objective: to practise talking about birthday parties**

STEP 1: Make groups of 4/5 pupils.

STEP 2: Explain that the pupils must speak in turn about what birthday party they would like to have and why

STEP 3: The group must decide what birthday party they would like to have and why.

STEP 4: Ask a representative from each group to tell the class about their choice.

**I'd like to have a dinosaur birthday party because I like dinosaurs.**

**Activity 3a Work in pairs. Read and put in order. 7 min**



Tom

*V. Post-activity*

**Activity 3b Write your answer to the invitation card. 7 min**

**Objective: to develop writing skills**

STEP 1: Ask the pupils to write the answer to the invitation cards they have received from the homework. If they do not have any, they should write to an imaginary friend.

STEP 2: Some pupils read their cards aloud.

(7 сиф “Olympic Symbols” мавзуси)

**Aims:**

**Educational:** - to learn about the symbols of the Olympic Games;

**Developing:** - to develop reading skills, creativity and presentation skills

**Socio-cultural:** - to raise awareness of the role of symbols in promoting the Olympic Games

**Up bringing:** - to enrich pupils' knowledge of our tradition and nation

**Activity 2a Work in pairs. Read and answer. 7 min**

**Objective: to expand pupils' knowledge about the Olympic Games**

STEP 1: The pupils in pairs read and answer the questions. Ask them to cover the text in 2b.

STEP 2: When they finish, say they will check their answers in Activity 2b.

NB: You can use the notes below to help the pupils answer the questions.

1) The five Olympic circles represent the five continents: Africa, North and South America, Asia and Australia. They are connected to symbolize the sports friendship amongst all the people in the world.

2) The rings are five interlocking rings, coloured blue, yellow, black, green, and red on a white field, known as the “Olympic rings”. The symbol was originally designed in 1912 by de Coubertin. He appears to have intended the rings to represent the five continents: Europe, Asia, Africa, Oceania and America. According to Coubertin, the colours of the rings together with the white of the background included the colours composing every competing nation's flag at the time

3) The Olympics Motto – Citius, Altius, Fortius.

A friend of Baron Pierre de Coubertin, Father Henri Martin Didon of the Dominican order, was the principal of Arcueil College, near Paris. An energetic teacher, he used the discipline of sport as a powerful educational tool. One day, following an inter-school athletics meeting, Didon ended his speech quoting three Latin words: Citius, Altius, Fortius (Faster, Higher, Stronger). Struck by the succinctness of this phrase, Baron Pierre de Coubertin made it the Olympic motto, pointing out that “Athletes need “freedom of excess”. That is why we gave them this motto. A motto for people who dare to try to break records”.

4) The most important thing in the Olympic Games is not to win but to take part.

5) The International Olympic Committee. The IOC is the organisation that governs the games. It decides which sports and events are held at the games. The IOC also selects the host city for the summer and winter games, at least seven years before they take place. Cities that want the games must show that they have enough stadiums for all events.

**Activity 2b Read and check your answers. 7 min**

**Objective: to develop reading skills**

The pupils read and check their answers

**Objectives: to develop writing skills;**

**to raise awareness of cultural information**

Explain to the pupils that if they want to go to their friend's birthday party, they must send the answer to the invitation. Remind the pupils about the structure of a letter.

**Answer key:**

Dear John

Thank you for your invitation.

I want to come.

See you on 12 July.

The Olympic Games have their own flag and motto. The flag is white with five circles. The circles represent the five continents of Africa, Asia, Australia, Europe and North and South America. The circles are black, blue, green, red and yellow. The flag of every country in the games has at least one of these colours. The motto of the Olympics is 'Faster, higher, stronger'.

The most exciting moment of the opening ceremony is the lighting of the Olympic Flame, another symbol of the Olympic Games. Runners bring a torch from the valley of Olympia in Greece. Thousands of runners take part in the journey. The journey starts four weeks before the opening of the Games. At the opening ceremony, the final runner carries the torch to the stadium, and lights the new Olympic Flame. Then there is a very big song, dance and music show. The Olympic Flame burns until the end of the Games.

The most important thing in the Olympic Games is not to win but to take part.

The International Olympic Committee works hard between the Games. They choose the place for the next Olympics and new sports for them too.



**Aims:**

**Educational:** to learn about the famous places of Great Britain and France; to learn about mind maps

**Developing:** to enable pupils to talk about the famous places of Great Britain and France; to enable pupils to work with mind maps

**Socio-cultural:** to raise awareness of famous places of Great Britain and France

**Up bringing:** to enrich pupils' knowledge of English.

**Learning outcomes:** At the end of the lesson pupils will be able to:

- talk about different countries;
- listen for specific information;
- speak about Europe.

**Competence:** SC1, FLCC and PC

**Type of the lesson:** Mixed, group work, individual work

**Method of the lesson:** nontraditional, mixed

**Equipment of the lesson:** Textbook “New Fly High”, pictures, internet, computers, projector, handouts

Activity 2. Look, listen and answer the questions.

Objectives: to introduce famous places of interest in France; to develop listening for specific information

**STEP 1:** Ask the pupils to look at the pictures. Ask: *What can you see in the pictures?* Accept all answers. Establish that these photos are from France. Say they will listen to the text and check their guesses.

**STEP 2:** Ask them to read the questions before listening to the text.

**STEP 3:** Play the DVD. The pupils listen and answer the questions.

**DVD script:**

**Heggy:** Look! We're in Paris, France.

**Hoggy:** OK. it's beautiful. streets. parks.

**Heggy:** Wow. look a tower. Is it the Eiffel Tower?

**Hoggy:** Yes. I'd like to climb the tower.

**Heggy:** Well. it's not easy you know there are 674 steps.

**Hoggy:** OK. I see.

**Heggy:** You know. About 6 million people visit the Eiffel Tower every year. It's very famous.

*After a while*

**Hoggy:** Heggy, look: mountains...

**Heggy:** Yes. you know skiing is a very popular sport in France. They have ski schools for children.

**Hoggy:** What school? Ski school? What do children learn there?

**Heggy:** They learn how to ski, and they learn by playing and having fun.

**Hoggy:** Wow. I'd like to go to ski school.

**Heggy:** OK. now we're flying to Great Britain. Hooray!

**Answer key:**

1) Where is the Eiffel Tower? *Its in Paris.*

2) How many steps does the Eiffel Tower have? *674.*

3) How many people visit it every ear? *About 6 million.*

4) What do children do in ski schools? *They learn how to ski.*

Activity 3a. Look, read and complete. 10 min

Objectives: to learn more about Great Britain; to learn how to work with mind maps; to teach pupils to say the new geographical names correctly

**STEP 1:** Ask the pupils to open the Workbook to Page 104 and copy the mind map (graph) into their exercise books.

**STEP 2:** Draw the pupils' attention to the map of the UK. Explain to the pupils that the full name of Great Britain is The United Kingdom of Great Britain and Northern Ireland (the UK).

**STEP 3:** Then draw the pupils attention to the centre of the mind map. Ask them to repeat after you and help with the pronunciation of the geographical names.

**STEP 4:** Ask: How many parts are there in the UK?

**Answer key: 4**

Ask: *What are they?* Elicit the answers.

Answer key: *England, Wales, Scotland, Northern Ireland*

Ask: *Whats the capital of Wales?* Elicit the answer (Cardiff), and draw their attention to how they are written on the mind map.


**STEP 5:** Once the pupils understand what to do, ask the pupils to complete the mind map for the other 3 countries.

**Answer key:**

Scotland – Edinburgh

England – London

Northern Ireland – Belfast



Activity 3b. Read and check. 6 min

Objective: to develop reading for specific information

**STEP 1:** Say that now they will read the text and check their answers.

**STEP 2:** When they finish, ask the questions:

1) *What's the capital of the UK?* Elicit that London is the capital of England and the UK.

2) *What's the capital of Wales Scotland?* Elicit the answers.

Ўқувчиларнинг муσταқил ишларини назорат қилиш, бизнингча, ўқувчилар ўз-ўзини назорат қилиш ва ўзаро назорат қилишнинг қалитлари ва бошқа воситаларидан тўғри фойдаланиши учун амалга оширилиши керак.

Тадқиқот шуни кўрсатадики, ўқувчиларнинг хорижий тилни ўрганишда ҳали суств бўлган қишлоқ мактабларида ўқувчиларнинг муσταқил ишларини ташкил этиш айниқса муҳим.

#### Адабиётлар

1. Jack C. Richards and Theodore S. Rodgers. Approaches and Methods in Language Teaching: Third Edition.: 2014 416-P.;

2. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences volume 1 issue 9 issn 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2021: 5.423

3. Eurasian journal of academic research Innovative Academy Research Support Center таълим самарадорлигини оширишда муσταқил ишларнинг ўрни. 77-83 бет

4. Лебедев О.Е. Компетентностный подход в образовании // Школьные технологии. 2004. № 5. – С. 3-12.

5. Мильруд Р.П. Методика преподавания английского языка. English Teaching Methodology: учеб. пособие для вузов. 2-е изд. - М.: Дрофа, 2007. – 256 с.
6. Миролюбов А.А. История отечественной методики обучения иностранным языкам. - М.: ИНФРА-М, 2002. - 448 с.
7. Модернизация образовательного процесса в начальной, основной и старшей школе: варианты решения / Под ред. А.Г.Каспржака и Л.Ф.Ивановой. - М.: Просвещение, 2004. – 415 с.

## **ДИДАКТИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ РОБОТОТЕХНИКИ ВО ВНЕУРОЧНОЙ РАБОТЕ**

**Джумаев Жасур Маманазарович**

Магистр педагогического института Таджикистана. Пенджикент, Таджикистан

*Реализуемая мною программа внеурочного курса «Образовательная робототехника» с использованием конструктора LEGO Mindstorms NXT и Education WeDo направлена на формирование всех видов регулятивных УУД у школьников. Наряду с техническими задачами каждое занятие курса направлено на решение общепознавательных и развивающих задач. Поэтому наряду с общедидактическими положениями преподавание каждой дисциплины определяется также специфическими для нее принципами. Принципы организации внеклассной работы сформированы на основе обобщения педагогического опыта и результатов научных исследований.*

**Ключевые слова.** *Туровая обучения, робототехника, внеклассная работа, педагогика, дидактика, формирования, образования*

*The program of the extracurricular course "Educational Robotics" that I am implementing, using the LEGO Mindstorms NXT and Education WeDo kits, is aimed at the formation of all types of regulatory UUD in schoolchildren. Along with technical tasks, each lesson of the course is aimed at solving general cognitive and developmental problems. Therefore, along with general didactic provisions, the teaching of each discipline is also determined by its specific principles. The principles of organization of extracurricular activities are formed on the basis of the generalization of pedagogical experience and the results of scientific research.*

**Key words.** *Tour training, robotics, out-of-class work, pedagogy, didactics, formation, education*

Дидактические принципы - это исходные пополнения теории обучения, которыми руководствуется учитель при организации и проведении занятий. Они вытекают из задач воспитания, закономерностей процесса обучения и определяют его содержание, формы организации и методы. Принципы имеют характер объективных законов, но в отличие от законов естественных стихийно не действуют. Для успешного осуществления учебного процесса они должны быть реализованы учителем. В дидактике рассматриваются принципы, которые являются общими для преподавания всех предметов. Но каждый предмет имеет свои особенности, которые оказывают влияние и на принципы обучения ему. Поэтому наряду с общедидактическими положениями преподавание каждой дисциплины определяется также специфическими для нее принципами. Принципы организации внеклассной работы сформированы на основе обобщения педагогического опыта и результатов научных исследований. Система их следующая: связь теории с практикой; научность; систематичность и последовательность; доступность и посильность труда для учащихся; сознательность и активность учащихся; прочность усвоения школьниками знаний, умений и навыков; наглядность; воспитание учащихся в процессе трудового обучения. Все эти принципы действуют в тесной связи друг с другом. Рассмотрим сущность каждого принципа и особенности его реализации на внеклассных занятиях по труду.

К регулятивным УУД относятся такие процессы, как целеполагание, планирование, прогнозирование, контроль, коррекция, оценка, саморегуляция. Несмотря на то что понятие «регулятивные универсальные учебные действия» появилось сравнительно недавно, вопросы формирования способности школьников к самоорганизации учебной деятельности неоднократно рассматривались на протяжении последних десятилетий многими учёными. Тем не менее, проблема поиска средств формирования навыков самоорганизации у школьников актуальна и по сей день, а введение нового термина «регулятивные универсальные учебные действия» в ФГОС лишь подтверждает это.

В последние годы появляются всё более эффективные и доступные учителю способы и средства обучения, способствующие реализации задач современного обучения. Одной из новинок

стало использование на уроках и во внеурочной деятельности образовательной робототехники, под которой понимают средство обучения, состоящее из программируемого конструктора и набора деталей. Примером могут служить наборы серии LEGO Education WeDo и LEGO Mindstorms NXT, рассчитанные на групповую деятельность детей под руководством педагога. Наборы состоят как из классических, так и из специальных деталей (шестерни, оси, моторы, датчики, кулачки, ремни, втулки, шкивы и т.д.).

Рассмотрим, как именно использование конструкторов LEGO позволяет воздействовать на формирование регулятивных УУД.

1. Развитие способности к целеполаганию. Школьник учится ставить цель и, удерживая её на протяжении всего занятия, достигает необходимого результата. Самостоятельно разрабатывая собственного робота из набора LEGO, ребёнок учится ставить перед собой учебную задачу.

2. Развитие способности к планированию. Поставив перед собой цель, школьник составляет краткий или подробный план деятельности по моделированию нового робота или изменению уже знакомого. Ребёнок учится работать и по готовым инструкциям (входящим в комплект конструктора), и по схемам, разработанным учителем. Указания по выполнению плана могут быть как письменными или графическими, так и устными. Помимо этого, работая в команде, надо уметь правильно распределить обязанности между всеми участниками процесса.

3. Развитие способности к прогнозированию. Школьник учится прогнозировать результаты своей деятельности, выбирая различные способы выполнения одного и того же задания, так как, изменяя схему или последовательность сбора модели, используя разные детали, ученик получает различные варианты одного и того же робота.

4. Формирование действия контроля. Выполнив задание, учащийся получает готовую модель и имеет возможность самостоятельно проверить правильность её выполнения. Тем самым формируется умение контролировать и оценивать учебные действия в соответствии с поставленной задачей и условиями её реализации, указанное в числе метапредметных результатов обучения.

5. Формирование действия коррекции. Обнаружив недочёты в своей работе, школьник имеет возможность внести коррективы на любой стадии сборки модели. Он учится критично относиться к результатам своей деятельности и деятельности окружающих. Если модель робота LEGO не выполняет запланированные функции, значит, на какой-то стадии работы допущена ошибка, которая требует исправления. В итоге происходит формирование умения понимать причины успеха/неуспеха учебной деятельности и способности действовать даже в ситуациях неуспеха.

6. Развитие способности к оценке. Учащийся получает возможность сравнивать свою модель с моделями одноклассников, а значит, оценить уровень выполнения своей работы: сложность, функциональность, внешнюю эстетичность, рациональность робота. При этом ребёнок учится объективно оценивать результат не только своей, но и чужой деятельности. На основе полученных результатов он может сделать выводы об уровне своих знаний и умений.

7. Формирование саморегуляции. Процесс сборки модели требует терпения и самообладания. Если по каким-то причинам школьнику приходится делать работу сначала, ему нужно приложить некоторое волевое усилие для успешного устранения недочётов. При общении с напарниками по заданию ребёнку необходим самоконтроль, поскольку в ходе планирования или выполнения модели у детей могут возникать разногласия. Таким образом происходит формирование навыков сотрудничества со взрослыми и сверстниками в разных ситуациях, развитие умений не создавать конфликтов и находить выходы из спорных ситуаций.

Реализуемая мною программа внеурочного курса «Образовательная робототехника» с использованием конструктора LEGO Mindstorms NXT и Education WeDo направлена на формирование всех видов регулятивных УУД у школьников. Наряду с техническими задачами каждое занятие курса направлено на решение общепознавательных и развивающих задач.

Связь теории с практикой. Средством реализации этого принципа является соединение обучения с практической деятельностью и трудом школьников. Участие в труде порождает у них потребность в знаниях, делает обучение более осмысленным. На практике они убеждаются в необходимости приобретения знаний как руководства к деятельности. Благодаря применению на практике знания конкретизируются, становятся более жизненными. В свою очередь, труд обогащает жизненный опыт школьников, дает им конкретный материал, который в дальнейшем используется во внеклассной работе для формирования научных понятий и обобщений, раскрытия научных закономерностей.

Научность. Принцип требует, чтобы изучение техники черчения и труда велось на строгой научной основе, чтобы учащимся давались только достоверные, проверенные практикой научные знания. Для работы необходимо отбирать новейшие достижения науки и техники, передовые методы технологии, опыт новаторов производства. Принцип научности требует, чтобы на внеклассных занятиях (к примеру по труду) использовалось новейшее современное оборудование, рабочие инструменты и измерительная техника. Учащиеся должны знакомиться с новыми материалами, изучать их свойства и способы применения в народном хозяйстве.

В процессе выполнения работы необходимо пользоваться только научной терминологией, употреблять принятые в науке символические обозначения, формулы и размерности. Это относится также к графическим материалам. Изложение можно вести в популярной форме, но на строгой научной основе, без вульгаризации. В ходе практической работы учащиеся должны овладевать наиболее целесообразными приемами ее выполнения и способами самоконтроля своих действий и их результатов.

В числе других требований принципа научности можно указать на необходимость ознакомления учащихся с историей научного и изучаемого явления, методами его открытия и внедрения в производство.

Этот принцип находит отражение в системе учебных программ и учебников. По мере повышения уровня подготовки дидактическая система все больше приближается к системе науки. Точное следование программе при проведении занятий и работе с учебником будут способствовать усвоению учащимися знаний в определенной системе. Для полной реализации этого принципа учителю труда необходимо знать и применять различные методы обучения и так организовать внеклассное мероприятие, чтобы оно вело к систематизации знаний и умений учащихся. Техничко-технологические сведения должны сообщаться в строгой последовательности, когда знания и умения по новому разделу опираются на ранее полученные знания по основам наук и уже изученных разделов трудового обучения.

При реализации этого принципа необходимо учитывать уровни физических сил и познавательных возможностей учащихся и способность развить их. Это достигается постепенным усложнением работ. Нужно добавлять все новые операции. Вместе с тем имеет место концентрация в овладении школьниками видами работ использовавших одних и те же материалов, инструментов и приспособлений. Систематизация знаний учащимися достигается обобщающим повторением материала по каждой теме. Этому способствует также установление межпредметных связей и опора трудовых действий на теоретические знания. Систематизация трудовых умений и навыков обеспечивается усложнением выполняемых задач.

Доступность и посильность труда. Принцип доступности требует, чтобы трудовые знания по содержанию, объему и методам выполнения соответствовали возрасту и уровню подготовки учащихся, их физическим силам и познавательным возможностям. Доступность определяется наивысшей границей возможностей ученика с постепенным усложнением заданий. Благодаря этому у школьника развиваются физические силы и познавательные возможности, растет предел допустимости.

Сознательность и активность. Этот принцип требует так организовать мероприятие или обучение, чтобы учащиеся могли сознательно овладевать знаниями и методами применения их на практике, трудовыми умениями и навыками, чтобы у них развивались творческая инициатива и самостоятельность, мышление, речь и формировалась трудовая культура. Реализация принципа начинается с раскрытия перед учащимися задач и конкретных целей. Активность их проявляется в ходе самостоятельного овладения теоретическим материалом, решением творческих задач. Большую роль в развитии сознательности и активности играет обучение школьников анализу технологических процессов, организации своего рабочего места, приемам творческой деятельности.

### ***Литература***

1. Абушкин, Дмитрий Борисович. Педагогический STEM-парк МГПУ / Д.Б. Абушкин // Информатика и образование. ИНФО. - 2017. - № 10. - С. 8-10.

2. Алексеевский, П.И. Робототехническая реализация модельной практикоориентированной задачи об оптимальной беспилотной транспортировке грузов / П.И. Алексеевский, О.В. Аксенова, В.Ю. Бодряков // Информатика и образование. ИНФО. - 2018. - № 8. - С. 51-60.

3. Асмолов А.Г. Как проектировать универсальные учебные действия в начальной школе: от действия к мысли: пос. для учителя / А.Г. Асмолов, Г.В. Бурменская, И.А. Володарская [и др.] ; под ред. А.Г. Асмолова. – М.: Просвещение, 2008. – 151 с.

4. Бельков Д.М. Задания областного открытого сказочного турнира по робототехнике / Д.М. Бельков, М.Е. Козловских, И.Н. Слинкина // Информатика в школе. - 2019. - № 3. - С. 32-39.

5. Бельков Д.М. Задания турнира по робототехнике "Автошкола" / Д.М. Бельков, М.Е. Козловских, И.Н. Слинкина // Информатика в школе. - 2019. - № 8. - С. 25-35.

6. Джумаев Ж.М. Научно-практические основы изучения предмета «Технология» в начальной школе. Профессиональное образование и общество. — 2021. — №2(38). — 300 с.

7. Примерная основная образовательная программа образовательного учреждения: Начальная школа / Сост. Е.С. Савинов. – М. :Просвещение, 2010. – 191 с.

## БОШЛАНҒИЧ СИНФЛАРДА ГЕНДЕРЛИ ЁНДАШУВНИНГ ПЕДАГОГИК ПСИХОЛОГИК АСОСЛАРИ

**З. Т. Холматова, ФарДУ ўқитувчиси**

**Аннотация.** Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенатининг йигирманчи ялти мажлисида Президент ўта муҳим ва долзарб вазифаларни амалга ошириш учун аёллар ҳуқуқларига нисбатан камситилишнинг барча шаклларида барҳам бериш бўйича умумэътироф этилган халқаро меъёрларни миллий қонунчиликка мувофиқлаштириш, Ўзбекистон Республикасига бириктирилган гендер тенглиги бўйича халқаро ҳужжатлар нормаларининг амалда бажарилишини мониторинг қилиш ва уларда белгиланган тавсияларнинг бажарилишини назорат қилиш вазифаси юклатилди.

Мазкур иш гендерли ёндошув асосида қурилган ҳозирги замон мактабидаги таълим жараёнининг таҳлилидан иборатдир.

**Калит сўзлар.** Гендер, тушунча, таълим, ўқитиш, тарбия, мактаб ва ОТМ, стратегия, эркак ва аёл.

Как напоминает пресс-служба верхней палаты парламента, на двадцатом пленарном заседании Сената Олий Мажлиса Узбекистана президент предложил для реализации чрезвычайно важных и актуальных задач основными задачами комитета определены разработка рекомендаций по осуществлению государственной политики, нацеленной на обеспечение гендерного равенства в стране и активного участия женщин в государственной и общественной работе, рассмотрение вопросов гендерного равенства и законов по развитию института семьи на предмет их соответствия целям и задачам проводимых в стране реформ и нормам международного права, и представление соответствующих заключений.

Данная работа представляет собой анализ образовательного процесса в современной школе на основе гендерного подхода.

**Ключевые слова.** Гендер, понятий, образования, обучения, воспитания, школа и ВУЗ, стратегия, женщина и мужчина.

As the press service of the upper house of parliament reminds, at the twentieth plenary session of the Senate of the Oliy Majlis of Uzbekistan, the President proposed for the implementation of extremely important and urgent tasks, the main tasks of the committee are to develop recommendations for the implementation of state policy aimed at ensuring gender equality in the country and the active participation of women in state and public work, consideration of issues of gender equality and laws on the development of the institution of the family in terms of their compliance with the goals and objectives of the reforms carried out in the country and the norms of international law, and submission of relevant conclusions.

This work is an analysis of the educational process in a modern school based on a gender approach.

**Key words.** Gender, concepts, education, training, upbringing, school and university, strategy, woman and man.

Ўзбекистонда жамиятнинг барча соҳаларида аёл ва эркаклар тенг ҳуқуқлигини таъминлашни мақсад қилувчи 2020-2030 йилларда Гендер тенгликка эришиш стратегияси қабул қилинади. Стратегиядан кўзланган асосий мақсад – барча аёллар ва қизлар, эркаклар ва болалар учун уларнинг ирки, ижтимоий келиб чиқиши, этиқоди, ижтимоий мавқеидан қатъи назар ижтимоий, иқтисодий, сиёсий ҳаётдаги фундаментал инсон ҳуқуқларининг таъминланишига эришиш ҳисобланади.

«Мамлакатда барча соҳаларда аёл ва эркекларнинг тенг ҳуқуқ ва имкониятларидан фойдаланишига ҳаракат қилинмоқда. Яқинда бўлиб ўтган сайловлар мисолида ҳам буни кўриш мумкин. Ҳозирда Ўзбекистон соғлиқни сақлаш ва таълим соҳасида гендер тенглигига эришди. Бошқа йўналишларда ҳам шу натижага эришиш учун мазкур стратегия ёрдам беради»

Стратегияда 9та мақсад камраб олинган:

– ижтимоий-сиёсий ҳаётда эркек ва аёлларнинг иштирок этишида тенг имконият ва ҳуқуқларни яратиш;

– аёл ва эркекларнинг иқтисодий, бандлик ва меҳнат мигрантлари ҳуқуқларини ҳимоя қилишда гендер тенглигини таъминлаш;

– бутун ҳаёт давомида барча учун адолатли ва сифатли таълимни таъминлаш;

– барча хотин-қизлар учун гендер тенглигини таъминлаш, зўравонликдан ҳимоялаш, одам савдосига чек қўйиш;

– барча эркек ва аёллар учун ижтимоий ҳимоя, соғлом турмуш тарзини таъминлаш; –миллий гендер статистикасини ривожлантириш;

– режалаштириш ва бюджетлаштиришда гендер масаласини инобатга олиш;/

– ОАВда гендер муаммоларининг кенг ёритилишини таъминлаш;

– барча учун хавфсиз экологик муҳитни таъминлаш масалаларига хотин-қизларни жалб қилиш.

Гендер тенгликка эришиш стратегияси БМТнинг 2030 йилгача мўлжалланган Барқарор ривожланиш мақсадлари, 2017-2021 йилларда Ўзбекистонни ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси, «Хотин-қизлар ва эркеклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятлар кафолатлари тўғрисида»ги қонунга асосланган [1-3].

Ҳозирда ҳужжат бўйича тегишли идора ва ташкилотларнинг фикрлари ўрганилиб, муҳокама жараёни олиб борилмоқда. Стратегия шу йилнинг февраль ойида тасдиқланиши кутиляпти. Стратегияда қайд этилган мақсадларга 2030 йилгача эришиш режалаштирилган [3].

Республикамизда қарор топган замонавий шарт-шароитларда таълимий, тарбиявий, иқтисодий, ижтимоий ва маданий функцияларни бажармоқда. Ҳозирги кунда жамиятимизда ижтимоий-иқтисодий ўзгаришларнинг жадал амалга оширилиши, таълим тизимининг босқичма-босқич ислоҳ қилиб борилиши – мураккаб ижтимоий ҳодиса сифатида умумэтибофли ва маънавий қизиқишига молик жараёнга айланди. Таълим тизимининг умумий мақсади тенг ҳуқуқли ва демократик давлат талабига жавоб берувчи жамият аъзоларини тарбиялаб беришдан иборатдир. Демак, касбий фаолиятга педагогик фаоллашув ёрдамида инсон ҳаётига, шахс тарбиясига, ижтимоий муносабатларривожланишига маълум таъсир кўрсатиш мумкин. Фаол ўқитувчи шахсини шакллантириш ижтимоий уйғунлашуви эса таълимни тараққий эттиришнинг муҳим омили ҳисобланади.

Педагогик фаолиятнинг обрў-эътиборини ва ижтимоий мақомини ошириш юзасидан давлат сиёсати рўёбга чиқарилади. Таълим олувчиларнинг ва педагогларнинг ўқиши, соғлига ва дам олиши учун зарур шароитлар яратилади.

Таълим муассасалари ва соғлиқни сақлаш органлари болалар ҳамда ўқувчи ёшларнинг соғлигини сақлаш ва мустаҳкамлаш учун зарур чораларни кўрадилар. Ўқув-тарбия жараёнининг соғломлаштиришга қаратилган йўналишини рўёбга чиқариш, соғлом турмуш тарзи нормаларини жорий этиш учун шароитлар таъминланади.

Ҳозирги замон мактабининг кадриятли ориентациялари, мақсадлари ва нормалари жамиятда маълум ва умуқабул қилинган сифатлар билан бир қаторда «аёллик», «эркаклик» каби сифатлар ҳам киритилса, бу бирор маънода янги гендерли асосда кўрилган мактаб бўлиши англанди ва кўрсатилди. Бу кадриятлар, мақсадлар ва нормаларни таълим муассасаси фаолиятининг «охирги натижасига» киритилганида бу тушунча маъносининг кенгайиши, ўқувчининг янги «хос характеристикалари» киритилиши ва шунингдек, таълим жараёнининг коррекцияланиши тўғрисида гапириш мумкин.

Шуни ҳам айтиб ўтамизки, ҳар бир индивид ўзида маскулинлик ва феминлик хислатларига у ёки бу даражада эга бўлиши мумкин. Шунинг учун табиат томонидан икки жинс белгиланишига қарамасдан, маданият, тарихий давр, жамиятдаги ўзгаришларга боғлиқ равишда гендер типлари вариантлари, гендерли хилма-хиллик кўпроқ кузатилади. Гендер тушунчасининг турли фанлардаги талқинини кўриб чиқайлик.

Бу ерда муаммоли ва мунозарали ўринлар анча кўп. Ўтказилган тадқиқот муҳокама қилинаётган муаммонинг муфассал тўлиқ тавсифига даъвогарлик қилмайди. Шунга қарамасдан, ҳозирги замон мактаби шароитларида таълимда гендерли ёндошув жамиятда гендер маданиятини шакллантириш учун, гендерли таълим концепциясини ишлаб чиқиш учун фойдали бўлди. Бунда

тадқиқот давомида гендер тадқиқотлари соҳасида қилинган таҳлил фақат педагогикадагина эмас, балки социология, психология, фалсафада ҳам фойдали бўлади деб ўйлаймиз.

«Гендер» тушунчаси аниқ психолого-педагогик характеристикаларга эга бўлмаганлиги ва педагогикада етарли даражада ишлаб чиқилмаганлиги аниқланди. Бу эса бизга «гендер» тушунчаси моҳиятини таълим соҳаси доирасида аниқлаштириш имконини берди. Бундай фарз, тахмин қўйилди: «гендерни» эркак ва аёл жинсидаги шахслар хулқ-атворининг шахсинг психологик установакалари, жамият ва давлат талабларига мувофиқлашган хос характеристикалари мажмуи сифатида қараш мумкин.

Психологияда “гендер” “ижтимоий-биологик” характеристика сифатида қаралади ва унинг ёрдамида “эркак” ва “аёл”га таъриф берилади [5]. Фалсафада “гендер” категорияси “комплекс механизм-технология бўлиб, у субъектни нормативлик жараёнида ҳам эркак ва ҳам аёл сифатида таърифлайди ва одам экспектацияларга мувофиқ равишда ким бўлишини ростлашни белгилайди [9].

Социологияда “гендер” атамаси таълимда, касбий фаолиятда, ҳокимиятга эришишда, оилавий ролда репродуктив хулқ-атворда индивидуал имкониятларни аниқлайдиган ижтимоий статус сифатида талқин қилинади [5].

Халқаро феминистик ҳамжамят томонидан гендер тушунчаси “одамларга жамият томонидан уларнинг биологик жинсига боғлиқ равишда бериладиган барча ижтимоий ва маданий нормалар, қоидалар ва ролларни белгилаш учун фойдаланиладиган” тушунча сифатида тан олинган.

Муаммонинг назарий таҳлили ва эксперимент ишининг бошланғич тажрибаси гендерли ёндашув асосидаги мактаб моделининг қуйидаги тамойилларини таърифлаш имконини берди:

- жисмоний, психологик, ижтимоий, маънавий саломатликни сақлаш тамойили;
- табиатга мувофиқлик тамойили – у эркак ва аёл индивидуаллигини қарор топтириш, жинсларнинг ўзаро муносабат маданиятини, эркаклик ва аёлликни тарбиялашга йўналтирилган таълим мазмунида амалга оширилади;

- мажмуавийлик тамойили у воситалар мажмуи ва интегратив дастурлардан фойдаланишда намоён бўлади. Интеграция жараёнлари хилма-хил шаклларда намоён бўлиши мумкин: танлов бўйича ўқув фанлари мажмуасини яратиш; жинс факторини ҳисобга олиб, таълим шакллари ва методларини яратиш; янги таълим фезосини яратиш;

- ижтимоийлик тамойили – у мактаб битирувчиларида одимлар билан ўзаро муносабатларни қуриш уқувларини шакллантириш, ўз хулқ-атвор стратегиясини ишлаб чиқиш конкрет ҳаётий муаммоларни ҳал қилиш уқувларини шакллантиришга қаратилган.

Бу таърифланган тамойиллар бир жинсли синфларда таълим олувчи қмзлар ва ўсмирлар учун хос умумий хислатларни аниқлаш имконини беради. Булар жумласига қуйидагилар хосдир.

- ўқишда психологик тўсиқларнинг йўқлиги;
- жисмоний ва маънавий такомиллашувга эҳтиёж;
- эркак ва аёл индивидуаллигини қабул қилиш, унинг бетақдорлиги ва ноёблиги;
- жинслар орасида дўстона муносабат яратиш ва ўқитиш;
- ўз кучларига ишонч, ўз-ўзи бўлиш қобилияти.

Юқорида баён қилинган тамойилларга батафсилроқ тўхталиш. Уларнинг ҳар бирининг маъносини очаётиб, кадриятлар тизимида жисмоний ва ахлоқий соғломлик биринчи ўринда туришини кўрсатиб ўтамиз. «Соғлиқ – бу фақат касалликлар ва жисмоний камчиликлар йўқлигигина эмас, балки тўла жисмоний, интеллектуал ва рухий бардамлилигидир» (Халқаро соғлиқни сақлаш ташкилоти матнидан).

Ўқувчиларнинг ёш, психологик хусусиятларига боғлиқ равишда умумий ривожланиш қонуниятлари тўғрисида билимсиз соғлиқни мустаҳкамлайди, шахсни фаол, шодмон, негатив таъсирларга қарши туришга қодир бўлади. Бошқа одамлар, қарма-қарши жинс билан тўғри, соғлом муносабатлар ички ривожланишнинг бепоён шарт, ўғил-қиз бола ички салоҳиятининг очилиш шартидир

Таълим-тарбия асосий ва қўшимча жараённинг амалга ошириши бу ахборот асосида амалга оширилади. Бир жинсли синфларда дарсларнинг олиб борилиши, заҳёт тадбирлари, танловлар, мавзувий суҳбатлар, диспутлар жинслар ўзаро муносабати маданиятининг шаклланишига, аёл ва эркак индивидуаллигининг қарор топишига ёрдам беради.

Юқорида баён қилинган фикр-мулоҳазалар асосида гендерли ёндашув асосидаги мактабнинг нормалар, тамойиллар, шароитлар, муваффақиятлилик кўрсаткичларини ўз ичига оладиган характеристикалари тақдим қилинди.

Бир жинсли синфда ўқиш жараёнида ҳар бир ўқувчи таълим жараёнида ўз нормаси, олға силжиш динамикаси бўйича даражаланиши мумкин. Болалар ақлий ривожланишининг натижалари тўғрисида турли методикалар асосида боланинг ёшига мувофиқ тестлаш гувоҳлик беради.

Педагогик тестлашни ташкил этишда қуйидаги талабларга амал қилиниши лозим:

- стандартлаш (нормаларга, бола индивидуаллигига боғлиқ равишда жинс факторини ҳисобга олиб, уларнинг фарқига ориентацияланиш)

– ишончлилик (натижаларнинг нисбий доимийлиги, барқарорлиги, мувофиқлашганлиги);

– валидлик (қиз болалар ва ўғил болалар ёш хусусиятларига боғлиқ равишда методиканинг яроқчилиги тўғрисидаги маълумотларни ўз ичига олувчи характеристика).

“Аёл идеали” ва “Эркак идеали” масаласи бўйича юқори синфлар ўқувчилари ва талабаларнинг фикрларини ўрганиш мақсадида социолог Н.Алиқориев анкетасидан фойдаланилди ҳамда у юқори синфлар ўқувчилари ва талабалар учун мослаштирилди.

Шундай қилиб, биз томонимиздан, гендерли ёндашув асосида кўрилган мактаб таълим жараёни моделининг асосий характеристикалари тақдим этилди ва тавсифланди. Мазкур модель маълум саъй-ҳаракатлар тўплами, унинг ривожланиш шароитларини ифодаловчи бирор тизимни назарда тутди. Бу яратилган модель, иш қуроли бўлгани ҳолда, ўғил болалар ва қиз болалар салоҳиятли имкониятларини очиш ва ривожлантиришга таъсир этувчи факторларни таҳлил қилиш ва ривожлантиришга имкон бериш билан бирга, балки тизимнинг ўзига, унинг амал қилиш шароитларига тузатишлар киритишга ҳам имкон беради.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. *Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураимиз. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2017 йил, 488 бет.*
2. *Постановление Кенгаша Сената Олий Мажлиса «О совершенствовании деятельности Сената Олий Мажлиса Республики Узбекистан в сфере всесторонней поддержки женщин и обеспечения гендерного равенства» 2019.*
3. *Авлоний А. Танланган асарлар. Икки жилдлик. 2-жилд. –Т., Маънавият, 1998. –304 б.*
4. *Маънавият –асосий тушунчалар изоҳли лугат.Т., 2005 йил 547 бет.*
5. *Маънавият юлдузлари: (Марказий Осиёлик маишхур сиймолар, алломалар, адиблар)/Маъсул муҳаррир: М.М.Хайруллаев.-Т.:А.Кодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 1999, -400 б.*
6. *Мунавваров А.Қ. Оила педагогикаси.– Т., Ўқитувчи, 1994. – 112 б.*
7. *Немов Р.С. Статистический анализ экспериментальных данных и способов наглядного представления результатов. – М., Просвещение, 1992. – 550 с.*
8. *Холматова З.Т Восточный менталитет: права женщин и гендерное равенство при воспитании учащихся. (Монография) LAP LAMBERT Academic Publishing is trademark of International Book Market Service Ltd., member of Omni Scriptum Publishing Group 17 ISBN 978-620-2-51702-7*
9. *Холматова З.Т Гендерное воспитание дошкольников. Наманган давлат университети илмий ахборотномаси илмий журнал 2019 9-сон*
10. *Холматова З.Т Обеспечение характеристик гендерного подхода образовательного процесса. Педагогика ва психологияда инновациялар.. №7 (2020) doi <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9513-2020-7 39-49> б.*

## **ИНТЕГРАЦИЯЛАШГАН ДАРСЛАРДА АЛЛОМАЛАР ФАОЛИЯТИНИ ЎРГАНИШ**

**М. Э. Иноятова,**

**ЎзПФТИ бўлим мудири, педагогика фанлари номзоди**

**Н. Т. Жалилова,**

**ЎзПФТИ таянч докторанти**

*Интеграциялашган таълимни ташкил этиш – жамиятнинг ижтимоий талаблари ва давлат буюртмасига асосланади. Мазкур муаммони ҳал этишда таълимнинг интегратив жараёнлари муҳим ўрин тутди. Мақолада интегратив таълимнинг ўрни ва интегратив принципнинг моҳияти ёритилиб, интегратив дарс намунаси тақдим этилган.*

**Таянч сўзлар:** дарс, интеграция, интегратив принцип, энциклопедист алломалар, дунёқараиш, мафкура, баркамол инсон.

Организация **интегрированного обучения** — это ответ на государственный заказ и социальный запрос общества. При решении этой проблемы важную роль

играют **интегративные** процессы обучения. В статье освещается место и значения **интегрированного обучения**, содержания интегративных принципов, представляется образец интегративного урока.

*Ключевые слова:* lesson, integration, learning-encyclopedias, worldview, harmoniously developed personality

*The organization of integrated training is a response to the state order and the social demand of society. Integrative learning processes play an important role in solving this problem. The article highlights the place and meaning of integrated learning, the content of integrative principles, and presents an example of an integrative lesson.*

**Key words:** social-humanitarian knowledge, culture, enlightenment, worldview, ideology, harmonious person.

Интегратив таълимнинг муҳим хусусияти унинг инсон табиатига мувофиқлиги тамойилига асосланганлигидадир. Таълимни интеграциялаш орқали билим ва тушунчаларнинг яхлитлигига, дарс вақтининг тежалишига, ўқув юкламасининг камайишига эришилади. Инсон табиати моҳиятан интеграллик (яхлитлик, ўзаро алоқадорлик, ягоналик) хусусиятига эга, унда интеграллик гўдаклик давриданоқ дастлабки лаёқат сифатида шаклланади. У дунёни, атроф табиатни яхлитликда кўради ва идрок этади. Бола учун ям-яшил табиат – бу дарахтлар, гуллар, капалаклар, майсалар, ўсимликлар, кўм-кўк, ложувард осмон, мушукча ёки бошқа бир сеvimли жонивори ўйнаб юрган, саррин шаббода эсиб турган маскан, ўзи яшаб турган оламдир. Шу сабабдан педагогик интеграция – бу ўз-ўзини ва атроф-теваракни табиий ўрганиш услуги бўлиб ҳисобланади.

Таълимда интегратив принципдан фойдаланишдан мақсад ўқув предметлари ўртасидаги ўзаро боғлиқликни кўрсатишдан иборат бўлибгина қолмай, балки уларни таркибий уйғунлигини намойиш этиш орқали атроф оламнинг яхлит бирлигини кўрсатишдан иборат. Таълимда интеграцияни амалга татбиқ этишнинг кенг тарқалган шакли – бу интегратив дарслардир.

Ўзбекистон Педагогика фанлари илмий тадқиқот институтида 2004-2007 йиллар давомида интегратив таълим бўйича кенг тадқиқотлар, қизиқарли таълимий ёндашувлар ва диссертацион тадқиқот ишлари амалга оширилган. Уларни амалиётга ҳақиқий маънода татбиқ этишга қаратилган ишлар ҳам босқичма-босқич амалга ошмоқда. Хусусан, Республика таълим марказининг ЎзПФИТИ олимлари билан ҳамфикрликда айрим фанларни (масалан, бошланғич таълимда она тили ва ўқиш фанини) яхлитлаштиришга қаратилган тажрибаларни амалга оширганлиги, “Одобнома”, “Ватан туйғуси”, “Маънавият асослари” каби фанларнинг “Тарбия” фани таркибида уйғунлаштирилгани кабилар таълимга интеграцияни татбиқ этишга оид тажрибаларнинг амалиётга татбиқини англатади.

Интегратив дарслар ўқитувчига ўқитишнинг хилма-хил методларидан фойдаланиш, ўқувчиларнинг индивидуал, гуруҳли ва фронтал ишларини қўшиб олиб бориш имконини беради. Барчамизга маълумки, дарсга таълимнинг асосий шакли сифатида қараган Ян Амос Коменский уни бундан уч аср муқаддам назарий жиҳатдан асослаб берган эди.

Ҳар бир дарс ўқувчи учун олға ташланган бир қадам, ақлий, интеллектуал, маънавий ривожланиш йўлидаги яна бир олға интилиш. Шу маънода у ўқитувчи учун йирик бир асардир. Ёзувчи муайян асар устида ишлар экан. Аввал унинг қисқа режасини тузиб олади. Унда иштирок этадиган бадиий қаҳрамонлар сони, уларнинг характери, сюжет линиясини белгилаб олади.

Худди шу каби ўқитувчи ҳам дарс устида ишлар экан, у орқали синфда ўтирган қора кўзларнинг характер хусусиятлари, уларни қизиқиши, билимларни ўзлаштириш, янги билимларни ўқувчилар ўзлаштириши учун қулай қилиб бериш, ўқувчиларда мустақил фикрлашни таркиб топтиришни назарда тутати. Ўқитувчи дарсни ўтиб чиқиб кетар экан. Аввало “Қандай ютуқларни қўлга киритдим, нима камчиликларга йўл қўйдим?” деб ўйлайди. Кейинги дарсларида эришган ютуқларини сақлаб қола олган ҳолда, йўл қўйган камчиликларини тузата олган ўқитувчи ўзи мактаб яратади. Пухта методикасига эга бўлади, бунда ўзаро тажриба алмашишнинг ўрни жуда катта. Қуйида алломаларнинг табиий-илмий фаолиятини ўрганишга қаратилган интегратив дарс намунасини келтириб ўтамыз. Шарқ алломаларининг жаҳон илм-фан тараққиётига кўрсатган таъсири ниҳоятда катта бўлиб, буни ўқувчилар билишлари лозим<sup>1</sup>. Бунинг учун дарсда слайдларни намойиш қилиш мақсадида компьютер ва проектордан фойдаланиш, ўқувчиларнинг

<sup>1</sup> Иноятова, М. Э. Некоторые сравнительные аспекты развития дидактики на Западе и на Востоке / М. Э. Иноятова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2012. — № 4 (39). — С. 409-412. — URL: <https://moluch.ru/archive/39/4509/> (дата обращения: 23.03.2022)

гуруҳли ишлашларини ташкил этиш, стол ва стулларни ўқувчиларнинг гуруҳли ишлашига қулай тарзда жойлаштириш лозим. Ҳар бир гуруҳ столига А4 форматдаги қоғоз варағи, маркер, клей кабилар қўйилади. Доскага алломалар (Абу Наср Форобий, Абу Али ибн Сино, Беруний кабилар)нинг расмлари осиб қўйилади. Шунингдек, ўқитувчи столида дарслик, мавзуга оид қўшимча расмлар, тарқатма материаллар, Жаҳон ва Ўзбекистон хариталари кабилар тахт қилиб қўйилади.

Ўқитувчи ўқувчиларни антропологлар, лингвистлар, географлар, тадқиқотчилар гуруҳига бўлиб олинади. Гуруҳлар ўз гуруҳлари номи ёзилган табличко қўйилган столларга жойлашадилар (таъкидлаш жоизки, гуруҳларнинг шундай аталишининг ўзиёқ дарснинг интегратив характерини белгилаб беради).

“Антропологлар” алломаларнинг ташқи қиёфаларини тасвирлашлари лозим. Бундай тасвир унинг маънавиятини очиб бериш билан бевосита боғланиши зарур: Масалан, “Ибн Сино қирра бурун, ўткир нигоҳли, кўзлари катта-катта, пешонаси кенг қиёфага эга эди. Унинг кенг пешонаси ниҳоятда ақлли киши эканидан дарак беради” каби.

“Географлар” ҳар бир алломанинг туғилган шаҳарларини таърифлаб, уни харитадан топиб кўрсатадилар.

“Лингвистлар” ўқитувчи берган матнларни ўқиб, остига чизилган сўзларни изоҳлаб берадилар. Масалан: “мактаб”, “Дорул-ҳикма”, “академия” сўзлари маъносини а

“Тадқиқотчилар” алломалар томонидан ёзилган асарлар рўйхатини, улардан энг асосийлари ҳақидаги маълумотларни айтиб берадилар.

Шунингдек, ўқувчилар томонидан олдиндан сайланган ҳакамлар уларнинг меҳнатларини баҳолаш билан бирга, қўшимча фикрларини баён қиладилар.

Албатта, лойиҳа методига асосланган ушбу дарсга ўқувчилар олдиндан ўқитувчи тавсия қилган асарлар, газета ва журнал материалларини ўқиб, ўрганиб тайёрланиб келадилар.

Машғулот сўнггида ўқитувчи ўқувчилар айтган маълумотларга қўшимчалар киритади, айрим хато ва камчиликларни тузатиб, изоҳлайди. Ўқувчи билимини рағбатлантиради.

Мактаб амалиётида бундай дарсларнинг талаб даражасида ташкил этилиши дарс сифатининг ошишига, ўқувчилар билимининг аниқ далланган, илмий асосга эга бўлишига олиб келади.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Селевко Г.К. Энциклопедия образовательных технологий. В 2 т. Т.1. – М.: НИИ школьных технологий, 2006. – 816 с.
2. Джуринский А.Н. Развитие образования в современном мире: Учеб. пособие. - М.: изд.центр ВЛАДОС, 1999. – 200 с.
3. Иноятова, М. Э. Некоторые сравнительные аспекты развития дидактики на Западе и на Востоке / М. Э. Иноятова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2012. — № 4 (39). — С. 409-412. — URL: <https://moluch.ru/archive/39/4509/>

## **BOSHLANG'ICH SINFLARDA INTEGRASIYALASHGAN TA'LIM ASOSIDA DARSLARNI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI**

**M.M.Murodova, BuxDUPI magistranti**

**N.B.Adizova, BuxDUPI dotsenti**

*Ushbu tezisdagi boshlang'ich sinflarda integrasiyalashgan ta'lim asosida darslarni tashkil etishning muhim ayrim jihatlari haqida firka mulohazalar nazariy va ilmiy tomondan yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** fan, boshlang'ich, ta'lim, integrasiya, integration, integer, maktab, tarbiya, tabiat, botanika, geografiya.

*This thesis provides theoretical and scientific insights into some important aspects of the organization of lessons based on integrated education in the primary grades.*

**Keywords:** science, elementary, education, integration, integration, integer, school, education, nature, botany, geography.

*В тезисе дается теоретическое и научное осмысление некоторых важных аспектов организации уроков на основе интегрированного обучения в начальных классах.*

**Ключевые слова:** наука, начальное, образование, интеграция, интеграция, целое, школа, образование, природа, ботаника, география.

Taraqqiyotning hozirgi bosqichida integratsiyalashgan o'quv yondashuvi [maktab ta'limi](#) sanalib, integrativ bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish asosida dasrlar samaradoligini oshirishga muhim ahamiyatga ega. Integratsiyalashgan ta'lim turli xildagi turlar, shakllari, usullar, obyektlar asosida qurilgan bo'lib, o'quv jarayonini qurish uchun juda yaxshi xizmat qiladi. Integratsiya asosidagi ta'lim ilmlarda mavjud bo'lgan muammolar va tendentsiyalarni aks ettiradi.

Keling shu o'rinda integratsiya so'zi va uning mazmun mohiyatiga e'tiborimizni qaratsakda, atamaning shakllanish haqida bayon etsak.

Integratsiya (lot. integratio — tiklash, to'ldirish, integer — butun so'zi-dan) — 1) sistema yoki organizmning ayrim qismlari va funksiyalarining o'zaro bog'liqlik holatini hamda shun-day holatga olib boruvchi jarayonni ifodalaydigan tushuncha; 2) fanlarning yaqinlashishi va o'zaro aloqa jarayoni; differentsiatsiya bilan birga kechadi; 3) 2 va undan ortiq davlatlarning iqtisodiyotini o'zaro muvofiqlashtirish va birlashtirish (qarang [Iqtisodiy integratsiya](#)). 1

O'zbekiston milliy ensiklopediyasida keltirilgan ushbu ta'rifga tayangan holda integratsiyalashgan ta'lim haqida fikr bildirar ekanmiz, maktabdagi barcha fanlar barkamol avlodni voyaga yetkazishda xizmat qiladi hamda ulardagi bilim, ko'nikma, malaka, rivojlanish, dunyoqarash, ma'lumotni shakllanishida va oddiydan murakkabga qarab rivojlanishiga rol o'ynaydi.

Integratsiyalashgan ta'lim boshlang'ich sinf o'quvchilarini yosh xususiyatlariga javob beradigan va dars talablariga mos keladigan maqsadni aniqlash bunday yangilanishning asosiy masalasidir. XIX-XX asrlar oralig'ida pedagogikada kichik maktab o'quvchilarining tabiiy muhit bilan tanishtirishning integratsiyalashgan kursini yaratish fikri paydo bo'lgan. Bu fikr A.Y. Gerd, O.N. Kaygorodov, A.P. Pavlov nomlari bilan bog'liq bo'lib, ular boshlang'ich maktabga atrofdagi jonli va jonsiz dunyo haqidagi bo'linmagan kursni kirgizishni talab qilishdi. Integratsiyalashgan ta'lim-tarbiya, fanlararo aloqalarning ayrim jihatlari mashhur pedagoglarning (Y. Komenskiy, O. Lolk, I. Gerbart, M. Pestalossi, K. Ushinskiy va boshq.), didaktiklarning (I.O. Zverev, MA Oanilov, V.N. Maksimova, S.P. Baranova, M.N. Skatkin va boshq.), psixolog olimlarning (E.N. KabanovaMeller, N.F. Talizina, Y.A. Samarina, G.I. Vergeles), medist olimlarning (M.R. Lvov, V.G. Goreskiy, N.N. Svetlovskaya, Y.M. Kolagin, G.N. Pristupova) ishlarida ko'rib chiqishgan.

Boshlang'ich sinflarda fanlarni integratsiyalash muammosi [akademik fanlar](#) va usullar, vositalar va o'quv shakllari asosida namoyon bo'ladi. Biroq, eng arzon va jozibali amaliy jihatdan bu tarkibiy qismlarning intonentlarining integratsiyasi, bilimlarni rivojlantirish, jamiyat va inson tafakkur qonunlarini yaxlitlashtirishni shakllantirishga yo'naltirilgan.

Ma'lumki, oliy ta'limda pedagogika fan tizimi o'qitilishi yuksak aqliy salohiyatga ega bo'lgan barkamol avlodni shakllantirishga qaratilgan bo'lib, shunga ko'ra bugungi kunda davlatimiz va jamiyatimiz tomonidan qabul qilingan muhim me'yoriy hujjatlar – “Ta'lim to'g'risida”gi (23.09.2020) Qonunda ko'rsatib o'tilgan barkamol shaxsni shakllantirish yo'nalishlari, qonuniyatlari va tamoyillariga asoslangan holda keng ko'lamli tadqiqotlarni amalga oshirish zaruriyatini talab etmoqda.

Integratsiyalashgan ta'lim asosida darslarni tashkil etishda sinflar kesimida tashkil etishda quyidagi masalalarga alohida ahamiyat qaratish lozim. Jumladan, maqsad va muammolarni o'quvchi yoshiga nisbatan yo'naltirish asosida; maktab tabiiy-ilmiiy tizimidagi vazifalari asosida, qo'shimcha o'qitiladigan fanlar asosida, integratsiya usullari va yo'llari asosida, o'quv rejasidagi fanlar asosida, kursni o'rganishga sarflangan vaqt asosida, o'quvchilar uchun qiyinlik darajasi asosida tashkil etish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarda darslarni tashkil etishda masalan tabiiyat fani misolida ko'radigan bo'lsak, tabiiy fanlarni o'qitishning tizim bo'yicha davom ettirish va soddalashtirish uchun umumiy tushunchalar beruvchi, bolalarda tabiiy fanlarni o'rganishga qiziqish uyg'otish vazifasini bajaruvchi, tabiat haqida qiziqarli ko'rinishda hikoya qiluvchi boshlang'ich tabiiy fanlar kurslari (masalan, boshlang'ich sinflardagi «Tabiatshunoslik») yaqin chegaradosh fanlar botanika, zoologiya, biologiya, odam va uning salomatligi, geografiya, astronomiya singari fanlarni integratsiyalash asosida boshlang'ich bilimlarni berishni taqozo etadi.

Tabiiy fanlar asosini o'rganishda o'quvchilar kitob bilan ishlash, kuzatishlar olib borish, tajribalar o'tkazish, olingan bilimlarni bir tizimga solish, turli o'quv-ta'lim ish faoliyati bilan to'qnashadi. O'quvchilarni faoliyatning bir turi bilan tanishtiruvchi bir butun kurs yaratish maqsadga muvofiq. U o'qitish jarayonining har bir vaqtida foydali bo'lishi birgalikda kichik hajmda ham tabiiy fanlarni o'qitishda, o'quvchilarning ortiqcha kuch sarf qilishlari muammosini hal qilishda, mustaqil bilim olish ko'nikmalarini rivojlantirishda yordam beradi. Bu sinfdagi integrativ kurslarni yaratish va ularni o'quv jarayoniga tatbiq qilish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich sinflarda

<sup>1</sup> O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

integrasiyalashgan ta'lim asosida tabiiy fanlarni o'zlashtirish natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek o'quvchilari chet ellik tengdoshlarga nisbatan ko'p ma'lumot o'zlashtirishsa ham, uni tatbiq qilishda sezilarli darajada orqada qolishi aniqlandi shu bois o'quvchilarni bugungi kunda yuksak intellektual salohiyatga ega bo'lishlari uchun integrasiya asosida darslarni tashkil etish va o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga va rivojlantirishga ko'maklashadi.

Xuosa qilib aytadigan bo'lsak boshlang'ich sinflarda integrasiyalashgan ta'lim asosida darslarni tashkil etish bolalarda salbiy, xunuk, yomon narsalarga ham emotsional munosabatni rivojlantirishda, his-tuyg'ulari uning jismoniy rivojlanishi bilan bog'liq harakat qilishga, arifmetikaga, yozishga, tabiiy ko'pgina boshlang'ich tushunchalari va yana ko'pgina narsalarga o'rgatishga, o'z kuch va imkoniyatlari darajasini bilishga va amalga oshirishda xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Ш. К.Амонашвили Каждому ребенку- индивидуальный подход Воспитание основью (“Начальная школа” 1991)
2. Л.Н.Бухарева Интегация учебный знатий в начальньий школе на краеведческой основе. (“Начальная школа” 1991 №8)
3. R.A.Mavlonova va boshqa “Boshlang'ich ta'limning integrasiyalashgan pedagogikasi” T., TDPU, 2007.
4. Ortiqov O. R. O'QITUVCHI FAOLIYATIDA PEDAGOGIK DEONTOLOGIYA VA KOMPENTLIKNING ROLI VA AHAMIYATI //Scientific progress. – 2021. – T. 2. – №. 5. – С. 42-47.
5. Ortiqov O. R. GLOBALASHUV JARAYONIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI //Scientific progress. – 2021. – T. 1. – №. 5.
6. ОЛИМОВ Ш. Ш., САЙФУЛЛАЕВА Н. З. Возможности использования «метода проектов» в процессе обучения //Молодежь и системная модернизация страны. – 2020. – С. 276-278.
7. Olimov S. The differentiation of education is an important factor of pedagogical technology //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2020. – T. 8. – №. 11.
8. Olimov S. ТАЪЛИМНИ ТЕХНОЛОГИЯЛАШТИРИШНИНГ АСОСИЙ ЭЛЕМЕНТИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – T. 2. – №. 2.
9. Азимова Н. Э., Элибоева Л. С. Некоторые аспекты повышения уровня экологической культуры //Наука, техника и образование. – 2019. – №. 1 (54).
10. Жураев Б. Т. Деятельность педагога по гуманизации учебно-воспитательного процесса //Научные школы. Молодежь в науке и культуре XXI в.: материалы междунар. науч.-творч. форума. – 2017. – Т. 31.
11. Nigora Adizova Baxtiyorovna. 3-4-sinf ona tili darslarida qo'llanadigan tayanch kompetensiyalar. Journal of Advanced Research and Stability. Volume: 02 Issue: 01 | 2022
12. Adizova Nigora Bakhtiyorovna. The Arrival of Great, Child and Khan Images in Interesting. European journal of life safety and stability (ejlss). Www.ejlss.indexedresearch.org Volume 14, 2022

#### O'QUVCHILARNI MILLIY QADRIYATLARGA HURMAT RUHIDA TARBIYALASHDA XALQ O'ZAKI IJODI NAMUNALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

A. Sh. Qahhorova, BuxDUPI

*1-bosqich magistri*

*xalq og'zaki ijodi namunalari asosida o'quvchilarga milliy qadriyatlarni shakllantirish tarbiyalanuvchi ruhiyatiga muayyan suratda ta'sir qilish jarayoni haqida fikr mulohazalar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** milliy qadriyat, og'zaki ijod namunalari, dars, ta'lim, tarbiya, bilim, ko'nikma, malaka, ertak, maqol, topishmoq.

*Данная статья предоставляет учащимся обратную связь о процессе формирования национальных ценностей на примерах фольклора и воздействию определенным образом на психику учащегося.*

**Ключевые слова:** национальная ценность, образцы устного творчества, урок, образование, воспитание, знание, умение, умение, сказка, пословица, загадка.

Buyuk adib Abdulla Avloniy aytganidek “Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir”. Kelajagi buyuk O'zbekistonni esa ravnaqi yoshlarning ta'lim

va tarbiyasiga bog'liq. Bizga ma'lumki 21-asr axborot texnologiyalar asri. Demakki, turli millat va davlatlardan turli xil madaniyat va mafkuralar oqimi kirishi juda oson. Sizu bizga ma'lumki yosh avlod aynan qiziquvchan yoshda to'g'ri yo'lni adashtirib qo'yishi mumkin. To'g'ri yo'lni ko'rsatuvchi biz kattalar aynan o'z millatimizni ma'naviyatini targ'ib qiluvchilar hisoblanamiz. Ma'naviy tarbiyaning katta qismi xalq og'zaki ijodi namunalari, ma'naviy qadriyatlar, ajdodlarimiz pand –nasihat, o'gitlaridan olinadi. Xalq og'zaki ijodi namunalari esa ota-bobolarimizdan bizga qolgan kitoblardagi bitiklarda o'z aksini topgan.

Ma'naviyat milliy urf-odatlar, tarbiya an'analari, axloq-odob aqidalari, e'tiqod, madaniy-ma'rifiy jarayonlar majmuasidir. "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuchdir" deydi Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov o'z asarlarida.

Ma'naviy qadriyatlar-bu falsafiy va ijtimoiy tushunchalar bo'lib, insonni o'rab olgan atrof-muhitni amaliy jihatdan o'zlashtirish natijasida vujudga keladi. Ta'lim tarbiya jarayonida ma'naviy qadriyatlar ijtimoiy tarixiy hodisani ifodalaydi. Umuman xulosa qilib aytganda bugungi yoshlarni mustaqillik ruhida tarbiyalashdan maqsad, ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish bilan birga jamiyatimizning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy salohiyatini ko'tarishga xizmat qiladi. Umuminsoniy qadriyatlar o'quvchilarda milliy kuy-qo'shiqlarga ixlos uyg'otadi. Ularni musiqiy qobiliyatlarini ritm tiyg'usini o'stirib, musiqiy o'quvi va didini o'stiradi. O'quvchilarda milliy merosimizga, ommaviy kuy-qo'shiqlarga, xalq aytimlariga va u orqali Vatanga muhabbat hissini tarbiyalaydi. Buni aynan alla misolida ko'rish mumkin.

Bundan tashqari maqollar, ertaklar, topishmoqlar, dostonlar xalq og'zaki ijodi namunalardan hisoblanadi.

Boshlang'ich sinflarda aynan xalq og'zaki ijodi namunalari bo'lgan topishmoq, ertak va maqollarga ko'p bora murojaat qilinadi.

Xo'sh topishmoq, ertak va maqollarni o'rganishda asosan qaysi usullardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi?. Shu turlaridan maqollarda

1. Yod olish.
  2. "Maqollarni davom qildirish" mashqi
  3. Anagrammalar
  4. "O'ylab top" mashqi
  5. Boshqa tildagi muqobil variantini topish aynan maqollarni tez o'rganishga yordam beradi.
- Ertaklarni o'rganish va tahlil qilishda
1. Rollarga bo'lib o'qish
  2. Sahnalashtirish
  3. Rolli o'yin
  4. Matn tahlili
  5. "Davom ettiring" mashqi
  6. Didaktik o'yinlar, topshiriqlar
  7. Testlar
  8. Ertak asosida rasm chizish
  9. Ifodali o'qish
  10. Ertak asosida ishlangan multfilmni tomosha qilish
  11. Audio shaklda tinglashi
  12. Ertakning g'oyaviy mazmunini tahlil qilishi

Bu kabi interfaol metodlar bolaning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantiradi va badiiy adabiyot va san'atda aks etgan vatanparvarlik, insonparvarlik g'oyalarini, umuminsoniy va milliy qadriyatlar tasviridagi o'ziga xosliklarni anglash, ulardan ta'sirlanish, ulardagi go'zallik va ezgulikdan o'rnatilishga intilish, yovuzlik va xunuklikdan nafratlana olish kabi xislatlarni uyg'otadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

2. Jalilova M., Ne'matova G. Takrorlash mashg'ulotlarini "Topqirlar bellashuvi" tarzida o'tkazish. Til va adabiyot ta'limi, 1994. 2-3-soni. 36-37- bet.
2. Yusupova Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili darslarida o'quvchilar tafakkurini o'stirishning falsafiy asoslari. - T.: Fan, 2004. 164 b. \
3. Sh.Sariyev. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash orqali nutq o'stirish. –T.: Yurist-mediya markaz. 2010.
4. Ibrohimova Zamira. Gulgina. Kichintoylar uchun badiiy adabiyot majmuasi. 1-2-jild. –T.: "Yangi nashr" nashriyoti. 2010.

**ШАХС РИВОЖЛАНИШИДА ИЖТИМОЙЛАШТИРИШ АГЕНТ, ИНСТИТУТ,  
БОСҚИЧ ВА ОМИЛЛАРИНИНГ ЎРНИ  
Б.Ў.Пардаев – ТДПУ катта ўқитувчиси**

Ушбу мақолада ижтимоийлашув жараёни, шахс ривожланишида ижтимоийлаштириш агент, институт, босқич ва омилларининг ўрни, аҳамияти хусусида фикр юритилган. Бола шахси шаклланиши ва ижтимоийлашувига таъсир қиладиган агент, институт, босқич ва омиллари ўзаро нисбатлари тўғрисидаги қарашлар таҳлил қилинган. Шунингдек, ижтимоийлаштириш агентларига санаб ўтилган омиллардан мақсадли ва ўринли фойдаланиш юзасидан тавсиялар ўз аксини топган.

**Калит сўзлар:** ижтимоийлашув, омиллар, шахснинг ижтимоийлашуви, ижтимоийлашув механизмлари, агентлари, ижтимоийлашув шартлари, босқичлари, ижтимоийлашув натижалари.

В данной статье рассматривается процесс социализации, роль и значение агентов социализации, институтов, этапов и факторов в развитии личности. Анализируются взгляды на взаимосвязь агентов, институтов, этапов и факторов, влияющих на формирование и социализацию личности ребенка. Также отражены рекомендации агентам социализации по целенаправленному и целесообразному использованию перечисленных факторов.

**Ключевые слова:** социализация, факторы, социализация личности, механизмы социализации, агенты, условия социализации, этапы, результаты социализации.

This article discusses the process of socialization, the role and importance of socialization agents, institutions, stages and factors in the development of personality. Views on the relationship of agents, institutions, stages and factors influencing the formation and socialization of a child's personality are analyzed. Recommendations to agents of socialization on the purposeful and expedient use of these factors are also reflected.

**Key words:** socialization, factors, personality socialization, mechanisms of socialization, agents, conditions of socialization, stages, results of socialization.

Ижтимоийлашув жараёнининг мазмуни инсоннинг биологик мавжудотдан ижтимоий мавжудотга айланишини англатади. Ҳар бир авлод ижтимоийлашув асосида ўзига хос ижтимоий-психологик сифатларни эгаллайди. Шу нуқтаи назардан, ҳар бир авлоднинг ижтимоийлашуви ноёб ва бетакрордир. Мазкур мақолада ижтимоийлаштириш агентлари, институтлари ҳамда ижтимоийлашув босқич ва омиллари хусусида сўз боради.

И. А. Щегловнинг таъкидлашича, ижтимоийлаштириш назариясида “босқич”, “агент”, “институт”, “омил” категориялари батафсил таҳлил қилинмаган, чунки олимнинг эътирофича, улар илмий муҳокама предмети сифатида қаралмайди. Ижтимоийлашув "агенти" ва "институти" тушунчалари эса кўпинча ўзаро бир-бирига ўхшатилади [8. 188-189].<sup>1</sup> Аслида, "агент" ва "институт" тушунчалари ўзаро фарқланади, шунингдек, санаб ўтилган категориялар шахс ижтимоийлашуви нуқтаи назаридан тўлалигича муҳокама предмети бўла олади, шунингдек "агент" ва "институт" тушунчаларини ўзаро фарқлаш мақсадга мувофиқ.

Ижтимоийлашув бевосита жойлардаги ижтимоийлаштириш агентларининг интеллектуал даражаси ва муносабати билан белгиланади, жараённинг ўз вақтида илмий асосда ташкил қилиниши авваламбор шахснинг ўзи, қолаверса бутун жамият манфаатларига хизмат қиладди. Ижтимоийлашув агентлари – бу алоҳида олинган ҳар бир инсонни ижтимоий ролларга ўргатишга масъул бўлган инсонлар тоифаси. Одатда улар бирламчи ва иккиламчи агентлар сифатида икки тоифага ажратилади. Биринчиси – бу боланинг яқинлари. Бирламчи агентлар мулоқот услуби ва психологик таъсир доирасига кўра яқин бўлиб, улар болада ўз характери ҳамда индивидуал турмуш тарзини шакллантиришга бевосита ёрдам беради. Улар сирасига қуйидаги шахслар мансуб бўлишади: ота-оналари, қариндошлари (қаерда истиқомат қилишидан қатъий назар), дўстлари (ўзи ва ота-оналарининг), кўшнилари, тенгдошлари (синфдош, гуруҳдошлари), ўқитувчилари (тарбиячилари, мураббийлари, тўғарак раҳбарлари), шифокорлар ва бошқалар.

В. П. Эфроимсон ўз тадқиқотларида диққатини бола ижтимоийлашуви субъектлари, ижтимоийлаштириш агент(ота-она)лари мақомига қаратади. Агар асосий агентлар ижодкор шахслар бўлса, болалар кўпроқ мустақиллик, иккиланиш ва тавақалчиликка мойил бўлишлари, шунингдек асосий агентлар интеллектуал касб эгалари бўлишса, бу каби оила фарзандларининг

<sup>1</sup> Щеглов И.А. Социализация личности как теоретическая проблема [Электронный ресурс] // Теория и практика общественного развития. 2014. № 1.

аксарияти умумэтироф этиладиган ахлоқий стандартларга амал қилади шахслар бўлиб етишади.[7.175-б.]<sup>1</sup>

Бирламчи ижтимоийлашув агентлари бола билан яқиндан боғликлари боис масофадан туриб ҳам таъсир қилиш имкониятига эга бўладилар. Ота хизмат сафариди бўлишига қарамасдан ўғлининг хулқига таъсир қилиши ҳамда бобоси ёки бувиси бир неча ўн чақирим узоқда истиқомат қилишига қарамасдан, невараларида сабр-қаноат, эзгуликни тарбиялашни уддалашади.

Иккиламчи ижтимоийлашув агентлари бола билан ўзаро мулоқотда расмий муносабатда бўладилар. Бу ўзаро ишбилармонлик муносабатларини ташкил қилади. Шунга қарамасдан, синф раҳбари ёки севган фани ўқитувчиси бошқа бирламчи ижтимоийлашув агентларига нисбатан бола учун яқин ва азиз инсонга айланиши мумкин. Улар ўртасида узоқ йиллик самимий ва ўзаро хурмага асосланган дўстона муносабатлар шаклланиши мумкин.

Иккиламчи агентлар шахс муайян ижтимоий тажрибаларни эгаллагандан кейин фаолиятларини бошлайдилар, уларнинг таъсир доираси ҳам ўта муҳим. Тўлақонли инсонларда ҳам ташқи омиллар таъсирга берилиш эҳтимоли сақланиб қолади, шу боис ҳам ҳар қандай инсон бутун умри мобайнида мутлоқ алмаштириб бўлмас даражада қолиб кетмайди. Ташқи омилларнинг таъсири ҳар бир индивидда ўзига хос тарзда кечади. Бирламчи ижтимоийлашув – шахслараро муносабатлар соҳаси, иккиламчиси эса ижтимоий муносабатлар соҳасини ташкил қилади. Алоҳида олинган бир шахснинг ўзи ҳам бирламчи, ҳам иккиламчи ижтимоийлашув агенти бўлиши мумкин. Шахс ижтимоийлашувида агентларининг ролига паст назар билан қарамаслик керак.

Жамият мураккаб организмга ўхшайди, организмда ўз ҳаётини ўтаб бўлган хужайралар ўрнига янгилари келгани каби жамиятда ота-оналари ва бошқа катта ёшдагилар ўрнини янги авлод вакиллари эгаллайди. Бунга эршиш учун индивид муайян ижтимоийлашув босқичларини босиб ўтиши талаб қилинади.

Бундан ташқари, ижтимоийлашув бирламчи ва иккиламчи босқичларига ажратилади. Бирламчи ижтимоийлашув бола туғилган пайтидан унинг вояга етган давригача бўлган даврни ўз ичига олади. Иккиламчи ижтимоийлашув инсоннинг асосий таълимдан кейинги бутун умри мобайнида давом этади ва илгари ўзлаштирган меъёр ва қадриятларнинг бузилиши билан характерланади.

Р.А. Мавлянова ижтимоийлашув босқичларини бу: 1) дастлабки икки йил; 2) мактабга бориш; 3) ўсмирлик ёши; 4) ёшлик каби даврларга ажратади [4.152-б.]<sup>2</sup>.

Айрим Л.И. Божович, М.И. Лисина, Д.Б. Эльконин сингари олимлар ижтимоийлашувнинг турли босқичларига эътиборларини қаратишади ва асосий диққатларини болалик даври билан боғлашади. А.В. Мудрик, И.С. Кон, Н.М. Эгамбердиева ва бошқалар эса ўсмирлик ва ўспиринлик даврини алоҳида ажратиб кўрсатишади.

Баъзи олимлар бирламчи ижтимоийлашув (болалик даври) ва иккиламчи ижтимоийлашув (етуклик ва ўрта ёш)ни ажратиб кўрсатишади.

Биз А.В. Мудрикнинг ижтимоийлашув жараёнлари босқичларига нисбатан ифодалаган фикрларига қўшилган ҳолда, қуйидаги ижтимоийлашув жараёни ёш босқичларини ажратиб кўрсатамиз: тўдаклик (туғилганидан 1 ёшига қадар), кичик боғча ёши (1-3 ёш) мактабгача (3-6 ёш), кичик мактаб ёши (6-10 ёш), ўсмирлик (11-14 ёш), илк ёшлик (15-17 ёш), болалик (18-23 ёш), сўнгра ёшлик (23-33 ёш), етуклик (34-50 ёш), кексалик (50-65 ёш), қарилик (65-80 ёш) ёшлар, шунингдек узоқ умр кўрувчилар (80 ёшдан юқори). Ижтимоийлашувнинг ҳар бир босқичида болага унинг истиқболдаги ривожланиш имкониятлари, ижтимоий тажрибаларни босқичли ўзлаштириши эҳтимоли мавжудлигидан келиб чиқиб ёндашилади [6.160]<sup>3</sup>.

Шунингдек, А.В. Мудрик шахс ижтимоийлашуви шакллари мекхнат муносабатлари нуқтаи назаридан қуйидаги босқичларини ажратишни таклиф қилади:

- мекхнат фаолиятига қадар бўлган ижтимоийлашув босқичи – болалик, ўсмирлик;
- мекхнат босқичи – етуклик;
- мекхнатдан кейинги – кексалик<sup>4</sup>[5.171 с].

Ижтимоийлашув бир босқичдан иккинчисига ўтгани сари инсон билан жамият ўртасидаги ўзаро муносабатлар кенгайиши назарда тутилади. Мекхнатгача бўлган болалик ва ўсмирлик даври

<sup>1</sup> Эфроимсон В.П., “Гнетика гениальности”. © ООО «Издательство АСТ», Москва, 2019. - 175 с.

<sup>2</sup> Mavlonova R., Rahmonqulova N., Matnazarova K., Shirinov M., Hafizov S. “Umumiy pedagogika” darslik. Toshkent, 2018., 152 b.

<sup>3</sup> Фельдштейн Д.И. Социальное развитие в пространстве - времени Детства. -М.: Московский психолого-социальный институт: Флинта, 1997. - 160 с.

<sup>4</sup> Мудрик А.В. Ижтимоий педагогикага кириш /ўқув қўлланма. Пенза, 1984. - 171 с.

пассив ижтимоийлашув босқичи ҳисобланса, етуклик даври меҳнат босқичида бошлангич касбий фаолиятни ўзлаштиришнинг фаол шаклига ўтади.

Турли халқлар ижтимоий амалиёти ранг-баранг бўлсада, бу ижтимоийлашув даври учун барча тарихий шароитларга хос икки типик жиҳатни санаб ўтиш мумкин.

Биринчиси – бу иқтисодий мустақил агент ролини ўзлаштириш. Иккинчиси – ўз оиласини қуриш. Бу инсоннинг биологик турни давом эттириш жараёнидаги иштирокини англатади. Жамиятнинг ривожланганлик даражаси шахс ижтимоийлашуви даври давомийлиги ва сифатига ўз таъсирини кўрсатади. Айрим жамиятларда таълим олишнинг ёпиқлиги аксарият инсонларнинг иккиламчи ижтимоийлашувдан “сақраб” етуклик даври ижтимоийлашувига ўтишига сабаб бўлади. Иқтисоди ривожланган жамиятларда технологияларнинг такомиллашуви, ишлаб чиқариш жараёнларига илм-фан ютуқларининг тобора фаол татбиқ қилиниш жараёнларининг жадаллашуви оммавий саводхонлик заруратини келтириб чиқарди. Бу эса иккиламчи ижтимоийлашув даврининг мажбурийлигини шарт қилиб қўйди[2. 266]<sup>1</sup>.

Демак, педагог, тарбиячи ва ота-оналарнинг ижтимоийлашув жараёни босқичларининг ўзига хос хусусиятларини билиши ҳамда уни онгли ва тўғри йўналтира олиши алоҳида ижтимоий-педагогик аҳамият касб этади. Айниқса, кичик мактаб ёшидаги болалар ижтимоийлашувига бўлган эътибор ёки эътиборсизлик унинг бутун ҳаёт йўлини белгилашини унутмасликлари зарур.

Мақолада шахс ижтимоийлашувига таъсир қилувчи омиллар хусусида ҳам тўхталишни эътироф этгандик. Ўзбек тилининг изоҳли луғатида омил сўзи [арабча-сабаб, таъсирчан куч] "иш-ҳаракат, воқеа-ҳодиса, шу кабининг юзага чиқиши, содир бўлиши учун сабаб бўлган нарса, сабаб" сифатида талқин қилинади [1.332]<sup>2</sup>. Ижтимоийлашув жараёнида индивиднинг жамият билан турли шакллардаги ҳамкорлиги натижасида шахсга нисбатан муайян таъсири жамланмасига ижтимоийлашув омиллари деб юритилади. Ирсият, ижтимоий муҳит, таълим ва тарбия сингари шахс шаклланиши ва ижтимоийлашувида ҳар бир индивид учун ноёб аҳамият касб этадиган қатор омиллар мавжуд.

Бугунги кунда ижтимоийлашувнинг қуйидаги манбалари ва омиллари ажратилади:

Оила инсон ҳаётида энг катта из қолдирадиган асосий ижтимоий институтдир. Инсон ўз оиласидан, ота-она ва қариндошлар ўртасидаги муносабатлардан ўртак олади ва уни ўз муносабатларига ўтказди; Таълим тизими - бу инсон ўзининг келажакдаги касбий йўлини, ишининг ўзига хос хусусиятларини танлаши ва у бўйича бевосита билим олиши мумкин бўлган ижтимоий институтдир;

Оммавий ахборот воситалари - инсоннинг дунёқарашига норасмий даражада таъсир қилади. Кўпгина оммавий ахборот воситалари жамият ҳаётида муҳим рол ўйнайдиган муайян ижтимоий жараён ва ҳодисаларга муносабатга таъсир қилиши мумкин;

Жамоат ташкилотлари қўшимча ижтимоий институтлар бўлиб, улар инсон ўз ваколатларини кенгайтириш ёки бир соҳага чуқур кириб бориш ва уни ривожлантириш ғояларини таклиф қилишга хизмат қилади.

Шахс ижтимоийлашувида уни мутолаага ўргатиш ўта муҳим. Бунда ота-она ва бошлангич синф ўқувчисининг ролини алоҳида эътироф этиш керак. Бола ижтимоийлашуви ва ўзлигини ифода этишида шахсий кенглик муҳити боланинг ўз алоҳида хонаси, кровати, шахсий буюмлари, ўқув қуроллари ва иш столининг бўлиши болаларнинг баъзида ёлғиз қолишлари, ўйлашлари, хатти-ҳаракатларини режалаштириб олишларида ёрдам беради.

Бола ижтимоийлашувининг энг асосий шarti – бу таълим. Таълим воситасида бола атрофдаги олам, табиат ва жамият қонуниятлари, аждодлар ўғитини ўзлаштиради, илмий дунёқарашини шакллантиради. Жараёни тўғри ташкил қилишда оила ва мактаб ҳамкорлиги, фикрлари, тасаввурларини тўғри йўналтириш, ўзи еча олмаган маиший муаммоларида ёрдам бериш унинг муваффақиятли ижтимоийлашувини таъминлайди.

Ҳозирги шароитда оила ва таълим ва бошқа санаб ўтилган омиллар ўз ўринларини таъсир доираси тобора ошиб бораётган ОАВ ҳамда Интернет каби ижтимоийлаштириш агентларига бўшатиб бермоқда. Интернет орқали ёшлар тушиб қолаётган виртуал олам оилада, тенгдошлари даврасида реал ҳаётда дуч келадиган ички ва ташқи зиддиятларни енгиб ўтиш, кайфияти, қарашлари, ҳаётий позицияларида, ҳиссиёт ва эмоцияларини билдиришда ҳаракатлар эркинлигини тақдим этади, ўз навбатида, болада интернет-қарамлик ҳолатининг шаклланишига олиб келади. Шунингдек, глобал тармоқдаги зўронликнинг тарғиботи шахс шаклланишига салбий таъсир

<sup>1</sup> Зуннунов А. Педагогика тарихи дарслик.Шарқ .Т.2004 266-бет.

<sup>2</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати.Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат нашриёти.Т:332-бет

кўрсатади, шу боис бу масалага ижтимоийлаштириш агентларининг, айниқса оиладагиларнинг эътиборларини кучайтириш керак бўлади.

Хулоса шуки, боланинг ирсий-биологик омиллари, оила, таълим-тарбия муҳити, ижтимоий таъсир, экологик муҳит омиллари, техник ва технологик ахборот хуружлари ва ҳоказолар педагоглар эътибор беришлари лозим бўлган шарт-шароитлар ва омиллар сирасига киради. Шахс ривожланишига ўзининг ижобий ёки салбий таъсирини кўрсатувчи омилларга тарбиячи ва ўқитувчилар ҳамда ота-оналарнинг алоҳида эътибор қаратиши боланинг муваффақиятли ижтимоийлашувини таъминлашнинг гарови ҳисобланади.

#### Адабиётлар рўйхати

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат нашриёти. Т:332-бет
2. Зуннунов А. Педагогика тарихи дарслик. Шарқ .Т.2004 266-бет.
4. Mavlonova R., Rahmonqulova N., Matnazarova K., Shirinov M., Hafizov S. “Umumiy pedagogika” darslik. Toshkent, 2018., 152 b.
5. Мудрик А.В. Ижтимоий педагогикага кириш /ўқув қўлланма. Пенза, 1984. - 171 с.
6. Фельдштейн Д.И. Социальное развитие в пространстве - времени Детства. -М.: Московский психолого-социальный институт: Флинта, 1997. - 160 с.
7. Эфроимсон В.П., “Гнетика гениальности”. © ООО «Издательство АСТ», Москва, 2019. - 175 с.
8. Щеглов И.А. Социализация личности как теоретическая проблема [Электронный ресурс] // Теория и практика общественного развития. 2014. № 1.

### ПРОЕКТНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ КАК ТВОРЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ ЛИЧНОСТИ РЕБЁНКА В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ Садуллоева М. Г. преподаватель БухГУ

*Аннотация В данной статье раскрыта технология интеграции образования, которая способствует формированию целостной картины мира у детей начальных классов, пониманию связей между явлениями в природе, обществе и мире в целом.*

*Ключевые слова: познавательная деятельность, факты, проектная деятельность, отрезок времени, исследование, формирование, картина.*

*Annotation This article reveals the technology of education integration, which contributes to the formation of a holistic picture of the world in primary school children, understanding the connections between phenomena in nature, society and the world as a whole.*

*Key words: cognitive activity, facts, project activity, period of time, research, formation, picture.*

На уроках необходимо организовывать познавательную деятельность учащихся, чтобы у них появлялась возможность самим открывать новые знания. В результате проектной деятельности учащиеся становятся активными участниками образовательного процесса, продукт их творческой деятельности может иметь научную значимость и являться предметом инноваций. Дети сами открывают новые для них факты. Учащиеся готовят индивидуальные и групповые проекты, принимают активное участие в школьном конкурсе. Данная технология делает учебный процесс более полным, интересным, насыщенным и ориентирует учащихся на самостоятельную работу: индивидуальную, парную, групповую, которую учащиеся выполняют в течение определённого отрезка времени. Этот метод органично сочетается с методом обучения в сотрудничестве, проблемным и исследовательским методом обучения.

Технология интеграции в образовании способствует формированию целостной картины мира у детей, пониманию связей между явлениями в природе, обществе и мире в целом. Данная технология развивает целенаправленность, активность, гибкость мышления и потенциал самих учащихся, побуждает к активному познанию окружающей действительности, к осмыслению и нахождению причинно-следственных связей, к развитию логики, коммуникативных способностей. На уроках русского языка в качестве дидактического материала предлагаю фрагменты текстов художественных произведений различных авторов, а на уроках литературы осуществляю связь с уроками русского языка и истории. На своих уроках я необходимо использовать музыкальные произведения, записи мастеров слова на дисках, фрагменты экранизации, репродукции картин. Использование данной технологии расширяет кругозор обучающихся, повышает их интерес к

предметам, а также формирует желание учащихся пополнить багаж знаний за пределами материала учебника. Одной из традиционных остаётся игровая технология.

Данная технология обладает огромными возможностями. Игровая форма занятий создаётся при помощи игровых приёмов и ситуаций, которые выступают как средство побуждения, стимулирования учащихся к учебной деятельности. В процессе игры у учащихся вырабатывается привычка сосредотачиваться, мыслить самостоятельно, развиваются внимание, стремление к знаниям. С третьего класса необходимо проводить работу в группах. В среднем звене очень эффективны игры – соревнования, основанные на групповой деятельности: «Кто больше?», «Кто быстрее?». Подобные игры – соревнования развивают у ребят чувство личной ответственности за результат, быстроту реакции. Кроме того, подобная игровая деятельность насыщает урок эмоционально, поддерживает высокий уровень интереса к предмету. К четвертым классам игровая деятельность все больше замещается ролевыми, деловыми играми, уроками – конференциями, уроками – практикумами. Например, после объяснения нового материала группам предлагается изложить материал в виде опорной схемы, рисунка, кластера, таблицы, чтобы данный материал было легче запомнить.

Здоровьесберегающие технологии и их элементы применяются на уроках и во внеурочное время. Необходимо внимательно относиться к состоянию здоровья учащихся на уроке, систематически организовывать физкультурные паузы. Используя технические средства обучения, обеспечивать оптимальные нагрузки при определении объёма заданий. Осуществлять чередование видов деятельности, предупреждающее переутомления учащихся.

Педагогическая мастерская – это педагогическая технология, соединяющая игровые, исследовательские, проблемные виды деятельности. На таких занятиях детям интересно работать, помогать друзьям, весело слушать ответы других. Подготовка мастерской требует от учителя нестандартного подхода. Данная технология требует, прежде всего, гуманистической философии учителя, в основе которой – личностно-ориентированный подход к ребенку, развитие его индивидуальности. В работе мастерской важен сам процесс, а не только результат творческого поиска. Именно он приобщает ребенка и взрослого к радости творчества, к самостоятельной исследовательской и творческой деятельности. Внедрение в образование технологии педагогических мастерских повышает общий уровень учебного процесса, усиливает мотивацию обучения и познавательную активность учащихся. В образовательном процессе, выстроенном в соответствии с принципами мастерской, ничто не заучивается, все усваивается только в действии.

*Использование технологии педагогических мастерских позволяет:*

- самостоятельно добывать знания, закреплять полученные знания,
- формировать навыки самооценки, самоконтроля,
- осуществлять самостоятельную исследовательскую деятельность при написании сочинений, составлении проектов.

*Данную технологию необходимо использовать в разных целях:*

- для творческого знакомства с личностью писателя и поэта (ученики, работая коллективно и индивидуально, выполняя разнообразные задания, обогащают свой словарный запас, строят самостоятельно свои знания о поэте и в итоге пишут собственный текст о писателе, поэте);
- для исследовательской работы;
- для изучения творческой лаборатории писателей и поэтов.

Таким образом, технология педагогических мастерских в сочетании с современными информационными технологиями может существенно повысить эффективность образовательного процесса, решить стоящие перед образовательным учреждением задачи воспитания всестороннего развитой, творчески свободной личности, познавательную активность учащихся, что, несомненно, приводит к повышению эффективности обучения.

#### **Использованная литература:**

1. Гуманизация отношений в системе «Учитель-учащийся»- установление связей сотрудничества. М.Г.Садуллаева Достижение науки и образования, 103-104; 2019.
2. Язык и речь в преподавании русского языка в школе. М. Г.Садуллаева, С.Ражабова, Г.Т. Холова . Современные научные исследования: актуальные вопросы достижения, 2021

## ХАЛҚ КУЛГИСИ АСОСИДА ЯРАТИЛГАН ЁЗМА АСАРЛАРДА САЖЪНИНГ ҚЎЛЛАНИШИ

Ҳайитов Ҳамза Аҳмадович

БухДУПИ доценти

Сажъ фольклорнинг эпик асарлари ифода услубига хос муҳим бадий-композицион белгилардан бири бўлиб, кўпинча эртакларнинг кириш қисмида, дoston, ривоят, афсона, нақл сингари халқ оғзаки эпик ижоди жанрлари сюжет таркибида бир неча оҳангдош сўзларнинг ўзаро тизилиб келиб, насрда қофияни ҳосил қилишидан вужудга келади. Шунга кўра, “сажъ – бадий матнда ишлатилган айрим гап бўлакларининг ё вазнда, ё қофияда ёхуд ҳар иккаласи (вазн ва қофия)да мослашувидир”, [2; 74] – дея таърифланади.

Насрий матнларда сажъланган сўзлар ўзаро оҳангдошликка асосланиши туфайли қофиядошлик ҳосил қилади. Улар диққат-эътиборни марказлаштиришга хизмат қилади. [3; 232]. Д.Ҳошимова айтиб ўтганидек: “Сажъ туркий насрнинг хос хусусиятларидан бири бўлгани учун том маънода ўзбек халқига хос лингвокультурологик жиҳатларни акс эттира олади”. [5; 192].

Шуни алоҳида айтиш керакки, фольклор асарларида қўлланилган сажълар, одатда, анъанавийлиги ва бир асардан бошқаси таркибига кўчиб юриши, яъни “сайёр”лиги кузатилса, маълум бир ижодкорлар томонидан қўлланилган сажълар индивидуаллиги, бетакрорлиги билан эътиборни тортади. Буни бизгача илғаган О.Файзуллаев ҳам алоҳида эътироф этиб, “ёзма адабиётда адиблар томонидан яратилган сажъларда маълум бир муаллифнинг индивидуал маҳорати акс этишини, эртақ сажъларида халқ топқирлиги ва заковати намён бўлишини таъкидлайди. [4; 20-21].

Халқ аския, лоф, латифа жанрларига хос кулги асосида яратилган ёзма асарларда сажънинг ҳазил-мутойибали ёки кинояли, пичинг оҳангли, кесатикли тури кенг қўлланиши кузатилади. Буни Абдулла Қодирийнинг ҳажвий қаҳрамони Қалбак Махсум нутқига сингдирилган куйидаги парча орқали ҳам англаш мумкин: “*Кийимлар қисқарди, сочлар узайди, эркаклар хотун, хотунлар эркак қиёфасига кирдилар. Барчадан ақл кетди, ҳамма гумроҳ. Борар йўлдан, қилар ишдан адашди, уламога ҳурмат, ёшларга шафқат, ўғлонларга муҳаббат йўқ!* [6; 238]. Ёки яна бир мисол: “Марҳум падари бузруквор *алломаи замон ва машҳури жаҳон* бўлиб, ул жанобнинг халқи тадрисларидан беҳисоб уламо ва фузалолар етишиб, баъзилари қозилик мансабига ва баъзилари мударрислик мартабасига ва кўплари имомат ва мактабдорлик ҳам энг аднолари аъзойимхонлик касбига мушарраф бўлубдурлар. [6; 248].

Халқ майдон кулгиси куёшидан нур эмган бундай асарларнинг ўқилишида фольклор ва мумтоз адабиётимиз намуналарида жуда кўп учрайдиган саъж (мусажжаъ) санъатининг ўйноқи эстетик ифодасини ёрқин ҳис қилиш мумкин.

Эътиборли томони шундаки, кулгили асарларда сажъ орқали кулги вазиятини ҳосил қилиш билан боғлиқ адабий-эстетик тажриба замонавий ўзбек насрида ҳам муваффақиятли давом эттирилди ва эттирилмоқда. Буни Анвар Обиджоннинг “Олтиариқ хангомалари” асарида келтирилган куйидаги латифа ҳикоялардан олинган сажъ намунаси билан бемалол далиллаш мумкин: “Олтиариқда асосан уч нарсдан мўмайроқ фойда кўрадилар – маҳсулот етиштириб **сотишдан**, ёввойи ўрдакларни **отишдан**, меҳмонга бориб **ётишдан**. Олтиариқликлар асосан уч нарсдан кўпроқ зиён кўрадилар – экинга тушган **ширадан**, қарзини узмайдиган **жўрадан**, меҳмонга келган “**хўра**”дан. Олтиариқликларнинг хушламайдигани – туруп экилмаган бўш **майдон**, бодрингпояга кирган **ҳайвон**, узумнинг яшиклари тахланмаган **айвон**”. [1; 198].

Латифа матнида *сотишдан // отишдан // ётишдан* ҳаракат номи шакллари, *ширадан // жўрадан // “хўра”дан* каби шахсни тавсифловчи ҳамда *майдон // ҳайвон // айвон* сингари ўрин-жой ҳамда *ҳайвон* номларини ўзаро оҳангдошлик асосида келтириш орқали сажъ (насрий қофия) шакллантирилган. Унда “хўра” сўзининг қўштирноқда берилётгани киноя, пичинг, кесатикка асосланганидан далолат беради.

Худди шу муаллиф яна бир латифасида ёзади: “Одамлар “олинг-олинг” билан дастурхонга бирин-бирин қўл уришди. Очлар хап-хаплаб, ўртачалар шап-шаплаб, тўқлар орада гап-гаплаб овқатланаверди. Семизлар чойга, ориқлар мойга кўпроқ қўл чўзиб, новчалар энкайиб, пақаналар кеккайиб кавшанарди”. [1; 198].

Ушбу матндаги сажъ ҳам ҳазил-мутойиба, киноя, пичинг, кесатикка асослангани билан эътиборни тортади. Ундаги *очлар // ўртачалар // тўқлар* ҳамда *семизлар // ориқлар // новчалар // пақаналар* сажълари нафақат оҳангдошликка, балки антонимлик (зидлик)ка асослангани билан янада ажралиб турибди. Бундан ташқари, матндаги *хап-хаплаб // шап-шаплаб // гап-гаплаб* ҳамда

чойга // мойга; қўл чўзиб // энкайиб // кеккайиб; овқатланаверди // кавианарди сўзлари матнга оҳангдошлик баробарида ифодаланаётган мазмунни жозибали, таъсирчан ёритиш имконини бериб келмоқда.

Хулоса қилиб айтганда, сажъ ижодкорларнинг поэтик маҳоратини баҳолашга, бадий асарларнинг оҳангдорлигини, таъсирчанлигини таъминлашга хизмат қилиши билан эътиборни тортади.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Обиджон, Анвар. Олтиариқ ҳангомалари. Ҳажвия ва ҳангомалар. – Т.: Маънавият, 1999. – Б.198.
2. Саримсоқов Б. Сажъ // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 1971 . – № 2. – Б.74.
3. Safarov O. O`zbek xalq og`zaki ijodi. – Т.: Musiqa, 2010. – Б.232.
4. Файзуллоев О.М. Ўзбек фольклоридаги лингвокультуремаларнинг инглизча таржимада берилиши (болалар фольклори ва эртақлар мисолида): Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дис. автореф. – Т., 2019. – Б.20-21.
5. Хошимова Д.М. «Бобурнома» матнидаги тасвирий воситаларнинг инглиз тилига таржималари тадқиқи: Филология фанлари доктори (DSc) диссертацияси. – Тошкент, 2018. – Б.192.

## **ПРИМЕНЕНИЕ КОМПЬЮТЕРА В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ**

**Сафаров Самандар Сафарбоевич –**

**Таджикский педагогический институт, г. Пенджикент, старший преподаватель  
кафедры математики - информатики**

Анализ вида распределения экспериментальных данных и изучить методы проверки соответствия экспериментальных данных нормальному закону распределения с помощью пакета «Microsoft Excel».

**Ключивие слова.** Анализ, оценка, графический метод, коэффициент

To analyze the type of distribution of experimental data and to study methods for verifying the compliance of experimental data with the normal distribution law using the Microsoft Excel package.

**Key words.** Analysis, evaluation, graphical method, coefficient

Применение компьютера в педагогических исследованиях – одна из наиболее слабо освещённых в информационном плане тем и требует дальнейшей разработки.

Проведя анализ имеющейся литературы, мы пришли к выводу, что ЭВМ является необходимым и очень важным инструментом педагогического исследования, потенциал которого далеко не исчерпан.

Любое педагогическое исследование состоит из определённых этапов или частей. Можно выделить два этапа научного исследования: эмпирический и теоретический.

Эмпирический этап связан с получением и первичной обработкой исходного фактического материала. Теоретический этап исследования связан с глубоким анализом факторов, с проникновением в сущность исследуемых явлений, с познанием и формулировкой в качественной и количественной форме законов, т.е. с объяснением явлений.

Далее на этом этапе осуществляется прогнозирование возможных событий или изменений в изучаемых явлениях или процессах, вырабатываются принципы, рекомендации о практическом воздействии на эти явления.

Мы можем отметить, что научное исследование в каждом цикле совершает, движение от эмпирии к теории и от теории к, проверяющей её практике.

Применяемые статистические методы, как правило, ориентированы на обработку данных, полученных из генеральной совокупности с определённым законом распределения.

Статистические методы – научные методы описания и изучения массовых явлений, допускающих количественное (численное) выражение. Слово «статистика» (от итал. stato – государство) имеет общий корень со словом «государство». Первоначально оно относилось к науке управления и означало сбор данных о некоторых параметрах жизнедеятельности государства[8].

Наиболее часто требуется установить, отобрана ли выборка из генеральной совокупности, в которой изучаемый признак имеет нормальное распределение. Нормальный закон распределения занимает среди других законов распределения особое положение и является наиболее часто

встречающимся на практике. Главная его особенность состоит в том, что он является предельным законом, к которому приближаются другие законы распределения при часто встречающихся типичных условиях.

Для предварительной оценки близости эмпирического закона распределения к нормальному используют графический метод, показатели центра распределения и вариации, основные свойства и выборочные параметры формы распределения, среднее абсолютное отклонение. Совокупность этих показателей позволяет дать качественную оценку близости эмпирических данных к нормальной форме распределения.

Графический метод позволяет визуально оценить форму распределения по гистограмме. Анализируются количество вершин в гистограмме, ее асимметричность и выраженность «хвостов». Если на гистограмме четко прослеживаются два-три «горба» частот вариантов, это говорит о том, что выборка неоднородна и значения признака концентрируются сразу в нескольких интервалах, что не соответствует нормальному закону распределения. Если гистограмма имеет одновершинную форму, есть основания предполагать, что выборочная совокупность может иметь характер распределения, близкий к нормальному. Нормальное распределение является симметричным, среднее  $x$ , мода  $Mo$  и медиана  $Me$  совпадают.

Коэффициент асимметрии  $As$  позволяет судить о симметричности выборочных данных. Если асимметрия правосторонняя ( $As > 0$ ) то правая часть эмпирической кривой оказывается длиннее левой, т.е. имеет место неравенство  $x > Me > Mo$ , что означает преимущественное появление в распределении более высоких значений признака. Если асимметрия левосторонняя ( $As < 0$ ), то левая часть эмпирической кривой оказывается длиннее правой и выполняется неравенство  $x < Me < Mo$ , означающее, что в распределении чаще встречаются более низкие значения признака. Чем больше величина  $|As|$ , тем более асимметрично распределение. Оценочная шкала асимметрии: если значение асимметрии  $A \leq 0,25$ , то имеется слабая асимметрия;  $0,25 < As \leq 0,5$  – умеренная асимметрия;  $A > 0,5$  – крайне асимметричное распределение. [1].

Показатель эксцесса  $Ek$  характеризует крутизну кривой распределения – ее заостренность или пологость по сравнению с нормальной кривой. Как правило, коэффициент эксцесса вычисляется только для симметричных или близких к ним распределений. Если  $Ek > 0$ , то форма кривой является более островершинной, чем нормальная. Это говорит о скоплении значений признака в центральной зоне ряда распределения, то есть о преимущественном появлении в данных значений, близких к средней величине. Если  $Ek < 0$ , то форма кривой более пологая по сравнению с нормальной. Это означает, что значения признака не концентрируются в центральной части ряда, а рассеяны по всему диапазону от минимального до максимального значения. Если абсолютное значение эксцесса  $|Ek| \leq 0,2$ , то эксцесс практически отсутствует;  $0,2 < |Ek| \leq 0,3$  – слабый эксцесс;  $0,3 < |Ek| \leq 0,6$  – умеренный эксцесс;  $0,6 < |Ek| \leq 1,0$  – сильный эксцесс;  $|Ek| > 1$  – очень сильный эксцесс. Чем больше абсолютная величина  $|Ek|$ , тем существеннее распределение отличается от нормального.

Принято говорить, что предположение о нормальности распределения не противоречит имеющимся данным, если асимметрия лежит в диапазоне от -0,2 до 0,2, а эксцесс – от -1 до 1.

Для нормального закона распределения характерно следующее свойство: приблизительно 68% значений вариант находятся в интервале  $x \pm s$ ; 95% – в интервале  $x \pm 2s$ ; 99% – в интервале  $x \pm 3s$  где

$x$  – среднее значение, а  $s$  – стандартное отклонение выборки. Если полученная структура рассеяния вариант по трем диапазонам незначительно расходится с данным свойством, можно предположить, что распределение экспериментальных данных близко к нормальному.

Использование среднего абсолютного отклонения позволяет проверить нормальность распределения для выборки небольшого объема. Среднее абсолютное отклонение находят следующим образом:

$$\Delta_{abs} = \frac{\sum_{i=1}^n |x_i - \bar{x}|}{n}$$

где  $x_i$  – значения вариант,  $\bar{x}$  – среднее значение,  $n$  – объем выборки. Затем проверяют выполнение следующих условий:

количество положительных и отрицательных отклонений от среднего приблизительно равны;

половина (или чуть больше) отклонений от среднего по

абсолютной величине меньше среднего абсолютного отклонения;

ни одно из отклонений не превышает среднее абсолютное отклонение больше чем в 3-4 раза;

$$\left| \frac{\Delta_{abs}}{s} - 0,7979 \right| < \frac{0,4}{\sqrt{n}}$$

■ выполняется следующее условие:

Если все эти условия выполняются, то можно считать, что гипотеза о нормальном распределении не противоречит имеющимся данным.

Следует отметить, что на основании выборочных параметров распределения сколько-нибудь уверенно о нормальности закона распределения можно говорить, если имеется не менее 100 наблюдений. Поэтому целесообразно использовать несколько методов оценки, которые дополняют друг друга, и на основе полученных оценок сделать вывод о степени близости распределения экспериментальных данных к нормальному распределению.

Наиболее убедительные результаты дает проверка статистических гипотез о виде распределения (критериев согласия). Среди критериев согласия большое распространение получил непараметрический критерий  $\chi^2$  (хи-квадрат). Он основан на сравнении эмпирических (наблюдаемых) частот интервалов группировки с теоретическими (ожидаемыми) частотами, вычисленными в предположении нормального распределения. В Excel критерий хи-квадрат реализован в функции  $\chi^2$ , аргументами которой являются диапазон экспериментальных частот и диапазон теоретических частот для соответствующих интервалов. Функция ХИ2ТЕСТ() вычисляет вероятность совпадения наблюдаемых (фактических) значений и теоретических (гипотетических) значений. Если вычисленная вероятность ниже принятого уровня значимости, то нулевая гипотеза отвергается и утверждается, что наблюдаемые значения не соответствуют нормальному закону распределения. Если вычисленная вероятность близка к 1, то можно говорить о высокой степени соответствия экспериментальных данных нормальному закону распределения[2].

Теоретические частоты вычисляются при помощи функции НОРМРАСП (x; среднее; стандартное откл; интегральная). Здесь среднее – математическое ожидание теоретического распределения, в данном случае совпадает с выборочным средним; стандартное\_откл – среднее квадратическое отклонение теоретического распределения, в данном случае берется оценка по выборочным данным; интегральная – логическое значение, следует поставить 1 чтобы получить интегральную функцию распределения. Для получения вероятности попадания гипотетического значения из нормально распределенной совокупности в интервал  $[X_1; X_2]$ , следует вычислить разность между значением функции при  $x=x_1$  и  $x=x_2$ . Для получения теоретических частот надо умножить вероятности на объем выборки.

Вообще, информационные технологии нельзя более рассматривать как нечто принадлежащее исключительно миру техники, ибо они настолько глубоко проникли в жизнь людей, вплелись в саму ткань ее повседневности, что вычленив их из общего мировоззренческого и культурологического контекста уже не представляется возможным.

Глубокие преобразования, происходящие в нашем обществе, всё более остро выдвигают на первый план задачи развития среди прочих наук педагогики, как науки, закладывающий моральный и интеллектуальный фундамент будущего. Педагогика возникла и развивается под влиянием объективных потребностей общества в соответствующей подготовке подрастающих поколений к жизни и трудовой деятельности. Её плодотворное развитие может происходить только при условии творческого переосмысления накопленного ею теоретического и практического опыта, т.е. в процессе исследовательской деятельности. Известно, что педагогические исследования опираются, прежде всего, на конкретные факты, которые можно получить только в ходе наблюдений и проведения экспериментов. Современной тенденцией в сфере исследований является повышение качества и количества анализа поступающей в ходе исследования информации.

### **Литература**

1. Гмурман В. Е. Теория вероятностей и математическая статистика. М., Высш. шк., 2003. – 479 с.
2. Грабарь М.И., Краснянская К.А. Применение математической статистики в педагогических исследованиях: Непараметрические методы. М.: Педагогика, 1977. –136с.
3. Гласс Дж., Стэнли Дж. Статистические методы в педагогике и психологии. М.: Прогресс, 1976. – 495 с.
4. Сидоренко Е.В. Методы математической обработки в психологии. СПб.: Речь, 2000. – 350 с.
5. Ю.К. Бабанский, В. И. Журавлев, В. К. Розов и др. Введение в научное исследование по педагогике: Учеб. пособие для студентов пед.институтов. М.: Просвещение, 1988. – 239 с.
6. Кремер Н.Ш. Теория вероятностей и математическая статистика: Учебник для вузов. М.:

## **BOSHLANG'ICH TA'LIM DARSLARINI INTEGRATSION YONDASHUV ASOSIDA TASHKIL ETISH**

**R.X.Jumayev, BuxDU kata o'qituvchisi**

**M.Mizrobova, BuxDU talabasi**

*Ushbu maqolada boshlang'ich sinf oquvchilarining bilim saviyasini oshirish, ularga turli integratsion texnologiyalaridan foydalangan holda dars o'tish metodlari haqida tavsiyalar berib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Talim, integratsion, didaktika, malaka, ko'nikma*

*В этой статье даются советы как повысить уровень знаний учеников начальных классов обучая их с помощью различных интеграционных технологий*

**Ключевые слова:** *Образование, интеграция, дидактика, навыки, умения.*

*This article provides advice on how to increase the level of knowledge of primary school students, teaching them using various integration technologies.*

**Keywords:** *Education, innovation, didactics, skills, abilities.*

Nazariy bilimlarni amaliyotga joriy etish orqali olingan bilimlar mustahkamlanadi, ko'nikma va malakalar yana bir pog'ona oshadi. Ko'zga tashlanadigan kamchiliklar bartaraf etiladi. Amaliyot davomida yuzaga keladigan qiyinchiliklar orqali mustaqil faoliyat ko'nikmasi, to'g'ri qaror qabul qilish malakasi paydo bo'ladi. Kichik maktab yoshidagi bolalarda o'zlashtirish jaroyonida qiyinchilik tug'diradigan muammolarini integratsion texnologiyalar orqali bartaraf etish samarali natija beradi.

Bugungi rivojlangan asrimizda integratsion texnologiyalardan foydalanish muxim ahamiyat kasb etadi. Bularni qo'llashdan asosiy ko'zlangan maqsad zamon talabiga javob bera oladigan yoshlarni tarbiyalash vazifasi hisoblanadi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki darslarda qo'llagan har bir texnologiyamizni to'laqonli mazmun-mohiyatini o'quvchiga yetkazib berishimiz lozim.

Bugungi kunda axborot ko'lami juda rivojlanib, kengayib ketmoqda. Agar o'qituvchi o'z ustida ishlamasa, avvalgi bilimlari yetarli bo'lmay qoladi. Dars mavzularini kundalik hayotdagi keskin voqealar bilan bog'lab o'tilsa, turli integratsion texnologiyalardan foydalanilsa darsni esda qolishiga erishilishi mumkin. O'qituvchi o'quvchilarga integratsion usullardan foydalanib, fanlar aro bog'langan holda ekalogik-gigiyenik bilimlar bilan darsni to'ldirishi zarur.

Aslini olganda integratsiya o'zi nima?

Integratsiya (lot. Integratio — tiklash, to'ldirish, integer — butun so'zi-dan) — fanlarning yaqinlashishi va o'zaro aloqa jarayoni hisoblanadi.

Integratsion texnologiyalardan foydalanishda o'qituvchiga quyidagi bilimlarni bilish taqazo etiladi.

1. AKT bo'yicha bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lish
2. YaPT(yangi pedagogik texnologiya) bo'yicha xorijiy tajribalardan boxabar bo'lish
3. Ta'lim jarayonini tashkil etishda didaktik o'yinlardan, interfaol usullardan foydalanish mahorati

4. Ilg'or pedagogik texnologiya bo'yicha bilimlarni o'zlashtirib boorish

5. Dars jarayonida harakatli o'yinlardan unumli foydalana bilish

6. Imkoni bo'lsa darsni internet tarmog'iga bog'lab o'ta bilish

7. O'z ustida tinmay ishlashi, har soxaga oid yangiliklarni kuzatib borishi kerak.

Shundan kelib chiqib aytish mumkinki o'qituvchi o'zini har tomonlama rivojlantirishi zarur. Har bir o'qituvchi dars jarayonida shu bilimlarni qo'llay olsa, mavzuni o'quvchiga yetkazish oson bo'ladi. Masalan sinfdagi barcha o'quvchilar hamma fanlarni sevib o'qimaydi. Lekin siz uni o'rganmasa bitta yoki ikkita o'quvchim o'rganmabdi – deb qo'ya olmaysiz. Sinfdan bitta o'quvchining savodsiz, bilimsiz bo'lishi ham bu boshlang'ich sinf o'qituvchisining fojiasi hisoblanadi. O'qituvchilik kasbi qanchalar sharaflilik kasb, bu kasbda e'tiborsizlik yaramaydi. O'quvchi biror fanni o'zlashtirolmagan taqdirda ham, uning boshqa yo'nalishlarga qobiliyati bo'lishi mumkin. Misol tariqasida o'quvchingiz matematikani yoqtirmaydi, lekin rasm chizishda ilg'or, juda chiroyli chizadi. Unga matematikaga qiziqish uyg'otish lozim.

Qanday qilib?

Turli ko'rgazmali qurollardan, rasmlardan foydalanib matematikani mukammal bo'lmasada, qisqacha o'rgatish mumkin. O'quvchimiz qo'lga labirint rasmi tushirilgan oq qog'oz beramiz va uni

tushuntiramiz. Bu labirint bunda ko'rsatilgan manzilni topish lozim. Kel menga yordam ber birgalikda ko'rsatilgan manzilga yani maktabga yetib olamiz – deb o'quvchiga tushuncha beramiz. Qara labirintda borish yo'lagida turli soda misollar bor ekan shularni birga ishlaymiz va sen labirint yo'lagini bo'yaysan - deb o'quvchining qiziqishini oshiramiz va unga men senga ishonaman buni uddalaysan, chunki sen sinfdagi eng aqilli o'quvchilarimdansan - deb motivatsiya beramiz. Shu asnoda uni zo'r rassom ekanini ta'kidlab o'tamiz. O'quvchining qiziqishini oshirish biz uchun birinchi ish hisoblanadi. Endi har darsda shunaqa turli ko'rgazmali qurollardan foydalanilsa o'quvchi albatta fanni sevadi, o'qituvchisiga, faniga mehr qo'yadi va biz natijaga erishgan bo'lamiz.

O'qituvchi integratsion texnologiyalarga asoslanib darsni tashkil etar ekan, turli texnik vositalardan ham (kompyuter, proyektor, elektron doska vahokazo) foydalanishi mumkin. O'qituvchining darslarida innovatsiyalar qanchalik ko'p bo'lsa, mazmun shunchalik oshadi. Darsni qiziqarli o'tishi uchun xil xil metodlardan foydalanamiz. Masalan "Baliq sikleti", "Daraxt", "Uchayotgan qaldirg'och", "Rebuslar", kabi metodlar juda ko'p.

Ta'lim innovatsiyalaridan samarali foydalanishda pedagoglarning kasbiy mahorati ,kompetentligi,iqtidori va ish tajribasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Pedagog qanchalik darajada kasbiy mahorat ,kompetentlik, iqtidor va ish tajribasiga ega bo'lsa ,u ta'lim innovatsiyalarini o'z faoliyatida shunchalik faol qo'llaydi va samarali natijalarga erishadi.

Har tomonlama yetuk, barkamol yoshlarni yetishtirish uchun albatta malakali o'z mutaxassisligini chuqur egallagan o'qituvchilar zarur. Shuning uchun hozirgi kunda o'qituvchilar oldiga juda ko'p vazifalar qo'yilmoqda. Shu bilan birga talabalarga ham.

Har qanday ijtimoiy jamiyatda yosh avlod ta'lim-tarbiyasi muayyan maqsad asosida tashkil etiladi .Ta'lim -tarbiya maqsadi ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti, uning rivojlanish yo'nalishi ,ijtimoiy munosabatlar mazmunidan kelib chiqib belgilanadi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi tashkil etilayotgan ta'lim-tarbiyaning asosiy maqsadi komil insonni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasining milliy-hududiy xususiyatlarini inobatga olish hamda ilg'or fan, texnika va texnologiya asosida tayyorlangan yutuqlari asosida tayyorlangan kadr (mutaxassis) – komil inson va yetuk mutaxassis qiyofasini o'zida to'laqonli aks ettiruvchi namunadir.

Zamonaviy sharoitda talabalarning o'quv-bilish faolliklarini kuchaytirish o'qitish sifatini oshirish va samaradorligini yaxshilash maqsadida innovatsion xarakterga ega ta'lim shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir .

Bugungi kunda amaliy o'yinlar ,muammoli o'qitish,interfaol ta'lim ,modul- kredit tizimi ,masofali o'qitish ,blended learning (aralash o'qitish ) va mahorat darslari ta'limning innovatsion shakllari sifatida e'tirof etilmoqda.

Mustaqil ta'lim ma'lum bilim, ko'nikma va malakalar hamda tajribalar zahirasi asosida amalga oshadi .O'quv fanlarini chuqur va puxta o'zlashtirish, ta'lim zahirasi asosida amalga oshadi.O'quv fanlarini chuqur va puxta o'zlashtirish, ta'lim va innovatsion yondashuvlar asosida axborotlarni mustaqil izlab topish, uni atroflicha tahlil eta olish ,ilmiy -ijodiy tafakkurni boyitish ,o'quv-biluv jaroyonidagi savol -javob va bahs-munozaralarda faol qatnashish , o'z fikr – mulohazasini asosli dalillar bilan bayon qilish hamda uni himoya eta olish qobiliyati har bir talaba – bo'lajak mutaxassis oldida turgan dolzarb vazifa hisoblanadi.

## **ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ГОТОВНОСТИ УЧИТЕЛЯ К ОБУЧЕНИЮ РИТОРИКЕ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ Ибрагимов М.С. магистр ТГПУ им. Низами**

Понятие профессиональной готовности к обучению риторике подлежит специальному рассмотрению в данной части работы.

В результате анализа теоретических источников по проблеме исследования профессиональной готовности к различным видам деятельности, в том числе и педагогической, нами установлено, что подготовка к профессии рассматривается как процесс формирования готовности к ней. Такая точка зрения позволяет нам говорить о готовности будущего учителя начальных классов к преподаванию риторике как о таком его профессиональном качестве, формирование которого является целью и результатом интересующего нас процесса.

В соответствии с названной тенденцией и проделанными исследованиями частных видов готовности к педагогической деятельности мы рассматриваем готовность к обучению детей риторике как частное проявление общей готовности к труду учителя.

Таким образом, готовность учителя к преподаванию риторике – один из аспектов его готовности к профессионально-педагогической деятельности.

десятичные дроби были еще мало известной новинкой, и Магницкий не считал нужным познакомить с ними читателей<sup>3</sup>. «Различные действия чрез сей чин может и сам тщатель удобно творити», - замечал Магницкий. В учебниках и программах российской дореволюционной школы десятичные дроби были помещены после обыкновенных дробей, т.е. вначале изучалась теория дробей, а затем применение этой теории к десятичным дробям. Исключение составляло руководство для военных учебных заведений В.Я. Буняковского<sup>1</sup>. В этом учебнике десятичные дроби рассматривались параллельно с целыми числами<sup>2</sup>. Такой же подход к изучению десятичных дробей предлагался и западноевропейскими сторонниками реформы преподавания математики, шедшими под лозунгом Меранской программы. При этом ими высказывались следующие предложения: 1) ограничить объем изучения обыкновенных дробей вплоть до изъятия курса обыкновенных дробей из программы средней школы; 2) оставить в программе рассмотрение дробей с наиболее часто встречающимися знаменателями: 2, 4, 8, 3, 6, 9, 5, 10, 100. Вопрос о порядке изучения десятичных и обыкновенных дробей поднимался на I Всероссийском съезде преподавателей математики (1911 – 1912) К.Ф. Лебединцевым в докладе на тему «Вопрос о дробях в курсе арифметики»<sup>4</sup>. К.Ф. Лебединцев предлагал изучение обыкновенных и десятичных дробей разбить на циклы. Первый из циклов посвятить ознакомлению с «простыми» дробями с помощью наглядных пособий и действий измерения и деления на части. В рамках второго излагать те вычисления с «простыми» и десятичными дробями, которые не требуют расширения понятия о действиях, а в третьем параллельно изучать умножение и деление на дробь обыкновенных и десятичных дробей. После Октябрьской революции (1917), благодаря введению метрической системы мер, выдвигались различные предложения о порядке изучения обыкновенных и десятичных дробей: – изучать десятичные дроби раньше обыкновенных (М.Ф. Берг, М.А. Знаменский. Рабочая книга по математике для пятого года обучения в городской школе, 1929); – изучать параллельно обыкновенные и десятичные дроби (И.И. Грацианский. Рабочая книга по математике для V года обучения, 1928); – вводить понятие о десятичном числе в связи с повторением десятичной нумерации, параллельно изучать действия над натуральными числами и десятичными числами до изучения обыкновенных дробей (В. Крогиус, С. Ляпин, И. Сигов, М. Шидловская. Арифметика. Учебник для 5 года ФЗС и 1 года ШКМ. 1932); – предусмотреть пропедевтический курс десятичных дробей в начальной школе, включающий в себя действия над десятичными дробями, не требующие расширения понятия о действиях (до 1949 г.); – вначале изучать обыкновенные дроби, а затем десятичные как частный случай обыкновенных (с 1931 г. по 1966 г.). В 60-80-е годы XX века в качестве наиболее удачного был признан следующий порядок изучения дробей<sup>1</sup>: 1) После введения понятия обыкновенной дроби, изучения изображения дробей на координатном луче, правильных и неправильных дробей; основного свойства дроби, сокращения дробей, сравнения дробей рассмотреть понятие десятичной дроби и изучить действия над десятичными дробями. 2) Применить к десятичным дробям правила десятичной нумерации и правила действий с натуральными числами. 3) Затем изучить преобразования обыкновенных дробей и те же действия над обыкновенными дробями. Анализ учебных пособий конца XX века свидетельствует о том, что методисты вновь ведут поиск ответа на вопрос о том, какой же порядок изучения обыкновенных и десятичных дробей предпочтителен для школьного курса математики, а проблема последовательности изучения дробей по-прежнему остается одной из ведущих проблем методики арифметики. В современных школьных учебниках математики приняты несколько путей изучения действительных и обыкновенных дробей. Охарактеризуем каждый из них. 1 путь. Изучение десятичных дробей предшествует систематическому изучению обыкновенных дробей, однако, рассмотрение отдельных вопросов темы «Обыкновенные дроби» включено в курс 5 класса и носит подготовительный характер к изучению десятичных дробей. Сторонники этого пути такую последовательность изучения дробей объясняют тем, что: 1. Запись десятичных дробей – естественное продолжение нумерации целых чисел (разрядная таблица расширяется вправо). 2. Десятичные дроби имеют большую практическую значимость и применение (связь с метрической системой мер). 3. Техника выполнения операций над десятичными дробями проще, чем над обыкновенными. 4. Не вызывает затруднений обоснование правил сложения и вычитания десятичных дробей (аналогия с соответствующими действиями над натуральными числами) В числе недостатков вышеназванной последовательности изучения дробей называют следующие: при выводе правила умножения на дробь свойства действия умножения целых чисел переносятся на умножение на дробь механически, без выяснения смысла этого действия. Вводить же определение умножения на дробь для десятичных дробей (дробей частного вида) нерационально и неэкономно, ибо пришлось бы

для обыкновенных дробей (дробей общего вида) снова устанавливать это определение<sup>1</sup>.

Таким образом, для большинства современных учебников ([1] – [8]), характерны первый и второй пути изучения десятичных и обыкновенных дробей. При организации учебного процесса учителя получили возможность строить свою работу, используя любое учебное пособие из этого перечня. Однако существование различных путей изучения дробей приводит к нарушению единого образовательного пространства (трудности продолжения образования при переходе ученика из одной школы в другую).

Выдающийся отечественный математик А.Я. Хинчин подчеркивал: «Понятие числа отличается от многих других понятий школьного курса математики своей первичностью. Это значит, что в подавляющем большинстве логических построений математики числа относятся к разряду тех понятий, которые не определяются через другие понятия, а вместе с аксиомами входят в состав первоначальных данных. Это значит, что математическая наука не содержит в себе ответа на вопрос «Что такое число?». Современная программа по математике<sup>2</sup> ориентирована на постепенное создание и укрепление у учащихся представления о числе как об объекте, над которым можно производить арифметические операции.

#### *Литература*

1. Арифметика. 6 кл.: Учеб. Для общеобразоват. Учб. Заведений / С.М. Никольский, М.К. Потапов, Н.Н. Решетников, А.В. Шевкин. М.: Просвещение, 2000.
2. Виленкин Н.Я., Жохов В.И., Чесноков А.С., Шварцбург С.И. Математика: Учебник для 5 кл. Общеобразовательных учреждений. М.: Мнемозина, 2001.
3. Демман И.Я., Виленкин Н.Я. За страницами учебника математики. М.: Просвещение, 1989.
4. Малова И.Е., Горохова С.К., Малинникова Н.А., Яцковская Г.А. Система профессиональной подготовки учителя основной школы при изучении курса методики преподавания математики. Брянск: Изд-во БГПУ, 1999.
5. Математика. 6 кл.: Методическое пособие к учебному комплексу под ред. Г.В. Лорофеева, И.Ф. Шарыгина «Математика 6» / С.Б. Суворова, Л.В. Кузнецова, С.С. Минаева и др. М.: Дрофа, 2000. 32. Методика преподавания математики в средней школе: Частная методика / А.Я. Блох, В.А. Гусев, Г.В. Дорофеев и др. Сост. В.И. Мишин. М.: Просвещение, 1987.
6. Оценка качества подготовки выпускников основной школы по математике / Г.В. Дорофеев, Л.В. Кузнецова, Г.М. Кузнецова и др. М.: Дрофа, 2000.
7. Практикум по методике преподавания математики в средней школе / Под ред. В.И. Мишина. М.: Просвещение, 1993.
8. Программно-методические материалы: Математика 5-11 кл. Тематическое планирование / Сост. Г.М. Кузнецова. М.: Дрофа, 2000.
9. Эрдниева П.М. Укрупнение дидактических единиц как технология обучения. В 2ч. Часть II. М.: Просвещение, 1992.

## **SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASIS FOR THE FORMATION OF SPEECH SKILLS OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS**

**Kalyshbayeva Gulayim Dikhanovna**

<sup>1</sup>Shymkent University, Shymkent, Republic of Kazakhstan

**Dzhumaev Mamanazar Irgashevich**

K.P.N. Professor Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Tashkent, Uzbekistan.

www. tdpu.uz Mob. +998909991474 [mamanazaruz@bk.ru](mailto:mamanazaruz@bk.ru),

One of the main tasks of school teachers is to teach and train students to speak systematically. Therefore, language development is carried out continuously and purposefully at school. As we all know, the stage of development of normal speech requires the readiness of the child in the future to learn the vocabulary and grammatical forms of the language in school. [1,50-556]

Lack of phonetic-phonemic and lexical-grammatical aspects of special speech has a negative impact on the formation of other mental processes. The subsection on the content and system of vocabulary enrichment considers the importance, place and enrichment of vocabulary in the development of the native language and the system and skills of language development and training. In teaching the Kazakh language, along with the knowledge of the language, the task is to teach the student to communicate. It is the development and teaching of the child's language, the increase of vocabulary; formation of national cognition in students' play through words, sentences, meanings and concepts,

thoughts and content of the text. The development of students' speech is primarily related to the acquisition of lexical and grammatical knowledge of the language in the learning process, and secondly, the flexibility and speaking skills of speech are associated with reading, listening, speaking and writing. Therefore, communicative flexibility and speaking skills are motivated by the goals and objectives of the relationship, and on the other hand, the organization is based on social norms, ie language culture.[ 2,56]

Features of the formation of the child's vocabulary and the relationship between the vocabulary and mental processes are described. Proper speech is based on the formation of psychological categories in the student. Because with speech comes thought. Therefore, analysis and summarization play an important role in understanding the learning materials. After all, thinking is a form of analysis and summarization of feelings and perceptions with a new content. Analysis is the mental recognition of the meaning of various objects and phenomena by breaking them down into individual parts.[ 3,14-156]

In the development of students' spoken language, great attention should be paid to the development of each student's natural speech; Speech development exercises should always be closely linked to fiction.

Literary text is the most important literature in the development of students' spoken language, additional literature in the development of spoken language, newspapers and magazines, documents, the environment of spoken language;

Another key issue in the development of spoken language is the clear, correct reading of the text, the lexical, methodological, grammatical and linguistic richness of students and the literary norm of speech.

Success in the development of spoken language leads to a meaningful, goal-oriented basis of work.

If we ask students to speak words they do not understand, it will not work. Don't go for the next conversation without knowing the skills and qualifications.

The development of students' speaking skills depends, first of all, on the acquisition of lexical and grammatical norms of language in the learning process, and secondly, speaking skills are associated with reading, listening, speaking and writing. Therefore, communicative flexibility and speaking skills are motivated by communication in accordance with the goals and objectives, and on the other hand are organized on the basis of social norms, ie language culture. Allows to identify features of language development of pupils through children's literature:

- Imitation, imagination of the characters of the read work;
- The emergence of different emotions depending on the situation;
- Interaction skills;
- Simple work skills;- Skills to follow the rules of the game;
- Increased speech activity in the enthusiastic performance of tasks.
- Ability to orient and manage their actions;
- Children's creative activities;
- Visual image thinking;
- To draw conclusions about proverbs, riddles;
- The child's relationships with adults and peers;- The content and scope of children's activities.

The art of speech has a special place in human life. Education through art, respect for the environment, care for nature, that is, cultural interaction with nature is carried out mainly in the native language, world studies and extracurricular activities. Samples of folklore can often be used, as well as works of art that reveal the content of environmental education.[4, 55-566]

Through art, it affects the child's mind and emotions, cultivates his attitude to the real situation. He rejoices in the joy of the character depicted in the work of art, resents his resentment and openly says that he wants to help him. Children immediately express their joys and sorrows, likes and dislikes, whether they like it or not. From this you can see the feelings of children, their own views on a particular topic. For example, to develop a child's artistic perception, you can use folklore to get acquainted with the life of our people. Samples of oral literature are widely used in primary school. Because they are understandable to children. One of the main ways to develop students' language is art. It develops the artistic taste of school-age children, the ability to feel the beauty, to see the beauty, to compare the harmony of nature with the pictures in the works of art, to study the world, to learn the native language.[5, 33-346]

#### References

1. Problems of Kazakh folklore and folk pedagogy. / Under the editor. Konyratbaev AS Almaty., 2011

2. Kokeyev M.Zh. Literature collected from the mouth of the country Almaty., 2018
3. Kazakh folk literature. Almaty., 2012
4. Turmakhanov ES Theoretical and methodological bases of enriching students' vocabulary, Candidate. Diss. A., 2017
5. Taubayeva GZ Children's literature and children's writers \\\ Bulletin of the Kazakh State University 2016

## **БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚИТУВЧИСИНИНГ НИЗОЛИ ВАЗИЯТЛАРГА НИСБАТАН МУНОСАБАТИНИ БЕЛГИЛОВЧИ ФУНКЦИЯЛАР**

**А.А. Халиков**

**Низомий номидаги ТДПУ, пед.фанлари  
доктори, профессор**

*Таълим жараёнида бошланғич синф ўқитувчисининг конфликтологик вазиятларда ўзини бошқара олиши, низоларни бартараф этиши, кутилмаганда содир бўладиган зиддиятларни олдиндан кўра олиши, муносабатларни адолатли ҳал этишни белгилайдиган функциялардан унумли фойдаланиши яхши натижаларга эришишига йўналтирилади.*

**Калит сўзлар:** функция, конфликтология, низо, педагогик жараён, манфаатлар, зиддиятлар ечими, компромиссга келиш

*В данной статье рассмотрена с точки зрения функций конфликта – достаточно противоречивое явление. Вступая в противоборство, учителя начальной школы могут добиться реализации поставленных целей. Но часто трудно предугадать даже не очень отдаленные последствия, которые за этим последуют. При этом последствия могут носить как положительный, так и отрицательный характер для участников конфликта.*

**Ключевые слова:** функция, конфликтология, спорные ситуация, педагогический процесс, выгодные интересы, противоречивые развязки, быть согласованным

*From the point of view of functions, conflict is a rather contradictory phenomenon. By entering into confrontation, teachers can achieve their goals. But it is often difficult to predict even not very distant consequences that will follow. In this case, the consequences can be both positive and negative for the parties to the conflict.*

**Keywords:** function, conflict management, controversial situation, pedagogical process, beneficial interests, conflicting outcomes, to be agreed

Бошланғич синф ўқитувчиси конфликтологик вазиятларда турли низоларга нисбатан билдирадиган муносабатини қуйидаги функциялар асосида белгилаб олиш мумкин:

1. Низони инкор этиш функцияси. Мазкур функция агар низоли вазият ўз мазмунига кўра жуда катта эътиборни талаб қилмайдиган масалалар негизда содир бўлган ҳамда унинг кенгайиб кетишига асос бўлмаган ҳолларда қўлланиладиган методлар мажмуаси саналади. Бунда бошланғич синф ўқитувчисининг ўз кучи ва энергиясини янада муҳимроқ масалаларга йўналтиришни танлайди ҳамда низони инкор этиш орқали ечимга олиб келинади. Аммо баъзи вақтларда низони эътиборга олмаслик, янада каттароқ зиддиятли вазиятларни келтириб чиқариши мумкин. Чунки низони инкор этиш ҳар доим ҳам зиддиятни ечимга олиб келишини аниқламайди. Бундай вазиятда ўқитувчи зиддиятли вазиятга ўз таъсирини ўтказишдан маҳрум бўлиб қолади. Ўқитувчи таъсирининг йўқлиги уни педагогик жараёндан чиқариб юборади. Низоли вазиятга ўқитувчи таъсирини тўхтатиб қўяди. Низо ўқитувчидан ташқарида яшай бошлайди. Натижада низони ечимга олиб келиш вазияти қўлдан бой берилган бўлади. Шунга кўра, ўқитувчининг саъй-ҳаракатлари ҳар доим низо ечимига йўналтирилган бўлиши даркор.

2. Низоларни бартараф этиш функцияси. Низони ечимга олиб келишда томонларнинг ғалабага эришиш функцияси фақат бир томоннинг ютуғини аниқламайди, балки зиддиятда иштирок этаётган барча томонларнинг бирдай ютуғини аниқлатади. Бироқ баъзи вақтларда кўпчилик бошланғич синф ўқитувчилари анъанавий тарзда айнан ўзлари ҳақиқатнинг ютиб чиқишини истаган ҳолда ҳаракат қилишади. Натижада, умумий ҳақиқат эмас, балки айнан ўқитувчи ҳақиқати ютиб чиққан бўлади. Аммо мана шундай тарзда эришилган ўқитувчи ҳақиқати томонлар манфаатларига зид бўлиши ҳамда педагогик жараён самарадорлигига путур етказиши мумкин. Бундай қилинганда, педагогик жараёнининг ўқитувчидан ташқари барча иштирокчилари тафаккурида адолатсизлик рўй берганлиги, адолатсизлик ўрин тутганлиги борасидаги фикр келиб чиқади ва мана шу ўқитувчи томонидан амалга оширилган адолатсизлик улар онгида ўрнашиб

олади. Педагогик жараён иштирокчилари ўқитувчи “ҳақиқатини” қабул қила олмайди. Улар ўқитувчи ҳақиқати адолатли эканлигини инкор этадилар. Ўқитувчи эса мана шу адолатсизликни юзага чиқарган инсон сифатида роль ўйнай бошлайди. Табиий равишда ўқувчилар олдида ўқитувчи ҳурмати пасайиб боради ҳамда ўқувчи адолатсизликни ўқитувчи қилиши мумкинлигига ўз кўзи билан иқрор бўлади. Шунга кўра, ўқитувчи низоли вазиятларда ўз ҳақиқатини ўрнатиши эмас, балки зиддиятни адолатли ечимга олиб келиши зарур. Низони ечимга олиб келишда эса барча томонларнинг манфаатларини ҳисобга олиши, ўз кучи ва тажрибасини низо ечимига қаратиши, томонларга нисбатан эса эътиборли, ҳурматли ва нейтрал позицияда туриши тақозо этилади. Низо ечимида ҳар бир томон мазкур ечимдан қониқиб, “Мен ютқазмадим, мен ютдим” деган фикрда қолсагина, ўқитувчи ҳақиқатан ҳам низони адолатли ечимга олиб келган бўлади. Бинобарин, педагогик низо ечими ўқитувчи ҳақлигини англамайди, балки ўқитувчининг зиддиятни ечимга олиб келишда барча иштирокчи томонлар манфаатларини уйғун ҳолда назарга олганлиги ва барча томонларни қониқтирган ечим топилганлигини англатади [1]. Шунга кўра, бошланғич синф ўқитувчиси ўз ҳақиқатини ўрнатишга эмас, балки умумманфаатларини эътиборга олиб, уларни келиштириш ва бир нуқтага олиб келишни таъминлаши тақозо этилади. Шу билан бирга, ўқитувчи зиддиятли вазиятда иштирок этаётган томонларнинг ҳар бирининг манфаатларини назарга олишга ўргатиши зарур бўлган шахс сифатида майдонга чиқади. Агар низоли вазиятда томонлар фақат ўз манфаатларини ҳимоя қилиш йўлидан кетишса, мазкур зиддият ҳеч замон ҳамма томонларни бирдай қониқтирган ечимга олиб келмайди. Агар низода ҳар бир томон фақат ўз манфаатларини муҳофаза қилишга ўтса, бу низонинг деструктив ҳолатга ўтганлигини англатади ва уни ечимга олиб келиш қийинлашади. Низонинг деструктив ҳолатида томонлар ўз манфаатларини муҳофаза қилиш истагида бир-бирини кўрқитиш, таҳдид қилиш, ўзини устун қўйиш, ўзгаларни ўз томонига оғдириш, зуғм ўтказиш, бировнинг устидан кулиш, уни таҳқирлаш кабиларни келтириб чиқара бошлайди. Агар бир томон санаб ўтилган деструктив амалларга ўтса, табиий равишда иккинчи томон ҳам уларни қўллай бошлайди. Натижада муносабатлар узоқ муддатга чуқурлашиб кетади. Агар ўқитувчининг ўзи ўз обрўсининг пасайиб кетишидан чўчиб ўқувчига нисбатан мана шундай амалларни бажара бошласа, унинг ҳурмати барчанинг олдида, яъни барча ўқувчилар, ота-оналар ва бутун педагогик жамоа олдида ҳам пасайиб кетади. [2.]. Бинобарин, ўқитувчи функцияси ўз ҳурматини бетарафлик асосида мунтазамлигини таъминлаш ва барча томонлар манфаатларига бирдай муносабат билдиришда намоён бўлади. Бошланғич синф ўқитувчиси учун низоли вазият асосида вужудга келган ҳар қандай зиддиятнинг ечимга олиб келиниши ва барча томонларнинг мазкур ечимдан қониқиб, зиддиятни ҳаёдан чиқарганлиги, зиддият уларнинг ҳаётидан чиқиб кетганлиги, уларни бошқа хавотирга солмаётганлиги бош ютук саналади.

3. Бошланғич синф ўқитувчисининг низоли вазиятларни ҳал этиш маҳорати функцияси. Педагогик низоларни ечимга олиб келишда ўқитувчида қуйидаги компромиссга олиб келадиган усуллари мавжуд бўлиши керак: томонлар ва уларнинг характер хусусиятлари, уларнинг манфаатларига мослашиши, уларнинг манфаатларини англашга уриниш, баъзи масалаларда бирор томонга ён бериш, муросага келиш, томонлар манфаатларини низоли вазиятдан олдинги ҳолатда сақлаб қолишга уриниш, низолар ечимида воситачилар ёрдами ва иштирокидан фойдаланиш. Мослашиш ва ён бериш жараёнида бошқа томон манфаатларининг муҳимлиги ва бошқа томон қарашларида икки томон учун фойдали бўлган ўринларнинг мавжудлиги тан олинади. Натижада бошқа томон фикр ва қарашлари қабул қилинади. Аслида бошқа томон қарашлари қабул қилинган бўлса ҳам, мана шу қарашни қабул қилган томон ҳам ютукқа эришади. Чунки мазкур қараш барча томон манфаатларини ҳам инобатга олади ва муваффақият учун хизмат қилади. Ён бериш бошқалар фикр ва қарашларига эътибор, уларнинг таҳлил қилишда очиқлик ва самимийлик, ўзга фикрлар орасидан мақбул ғояларни топа билиш ва уларни ҳамкорликда қабул қилиш, ўзининг нейтрал ва рационал муносабатини кўрсата олиш каби амаллар орқали ўзини намоён этади. Шахслараро мана шундай мақбул келишувга эришиш учун кенг имкониятлар яратиб беради. Бироқ ўзга томон фикр ва қарашларини қабул қилиш, иккинчи томоннинг ютқазини, ўз манфаатларига зарар етказиши, бировга бўйсунуш, мулзам бўлиш, йўқотиш сифатида баҳоланса, бу ҳолатлар низонинг эскалацияси, яъни янада кучайишига сабаб бўлади. Ўқитувчининг ўзи эса низоли вазиятда умуман ўзини устун қўйиш, бошқа томонни таҳқирлаш, ўзгани мулзам қилиш, психологик ва жисмоний зўравонлик ўтказиш, ўз фикрини куч билан сингдириш, ўзгаларга тазйиқ ўтказиш каби амаллардан ҳеч вақт фойдаланмаслиги талаб этилади. Компромисс томонларнинг у ёки бу даражада манфаатларининг инобатга олинганлигини тасдиқлаб беради. Ҳар бир томон ўз манфаатларидан энг муҳимлари қабул қилинганлиги, бироқ баъзи бошқа фикрлар инобатга

олинмаганлигини англайди ва шу натижага рози бўлади. Томонлар манфаатларидаги қабул қилинган ўринлар аҳамияти қабул қилинмаган жихатлардан устунроқ мавқега эга бўлади. Бирок кўпчилик низоли вазиятларда табиий равишда бир томон бошқасига нисбатан кўпроқ компромиссга боради. Агар мана шу томон қарашларида бирор-бир норозилик пайдо бўлса, низо бироз вақт тинч ва осуда ўтиб туради, кейинчалик эса янги куч ва энергия билан зиддият қайта пайдо бўлиб, яна томонлар муносабатларига раҳна сола бошлайди.

4. Бошланғич синф ўқитувчисининг низоли вазиятларда ўқувчилар билан ўзаро ҳамкорлиги функцияси. Ҳар қандай низода унда иштирок этаётган томонларнинг мавжуд муаммони ҳамкорликда муҳокама этиш, зиддиятдан чиқишнинг йўли, усул ва воситаларини таклиф этиш, компромиссларга бориш, низоли енгиб ўтишга иштиёқ ва хоҳишни тарбия қилиш зиддият жараёнида ҳар икки томоннинг ютиб чиқиши ва “ғалаба-ғалаба” шароитининг амал қилишини таъминлайди. Бирок конкрет вазиятда зиддиятга кирган томонлар ҳар доим буни тўғри ва мутаносиб англайвермайди. Шунинг учун мана шу вазифани бажаришда ўқитувчининг роли жуда аҳамиятли саналади. Бинобарин, ҳар қандай низоли вазиятда томонлар ҳамкорлигини ўрнатиш муҳимдир. Ҳамкорлик учун томонларнинг қарашлари, фикрлари ва нуқтаи назарларидаги яқинлик, ўзаро такрорланувчи ва ҳар икки томон учун кадрли бўлган ўринларнинг мавжудлиги, умумий манфаатлар ва мақсадларнинг юзага келиши, ҳар икки томондан ҳиссий-эмоционал ва ақлий тафаккур фаолиятлари тақозо этилади. Ўқитувчи низоли вазиятларда ўқувчилар, ҳамкасблар, раҳбарият ўртасидаги ҳамкорликка масъул ҳисобланади. Ҳамкорликни ўрната билиш низоли баргараф этиш ва унинг олдини олишда муҳим роль ўйнайди. Низоли вазиятдаги ҳамкорлик биргаликда турли муаммоларни муҳокама этиш ва тегишли қарорлар қабул қилишни англатади.

Мазкур функцияни амалга ошириш учун низоли вазиятда иштирок этаётган барча томонларнинг манфаатлари ва эҳтиёжларини инобатга олиш ва ўрганиш, уларни амалий қабул қилиш ва таъминлаш чора-тадбирларини кўриш, уларнинг кадриятлар тизимини ҳурмат қилиш, муҳокамаларда объективликни таъминлаш, муаммоларни шахсдан айри ҳолда кўриш тақозо этилади [3, 44-б.].

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Thomas K.W. Conflict and negotiation // Handbook of industrial and organizational psychology/ Eds. M.D. Dunnette. Palo Alto, CA, 1992. – P. 889-935.
2. Рыбакова М. М. Конфликт и взаимодействия в педагогическом процессе. – М.: Педагогика, 1991. – 168 с.
3. Халиков А.А. Педагогик маҳорат. //Дарслик. – Тошкент, Молия. 2015.- 435 бет.

## **SADRIDDIN AYNIIY ASARLARIDA TOPONIMLARDAN STILISTIK MAQSADLARDA FOYDALANISH R.X.Jumayev, BuxDU katta o'qituvchisi**

*Maqolaning asosiy mazmunini S.Ayniyning asarlarida toponimlardan stilistik maqsadlarda foydalanish o'z aksini topgani. Muallif Sadridin Ayniy asarlarida toponimlarning qo'llashi va yilarning stilistik tahlili haqida ma'lumot bergan.*

**Kalit so'zlar:** *toponim, ismlar, gidronim, to'falang, sarsarak, xargush, ro'baho.*

*Основное содержание статьи составляет использование топонимов в стилистических целях в произведениях С. Айна. Автор приводит информацию об использовании топонимов и стилистическом анализе лет в произведениях Садриддина Айна.*

**Ключевые слова:** *топоним, названия, гидроним, тофаланг, сарсарак, харгуш, лисица.*

*The main content of the article is the use of toponyms for stylistic purposes in the works of S. Ayni. The author provides information on the use of toponyms and stylistic analysis of years in the works of Sadridin Ayni.*

**Keywords:** *toponym, names, hydronym, tofalang, sarsarak, hargush, fox.*

Ва'зан муаллиф о'з ниётини топонимлар орқали ҳам ифодalayди. Shu tariqa u o'quvchini kelajakda sodir bo'ladigan voqealarga tayyorlaydi. To'g'ri, badiiy adabiyotdagi toponimlarning bu vazifalarini A.Doniyarov shunday ta'kidlaydi: “Badiiy adabiyotda toponimlar va geografik atamalar u yoki bu darajada o'ziga xos tasvir vazifasini, ma'lum bir semantik-stilistik vazifani bajaradi” [5, 21].

Yozuvchi toponim yordamida o'zining ijobiy yoki salbiy personajlari qalbini, ularning axloqi, fikrlarini ochib beradi. Masalan, gidronim Дарёи Туфаланг -"Баъд аз гуронидани мурдаи Анвар дар

қишлоқи Чаган босмачиён ва аскарони хоссаи Анвар ба лаби даръёй Туфаланг гирд омада барои ҳаракати худ нақша мекашиданд ва мардуми қишлоқро ғун карда барои гирифтани хуни Анварпошно аз большевикон, ташвиқот мебурданд" [2,339].

*To'falang/ To'palang*- "to'polon," Yozuvchi, albatta, atayin bosmachilarni shu daryo bo'yiga to'playdi. Otamanlari Anvar dafn etilgandan keyin shu yerga to'planishdi va, albatta, o'z rahbaridan qasos olishga hozirlik ko'rishdi, demak, "tufalang"ni ko'taradi. **Tufalang**. A.V.Superanskaya shunday yozadi: "Asarning yagona badiiy to'qimasiga to'qilgan holda, o'ziga xos nomlar asarni birinchi o'qishda ba'zan erishib bo'lmaydigan qo'shimcha ma'lumotlar olib keladi" [4, 328].

Darhaqiqat, biz keltirgan holatlarda yozuvchining niyati darhol oshkor bo'lmaydi. Ammo toponimning bunday maqsadli va etarlicha adekvat tanlanishi o'quvchiga ushbu epizodda harakat qilayotgan qahramonlarning ruhiy dunyosiga kirib borishga yordam beradi. Boshqa toponim **Ko'hi Sarsarak** - "Иброҳимбег ҳам, ки дар кӯҳсори Сарсарак сарсари, мегашт, ин мактубро навишт..." [2, 416].

Sar so'zi "bosh; bosh" sarsari shaklida "maqsadsiz, xunuk" ma'nosini bildiradi. Yozuvchi ham Ibrohimbekning "maqsadsiz" achchiqlanishini, o'zi intilayotgan maqsadining unga erishib bo'lmashligini ko'rsatish uchun bu oronimdan foydalanadi. Bu kontekst tomonidan taklif qilinadi. Yozuvchi shu yo'l bilan o'quvchi ongiga bosmachilar yetakchisi harakatlarining ma'nosizligini olib keladi.

Komonim **Dehai Rabaho** [1,15] – "Tulki qishlog'i", haqiqiy toponim bo'lib, yozuvchi bu geografik nomni o'rinli va alohida maqsad bilan qo'llagan. Yozuvchining o'zi hikoyalardan ma'lum bo'lishicha, otasi savodxon bo'lgan, hatto bir qancha shogirdlar ham tayyorlagan, biroq sobiq shogirdlari mulla, imom va boshqa din arboblari bo'lganidan keyin ulardan nafratlanib, bilimini buning uchun emas, balki sarf qilayotganini anglab yetgan xalq va jamiyat manfaati, lekin allaqachon qashshoqlashgan xalqni aldash. Bir marta yuragida sobiq talabalari oldida ularga va o'g'liga aytadi: "... Лекин бо ҳамаи ин шавки хонданро ҳеч аз ёдам набаровардам : "мо худ нарасидем, ту шояд бирасй " гуён тағоият - Мулло Дехқонро, ки ҳарфшинос буд, дарсҳои ибтидоӣ хонондам ва якчанд нафар бачагони дехаро саводхон карда, ҳамашонро ба Бухоро бурда дар мадраса чойгир кунондам. Тағоият хонданро давом кунонд, аммо дигаронашон баъд аз ду-се сол дар мадраса истодан ба саҳро баромада, ҳар кадом дар дехе имом шуда мардумфиребиро ривоч доданд. Мехнатҳои ман суخت.

... Аз ин чумла Мулло Бобоҷон дар деҳаи Рӯбаҳо, ки дар ҷануби Маҳаллаи боло буд, имом шуда буд. Падарам ба ў хитоб карда ва ба дигарон ишорат намуда: Ман умедвор будам, ки ту, дар душворихои зиндагонии мадраса тоб оварда шер мешавӣ. Афсус, ки калони рӯбаҳо шудӣ [1,14-15].

Balki Mullo Bobojon boshqa qishloqning imomi bo'lgandir, lekin yozuvchi uni shu ko'makdosh belgisiga qo'yishni ma'qul ko'radi, chunki denotat nomi otasining tulkiga o'xshab xalqni aldab yurgan insofsiz din amaldorlariga munosabatini ochib beradi..

**Dehai Xargush** [3,148] so'z birikmasini kontekstga qo'yish muallifning o'zi yozmagan narsalarni oydinlashtiradi. Ma'lumki, "Marg'i sudxur" qissasining epizodlaridan birida shahar va qishloqdan dehqonlar va sudxo'rlar o'rtasidagi ziddiyatni ko'rib chiqish va hal etish uchun qozi, nayib kabi vakillari kelib, bir parcha olib ketishadi. Dehqonlardan yer olish, ularga qo'shimcha jarima solish. Bunday qiyinchiliklarni hal qilish uchun boshqa qishloqqa ketayotganlarida: " - Мо ҳозир ба деҳаи Харғӯш рафта... дар баргашт боз дар хавлии Арбоб мехмон мешавем " [3, 146]. Dehai Xargush – "quyon qishlog'i" iborasini "Himoyasiz qishloq" deb tushunish mumkin, ya'ni. himoya qiladigan hech kim yo'q "qo'rqib ketgan dehqonlar qishlog'i".

Yuqoridagi barcha va boshqa ko'pgina hollarda toponimlar nominativ funksiyadan tashqari stilistik vazifani ham bajaradi. Stilistik rang berish gidronim kabi nomlar bilan ham olinadi **Ko'li Shag'olon**, xoronim **Tumani Gajdumak**, гидроним **Daryoi Gardoni Javzo**, komonim **Dehai Lattaband va boshqalar**.

Bu muammoni hal qilish uchun yozuvchi zootoponimlardan keng foydalanadi. Bu mumtoz tojikfors adabiyotiga to'g'ri keladi, bu yerda shoirlarning tamsil shaklida yozganlarida ko'plab misollarni uchratish mumkin.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Айни, Садриддин. Куллиёт. Ҷ.6 қ 1.2. – Душанбе: Ирфон, 1962. – С.415.
2. Айни, Садриддин. Дохунда. – Душанбе: Ирфон, 1994. – С.430.
3. Айни, Садриддин. Куллиёт. Ҷ.4 Марги Судхӯр: Ятим. – Мухаррире: А.Дехоти. 1960. – С.350.
4. Суперанская Ф.В. Общая теория имени собственного. –М.: Наука, 1973-207 с.

## **BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARNI MANTIQUIY MASALALAR YECHISHDA VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH**

**G.E.Saidova – BuxDUPI katta o'qituvchisi**  
**A.Sh.Qoryog'diyeva- BuxDU talabasi**

*Ushbu maqolada boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarni mantiqiy masalalar yechishda bilim, ko'nikma va malakalarini oshirishi haqida yozilgan.*

***Kalit so'zlar:** matematika, masala, amaliy, qobiliyat, fikrlash, ko'nikma. В этой статье обсуждается, как улучшить знания, навыки и компетенции учащихся при решении логических задач на уроках элементарной математики.*

*This article is about how to improve students' knowledge, skills and abilities in solving logical problems in elementary school math classes.*

Matematik masalalar yechish matematika o'qitishning muhim tarkibiy qismidir. Masalalar yechmasdan matematikani o'zlashtirishni tasavvur ham etib bo'lmaydi. Matematikada yechishning nazariyasini amaliyotga tadbiiq qilishning muhim yo'lidir. Masalalar yechishning boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan u yoki bu nazariy materiallarni o'zlashtirish jarayonida muhim rolni va o'quvchilarni fikrlash qobiliyatlarini o'stiradi muhim ro'l o'ynaydi. Masalalar amaliy ishlar sistemasi asosida tuziladi. Bu degan so'z har bir yangi tushunchani tarkib toptirish har doim bu tushuncha ahamiyatini tushuntirishga yordam beradigan uning qo'llanishini talab qiladigan u yoki bu masalani yechish bilan amalga oshadi.

Bola maktabdagi mashg'ulotlarning birinchi kunidayoq masala bilan uchrashadi. O'quvchilarning qanday xayotiy tajriba va bilimga ega ekanini aniqlash maqsadida o'qituvchi o'quvchiga eng sodda masala orqali murojaat qiladi. Masalan: "Sening to'rtta qalaming bor edi, sen yana bitta qalam olding. Sendagi qalamlar nechta bo'ldi?"

Matematik masalalar o'quvchilarga matematik tushunchalarni to'g'ri shakllantirishga, uni o'rab turgan muhitni chuqurroq anglashga, shu bilan birga masalalar echishga bola tafakkurining rivojlanishiga yordam beradi.

Eng asosiylaridan yana biri masalalar echish orqali o'quvchi to'rtala arifmetik amal va ularning xossalari puxta o'rganadi. Matematika tili rivojlanadi. qisqasi ,masalaga bu nazariya bilan amaliyotni bog'lovchi muhim zvenodir.

Arifmetik amallarning mazmunini amallar orasidagi bog'lanishlarni amal komponentlari bilan orasidagi ochib berishda, har xil miqdorlar orasidagi bog'lanishlar bilan tanishishda mos sodda masalalardan foydalaniladi. Sodda masalalar murakkab masalalarni yechish uchun zarur bo'ladigan bilimlar malakalarini va ko'nikmalarini tarkib toptirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Masalalar bolalarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning foydali vositasi bo'lib odatda o'z ichiga ayrim bilimlarni oladi. Bu bilimlarni qidirish masala yechuvchidan analiz va sintezga murojaat qilish faktlarni taqqoslash, umumlashtirish va hakoazolarni talab qiladi. Bilishning bu usullarni o'rgatish matematika o'qitishning muhim maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Masalalarni yechishda predmetga bo'lgan qiziqish rivojlanadi, umuman mustaqillik, erkinlik, talabchanlik, mehnatsevarlik, maqsadga intilishlik rivojlanadi. Bolalar masala tuzilishi bilan ikkinchi yoki uchinchi mashg'ulotda tanishadilar. Ular masalada shart va savol borligini bilib olishadi, masala shartida kamida ikkita son bo'lishligi alohida ta'kidlanadi. Masala ustida ishlah uning mazmunini o'zlashtirishdan boshlanadi. Masala mazmunini yaxshi tushunish uchun o'quvchilarni har biriga uning matnini eshittiribgina qolmay, balki uni mustaqil o'qib chiqishlari ham kerak.

Agar masala sharti bosh qotiradigan bo'lsa o'quvchilarga masala mazmunini mustaqil o'ylab ko'rishlari uchun bir-uch minut vaqt berish maqsadiga muvofiqdir. Boshlang'ich sinflar matematika darslarida arifmetik amallar xossalari va usullarini o'rganishda o'ziga xos bo'lgan qonunyalarni ko'paytirish amaliga teskari amal sifatida muvofiqlikda o'rganilishini talab etsa, ikkinchi tomondan maxsus hollarni tahlil etishda amallardagi xos xususiyatlar bilan taqqoslash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'quvchilarni ikrashlarini o'stirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Boshlang'ich sinf matematika darslarida masalalar yechishda o'quvchilarda hisoblash malakalarini o'stirish orqali matnli masalalar yechishdagi qo'llaniladigan pedagogic texnologiyalardan foydalanish

maqsadida masalalar to'plamlari, multimedia va grafik vositalarni tayyorlash yo'lga qo'yilsa boshlang'ich matematik ta'lim samaradorligini oshirishda ijobiy natijalar beradi deb hisoblaymiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :**

1. G.E.Saidova [Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarni mantiqiy masalalar yechishni o'rgatish](#). Scientific progress 2 (6), 1021-1024

2. Гавхар Эргашовна Саидова. [Развитие логического мышления учащихся на уроках математики в начальной школе](#). international scientific review of the problems of philisophy, psychology and pedagogy 2019.

3. Boshlang'ich ta'limni o'qitish metodikasi bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. II- qism T-2018-yil.

4. M.Axmedov va b.q. 1-sinf "Matematika" darsligi T-2020- yil

5. Bikbayeva N., Yangabayeva E., Girfanova K. To'rtinchi sinf matematika darsligi. Toshkent. "O'qituvchi" 2017 yil.

6. Г.Э. Саидова, С.Ф. Саноккулова. ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИИ ДИДАКТИЧЕСКОГО ИГРОВОГО ОБРАЗОВАНИЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ. EUROPEAN RESEARCH, 2020

7. Г.Э. Саидова. Использование современных педагогических технологий на уроке математики. Ученый XXI века • 2018 • № 12

**MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLAR JARAYONIDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI RIVOJLANTIRISHNING TARIXIY ILDIZLARI**

**O.R.Ortiqov,  
BuxDU o'qituvchisi**

*Ushbu maqolada ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida mafkuraviy immunitetni rivojlantirishning tarixiy ildizlari, mafkuraviy immunitetni shakllantirish va targ'ibot qilish ishlari bugungi kundagi dolzarb vazifasi ekanligi, jamiyatning sog'lom ma'naviy-axloqiy ruhini saqlash va mustahkamlashga xizmat qilishi haqida fikr mulohazalar bildirilgan.*

**Tayanch atamalar:** ma'naviyat, ma'rifat, ma'naviy-ma'rifiy ishlar, tashabbus, barkamol inson, mafkuraviy immunitet, fikrlar majmui, tarixiy manba, shaxs, ezgulik, odamiylik, insonparvarlik, fikr tarbiya, milliy va umuminsoniy qadriyatlar.

*In this article historical roots of the development of ideological immunity in the process of spiritual and educational work, the formation and promotion of ideological immunity is an urgent task today; opinions are expressed that it serves to maintain and strengthen the healthy spiritual and moral spirit of the society.*

**Keywords:** spirituality, enlightenment, spiritual-enlightenment work, initiative, harmonious human being, ideological immunity, set of ideas, historical source, personality, goodness, humanity, humanity, thought education, national and universal values.

*В этой статье исторические корни формирования идеологического иммунитета в процессе духовно-просветительской работы, формирование и пропаганда идеологического иммунитета является актуальной задачей на сегодняшний день; высказываются мнения, что она служит поддержанию и укреплению здорового духовно-нравственного духа общества.*

**Ключевые слова:** духовность, просвещение, духовно-просветительская работа, инициатива, гармоничный человек, идейный иммунитет, комплекс идей, исторический источник, личность, доброта, человечность, образование мысли, национальные и общечеловеческие ценности.

Mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyati asoslarini rivojlantirish doirasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlar markazida shaxs va uning barkamol qiyofasi o'z ifodasini topgan. Shaxsni har tomonlama kamol toptirish uning ma'naviy – axloqiy va intellektual salohiyatini jahon andozalariga mos tarzda yuksaltirish, ayniqsa, bo'lajak oliy ma'lumotli mutaxasislarni har tomonlama barkamol insonlar bo'lib yetishishlarini ta'minlash ishlari mamlakatda bosqichma – bosqich amalga oshirilmoqda.

Mafkuraviy immunitetni shakllantirish va targ'ibot qilish ishlari bugungi kundagi dolzarb vazifaga aylangan. Darhaqiqat, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek, "Biz uchun o'z dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yuqotmaydigan yana bir masala, bu - farzandlarimizni mustaqil fikrli,

zamonaviy bilim va kasb-hunarni egallagan mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakkam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash vazifasidir”. [2,123b]

Mafkuraviy immunitetning tarkibiy sifatlari, komil insonni tarbiyalash g'oyalari, adolat haqidagi qarashlar jamiyatning sog'lom ma'naviy-axloqiy ruhini saqlash va mustahkamlashga xizmat qiluvchi tarixiy manbalar Avesto, Kultegin bitiktoshi, muqaddas kitobimiz “Qur'on karim” va buyuk ajdodlarimiz Unsur Ul Maoliy Kaykovus, Yusuf Xos Hojib, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Abu Rayhon Beruniy, Imom Buxoriy, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy, Abu Nasr Farobiy, Xoja Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Abu Ali ibn Sino, Bahouddin Naqshband, Abu Homid G'azzoliy va boshqalarning ibratli o'g'itlari, boy merosi bo'lgan ta'limotlarida aks etgan.

Muammoning pedagogika nazariyasiga oid jihatlari, ayniqsa, tarbiya, ta'lim, madaniyat, ma'naviy madaniyat, axloqiy madaniyat, o'quvchi yoshlar ma'naviyatini shakllantirish kabi masalalar bilan bog'liq tomonlarini inobatga olib biz tadqiqot jarayonida O.Musurmonova, M.Ochilov, N.Ortiqov, U.Mahkamov, M.Hoshimova, G.Maxmutova, G.Ibragimova, M.Kuronov, Q.Qurbonboeva, F.Norboeva, S.Ochilov, B.Xo'jaev, Sh.Olimov, M.Quronov, O.Musurmonova, U.Mahkamov, S.Nishonova, Sh.Qurbonov, D.Ro'zieva, M.Abdujabborova, Z.Qosimova, Sh.Akramova, G.Maxmutova, D.Kenjaeva, Sh.Rayimov, A.Ismanova, Sh.Shodmonova, I.Mirziyotov, M.Aripova, I.Xushmurodova, M.Yuldasheva va boshqalarning ishlarida esa mafkuraviy immunitetni shakllantirishning pedagogik asoslari, buzg'unchi “ommaviy madaniyat” ning salbiy illatlarini pedagogik jihatlari, mafkuraviy immunitet shakllantirishda ma'naviy qiyofaning pedagogik mexanizmlari, vatanparvarlik, milliy iftixor masalasi yuzasidan pedagogik tahlil amalga oshirilgan.

Mafkura (arab. — fikrlar majmui) — muayyan ijtimoiy guruh, qatlam, millat, jamiyat, davlatning manfaatlari, orzulari, maqsadlari ifodalangan qarashlar va ularni amalga oshirish tizimi. Unda manfaatlari ifodalanayotgan guruh va qatlamlarning o'tmishi, bugungi kuni va istiqboli o'z ifodasini topadi. Mafkura. har qanday jamiyat hayotida zarur [4,307].

Mafkura haqida turli xil qarashlar va fikrlar mavjud. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining prezidenti Sh.Mirziyoyev “Biz yaratayotgan yangi O'zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g'oyasi bo'ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan”[3], - deb ta'rif beradi.

Taraqqiy etayotgan yangi jamiyatda yuksak ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni yoshlarimizda shakllantirishimiz va rivojlantirishga katta e'tibor qaratmog'imiz kerak. Bu jarayon mafkura va mafkuraviy immunitetni shakllantirish ruhida tarbiyalangan, vatanparvarlik, insoniylik, odamiylik fazilatlariga ega o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalashga asoslanadi. Jamiyatni ma'naviy yangilashdan ko'zlangan bosh maqsad – yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq erkinligi va farovonligi, shu bilan birgalikda intellektual salohiyatli o'qituvchi pedagoglarni tarbiyalash muhim masaladir. O'tgan yillar davomida amalga oshirgan ishlarimiz shu maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, xalq farovonligini bosqichma-bosqich va izchil o'sib borishini ta'minlash, fuqarolarimizni munosib hayot kechirishi va kamol topishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish har zamonda ham dolzarb vazifa sanalgan. Shunday ekan, bu masala o'z oldimizga qo'ygan ezgu maqsadlarimizni amalga oshirishda, jamiyatimiz mafkurasi, odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ma'no-mazmunini belgilab bermog'i lozim.


Mafkuraviy immunitet o'z-o'zini anglash, milliy g'urur va iftixorning namoyon bo'lish xususiyatlarida namoyon bo'ladi. Mafkuraning bosh g'oyasi - Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish va uni amalga oshirishning asosiy g'oyalari:

- a) yurt tinchligi,
- b) Vatan ravnaqi,
- c) xalq farovonligi,
- d) komil inson,
- e) ijtimoiy hamkorlik,
- f) millatlararo totuvlik,
- g) diniy bag'rikenglikda aks etadi.

Dunyoda kechayotgan murakkab siyosiy, mafkuraviy kurashlardan muntazam xabardor bo'lish, jahonda, yon atrofimizda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga nisbatan o'quvchi-talabalarda ongli munosabatni shakllantirish, ularda milliy manfaatlarimizni chuqur anglash va himoya qilish, shu aziz Vatan uchun, uning buguni va ertasi uchun daxldorlik va ma'sullik tuyg'usini yanada kuchaytirishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirib, sohani rivojlantirish kerak bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida mafkuraviy immunitetni rivojlantirish natijasida yuksak intellektual salohiyatli shaxsni shakllantirish va rivojlantirish, ta'limning maqsad va

vazifalariga aylantirish, tafakkur va munozara madaniyatini rivojlantirish, shaxs ichki dunyosini boyitish hamda ta'lim mazmuniga moslashtirish, mafkuraviy immunitetni ijtimoiy ong shakli sifatida rivojlantirish davr talabi deb qarash muhim masala sanaladi.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni -T.: "O'zbekiston", 2020 yil 23 sentabr.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliy janob xalqimiz bilan birga quramiz T.: O'zbekiston, 2017. 488 b.
3. O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021 yil 19 yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishga bag'ishlangan videosektor yig'ilishidagi nuqti (<https://www.gazeta.uz>)
4. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти Т.: 975-bet.

5. Ortiqov O. R. GLOBALLASHUV JARAYONIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI //Scientific progress. – 2021. – Т. 1. – №. 5.

6. ORTIQOV O. BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI RIVOJLANTIRISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA UMUMINSONIY TARBIYANING O'RNI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 1. – №. 1.

7. Ортиков О. Р. Махалла как социально-культурный очаг народа //Научное пространство: актуальные вопросы, достижения и инновации. – 2020. – С. 20-23.

8. ОЛИМОВ Ш. Ш., ХОДЖИЕВА М. Ш. Возможности применения педагогических технологий в образовательном процессе //Молодежь и XXI век-2020. – 2020. – С. 228-231.

9. Умаров Б. Ж. Педагогические основы формирования эстетической культуры у будущих учителей //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 5-2 (83).

10. Жураев Б. Т. Гуманизация дидактических отношений между учителем и учащимся в педагогических идеях Востока //VIII Лазаревские чтения" Лики традиционной культуры в современном культурном пространстве: ренессанс базовых ценностей?". – 2018. – С. 120-122.

## SADRIDDIN AYNIIY ASARLARIDA AGORONIMLARNING LEKSIK TAHLILI

R.X.Jumayev, BuxDU katta o'qituvchisi

*Maqolaning asosiy mazmunini S.Ayniyning asarlarida agoronimlarning leksik tahlili tashkil etadi. Muallif Sadridin Ayniy asarlarida agoronimlarning qo'llashi va ylarning tahlili haqida ma'lumot bergan.*

**Kalit so'zlar:** agoronimr, ismlar, bozorlar, mehrgon, Buxoro, nav, moh, xiyobon, ko'hna, rasta, registon, madrasa, reg.

*Основное содержание статьи составляет лексический анализ агоронимов в произведениях С. Айни. В своих работах автор Садриддин Айни приводит информацию об употреблении агоронимов и анализе лет.*

**Ключевые слова:** агоронимр, названия, базары, мехргон, Бухара, навь, мох, аллея, старый, раста, регистан, медресе, рег.

*The main content of the article is the lexical analysis of agoronyms in the works of S. Ayni. In his works, the author Sadridin Ayni provides information on the use of agoronyms and the analysis of years.*

**Keywords:** agoronimr, names, markets, mehrgon, Bukhara, nav, moh, alley, old, rasta, registan, madrasa, reg.

Agoronimlar O'rta Osiyo shaharlari hayotida muhim o'rin tutadi. Bu viloyatlardagi shaharlarni bozorlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Adib viloyat shaharlaridagi bozorlarni atroflicha va o'ziga xos xususiyatini o'z asarlarida hissiyotli tasvirlash bilan ochib beradi.

Bozorlar ko'p bo'lsa, maydonlar juda oz bo'lsa kerak, shaharlarda maydonlarga ehtiyoj qolmagan bo'lsa kerak, chunki har xil bayramlar (Navro'z, Mehrgon, Qurbon va boshqalar) shahar tashqarisidagi keng maydonlarda o'tkazilgan. O'tmishda bozorlarning bunday ko'p bo'lishiga sabab, bugungi "universal" bozorlardan farqli ravishda, har bir mahsulot turining o'ziga xos bozori bo'lgan va bozorlar odatda shu bozorda sotiladigan mahsulot nomi bilan atalgan.

O.A.Suxareva Buxoro bozorlari haqida shunday yozadi: "Buxoroning tuzilishida bozorlar birinchi darajali ahamiyatga ega edi. Buxoro bozorlari o'zining katta-kichikligi bilan ajralib turardi, buni 19-asr boshlari sayohatchilari qayd etgan. 19-asr oxirida ular yanada rivojlangan 20-asr boshlarida, Buxoroda, shuningdek, butun O'rta Osiyoda savdo-sotiq ko'p marta o'sdi, bu esa shaharlar va ularning bozorlarining o'sishiga ta'sir ko'rsatdi". [3, 41].

Buxoro bozorlaridan biri **Bozori Nav** [1, 393]. Agoronim ko'rsatkich **Bozor** – "bozor" atamasi va **nav** – "yangi" leksemasidan iborat bo'lib, ikkilik oppozitsiyali toponimni hosil qiladi. Bozor – "bozor" atamasi tojik tilidan (fors tili ko'p tillarga o'zlashtirilgan, shu jumladan rus tili (turkiy tillar orqali). Qadimgi davrlarda O'rta Osiyo shaharlarida u yoki bu bozor uchun "bozor kunlari" belgilangan, shuning uchun bozorlarning hafta kunlariga ko'ra nomlari paydo bo'lgan. Masalan, Xo'jandda "**Panjshanbebozor**", "Payshanba kuni bozor" bor. "Bozor" atamasi O'rta Osiyoda keng qo'llaniladi va

hatto “dam olish kuni” birikmasi bilan ham sinonim hisoblanadi. Tadqiq soʻzlashuv nutqida ruzi istirohat “dam olish kuni” oʻrnida ruzi bozor “bozor kuni” koʻp ishlatiladi.

**Nav** toponimining ikkinchi komponenti “yangi” boʻlib, piroko toponimiyasida ham qoʻllaniladi. Bu leksema deyarli har bir yangi yaratilgan qishloq, shahar, mahalla kabilar nomiga kiradi: **Shahrinav** — “yangi shahar”, **Navobod** “yangi obod”; **Juyinav** “yangi ariq” va boshqalar. Aksariyat hollarda bunday nomlar asrlar davomida **nav** atamasi bilan saqlanib qolgan. Baʼzan bunday hollarda **nav** “yangi” va **koʻhna** “eski” oʻzaklari bilan antonimik juftliklar paydo boʻladi.

**Bozori Koh** [1, 393]. Nomi oʻzining ichki koʻrinishida shaffof boʻlib, u **koh** - mayda somon sotadigan bozorni anglatadi. Bu bozorda nafaqat somon, balki har xil pichan sotardi. Bu yerda agoronim “gapiruvchi” nom sifatida koʻrsatilgan.

**Bozori Xiyobon.** Bu agoronim oldingi bozorlar nomlaridan farqli oʻlaroq, mahalliyashtirish toponimi, yaʼni. bozorning joylashishini bildiradi.

**Bozori xiyobon** “Xiyobondagi bozor” yoki “Xiyobon bozori” degan maʼnoni anglatadi.

Katta koʻchalar boʻylab bozorlardan tashqari savdo arkadalari ham bor edi. Bu qatorlardan biri **rastai xiyobon**, rasta - "qator" + va + xiyobon "Xiyobondagi qator").

Qayd etilgan barcha xos nomlar oʻz tarkibida topoloksema **xiyobonga** ega. Koʻrsatkichsiz bozor **rasta**, **madrasa** va **guzar Xiyobon** faqat koʻcha nomini bildiradi. Toʻliq va aniq geografik nom faqat toponim tarkibiga kiruvchi koʻrsatkich termini yordamida uzatiladi.

**Bozori Moh.** Bozori Moh Buxoroning eng qadimiy agoronimlaridan biridir. Tarixiy manbalarda bu bozor arablarning Oʻrta Osiyoga bostirib kirishidan avval qurilgani aytiladi. Muhammad Narmaxiy aytadi: “Buxoroda bir bozor boʻlib, uni “Moh bozori” deb atashgan, yiliga ikki marta, bir kunlik bozor boʻlgan, har safar bu bozorda butlar sotilgan [4, 30]. bunga qoʻshimcha qiladi: “Abul-Hasana-Nishoburiy “Kazoyinu-l-ulum” kitobida Buxoroda qadimda Moh ismli podshoh boʻlgan. Boshqa bir rivoyatda aytilishicha, Moh otashparast boʻlgan, u islom dinini qabul qilgan va uyini masjidga aylantirgan.

Endi moh soʻzi Oy astronomi, shuningdek, moh "oy" deb tushuniladi. S.Ayniy yozadi: "Дар Бухоро "Бозори Мох" ном бозоре буд, ки ҳар сол дар он чо ду бор бозор мешуд (ҳоло чои Ин бозор гузар ва масчиди Моҳ аст)" [2, 86].

Aftidan, bu masjidning nomi antropotoponimdir, chunki bu bozorni oy, oy va tangalar bilan bogʻlash mumkin emas.

**Registon** - Buxoro arki yonidagi maydon nomi. Bu agronom Markaziy Osiyo va bir qator Sharq mamlakatlarida keng tanilgan. Bu toponim topografik asos **Reg** – “qum” va topoformant – **istondan** iborat. Lekin **Registon** nomi “katta shahardagi markaziy maydon” maʼnosini ham oʻz ichiga oladi. Samarqan va Buxorodan tashqari shu nomdagi maydon ham bor. E.M.Murzaevning yozishicha: “Eron va Afgʻonistonda registon bozor, savdo koʻprigi; namoyishlar va paradlar uchun joy. "Ushbu fors-tojikcha soʻzning asosi reg (qum). Darhaqiqat, bu maʼnoda bu soʻzni dariy tilida topish mumkin, bu erda registon atamasi "qumli choʻl" yoki oddiygina "choʻl" maʼnosida qoʻllaniladi. [5, 102].

Bu hududlarda uzoq vaqt davomida qum boʻlmasa-da, ular hali ham **reg** "qum" bilan bogʻliq boʻlgan asl nom bilan ataladi.

Muhammad Narshaxiy Buxoro Registoni haqida shunday yozadi: “Qalʼaning gʻarbiy darvozasidan Moobid darvozasigacha (yaʼni “sajdagoh”. Qurbon hayiti shu yerda nishonlangan)gacha choʻzilgan joy Registon deb ataladi. Qadimdan “johiliyat davridan” (yaʼni Muhammad alayhissalomdan oldin) shoh saroylari joylashtirilgan” (134, s.36).

#### **Adabiyotlar roʻyxati:**

1. Айни, Садриддин. Куллиёт. Ҷ.7 қ 3.4. – Душанбе: Ирфон, 1962. – С.648.
2. Айни, Садриддин. Қаҳрамони халқи тоҷик Темурмалик. Исёни Муқаннаъ. – Душанбе: Ирфон, 1978. – С.168.
3. Сухарева О.А. Бухара XIX-начала XX в. Позднефеодальный город и его население. –М.: Наука, 1966-328 с.
4. Мухаммед Наршахи. История Бухары. Пер.с персидского Н.Пиношинь. –Ташкент: Типо-литография т.д.”О.и.Г.бр.Каменские” 1897. -128 с.
5. Мурзаев Э.М. Очерки топонимики. –М.: Мысль, 1974.-384 с.

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA IJODIY FIKRLASHNI  
SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI  
G.E.Saidova - BuxDUPI katta o'qituvchisi  
S.F.Sanoqulova-BuxDU talabasi**

*In this article, one of the most popular types of pedagogical technologies today is about the importance of interactive techniques and its positive impact on the formation of creative thinking in elementary school students.*

**Key words:** *interactive method, opinion of pupil, interactive exercises, mosaïque, POPS technology.*

Interfaol metodlar o'quvchi va o'qituvchining birgalikdagi faoliyati bo'lib, asosan o'quvchilarni fikrlarga undaydi. Kerakli xulosalarga kelishni, ularga o'zini tahlil qilishni va amaliyotda qo'llashni o'rgatadi. O'qituvchining asosiy vazifasi bu o'rinda o'quvchilarga yo'l ko'rsatish, yo'nalish berish, eng to'g'ri xulosani aytishdan iborat.

Interfaol usullar yana shunisi bilan ham ahamiyatliki, o'qituvchi o'quvchining fikrini xech qachon keskin rad etmaydi, faqatgina vaqti-vaqti bilan to'g'ri xulosani aytib o'tib ketadi, natijada o'quvchi xatosini o'zi tushunib oladi. Bu esa ularni tushkunlikka tushish, fikrlashda tormozlanish kabi xolatlarning oldini oladi. Interfaol metodlar o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro hurmatga asoslanadi. O'qituvchi qanday bo'lmasin o'quvchining fikrini tinglaydi va hurmat bilan qarashini bildiradi, shu bilan birga o'quvchilarni bir-birlarini tinglashga o'rgatadi. E'tirozlar, qo'shimchalar ham "hurmatli", "sizning fikringizga qo'shilgan holda", "bizning ham ayrim fikrlarimiz bor edi" kabi so'zlar orqali bildiriladi. Bunday tarzda tashkil etilgan darsda o'quvchi o'zini hurmat qilinayotganligini sezadi va bunday sharoitda hech qanday tayziqsiz erkin fikrlay boshlaydi va uni ochiq bayon eta oladi. Shu bilan birgalikda u boshqalarni ham hurmat qilishga o'rganadi.

Interfaol metodlar o'quvchilarda doimiy faollikni ta'minlaydi.

O'quvchilar dars davomida bo'sh qolmaydilar, ular mavzuga oid biror bir muammo bilan band bo'ladilar. Natijada esa zerikish holatining oldi olinadi.

Interfaol uslubiy yondashuvda o'quvchilar bilish va o'rganish jarayoniga butunlay sho'ng'ib ketadilar, ular o'zlari bilgan va o'ylayotganlari xususida bahslashishlari ham mumkin. Interfaol darslarda maqsadga erishish uchun yetarli zamin yaratadi. O'qituvchi dars rejasini tuzadi (qoida bo'yicha interfaol mashq va topshiriqlar o'quvchi o'zlashtirayotgan material bilan o'zaro bog'liq bo'ladi). O'quvchilar bajaradigan interfaol darsdagi interfaol mashq va topshiriqlar uning asosiy tarkibi hisoblanadi.

Interfaol mashqlar oddiy mashq va topshiriqlardan shunisi bilan farqlanadiki, ularni bajarish jarayonida o'ragilgan material nafaqat mustahkamlanadi, balki yana yangilari ham olinadi. Shuningdek, bu mashq va topshiriqlar interfaol yondashuvga mo'ljallangan bo'lib, zamonaviy pedagogikada ham uning boy zahirasi to'plangan, shulardan quyidagilarni ajratib olamiz:

- ✓ Ijodiy topshiriq;
- ✓ Kichik guruhlar bilan ishlash;
- ✓ Ta'limiy o'yinlar (rolli, maqsadli va bilim beruvchi o'yinlar);
- ✓ Jamiyatdagi zahiralardan foydalanish (mutaxassis taklif etish, ekskursiyalar);
- ✓ Ijtimoiy loyihalar va auditoriyadan tashqari beriladigan ta'lim metodlari (ijtimoiy loyihalar, radio va gazetalar, fil'mlar, saxna asarlari, qo'shiq va ertaklar);
- ✓ Razminka;
- ✓ Yangi materialni o'rganish va mustaxkamlash (interfaol ma'ruza, ko'rgazmali qurollar bilan ishlash, video va audio materiallar, "o'quvchi-o'qituvchi rolida", "har bir kishi har bir kishiga o'rgatadi"), mozaika (ajurali arra) savollardan foydalanish, diolog);
- ✓ Murakkab va muzokara talab savol va muammolarni echish ("fikir maktabi", "pozitsiyani egalla", "POPS" loyihalashtirilgan texnikalar, "bir o'zing, ikki kishi birgalikda", "pozitsiyani o'zgartir", "karrusel", "televizion tok-shou uslubida munozara", debatlar, simpozium);
- ✓ Muammo-yechim ("yechimli daraxt", "aqliy hujum", "kazuслar tahlili", "kelishuvlar va mediatsiya") va hokazo.

Ijodiy topshiriqlar deganda biz shunday topshiriqlarni tushunamizki, bunda ishtirokchilardan nafaqat oddiy axborotni qabul qilish, balki unga ijodiy yondoshish ham talab etiladi. Chunki, berilgan topshiriqlar katta yoki kichik hajmdagi o'rganilmagan elementga, qoidaga ko'ra bir necha yondashuvni talab etadi.

Xullas, hozirgi zamon ilm-fan, texnika rivojlanib borayotgan bir paytda ta'lim sohasida ham tub o'zgarishlar sodir bo'lishi tabiiydir. Bu ta'limda sifat va samaradorlikka erishishning bosh omilidir. O'qitishdagi interfaol metodlar esa bu jarayonda muhim ahamiyatga ega.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Farberman. B.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. -T., 2001.
2. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. "Nasaf" nashriyoti. 1999.
3. 6. Sayidaxmedov. N. Yangi pedagogik texnologiyalar. -T.: Moliya, 2003.
4. ГЭ Саидова, СФ Санокулова [ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИИ ДИДАКТИЧЕСКОГО ИГРОВОГО ОБРАЗОВАНИЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ](#). EUROPEAN RESEARCH, 2020
5. Г.Э. Саидова. Использование современных педагогических технологий на уроке математики. Ученый XXI века • 2018 • № 12
6. G.E.Saidova [Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarni mantiqiy masalalar yechishni o'rgatish](#). Scientific progress 2 (6), 1021-1024
7. Гавхар Эргашовна Саидова. [Развитие логического мышления учащихся на уроках математики в начальной школе](#). international scientific review of the problems of philisophy, psychology and pedagogy 2019.

### TEKNOLOGIYA FANI O'QITUVCHISINING INNOVATSION FAOLIYATI MODELINI RIVOJLANTIRISH

**Z. Sh. Nurmatov,**  
*Termiz davlat universiteti o'qituvchisi*

*Maqolada bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini o'qitish davomida, o'qituvchining ta'lim jarayoniga pedagogik yangiliklarni (innovatsiyalarni) ishlab chiqish va joriy etishga tayyorlash haqida so'z yuritilgan.*

**Kalit so'zlar va tushunchalar:** o'qituvchi, dars, texnologiya, pedagogika, innovatsiya, faoliyat, tayyorlash.

*В статье рассматривается подготовка будущих учителей технологий к разработке и внедрению педагогических инноваций в образовательный процесс.*

**Ключевые слова:** учитель, урок, технология, педагогика, инновация, деятельность, обучение.

*The article deals with the preparation of future technology teachers for the development and implementation of pedagogical innovations in the educational process.*

**Keywords and concepts:** teacher, lesson, technology, pedagogy, innovation, activity, training.

Amalga oshirilayotgan ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlarni integratsiyalashuvi yo'nalishida ta'lim tizimini takomillashtirish, optimallashtirish va insonparvarlashtirish muammolarini hal etish, ularni zamonaviy ta'lim amaliyotida ko'paytirishni dolzarblashtiradi. Bunday muammolarni hal qilish shartlari uzluksiz pedagogik jarayonning samaradorligini oshirish va jadal rivojlanish yo'lida ilm-fan yutuqlarini tobora ko'proq chiqarishdir[6].

Yangicha pedagogika, pedagogika nazariyasi va amaliyotida ro'y berayotgan qayta qurish o'zgarishlarini, innovatsiyalarni va ularni ta'limga tatbiq etishni ilmiy tahlil qilish, umumlashtirish va takomillashtirishga qaratilgan amaliyotga yo'naltirilgan sohalarining ko'p qirrali rivojlanishi bilan o'ziga jalb etadi. Shu sababli, yangicha pedagogik nazariyaning eng muhim elementlari, ijtimoiy-iqtisodiy tendentsiyalarga muvofiq, innovatsion uzluksiz ta'lim jarayonini har tomonlama tushunish va rivojlantirish bo'lib, u o'z navbatida innovatsion faoliyat uchun maxsus metodologiya va strategik ko'rsatmalarni o'z ichiga oladi [1].

Yangicha pedagogik ishning dinamikasi, asosan innovatsion faoliyat tabiatida, o'qituvchini o'z faoliyatida tayyor retseptlar bilan emas, balki vaziyatni, faktlarni, ilmiy ma'lumotlarni chuqur tushunish, ularning ko'p qirrali rivojlanayotgan mohiyatini ko'rish qobiliyatiga yo'naltirishga majbur qiladi. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining o'z faoliyatining yangicha murakkab kasbiy vazifalarini bajarishi uning kasbiy va shaxsiy ma'nolarini amalga oshirishdan mumkin emas, bu esa ularni tayyorlash bosqichida pedagogik jihatdan ta'minlashni talab qiladi.

Butun dunyoda innovatsion faoliyat ko'lami va ahamiyatini oshira boshladi. Bu sanoat jamiyatining postindustrial (axborot) jamiyatiga aylanishi, texnologik inqilob, u keltirib chiqargan texnologiya

sivilizatsiya inqirozi sharoitida ta'limdagi inqirozli hodisalarni bartaraf etish yo'llarini topishning ob'ektiv zarurati bilan bog'liq edi. Bundan kelib chiqadigan global ekologik halokat tahdidi jamiyatning ham, insonning ham ta'lim ehtiyojlarini qondirishdan to'xtadi. Boshqa tomondan, ushbu vaziyatda ta'limning ijtimoiy taraqqiyotni boshqarish vositasi va omili sifatidagi favqulodda ahamiyati va uning yangi sivilizatsiya paradigmasini shakllantirishdagi eng muhim roli eng aniq belgilab berildi [3].

O'zining innovatsion faoliyatida o'qituvchi butun pedagogik jarayon va haqiqiy kasbiy faoliyatning tadqiqotchisi sifatida ishlaydi. Bu unga pedagogik tajribani (o'zining va hamkasblarining) idrok etish, tahlil qilish va tavsiflash, maqsad va vazifalarga erishish yo'llarini to'g'rilash, o'z kasbiy faoliyatining mazmunini tashkil etuvchi hodisa va jarayonlarga ijodiy yondashish imkonini beradi. Aynan o'z pedagogik faoliyatini tahlil qilish o'qituvchining innovatsion faoliyati uchun asos bo'lib xizmat qiladi [5].

Innovatsion faoliyat o'qituvchining ta'lim jarayoniga pedagogik yangiliklarni (innovatsiyalarni) ishlab chiqish va joriy etishga tayyorligi bilan bog'liq. Biroq, o'qituvchilarning innovatsiyalarni qabul qilish va amaliyotga tadbiiq etishga tayyor emasligi ta'lim jarayoniga kiritilgan innovatsiyalar samaradorligini sezilarli darajada pasaytiradi.

O'qituvchining o'quv jarayoniga innovatsiyalarni kiritishga tayyorligi ko'p jihatdan uning universitetda o'qish davrida qo'yilgan poydevor bilan belgilanadi. Demak, bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlash tizimi samarali bo'lishi uchun u ham umumiy ta'lim amaliyotining rivojlanishini belgilab beruvchi tendentsiyalarga mos ravishda o'zgarishi kerak [4].

Amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, innovatsion jarayonlar ham pedagogika fanini, ham pedagogik amaliyotni rivojlantirishning zarur va ajralmas shartidir. Shu munosabat bilan bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisini tayyorlash jarayoni ijodkorlik qobiliyatiga ega, yangicha pedagogik texnologiyalarga ega bo'lgan o'qituvchini tayyorlashga qaratilishi lozim [2].

Xulosa shuni ko'rsatadiki oxirgi yillarda innovatsion faoliyatga ega o'qituvchilarning shaxsiy tajribasi bilan bir qatorda olimlarning ushbu noyob hodisaning turli tarixiy bosqichlari, umumiy tendentsiyalari va qonuniyatlarini o'rganish va tushunishga intilishi xarakterlidir. Mamlakatimiz ijtimoiy rivojlanishining yangicha ehtiyojlarini aks ettiruvchi ta'limdagi innovatsion jarayonlarning yo'nalishlari, birinchi navbatda, yangi bilim sohasi - pedagogik innovatsiyalarning shakllanishi bilan bog'liq bo'lib, u o'qituvchilar innovatsiyasi bo'yicha tadqiqotlarni faollashtirish uchun imkoniyatlarni ochib beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Bogoyavlenskaya D.B. Ijodiy qobiliyatlar psixologiyasi: monografiya. Samara: Fedorov nashriyoti, 2009. 416 p.
2. Zagvyazinskiy V.I. Rossiya ta'limini innovatsion rivojlantirish strategiyasi: muammolar va istiqbollari // Iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning innovatsion rivojlanishining hozirgi bosqichida ta'limning ilmiy, uslubiy va kadrlar bilan ta'minlanishi Butunrossiya ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari. xalqaro ishtirokida. Tyumen, 2010 yil 18-19 mart. Tyumen: Tyumen davlat universiteti nashriyoti 2010. 11-4 dan.
3. Lebedev. M.V. Ta'lim muassasasida innovatsion faoliyat: amaliyotga yo'naltirilgan fan va fanni talab qiladigan amaliyotning sintezi. // Uzluksiz ta'limdagi innovatsiyalar. - 2012. - No 4 (4). - S. 15-23.
4. Raizberg B.A., Lobko A.G. Dasturni maqsadli rejalashtirish va boshqarish. M.: INFRA-M, 2002. 428 b.
5. Ikkinchi avlodning Federal davlat ta'lim standartini amalga oshirish // Nach. maktab 2009. No 9. 3-25-betlar.
6. Robert I.V. Ta'limni axborotlashtirish nazariyasi va metodologiyasi (psixologik-pedagogik va texnologik jihatlari): monografiya. M.: II O RAO, 2007. 234 b.

### **AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI ORQALI YOSH TALABALARNING IJODIY SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISH**

**J. X. Xayitov,**

**Termiz davlat universiteti o'qituvchisi**

*Maqolada bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini kreativligi hamda ijodga intilishligi qolaversa hayotga ijodiy yondashish va o'ziga doimiy tanqidiy nazar solish shuningdek tahlil etish ruhida tarbiyalash jarayonlarining mazmun-mohiyati yoritib berilgan.*

**Kalit so'zlar va tushunchalar:** o'qituvchi, o'quvchi, texnologiya, kreativ, qobiliyat, rivojlantirish, sifat, samaradorlik.

*В статье описано содержание процесса воспитания будущих учителей технологии в духе творчества, а также творческого подхода к жизни и постоянной самокритики, а также анализа.*

**Ключевые слова:** *учитель, ученик, технология, творчество, способность, развитие, качество, эффективность.*

*The article describes the essence of the process of educating future technology teachers in the spirit of creativity, as well as a creative approach to life and constant self-criticism, as well as analysis.*

**Keywords and concepts:** *teacher, student, technology, creativity, ability, development, quality, efficiency.*

Bugungi kunda bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Kreativlik tushunchasi (lot., ing. "create" – yaratish, "creative" yaratuvchi, ijodkor) ingliz tilidan tarjima qilganda ijod ma'nosini anglatadi. Haqiqatdan esa yangi, original (o'ziga xos) yanada sayqallangan moddiy va ma'naviy bog'liqliklarni yaratishdir[1].

Ijodkorlik muammoli vaziyatda harakat qilish qobiliyatini, ushbu natijaga erishish uchun modelga ega bo'lmasdan natijalarga erishish qobiliyatini anglatadi. Bu turli xil hodisalarda o'xshash xususiyatlarni va juda o'xshash ob'ektlardagi sezilarli farqlarni ko'rish qobiliyatidir. Bular bilim va tajribani yangi vaziyatga o'tkazish qobiliyati, ob'ektning tuzilishi va uning boshqa funktsiyalarini ko'rish, qo'yilgan vazifaga muvofiq harakat uslubini moslashuvchan tarzda o'zgartirish qobiliyatidir. Ijod bilim, ko'nikma, ko'nikmalar ko'lami, hal etilayotgan muammo va vazifalarning turlari va chuqurligi kengaygan sari boyib boradi va rivojlanadi. Ijodiy salohiyatni rivojlantirish shaxsni maqsadli va har tomonlama rivojlantirish va tarbiyalashning integral jarayonidir.

Ijodkorlikni rivojlantirish shartlariga quyidagilar kiradi: ijodiy muhit va ijodiy o'qituvchidan e'tibor; ijobiy ijodiy qaror qabul qilish imkoniyati, bag'rikenglik, boshqalarga do'stona munosabatda bo'lish va o'zini, o'z imkoniyatlarini mustaqil, chuqur o'rganish.

Hissiyotlar bolalar fantaziyasining muhim manbaidir. Bolaning ijodi, albatta, yorqin ijobiy his-tuyg'ular bilan to'yingan. Aynan ana shu holat tufayli boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ijodkorlik yuqori jozibador kuchga ega. Yorqin his-tuyg'ular o'quvchilar ehtiyojlarini nafaqat ijodkorlikning yakuniy mahsulotiga, balki, eng muhimi, ma'lum darajada, individual vazifalarni hal qilishdan qat'i nazar, ushbu jarayonning o'zini amalga oshirishga asos bo'ladi. Ijodiy faoliyat - bu turli xil materiallar va teksturalar yordamida o'z qarashlarini, atrofdagi voqelikka hayratni yoki uni rad etishni ko'rsatish imkoniyatidir[2].

Ijodiy tasavvur faoliyati deyarli hech qachon o'qituvchining ishtirokisiz yoki yordamisiz paydo bo'lmaydi. Biroq, o'qituvchining roli, albatta, o'qitish emas, balki kichik yoshdagi o'quvchilar o'zlarining ijodiy g'oyalarini yaratish va amalga oshirishlari uchun o'quvchilar bilan birgalikda o'quv jarayonini qurishdir.

Talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish muammosi zamonaviy jamiyatda alohida ahamiyatga ega. Bugungi kunda axborot madaniyatiga o'tish davrida bunday xususiyatlar bilan ajralib turadi integratsiyalashgan xarakter, harakatchanlik, fikrlashning moslashuvchanligi, bag'rikenglik va barcha darajadagi yaqin muloqot, zamonaviy ta'lim oldida muhim vazifa - bu yangi madaniyatga mos talaba tayyorlash[5].

Ta'limni individuallashtirish va differentsiallashtirishning mumkin bo'lgan omillariga e'tibor qaratish, o'quvchilarning darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarida to'g'ri qo'llaniladigan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari o'quvchilarga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etishga, demak, ularning kognitiv rivojlanishiga yordam beradi. qiziqish, ijodiy qobiliyatlarni ochib berish, kichik yoshdagi o'quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish[3].

Jamiyat taraqqiyotining zamonaviy davri haqli ravishda axborotlashtirish bosqichi deb ataladi. Bu davrning xarakterli xususiyati shundan iboratki, ijtimoiy ishlab chiqarish sohasida uning samaradorligini oshiradigan ustuvor faoliyat turi yig'ish, ishlab chiqarish, zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida amalga oshiriladigan axborotni qayta ishlash, saqlash, uzatish va ulardan foydalanish.

Zamonaviy jamiyatni axborotlashtirish jarayonining maqsadli yo'nalishlaridan biri bu ta'limni axborotlashtirish bo'lib, bu ishda psixologik-pedagogik ishlanmalarni keng joriy etishni ta'minlaydi, ular rivojlantiruvchi ta'lim g'oyalarini amalga oshirishga, ta'lim shakllari va usullarini takomillashtirishga qaratilgan. ta'lim jarayonini tashkil etish, bilimlarni oddiy o'zlashtirishdan mustaqil ravishda yangi bilimlarni olish qobiliyatini egallashga o'tishni berish[4].

Xulosa qilib ayganda yosh o'quvchining ijodiy salohiyatini rivojlantirishda eng katta ta'sir ko'rsatishi mumkin: har kuni o'quv jarayoniga qo'shilish axborot vositalaridan foydalangan holda ijodiy topshiriq va mashqlar va kommunikatsiya texnologiyalari; o'quvchilar oilasini bog'lash imkoniyati tufayli

kichik yoshdagi maktab o'quvchilarini tengdoshlari va kattalar bilan ijodiy o'zaro munosabatlarga jalb qilish ko'zda tutiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Sharipov Sh.S., Qo'ysinov O.A va boshq. Texnologiya fanini o'qitish va psixologik xizmatni tashkil etishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. -T.: „Muhammad poligraf“ MCHJ, 2017
2. Bekmurodova S. Texnologiya fanini o'qitishda yangicha yondashuv. T.: 2017
3. Shomirzayev M.X. Ta'lim texnologiyalaridan foydalanish muammolari // Zamonaviy ta'lim. – T., 2019.
4. Muslimov N.A. "Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi" / Monografiya. -T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2013.
5. Shomirzayev M.X. Texnologiya fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar. Darslik. -T.: "TerDU nashr-matbaa markazi", 2020. – 226 b.
6. Shomirzayev M.X. Texnologiya fanini o'qitishning samaradorligini oshirish yo'llari. O'qituvchilar uchun uslubiy qo'llanma. -T.: 2019. – 72 b.

### **TOPONIMLARNING LISONIY-ETIMOLOGIK TASNIFI**

**Adizova Nodira Baxtiyorovna**

*Buxoro davlat universitetining*

*Pedagogika instituti dotsenti*

*Mazkur maqolada Buxoro tuman toponimiyasining lisoniy-etimologik tasnifi keltirilgan. Ayrim mikrotoponimlarning nomlanishida turkiy xalqlar, jumladan, o'zbek xalqining urug' va qabilalarni, ularning shahobcha va tarmoqlarini nomlari keltirilgan va biz bularni tahlilga tortdik va o'z mulohazalarimizni bayon qildik.*

*Tayanch so'zlar: Onomastika, toponim, mikrotoponim, makrotoponim, oykonim, agronim, nekronim, lug'aviy asos, etimologiya, lisoniy, morfemik.*

Toponimlar tilshunoslik, geografiya, tarix, geologiya kabi fanlarning o'rganish ob'ekti hisoblanadi. Ularda xalq hamda el-yurtning tarixi – taqdiri o'z ifodasini topgan. Joy nomlari qadim tarixga ega bo'lgan elat, millat hamda xalqlarning o'ziga xos noyob yodgorliklaridan biri sanaladi. Sababi, ularning o'zi bir olam tarix hamda taqdirni ifodalab turadi. Onomastika tilshunoslikning atoqli otlar haqidagi alohida bo'limi bo'lgani kabi, uning bir sohasi bo'lgan toponimikada toponimlar va ular lug'aviy asoslarining etimologik tadqiqini amalga oshirish ham sinxron, ham diaxron holatda katta nazariy, amaliy ahamiyatga ega.

Maqolada Buxoro tumani toponimlarining lisoniy-etimologik hamda morfemik tadqiqiga qaratilgani bo'lsa-da, joy nomlari haqida bugungacha amalga oshirilgan tadqiqotlariga umumiy; ham lingvistik, ham geografik; tarixiy hamda lingvistik; izohli va etimologik jihatlardan tadqiq etilgan ishlar sifatida to'xtalish o'rinlidir.

Muayyan hudud toponimiyasini tadqiq qilish, avvalo, o'sha hududdagi toponimik materialni to'plashdan boshlanadi. Bunday material, shubhasiz, turli tip nomlarning yig'indisidan iborat bo'ladi. Mana shu nomlarning mazmuni, lug'aviy tarkibi nominasion va grammatik xususiyatlarni aniqlash uchun, o'rganilayotgan hudud toponimik tizimi uchun ko'proq qanday nomlar tipik ekanini belgilash, ularni muayyan guruhlar (tiplar) ga ajratish lozim bo'ladi. Mana shu talab onomastik materialni ma'lum tamoyillar, usullar asosida tasniflashga olib keladi. Shu sababli, tadqiqotchilar joy nomlarini tasniflash masalasini asosiy muammolardan biri deb baholashdi: "Atoqli otlarni tavsiflash va tahlil qilish tasnifsiz to'liq bo'lmaydi. Tasnif nomshunoslik ishlarida bevosita qatnashadi yoki ba'zi tadqiqotlarda u muallifning asosiy maqsadi bo'lishi mumkin va tasnif materialida o'z ifodasini topgan turi mezonlar asosida amalga oshiriladi". [6,55]

Onomastik materialni tavsiflash ishi bilan, deyarli barcha nomshunoslar shug'ullanib keladi. Chunki, atoqli otlar tasnifi onomastik tizimni tahlil qilishning eng zaruriy va asosiy shartlaridan biridir. Tadqiqotning qanchalik muvaffaqiyatli olib borilishi materialni to'g'ri tasniflay olishga ham bog'liqdir. Tadqiqotimiz jarayonida Buxoro tuman toponimlarining quyidagi ko'rinishlari mavjudligi ma'lum bo'ldi.

**1.1. Toponimlar.** Quruqlikda joylashgan tabiiy geografik va sun'iy ob'ektlar atoqli oti. Bular quyidagi guruhlarga ajraladi.

**1.1.1. Oykonimlar .** Bunga qishloq, ovul, mahalla nomlari kiradi.

Qishloq va ovullar nomi oykonimiyaning tarkibiy qismi bo'lib, Buxoro tuman toponimiyasining asosiy qismini tashkil qiladi. Qishloq nomlari makrotoponim va mikrotoponimlar tizimining chegarasini ko'rsatuvchi onomastik birlik bo'lib, [1,25-28] makrotoponimlar guruhiga kiradi.

Buxoro tumanidagi qishloq nomlarining aksariyati juda qadimiy, tarixiy nomlardir va ularning nomlanish sabablari ham ko'p holda unitilgan deyish mumkin. Chunonchi, Yurinpoyon, Patput, Leylak, Tutixushk, Janafar, Chappa, Jonbobo, Mijona, Otquchi, Obitoratkabi qishloqlar nomi bunga misol bo'la oladi.

Quyida qishloq nomlarining ba'zilarini qisqacha izohini keltiramiz.

**BOG'IKALON**-tumandagi aholi punkti nomi. Toponim ikki qismdan tashkil topgan: bog'(i)+kalon. Bog' fors-tojikcha so'z bo'lib, *mevali daraxt, tok va gul bilan band yer maydoni; mevazor hamda shahardan tashqaridagi qo'rg'on va unga yopishgan mevazor, tokzor joy* ma'nolariga ega [9, 141]. Kalon so'zi ham fors-tojikcha bo'lib, *hajman va miqdoran ulug'; balog'atga yetgan; mansabdor; vazifasi yoki unvoni jihatidan ustun* kabi ma'nolarda qo'llanadi [7, 582-583]. Toponim tarkibidagi "i" forsiy izofa sanaladi. Bog'+i+kalon – katta bog'. Hududida katta bog' bo'lganligi yoki aholisi ko'pligi sababli qishloq shunday nomlangan.

**BESHBO'RI**-tumandagi aholi punkti nomi. Toponim umumturkiy so'z bo'lib, boy+bo'ri tarzida shakllangan. Boy so'zining qadimiy ma'nolari – "ulug'", "buyuk", "ulkan", "yuksak hajmli"; "muqaddas", "mo'tabar"; "katta mol-mulk egasi", "badavlat" kabilar sanaladi. Qadimgi turkiy xalqlardagi Umay (ayol, malika-xudo, afsonaviy ayol-ma'buda, yosh bolalarni panohida asrovchi iloh, yaratuvchi ayol-ma'buda) so'zining o'zgargan, soddalashgan shakli "boy" so'zi bo'lishi mumkin, deya taxmin etadi T.Nafasov. Bo'ri – qadimgi turkiy xalqlarda totem, sig'inilgan mavjudot. Qadimgi turkiy ashin qabilasi o'zlarini bo'ridan kelib chiqqan deb hisoblashgan. Boybo'ri – ulug' bo'ri, kuchli bo'ri. Qo'ng'irotlarning va qoraqalpoqlarning boybo'ri urug'i mavjud. Boybo'ri – kishi ismi. Ism ham totem va urug' nomidan kelib chiqqan. Qishloq nomi urug' nomidan yaralgan [3, 65].

Umuman olganda, turkiy qavmlar tarkibida "besh" so'zi qatnashgan *beshbola, beshkal, beshkaltak, beshkapa, beshkubi, beshog'och, beshsari, beshtentak beshqozon* kabi urug' nomlari keng tarqalgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Begmatov E., Oripov O'. Mikrotoponim tushunchasi haqida // O'zbek tili va adabiyoti.-2000.-№3.-B, 25-28
2. Latipov Dj. Toponimiya goroda Margilana i yego okrestnostey: Avtoref. dis. ... kand. filol. Nauk. –T-1975.
3. Nafasov T. Qashqadaryo qishloqnomasi. - T.: "Muharrir", 2009, 430 b.
4. Oxunov N. Toponimiya Kokandskoy gruppi rayonov: Avtoref.dis. ... kand. filol. Nauk. –T-1978.
5. Podolskaya N.V. Slovar russkoy onomasticheskoy terminologii.-S.27
6. Superanskaya A.V. Obshchaya teoriya sobstvennix imen. – M.: Nauka. 1970. –S.55.
7. Farhangi tafsirii zaboni to'chiki (iborat az 2 җild) Ҷild 1. A – NZeri tahriri Sayfiddin Nazarzoda (rais), Ahmadjon Sanginov, Said Karimov, Mirzo Hasani Sulton. Dushanbe – 2008, 950 s.
8. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 12 jildlik, 3-jild. –T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2002, -703 b.
9. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2 jildli, 1-jild. –M.: "Rus tili", 1981, 631 b.
10. Hofiz Tanish Buxoriy. Abdullanoma, 1-jild. – T.: 1966, 273 b.

### **1-SINF "ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI" DARSLARIDA ETNOPEdagogIKA NAMUNALARINI O'RGATISH METODIKASI D.N.Xayrullayeva, BuxDU o'qituvchisi**

*Maqolada hozirgi vaqtda o'tmishning madaniy-tarixiy merosini qayta tiklash, uning eng muhim tarkibiy qismi bo'lgan etnopedagogikaning boy an'analari va yosh avlodni tarbiyalash haqida fikrlar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** dars, nutq, tovush, ta'lim, pedagogika, etnopedagogika

*В данной статье речь идет о восстановлении культурно-исторического наследия прошлого, богатых традициях этнопедагогике, являющейся важнейшей ее частью воспитанию подрастающего поколения.*

**Ключевые слова:** урок, речь, воспитание, этнопедагогика, педагогика

*This article deals with the restoration of the cultural and historical heritage of the past, the rich traditions of ethnopedagogy, which is its most important part in the upbringing of the younger generation.*

**Keywords:** lesson, speech, education, ethnopedagogy, pedagogy

Har bir millat hamda jamiyat o'ziga xos tarixga ega bo'lib, tarixiy shakllangan -jamiyatning har birida o'z bolalarini tarbiyalash jarayoni, farzand tarbiyasiga oid qarashlari shakllangan. Yosh avlodga eng qadimgi davrlardan boshlab o'z xalqining madaniy qadriyatlari haqida ma'lumot berish, ajdodlarining tajribalarini avlodlarga yetkazish muhim vazifa bo'lib hisoblanadi. Bunda ular o'z tarixini, ajdodlari kim va qanday insonlar bo'lganligini o'rganadi hamda qaysidir ma'noda o'z qadr-qimmatini ham bilib oladi.

Etnopedagogika-turli xil etnik guruhlar o'rtasida tarixan rivojlangan, an'anaviy tarbiya va ta'lim amaliyoti sifatida xalq pedagogikasi bo'lgan fan. Ushbu atama Rossiya ta'lim akademiyasining akademigi G.N.Volkov tomonidan kiritilgan va ommalashtirilgan.

Juda tez o'zgarib borayotgan, cheksiz o'zgarishlar kuzatilayotgan davrda yashamoqdamiz. O'sib kelayotgan yosh avlod ham yangiliklarning bevosita ishtirokchisi bo'lib kelmoqda. Shuning uchun ham bolalarimizga ma'naviy-axloqiy ta'lim va tarbiya berish masalasi zamonaviy pedagogika fanining eng muhim masalalaridan biridir. Yoshlarimizga inson o'z mulkiy manfaatlarini ustun qo'ymasdan, vijdon, uyat, burch, or-nomus, mas'uliyat, rahm-shafqat, sevgi, go'zallik, vafo kabi tushunchalarning mohiyatini, xalqimizning eng qadimgi davrlaridan boshlab boshdan kechirgan hayotiy tajribalarini o'rgatib bormog'imiz lozim. Bizga ma'lumki, xalqimizning pedagogik qarashlari uzoq asrlar davomida shakllangan va ular bizga alohida darslik yoki qo'llanma shaklida yetib kelmay, balki asosiy qismi xalq og'zaki ijodiga oid har xil janrlarda, buyuk olimlarimiz asarlarida, muqaddas kitobimiz Qur'oni Karim hamda hadislarda o'z aksini topgan. Xalqimiz bor ekan etnopedagogika sohasi yashayveradi va yanada sayqallanib, insonlar orzulari, quvonch-u tashvishlari, shodlik va armonli kunlari, dunyoqarashi hamda hayotiy ta'lim-tarbiyaviy xulosalari avlodlar uchun o'rnak bo'lib qolaveradi. Yuqoridagi fikrlarning isboti sifatida yurtimizda 2020-yilda ta'lim sohasida jahonning yetakchi mamlakatlari tajribalariga asoslangan "Milliy o'quv dasturi" qabul qilindi. Bosqichma-bosqich tarzda barcha umumta'lim maktab darsliklari "Milliy o'quv dasturi" asosida tuzilib, eski darsliklardan voz kechiladi. 2021-2022-o'quv yilidan boshlab umumta'lim muassasalariga yetkazib berildi. Boshlang'ich sinfdan boshlab o'quvchilarga o'zbek millatining tarixiy tajribasini qo'llashga o'rgatish, o'tgan ajlodlarning yosh avlodlarni tarbiyalash haqidagi fikrlarini singdirib bormog'imiz darkor. Fikrimizning dalili sifatida Milliy dastur asosida yaratilgan "Alifbe" darsligini o'rganish jarayonidanoq o'quvchilarga maqol, topishmoqlar darslikda o'z aksini topganligiga guvoh bo'lamiz. Bizga ma'lumki, 2021-2022-o'quv yilidan boshlab "Ona tili" va "O'qish" darsliklari birlashtirilib, "Ona tili va o'qish savodxonligi" sifatida o'qitila boshlandi. 1-sinfning 2-yarim yilligidan boshlab o'quvchilar yangi dastur asosida yaratilgan darsliklarda oila, hayot, milliy g'urur, xalqimizga xos an'ana va qadriyatlarni o'z xalqlarining o'tmishi, tarbiyaga oid qarashlarini bilib, tahlil qilib bormoqalar.

1-sinf "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligining 28-betida Hayit bayramidan bir kun oldingi kun Arafa kuni haqidagi matnning keltirilishida faqat o'zimizning millatgagina xos bo'lgan hayitda yangi kiyim kiyish, qo'ni-qo'shnilar birlashib bir-birining uyiga turli xil bo'g'irsoq va shirinliklar ulashishi, qarindosh-urug'larning hayit ayyomida yig'ilishlari bolalarga xos oson va sodda tilda tushuntirilgan. 32-betda "Navro'z taronasi" she'ri va undan so'ng bahoriy milliy taom hisoblangan "Sumalak"ning pishirilish jarayoniga oid rasmlarda aks etgan o'zbek oilalariga xos bo'lgan ahillik, bir-biriga bo'lgan mehr-muhabbatni jajji o'quvchilar anglab, milliy qadriyatlarimizni bilib olishlari qiyin emas.

Xalq og'zaki poetik ijodining eng qadimgi va ommaviy janrlaridan biri bo'lgan, jahondagi barcha xalqlar folklorida uchraydigan **topishmoqlar** ham ushbu darslikdan o'rin olgan. Topishmoqlarda ham xalq hayoti, turmush darajasi, madaniyati va urf-odatlari ma'lum darajada o'z ifodasini topadi. Topishmoqlar bolalarning so'z boyligini oshirish, hayot va uning hodisalari haqidagi tushuncha va tasavvurlarini, mulohaza qobiliyatini kengaytirishda tarbiya vositasi hisoblanadi. Vatanga muhabbat, mehnat, ahillik, donolik kabi ijtimoiy-siyosiy va tarbiyaviy ahamiyati g'oyat katta bo'lgan **maqollar** ham asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda ko'rinishga kelgan. Turkiy xalqlarning maqollaridan namunalar dastlab Mahmud Koshg'ariyning "*Devonu lug'otut turk*" asarida keltirilgan.

Bu maqollarning har birida xalqimizning necha yillik tajribalari aks etganligini sezish qiyin emas. Bular orqali yosh avlodda ham fikrlar izchilligi rivojlanib, dono ota-bobolarimizning aytgan har bir gaplari bejizga aytilmaganligini sezadilar va o'zlari ham yod olib boradilar.

92-betda o'zbek milliy o'yinlaridan "Oq terakmi, ko'k terak?", "Bekinmachoq", "Kurash", "Uloq" kabi o'yinlar va ularning tasviri keltirilgan. Hozirgi axborot texnologiyalari va kompyuter o'yinlari hamda virtual olam kutilmagan holda kirib kelgan ayni vaqtda madaniyat, bilim,

ta'lim-tarbiya masalalari bizda biroz muammo tug'dirishi mumkin. Buning uchun ko'p yillik tarixiy tajribamizga suyanishimiz lozim. O'sib kelayotgan yosh avlod qalbida milliy o'yinlarimizga muhabbatni uyg'otishimiz lozim.

Har bir xalqning sevimli milliy o'yinlari bo'lgani kabi o'zbek xalqining ham o'ziga xos o'yinlari bo'lgan. Milliy o'yinlarimiz serharakatligi, chidamlilikka o'rgatuvchi, chiniqtiruvchi harakatlardan tashkil topganligi bilan boshqa xalqlarning o'yinlaridan tubdan farq qiladi. Bu o'yinlarni o'rgatish orqali bolalarni qiziqtirib, bo'sh vaqtlarida o'rtoqlari bilan ushbu o'yinlarni o'ynab, kelajak avlodlarga ham yetkazib borsalar milliyligimiz hech qachon yo'qolmaydi.

Haqiqatdan ham, o'zbek milliy o'yinlari hayotiyliigi, xalq tomonidan yaratilganligi uchun ham katta-yu kichik va hatto xotin –qizlar tomonidan ham yoshligidan boshlab sevib o'ynalgan. Ota-bobolarimizning o'z farzandlariga qiyinchiliklar kelganda o'z irodasini yo'qotmaslik, biror-bir hayot zarbalariga duch kelganda qo'rqmay, dadil kelajak tomon harakat qilish lozimligini, og'ir, sertashvish kunlardan keyin, hamda sayllar o'yinlar orqali kayfiyatlarini ko'tarib, tetiklashib kuch to'plaganliklarini bolalarimizga namuna sifatida ko'rsatib va o'rgatib borishimiz kerak. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev raisligida 2022-yil 28-yanvarda o'tkazilgan maktab ta'limini rivojlantirish masalalari bo'yicha bo'lib o'tgan videoselektorda mamlakat kelajagi, barcha sohalar va loyihalar muvaffaqiyati bilimli insonlarga bog'liq ekanligini ta'kidlab o'tgan. Albatta, bu fikrlar bejiz emas. Kelajak yoshlar qo'lida. Yoshlar bilimli, tarbiyali, madaniyatli bo'lar ekan biz kelajagimiz buyuk deya baralla ayta olamiz. "Yangi O'zbekiston", "Uchinchi renesans" kabi tushunchalar bekorga kirib kelgani yo'q. Hamma-hammasi ta'lim va tarbiyaga bog'liq. Prezidentimizning quyidagi fikrlari hammamizga tegishli:

"Yosh avlodni tarbiyalash biz uchun eng asosiy vazifadir", "Najot ta'limda, najot tarbiyada, najot bilimda. Ta'limga e'tiborda bir kun emas, bir soat kechiksak bu juda katta ziyon bo'ladi."

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, o'sib borayotgan avlodning ta'lim-tarbiya tizimini xalqimizning tajribalariga tayangan holda olib borsak, farzandlarimiz ham tarixini, buyuk ajdodlarini, ham milliy an'ana va marosimlarini o'rganadi va ularga hurmat ruhida tarbiya topadi deb o'ylayman.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi : Toshkent., "O'zbekiston" , -2021
2. Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Sh.Tursun.,Hakimova M.,Baxtiyorova H., "Ona tili va o'qish savodxonligi" 1-sinf uchun darslik, Toshkent:Respublika ta'lim markazi, 2021.
3. Xayrullayeva D.N. "3-4-sinf "Ona tili" darsliklarining tadrijiy taraqqiyoti": monografiya – "Globe Edit" – 2021.

## **BOSHLANG'ICH TA'LIMNI INTEGRATSIYALASHNING METODIK IMKONIYATLARI**

**A.Sh. Husenova,  
BuxDU tayanch doktoranti**

*Boshlang'ich sinf o'quvchilarida fikrlash qobiliyatining har xil turlarini shakllantirish integratsiyaning negizi hisoblanadi. Mazkur maqolada boshlang'ich sinf darslarida integratsiya, xususan ona tili, o'qish, tasviriy san'at, tabiat darslarida integratsiya haqida fikr-mulohazalar bildirildi.*

**Kalit so'zlar:** *Boshlang'ich ta'lim, integratsiya, o'qituvchi, o'quvchi, o'qish, ona tili, tasviriy san'at, metod.*

*Основой интеграции является формирование у младших школьников различных видов мышления. В этой статье обсуждается интеграция в начальной школе, особенно в области родного языка, чтения, изобразительного искусства и природы.*

**Ключевые слова:** *начальное образование, интеграция, учитель, ученик, чтение, родной язык, изобразительное искусство, метод.*

*The foundation of integration is the formation of different types of thinking skills in primary school students. This article discusses integration in primary school, especially in mother tongue, reading, fine arts, and nature.*

**Keywords:** *Primary education, integration, teacher, student, reading, mother tongue, fine arts, method.*

Jamiyatning taraqqiyot darajasi, zamonamizning axborot texnologiyalar asriga aylanishi, yoshlarni har tomonlama yetuk, vaziyatni tezda baholaydigan, har qanday holatda ham to'g'ri va oqilona qaror qabul qila oladigan malakali mutaxassis qilib tayyorlash uchun faqat ana'anaviy usullarga tayanib dars o'tish yetarli emas. Yangi pedagogik va axborot texnologiyalari asosida dars mashg'ulotlarini

integratsiyalab tashkil etish, o'quvchilarni aqlan va jismonan yetuk, ma'naviy dunyoqarashi keng, o'zining sog'lom fikri bilan munosabat bildira oladigan barkamol shaxslarni tarbiyalash imkoniyati keng.

Boshlang'ich maktab ta'lim-tarbiyasini integratsiyalash muammosi nazariya uchun ham, amaliyot uchun ham muhim va dolzarbdir. Boshlang'ich ta'limni integratsiyalash masalasiga keyingi paytda bir qancha yondashishlar bo'ldi: darsni ikki fan o'qituvchisi olib borishi yoki ikki fanni bir darsga birlashtirib, uni bir o'qituvchi tomonidan o'tilishidan to integratsiyalangan kurslar tashkil etish, boshlang'ich ta'lim mazmunini tubdan o'zgartirishgacha. Bunga maktab ham, didaktika va metodika ham tayyor emas. Hozirgi kunda asosini tabiatshunoslik bo'yicha bilimlar tashkil etuvchi integratsiyalangan kurs yaratish muammosi dolzarb bo'lib turibdi. Bular boshqa turdagi bilimlarni jipslashtiruvchi asosiy vazifani o'z zimmasiga oladi. Bunday yondashish anchadan beri ma'lum va chet el maktablari tajribasida qo'llanilgan. Bunda so'z faqat sinflarda emas, balki umumiy ta'limning o'rta va tugallovchi bo'g'inlarida ham bir qator fanlarning mazmunini integratsiyalash ustida bormoqda. Bu integratsiyalangan fanga tabiat va jamiyatning birligini tushunish uchun zarur bo'lgan bir qator ijtimoiy-iqtisodiy, axloqiy-estetik g'oya va tushunchalami kiritish ko'zda tutilgan. Keyingi paytda maktab ta'limini integratsiyalash to'g'risida ko'p so'z yuritilmoqda. Olimlar va amaliyotchi o'qituvchilar bolalarda qanday qilib dunyo to'g'risida yaxlit tushuncha hosil qilish va turli fanlar bo'yicha bilimlarni yaqinlashtirish uchun bir butun dasturni tuzish to'g'risida bosh qotirishyapti. Bir-biriga yaqin bo'lgan fanlarni birlashtiruvchi kurslar tashkil etish harakatlari bo'lmoqda. Masalan, matematika va konstruksiyalash, tasviriy san'at va badiiy mehnat. Bu kurslarning samaradorligi to'g'risida xorijlik pedagoglarning ko'p yillik ishlari natijalari bo'yicha baholash mumkin. Zero, integratsiyalangan kurslar chet el maktablari uchun odatiy holga aylangan.

Kichik maktab o'quvchisi atrofidagi olamni bir butunligicha qabul qiladi. Uning uchun tabiatshunoslik, rus tili, ingliz tili, musiqa va boshqa o'quv fanlari nomi emas, balki atrofidagi olam obyektlarining tovushlar, ranglar, hajmlarning turli-tumanligi qiziqarlidir. Bolalarning tabiat va kundalik hayotdagi barcha narsalarning bog'liqligini ko'rishga o'rgatish kerakligini o'qituvchi sezadi, biladi. Shunday ekan, ta'lim integratsiyasi hozirgi zamon talabiga javob beradimi? Bu masala qanday yechilishi kerak, uning mohiyati nimada? Ta'limni integratsiyalash fikri xalq ta'limida tabaqalashtirish va individuallashtirish bilan birga muhokama qilina boshlandi. Agar kichik maktab ta'limini tabaqalashtirish asosida kitob, darslik va boshqa adabiyotlar bilan mustaqil ishlashga tayyorgarlik darajasi hamda kichik maktab yoshida qiziqishlarini faol shakllantirishni taqozo etsa, integratsiyaning asosi qilib, turli fanlarni o'rganish obyektlari bo'lgan ba'zi umumiy tushunchalarni chuqurlashtirish, aniqlashtirish va kengaytirish mumkin. Ta'limni integratsiyalashning asosiy maqsadi - boshlang'ich maktabdoyoq tabiat va jamiyat haqida yaxshi tasavvur asoslarini qo'yishi va ulaming rivojlanishi qonunlariga o'z munosabatini shakllantirishdir. Mana shuning uchun kichik maktab o'quvchisi predmet yoki voqealik hodisalarning bir necha tomondan ko'rish muhimdir: mantiqiy va emotsional tomondan, badiiy asarda va ilmiy ommabop maqolada, biolog, so'z ustasi, rassom, musiqachi nuqtayi nazardan va boshqalar. Asosiy fanlarni o'zlashtirish va olamdagi bor narsalar qonuniyatlarini tushunishda predmetlar ichidagi va predmetlararo aloqalarini o'rnatish ta'limni integratsiyalashga yondashuvning metodik asosidir. Bunga turli darslar tushunchalariga ko'p marta qaytish, ularni chuqurlashtirish va boyitish, shu yoshga tushunarli bo'lgan muhim belgilarni aniqlash orqali erishish mumkin. Shunday qilib, yaxshi shakllangan tuzilish va o'tkazish tartibiga ega bo'lgan, tarkibiga shu o'quv predmetiga tegishli bo'lgan tushunchalar guruhi kiritilgan har qanday dars integratsiyaga asos qilib olinishi mumkin. Lekin integratsiyalangan darsga boshqa fanlar, boshqa o'quv predmetlar bilan bog'liq tushunchalar tahlil qilinishing natijalari kiritiladi. Masalan, "qish", "sovuq", "bo'ron" kabi tushunchalar o'qish, rus tili, tabiatshunoslik musiqa, tasviriy san'at darslarida ko'rib chiqiladi. Dars ijodiy, erkin bo'lishi bilan birga, yaxlit, mantiqan ketma-ket, o'ziga xos o'tish metodikasiga ega bo'ladi. Umumiy ta'limning poydevorini qo'yadigan boshlang'ich ta'limdagi ko'p tushunchalar tabiatshunoslik, musiqa, tasviriy san'at va boshqalar uchun umumiydir. O'qish darsligining deyarli ko'p mavzulari axloqiy tarbiyaga qaratilgan. Ona tili darsligida ham ko'p mashqlar axloqiy tarbiyaga qaratilgan. O'qish va ona tili darslari davomida o'quvchilar so'zdagi harflarni bir-biriga bog'lab yozish, so'z va gaplarni kichik hamda bosh harflarni alifbe kitobida berilgan tartibda yozishga o'rgatiladi.

Hozirgi kunda bir qator o'quv predmetlari uchun umumiy bo'lgan tushunchalar orasidagi aloqalarni o'rnatish psixologik va metodik asos bo'lgan integratsiyalangan darslar bilimni ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish muhim. Shu bilan birga predmetlararo aloqalar dars tarkibi darajasida o'rgatilishi va zarur o'qitish vositalari bilan ta'minlanishi kerak. Tekshirish davomida o'quv predmetlarini integratsiyalash jarayonida aqliy faoliyatga yordam beruvchi omillar – integratsiyalash uchun fanlarning mazmuniy jihatdan birlashishi, o'qituvchi va o'quvchi harakatlarining mos kelishi, bolalarning yosh imkoniyatlarini hisobga olgan holda mazmun, metod, usullarni tanlashdan iborat.

Integrativ darslarni tashkil qilish orqali o'quvchilar bilan munozara qilish, ularni fantaziya qilishga o'rgatish, guruhlararo musobaqalarni tashkil etish, savol-javoblarni uyushtirish mumkin. Bunday zamonaviy dars turlarini qo'llashdan asosiy maqsad - o'quv jarayonida o'quvchilarni faollashtirish, o'quv materialini o'zlashtirishning yuqori darajasiga erishishdan iborat. Ana shunday texnologiya o'quvchilarda dunyoni o'z gacha tasavvur qilishga o'rgatadi, amaliyotni hayot bilan bog'lashga, nazariy qoidalarni so'zma-so'z yodlamaslikka, shaxs va jamiyat uyg'unligini anglashga, fikrlar rang-barangligiga erishishga, nostandart tafakkur qilishga o'rgatadi.

Xulosa qilib aytganda, integratsiyalashgan darslarni tashkil etish bir tomondan dastur talablarini o'zlashtirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan o'quvchida fanlararo bog'liqlik haqida tasavvur uyg'otadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi.-T.: "Ilm ziyo", 2009.-64-98 betlar.

2. Bo'ronova Sh. Ona tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish. Uzluksiz ta'lim. 2004. 3-son. - 34-38 betlar.

3. Bikbaeva N., Yangiboeva E. 2-sinf matematika darsligi. -T.: "O'qituvchi", 2008. - 112 bet.

4. Sharipovna K. A. The role of learning activities in the design of teacher activities in the integration of primary school mother tongue lessons //Central Asian journal of literature, philosophy and culture. – 2021. – T. 2. – №. 10. – С. 111-114

5. Husenova A.Sh. Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish darslarida fanlararo integratsiyaning o'rni. Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi 3-son 2022. -382-384-betlar.

### **LOYIHAVIY TA'LIMDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI U.Tog'ayeva, BuxDU tayanch doktoranti**

*Ushbu maqolada loyihaviy ta'lim, uning kelib chiqishi va bugungi kundagi ahamiyati bayon qilingan.*

**Kalit so'zlar:** metodika, loyiha, loyihalashtirish metodikasi, uslubiy maqsad, didaktik maqsad, muammo, tanqidiy fikrlash.

*В этой статье описывается проектное образование, его происхождение и актуальность сегодня*

**Ключевые слова:** методология, дизайн, методология проектирования, методологическая цель, дидактическая цель, проблема, критическое мышление.

*This article describes project education, its origins, and its relevance today*

**Keywords:** methodology, design, design methodology, methodological goal, didactic goal, problem, critical thinking.

Jahon miqyosida davlat va jamiyat taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchi sifatida qaralayotgan ta'lim mazmunida til va tafakkur uyg'unligiga erishishning innovatsion texnologiyalari orqali ta'lim samaradorligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, Yaponiya, Germaniya, AQSh, Rossiya Federatsiyasi, Kanada kabi dunyoning rivojlangan mamlakatlarining ilmiy markazlarida til ta'limining samaradorligini oshirishning nazariy va amaliy masalalari hamda o'qitishning sifatini oshirish muammosi o'rganilib kelinmoqda. Jumladan, "Innovatsion pedagogik texnologiyalar vositasida o'qitishni tubdan yaxshilash" muammosi BMTning ta'lim, fan va madaniyat masalalariga doir Bitimida ham dolzarb vazifa sifatida belgilangan.

Mamlakatimizda ta'lim sohasini sifat jihatdan jadal rivojlantirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash mexanizmini takomillashtirish, soha o'zgarishlari asosida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-kasbiy tarbiyalash tizimi komponentlari va tayanch kompetensiyalari mazmunini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor berilmoqda. Yoshlarda ijodiy tafakkur, ijodiy izlanish, mavjud imkoniyatlardan eng maqbulini tanlash, tilimizning boy imkoniyatlaridan nutq sharoitiga ko'ra to'g'ri, o'rinli va samarali foydalanish malaka va ko'nikmalarni singdirish, ularni milliy qadriyatlarimiz, udum va an'alarimiz ruhida tarbiyalashda maktab ona tili kursining tutgan o'rni va imkoniyatlari benihoya kattadir.

Loyihaviy ta'lim pedagogika fanida 300 yildan ortiq vaqt davomida qo'llanilib kelmoqda. Nemis pedagogi M. Knollning tadqiqotiga ko'ra, «loyiha» tushunchasining paydo bo'lishi XVI asrga taalluqli bo'lib, italiyalik me'morlar dastlab ishlatgan. Uni o'quv fani darajasiga chiqarish harakatida o'z faoliyatlarini kasbga aylantirishga urinishlari bilan bog'liq. XVIII asr oxirida muhandislik kasblari paydo

bo'lishi natijasida o'quv loyihasi dastlab Fransiya, so'ngra Germaniya, Avstriya, Shveysariyada, XIX asr o'rtalarida esa AQShdagi texnika va sanoat oliy maktablarida qo'llana boshlagan. "Loyiha" atamasi ijtimoiy fanlar sohasiga texnika sohasidan o'tgan bo'lib (lotincha-projectus- tarjimada oldinga tashlangan) – aniq qoidalarga muvofiq u yoki bu soha holatini qayta qurishning asosiy g'oyasini anglatadi.

Ta'lim jarayonini loyihalashtirish – o'qituvchi tomonidan talabning muammoni izlash, uni hal etish bo'yicha faoliyatini rejalashtirish va tashkillashtirishdan – ommaviy baholashgacha bo'lgan mustaqil harakat qilishini ta'minlovchi maxsus tashkil etilgan maqsadli o'quv faoliyatidir.

Loyihalash pedagogik jarayonni tashkil etish va uning muvaffaqiyatli kechishini ta'minlovchi muhim shartlaridan biridir. Pedagogik jarayonni loyihalashda:

- 1) pedagogik faoliyat mazmunini tahlil qilish;
- 2) natijalarni oldindan ko'ra bilish;
- 3) rejalashtirilgan faoliyatni amalga oshirish loyihasini yaratish kabi vazifalar bajariladi.

Loyihaviy ta'lim – ta'lim modeli bo'lib, unda o'qituvchi tomonidan loyihalash ko'rinishiga ega, muammoni izlash, uni tadqiq etish va hal etish, muayyan, beqiyos, shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega natija (mahsulot)ga erishish, uni ommaviy taqdim etish va jamoatchilik tomonidan baholanishini tashkil etish va rejalashtirishni anglatuvchi, mustaqil o'quv faoliyati tashkil etiladi.

Ta'lim ma'nosidagi loyihalashtirish – o'qituvchi tomonidan o'quvchining muammoni izlash, uni hal etish bo'yicha faoliyatni rejalashtirish va tashkil etishdan to (intellectual yoki moddiy mahsulotni) ommaviy baholash uchun uni hal etish usulini taqdim etishgacha mustaqil harakat qilishini ta'minlovchi maxsus (laboratoriya sharoitlarida) tashkil etilgan maqsadli o'quv faoliyatidir. Loyiha asosida o'qitish o'quvchining mustaqil ishlashi, fikr yuritishi, o'zi o'zlashtirib olishini kafolatlaydi. Bu metod o'quv mahsulini olishda samarali bo'lib, o'quvchining o'quv-biluv faoliyatini tashkil etishda keng tavsiya etiladi. Interfaollikni loyiha asosida tashkil etish hozirgi kunda eng aktual, yuqori samara beruvchi metod sifatida tan olinyapti. Dars jarayonida loyihalar ustida ishlash aniq sotsial ijtimoiy masalalar yechimiga qaratiladi. Loyiha asosida tashkil etilgan darslarda talabalar fikr almashadilar, izlanadilar, hamkorlikda yechimini topadilar. Loyiha asosidagi darslarning boshqa usullardan farqi shundaki, o'quvchilar axborotlarni izlab topib, qayta ishlab, umumlashtiradilar.

Loyihaviy tadbirlar natijasida talabalar ijodiy, mustaqil ravishda mustaqil ravishda, berilgan mavzu bo'yicha kerakli ma'lumotni tahlil qilish va tanlashda, mustaqil ravishda o'zlarini topishlari kerak.

Loyihada quyidagilar bo'lishi kerak:

- ijodiy ahamiyatli muammo, integrallashgan bilimlarni, tadqiqotlarni talab qiladigan vazifa;
- mo'ljallangan natijalarning amaliy, nazariy va kognitiv ahamiyati;
- talabalarning mustaqil, guruh yoki juftlik faoliyati;
- tarkibni tuzish (bosqichli natijalar bilan);
- faoliyat usullarini aniqlash.

Loyiha aniq belgilangan maqsadlarga ega bo'lishi kerak, bunga misol quyida keltirilgan.

Uslubiy va didaktik maqsadlar:

- talabalarning shaxsiy fazilatlarini shakllantirish: guruhda ishlash, o'z va birgalikdagi faoliyat natijalarini tahlil qilish qobiliyati;
- tanqidiy fikrlashni shakllantirish, ma'lumotlarga analitik qarashni rivojlantirish;
- tadqiqot faoliyati ko'nikmalarini shakllantirish, tadqiqot natijalarini tizimga kiritish qobiliyati;
- mavzuga va ob'ektlararo aloqalarga chuqur qiziqishni shakllantirish;
- tafakkurni kengaytirish;
- ma'lumotnoma, tanqidiy adabiyotlar va tasviriy materiallardan foydalanish ko'nikmalarini o'zlashtirish.

Loyihada ishlashning muhim jihati bu ish bosqichlarini rejalashtirish va loyihani amalga oshirishdir.

Dars mashg'ulotlarini rang – barang zamonaviy texnik vositalar ishtirokida tashkil qila olgan o'qituvchi qisqa vaqtda o'quvchilarning egallagan bilimi, do'stlariga munosabati, muomala madaniyati, fikr doirasi, so'z boyligi, nutqiy salohiyati haqida aniq tasavvurga ega bo'ladi. Ilg'or texnologiyaga asoslangan darslar o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida teng, do'stona munosabat qaror topishiga sharoit yaratadi. O'quvchi darsda o'zini erkin his qiladi, mashg'ulotlarga qiziqishi, so'z san'ati bilan shug'ullanishga hamda ijodga rag'obati ortadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. A.Q.G'ulomov., M.Qodirov. Ona tili o'qitish metodikasi. T., «Universitet», 2001 yil, 29-bet

2. Tolipov O', Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. T- Fan, 2005. 205 b.
3. Tolipov U, Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – T- 2006.
4. Pedagogik atamalar lug'ati. T- Fan , 2008 y
5. Ishmuhamedov R, Abduqodirov A, Pardaev A. Ta'limda innovastion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). Toshkent. Iste'dod- 2008.180 b.

## **БОШЛАНГИЧ СИНФЛАРДА МАСАЛ ЖАНРИНИ ЎРГАНИШДА “ЗАРБУЛМАСАЛ” НИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ**

**С.А.Қодирова, БухДУ катта ўқитувчиси**

*Зарбулмасал” – ўзбекча насрий бадиий ёдгорликнинг ноёб намунаси бўлиши билан бирга, тузлиши, мазмуни, тили, бадиий тасвир воситаларининг ўткирлиги жиҳатидан ҳам тенги, ўхшаши йўқ оригинал асардир.*

**Калит сўзлар:** *наср, мазмун, бадиий тасвир, бадиий ёдгорлик, адабиёт*

*“Зарбулмасал” – уникальный образец узбекского прозаического искусства, но и уникальное оригинальное произведение по структуре, содержаниюоб языку, остроте художественных средств.*

**Ключевые слова:** *проза, содержание, художественный образ, памятник искусства, литература*

Фазлий Намангонийнинг “Мажмуаи шоирон” тазкирасида, Қори Раҳматулло Возех Бухорийнинг “Тухфат-ул-аҳбоб” фи тазкират-ул асҳоб” антологиясида, Дилшоди Барнонинг “Тарихи муҳожирон” (“Сабот ул башар маа тарихи муҳожирон”) асарида, П. Қайюмнинг “Тазкираи Қайюмий” (“Қўқон тарихи ва адабиёти”) тазкирасида Гулханий ҳақида баъзи маълумотлар берилган бўлиб, уларда шоир ҳаётининг “сарой адабиёти вакиллари билан курашда ўсгани, унинг сўз санъатида жиддий имтиҳондан ўтгани”<sup>1</sup>, ижоди ва ундан намуналар, ажодлари, тутган касб-кори, яшаш тарзи ҳақидаги маълумотлар сақланган. Гулханий ҳаётлик даврида яратилган Фазли Намангонийнинг “Мажмуаи шоирон” тазкираси Гулханий ва унинг адабий мероси ҳақида маълумот берувчи энг ишончли манба ҳисобланади. Чунки тазкира муаллифи “Гулханийни кўрган, билган, у билан бевосита ижодий мулоқотда бўлган”<sup>2</sup>.

“Мажмуаи шоирон” тазкирасининг Гулханий ҳаётини ёритишга бағишланган саҳифаларида адибнинг “мулки кўҳистон” (тоғликлар диёри)дан экани, унинг ажодлари ўз жойининг эътиборли кишиларидан бўлгани, шоир оғир ҳаёт кечиргани, ўзига “Гулханий” тахаллуси олиб, “бадастури алфози кўҳистон” (тоғликлар шеvasида) “латифу равон” ғазаллар битгани ўқтирилиб ўтилади.<sup>3</sup> Фазлий ўз тазкирасида унинг “Кўҳистон мулкидан” эканлигини таъкидлаб, қуйидагиларни ёзади:

Бувад Гулхани шоири кўҳсор,  
Ғазалҳо навишта латифу равон,  
Ба дастури алфози кўҳистон.

(Гулханий тоғлик шоирлардандир, унинг сўзларининг асоси бўшдир. Латиф ва равон ғазаллар битган, бу ғазаллар тоғликлар услубидадир)<sup>4</sup>.

Аmmo бошқа тазкираларнинг авторлари уни гоҳ Намангандан, гоҳ Қўқондан чиққан деб талқин қиладилар. Қори Раҳматулло Возехнинг Бухорода туриб ёзган “Тухфатул аҳбоб...” китобида ... ёзилишича, “Гулханийнинг номи Муҳаммад Шариф бўлиб, унинг асли Намангандандур. У ерда шоир ҳаммомдорлик билан шуғулланган”<sup>5</sup>, деб Гулханийнинг исми Мулло Муҳаммад Шариф, асли наманганлик экани, Умархоннинг сарой шоирларидан бўлганини ўқтиради. Шунингдек тазкира муаллифи шоирнинг “дастлаб ҳаммомдорлик ишларига муносабати бўлгани учун Гулханий тахаллусини қабул қилганлигини эслатади ва унинг шоирлик истеъдодига баҳо бериб, “шеърлари вазн жиҳатидан равон ва ўз тенгдош-замондошлари

<sup>1</sup> Абдуллаев В. А. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: “Ўқитувчи” нашриёти, 1964.– 266 б.

<sup>2</sup> Исҳоқов Фатҳиддин. Гулханий “Зарбулмасал”ининг илмий танқидий матни:Филол. фан. докт. дисс. –Тошкент, 1997. – 14 б.

<sup>3</sup> Исҳоқов Фатҳиддин. Гулханий “Зарбулмасал”ининг илмий танқидий матни:Филол. фан. докт. дисс. –Тошкент, 1997. – 14 б.

<sup>4</sup> Абдуллаев В. А. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: “Ўқитувчи” нашриёти, 1964.– 266-267 б.

<sup>5</sup> Исҳоқов Фатҳиддин. Гулханий “Зарбулмасал”ининг илмий танқидий матни:Филол. фан. докт. дисс. –Тошкент, 1997. – 15 б.

томонидан юқори баҳоланган”, деб қайд этади”<sup>1</sup>. Гулханийнинг Намангонга муносабати тўғрисида адибнинг асосий биографи бўлмиш Фазлий Намангоний, нима учундир, ҳеч сўз айтмайди. “Мажмуаи шоирон”нинг дебчасида Фазлий адибнинг “мулки кўхистон”дан эканини қайд этиш билан бирга, “хуштабъ, ширинсўз, соҳиб хунар” бу зотни бошқа бир жойдан эмас, Хўқанддан деб билинг, дея уқтиради, унинг бозордан тирикчилик қилишинини писанда қилади<sup>2</sup>.

Фазлий ўз тазкирасида Муҳаммад Шарифнинг ўзига Гулханий тахаллусини олиши сабабини қуйидагича изоҳлайди:

Хушо Гулхани шоири пурфан аст,  
Чи гулхан, ки зеботар аз гулшан аст.  
Зи девонахўию оташфани,  
Тахаллус ниҳода ба худ Гулхани.

(Гулханий ҳамма нарсани билувчи шоирдир. У фақат гулхан эмас. Балки гулшандан ҳам чиройлироқдир. Девонафъллиги, оловтабиатлиги, истеъдодлиги, ўткир фикрлиги туфайли ўзига Гулханий тахаллусини қўйган)<sup>3</sup>. Фазлий бир ўринда Гулханийнинг хон накарларидан эканига очиқ ишора қилиб, уни сипоҳий сифатида тасвирлайди ва ўз ишига моҳирлигини ўқтиради:

Бувад Гулхани шоири кўхсор,  
Ба доргоҳи шоҳист ўро қарор.  
Зи мардони корист дар зўру жанг.  
Салоҳаш ба каф тегу тире туфанг.

(Гулханий тоғлик шоирдир, у шоҳ даргоҳида қарор топди, яъни яшамокда. Куч-қувватда ва жангда мардлардандир, тиг ва тир-туфанг отиш касбини яхши эгаллаганди)<sup>4</sup>.

Гулханийшунос олимлар Ф. Намангонийнинг Гулханий ҳақидаги бу айтганларига ва Гулханий ғазалларининг баъзи тил хусусиятларига асосланиб, унинг Қўқонга Фарм ёки Дарвоз томондан келиб қолган бўлиши мумкинлигини тахмин қиладилар<sup>5</sup>.

#### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Абдуллаев В. А. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: “Ўқитувчи” нашриёти, 1964.– 266 б.
2. Исҳоқов Фатҳиддин. Гулханий “Зарбулмасал”ининг илмий танқидий матни: Филол. фан. докт. дисс. –Тошкент, 1997. – 14 б.
3. Исҳоқов Фатҳиддин. Гулханий “Зарбулмасал”ининг илмий танқидий матни:Филол. фан. докт. дисс. –Тошкент, 1997. – 14 б.
4. Фитрат. XVI асрдан сўнгра ўзбек адабиётига умумий бир қараш// Аланга. 1929 №8-9.-7 б.
5. Икромов А. Санъат ва адабиёт тўғрисида.–Тошкент: Узпартнашр, 1935. – 45 б.

### **ТАЪЛИМ ВА ТАРБИЯ ЖАРАЁНИДА ЎҚИТУВЧИ КОММУНИКАТИВ КОМПЕТЕНТЛИГИНИНГ АҲАМИЯТИ**

**Ядгарова Гульбахор Тиллаевна п.ф.н.,доц.,**  
Бухоро вилояти ХТХҚТМОҲМ,  
“Мактабгача, бошланғич ва махсус  
таълим методикаси”кафедраси мудири

*В данной научной статье рассматриваются психологические особенности коммуникативной компетентности учителя и факторы его развития.*

**Ключевые слова:** коммуникация, компетентность, коммуникативная культура, общение, развитие, процесс обучения, интерактивные методы, мотивация.

*This article discusses the psychological characteristics of communicative culture and this article discusses innovative methods of organizing computer science lessons based on a competence - based approach.*

**Keywords and concepts:** communication, competence, communicative culture, education, development, education process, interactive methods, motivation.

<sup>1</sup> Абдуллаев В. А. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: “Ўқитувчи” нашриёти, 1964.– 267 б.

<sup>2</sup> Исҳоқов Фатҳиддин. Гулханий “Зарбулмасал”ининг илмий танқидий матни:Филол. фан. докт. дисс. –Тошкент, 1997. – 16 б.

<sup>3</sup> Абдуллаев В. А. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: “Ўқитувчи” нашриёти, 1964.– 272 б.

<sup>4</sup> Абдуллаев В. А. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: “Ўқитувчи” нашриёти, 1964.– 268 б.

<sup>5</sup> Исҳоқов Фатҳиддин. Гулханий “Зарбулмасал”ининг илмий танқидий матни:Филол. фан. докт. дисс. –Тошкент, 1997. – 14-15 б.

*Мақолада таълим ва тарбия жараёнида ўқитувчи коммуникатив компетентлигини ривожлантиришнинг психологик жиҳатлари келтирилган.*

**Калит сўзлар:** мулоқот, компетентлик, мулоқот маданияти, таълим, ривожланиш, таълим жараёни, интерфаол методлар, мотивация.

Мамлакатимиз ижтимоий-сиёсий ва иқтисодий шароитида таълимнинг замонавий тенденциялари инсоннинг коммуникатив қобилиятларини кучайтириш, касбий кўникма ва малакаларни ошириш, шунингдек, ёш авлодда умуминсоний кадриятларни шакллантиришда шахслараро муносабатларни тарбиялашни тақазо этмоқда.

*Коммуникация – бир қарашда осонгина туюлган шахслараро мулоқот, аслида жуда мураккаб психологик жараёндир. Коммуникация одамлар амалга оширадиган фаолиятлар ичида етакчи ўринни эгаллаб, у инсондаги энг муҳим – жамиятда яшаиш ва ўзини шахс сифатида шаклланишини таъминлаш билан боғлиқ эҳтиёжини қондиришга хизмат қилади. Шунинг учун ҳам унинг ҳар бир инсон учун аҳамияти каттадир.*

Ўқитувчининг коммуникатив компетентлиги эса – ўқитувчи ва ўқувчиларнинг биргаликдаги фаолиятлари эҳтиёжларидан келиб чиқадиган турли фаолликлари мобайнида бир-бирлари билан ўзаро муносабатларга киришиш жараёнидир. Яъни, ҳар бир шахснинг жамиятда бажарадиган фаолиятлари ҳамда меҳнат, ўқиш, ўйин, ижод қилиш ва бошқалар ўзаро муносабат, ўзаро таъсир шакллари ўз ичига олади. Бунда ўқитувчининг ўқувчи билан ҳар қандай шароитда бир-бирлари билан тил топишиши, бир-бирларига турли хил маълумотларни узатиши, фикрлар алмашинуви каби мураккаб ҳамкорликни талаб қилади. Шунинг учун ҳам ҳар бир ўқитувчининг жамоада тутган ўрни, бажарилиши лозим бўлган ишларининг муваффақияти ва обрўси унинг коммуникацияга кириша олиш қобилияти билан бевосита боғлиқдир.

Коммуникациянинг психологик жиҳатдан мураккаб эканлиги ҳақида Б.Ф.Паригин шундай ёзади: «Коммуникация шунчалик кўп қиррали жараёнки, унга бир вақтнинг ўзида қуйидагилар: индивидларнинг ўзаро таъсир жараёни, индивидлар ўртасидаги ахборот алмашинуви жараёни, бир шахснинг бошқа шахсга муносабати жараёни, бир кишининг бошқаларга таъсир кўрсатиш жараёни, бир-бирларига ҳамдардлик билдириш имконияти, шахсларнинг бир-бирларини тушуниши жараёнлари киради».

Демак, ҳар бир ўқитувчининг ижтимоий тажрибаси, унинг инсоний қиёфаси, фазилатлари, хаттоки, нуқсонлари ҳам коммуникация жараёнлари орқали ўқувчида ўз аксини топади. Яъни, коммуникацияда бўлиш имкониятидан маҳрумлик – ўзида индивид сифатларини сақлаб қолиши мумкин, лекин у шахс бўлолмайди. Бунда педагогнинг коммуникатив компетентлигини бола шахси тараққиётидаги аҳамиятини тасаввур қилиш учун унинг функцияларини таҳлил қиламиз.

Педагогнинг коммуникатив компетентлигининг энг элементар функцияси – таълим-тарбия иштирокчиларининг ўзаро бир-бирини тушунишларини таъминлашдир. Бу ўқитувчи–ўқувчи–ота-она ўртасидаги самимий, илиқ муносабатдан бошланади. Минталитетимизга хос энг ноёб ва буюк ҳислатларидан бири ҳам шуки, ўқитувчи коммуникатив компетентлиги айнан унинг ахлоқ–одоб доирасининг кенглиги билан ифодаланишидадир. Шуниси характерлики, бу ўқитувчининг, ҳатто, ота-оналар билан мулоқотида ҳам ўзининг ижобий таъсирини кўрсатади.

Унинг яна бир муҳим функцияси, ижтимоий тажрибага асос солишдир. Инсон боласи фақат инсонлар даврасида ижтимоийлашади ва у ўзига зарур инсоний хусусиятларни шакллантиради. Шу нуқтаи назардан келиб чиқиб, ўқитувчининг коммуникатив компетентлиги муҳим аҳамият кашф этади. Яъни, ўқувчилар орасида шахслараро муносабатларни ривожлантириш, дарс ва дарсдан ташқари жараёнларда уларнинг мулоқотга киришувчанлигини ошириш, уларнинг фикрлаш доирасини кенгайтиради. Бундан ташқари, боладаги билиш қобилиятларини ҳам ривожланишига катта имконият яратилиши кўплаб психологик экспериментларда ўз исботини топган.

Педагогнинг коммуникатив компетенциясининг яна бир муҳим вазифаси – у ўқувчини у ёки бу фаолиятга ҳозирлайди, руҳлантиради. Бизга маълумки, ҳар бир синфда ўқувчилар тўрт хил: гиппер актив, актив, пассив ва гиппер пассив категорияларга бўлинади. Биринчи ва иккинчи тоифадаги ўқувчилар ўзининг фаоллиги билан ажралиб туради. Уларни коммуникатив қобилиятларини шакллантириш муаммо туғдирмайди. Бироқ, таълим жараёнида пассив ва гиппер пассив ўқувчиларнинг фаоллигини ошириш ўқитувчидан катта меҳнат талаб этади. Чунки бу ўқувчиларда тортинчоқлик, ўз фикрини баён этиш ёки ўзига ишонч ҳиссининг шаклланмаганлиги кузатилади. Ўқувчини бу ҳолатдан чиқаришнинг ягона йўли эса, таълим-тарбия жараёнида ҳар

бир боланинг имконияти ва қабул қилиш даражасига қараб ёндашув, шунингдек, уларнинг индивидуал-психологик хусусиятларидан келиб чиқиш зарур.

Масалан, паст ўзлаштирувчи ўқувчини изоляция, яъни ёлғизлатиб қўйиш унинг руҳиятига салбий таъсир кўрсатиши ўрганилган. Айнан, болага паст назар билан қараш, дарсларга жалб қилмаслик, унинг идрок, тафаккур, хотира, ҳиссий ҳолатларининг бузилишига олиб келганлиги қайд этилган. Лекин барибир ҳар қандай ёлғизлик ва коммуникациянинг етишмаслиги одамда мувозанатсизлик, ҳиссиётга берилувчанлик, ҳадиксираш, хавотирланиш, ўзига ишончсизлик, қайғу, ташвиш ҳисларини келтириб чиқаради.

Шахснинг коммуникацияга бўлган эҳтиёжининг тўла қондирилиши унинг ўқиш ва меҳнат фаолиятига ҳам таъсир кўрсатади. Одамлар, уларнинг борлиги, шу муҳитда ўзаро гаплашиш имкониятининг мавжудлиги далили кўпинча одамни ўқиш ва ишлаш қобилиятини ҳам ошираркан, айниқса, ўқитувчи ва ўқувчининг ҳамкорлиги ёки биргаликда ёнма-ён туриб бажариладиган операцияларда улар ўз олдига турган мақсадга эришиш учун тезроқ ишлашга куч ва қўшимча ирода топади. Тўғри, бу ҳамкорликда самимий муносабат, бир бирини тушуниш ва улар ўртасида ўзаро симпатия ҳисси бўлса, унда ўқувчи ҳам, ўқитувчи ҳам мактабга «байрамга келгандай» келадиган бўлиб қолади. Шунинг учун ҳам америкалик социолог ҳамда психолог Жон Морено ана шу омилнинг унумдорликка бевосита таъсирини ўрганиб, социометрик технологияни, яъни сўровнома асосида бир - бирини ёқтирган ва бир - бирини инкор қилувчиларни аниқлаган ва социометрия методикасига асос солган эди.

Шундай қилиб, ўқитувчининг коммуникатив компетентлиги таълим- тарбия жараёнидаги ўзаро ҳамкорлик улар фаолиятларининг ички психологик механизмини ташкил этади. Қолаверса, ҳозирги янги таълим тизимига бўлган муносабатлар шароитида турли ноанъанавий дарс машғулотларини ташкил этиш яқка тартибда эмас, балки коллегиал (биргаликда) фаолиятни амалга оширишга бўлган эҳтиёжни юзага келтирмоқда. Бу эса ўқувчиларни ҳар томонлама ривожланишига ижобий таъсир кўрсатиб, уларнинг муомала маданияти ва мулоқат техникаси, таълим ва тарбия олиш унумдорлиги ҳамда самарадорлигининг муҳим омили бўлиб хизмат қилмоқда.

#### **Асосий адабиётлар**

1. Мирзиёв Ш.М. Қонун устиворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови.
2. Ғозиев Э.Ғ. Онтогенез психологияси. Т. Ўқитувчи. 2010.
3. Давлетшин М.Г., Дўстмуҳамедова Ш., Мавлонов М. Ёш ва педагогик психология. Ўқув кўлланма. Тошкент, 2007.
4. Нишанова З.Т., Камилова Н.Ғ., Абдуллаева Д.У., Холназарова М.Х. Ривожланиш психологияси. Педагогик психология. Дарслик. -Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти. 2018.4. Дўстмуҳамедова Ш, Нишанова З.Т. в.б. Ёш ва педагогик психология.- Т.ТДПУ.2013.
5. Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. М.,Наука, 1989-С .82.

## **TEKNOLOGIYA FANIGA OID KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHNING USUL VA VOSITALARI**

**M.M.Tilavova, BuxDU dotsenti  
N. B. Hojiyeva, BuxDUPI magistri**

*Maqolada texnologiya faniga oid ko'nikmalarni shakllantirishning usul va vositalari, o'qituvchining ta'lim jarayoniga pedagogik yangiliklarni (innovatsiyalarni) ishlab chiqish va joriy etishga tayyorlash haqida so'z yuritilgan.*

**Kalit so'zlar va tushunchalar:** o'qituvchi, dars, tenologiya, pedagogika, innovatsiya, faoliyat, tayyorlash, dastur, milliy, o'quv.

*В статье речь идет об организации уроков технологии на основе республиканской учебной программы, подготовке учителей к разработке и внедрению педагогических инноваций в образовательный процесс.*

**Ключевые слова:** учитель, урок, технология, педагогика, инновация, деятельность, обучение, программа, национальное, обучение.

*The article deals with the organization of technology lessons on the basis of the republican curriculum, the preparation of teachers for the development and implementation of pedagogical innovations in the educational process.*

*Key words: teacher, lesson, technology, pedagogy, innovation, activity, education, program, national education.*

Ilmiy-texnik tafakkurning borgan sari o'sishi va yoshlarning fan-texnikaning jo'shqin rivojlanishida faol ishtirok etishlari faqat ta'lim mazmunini emas, balki o'qitish jarayonining usul va shaklini to'g'ri tashkil etilishini, o'qishga qiziqishni, ijodiy qobiliyatni, egallangan bilimlarni amalda ijodiy qo'llay bilishni rivojlantirish maqsadlarida yanada takomillashtirishni ham talab qiladi. "Bu esa maktab zimmasiga yoshlarda ijodga ehtiyoj uyg'otish, ijodiy qobiliyatlar, har qanday faoliyatga ijodiy yondashish asoslarini tarkib toptirish, ijodiy masalalarni mustaqil hal etishga o'rgatish vazifasini yuklaydi".

Boshlang'ich sinflarda texnologiya fanini amalga oshirib borishda boshqa predmetlarni o'rgatishda bo'lganidek, o'qitishning xilma-xil metodlari qo'llanilib, o'qitishning xilma-xil metodlari qo'llanilib, o'quvchilarning texnologiyaga bo'lgan qiziquvchanligini va ziyakligini oshirib boradi. Ma'lum mavzu doirasidagi bilimlarini amalga qo'llay olish usullarini o'rgatadi. O'qitish metodi qisqa vaqt mobaynida o'quvchilarga ko'proq bilim berishni o'ziga maqsad qilib oladi.

O'qitish metodlari bilimlarning shunday darajada egallanishiga xizmat qiishi kerakki, unda o'quvchilar o'qituvchining berayotgan ko'rsatmalari asosida o'zlarining ijodkorliklari, fantaziyalarini ishlata olish, olingan bilimlarini shu ko'rsatmalar asosida amalda ochib bera olishi kerak. Albattaki, har bir metodni o'z o'rnida qo'llash kerak, oddiy chizma chizishni butun sinfga barobar o'rgatishda frontal, amaliy ish bajarishda yakka shakldan foydalaniladi.

Bitta darsning o'zida o'qitishning turli usullari qo'llanishi mumkin. O'qituvchining intilishi, xatti-harakati darsda o'quvchilarning diqqat-e'tiborlari susaymasligiga, fikrlarining jamlangan bo'lishiga, ularning charchamasliklari va zerikmasliklariga yo'llangan bo'lishi kerak.

Og'zaki bayon qilish metodi ikki formada mavjud bo'lishi mumkin:

1. Monologik bayon qilish, bunda faqat o'qituvchi gapiradi, o'quvchilar esa uning nutqini idrok etib, anglab oladilar. Qo'l mehnati darslarida tushuntirish va hikoya qilish, instruktaj ko'rinishida bo'ladi. 2. Dialogik bayon bo'lib bu o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro suhbatidir.

Hikoya qilish – bu programma materialini jonli va obrazli bayon qilishdir. Bu holda yangi bilimni o'qituvchining o'zi beradi. Ba'zan suhbat davomida o'quvchilar tushuntirilayotgan narsalarni qanchalik o'zlashtirayotganliklarini aniqlash maqsadida ularga savollar bilan murojaat etish maqsadga muvofiqdir. Hikoya agarda bajarilgan ishlar, natural namunalar, rasmlar, fotosuratlar va shu kabilarni ko'rsatib qilinsa, anchagina tushunarliroq bo'ladi. Bu o'rinda tushuntirayotganingda – ko'rsat, ko'rsat va tushuntir degan qoida bajariladi. Yangi materialni bayon qilishda o'quvchilarning bir xil emasligini nazarda tutish lozim.

O'qituvchi hikoyasi quyidagi talablarga javob berishi kerak:

U mazmuniga ko'ra – programmada nazarda tutilgan barcha o'quv materialini aniq va to'liq qamrab olishi kerak;

Bayon etilish shakliga ko'ra – aniq, tushunarli, mantiqiy, iboralari sodda bo'lishi zarur;

Material qiziqarli va o'quvchilarning fikrini aktivlashtiradigan, diqqatini yangilikning asosiy elementlariga jalb qiladigan bo'lishi lozim;

Hikoyada o'qituvchi o'quvchilarbop fakt va tushunchalarga asoslanishi lozim. Nutq sodda va aniq bo'lmasa o'quvchilarning hikoyaga, keyinchalik predmetga bo'lgan qiziqishi so'nishi mumkin. O'qituvchi hikoyasida o'quvchilarning nutqini yangi so'zlar bilan boyituvchi atamalar bo'lishi, ularning ma'nosini shu vaqtning o'zida tushuntirmog'i shart;

Hikoya qilinayotgan materialni saralash maxsus reja asosida amalga oshiriladi. O'qituvchi har bir darsda uning maqsadini aniq belgilab oladi, asosiy tushunchalarga alohida urg'u berib, hikoyani qisqa va o'quvchilarda his-hayajon, mavzuga qiziqishini uyg'otib borishi lozim, o'qituvchida albatta aktyorlik qobiliyati bo'lishi, hikoyani obrazga kirib, o'quvchilar e'tiborini jalb qila olish malakasi mukammal bo'lishi kerak.

Instruktaj – texnologiya fanining samarali metodlaridan biridir. Instruktajning maqsadi o'quvchilarning amaliy faoliyatlarini uyushtirish va yo'naltirish orqali ularning amaliy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlarini hamda ularda mehnatga ongli ijodiy yondashishni tarbiyalashni ta'minlashdir. Instruktaj olgan o'quvchiga ishning maqsadi va usullari ravshan bo'lishi kerak. Instruktajning vazifasi o'quvchilarga texnologik jarayonni ongli va to'g'ri rejalashtirishni o'rgatishdan iboratdir.

*Instruktaj olgan o'quvchilar:* ishni ratsional usullarda va to'g'ri izchillikda bajara bilishlari, mehnatni tashkil etishning belgilangan formalari va xavfsizlik texnikasi qoidalarini amalga oshirishlari,

yo'l qo'yilgan xatolarni ish jarayonida tuzatishlari va ularning paydo bo'lish sabablarini bartaraf eta bilishlari kerak.

Og'zaki instruktaj suhbat yoki hikoya qilish metodi orqali berilishi mumkin. Suhbat va hikoya qilish jarayonida ham predmetlar yoki ish usullari namoyish etilishi mumkin. Grafik ishlar texnik mehnatni o'rgatishda muhim o'rinni egallaydi. Biror narsaning chizmasini chizishga butun bir dars, ba'zan ikki dars bag'ishlanadi. Shuning uchun texnik texnologiya darslarida chizmani chizishga kirishishdan oldin, chizmachilikda o'quvchilarni programma asosida chizmalarni bajarish uchun zarur bo'lgan elementlari bilan tanishtirish lozim.

Chizmani tayyorlashga kirishishdan oldin masshtabning qanday belgilanishini chizg'ichlar yordamida amalga oshirish zarur. Chizmalar daftarda emas, balki chizmachilikka mo'ljallangan albomda bajariladi. Chizmaning butun texnik texnologiya fani darslarida bitta albomda bajarilgani qulay, maqsadga muvofiqdir. O'quvchilarning chizmalarini muntazam tekshirish va baholab borish kerak. Chizmalarni qoralama qog'ozlarga chizish tavsiya etilmaydi. Chizmani bevosita albomga toza qilib chizishga odatlantirish kerak. O'qituvchi o'quvchilardan chizma va yozuvlarni aniq, ravshan va tartibli bajarishlarini talab qilishi lozim. Chizmani aniq bajarmay turib, o'quvchilarga chizmani materialga to'g'ri ko'chirishga, chizmani o'qishga o'rgatib bo'lmaydi; qo'l mehnati darslarining asosiy vazifasi esa ana shundan iboratdir.

O'qituvchi ish sifatini o'quvchilarning albomlarni qanday tutganligi bilan baholashi mumkin. Kuzatishlar o'quvchilarni predmetga diqqat bilan qarashga, uning xarakterli xususiyatlarini sezishga odatlantiradi. O'quvchilarga bilimlarni hayotdan olishni ham o'rgatish kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1.Sanoqulov X.R,Xodieva D.P.Satbaeva "Mehnat va uni o'qitish metodikasi" Darslik .T.;TDPU.2015-yil.

2. Mavlonova R.A, Sanoqulov X.R, Xodiyeva D.P "Mehnat va uni o'qitish metodikasi" O'quv qo'llanma. 2007yil TDPU.

3.Matlab Tilavova "Texnologiya va uni o'qitish metodikasi". Toshkent "Muharrir nashriyoti". 2019

### **TEKNOLOGIYA DARSLARIDA XORIJ TA'LIM TIZIMIDAN FOYDALANISH**

**M.M.Tilavova, BuxDU dotsenti**

**M. Alimova, BuxDU magistri**

*Maqolada texnologiya darslarida xorijiy ta'lim tizimi; Janubiy Koreya ta'lim tizimi haqida so'z yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** o'qituvchi, dars, tenologiya, pedagogika, innovatsiya, faoliyat, tayyorlash, dastur, milliy, o'quv.

*В статье рассматривается зарубежная система образования в технологических классах; Был разговор о южнокорейской системе образования.*

**Ключевые слова:** учитель, урок, технология, педагогика, инновация, деятельность, обучение, программа, национальное, обучение.

*The article discusses the system of foreign education in technology classes; There was talk of the South Korean education system.*

**Key words:** teacher, lesson, technology, pedagogy, innovation, activity, education, program, national education.

Islohotlarimizdan ko'zlangan maqsad va Prezidentimiz siyosatining bosh omillaridan biri teran fikrlovchi, o'z mustaqil dunyoqarashiga ega bo'lgan iqtidorli yoshlarni qo'llab quvvatlash va tarbiyalashdir. SHuning uchun zamonaviy talablar asosida ta'lim mazmunini boyitish, rivojlangan Evropa davlatlari (Germaniya, Angliya, Fransiya, Kanada), Osiyo mamlakatlari (Yaponiya, Janubiy Koreya) va Amerika Qo'shma SHtatlari kabi davlatlarning o'quv, o'quv - uslubiy, ilmiy - tadqiqot jarayonlari, modulli ta'lim tizimi mohiyati, Evropa yagona ta'lim muhiti (Bolonya jarayoni), modulli - kredit tizimi mohiyati, ESTS kreditlari, uning asosiy tamoyillari va xususiyatlari haqidagi pedagogik kadrlarining kasbiy kompetentlilik darajasini raqobatbardosh ta'lim tizimi doirasida shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi

Psixologik adabiyotlar tahlilidan bilamizki, 7 yoshgacha inson bilimlarni 70% ni, qolgan 30% ni butun qolgan umri davomida o'zlashtirar ekan. Mazkur teoriyaga yapon xalqi jiddiy e'tibor qaratgan

bo'lib, ularda maktabgacha tarbiya odatda oiladan boshlanadi. Milliy mintalitetimiz nuqtai nazari doirasida solishtirganimizda, yapon ayollari uchun onalik birinchi o'rinda turadi.

Yaponlar bolaning erta voyaga yetishi tarafdoridirlar. Ular bolalarning yosh xususiyatlariga qarab tarbiyaning barcha jihatlariga urg'u beradi. Masalan, 1 yoshda – o'ziga ishonch hissini uyg'otish, 2 yoshda – amaliy san'at qo'l mehnatini ko'rsatish, 3 yoshda – burch hissini tarbiyalash, 4 yoshda – yaxshilik va yovuzlikni farqlashga o'rgatish. Yapon tajribasidan kelib chiqib aytish mumkinki, 5 yoshda – liderlik xislatlarini tarbiyalash, mustaqillikka, reja tuzish va ularni bajarishga o'rgatish, bolalarda qiziqishlariga doir yo'nalishlarni belgilab olish uchun, eng muhimi o'zgaralar oldida maqsadlarini ifoda qilishga o'rganishlari uchun katta e'tibor berilgan. O'rta maktabda xanlar doimiy emas, ular yangi sharoitlarga tezroq ko'nikish uchun har 5 oyda o'zgartirib turiladi. Yaponiya bog'chalariga 3-5 yoshdagi bolalar qabul qilinadi. Bolalar bog'chalarining maqsadi bolalarning aqliy va jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik va ichki tartib ko'nikmalarini tarbiyalash, jamiyat hodisalariga to'g'ri munosabatda bo'la olishni o'rgatishdan iborat. Shuningdek, matematik savodxonlik, og'zaki nutq, so'zlarni to'g'ri qo'llashni o'rgatishga ham katta e'tibor beriladi. Ertaklar, kitoblar, musiqa, sport o'yinlari, rassomlik kabi shaxsning ijodiy xususiyatlariga qiziqish uyg'otiladi.

Yaponiyada maktabga 6 yoshdan boriladi. Boshlang'ich maktabga 6 yoshdagi yapon bolalarning 99 % qatnaydi. 99 % yapon boshlang'ich maktablari davlat tasarrufida, 1 % - xususiy. O'quv rejasiga yapon tili, gumanitar fanlar, arifmetika kabilari kiradi. Maktablarda o'qitish dasturi o'zgaruvchan, lekin Ta'lim vazirligi tasdiqlagan standartlarga asoslanadi. Boshlang'ich ta'limni moliyalashtirish, o'qituvchilar bilan ta'minlash, maktab dasturlarini yaratish mahalliy hokimiyat zimmasida. Boshlang'ich ta'limda bolalar davlat hisobidagi 1945 ta kandji ieroglifdan 1006 tasini yod olishi kerak. Boshlang'ich ta'lim "syogakko" quyidagi vazifalarni hal qiladi:

Janubiy Koreya Respublikasi ko'plab tadqiqotchilarning diqqatini o'ziga tortmoqda, sababi bu davlat postindustrial sivilizatsiya yutuqlarini egallagan Osiyo – Tinch okeani regionining noyob davlatlaridan biridir. Koreyaliklar bajarilishi shart bo'lgan asosiy vazifa - o'z an'anaviy madaniyatini saqlash, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni o'z madaniy-siyosiy identivlik, Sharqning an'anaviy qadriyatlarini va markazlari bilan bog'lashga intilish deb hisoblaydilar. Bu davlatning ta'lim tizimi YUNISEF ekspertlari xulosasiga ko'ra sanoati rivojlangan davlatlar ichida "eng samaralisi" deb tan olingan. Ko'pchilikning yagona fikricha, Janubiy Koreyaning iqtisodiyoti va texnikadagi yutuqlari "inson resursiga investitsiyani to'g'ri tikkanligida" deb ta'kidlashadi. Ko'p rivojlanayotgan davlatlarda ta'lim bugungi kunda jamiyatning faqat sarf-harajatlar sohasi emas, balki asosiy ishlab chiqaruvchi kuchiga aylandi. Ya'ni, ta'lim raqobatbardosh, jiddiy moliyaviy mablag'larni olib keluvchi soha bo'lishi kerakligi isbotlandi. Ta'limning deyarli 1-bosqichiy davlat va iqtisodiyotning rivojlanishiga qaratilgan bo'lishi kerak. Faqat bilim olish uchungina emas, balki olingan bilimlarni amaliyotda samarali qo'llash uchun o'qish zarur.

Koreya o'qituvchilarining fikricha 3 yoshgacha bog'chaga brogan bolalarning fanlarni qabul qilishi, uydan to'g'ri kelgan bolalarning qabul qilishidan yaxshiroq. Yasli bog'chaga qatnab kelgan bolalar faolroq, qiziquvchan, o'zlashtirish darajasi yuqori bo'ladi.

Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev aytganlaridek, bolalar tarbiyasi jarayoniga o'z ishini puxta biladigan, malakali va har bir bolaga individual yondasha oladigan pedagog kadrlarni jalb qilgan holda, ularni go'dakligidan ongi va tafakkurini to'g'ri shakllantirib bormasak, kelajakda yuksak saviya, bilim va ma'naviyatga ega bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalash qiyin bo'ladi. (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 14 fevral 2018 yil maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilish va rivojlantirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar natijadorligi tahliliga bag'ishlangan videoselektordan ).

Koreyada davlat tasarrufidagi boshlang'ich maktablardan tashqari qator xususiy maktablar ham mavjud. Bu maktablarning o'quv dasturlari davlat maktablari o'quv dasturlariga birmuncha mos keladi, lekin o'qitish yuqori darajada amalga oshiriladi. Masalan, kam sonli o'quvchilarga ko'p o'qituvchilarning jalb etilishi, qo'shimcha fanlarning kiritilishi, umuman ta'limning yuqori standartlarga egaligi va h.k. Shu bois ko'pchilik ota-onalar o'z farzandlarini xususiy maktabga berishga intiladilar. Lekin bunday maktablarda o'qish narxining balandligi ota-onalarni o'yantirib qo'yadi. Boshlang'ich maktabni bitirgan o'quvchilar keyingi bosqichlarga imtixonsiz o'tadilar. Kanadaliklarning eng muhim yutuqlaridan biri - bu ularning ta'lim tizimidir. Ilg'or universitet va kollejlardagi ta'lim sifati juda yuqori va Kanada diplomlari butun dunyoda tan olinadi. Xalqaro reytingda Kanada ta'limi AQSHdan keyin ikkinchi o'rinda turadi.

Maqsadi: Davlat ta'limi standartlari asosida shakllantirib, bilim ko'nikma va malakalarni hamda shaxsiy fazilatlar tizimini o'z ichiga oladi. Bu yaxlitlik tizim bo'lib, o'qitishning maqsadi, o'quv fani maqsadi, mavzuning o'quv maqsadi, mavzuning tayanch tushunchalari o'quv maqsadidan shakllanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

- 1.Sanoqulov X.R,Xodieva D.P.Satbaeva “Mehnat va uni o’qitish metodikasi” Darslik .T.;TDPU.2015-yil.
2. Mavlonova R.A, Sanoqulov X.R, Xodiyeva D.P “Mehnat va uni o’qitish metodikasi” O’quv qo’llanma. 2007yil TDPU.
- 3.Matlab Tilavova “Texnologiya va uni o’qitish metodikasi”. Toshkent “Muharrir nashriyoti”. 2019

**БОШЛАНГИЧ СИНФЛАРДА ТАЯНЧ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРНИ  
ШАКЛЛАНТИРИШДА КИТОБХОНЛИК МАДАНИЯТИНИНГ АҲАМИЯТИ**

**С.И.Холматова**

Ўзбекистон республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги хузуридаги  
Бош илмий методик марказ мустақил татқиқотчиси

*Ушбу мақолада бошланғич синф ўқувчиларининг таянч компетенцияларини шакллантиришда китобхонлик маданиятининг ўрни, ёш авлоднинг маънавий-интеллектуал салоҳиятини ривожлантириш, миллий ҳамда умуминсоний қадриятлар, шунингдек, ўқувчиларнинг маънавиятини, дунёқарашини кенгайтириш, ёзма нутқда юксак саводхонлик, адабий тил меъёрларига риоя этиш каби масалалар баён қилинган.*

**Калит сўзлар:** *таянч компетенциялар, маънавий-интеллектуал салоҳият, китобхонлик маданияти, адабий-эстетик дид, мустақил фикрлаш, образли тафаккурбадий адабиёт, миллий ҳамда умуминсоний қадриятлар.*

*В данной статье рассматривается роль навыков чтения в формировании базовых компетенций учащихся начальных классов, развитии духовного и интеллектуального потенциала подрастающего поколения, национальных и общечеловеческих ценностей, а также расширении духовности, мировоззрения учащихся, высокой письменной грамотности, литературный язык.*

**Ключевые слова:** *базовые компетенции, духовно-интеллектуальный потенциал, читательская культура, литературно-эстетический вкус, самостоятельное мышление, образительная литература, национальные и общечеловеческие ценности.*

*This article discusses the role of reading skills in the formation of basic competencies of primary school students, the development of spiritual and intellectual potential of the younger generation, national and universal values, as well as expanding students' spirituality, worldview, high written literacy, literary language.*

**Keywords:** *basic competencies, spiritual and intellectual potential, reading culture, literary and aesthetic taste, independent thinking, figurative literature, national and universal values.*

Мамлакатимизда ёш авлоднинг маънавий-интеллектуал салоҳияти, онги ва тафаккури, дунёқарашини юксалтириш, ўз ватани ва халқига бўлган муҳаббати ва садоқат туйғусини шакллантиришга доир ислохотлар қаторида бошланғич синф ўқувчиларининг маънавий-интеллектуал даражаси ривожланишида китобхонликнинг ўрни ниҳоятда муҳимдир. Бошланғич синф ўқувчиларининг маънавий-ахлоқий дунёси, адабий-эстетик дидини шакллантириш ҳамда уларда мустақил фикрлаш, образли тафаккурга оид билим, кўникма, малакаларни ҳосил қилиш ва ривожлантириш, ўқувчиларни бадий адабиётга қизиқтириш, асарларни ўргатиш жараёнида олам ва инсон табиати, миллий ҳамда умуминсоний қадриятлар, шунингдек, китобхонлик маданиятини шакллантириш орқали бошланғич синф ўқувчиларнинг маънавиятини, дунёқарашини кенгайтиришга хизмат қилади.

Умумий ўрта таълимнинг бошланғич синфларида китобхонлик маданиятини шакллантириш ўқувчиларда оғзаки ва боғланишли нутқини ўстиришга, луғатини бойитишга, тўғри ва ифодали ўқишга ўргатиш билан бирга уларда китобхонлик ва нутқ маданиятини ҳамда мустақил фикрлаш қобилиятини шакллантиришга хизмат қилади. Китобхонлик маданияти ўқувчиларда тўғри, тез, онгли, ифодали ўқиш малакаларини шакллантириши, ўқувчиларда китобга, ўқишга бўлган муҳаббат уйғотиши, уларни оддий китобхондан чуқур мулоҳаза юрутувчи, ижодкор китобхон даражасига кўтариш орқали ўқувчиларнинг теварак-атроф, борлиқ ҳақидаги билимларини кенгайтириши, дунёқараш элементларини шакллантириши ўқувчиларни ахлоқий-эстетик ва меҳнатсеварлик руҳида тарбиялаш, ўқувчиларнинг нутқи ва тафаккурини ўстириш, элементар адабий тушунчаларни шакллантириши, ўқувчиларнинг тафаккурини бойитишни назарда тутди.

Бошланғич синфларда китобхонлик маданиятини ўқувчиларда қуйидаги таянч компетенцияларни шакллантиради.

Жумладан:

- турли услубдаги матнларни ифодали ўқишни, мазмунини англайди ва қайта тушунтириб бера олади;

- аудиоматнни тинглаб, видеотасвир ва расмларни кўриб тушунади ва ўз муносабатини оғзаки ҳамда ёзма шаклларда ифодалаб бера олади;

- бадиий асар ва ижодкор шахси ҳақида ўзининг мустақил фикрини адабий талаффуз ва имло меъёрларига риоя қилган ҳолда баён қила олади;

- турли жанрдаги матнлар мазмунини тушуна олади ҳамда улардан намуналарни ёддан айтиб беради, асар сюжетини ҳаёт билан таққослайди;

- бадиий адабиётларни мутолаа қилиб, ундаги ғоя ва образларга оғзаки шаклларда муносабат билдиради, оммавий ахборот воситаларидаги долзарб мавзуларга доир хабар ва маълумотларни тушунади ва ўз муносабатини билдиради;

- ўз фикрини имло қоидаларига риоя қилган ҳолда ёзма шаклда баён қила олади, халқ мақоллари, ҳикматли сўзлар маъносини тушунган ҳолда ўз нутқида қўллайди;

- бадиий асарлардаги сўзларнинг ўз ва кўчма маъноларини фарқлайди, тиниш белгиларидан ўринли ва тўғри фойдаланади, матндаги кўчирма гапларни ўзлаштира гап шаклида ёза олади;

- тил имкониятларидан фойдаланиб содда гапларни қўшма гапга айлантиради, ўқиган асарларидаги образларни мантиқий фикрлаб тасвирлаб бера олади;

- турли жанрдаги матнларни ўқийди ва мазмунини тушунади, турли мураккабликдаги топшириқларни бажаради, турли адабий жанрларни фарқлайди, тасвирий ифода воситалари, асарнинг мазмуни ва ғоясини, тарихий-адабий жараёнини тушунади;

- адабий матнларни санъат асарлари даражасида ва маданий мерос сифатида қадрлайди ва тушунади, матннинг умумий мавзусини белгилай олади, матннинг маълум қисмини ўқиб, уни мантиқан давом эттира олиш кўникмаларини шакллантиради.

Бошланғич синфларда китобхонлик маданиятини шакллантириш жараёнида олам ва инсон табиати, миллий ҳамда умуминсоний қадриятлар, шунингдек, ўқувчиларнинг маънавиятини, дунёқарашини кенгайтириб, мустаҳкамлаб бориш, ёзма нутқда юксак саводхонлик, адабий тил меъёрларига риоя этиш, услубий ранг-барангликдан фойдалана олиш кўникма ва малакаларини ривожлантириш орқали ўқувчиларда таянч компетенцияларни шакллантиришдан иборат.

#### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги ПФ-5712-сон Фармони.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 13 сентябрдаги ПҚ-3271-сонли "Китоб маҳсулотларини нашр этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғиб қилиш бўйича чора-тадбирлар дастури".
3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 14 декабрь "2020-2025 йилларда китобхонлик маданиятини ривожлантириш ва қўллаб-қувватлаш миллий дастурини тасдиқлаў тўғрисида"ги 781-сонли Қарори.

## **SAVOD O'RGATISH DAVRIDA O'QUVCHILARDA NUTQIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI**

**K. S. Temirova, BuxDUPI**

**I kurs magistri**

*Ushbu maqolada milliy dastur asosida yaratilgan yangi Alifbe darsligining afzalligi, savod o'rgatish darslarida nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishning ahamiyati keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** kompetensiya, kompetentlik, nutqiy kompetensiya, lingvistik kompetensiya, kommunikativlik, Milliy dastur, tanqidiy fikrlash.

*This article highlights the benefits of the new Alphabet textbook based on the national curriculum and the importance of developing speaking competencies in literacy classes.*

*В этой статье освещаются преимущества нового учебника по алфавиту, основанного на национальной учебной программе, и важность развития навыков говорения на уроках грамотности.*

Bugungi ta'lim tizimi eski mazmundagi o'quv dasturlaridan voz kechib, innovatsion raqamli iqtisodiyot va axborotli jamiyat uchun kadrlar tayyorlash imkonini beruvchi o'qitish tizimiga o'tmoqda.

Shunga mos ravishda, ta'lim berishga yondashuvlar ham o'zgarib, internet va axborot texnologiyalari imkoniyatlarini ta'lim jarayoniga keng integratsiya qilish ishlari boshlab, o'qituvchi oddiy bilim beruvchidan ta'lim jarayoni va sifatini ta'minlovchi asosiy tashkilotchiga aylanmoqda.

Ushbu davr mobaynida raqobat, hamkorlik munosabatlarini o'rnatish qobiliyatlari muhim rol o'ynaydi. O'quv dasturlari mazmuni tanqidiy fikrlash, kommunikativlik, ijodiy yaratuvchanlik va hamkorlik ko'nikmalarini, ya'ni tom ma'nodagi kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Kompetensiya atamasi lotin tilidan olingan bo'lib, "erishaman", "mos kelaman" degan ma'nolarni bildiradi.

Bu shaxsning ichki va tashqi imkoniyat, shart-sharoitlardan samarali foydalanishi, muayyan kasbiy muammolarni yecha bilish qobiliyatidir. O'quvchilar o'quv jarayonida egallaydigan kompetensiyalarining asosiy turlari: qadriyatli-fikriy, ta'limiy, o'quv-biluv, axborot-kommunikativ, umummadaniy ijtimoiy-mehnat kompetensiyalaridir.

Darslikda "Rasmga qarab so'zlang", "Bo'g'inga ajrating", "Harfni toping" topshirig'i bilan o'quvchilarda kommunikativ kompetentlik shakllantiriladi.

Kompetentlik bu - individning qiziqish va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, o'z ma'naviy olamini, aqliy imkoniyatlarini tashqi muhit shart-sharoitlari bilan uyg'unlashtirgan holda, mahsuldor faoliyat yuritishga tayyorgarlik holatidir.

Bugungi kunda mustaqil hayotda hamma uchun zarur boladigan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, maktab o'quvchilarida esa izlanuvchanlik, mustaqil faoliyat va no'anaviy sharoitlarda ilmiy xulosalarga asoslangan yechimlarni qidiruvchi va yaratuvchanlik qobiliyatlari rivojlangan avlodni tarbiyalash hozirgi zamon o'qituvchisiga qo'yilgan talablardan biri hisoblanadi.

Xalq ta'lim huzuridagi respublika ta'lim markazi tomonidan yaratilgan milliy o'quv dasturiga ko'ra boshlang'ich sinf o'quvchilari savod o'rgatish davridan boshlab har bir o'quvchiga til o'rgatishda zarur deb hisoblangan 4 ta: eshitib tushunish, o'qish, yozish va fikrni bayon qilish ko'nikmalarini rivojlantirish juda ham muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlangan.

Ushbu dasturda ona tili o'qitishning asosiy maqsadi quyidagicha belgilangan: o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgarar fikrini anglashga, o'z fikrini o'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyasini shakllantirish; o'quvchida grammatikaga oid o'zlashtiriladigan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, yozuv, so'zning tarkibi, so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, nutq uslublari) rivojlantirish; ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda to'g'ri va ravon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirishdan iborat.


Boshlang'ich sinf savod o'rgatish darslarida ham yuqoridagi ikki fanga oid nutqiy va lingvistik kompetensiyalar asosida ish olib boriladi. Ayniqsa, savod o'rgatish darslari asosan o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi.

Maktabga ilk qadam qo'ygan davridanoq bolani badiiy matn, go'zal va ravon nutq materiallari asosida tarbiyalash, uning kelajakda uziga ishona biladigan, nutqi ravon kommunikativ kompetensiyaga ega inson sifatida shakllanishida muhim o'rin tutadi. Harflar to'liq o'rganilmaganligi sababli darslik sahifalarida avvaldan berib kelingan uzun-yuluq jumlarlar, ega-kesimdan iborat nochor so'z birikmalari, kichik yoshdagi o'quvchilari aqli va fikrini rivojlantira olmaydigan, his-hayajonga, tarbiyaviy ta'sirga ega bo'lmagan quruq matnlar o'quvchining lug'at boyligi ijobiy ta'sir ko'rsata olmaydi, uni boyitmaydi.

O'quvchi e'tiborini jalb etmaydi. Unda kitobxonlik madaniyati asoslarini tarbiyalamaydi. Yosh bola obrazlar ko'magida fikrlaydi, ularda obrazli tafakkur yuritishga moyillik kuchli. Bolajonlar matni tarkibidan obrazlilikni izlaydilar. Unga tayanib, fikrlaydilar, munosabat bildiradilar, o'qib o'rganadilar. Amaldagi "Alifbe" darsligining alifbe davri ilk bosqichda o'rganiladigan matnlarning aksariyati "O'qituvchi o'qib beradi" belgisi bilan belgilangan bo'lib, matn tarkibida o'quvchi o'qiy oladigan so'zlar yashil rang bilan ajratilgan. Bundan asosiy maqsad o'quvchilarda ravon nutq, badiiy so'zning go'zalligini his etish, o'quvchilar nutqini jadal rivojlantirish layoqatini tarbiyalashga qaratiladi. Shunga ko'ra, darslikka taniqli bolalar yozuvchilarining asarlaridan badiiy jihatdan pishiq namunalar kiritilgan. O'qituvchi badiiy matnlarni o'qib bergach, qayta hikoya qilish usulidan foydalanish matn ostida berilgan savol topshiriqlardan foydalanib, o'quvchilarni mustaqil, ijodiy fikrlashga o'rgatishga e'tibor berish zarur. U matnda yashil rang bilan ajratilgan so'zlarni o'quvchilarga o'qitishda, ularning tarkibidagi unli va undosh tovushlarni ajratishga, ularni qanday qilib bo'g'inlarga bo'linishini o'rgatishga ahamiyat berish lozim.

Yangi dastur asosida yaratilgan Alifbe darsligi ham oldingi alifbe darsligidan tubdan farq qiladi. Bu darslik o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantiruvchi matnlar, rasmlar, turli xildagi topshiriqlar bilan boyitgan bo'lib, ayniqsa har bir matnning oxirida 2 tadan savol keltirilganligi bilan

o'ziga xosdir. Unga asosan o'quvchilarning o'z fikrlarini erkin bayon qila olish ko'nikmalari rivojlantiriladi. Masalan: "Ee" harfi va tovushi bilan tanishtirish mavzusida "Ari" she'ri keltirilgan:



**Ari**

Meni deydilar ari,  
Bilar bolalar bari.  
Zuv-zuv uchib yuraman,  
Tekkanga nish uraman.

*Muxtor Xudoyqulov*



1. Arilar qanday joylarda yashaydi?  
2. Arilar nega bolani quvlayapti?

bilim, ko'nikma va malakalaridan foydalanib o'zbek tilida ish yuritish, nutq so'zlash, turli uslublarda yoza olish, qarashlarini erkin ifodalagan holda fikrini boshqalarga turli shakllarda samarali tarzda yetkazishni, eng muhimi, teran fikrlashni biladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev SH. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent: "O'zbekiston". NMIU, 2017.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ 3261-son qarori
3. O'zbek tilining izohli lug'ati, O'zMI Toshkent-2006
4. 1-sinf ona tili va o'qish savodxonligi Milliy o'quv dasturi 2021 y
5. R.Safarova, M.Inpyatova "Alifbe" darsligi Toshkent 2021 y
6. K.Qosimova, S.Matchan, X.G'lomova va boshqalar "Ona tili o'qitish metodikasi" Toshkent NOSHIR 2009 y
7. <http://library.ziyonet.uz>
8. <https://www.edu.uz/uz>
9. <http://www.metodika.uz>

### **BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARDA SALOMATLIK MUHITINI YARATISH** **S.Muhiddinova, BuxDU magistri**

*Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida salomatligini saqlash va mustahkamlash bo'yicha ta'lim muassasasining imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Salomatlik muhitni yaratish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib, maqolada aynan zamonaviy maktab sharoitida salomatlik muhitini yaratishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi taqdim etilgan.*

**Kalit so'zlar:** sog'lom turmush tarzini shakllantirish, salomatlik, mashg'ulotlar tizimi, sinfdan tashqari ishlar, sport va sog'lomlashtirish ishlari, yomon odatlarning oldini olish.

Bolalar salomatligini asrash va mustahkamlash bugungi kunda butun jamiyatning ustuvor vazifasidir. Sog'lom turmush tarzi asoslarini shakllantirish hozirgi kunda oilada va ta'lim muassasalarida (sinfdan, sinfdan tashqari va maktabdan tashqari mashg'ulotlarda) amalga oshirilmoqda.

Zamonaviy maktablar bolalar salomatligini yaxshilashga intilishi kerak. Buning uchun har qanday ta'lim muassasasida bolalarning to'g'ri jismoniy rivojlanishini shakllantirish, ularning organizmlarining kasalliklarga chidamliligini oshirish uchun sharoit yaratish lozim. Deyarli har bir ta'lim muassasasi bu boradagi ilg'or va o'ziga xos g'oyalarni hayotga tatbiq etishga intiladi. Ammo ko'pincha sog'lom turmush tarzi asoslari bilan bog'liq masalalar faqat o'quv fanlarining ma'lum mavzularida (biologiya, hayot xavfsizligi, jismoniy tarbiya) yoki turli xil o'quv tadbirlarini o'tkazishda ko'rib chiqiladi.

Har bir umumta'lim muassasasida o'quvchilarning kamol topishiga, ularning salomatligini maksimal darajada asrashga xizmat qiladigan shunday ta'lim tizimini yaratish masalasi tobora qat'iy ko'tarilmoqda.

Har qanday ta'lim tadbirini tashkil etish ikki bosqichni o'z ichiga oladi - tayyorgarlik va amalga oshirish. O'qituvchining o'quv tadbirini tashkil etishdagi dastlabki daqiqa - bu o'quvchilar jamoasi bilan ishlashning ma'lum bir davridagi ta'lim maqsadini, vazifalarini aniqlashdan iborat. Har bir bosqichda o'qituvchining o'zi ham, o'quvchilar ham tashkiliy faoliyat mazmuni, metod va usullarini hamda ularning ishtiroki samaradorligini ta'minlovchi shart-sharoitlarni aniq belgilash muhim ahamiyatga ega.

Tayyorgarlik bosqichida olib boriladigan tashkiliy-tarbiyaviy ishlarning mazmuni va ahamiyati, birinchidan, u yoki bu tarbiyaviy tadbirni o'tkazishning pedagogik maqsadga muvofiqligini aniqlashdan iborat bo'lsa, ikkinchidan, o'quvchilarni bo'lajak tadbirga psixologik va amaliy jihatdan tayyorlashdan iboratdir: unga doimiy qiziqish, uning jamoa va har bir a'zo uchun individual ma'nosini tushunishga yordam berish, tayyorgarlik jarayonida barcha o'quvchilarning faol pozitsiyasini ta'minlash.

O'quv tadbirining yakuniy bosqichini amalga oshirishning tashkiliy shaklini aniqlash bilan yakunlanadi, bu esa ushbu jamoada maqsad va tarbiyaviy vazifalarga erishishga maksimal darajada yordam beradi.

Tadbirdan so'ng voqeani tahlil qilish, o'quvchilarning erishilgan tarbiya darajasini, jamoa va individual o'quvchilarning rivojlanishidagi zaif tomonlarini aniqlash kerak. Bu sizga yaqin kelajakda jamoa bilan keyingi ishlarni aniqlash imkonini beradi.

Zamonaviy adabiyotlar va ayrim ta'lim muassasalarida to'plangan tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'quv dasturining murakkablashishi va o'quv jarayonining faollashishi bolalarning jismoniy faolligining pasayishiga, dam olish davomiyligining qisqarishiga va o'quvchilar salomatligi holatidagi o'zgarishlar. Maktabda salomatlik holatida turli xil og'ishlarga ega bo'lgan ko'plab o'quvchilarning mavjudligi, birinchi navbatda, sog'lom turmush tarzi asoslari bilan bir qatorda salomatlikni saqlaydigan faoliyatga motivatsiyani shakllantirish muammosini qo'yadi.

Sog'lom turmush tarzi asoslarini shakllantirish quyidagi jarayonlarda amalga oshirish mumkin: qo'shimcha ta'lim olishga doir mashg'ulotlar (jismoniy tarbiya to'garagi), viktorina, suhbat va boshqalar.

Zamonaviy maktab sharoitida sog'liqni saqlash muhitini yaratish nosog'lom o'quvchilarning muammosini hal qilishga yordam beradi. Puxta o'ylangan sog'lomlashtiruvchi muhit, jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish ishlari tarbiyaviy ishlar bilan uyg'unlashgan holda sog'lom turmush tarzi asoslarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Maktabda sog'lomlashtiruvchi muhitni tashkil etish pedagogik jamoa va o'quvchilardan katta mehnat talab qiladi. Shu bilan birga, salomatlik muhitini yaratishga ta'lim muassasasining moliyaviy yordami ta'sir qiladi, chunki maxsus jihozlarni (tish shifokori kabineti, sport zali uchun jihozlar, tibbiy asbob-uskunalar) sotib olish katta moliyaviy xarajatlarni talab qiladi.

Binobarin, hozirgi vaqtda maktablarning ozgina qismi tegishli jihozlar bilan ta'minlanganligi va boshqa ta'lim muassasalarining uni sotib olishga mablag'lari yo'qligi sababli, zarur bo'lgan hududlarda salomatlik muhitini yaratish ustida ishlash zarur. Shu munosabat bilan salomatlik va sog'lom turmush tarzini yaxlit tushunishga, maktab muhitida salomatlikni saqlash muhitini yaratishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqiladi.

Salomatlik muhitini yaratish bo'yicha ishlar turli yo'nalishlarda amalga oshirilishi mumkin, bizning fikrimizcha ular orasida eng muhimi quyidagilar:

1. Sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish orqali turmush tarzi asoslarini shakllantirish.
2. O'quvchilar bilan sport va dam olish ishlarini tashkil etish.
3. Yomon odatlarning oldini olish.

Ushbu yo'nalishlarning har birini tahlil qilish asosida nazariy material tanlab olindi va zamonaviy maktabda salomatlik va sog'lom turmush tarzini yaxlit tushunish hamda salomatlikni saqlash muhitini yaratishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqildi.

Tizim ma'lum bir yaxlit ta'limni tashkil etuvchi o'zaro bog'liq elementlarning yig'indisi bo'lganligi sababli, zamonaviy maktabda salomatlik va sog'lom turmush tarzini yaxlit tushunishga, sog'liqni saqlash muhitini yaratishga qaratilgan faoliyat tizimi keng qamrovli bo'ladi. Keling, har birini ochaylik.

1. Sinfдан tashqari ishlarni tashkil etish orqali sog'lom turmush tarzi asoslarini shakllantirish  
Sinfдан tashqari ish - bu o'qituvchi tomonidan maktabdan tashqari vaqtda bolalar uchun har xil turdagi mashg'ulotlarni tashkil etish, bolaning to'liq ijtimoiylashuvi uchun sharoit yaratish.

Sinfдан tashqari tarbiyaviy ishlar turli xil faoliyat turlarining kombinatsiyasi bo'lib, bolaga keng ko'lamli tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi.

Birinchidan, sinfdan tashqari turli xil tadbirlar bolaning individual qobiliyatlarini har tomonlama ochib berishga yordam beradi, ularni sinfda har doim ham hisobga olish mumkin emas.

Ikkinchidan, har xil turdagi sinfdan tashqari mashg'ulotlarga jalb qilish bolaning shaxsiy tajribasini, inson faoliyatining xilma-xilligi haqidagi bilimini shakllantiradi, bola zarur ko'nikma va malakalarni egallaydi.

Sog'lom turmush tarzi asoslarini shakllantirishga qaratilgan darsdan tashqari mashg'ulotlar quyidagi vazifalarni hal qiladi:

1. Sog'lom turmush tarziga bo'lgan ehtiyojlarni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni ta'minlash.

2. Shaxsiy sanitariya-gigiyena me'yorlari haqida barqaror g'oyalarni shakllantirish, g'oyalarni kundalik mahoratga aylantirish.

3. Ta'lim jarayoni sub'ektining jismoniy va ruhiy salomatligi uyg'unligi.

4. Sog'lom turmush tarzi ehtiyojlarini barqaror turmush tarziga aylantirish.

Ushbu yo'nalishdagi ishlar "Sog'lom turmush tarzi", "Sog'lom ovqatlanishni o'rganish", "O'quvchilarning shaxsiy gigiyenasi", "Kuningizni qanday tashkil qilish kerak", "Mening turmush tarzim" va boshqa sog'lom turmush tarzi asoslari mavzularida viktorinalar, tanlovlar, davra suhbatlari, turnirlar kabi maktab miqyosidagi tadbirlarni o'tkazish maqsadga muvofiq.

2. O'quvchi bilan jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish ishlarini tashkil etish.

Bu borada olib borilayotgan ishlar o'quv kuni davomida umumiy va maxsus maqsadli jismoniy tarbiya daqiqalarini o'tkazish, salomatlik kunlari, sport-ommaviy ishlarni tashkil etishdan iborat.

Jismoniy tarbiya daqiqalari - dars davomida sinfda olib boriladigan jismoniy mashqlar. To'g'ri va o'z vaqtida o'tkaziladigan jismoniy tarbiya daqiqalar bolalarning diqqatini va faolligini oshirish, o'quv materialini yaxshiroq o'zlashtirish uchun samarali vositadir. Bundan tashqari, ular talabalar tanasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Dars jarayonida bolalar stolda bir holatda uzoq vaqt o'tirib, yozishlari charchashga sabab bo'ladi, shuning uchun sinfda jismoniy tarbiya daqiqalari tashkil etadilar. Jismoniy tarbiya daqiqalari odatda uchta mashqni o'z ichiga oladi. Birinchisi, orqa miya va ko'krak qafasining to'g'rilanishi, ikkinchisi - oyoqlar uchun, uchinchisi - torso uchun. Qo'l mashqlari boshqa mashqlar bilan birlashtirilishi kerak.

Jismoniy tarbiya daqiqalari ikki-uch daqiqani talab qiladi va musiqa jo'rligida o'tkazish talab etiladi.

Jismoniy tarbiya daqiqalari to'plami jismoniy tarbiya o'qituvchisi tomonidan tuziladi va har ikki haftada bir marta o'zgaradi.

Maktabdagi salomatlik kunlariga quyidagilar kiradi:

1. Dam olish maskanlari, o'quv xonalari va boshqa binolarning bayram mavzusiga muvofiq maxsus dizayni. Bular "Sog'lom turmush tarzi" mavzusida o'tkazilgan tanlovlar natijalariga ko'ra chizmalar, plakatlar, devoriy gazetalar ko'rgazmalari bo'lishi mumkin.

2. O'quv mashg'ulotlari tizimidagi darslar (ijtimoiy-gumanitar, tabiiy-biologik sikl, jismoniy madaniyat, hayot xavfsizligi asoslari).

3. Maktab kuni rejimidagi tadbirlar (ertalabki mashqlar, sinfda jismoniy tarbiya, jismoniy tarbiya tanaffuslari).

4. O'quvchilar, o'qituvchilar va ota-onalar bilan sinfdan tashqari ishlar tizimi.

Mashg'ulotlar doirasida ijtimoiy-gumanitar, tabiiy biologik sikl, jismoniy madaniyat, hayot faoliyati xavfsizligi asoslari fan sohasining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, salomatlikni mustahkamlash xususiyatlari, gigiyena ko'nikmalari, jismoniy madaniyat tarixi, jismoniy tarbiya va sportning mashhur namoyandalari, san'atkorlar, adabiyot va tarixiy shaxslar hayotida, ekologiya muammolari, axloqiy tanlov, ma'naviy va ruhiy salomatlik, o'quvchilar kompetentsiyasining ijtimoiy moslashuvi mazularini qamrab oladi.

3. Yomon odatlarni oldini olish

Salomatlik muhitini yaratish bo'yicha profilaktik ishlarining barcha yo'nalishlaridan eng maqbuli tibbiy-pedagogik profilaktikani tashkil etishdir. Bunda profilaktika ishlari sog'lom turmush tarzi asoslarini shakllantirish masalalari bo'yicha tarbiyaviy ishlar bilan bir vaqtda olib boriladi. Salomatlik muhitini yaratishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimida profilaktika ishlari nafaqat o'quvchilar bilan (dars

soatlarida, maktab miqyosidagi tadbirlarda), balki ularning ota-onalari bilan ham (ota-onalar yig'ilishlarida) olib boriladi.

O'quvchilar salomatligini mustahkamlash uchun maktabda jismoniy tarbiya darslari o'tkaziladi, barcha yosh guruhlari uchun qo'shimcha sport ta'limi uyushmalari - umumiy jismoniy tayyorgarlik (yengil atletika, voleybol, futbol) tashkil etilgan.

Ishonchimiz komilki, salomatlik va sog'lom turmush tarzini yaxlit tushunishga qaratilgan tadbirlar tizimi maktabimizda salomatlikni saqlash muhitini yaratishga yordam beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Горохова Н. А. Организация здоровьесбережения в школе // ОБЖ. – 2010. – № 7.– С. 33–38.
2. Глуценко О. Н. Здоровьесберегающий подход к организации обучения в начальной школе // Физическая культура: воспитание, образование, тренировка. – 2012. – № 2. – С. 52.
3. Смирнов Н. К. Здоровьесберегающие образовательные технологии в современной школе. – М.: АПК и ПРО, 2002. – 121 с.
4. Садыкова А. Соғлом турмуш тарзи кадрият сифатида //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 11/С. – С. 205-209.
5. Давронов И. Э., Кулдашева З. Х. Социализация личности в системе непрерывного образования //Инновационная деятельность в дошкольном образовании. – 2016. – С. 150-152.
6. Давронов И. Э., Кулдашева З. Х. ФИЗИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ ДЕТЕЙ В СЕМЬЕ //Паёмномаи фарханг. – 2017. – №. 2. – С. 86-89.
7. DAVRONOV I. Darsdan tashqari tarbiyaviy ishlar jarayonida o'quvchilarda ijodiy tafakkumi shakllantirish //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
8. Жураев Б. Т. Гуманизация дидактических отношений между учителем и учащимся в педагогических идеях Востока //VIII Лазаревские чтения" Лики традиционной культуры в современном культурном пространстве: ренессанс базовых ценностей?". – 2018. – С. 120-122.
9. Абдуллаев К. Ф., Жураев Б. Т. Формирование правильной осанки ребенка в семье //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 21-3 (99). – С. 30-33.
10. Абдуллаев К. Ф., Жураев Б. Т. Формирование правильной осанки ребенка в семье //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 21-3 (99). – С. 30-33.

### **BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILARNING IJODIY FAOLIYATINI TASHKIL ETISH METODIKASI A. Hamroyev, BuxDU professori M. Ne'matova, BuxDU talabasi**

*Inson qobiliyati va iste'dodi muvaffaqiyatlarga erishishining asosiy sharti ham insonning faolligidir. Chunki o'qituvchi qay darajada mahoratli bo'lmasin, agar o'quvchining o'zi faol bo'lmasa, u muvaffaqiyatga erisha olmaydi. Chunki o'qituvchi o'quvchini o'qitish jarayonida uni boshqarib boradi.*

**Kalit so'zlar:** *ijodiy faoliyat, shaxs, ta'lim-tarbiya, qobiliyat, iste'dod.*

Hozirgi davrda zamonaviy texnika va texnologiyalarning hayotga kirib kelishi inson faoliyatida, ijtimoiy ongida katta o'zgarishlar bo'lishini taqozo etmoqda. Zero, olam to'g'risida va insonning hayotda tutgan o'rni to'g'risidagi tasavvurlari o'zgarimoqda, tafakkuri va olamni tushinishning yangi usullari shakllanmoqda, ma'naviy-amaliy o'zlashtirishning yangi vositalari va usullariga o'tish yuz bermoqda.

Ta'limda ijodiy izlanishlar haqiqiy ilmiy nazariyaga, jamiyatning rivojlanish qonuniyatlariga, o'qitishning nazariy asoslari, shaxs rivojlanishini harakatga keltiruvchi kuchlari va uning shakllantirish sharoitlari to'g'risidagi bilimlarning keng tizimiga tayangan holdagina muvaffaqiyat qozonadi.

Inson hayoti sharoitlarini o'zgartiruvchi va insonni o'zini ham o'zgartiruvchi faoliyat hozirgi zamonda ta'limning umumiy asosidir. Inson faoliyati jamiyat taraqqiyotining har bir tarixiy davrida turli xil ko'rinishlar, faoliyatning turli shakllarida farqlanadi.

Biroq ichki munosabatlar, ular o'rtasidagi aloqalar doimiy va umumiy bo'lib qolaveradi. Ular faoliyat tizimini hosil qiluvchi asoslardir.

Ma'lumki, inson o'z g'oya, fikr, qarashlarini faqat faoliyat davomida amalda qo'llaydi va qayta yaratadi.

Faoliyat - atrof olamga nisbatan insonning o'ziga xos faol munosabatidir. Chunki insonning hayotda namoyon bo'lishining muhim shakli uning voqea - hodisalarga bo'lgan faol ishtirokidir. Har qanday faoliyatda hayotiy tajriba to'planadi, insonda o'z atrofini o'rab olgan borliqni bilish jarayoni kechadi, ma'lum bilimlar egallab olinadi, malaka va ko'nikmalar hosil bo'ladi, natijada inson faoliyati rivojlanadi.

Shaxs rivojlanishiga irsiyat, muhit, tarbiyaning ta'siri bilan birga unga faoliyatning ta'siri ham o'ta muhimdir.

“Jamiyat bilan doimiy munosabatni ushlab turuvchi, o'z-o'zini anglab, har bir harakatini muvofiqlashtiruvchi shaxsga xos bo'lgan eng muhim va umumiy xususiyat – bu uning faolligidir. Faollik – (lotincha “aktus”)- harakat, “aktivus” –faol so'zlaridan kelib chiqqan tushuncha) shaxsning hayotdagi barcha hatti-harakatlarini namoyon etishini tushuntiruvchi kategoriyadir”,- deb ta'kidlaydi o'zbek olimasi V. M. Karimova. Shuning uchun ham psixologiyada shaxs, uning ongi va o'z-o'zini anglashi muammolari uning faolligi, u yoki bu faoliyat turlarida ishtiroki va uni uddalashga aloqador sifatlari orqali bayon etiladi.

«Ijodiy faoliyat»,-deb ta'kidlaydi A. M. Matyushkin. – bilish jarayonlari bilan bog'liq bo'lgan tizimdir ».

Bir qator psixolog olimlar - V. S. Yurkevich, Ye. L. Yakovlevalar: «Ijodiy faoliyat –inson faolligini mujassamlashtiruvchi harakatlar jarayonidir. O'quvchi shaxsi aynan turli faolliklar jarayonida shakllanadi»,-deb hisoblaydilar.

A. N. Leontev fikricha, faoliyatning asosiy psixologik nazariyasi va ta'limga faoliyatli yondashuv quyidagi g'oyalar va tamoyillarni o'zida qamrab oladi:

1. Faoliyatga metodologik asos bir tomondan ob'ektiv dunyo, ikkinchi tomondan miyaga ruhiyatning ta'siri natijasida vujudga keladi .
2. Ruhiy ta'sirning faollik kasb etishi – bu sub'ektning ehtiyoji asosida amalga oshadi.
3. Moddiy dunyoda sub'ektni faoliyatga yo'naltirish, faoliyatning o'zi ham ijtimoiy munosabatlarda tarkib topadi.
4. Inson faoliyati ruhiyatining ijtimoiy tarixiy tabiatiga bog'liq bo'lib, bu jarayon ijtimoiy hayotning o'zida amalga oshadi.
5. Inson faoliyatida ruhiyat ichki faoliyat sifatida namoyon bo'ladi.

Barcha tahlillarni umumlashtirib, quyidagi fikrga kelindi: faoliyat – inson ongi va tafakkuri bilan boshqariladigan, o'quvchi shaxsining ehtiyojlaridan kelib chiqadigan, hamda egallangan bilimlarni tatbiq etish, o'zgartirish va takomillashtirishga qaratilgan o'ziga xos faollik shaklidir.

Faoliyat jarayonida inson shaxsining har tomonlama yaxlit rivojlanishi, atrof- olamga munosabati shakllanadi. Inson faoliyati maqsadga muvofiq amalga oshishi uchun uni to'g'ri tashkil etish va to'g'ri yo'naltirish lozim. Lekin ko'p hollarda shaxsning rivojlanishi imkoniyatlaridan foydalanilmaydi, tarbiyalanuvchilar ko'pincha ijtimoiy mehnat, bilish faoliyatini faol tashkil eta olmaydilar, hayotda sust harakat qiladilar.

O'quvchilar faoliyatining asosiy turlariga o'yin, o'qish, mehnatni kiritgan holda uning asosiy yo'nalishlarini bilish, ijtimoiy, sport, badiiy, texnik, hunarmandchilik, emotsional faoliyatlariga ajratish mumkin.

Faoliyat faol va passiv bo'ladi, faqat faol faoliyat insonning barcha imkoniyatlarini ruyobga chiqarishga yordam beradi. Bunday faoliyat insonda qoniqish hosil qiladi, inson kuch -quvvatga to'ladi.

Mehnatda faollik shaxsning ma'naviy-axloqiy shakllanishga undaydi, uni yanada muvaqqiyatli mehnat qilishga yo'llaydi. Rivojlanayotgan shaxsni doimiy faollikka ancha murakkab va qiyin kechadi. Zero, o'quvchining turli yoshda uning faoliyati o'zgarib turadi. Shuning uchun bu borada maktabdagi ommaviy tadbirlar bilan birga har bir o'quvchining inividual va yosh xususiyatlarini hisobga oladigan ishlar amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

Xullas, shaxs faolligi uning rivojlanishida vosita emas, balki uning natijasi hamdir. “Ta'lim-tarbiya shu vaqtda maqsadga erishadiki, qachon u o'ziga ham boshqalari ham quvonch keltira oladigan ijtimoiy, faol, tashabbuskor, ijodkor shaxsni shakllantira olsa. Ana shunda shaxs faoliyat jarayonida uning barcha potensial imkoniyatlari ruyobga chiqadi”. Faoliyatga faylasuflar sub'ektining ob'ekt bilan o'zaro harakati jarayonidagi vazifasini xarakterlaydigan tushuncha sifatida ta'riflaydilar.

#### **Adabiyotlar**

1. Hamroyev A.R. Boshlang'ich sinf ona tili ta'limini ijodiy tashkil etish. Ped.fanl.nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshken, 2005. 151 b
2. Qosimova K. va b. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. –T.: “O'qituvchi”, 2009. - 215 b.

3. Ходжыев В.Х. Umumta'limmaktabio'quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didaktik ta'minot vositasida rivojlantirish: Pedagogika fanlari doktori .....diss. - T., 2016. - 312 b.

## **BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI BADIY ADABIYOTNI HIKOYA QILIB BERISHGA O'RGATISHDA MAXSUS USULLARDAN FOYDALANISH**

**N.B.Adizova BuxDUPI Dotsenti**  
**N.B. Rajabova BuxDUPI 1-bosqich magistr**

*Usbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshi, saviyasi va bilimni qabul qila olish qobiliyatlarini hisobga olgan holda dars mashg'ulotlarini tashkil qilish, o'qitish printsiplari va metodlariga qat'iy amal qilish ta'kidlab o'tilgan. .*

**Kalit so'zlar:** *so'z, mashq, ta'lim, tarbiya, tizim, muammo, faol, umumlashtirish, mustahkamlash, noan'anaviy, interfaol, innovatsion, usul, konferensiya, dars, badiiy adabiyot, Multimedia,*

*Нами в этой статье было отмечено, что при организации урока занятия, строгое соблюдение полиграфической техники и методики обучения с учетом возраста, уровня и способностей учеников начальной школы к получению знаний.*

**Ключевые слова:** *лексика, упражнение, образование, тренировка, система, проблема, активный, обобщение, подкрепление, нетрадиционный, интерактивный, инновационный, метод, конференция, урок, художественная литература, мультимедиа.*

Badiiy so'zga muhabbatni ilk yoshdan boshlab tarbiyalab borish zarur, bola bog'chadan maktabga ana shu muhabbat bilan o'tadi va keyinchalik Vatan adabiyotini sevadigan bo'lib qoladi. Xalq, og'zaki ijodi – ertaklar, topishmoqlar, maqollar, qo'shiqlarning ko'plari uzoq o'tmishda va hozirgidan tubdan farq qiladigan voqeligidan tubdan farq qiladigan turmush sharoitida yaratilgan xalq ijodi asarlaridan faqat tarbiya vazifalariga javob beradiganlari tanlab olinadi. Aql-idroki yoki jasurligi bilan, sabr-toqati yoki mehnati bilan har qanday qiyinchiliklarni yengadigan dovyurak, vijdonli qahramonlar ishtirok etadigan ertaklardan bolalar juda hayratlanadilar, bunday ertaklar bolalarni ijobiy qahramonlarga nihoyatda hayrixoh bo'lishga, yovuzlikka, nohaqlikka, qizg'anchilikka, makr-xiylaga nisbatan murosasiz bo'lishga majbur etadi. O'zbek xalq ertaklaridan tashqari ko'pgina rus xalq va mamlakatimizdagi boshqa xalqlar ertaklari ham bolalarga o'qib beriladigan ertaklar jumlasiga kiradi. Rus mumtoz adabiyoti namoyondalaridan A.S.Pushkin, N.A. Nekrasov, L.N. Tolstoy, K.D. Ushinskiy va boshqalarning asarlari bolalarga o'qib berish dasturiga kiritilgan. O'zbek yozuvchilari, shoirlari bolalar uchun juda ko'p ajoyib asarlar yaratganlar. G'.G'ulom, N. Orifjonov, I. Muslim, P. Mo'min, Sh. Sa'dulla, Q.Hikmat, Q.Muhammadiy va boshqalarning asarlari – bolalarga o'qib beriladigan asarlarning eng boy manbasi hisoblanadi. Boshlang'ich o'quvchilariga bag'ishlangan adabiyotlar ro'yxatidan rus yozuvchilari va shoirlari: V. Mayakovskiy, A. Kononov, S.Mixalkov, A. Gaydar, K. Chukovskiy va boshqalarning tarjima qilgan asarlari keng o'rin olgan. Bu ro'yxatga chet el yozuvchilari Sh. Perro, X.K.Andersen va boshqalarning ertaklari ham kiradi. Bolalarga o'qib beriladigan asarlar doirasiga har xil janrdagi asarlar: hikoya va povestlar, proza hamda she'r shaklidagi ertaklar, dostonlar, xazil she'rlari, topishmoqlar, masallar kiradi.

O'qituvchi bolalarda adabiy asarni idrok qilish ko'nikmasini tarkib toptiradi. Bola asarni tinglayotib, uning mazmunini o'zlashtiribgina qolmay, balki muallif tasvirlayotgan his-tuyg'ular va kayfiyalarni his etishi ham lozim.

3-4 sinflarda hikoya qilishga o'rgatish vazifalari va ularning mazmuni ancha murakkablashadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari birinchi yarim yillikda tanish hikoya va ertaklarni mustaqil holda qayta hikoya qilishga, asar qahramonlarining suhbatini ifodali so'zlab berishga o'rgatiladi<sup>1</sup>.

O'qish darslarida birinchi marta o'qib berilgan kichik ertak va hikoyalarning mazmunini qayta hikoya qilishga, o'rtoqlari hikoya qilayotganda e'tibor bilan tinglashga, turli buyumlar va yil fasllarini tavsiflovchi (avval o'qituvchining savollari, so'ngra namuna va reja asosida) hikoya tuzishga o'rgatiladi.

Keyinchaliko'quvchilarga tanish ertak va hikoyalarni tinglashni, ularda ishtirok etuvchi rersonajlarning gaplarini, o'ziga xos xususiyatlarini tushunishni, asar mazmunini hikoya qilayotgan o'rtoqlarining nutqini diqqat bilan eshitishni, asar matnini buzib hikoya qilgan joylarini payqashni o'rgatish davom ettiriladi.

O'quvchilarda suratlar bo'yicha hikoya tuzishni o'rgatayotganda, avvalo, ularning mustaqil fikrlashlariga, suratda tasvirlangan voqealarga o'z munosabatlarini bildirishlariga imkon yaratish kerak.

<sup>1</sup> Qodirova F., Qodirova M. Bolalar nutqini o'stirish nazariyasi va metodikasi. Toshkent – 2006 yil.

Shu bilan birga, rasmda aks ettirilgan mavzuli voqeaga qarab ilgari nima bo'lgani va keyin nima bo'lishi kerakligi haqida fikr yuritishga undash. Tabiat manzaralari aks ettirilgan suratga qarab, undagi go'zallikni, nafislikni ifodalay oladigan tasviriy so'zlar, o'xshatish va sifatlashlar ishtirokida gap tuzishga o'rgatib borish ham amalga oshiriladi.

O'quvchilarni hikoya qilishga o'rgatishda maxsus usullardan foydalaniladi. Ulardan asosiyларini aytib o'tamiz:

Hikoya namunasini berish usuli. Bunda qandaydir buyumni (predmetni) yoki voqeani jonli va qisqa tasvirlanadi. Bu usul birmuncha yengil usul bo'lib, o'qituvchi bolalarga narsa-buyum, rasm, voqea haqida tayyor hikoya aytib beradi, bolalar hikoyani tinglab, o'z hikoyalari uchun mazmun tanlaydilar, uning hajmini, izchilligini belgilab oladilar. Shuning uchun bu usul o'quvchilarni hikoya qilib berishga o'rgatishga yordam byeruvshi ta'limiy usul bo'lib hisoblanadi. O'qituvchining namuna hikoyasidan o'quvchilarni hikoya qilib berishga o'rgatishning dastlabki bosqichlaridan, shuningdek, yangi vazifa qo'yilganda yoki hikoya qilib bera olmaydigan bolalarga yordam berishda foydalaniladi. O'qituvchining namuna hikoyasini yomon hikoya qiladigan 1 – 2 o'quvchi takrorlashi mumkin.

Namuna hikoya usulidan darsning borishida foydalanish kerak. Undan darsning oxirida foydalanish esa hech qanday ijobiy natija bermaydi, chunki o'quvchilar namuna hikoyaga taqlid qila olmaydilar, o'z nutqlarida undan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmaydilar.

Hikoya rejasini berish usuli. Hikoya reja 2 – 3 asosiy savoldan iborat bo'lib, fikrning ketma-ketligini va mazmunini belgilaydi. Namuna usulidan foydalanib hikoya qilib berish bilan bog'liq 2–3 darsdan keyin hikoyani reja asosida so'zlab berishga o'rgatish mustaqil yetakchi usullardan biri bo'lib qoladi. Bolalar hikoyasi xilma-xil bo'lishi uchun o'qituvchi oldindan asosiy va qo'shimcha reja tayyorlab qo'yishi kerak. Bu dars jarayonida savollarni almashtirish bolalar diqqatini faollashtiradi.

O'qituvchi hikoya qiluvchining mavzudan yoki rejadan chetga chiqib ketganini o'zi ko'rsatibgina qolmay, balki bolalarni o'rtog'ining hikoyasini nazorat qilib borishga jalb qilishi kerak. (Hozir nima haqida hikoya qilib berish kerak? Hammaga tushunarli bo'lishi uchun avval nimani hikoya qilib berish yaxshiroq?)

Hikoya namunasini berish hikoya qilishga o'rgatishning eng yengil usuli, hikoya rejasini berish usuli esa ancha qiyin. Bu usul murakkab bo'lishiga qaramay, o'quvchilarni hikoya qilishga o'rgatishda keng tarqalgan muhim usul hisoblanadi.

Rejani jamoa bo'lib muhokama qilish usuli. Reja asosida hikoya tuzish va uning mazmunini boyitishni uyengillashtirish maqsadida, rejani jamoa bo'lib muhokama qilish tavsiya etiladi. Bu usuldan maktabga tayyorlov guruhlarida va 1-2-sinflarda reja asosida hikoya qilishga o'rgatishning dastlabki bosqichida foydalaniladi. Masalan, o'qituvchi o'quvchilarga shunday yo'llanma beradi: "Biz qanday qilib jo'ja boqqanimizni gapirib bering. Jo'jalar qayerdan paydo bo'ladi? Ularni qanday parvarish qildingiz? Jo'jalar katta bo'lganda, ular qanday bo'lishdi?"

Bu usulning mohiyati nimadan iborat?

Hikoyani tuzishga qadar o'qituvchi bolalar bilan birgalikda rejadagi ayrim savollarni muhokama qiladi, ya'ni hikoya mazmunining xilma-xil bo'lishi imkoniyatlarini ko'rsatadi. Rejadagi bir savolga (masalan, "Bola qanday mushuksha topib oldi?") bir necha o'quvchi joyida o'tirgan holda javob byerishini taklif etadi. Bolaning joyida o'tirgan holda javob berishi - bu hali hikoya emas, balki bir yoki bir necha gapdir. Hikoya rejasini jamoa bo'lib muhokama qilish usuli esa bolalarning tashabbuskorligini jonlantiradi, faollashtiradi, bolalarni murakkab jarayon hisoblangan mustaqil hikoya tuzishga o'rgatadi.

Baholash usuli.

Bu usuldan foydalanishning asosiy maqsadi shundaki, baho faqat hikoyasi baholanayotgan o'quvchigagina ta'sir etib qolmasdan, balki hikoya tuzishi lozim bo'lgan boshqa bolalarga ham ta'sir qilsin. Shuning uchun bu usuldan dars mashg'uloti davomida foydalaniladi. Dars oxirida berilgan baho, o'z mohiyati bilan foydasizdir, bundan tashqari, barcha tinglangan hikoyalarning sifati qanday bo'lganligini bola esda saqlashda qiynaladi, darsning oxirida ular toqatsizlanadilar va buning natijasida o'qituvchining ko'rsatmalarini idrok eta olmaydilar. Har bir hikoyani batafsil baholash shart emas, biroq ayrim hikoyalardagi biror ahamiyatli tomonni, izchillikni, yangilikni yoki kamchiliklarni (lug'ati, ovoz kuchi, qomatini noto'g'ri tutish va hokazo) aytib o'tish kerak.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Avliyoqulov N.X., Musaeva N. Pedagogik texnologiyalar. Toshkent-2008-yil
2. Avliyoqulov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari – Toshkent, 2001

## **O'ZBEK ALIFBE DARSLIKLARINING YARATILISHIGA ASOS BO'LGAN PEDAGOGIK OMILLAR**

**Yulduz PO'LOTOVA**

*Buxoro davlat universiteti Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida o'qituvchisi*

**Shahnoz HAMROQULOVA**

*Buxoro davlat universiteti boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi*

*Barkamol avlod savodxonligi alifbe darsliklarining ta'limiy-tarbiyaviy sifat darajasiga bog'liq. Bu esa o'tmish ma'rifatparvarlarining darslik yaratishga oid tajribalarini kengroq o'rganishni talab etadi.*

***Tayanch so'zlar:** alifbe darsliklari, sovet mustamlakachiligi davri, taraqqiyot bosqichlari, mustaqillik, ta'limiy-tarbiya.*

*Грамотность гармонично развитого поколения зависит от уровня воспитательного качества учебников по азбуке. Это требует более широкого изучения учебников прошлого.*

*The literacy of the harmoniously developed generation depends on the level of educational quality of the alphabet textbooks. This requires a broader study of the textbooks of the past.*

Davlat va jamiyat tomonidan ta'lim-tarbiya oldiga qo'yilgan ushbu vazifalarni hal etishda tarixiy pedagogik merosimizdagi mavjud ijobiy jihatlarni aniqlash, ularni hozirgi davr ta'lim mazmuniga singdirish muhim ahamiyat kasb etadi. Barkamol avlod savodxonligi alifbe darsliklarining ta'limiy-tarbiyaviy sifat darajasiga bog'liq. Bu esa o'tmish ma'rifatparvarlarining darslik yaratishga oid tajribalarini kengroq o'rganishni talab etadi. Chunki zamon talablariga javob beradigan darsliklar ularning vorislaridir. Tarixiy takomillashuv jarayonida alifbe darsliklari mazmuni va tuzilishi savodga o'rgatish usullarining almashinuvi, ta'lim-tarbiyaga oid ijtimoiy-g'oyaviy talablarining turli-tuman shart-sharoitlari chuqur ta'sir ko'rsatdi. Ushbu talablar natijasida darslikka tatbiq etilgan samarali usul va vositalardan voz kechish holatlari ham vujudga keldi. Binobarin, alifbe darsliklarini an'anaviylik va novatorlik nuqtayi nazaridan qiyosiy tahlil qilish, ularning tarixiy, ta'limiy taraqqiyotini belgilash, alifbe darsliklarida tayanilgan didaktik tamoyil va mezonlarni aniqlash nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham o'ta dolzarb muammolardandir. Ta'limni tashkil etish va amalga oshirishning muhim vositasi sifatida darslik DTS, o'quv dasturi va rejasi, qo'llanma hamda tavsiyalar kabi o'quv-tarbiya jarayonining loyihasi yoki ssenariysi vazifasini bajaradi. Demak, darslik ta'lim jarayoni samaradorligini ta'minlashning asosiy vositasidir. Shuningdek, tahlil natijalari darsliklarni quyidagi uch davr yo'nalishida o'rganish lozimligini ko'rsatdi:

1. Milliy uyg'onish davrida yaratilgan alifbelar.
2. Sovet mustamlakachiligi davrida yaratilgan alifbelar.
3. Milliy mustaqillik davrida yaratilgan alifbelar.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonda ilk alifbe darsliklarini tuzish uchun muayyan pedagogik shart-sharoitlar qilingan edi. Bu davrda ta'lim tizimini chuqur isloh qilish uchun keng ko'lamlı harakat boshlandi. Ma'rifatparvarlar o'qitish tizimidagi ziddiyatli holatlar, kamchilik va nuqsonlarni tanqid qilish bilan birga uni isloh qilish omillarini izladilar, ta'lim islohotiga oid o'z g'oyalarni ilgari surdilar.

O'zbek alifbe darsliklari tarixiy taraqqiyot bosqichlari va didaktik asoslarini o'rganish, ushbu asosda uni takomillashtirish mavzusiga bog'liq holda, turdosh yo'nalishlarda quyidagi ishlar bajarilgan: Hoji Muinning "O'zbekcha alifbolar tarixi" maqolasi o'zbek alifbe darsliklariga oid tadqiqot tavsifidagi ilk manbalardandir. Muallif maqolada 1902-yildan 1926-yilgacha yaratilgan alifbe darsliklarining sifati, savodga o'rgatishning qaysi usulida yaratilganligi va qo'llanilish hududiga oid muhtasar ma'lumotlarni keltiradi. Shuningdek, uning "Forscha alifbolar tarixi" maqolasida Turkistonda 1926-yilgacha nashr qilingan tojik tilidagi o'nta alifbe darsligi va ular haqidagi ayrim ma'lumotlar keltiriladi. Alifbe darsliklari muallifi bo'lgan ma'rifatparvar pedagog Hoji Muinning mazkur maqolalari katta ilmiy ahamiyatga ega.

Turkiston boshlang'ich ta'lim tarixi, usuli qadim, usuli jadid maktablari haqidagi ilk statistik ma'lumotlar Sh.Rahimiyning "O'zbek maorifining o'tganda va hozirgi ahvoli", "O'zbekiston jumhuriyatida maktab ishlari, "Maorif ishlaridan bir shingil", "Men nima deyman, qovuzim nima deydi", "Yana qovuzim nima deydi" kabi risola va maqolalarida o'z aksini topdi. Ularda muallif usuli jadid maktablarining XX asr boshlarida ma'rifatni rivojlantirishdagi o'rnini yuksak baholab, sho'ro hokimiyatining dastlabki yillarida boshlang'ich ta'limning holatiga statistik ma'lumotlar asosida tavsif

berdi. Elbekning “Boshlang‘ich maktabda ona tili” risolasida Turkistonda savod o‘rgatish muammolari, boshlang‘ich ta’lim, uni yuksaltirish yo‘llari xususida fikr yuritilgan. Shuningdek, O‘zbekiston maorifi tarixiga doir tadqiqotlar T.N. Qori Niyoziy, S.Rajabov, E.Qodirov kabilar tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib, ularda maorifimizning tarixiy yo‘li, ayniqsa, sho‘ro hukmronligi davri atroflicha keng tahlil qilindi. XX asr boshlaridagi ma’rifatparvar pedagoglar Siddiqiy Ajziy, Abdulla Avloniy, Sadridin Ayniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Ishoqxon Ibrat kabilar faoliyatini yoritdilar. Lekin sho‘ro tuzumining milliy ta’lim-tarbiya asoslariga qarshi qaratilgan siyosati tufayli, ularda ma’rifatparvarlar faoliyati birmuncha cheklangan holda tadqiq qilindi. Olim Y.Abdullayevning tadqiqotlarida 1902-1938-yillarda tuzilgan alifbe darsliklari savod o‘rgatish metodikasi tarixi nuqtayi nazaridan yoritildi. Sovet mustamlakachiligi davrida amalga oshirilgan mazkur ishlar alifbe darsliklarining tarixiy takomilini aniqlashda o‘ziga xos qimmatga egadir. Lekin bu ishlarda jadid tarbiyashunoslik maktabi o‘rganilmadi. Oqibatda boshlang‘ich ta’limning rivojiga ulkan hissa qo‘shgan ma’rifatparvarlar ilmiy-ma’rifiy qarashlari, ular tomonidan yozilgan o‘quv-metodik qo‘llanmalar yetarli darajada tadqiq etilmadi, ularning darslik yaratish borasidagi ijobiy tajribalaridan amaliyotda foydalanilmadi.

Respublikamizning milliy mustaqillikka erishuvi jadid ma’rifatparvarlari pedagogik faoliyatini, xususan darsliklar tarixini o‘rganishga ham yangicha yondashuvni taqozo etdi. O‘zbekiston mustaqilligining ilk yillaridayoq Y.Abdullayev, Munavvarqori Abdurashidxonov hamda Abdulla Avloniy pedagogik faoliyati va ular tomonidan tuzilgan darsliklarni yoritishga qaratilgan ilmiy maqolalarini e’lon qildi. Shuningdek, B.Qosimov, J.Yo‘ldoshev, S.Hasanov, I.Tursunov, U.Dolimov, O.Hasanboyeva kabilar tomonidan yaratilgan ilmiy-pedagogik asarlarda jadid tarbiyashunoslik maktabi, uning asoslari, mazmun va mohiyati tadqiq etildi. Xususan, adabiyotshunos olim B.Qosimov va U.Dolimovlarning Abdulla Avloniy va B.Qosimovning Ismoilbek Gasprinskiy pedagogik merosiga doir tadqiqot yo‘nalishidagi maqolalari, Ismoilbek Gasprinskiyning “Rahbari muallimun yoki muallimlarga yo‘ldosh”, “Ho‘jai sibyon” asarlari tahliliga doir fikrlari katta ahamiyatga egadir. Olima S.Nishonovanning tadqiqot ishi pedagogik merosimizdagi mavjud ilg‘or jihatlarni o‘rganish nuqtayi nazaridan diqqatga sazovor bo‘lib, u Sharq uyg‘onish davrida barkamol inson tarbiyasiga qaratilgan pedagogik merosimizda qo‘llanilgan ilg‘or usul va vositalarga tayangan holda, bir xil talab asosida o‘qitishga chek qo‘yib, ta’lim tizimiga o‘zgartirishlar kiritish (sinfdan-sinfga, kursdan-kursga ko‘chirishda ta’lim oluvchining individual xususiyatlarini, o‘quv kursini o‘zlashtirganlik darajasini hisobga olish)ni taklif qildi. Q.Abdullayeva boshlang‘ich ta’lim jarayonida savod o‘rgatishning mazmuni, prinsiplari va asosiy vositalarini ko‘rsatish bilan birga, O‘zbekistonda savod o‘rgatish metodlarining rivojlanish tarixini izohlab berdi. Shuningdek, N.Irgasheva, Z.Ahrorova, D.Ahadovalar Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo‘ja Behbudiy va Fitratning pedagogik qarashlari hamda ular tomonidan yaratilgan ilmiy-metodik adabiyotlar, xususan darsliklarga doir ilmiy tadqiqotlar olib bordilar. Mustaqillik davrining dastlabki yillarida tuzilgan darsliklar (T. G‘afforova va boshqalar tomonidan tuzilgan “Alifbe” (Savod), O. Sharafiddinov, Q. Abdullayeva va boshqalar tomonidan tuzilgan “Alifbe” (Shodlik)ni tahlil qilish va o‘tmishda yaratilgan alifbelar bilan o‘zaro qiyoslash natijalari ularga Milliy uyg‘onish davri darsliklariga xos xususiyatlar, xususan ibrat, qissadan hissa chiqarish kabi usullar qisman tatbiq etilganligini ko‘rsatdi. Mazkur ishlar o‘zbek alifbelari tuzilgan davr pedagogik muhitini, ma’rifatparvarlar faoliyatini o‘rganish nuqtayi nazaridan muayyan qimmatga ega. Sho‘ro davrida tuzilgan darsliklarda esa kommunistikning soxta baynalminalchilik va vatanparvarlik g‘oyalari o‘z aksini topdi. Faqat Respublikamiz mustaqilligidan so‘nggina darsliklarda milliy g‘oya va mafkura tarbiyasiga qaratilgan didaktik materiallardan foydalanish uchun obyektiv shart-sharoit yuzaga keldi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Hamroyev A.R. *Boshlang‘ich sinf ona tili ta’limini ijodiy tashkil etish. Ped.fanl.nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya. Toshkent, 2005. 151 b.*
2. Olimov Q.T. *Maxsus fanlardan o‘quv adabiyotlari yangi avlodini yaratishning nazariy-uslubiyasi soslari: Ped. fanl. dokt..... diss. avtoref. - Toshkent, 2005. - 44 b.*
3. Xodjayev B.X. *Umumta’lim maktabi o‘quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didaktik ta’minot vositasida rivojlantirish: Pedagogika fanlari doktori..... diss. - T., 2016. - 312 b.*

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI BADIY VA MA'LUMOTLI MATNLAR  
USTIDA ISHLASHGA O'RGATISHDA INNOVATSION USULLARIDAN  
FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI**

**N.X.Aslanova**

BVXTXQTMOHM Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim  
metodikalari kafedrası o'qituvchisi

*Maqolada boshlang'ich ta'limda o'qish sifatlarini oshirishda matn mazmunini anglashga o'rgatishning innovatsion usullari keltirilgan*

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich ta'lim, o'qish, tushunish, innovatsion, usul, matn, nutq

*В статье приведены инновационные решения по повышению качества чтения и понимания текста учеников начального образования*

**Ключевые слова:** начальное образование, чтение, понимание, инновации, метод, текст, речь

*This article is about the innovation methods of improvement reading and understanding the text of the primary school pupils*

**Key words:** primary school, reading, understanding, innovatsion, method, text, speech

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son [qarori](#) ijrosini ta'minlash, shuningdek, yoshlarni mustaqil hayotga dunyoqarashi keng, faol fuqarolar etib tarbiyalash maqsadida 2020-yil 1-yanvardan kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining "Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq, tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarni kafolatli shakllantirishda oila, maktabgacha ta'lim, umumiy ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko'tarishni taqozo etadi. Konsepsiyaga ko'ra boshlang'ich sinflarda inobatga olinishi lozim bo'lgan jihatlardan birinchidan, "Tarbiya" fani orqali o'quvchilarda ma'naviy tarbiya indikatorlari va kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi bilim, ko'nikma va malakalarni ta'lim mazmuniga keng singdirishdan iborat. Shuningdek, o'quv fanlari doirasidagi ma'naviy tarbiya indikatorlarini amaliyotga joriy etish, ularni amaliyotda qo'llay olish imkonini beruvchi amaliy mashq va topshiriqlar bilan boyitish orqali o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Boshlang'ich ta'limda mutolaa madaniyatini egallash yuzasidan eng qulay fanlar sifatida ona tili va o'qish savodxonligi fanlari muhim o'ringa ega. Chunki mutolaa orqali bolaning o'z xulq va faoliyatini ongli nazorat qilish, o'zining va atrofdagilarning xulqi, xatti-harakatlariga munosabat bildirish, mehnatsevarlikka ijobiy munosabat, kattalar va tengdoshlari bilan kommunikativ va ijtimoiy hamkorlik qilishga motivlarning paydo bo'lishi kuzatiladi. Kitob o'qish orqali o'quvchilarda bilimlarning kengayishi, chuqurlashuvi, ma'naviy-axloqiy ko'nikma va malakalarning rivojlanishi, o'z xalqining va boshqa xalqlarning an'analari, qadriyatlariga qiziqishning namoyon bo'lishi, yoshi xususiyatlariga mos shaxsiy fazilatlarning shakllanishi kuzatiladi. Kichik maktab yoshida ba'zi tushunchalarni ongli ravishda anglashga kattalar tomonidan tashkil etiladigan tushuntirish ishlari esa o'quvchiga komil inson uchun muhim bo'lgan xavfsiz hayot ko'nikmalarining shakllanishi, kasblar olami to'g'risida tasavvurlarning kengayishi, kasbga va mehnatga qiziqishning paydo bo'lishi, vijdonan mehnat qilishga o'rgatish, mehnatning inson va jamiyat hayotidagi ahamiyatini ko'rsatishga, muvaffaqiyatga erishish motivlarini kuchaytirishga olib keladi. Badiiy asarning ongli tarzidagi mutollasi va tahlili orqali o'quvchilarni erta yoshdan boshlab o'zini-o'zi baholashga o'rgatish, turli faoliyat (ta'lim olish, o'yin, mehnat)da o'zini namunalari ko'rsatish, tengdoshlari bilan ma'naviy-axloqiy munosabatlar tajribasini boyitish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, o'zbek tilining betakror nutqiy ko'nikmalarini o'rganishga olib keladi. A.S.Pushkin butun ijodi davomida jami 21197 ta so'z qo'llagan bo'lsa, Shekspir asarlari tilida jami 20 mingdan ortiq so'z qo'llanilgan. Ispan olimlari Servantesning ijodida 18 ming so'z qo'llanilgani haqida ma'lumot berganlar. **Buyuk bobimiz Alisher Navoiy asarlarida qo'llanilgan so'zlar soni esa 26000dan ortiq ekan.** Ana shunday go'zal nutqning betakror shakllari, namunalari sifatida yuzaga kelgan so'z durdonalari — afsonalar, asotirlar, dostonlar, ertaklar, maqolu matallar, topishmoqlar,

qo'shiqlar, she'rlar, dramalar, hikoya, qissa va romanlar insoniyat badiiy dahosining noyob shahodatnomalari sifatida yashab kelmoqda, yaratilmoqda va, albatta, bundan keyin ham yaratiladi.<sup>1</sup>

Bu vazifalarni amalga oshirish uchun kichik yoshdagi o'quvchilarga xalqimiz qadriyatlarini tarannum etuvchi badiiy asarlar, xalq og'zaki ijodi namunalari mutolaasi va ulardagi asosiy mazmuni tushunishning o'ta qulay usul va vositalarini ishlab chiqish zaruriyati kelib chiqmoqda.

Ma'lumki, boshlang'ich sinflarda o'qish faoliyati barcha darslarda amalga oshiriladi va bu faoliyat quyidagi vazifalarni hal etadi:

1. O'qish malakasini takomillashtirish. O'quvchilarda yaxshi, to'g'ri o'qish sifatлари: to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish malakalarini shakllantirish;

2. O'quvchilarni tevarak-atrof, borliq haqidagi bilimlarni kengaytirish, ilmiy dunyoqarash elementlarini shakllantirish;

3. Bilim olishga o'rgatish, kitob bilan ishlashni biladigan, chuqur fikrlovchi, sermulohaza kitobxonlarni yetishtirish;

4. O'quvchilarning nutqini va tafakkurini o'stirish. Adabiy tasavvurni shakllantirish.

Bu vazifalarni hal etish jarayonida esa turli maqsadlarni qo'yish va shu maqsadlar yuzasidan turli faoliyat usullarini ishlab chiqish ijobiy samara beradi. Har bir boshlang'ich sinf o'quvchisi bilan to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish bilan bog'liq musobaqa mashqlarni bajarish mumkin. Bu mashqlar asosan,

8. diqqat va e'tiborni jamlash;

9. ko'rish maydonini kengaytirish;

10. xotirani mustahkamlashga asoslangan bo'lishi kerak.

To'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish sifatlarini ta'minlovchi mashqlarga o'quvchilarda faol fikrlash qobiliyatini shakllantiruvchi zamonaviy o'yin-mashqlar misol bo'la oladi. Masalan, **“Matni tasvirlash”**, **“HA yoki YO”Q**, **“Matn ichidan top”** kabi innovatsion o'yinlar o'quvchilarni faollashtirishga, matnni tez o'qish, ongli idrok etishga yordam beradi. Mashqlarni bajarish jarayonida o'quvchilar matnni mutolaa qilishga majbur bo'ladilar, o'zlari sezmaganda asosiy mazmuni anglaydilar.

#### **“Matn ichidan top” mashqi**

O'quvchilar bilan matn mutolaasidan keyin mustahkamlash yuzasidan savollarning quyidagi turlaridan foydalanish mumkin. Misol uchun information yoki badiiy matn ustida quyidagi tarzda ishlanadi. O'qituvchi matndan qandaydir ma'lumot aytadi. O'quvchilar qaysi qahramonga tegishli ekanligini topadilar. **Masalan:**

1. Yaylovda tug'ilibdi... (Qo'zichoq)

2. Qo'zichoqni ko'rgan ... hayron bo'lib qolishibdi. (qo'ylar)

3. O'-ho', ajoyib qo'chqorcha ekan, debdi.... (Qora Qo'chqor)

4. Bechora yuragini hovuchlab to'rt tomonga yuguribdi (Ona Qo'y)

5. Antiqua, antiqa, – debdi ..... (Oq Qo'chqor)

6. G'alati-g'alati qiliqlar chiqara boshlabdi (Qo'zichoq)

7. Eh, shoxlarim tezroq o'sa qolsa edi, o'zimni ko'rsatib qo'yardim (?)

8. Bir kuni u yana yo'qolib qolibdi (qo'zichoq)

9. To'g'ri aytasiz, bunaqa antiqa qo'zilar kam tug'iladi (qo'ylar)

#### **Qo'zichoq<sup>2</sup>**

#### **Rauf Tolib**

Yaylovda bir Qo'zichoq tug'ilibdi. Ikki ko'zi munchoqday, yunglari jingalak-jingalak, quyosh nurida jimirlab, ko'zni qamashtirar ekan. Qo'zichoqni ko'rgan qo'ylar hayron bo'lib qolishibdi.

Voy, qo'zichoq ham shunaqa chiroyli bo'ladimi-ya? – deyishibdi bir-birlariga.

– O'zimning shirintoyimdan aylanib ketay, – yalab-yulqabdi Ona qo'y. Qo'zichoq juda tez o'sa boshlabdi. Keng, yashil yaylovda irg'ishlab sira-sira tolmas, dikanglab, onasining ketidan qolmas ekan. U bir-ikki oy deganda ancha to'lishib, barra o'tlarni yeb semiribdi. Yanayam ko'zga tashlanibdi. Ko'rganlar uni maqtashga tushishibdi.

– O'-ho', ajoyib qo'chqorcha ekan, – debdi burama shoxli Qora Qo'chqor unga havas bilan boqib.

– Antiqua, antiqa, – debdi Oq Qo'chqor. Bu gaplardan Qo'zichoqning burni ko'tarilib ketibdi.

– To'g'ri aytasiz, bunaqa antiqa qo'zilar kam tug'iladi, – ularning gapini quvvatlashibdi qo'ylar.

<sup>1</sup>Ўлдошев М. БАДИЙ МАТН ЛИНГВОПОЭТИКАСИ. Тошкент Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси «Фан» нашриёти 2008 й. Б-3

<sup>2</sup> O'QISH KITABI Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik Qayta ishlangan va to'ldirilgan 6-nashr TOSHKENT «YANGIYO'L POLIGRAF SERVIS» 2017 B-37.

Qo'zichoq: «Ana eshityapsizlarmi?» – deganday yon-veridagi qo'zilarga qarab qo'yibdi. Ammo Qo'zichoq o'zi haqidagi maqtovlarni eshitib, tobora taltayib ketibdi, bosar-tusarini bilmay qolibdi. Kunlar o'tib Qo'zichoq g'alati-g'alati qiliqlar chiqara boshlabdi. U boshqa qo'zilarga qo'shilmay, alohida yurarkan. Boshqalarni mensimay, gerdayib qararkan. Avvaliga uning bu qiliqlariga hech kim parvo qilmabdi. «Turishini qarang, katta bo'lsa bo'rilarning ham dodini beradi», – degan maqtovlardan Qo'zichoqning og'zi qulog'iga yetibdi.

– Eh, shoxlarim tezroq o'sa qolsa edi, o'zimni ko'rsatib qo'yardim...

Qo'zichoq ko'ngli tusagan joylarda o'tlar, atay butalar ichida qolib ketar ekan. Ona Qo'y Qo'zichoqdan xavotirlana boshlabdi. Bir kuni Qo'zichoq yo'qolib qolibdi. Ona Qo'y uni qidira-qidira soy bo'yidagi o'tloqdan topibdi.

– Bolam-ey, naq o'takamni yorib yubording-ku! Bo'ri yoki Tulki ilib ketdimi, deb yig'layverib, yuguraverib, jonimda jon qolmadi, – debdi ranjib.

– Buncha qo'rqasiz, shu shoxlarim bilan o'sha Bo'ringizni qornidan darcha ochib qo'yaman, – kerilibdi Qo'zichoq.

– Hay-hay, bolam, o'zingni bos... Bilmadim, sen nega bunday kekkaygan chiqding?

– Nima, kekkaysam, arzimabdimi? Men zo'rman. Qarab turasiz, oyi, bir kun men o'sha Bo'ring ham dodini beraman.

– Qo'y, birovlarining gap-so'zlariga quloq solma, bolam, – nasihat qilibdi Ona Qo'y. Ammo Qo'zichoq gerdayishni qo'ymabdi. Bir kuni u yana yo'qolib qolibdi. Bechora Ona Qo'y yuragini hovuchlab to'rt tomonga yuguribdi, izlabdi, bo'zlabdi. Qorong'i tushgach, topa olmay nochor qo'raga qaytibdi. Ertasiga yana izlabdi. Do'ng orqasidagi pastqam jarlikda o'g'lining tanish terisini ko'rib qolibdi. Ona Qo'y quruq maqtovlarga uchib, Bo'riga yem bo'lgan Qo'zichoqning terisini ko'ziga surtib yum-yum yig'labdi. [2; 60-61-b.]

### **“HA yoki YO'Q” mashqi**

Ushbu mashq turi o'quvchilarga matn mazmunini yanada aniqroq tushunishga, ularda fikrlash va diqqatni rivojlantirishga yordam beradi. O'qituvchi yoki bir o'quvchi matndagi gaplarning faqat so'roq formasi orqali savol beradi. O'quvchilar parta boshidan birma-bir “HA” yoki “YOQ” deb javob beradilar. To'g'ri javob bergan o'quvchilar rag'batlantiriladi. Diqqati matn mazmunidan chetda qolgan, yoki noto'g'ri javob bergan o'quvchiga qaytib savol beriladi yoki matnni o'qishda davom etish vazifasi beriladi. Mashq asosida o'quvchilar matnni qaytib mutolaa qilgandek bo'ladilar va matn mohiyatini yanada yaxshiroq tushunadilar.

### **Keksa kulol va shogird**

#### ***Quadrat Hikmat***

Bir mo'ysafid kulolning uyiga o'g'lini boshlab kelibdi. Unga hunar o'rgatishni iltimos qilibdi. Kulol rozi bo'libdi.

Shogird kulolnikida soz tuproq qazibdi, suv tashibdi, loy qilibdi, o'choqqa o't qalabdi. Xullas, uning aytganlarini bajo keltirib yuribdi.

Oradan bir necha qish-u yoz o'tibdi. Shogird: “Kulolchilikni miridan sirigacha bilib oldim, endi yugurdak bo'lib yuramanmi?” – debdi-da, ustozidan javob so'rabdi.

Kulol bo'lsa:

– O'g'lim, hunar injiq narsa, sabr-toqat qilib, yana biror yil menga qarashib, o'rganib turganing ma'qul edi, – debdi.

Shogirdning sabri chidamay, ustozini holi-joniga qo'ymay, fotihasini olibdi.

Katta bozorda do'kon ochgan kunlari xaridorlar uning piyola, choynak, ko'zachalarini talashib olib ketishibdi. Ustozi bo'lsa: “Mayli, oxiri xayrli bo'lsin!” – deb o'z yumushini davom ettiraveribdi.

Oradan biroz vaqt o'tar-o'tmas shogirdning ishi yurishmay qolibdi, uning mollarini xarid qilmay qo'yishibdi. U yasagan lagan, tovoqlarning sirlari xiralashib, ko'chib ketayotgan emish. Oxiri shogird dastmoyasidan ajrab, ko'p aziyat chekibdi. Nihoyat, kulolnikiga pushaymon bo'lib qaytib kelibdi.

Kulol uning joniga tag'in ora kiribdi.

Kunlar o'tibdi. Shogirdiga kulol:

– Bolam, alaxsimay, razm solib tur! – debdi-da, qurigan idishlarini bir-bir puflab, so'ngra sir beribdi. Shunda lagan-u tovoqlarning chiroyi yanada ochilib, yarqirab ketibdi.

Shogird endi uning hunarini batafsil egallab olishga astoydil bel bog'labdi.

### ***Savollarga “ha” yoki “yo'q” javoblarni tezda belgilab chiqing***

#### **1. Mo'ysafid o'g'lini kulolga shogirdlikka berdimi?**

A) Ha

B) Yo'q

**2. Shogird ustozinikidan tezroq ketmoqchi bo'ldimi?**

- A) Ha
- B) Yo'q

**3. Matnda aytib o'tilgan shogird yasagan buyumlar o'zbek xalqining milliy uy- ro'zg'or buyumlari hisoblanadimi?**

- A) Ha
- B) Yo'q

**4. Shogird yana kulolning yoniga qaytib keldimi?**

- A) Ha
- B) Yo'q

**5. Shogird hunarni to'laligicha o'zlashtirdimi?**

- A) Ha
- B) Yo'q

Ushbu o'yin mashq orqali o'quvchilarda o'qish sifatлари bilan birgalikda axborot bilan ishlash kompetensiyasi ham shakllanadi. Xulosa sifatida ota-onalar orasida ko'pgina munozaralarga sabab bo'ladigan muammoli savollarga e'tibor qaratsak, nega bolalarning kitob o'qimasligi, buning uchun ota-onalar oilada, o'qituvchilar esa ta'lim muassasalarida nima ishlar qilishimiz kerakligi, mutolaa bolaga nima berishi, bolani o'qishga qanday o'rgatish mumkinligi yuqoridagi fikrlar va o'yin mashqlar orqali o'quvchilarga ijobiy ta'sir etishi yuzasidan taklif va ko'rsatmalar sifatida bayon etildi. Avvalambor, bolalarga berilgan vazifani bajarishni o'rgatishimiz kerak. Buning uchun beriladigan vazifa bola uchun quvonchli kayfiyat bag'ishlashi zarur. Sen vazifani uddalamading, bu ishing o'xshamadi, deb bolalarni o'qishga bo'lgan qiziqishini so'ndirib qo'yishimiz mumkin. "Sen mana shu matnni tezda o'qib chiq", deyishdan ko'ra, "matnga yangi sarlavha o'ylab top", "matn ichidan unli harflar bilan boshlanadigan so'zlarni topib, tezda tagiga qalam bilan chizib chiq", "matnda nechta undosh tovush bilan boshlanuvchi so'zlar mavjud ekan", "matndan **kim?** yoki **nima?** so'rog'iga javov beradigan so'zlarni top", "matndan **qanday?** yoki **qanaqa?** so'rog'iga javov beradigan so'zlarni top", "matndagi barcha darak gaplarni so'roq gaplarga aylantir"... tarzidagi vazifalar orqali matn, hikoya haqida ma'lumot to'plashga, o'quvchining matn bilan tanishishiga imkon berishimiz kerak. Matn asosida ishlangan rasm yoki animatsiyalar ham matn mazmunini tushunishga yordam berishini unutmashimiz kerak. Doimiy vazifasini esga solib turish orqali o'quvchilarni zeriktirmasdan, faoliyat turini yangilash, o'yin-musobaqalar, hozirjavoblik mashqlari, yangi nomdagi ta'limiy o'yin turlari orqali ham biz ko'zlangan maqsadimizga erishishimiz mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Йўлдошев М. БАДИЙ МАТН ЛИНГВОПОЭТИКАСИ. Тошкент Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси «Фан» нашриёти 2008 й. Б-3
2. О'QISH KITOBI. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik Qayta ishlangan va to'ldirilgan 6-nashr TOSHKENT «YANGIYO'L POLIGRAF SERVIS» 2017 B-37.
3. lex.uz
4. ertak.uz

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING MASHG'ULOTLAR DAVOMIDA  
OG'ZAKI NUTQINI O'STIRISH TEXNALOGIYASI**

**Y. U. Nurova, BuxDU o'qituvchisi**

*Boshlang'ich sinf sohasida bolalar nutqini o'stirishda turli texnologiyalardan foydalanib va uni amaliyotga tadbiiq etish, o'sib kelayotgan yosh avlodni nutqi ravon bo'lishiga xizmat qiladi. Maqolada nutqida nuqsoni bor bolalar bilan ishlash texnologiyasi haqida fikrlar keltirilgan.*

*Kalit so'zlar: nutq, bilim, diologikva monologik nutq, individual shug'ullanish, amaliyot mustaqilik va erkinlik, ishonch, ixtiyoriylik*

Umumiy o'rta ta'lim maktab, ta'lim tizimining eng muhim sohasi barkamol avlod asosan ana shu bo'g'inda shakllanadi. Shunga ko'ra boshlang'ich sinf o'quvchilarni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashda bog'lanishli nutqni rivojlantirish ham ta'limning eng muhim tarkibiy qismlaridan bo'lib hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning nutqini rivojlantirish borasida muhim tadqiqotlar olib borilgani xolda bog'lanishli nutqni rivojlantirish, ayniqsa, bu muammoning bolalarda eng samarali davr sanalgan maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda tevarak-atrofni o'rganish jarayonida nutqini rivojlantirish muhim ahamiyatga egadir. Boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarning tevarak-atrofn

o`rganishda bog`lanishli nutqini rivojlantirish eng zamonaviy texnologiyalarni qo`llash, fikr va jonli so`z, ona tilining hissiy estetik ma`no qirralarini anglab olish, uning go`zalligi, sofligi, boyligini his etish orqali amalga oshiriladi. Bizga ma`lumki, juda ko`p mashqlar sayr paytida uyushtiriladi. Masalan, sayr paytida bir bola eshak minib guruh bolalari yonidan o`tib qoladi.

Turli xil balandlikdagi ovoz bilan talaffuz qilingan ayrim tovush va taqlid so`zlarni idrok etilishini tadqiq etish.

Jarayonning borishi: Bolaga turli xil balandlikdagi tovush yoki taqlid so`zlarni eshitish va eshitganlarini, ularning bolasi tasvirlangan rasm yoki turli xil kattalikdagi predmet bilan bog`lash, moslash tavsiya etiladi. Bolaga oldindan qonun-qoidalari tushuntiriladi. Masalan, itning ovozi «yo`g`on», ya`ni past, kuchuk bolasining ovozi esa «ingichka», ya`ni jarangdordir.

Ko`rsatma: «Eshit va qaysi hayvon qanday ovoz chiqarishini ko`rsat (ayt). DUD - katta (past) ovoz DUD - kichik (jarangdor) kema

O - O -O

MO` - sigir

MU - buzoqcha

VOV - it

VOV - kuchuk bolasi

MYAU-mushuk

MYAU - mushuk bolasi

2. Ayrim tovush va taqlid so`zlarni baland va past ovoz bilan talaffuz qilish. Ko`rsatma: «Qani katta kema, samolyot va h-h., hamda ularning kichkinasi qanday ovoz chiqarishini, hayvonlar va ularning bolalari qanday ovoz chiqarishlarini ko`rsat».

VOV - it VOV - kuchuk bolasi

MU – sigir MU - buzoqcha

MYAU - mushuk MYAU - mushuk bolasi

DUD - katta kema DUD - kichik kema

A ayiq, A -ayiq; bolasi

3. Unli tovushlarni talaffuzda ularning grafik tasviri yoki qo`l harakatiga tayanib ovozni balandlatish va pastlatishni amalga oshirish.

yuqoriga - ovozni balandlatish;

pastga - ovozni pastlatish

1-ko`rsatma: «Sen oyoqlaring bilan emas, balki ovozing bilan zinapoyalardan yuqoriga, keyin esa Yana ovoz bilan zinapoyalardan pastga tushishga harakat qilib ko`r. Ovoz zinapoyalardan yuqoriga ko`tarilayotganda, u balandlashadi va ingichkalashadi. Ovoz zinapoyalardan pastga tushayotganda esa, u pasaya boshlaydi. Avval A tovushi, keyin esa O, U tovushlari bilan talaffuz qilamiz.

2-ko`rsatma:

«Qo`g`irchoq chaqaloqni alalab ko`rsat», A A A A A

Soat qanday yurishini ko`rsat .

CHIQ tebratishlarini chiq, chiq, chiq, chiq;

\\ \\ \\ \\ ,,,,~ - din

Qo`ng`iroq qanday jaranglashini ko`rsat».

Din, din, din, dilin, din, dilin

Eslatma: Ovoz balandlashayotganini yoki pasayayotganini ko`rsatish uchun logoped qo`lining harakati bilan faol ravishda yordamlashadi.

Baholash mezonlari:

4-ball - topshiriq ovoznining etarli modulyasiyasi bilan bajarilganda qo`yiladi.

3-ball - topshiriq ovoz modulyasiyasi unchalik etarli bo`lmagan xolatda bajarilganda qo`yiladi;

2-ball - topshiriq ovoz balandligini o`zgartirmagan xolda bajariladi, biroq topshiriq turli usullarda bajartirilsa, ovoz balandligi o`zgarishiga erishish mumkin;

1-ball - topshiriq ovoz balandligini o`zgartirmagan xolda bajariladi, biroq topshiriq turli usullarda bajartirilsa ham ovoz balandligi o`zgar olmaydi;

0-ball - topshiriq bajarilmaydi.

Ushbu ovoz modulyasiyasini baland-pastligi bo`yicha tadqiq etish yo`li orqali nafaqat maktabgacha yoshdagi dizatrik bolalarni balki boshqa nutq nuqsonlariga ega bo`lgan bolalarda ham qo`llaniladi. Bu metodika orqali ovoz kamchiligini bartaraf etiladi va rivojlantirishga xizmat qiladi.

***Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:***

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. T. 2020 y 23 sentabr.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 28 апрелдаги "Рақамли иқтисодиёт ва электрон ҳукуматни кенг жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-4699-сонли Қарори//Ўзбекистон Республикаси Президентининг расмий web сайти.
3. Ona tili. 4-sinf maktab darsligi. Ikromov R., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Shodmonova D. Toshkent: O'qituvchi., 2007.190 b.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5-jild. – Toshkent.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2008 – 592 b.

## ОСНОВЫ КОНСТРУКТИВНОГО ВОСПИТАНИЯ В НАЧАЛЬНОГО И ДОШКОЛЬНЫХ ГРУППАХ

**М. Х. Эшонкулова**  
докторант Гулистанского ГУ

*Рассматривается из опыта Кузнецова Л.В. представлены программа и методические рекомендации для организации работы по конструированию и ручному труду с детьми 2–7 лет. В каждой возрастной группе выделены задачи и содержание воспитательно-образовательной работы, раскрыта методика с учетом возрастных особенностей детей.*

**Ключевая слова.** Конструкция, фигура, композиция, образования, обучения, воспитания,

*Considered from the experience of L. Kuznetsov The program and methodological recommendations for the organization of work on design and manual labor with children 2–7 years of age are presented. In each age group, tasks and the content of educational and educational work are identified, a technique is disclosed taking into account the age characteristics of children.*

**Keywords:** Design, figure, composition, education, training, upbringing,

В процессе игры с настольным и напольным строительным материалом продолжать знакомить детей с деталями (кубик, кирпичик, трехгранная призма, пластина, цилиндр), с вариантами расположения строительных форм на плоскости.

Продолжать учить детей сооружать элементарные постройки по образцу, поддерживать желание строить что-то самостоятельно.

Способствовать пониманию пространственных соотношений.

Учить пользоваться дополнительными сюжетными игрушками, соразмерными масштабам построек (маленькие машинки для маленьких гаражей и т.п.). По окончании игры приучать убирать все на место.

Знакомить детей с простейшими пластмассовыми конструкторами.

Учить совместно со взрослым конструировать башенки, домики, машины. Поддерживать желание детей строить самостоятельно.

В летнее время способствовать строительным играм с использованием природного материала (песок, вода, желуди, камешки и т.п.).

**К концу года дети могут:** • Различать основные формы деталей строительного материала. • С помощью взрослого сооружать разнообразные постройки, используя большинство форм.

• Разворачивать игру вокруг собственной постройки.

Подводить детей к простейшему анализу созданных построек. Совершенствовать конструктивные умения, учить различать, называть и использовать основные строительные детали (кубики, кирпичики, пластины, цилиндры, трехгранные призмы), сооружать новые постройки, используя полученные ранее умения (накладывание, приставление, прикладывание), использовать в постройках детали разных цветов. Вызывать чувство радости при удавшейся постройке.

Учить располагать кирпичики, пластины вертикально (в ряд, по кругу, по периметру четырехугольника), ставить их плотно друг к другу, на определенном расстоянии (заборчик, ворота). Побуждать детей к созданию вариантов конструкций, добавляя другие детали (на столбики ворот ставить трехгранные призмы, рядом со столбами – кубики и др.). Учить изменять постройки двумя способами: заменяя одни детали другими или надстраивая их в высоту, длину (низкая и высокая башенка, короткий и длинный поезд).

Развивать желание сооружать постройки по собственному замыслу.

Продолжать учить обыгрывать постройки, объединять их по сюжету: дорожка и дома – улица; стол, стул, диван – мебель для кукол.

Приучать после игры аккуратно складывать детали в коробки.

**К концу года дети могут**

- Знать, называть и правильно использовать детали строительного материала.
- Располагать кирпичики, пластины вертикально.
- Изменять постройки, надстраивая или заменяя одни детали другими.

Обращать внимание детей на различные здания и сооружения вокруг детского сада. На прогулках, в процессе игр рассматривать с детьми машины, тележки, автобусы и другие виды транспорта, выделяя их части, называть форму частей и расположение по отношению к самой большой части.

Продолжать развивать у детей способность различать и называть строительные детали (куб, пластина, кирпичик, брусок); учить использовать их с учетом конструктивных свойств (устойчивость, форма, величина). Развивать умение устанавливать ассоциативные связи, предлагая вспомнить, какие похожие сооружения дети видели.

Учить анализировать образец постройки: выделять основные части, различать и соотносить их по величине и форме, устанавливать пространственное расположение этих частей относительно друг друга (в домах – стены, сверху – перекрытие, крыша; в автомобиле – кабина, кузов и т.д.).

Учить самостоятельно измерять постройки (по высоте, длине и ширине), соблюдать заданный воспитателем принцип конструкции («Построй такой же домик, но высокий»). Учить сооружать постройки из крупного и мелкого строительного материала, использовать детали разных цветов для создания и украшения построек.

Обучать конструированию из бумаги: сгибать прямоугольный лист бумаги пополам, совмещая стороны и углы (альбом, флажки, поздравительная открытка), приклеивать к основной форме детали (к дому – окна, двери, трубу; к автобусу – колеса; к стулу – спинку).

Приобщать детей к изготовлению поделок из природного материала: коры, веток, листьев, шишек, каштанов, ореховой скорлупы, соломы (лодочки, ежики и т.д.). Учить использовать для закрепления частей клей, пластилин; применять в поделках катушки, коробки разной величины и другие предметы.

**К концу года дети могут**

- Использовать строительные детали с учетом их конструктивных свойств.
- Преобразовывать постройки в соответствии с заданием.
- Сгибать прямоугольный лист бумаги пополам.

Старшая группа. Конструирование. Продолжать развивать умение детей устанавливать связь между создаваемыми постройками и тем, что они видят в окружающей жизни; создавать разнообразные постройки и конструкции (дома, спортивное и игровое оборудование и т. п.).

Учить выделять основные части и характерные детали конструкций.

Поощрять самостоятельность, творчество, инициативу, дружелюбие.

Помогать анализировать сделанные воспитателем поделки и постройки; на основе анализа находить конструктивные решения и планировать создание собственной постройки.

Знакомить с новыми деталями: разнообразными по форме и величине пластинами, брусками, цилиндрами, конусами и др.

Учить заменять одни детали другими. Формировать умение создавать различные по величине и конструкции постройки одного и того же объекта.

Учить строить по рисунку, самостоятельно подбирать необходимый строительный материал.

Продолжать развивать умение работать коллективно, объединять свои поделки в соответствии с общим замыслом, договариваться, кто какую часть работы будет выполнять.

**К концу года дети должны уметь.**

- Анализировать образец постройки.
- Планировать этапы создания собственной постройки, находить конструктивные решения.
- Создавать постройки по рисунку.
- Работать коллективно.

Совершенствовать умение работать с бумагой: сгибать лист вчетверо в разных направлениях; работать по готовой выкройке (шапочка, лодочка, домик, кошелек). Учить создавать из бумаги объемные фигуры: делить квадратный лист на несколько равных частей, сглаживать сгибы, надрезать по сгибам (домик, корзинка, кубик). Продолжать учить делать игрушки, сувениры из природного материала (шишки, ветки, ягоды) и других материалов (катушки, проволока в цветной обмотке, пустые коробки и др.), прочно соединяя части.

Формировать умение самостоятельно делать игрушки для сюжетно-ролевых игр (флажки, сумочки, шапочки, салфетки и др.); сувениры для родителей, сотрудников детского сада; украшения на елку.

Привлекать к изготовлению пособий для занятий и самостоятельной деятельности (коробки, счетный материал), ремонту книг, настольно-печатных игр. Развивать творческое воображение, художественный вкус.

Учить детей экономно и рационально расходовать материалы.

**Подготовительная к школе групп. Конструирование.**

Формировать интерес к разнообразным зданиям и сооружениям (жилые дома, театры и др.).

Поощрять желание передавать их особенности в конструктивной деятельности. Учить видеть конструкцию объекта и анализировать ее основные части, их функциональное назначение.

Предлагать детям самостоятельно находить отдельные конструктивные решения на основе анализа существующих сооружений. Закреплять навыки коллективной работы: умение распределять обязанности, работать в соответствии с общим замыслом, не мешая друг другу.

**Конструирование из строительного материала.** Учить детей сооружать различные конструкции одного и того же объекта в соответствии с их назначением (мост для пешеходов, мост для транспорта). Учить определять, какие детали более всего подходят для постройки, как их целесообразнее скомбинировать. Продолжать развивать умение планировать процесс возведения постройки. Продолжать учить сооружать постройки, объединенные общей темой (улица, машины, дома).

**Конструирование из деталей конструкторов.** Познакомить детей с разнообразными пластмассовыми конструкторами. Учить создавать различные модели (здания, самолеты, поезда и т.д.) по рисунку, по словесной инструкции воспитателя, по собственному замыслу.

Познакомить детей с деревянным конструктором, детали которого крепятся штифтами. Учить создавать различные конструкции (мебель, машины) по рисунку и по словесной инструкции воспитателя.

Учить создавать конструкции, объединенные общей темой (детская площадка, стоянка машин и др.).

Учить разбирать конструкции при помощи скобы и киянки (в пластмассовых конструкторах).

**К концу года дети должны уметь**

- Соотносить конструкцию предмета с его назначением.
- Создавать различные конструкции одного и того же объекта.
- Создавать модели из пластмассового и деревянного конструкторов по рисунку и словесной инструкции.

**Работа с бумагой и картоном.** Продолжать учить складывать бумагу прямоугольной, квадратной, круглой формы в разных направлениях (пилотка); использовать разную по фактуре бумагу, делать разметку с помощью шаблона; создавать игрушки-забавы (мишка-физкультурник, клюющий петушок и др.).

Учить создавать предметы из полосок цветной бумаги (коврик, дорожка, закладка), подбирать цвета и их оттенки при изготовлении игрушек, сувениров, деталей костюмов и украшений к праздникам.

Формировать умение использовать образец.

Учить детей создавать разнообразные объемные игрушки в технике оригами. **Работа с тканью.** Учить вдвигать нитку в иголку, завязывать узелок; пришивать пуговицу, вешалку; шить простейшие изделия (мешочек для семян, фартучек для кукол, игольница) швом «вперед иголку». Учить детей делать аппликацию, используя кусочки ткани разнообразной фактуры (шелк для бабочки, байка для зайчика и т. д.), наносить контур с помощью мелка и вырезать в соответствии с задуманным сюжетом.

**Работа с природным материалом.** Учить создавать фигуры людей, животных, птиц из желудей, шишек, косточек, травы, веток, корней и других материалов, передавать выразительность образа, создавать общие композиции («Лесная поляна», «Сказочные герои»).

*Литература.*

1. Людмила Куцакова. *Конструирование и ручной труд в детском саду. Программа и методические рекомендации»: мозаика-синтез; Москва; 2010 г.*

2. Жумаев М. *Болаларда бошланғич математик тушуналарни ривожлантириши назарияси ва методикаси. Тошкент. Илм Зиё. 2017 йил 15 б.т.*

## **BOSHLANG'ICH SINFLDA ONA TILI DARSLARINI INTEGRATSIYALASH IMKONIYATLARI**

**Y. Po'lotova, BuxDU o'qituvchisi  
Sayyora Karimova, BuxDU talabasi**

*Maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida integratsiyalash muammolarining tahlili va ona tili o'qitishning hozirgi metodikasi va unga oid pedagogik imkoniyatlar.*

**Kalit so'zlar:** *boshlang'ich ta'lim, ona til, integratsiya, axborot, vosita, ijodiy faoliyat, ijod, nutq.*

*В статье анализируются проблемы интеграции на уроках родного языка в начальной школе и современные методы обучения родному языку и его педагогические возможности.*

*The article analyzes the problems of integration in the lessons of the native language of the primary school and the current methodology of teaching the native language and its pedagogical possibilities.*

Boshlang'ich ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining mustaqil, shu bilan birga, o'ta murakkab tarkibiy qismidir. Avvalo, boshlang'ich ta'lim uzluksiz ta'limning dastlabki bo'g'inidir. U o'ziga yarasha dastur, darslik, o'quv qo'llanmalariga ega. Boshlang'ich sinflarda alohida tayyorgarlikdan o'tgan o'qituvchilar ishlaydi. Boshlang'ich ta'lim muammolarini tahlil va tadqiq ishlari bilan mutaxassis olimlar shug'ullanadi. Boshlang'ich sinf ona tili predmeti funksiyalari tarkibini bilmasdan ona tili predmeti va ona tili darsliklari tushunchalarini chegaralamasdan turib, ona tili ta'limini ijodiy mashq to'g'risida fikr yuritish amri maholdir. Muhokamani o'zbek tilshunosligi va ona tili predmeti va ona tili darsliklari tushunchalarini o'zaro taqqoslab tavsiflashdan boshlaymiz. Har bir ta'lim standarti o'zigagina xos mazmunga ega. Masalan, shaxs va narsalarning nomini bildirgan so'zlar ot deyiladi. Bu ta'rif ot-so'z turkumiga oid so'zlarni boshqa kategoriyalardan farq qilish uchun ishlatiladi. Shu bilan birga ta'lim standartlari nisbatan pedagogik hodisa bo'lib, ular fan, ishlab chiqarish, fikrlash shakllari, texnika va texnologiyada sezilarli o'zgarishlar bo'lgunga qadar o'z turg'unligini saqlaydi. Ta'lim standartlari tanlanadi. Ularni ko'paytirish va, aksincha, ozaytirish, sanash mumkin.

Boshlang'ich sinflarda ona tilidan ta'lim standartlari. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitishning hozirgi metodikasi va unga oid pedagogik amaliyot bolalar xotirasiga mo'ljallanganligi hech kimga sir emas. O'quvchi o'rganilgan ta'rif, qoida, aniqliklarni yodlab olib, ularni misollar bilan tushuntira olsa, ta'limdan ko'zlangan maqsad amalga oshdi deb oylashadi. Xotiraga mo'ljallangan an'anaviy ta'lim tizimi o'quvchining ongi, tafakkuri, uning ichki olami-qiziqishi, emotsiya, motivlariga yetarli ta'sir qila olmaydi. Natijada bolaning faolligi, mustaqilligi, tashabbuskorligi, binobarin, ijodkorligiga yetarli e'tibor qilinmaydi. O'quvchining an'anaviy ta'lim sharoitidagi maqomi-bolaning ta'lim jarayoni obyektini ekanligi to'g'risidagi qarashlar o'qituvchini ham, o'quvchini ham qabul qilgan qoidalar chegarasidan chiqarilmasdan iskanjada saqlab turadi.

O'quvchini ta'lim jarayoni subyektini funksiyasida ishtirok ettirish, til ta'limining amaliy yo'nalishini kuchaytirish, ta'limga interfaol usullarni olib kirish ona tili ta'limi mazmunini o'quv topshiriqlari, muammolari, testlar tizimi shakliga keltirish, ona tilidan o'zlashtiriladigan obyektlarni-nutq tovushi, so'z, turli sintaktik qurilmalarni faol fikrlash vositasiga aylantirish orqali ona tili ta'limining ijodiy yo'nalishini kuchaytirish mumkin. Ona tili ta'limining ijodiy yo'nalishini amalga oshirishda ta'lim standartlari o'lchov vazifasini bajaradi.

Boshlang'ich sinflarda ona tili sohasida ta'lim mazmuni quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- nutq tovushlari: unli va undosh, jarangli va jarangsiz tovushlar;
  - bo'g'in: urg'uli va urg'usiz bo'g'inlar, ochiq va yopiq bo'g'inlar, aytilgan yoki berilgan so'zlarni fonetik tahlil qilish;
  - so'z: so'z ma'nolari, ma'nodosh so'zlar, qarama-qarshi ma'noli so'zlar;
  - o'zakdosh so'z, o'zak, negiz, qo'shimcha, old qo'shimcha, so'z turkumlari tahlili, so'z yasovchi qo'shimchalar, predmet nomi qo'shimchasi, predmetning rang-tusini bildirgan so'zlar, predmetning miqdori va son-sanog'ini bildirgan so'zlar, ish-harakatni ifodalovchi so'zlar;
  - ko'makchi va bog'lovchilar;
  - gap: darak ma'nosini ifodalovchi gaplar, so'roq ma'nosini ifodalovchi gaplar, his-hayajon ifodalovchi gaplar;
  - tinish belgilari: nuqta, so'roq, undov, vergul;
  - matn; matnning tuzilishi, mavzu, asosiy fikr, sarlavha, reja, so'zboshi, taqqoslash, dialog, monolog, bayon, insho, og'zaki va yozma ijodiyot, xat, xabar, tabriknoma.
- Boshlang'ich sinflarda ona tili mazmuni quyidagicha o'zlashtiriladi.

-Ona tilidan elementar bilimlarni o'rganish. O'quvchilar nutq tovushi va harf to'g'risidagi dastlabki bilimlarni, unli va undosh tovush, jarangli va jarangsiz undosh, bo'g'in, ochiq va yopiq bo'g'in, bo'g'in ko'chirish qoidalariga oid axborotlarni o'rganadi. Shuningdek, so'z va uning ma'nolarini farqlashga oid, so'z ma'nolari va so'roqlariga ko'ra guruhlash-ot, sifat, son, fe'l, bog'lovchi so'zlar haqida ilk qarashlarni bilib oladi.

-Ona tilidan ilk ilmiy axborotlarni o'zlashtirish nutq ko'nikmalarini shakllantirish bilan uzviy aloqadorlikda davom ettiriladi. Ona tilida aytish va aytganlarni yozma nutq vositasida qayd etish, gapirish va eshitish, fikrni nutq vositasida ro'yobga chiqarish ehtiyoji o'quvchilarda turli nutq ko'nikmalarini shakllantirish, ularni malaka darajasiga ko'tarish imkoniyatlarini yuzaga chiqaradi. Boshlang'ich sinflarning ona tili o'quv predmeti bo'yicha hosil qilinadigan ko'nikma-malakalar quyidagi guruhlarga ajratib tahlil qilinadi.

1. Fonematik eshitish malakalari-nutq tovushini so'z tarkibida to'g'ri ijro etish va eshitish, nutq tovushlariga ko'ra so'z ma'nolarini farqlash, urg'uli va urg'usiz bo'g'inlarni talaffuz qilish, so'zlarni bo'g'inlar ketma-ketligida aytish va eshitish layoqatlari.

2. Grafik malakalar-har bir nutq tovushini o'ziga oid harf va belgilar bilan yozish demak.

3. Orfografik malakalar-so'z va uning tarkibiy qismlari o'zak va negizni, yasovchi, turlovchi, tuslovchi qo'shimchalarni ajratib va qo'shib yoziladigan so'z, so'z birikmalarini, atoqli otlarni orfografik qoidalar doirasida yozish.

-Ijodiy faoliyat tajribasini rivojlantirish. Bola ona tili vositasida ham ijtimoiy tajribani, ham ijtimoiy tajribani o'zlashtirish vositalarini egallaydi. Shu hodisani inobatga olib, didaktikada keyingi yillarda yangi bir yo'nalish asoslandi. Bu yo'nalishga ko'ra ma'lumot va ta'lim mazmunining manbai sifatida ijtimoiy tajriba tahlil qilina boshlandi.

Bilim, malaka va faoliyat usullariga munosabat bildirish, bilish jarayoni natijasini jarayonning o'zidan ajratib tahlil qilish, o'rganilgan va tahlil qilingan narsa-hodisalarni baholash, o'rganilgan va endi o'rganiladigan hodisalar o'rtasidagi chegarani anglash, o'zlashtirish va hali bilib olinmagan narsalarning farqiga borish o'quvchilarni ta'lim sharoitidagi ijodkorlikka etaklaydi. «Ijod, o'z navbatida, kompleks hodisa bo'lib, u fikrlashning taraqqiyot darajasiga ham, tafakkurning evristik-topqirlik layoqatiga ham, avlodlar faoliyatidagi vorislikka bog'liq.

Yuqorida izohlangan yo'nalishlarga rioya qilib, boshlang'ich sinf ona tili ta'limi mazmunini ijodiy o'zlashtirish jarayonini boshqarish mumkin. Buning uchun boshlang'ich sinf ona tili predmeti mazmunini tahlil qilishga ehtiyoj tug'iladi.

#### **Adabiyotlar**

1. Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Ped. fanl. dokt. ilm. daraj. olish uchun yozilgan diss. –T.: 2003. -280 b.

2. Adizov B.R. Ijodiy ta'lim jarayoniga tizimli yondashuv. // «Xalq ta'limi» jurnali. -2001. 4-son. -102-104-b.

Fuzailov S., Xudoyberganova M. Ona tili. 3-sinf uchun darslik. –T.: O'qituvchi, 2017. -160 b.

3. O'zbek maktablarida ona tili ta'limi Konsepsiyasi // «Til va adabiyot ta'limi» jurnali. 2009. 1-2- qo'shma sonlar.

4. Qosimova K. 3-sinf ona tili o'qitish metodikasi. –T.: «O'qituvchi», 2009. -215 b.

5. Qosimova K., Fuzailov S., Ne'matov A. Ona tili. 2-sinf uchun darslik. –T.: CHO'lpon, 2018. -111 b.

6. Y.A. Po'lotova. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida bolalar nasrini o'qitish metodikasi. GlobeEdit. 2020.

## **BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI VA O'QISH DARSLARIDA AXBOROT-RESURSLARNING INTEGRATSIYASINI TA'MINLASH-METODIK MUAMMO SIFATIDA**

**Y. Po'lotova, BuxDU o'qituvchisi**

*Maqolada boshlang'ich sinf ona tili va o'qish darslarini integratsiyalashning metodik imkoniyatlari xususida fikr yuritilgan. Jumladan, «O'qish kitobi» darsliklarida berilgan matnlar boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq ko'nikmalarini shakllantirishda vosita hisoblanadi.*

**Kalit so'zlar:** ona tili, o'qish, integratsiya, til, nutq, lingvistik kompetensiya, o'qituvchi, o'quvchi.

Jahon bilan bo'ylashayotgan O'zbekiston Respublikasining ta'lim siyosatining mazmun-mohiyati ham "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topish"

lariga qaratilgan, jumladan, ona tili va adabiyoti fani o'qituvchilari oldiga ona tilini sevadigan, qadrlaydigan, uning boyligi, go'zalligi va betakrorligini his etadigan, lingvistik va nutqiy bilim, malaka va ko'nikmalari hamda layoqatlari yetuk o'quvchilarni tarbiyalashdek muhim vazifa qo'yilgan. Bu badiiy matnlar tahlili asosida o'quvchilarda hayotiy ehtiyojga aylangan pragmatik kompetensiyalarni rivojlantirish va takomillashtirish masalalari tadqiqi dolzarb ekanligini ko'rsatadi.

Ona tili fanidan davlat ta'lim standartlari – DTSning malaka talablari bo'yicha o'quvchi shaxsida shakllantirilajak o'z-o'zini jismoniy, ma'naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish; kamolotga intilish, mustaqil o'qib-o'rganish; nutqiy kommunikativ kompetensiyasini muntazam oshirib borish; o'z bilimi, xatti-harakatini baholash va mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyasini egallash, til imkoniyatlaridan foydalangan holda fikrni to'g'ri, ravon bayon eta olish qobiliyatini rivojlantirish kabi me'yorlarga alohida e'tibor qaratilgan.

Har bir davlatning ta'lim sohasida bolalarda nutq o'stirish tizimining asosiy tarkibiy elementi sifatida e'tirof etilgan. O'zbekistonda ham uzluksiz ta'limning dastlabki bosqichlari – maktabgacha va boshlang'ich ta'lim davrida bolalarda nutqni o'stirish pedagogik jarayonning muhim yo'nalishi etib belgilangan. Global axborotlashuv va innovatsion ta'lim muhitining shakllanishi, inson kapitalini rivojlantirishga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojning ortishi yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish, intellektual jihatdan rivojlantirish, bunda nutq imkoniyatlaridan foydalanishni taqozo etmoqda.

«Integratsiya» so'zi lotincha integratio — tiklash, to'ldirish, «integer» — butun so'zidan kelib chiqqan. Bu borada ikki tushunchaga egamiz:

1. Tizim, organizmning alohida tabaqalashtirilgan qism va vazifalarning bog'liqlik holatini bildiruvchi tushuncha va shu holatga olib boruvchi jarayon.

2. Tabaqalashtirish jarayonlari bilan birga amalga oshirilayotgan fanlarni yaqinlashtirish jarayoni. Integrativ yondashish turli darajadagi tizimli aloqalarning ob'ektiv yaxlitligini aks ettiradi. Integratsiya ilgari bo'lingan qismlarni bir butunga birlashtirish bilan bog'liq. Integratsiyalash mobaynida bir-biriga bog'liqlik hajmi oshadi va tartibga tushadi, shu tizim qismlarning ishlashi va o'rganish obektining yaxlitligi tartibga solinadi. Bu umumiy qoidalarni qanday qilib maktab ta'limida qo'llash mumkin?

Ta'limdagi integratsiya o'quv fanlari mazmunini konstruksiyalashga tizimli yondashish orqali ko'rib chiqiladi. Integratsiyaning turli darajalari ajratiladi: boshlang'ich, bilimlarni birlashtirish; oraliq - fanlar bo'limlarini bo'lish integratsiyasi.

Shaxs nutqini o'stirishda maktabgacha va boshlang'ich ta'lim bosqichlari boshlang'ich davr bo'lishi inobatga olinsa, ularning takomillashtirilishi, “boshlang'ich ta'lim mazmunini to'liq integrallashtirish, mazkur mazmunda ta'lim-tarbiya elementlari uyg'unligini ta'minlash” ning naqadar dolzarb ahamiyatga egaligini ko'rsatadi.

“Nutq”, “nutq o'stirish”, “matn ustida ishlash”, “matn ustida ishlash orqali nutq o'stirish”, “boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash orqali nutq o'stirish” kabilar muhim tayanch tushunchalaridir. Ularning mohiyatini yetarlicha anglash muammoning to'g'ri, oqilona yechimini topishga imkon beradi.

Nazariy tahlil “nutq” tushunchasiga mavjud tilshunoslik, pedagogik, psixologik hamda metodik adabiyotlarda turlicha izohlar berilganligini ko'rsatdi. Xususan, “Pedagogik ensiklopedik lug'at”da nutq “insonlarning til vositasida amalga oshiriladigan muloqot (kommunikatsiya) shakli bo'lib, u fikrni ifodalash vositasi bo'lishi bilan birga fikrlashning asosiy mexanizmi”, “O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi”da nutq deganda uning og'zaki (ovozli) va yozma ravishda namoyon bo'lishidagi jarayonlar, ya'ni so'zlash jarayoni va uning natijasi (xotirada saqlangan yoki yozuvda qayd etilgan nutqiy fikrlar, asarlar)”, deya e'tirof etiladi. Psixologlar tomonidan nutq “odam tomonidan ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirish va avlodlarga berish yoki o'zaro aloqa o'rnatish yoki o'z harakatlarini rejalashtirish maqsadida tildan foydalanish jarayoni”, deb ta'riflangan. Metodik olimlar tomonidan nutq “kishi faoliyatining turi, til vositalari (so'z, so'z birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solish” sifatida ham talqin etilgan. Bir so'z bilan aytganda, nutq ijtimoiy sub'ektlarning til vositasida amalga oshiriladigan faoliyat turidir.

Nutqda quyidagi xususiyatlar namoyon bo'ladi:

1) fikrni bayon etish ehtiyojini amalga oshirishga qaratiladi, tugallangan mavzuni ifodalaydi, logik va grammatik qoidalar asosida tuziladi, mustaqil, tugallangan, o'zaro bog'langan ma'noli qismlarga bo'linadi (u bog'lanishli nutq deb ataladi);

2) og'zaki va yozma shaklda ifodalanadi;

3) og'zaki va yozma nutqni rivojlantirish yagona jarayonda kechadi;

4) shunga qaramay, og'zaki va yozma nutq orasida jiddiy tafavutlar mavjud (ular haqida ishning keyingi bobida batafsil so'z yuritiladi);

5) nutq muloqot chog'ida ishtirok etuvchilarning soniga ko'ra dialogik va monologik kabi turlarga bo'linadi;

6) dialog og'zaki nutqning keng tarqalgan turlaridan, nutqiy muloqotning tabiiy shakllaridan biri bo'lib, ikki yoki bir necha shaxs o'rtasida kechadi;

7) og'zaki nutq, tabiatiga ko'ra, ko'proq suhbat shaklida yuzaga keladi;

8) nutqning juda muhim shakllaridan biri sanaladigan monolog dialogga nisbatan mazmuni ifodalash uchun til vositalarini tanlash, nutqning qurilishiga ko'ra bir qadar an'anaviylikka ega.

«O'qish kitobi» darsliklarida berilgan matnlar boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq ko'nikmalarini shakllantirishda vosita hisoblanadi. Boshlang'ich sinflarda o'qish darslarining asosiy maqsadi o'quvchilarni matn mazmunini to'g'ri tushunish, ongli va ifodali o'qiy olish, matnda berilgan axborotni idrok qilish, matnda ifodalangan voqelikka nisbatan munosabat bildirishga tayyorlashdir. Shunga ko'ra, boshlang'ich sinf o'qituvchisi metodik tayyorgarlikni darsning maqsadi, o'rganilayotgan materialning mazmuni, o'quvchilarning mavjud bilim, ko'nikma, malakalari darajasiga ko'ra amalga oshiradi. O'quvchilarni asar matnini o'qishga tayyorlashda, birinchi navbatda, ularni matn mavzusi, tili, g'oyaviy mazmuni va badiiy-estetik qiymati bilan tanishtirish, matn mazmunidan tegishli xulosa chiqarishga e'tibor qaratiladi. O'qish faoliyati ham nutqning alohida ko'rinishi hisoblanadi.

O'quvchining o'z fikrini qanchalik mazmunli, aniq va to'g'ri ifodalay olishi uning o'quv-bilish faolligi darajasini, ko'nikma va malakalarini aniqlashga imkon beradi. O'qish darslarida matnni idrok qilish va mazmun-mohiyatini o'zlashtirish yuzasidan qo'yilgan savol va topshiriqlar o'quvchilarni o'ylashga majbur qilishi, javob berishda muallif qo'llagan iboralardan, badiiy tasvir vositalaridan foydalanishga qaratilishi, nutqda ko'proq o'zi uchun yangi so'z va iboralarni ishlatishga undashi lozim.

Matnni o'qish ko'nikmasiga egalik, o'z navbatida, o'quvchi nutqini boyituvchi muhim omillardan biri sanaladi.

O'qitishning mustaqil qismi bo'lgan har qanday dars ta'limiy, rivojlantiruvchi va tarbiyaviy maqsadni amalga oshirishga xizmat qiladi. Har qanday darsning umumiy maqsadi "o'quvchilarga bilim berish va ular olgan bilimni amalda qo'llay oladigan darajaga yetkazishga erishish, har bir o'quvchida komil shaxsga xos fazilatlarini shakllantirishdir.

Boshlang'ich ta'limga oid "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari"da "O'qish" darslari oldiga qo'yiladigan didaktik talablar o'quvchilar e'tibori nimani o'rganish va nimani esda saqlab qolish kerak ekanligiga qaratilishidan boshlanadi.

Matn ustida ishlash orqali o'quvchilarni ijodiy, mustaqil va mantiqiy mushohada yuritishga, matnni tahlil qilish va unga o'z munosabatini bildira olishga o'rgatish o'qituvchidan katta mahorat talab etadi.

7-9 yoshdagi bolalarda "yozma nutq ham shakllana boshlaydi... Yozma nutqni egallashi asosida ularda turli matnlar haqida ma'lumotlar yuzaga keladi. Bu davrda yozma nutq endigina shakllana boshlaganligi bois, bolalarda hali o'zi yozgan fikrlarni, so'z va harflarni nazorat etish ko'nikmasi yetarlicha rivojlanmagan bo'ladi. Shu bilan bir qatorda, unga ijod qilish imkoniyati beriladi. Mustaqil ijodiy ishlar boshlang'ich sinf o'quvchilarida berilgan mavzuni anglash, uning mazmunini aniqlash, fikrini bayon etish uchun ma'lumot to'plash, muhim jihatlarini ajratib olish, uni ma'lum ketma-ketlikda amalga oshirish, reja tuzish ko'nikmasini hosil qiladi. Jumalarni to'g'ri tuzish, aynan shu mazmunga mos so'zlarni topish va ularni to'g'ri yozish, tinish belgilarini to'g'ri qo'yish, o'z holatlarini topa olish va to'g'rilash aqliy rivojlanishning ko'rsatkichlaridan hisoblanadi".

Ma'lumki, nutqda insonning fikrlari bilan birgalikda his-tuyg'ulari ham ifodalanadi. Boshlang'ich sinflarning "O'qish kitobi" darsliklarida keltirilgan badiiy matn namunalarini o'rganish orqali o'quvchilar ushbu jihatni ham o'zlashtiradilar. Badiiy matn badiiy asar mazmunini ifodalagan, funksional jihatdan tugallangan, tilning tasviriy imkoniyatlari asosida shakllangan, o'zida turli uslub ko'rinishlarini muallifning badiiy niyatiga ko'ra erkin jamlay oladigan, tinglovchi yoki o'quvchiga estetik zavq berish, ta'sir etish xususiyatiga ega bo'lgan g'oyat murakkab butunlik hisoblanadi. Shunday ekan, badiiy matn ustida ishlashda nutq o'stirish uchun keng imkoniyatlar mavjud.

Tadqiqotni olib borish davrida, shuningdek, boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash orqali nutq o'stirish jarayonida ustuvor bo'lgan tamoyillar ham aniqlandi.

1. Yosh xususiyatlarini inobatga olish tamoyili. Mazkur tamoyil matn ustida ishlash jarayonini tashkil etish, o'quv topshiriqlarini shakllantirish, o'quvchilarga individual topshiriq berishda ularning yosh xususiyatlariga tayanib ish ko'rish maqsadga muvofiq ekanligini anglatadi. O'quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olish: ularni ruhan, jismonan toliqishlarining oldini oladi; matn bilan ishlashning samarali kechishini ta'minlaydi; vaqtni tejaydi; o'quv maqsadiga erishishga imkon beradi.

2. Amaliy-faoliyatli yondashuv tamoyili. Ushbu tamoyil boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn bilan ishlash jarayoni, o'quv topshiriqlarining amaliy mashq, o'yin metodlariga asoslanishini ifodalaydi.

O'quvchilar tomonidan mashqlarni bajarishda o'qish va yozish (ifodali o'qish, matn mazmunini aytib berish, reja tuzish, lug'at bilan ishlash, matn ustida mustaqil ishlash)ga oid amaliy harakatlarning tizimli, izchil tashkil etilayotgan faoliyat negizida amalga oshiriladi.

3. Hissiy-estetik yondashuv tamoyili. Bu tamoyil boshlang'ich sinflar uchun mo'ljallangan va "O'qish kitobi" darsligiga kiritilgan matnlarning o'quvchilarda hissiy kechinmalarni uyg'otish, ularni estetik jihatdan zavqlantirishga xizmat qilishini tavsiflaydi. O'quvchilarda hissiy kechinmalarning uyg'onishi, estetik zavqning yuzaga kelishi ularda hissiyotni, borliqqa ijobiy munosabatni, estetik didni tarbiyalaydi.

4. Tizimlilik va davomiylik tamoyili. Mazkur tamoyil boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlashdan iborat o'quv-bilish faoliyatining tizimli va davomli kechishini anglatadi. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida dastlab kichik hajmli, o'quvchilarning kundalik faoliyatida uchraydigan, ular uchun yaxshi tanish bo'lgan mavzulardagi matnlardan foydalanilsa, asta-sekin tadrijiy (evolyusion) rivojlanish asosida ularni yangi bilimlar bilan tanishtirish, nutqni yangi so'zlar bilan boyitishga imkon beradigan matnlarga murojaat qilinadi.

5. Badiiylik va ifodaviylik tamoyili. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn bilan ishlashda o'rganilayotgan matnlar badiiy qimmatga ega bo'lib, o'quvchilarda kitobga, kitob o'qishga bo'lgan qiziqish va motivatsiyalarni rivojlantiradi. O'qituvchining dars jarayonidagi vazifasi matnning ifodali o'qitilishini ta'minlash bo'lib, o'quvchilarning urg'uni to'g'ri qo'yish, yarim va to'la to'xtalishlarga rioya qilish, nutq sur'ati va ohangiga e'tibor berish malakalariga ega bo'lishlariga olib keladi.

6. Interfaollik va onglilik tamoyili. O'z mohiyatiga ko'ra interfaollik tamoyili zamonaviy darslarda bo'lgani kabi boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn bilan ishlashga qaratilgan o'quv-bilish faoliyatining kichik guruhlarda tashkil etilishi, o'quvchining individual faoliyati kichik guruhlar faoliyati doirasida kechishini anglatishga xizmat qiladi. Unga ko'ra o'quv topshiriqlari kichik guruhlarda, o'quvchilarning o'zaro, birgalikdagi harakatlari asosida bajariladi. Birgalikda o'quv topshiriqlarini bajarishda o'qituvchi har bir o'quvchining faol bo'lishini ta'minlay olishi zarur. O'rganilayotgan matn yuzasidan har bir o'quvchining mustaqil ravishda hech bo'lmaganda birgina g'oyani bildirishini ta'minlash ularda sekin-asta erkin, ijodiy, tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun zamin yaratadi.

Onglilik tamoyili har bir o'quvchi tomonidan matnga nisbatan ijodiy yondashilishini, uning mazmunini yetarlicha, to'g'ri tushunilishini, berilayotgan topshiriq, savollarga fikrlash, mulohaza yuritish asosida yondashilishini ifodalaydi. O'quvchilarning matnni o'qish, uning mazmunini anglashga nisbatan ongli munosabatlari o'quv-bilish jarayonida ularda matnda ifodalangan voqelikka nisbatan turli savollarning tug'ilishida yaqqol aks etadi. O'quvchilar tomonidan "Nima uchun?", "Nega shunday?", "... bo'lganda-chi, nima bo'lgan bo'lardi?", "Nega shunday bo'lgan?" kabi o'nlab savollarning berilishi ularning matn mazmunini chuqur o'zlashtirayotganidan dalolat beradi.

7. Ko'rsatmalilik tamoyili. Psixologik nuqtai nazardan boshlang'ich sinf o'quvchilari bilimlarni obrazli qabul qiladi. Dars jarayonida ko'rsatmali vositalardan foydalanish esa ularning tasavvurlari aniq bo'lishini ta'minlaydi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn bilan ishlashda ko'rsatmali vositalardan foydalanish o'quvchilarning tasavvurini yanada boyitishga, dunyoqarashini kengaytirishga yordam beradi.

Boshlang'ich sinflarda ko'rsatmalilik sifatida "Alifbe", "O'qish kitobi", "Ona tili" darsliklarida berilgan suratlardan, tabiiy ob'ektlar (tabiat manzarasi, inshootlar, buyumlar, jihozlar va hok.), turli mavjudotlar (o'simliklar, qushlar, hayvonlar), shaxslarning xatti-harakatlari (namunali xulqi, odobi, yurish-turishi, hayotiy tajribasi)dan foydalanish mumkin.

8. Ko'p variantlilik tamoyili. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn bilan ishlash orqali o'quvchilar nutqining o'sganlik darajasini aniqlashda o'quv va test topshiriqlaridan foydalanish samarali natijalar beradi. O'quv hamda test topshiriqlarining ko'p variantli bo'lishi esa o'quvchilarda mantiqiy fikrlash, tahlil qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

9. Fanlararo aloqadorlik tamoyili. Boshlang'ich sinflarda matn bilan ishlashda "O'qish" va "Ona tili" darslari o'rtasida o'zaro aloqadorlik yuzaga keladi. Zero, o'quvchilar "Ona tili" darsida og'zaki va yozma nutqni ifodalash qoidalari bilan tanishtirilsa, "O'qish" darslarida ushbu qoidalarga muvofiq matnni ifodali o'qish, uni yozma yoki og'zaki bayon qilish, lug'at ustida ishlash, matn ustida mustaqil ishlashga oid amaliy harakatlar tashkil etiladi.

10. Hamkorlik tamoyili. Mazkur tamoyil hamkorlikning o'qituvchi-o'quvchi, o'qituvchi-o'quvchilar guruhi, o'quvchi-o'quvchilar guruhi o'rtasida kechishini anglatadi. O'qituvchi matn bilan ishlashning dastlabki bosqichida har bir o'quvchiga doimiy ravishda metodik yordam ko'rsatadi. Keyinchalik esa o'qituvchining metodik yordami zarur vaziyatlarda beriladi. 2-sinfdan boshlab o'quvchi

va o'quvchilar jamoasi (kichik guruhlar) o'rtasidagi hamkorlik doimiylik kasb etadi va o'quv topshiriqlari birgalikda, o'zaro hamkorlik asosida bajariladi.

Hikoya va suhbat mohirona birlashtirilsa, darsning maqsad hamda vazifalarini amalga oshirish ham osonlashadi. Kuzatishlar o'quvchilarni o'qishga tayyorlashning ham o'ziga xos muammolari mavjudligini ko'rsatdi. Ayrim o'qituvchilar kirish suhbatini hajmini oshirib yuboradilar, tayyorgarlik ishiga 10-15 daqiqa vaqt ajratadilar, savollarni tartibsiz qalashtirib tashlaydilar. O'qish darslarida bevosita matnni o'qish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa ishlarni hisobga olganda, darsning katta qismi gap bilan o'tib ketadi. Binobarin, 30-35 daqiqa vaqt o'qishga ajratilishi lozim.

Suhbat va hikoyaning o'rinli hamda maqsadga muvofiqligi, savollar miqdori, ularning mazmuni va qo'yilish mantiqi, hikoya hajmi o'qituvchining diqqat markazida bo'lishi kerak. Odatda, o'quvchilarning hayotiy tajribasiga yaqin mavzularni o'qishda ko'pincha suhbatga zarurat sezilmaydi. Biroq o'qituvchining o'quvchilarni mavzuga yo'naltiruvchi kirish so'zi, albatta, zarur. Busiz o'quvchilarning asarni to'laonli idrok qilishlariga erishish mushkul.

Tarixiy mavzuga oid hikoyalarni o'qish oldidan o'qituvchi o'quvchilarning Vatan tarixi va uning shonli o'tmishidagi buyuk siymolar haqidagi bilimlarini aniqlaydi.

She'riy matnlarni o'qishdan oldingi tayyorgarlik ishlari ancha murakkab. Lirik asarlarni yaxlit idrok etish vazifasi shoir ruhiyatiga hamohang kayfiyat yaratish, o'quvchilarning shoir bilan birga quvonish, hayratlanish, qayg'urish tuyg'usiga turtki berishdir. Bunda o'qituvchining

kirish so'zi qisqa, maqsadga yo'naltirilgan hamda shoir dunyosiga kirishga ko'maklashadigan bo'lishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'qituvchining kirish so'zi matnni o'qish oldidan tayyorgarlikning yetakchi bo'g'inlaridan biri bo'lib, ma'naviy-axloqiy tarbiya samaradorligi ko'p jihatdan uning to'g'ri uyushtirilishiga bog'liqdir.

#### **Adabiyotlar**

1. Mirziyoev Sh.M. O'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchilik timsoli, bebaho ma'naviy boylik, buyuk qadriyatdir // <https://religions.uz/news/detail?id=1227>
2. Boshlang'ich ta'lim Konsepsiyasi / Mualliflar: Q.A.Abdullaeva, R.G'.Safarova, M.O.Ochilov, K.N.Nazarov, N.U.Bikbaeva, M.A.Zaynitdinova // Boshlang'ich ta'lim j. – T.: 1998. № 6. – 12-18-b.
3. Safarova R., Musaev U., Musaev P., Yusupova F., Nurjanova R. O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim strategiyasi muammolari va ta'lim mazmunining yangi modellari, ularni tatbiq etish yo'llari. – T.: Fan, 2005. – 85-86-b.
4. Pedagogicheskiy ensiklopedicheskiy slovar / Gl. red. B.M. Bim-Bad. 3-ye izdanie, stereotipnoe. – M.: Bolshaya Rossiyskaya ensiklopediya, 2009. – 528 s.
5. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi / Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabalari uchun darslik. – T.: Noshir, 2009. – 352 b.
6. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – T.: Fan, 2008. – 160 b.
7. Usmonov S. Boshlang'ich sinflarda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishning pedagogik asoslari: Ped. fanl. nomz..... diss. avtoref. – T.: 2004. – 24 b.

### **BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH DARSLARIDA ILG'OR PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

**Zarina Homitova,**

*BuxDU Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi III kurs talabasi*

**Ilmiy rahbar: f.f.f.d.(PhD) dotsent M. Ro'ziyeva**

O'qish darslariga noan'anaviy darslarni olib kirish va uni ta'lim mazmuniga singdirish, dars o'tishning yangi-yangi usullarini topish Davlat ta'lim standartlari talablarini bajarishga zamin yaratadi. Inson shaxsini har tomonlama kamol toptirish, o'sib kelayotgan yosh avlodda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini uyg'otishda, milliy tilga, o'z xalqining an'alariga iftixor hissini kamol toptirishda o'qish darslarining o'rni beqiyosdir. Shunday ekan, biz ham o'z darslarimizni tashkil etishda aynan shu maqsadlarni ko'zlagan holda ish olib borishimiz lozim.

Ilg'or pedagogik va axborot kommunikatsiya pedagogik texnologiyalar ta'lim mazmuniga zamonaviy ruhni singdirdi. Darhaqiqat, o'quv jarayoniga yangi axborot va pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, bolalarimizni komil insonlar etib tarbiyalashda jonbozlik ko'rsatadigan o'qituvchilarga e'tiborimizni yanada oshirish, qisqacha aytganda, ta'lim-tarbiya tizimini sifat jihatidan butunlay yangi bosqichga ko'tarish diqqatimiz markazida bo'lishi darkor.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Ilg'or pedagogik texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar, o'quvchilar egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi.

Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovatsion jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o'zlashtirish va o'zlashtirgan bilimlarini o'zlari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak.

Pedagogik texnologiya va ularning ta'limda qo'llanishiga oid bilimlar, o'quvchilarni bilimga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Innovatsiyalar quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi:

- yangi g'oyalari;
- tizim yoki faoliyat yo'nalishini o'zgartirishga qaratilgan aniq maqsadlar;
- noan'anaviy yondashuvlar;
- odatiy bo'lmagan tashabbuslar;
- ilg'or ish uslublari

Darsni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida o'qitish o'qituvchi va ta'lim oluvchilar ishini ancha osonlashtiradi. Xususan, boshlang'ich sinflarda fanlarni kompyuter vositalari asosida o'qitish quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- o'qituvchini takrorlanuvchi mehnatdan xalos etadi va uning vaqtini tejaydi;
- yaqqol tasvirlar natijasida o'quvchilarda fazoviy tasavvurlar shakllanadi;
- o'quvchilarning ish tartibini tez o'zlashtirishini ta'minlaydi;

-fanga oid nazariy ma'lumotlar ko'rgazmali vositalar (rangli tasvirlar, ularning fazoviy ko'rinishlari) yordamida tushuntiriladi va natijada o'quvchilarda ilmiy bilishga ehtiyoj ortadi;

Darslarda ilg'or pedagogika texnologiyalardan o'rinli foydalanib o'tilsa dars samaradorligi oshadi. Masalan, "Tez javob" o'yini, "Ishchanlik o'yini", "Guruhlarda ishlash", "Charxpalak", "Juftlikda ishlash", "Blits – so'rov", "Tushunchalar tahlili", "Sinkveyn", "Har kim har kimga o'rgatadi", "Tarmoqlar", "Aqliy hujum", "T-chizma", "Liderni top", "Birgalikda o'qiyamiz" kabi mashq va metodlar dars samaradorligining oshishiga zamin yaratadi.

**Insert" strategiyasi metodi.** Insert – bu o'quv jarayonida o'z anglashini faol kuzatish uchun o'quvchilarga imkoniyat beradigan kuchli vositadir.

**Maqsadi** – o'quvchilarni matnni oxirigacha o'qib, mazmuni anglab qayta hikoya qilishga o'rgatish.

**Vazifasi** – faol bo'lmagan o'quvchilarni darsga qatnashishlarini ta'minlash hamda qo'shimcha ma'lumotlarga ega bo'lish.

O'quvchi matnni "Insert" strategiyasi metodidan o'rganilganda quyidagi jadvaldan "Ko'kyol" hikoyasini o'tishda foydalanish mumkin.

O'quvchilar "Ko'kyol" hikoya mazmuni asosida individual tarzda o'z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Maxsus belgilar quyidagilardan iborat:

«B» – bu ma'lumotni bilaman

«?» – ushbu ma'lumotni tushunmadim

«+» – bu ma'lumot men uchun yangilik

«-» – mazkur ma'lumot yoki fikrga qarshiman

№	Ma'lumotlar	B»	?»	+»	-»
1.	O'rdak, g'ozlar «g'ag'a»- lashib bu joylarni qushlar bozoriga aylantirib yuboradi.	B»			
2.	Qopqonga chap bersa, miltiq bor joyga yo'lamasa, dorining hidini olsa, buning yo'li bor. Iziga tozi solamiz.			»	
3.	Yana nariroq yurgan edik, bir butaning tagida uchinchi yer tishlaganicha mukkasidan tushibdi...				-»
4.	Shishaning sirtiga yopishtirilgan oq qog'ozga odamning bosh suyagi, uning tagida ikkita ilik suyagining ayqashib turgan surati solingan.		?»		

O'quvchilar javoblari tinglanadi va xulosa qilinadi.

O'quvchilarga savollar bilan murojaat etiladi:

- Hikoya qahramonlari kimlar?
- Hikoya voqealari qaysi faslda sodir bo'lgan?
- Ovchilar nima uchun bo'rilarning ketiga tushishdi?
- Bo'rilar qanday vahshiylik qilishgan edi?
- Ovchilar qanday hiyla ishlatishdi?

O'quvchilar javoblari umumlashtiriladi.

Demak, dars jaryonida turli ilg'or pedagogika texnologiyallardan o'rinli foydalanilsa, ta'lim sifat samaradorligi oshadi.

## **BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI FAOLLASHTIRISHDA EVRISTIK METODLARINING IMKONIYATLARI**

**X.M.To'rayeva**

**Farg'ona viloyati Qo'shtepa tumani 49-umumta'lim maktabi Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi**

*Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini faollashtirishda evristik metodlarning imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, o'quvchilarga turli nuqtai nazarlardan turib voqelik haqida fikrlash va ularni tushunish layoqatini shakllantirish imkonini beradigan mashqlar bayon qilingan.*

*Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf o'quvchisi, faollik, evristik metodlar, mashqlar, pedagogik imkoniyatlar, loyihalash metodi, farazlarni ilgari surish metodi, bashorat qilish metodi, xatolar ustida ishlash metodi, nazariyalarni loyihalash metodi.*

*Аннотация. В данной статье анализируются возможности эвристических методов в активизации учающихся начальных классов. Также описаны упражнения, которые позволяют учащимся думать о реальности с разных точек зрения и развивают их способность к пониманию.*

*Ключевые слова: младший школьник, деятельность, эвристические методы, упражнения, педагогические возможности, метод проектирования, метод гипотез, метод прогнозирования, метод работы с ошибками, метод построения теории.*

*Annotation. This article analyzes the possibilities of heuristic methods in activating primary school students. Exercises are also described that allow students to think about reality from different perspectives and develop their ability to understand.*

*Keywords: elementary school student, activity, heuristic methods, exercises, pedagogical possibilities, design method, hypothesis method, prediction method, error work method, theory design method.*

Bugungi kunda mamlakatimizda izchil islohotlar natijasida yurt istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalash bilan bir qatorda umumiy o'rta ta'lim maktablarida boshlang'ich sinf o'quvchilarida tashabbuslarini to'g'ri yo'naltirgan holda ularning ijtimoiy faolligini oshirish jarayoni ko'lamini kengaytirish zarurati mavjud. Bu o'z navbatida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy faollikni rivojlantirishda evristik metodlarning pedagogik-psixologik imkoniyatlarini ko'rib chiqishni asoslaydi.

Evristik metodlar kognitiv metodlar bilan uyg'un tarzda qo'llaniladi. O'qitishning kognitiv metodlari ham evristik topshiriqlar kabi o'quvchini mustaqil ijodiy fikrlash, izlanishga undaydi. Bunday metodlar sirasiga: o'quvchilarni ijodiy faollikka undovchi metodlar; fikriy faoliyatga olib kiruvchi metodlar; o'quvchilarni obrazli hamda ramziy belgilar yordamida ishlashga jalb qiluvchi metodlar; evristik savollar bilan murojaat qilish metodi; qiyoslash metodi; dalillarni dalillardan farqlash metodi; evristik kuzatish metodi; evristik tadqiqot metodi; tushunchalarni loyihalash metodi; qoidalarni loyihalash metodi; farazlarni ilgari surish metodi; bashorat qilish metodi; xatolar ustida ishlash metodi; nazariyalarni loyihalash metodi kabilar kiradi.

Biz boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy faollikni rivojlantirish imkonini beruvchi ayrim metodlar ustida batafsil to'xtalamiz:

*Empatiya, ya'ni o'quvchilarni ijtimoiy faollikni rivojlantiruvchi metodlar o'quvchining atrofda gilar oadmlar, narsa va buyumlarning holatini his etishlariga ko'maklashadi. Hissiy-obrazli tasavvurlar yordamida o'quvchilar o'rganilayotgan obyektning anglashga muvaffaq bo'lalilar, uning ichki o'ziga xos jihatlarini his etadilar va tushunadilar. Mazkur metodni muvaffaqiyatli qo'llash orqali o'qituvchilar o'quvchilarning holatini aniqlash, ularning tuyg'ularini his etishga erishadilar. Dastlab bu metod o'yin*

tarzida amalga oshiriladi. Mazkur jarayonda o'quvchilar quvonch, zavqlanish hissini tuyadilar. Ta'lim natijalari olinib, uning mohiyati anglangandan keyin esa o'quvchilar ushbu metodga o'qitish metodi sifatida jiddiy yondasha boshlaydilar. Mazkur metod yordamida o'quvchilar dunyoni, hayvonot va o'simliklar olamini anglaydilar, ularning dunyoqarashida tub o'zgarish yuz beradi. Tabiatga nisbatan alohida muhabbat bilan qaraydilar. Bu esa ularning ertaklar to'qishlariga zamin hozirlaydi. Bolalar asta-sekin ijod olamiga kira boshlaydilar. Bu esa o'quvchilarning ta'lim muhitida yashashlari, so'zlardan ko'proq foydalanishlari, ya'ni ularning lug'at boyligini oshirishga ko'maklashadi. Buning natijasida o'quvchilar o'z-o'zlari va atrofdagilarga savolar bera boshlaydilar. Hissiyotlari doirasida mavjud voqelikni idrok etish, tushunish, ko'rishga muvaffaq bo'ladilar. Bu jarayonda tug'iladigan fikrlar, his-tuyg'ular o'quvchining ta'lim jarayonida qo'lga kiritgan natijasi hisoblanadi. Bunday mashqlar o'quvchilarga turli nuqtai nazarlardan turib voqelik haqida fikrlash va ularni tushunish layoqatini shakllantiradi. O'quvchi o'zning bilish jarayoniga nafaqat aqliy, balki hissiy natijalarni ham uyg'unlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ushbu metod o'qituvchilar kam qo'llaniladi, biroq u evristik ta'limning samarali metodi bo'lib, o'quvchilarning foydalanmayotgan imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun xos bo'lgan xususiyatlardan biri kuzatgan voqeliklarini his etish, ular asosida o'z kechinmalarini boyitish, o'zlarini o'rab turgan muhitni bilish va his etishga intilishdir.

*O'quvchilarni obrazli ko'rish orqali faollikka undovchi metod* obyektlarni hissiy-obrazli tadqiq etishlariga ko'maklashadi. O'qituvchi o'quvchilarga obyektlarning belgilari, shakliga nazar tashlash, ularda ko'rgan obrazlarini chizish, ularning nimaga o'xshashligini tasvirlash haqida topshiriq beradi. Yoki o'quvchilarga o'zbek mumtoz musiqasiga oidl asarlarni tinglash vazifasini topshiradi. Ular mazkur topshiriqlarni bajarib bo'lganlaridan keyin o'qituvchi savollar beradi. "Bastakor ushbu musiqa orqali nima demoqchi bo'lgan?", "Siz ushbu musiqani tinglaganda nimalarni his etdingiz, tasavvuringizda nimalar paydo bo'ldi?", "Ushbu musiqaning ohangi qanday: tezmi yoki sokinmi?". Shu bilan bir qatorda o'qituvchi o'quvchilarga musiqani tinglaganlaridan keyin tasavvurlarida qanday obraz gavdalanganligini chizib ko'rsatish haqida topshiriq beradi.

*Fikriy ko'rish metodi* o'rganilayotgan obyektga bir vaqtning o'zida o'quvchining ko'rish va fikrlash faoliyatini jalb etish imkonini beradi. Shu asosda ular obyektga mujassamlashgan fikrni, uning o'ziga xosligini anglashga muvaffaq bo'ladilar. Bu jarayonda o'qituvchi o'quvchilarda faollik ko'rsatish kayfiyatini hosil qilishi lozim. Bu esa faol hissiy-fikriy bilish faoliyati natijasida hosil bo'ladi. O'qituvchi o'quvchilarda fikriy faollikni hosil qilish uchun quyidagi savollar bilan murojaat qilishi mumkin: "Muayyan hodisa yoki predmetning belgilari yoki kelib chiqish sabablarini aytib bering?", "Muayyan narsa yoki uyumlar qanday tuzilgan, uning o'ziga xos jihatlari nimalarda namoyon bo'ladi?". Ushbu metodni qo'llash natijasida o'quvchilarda noan'anaviy bilish sifatleri namoyon bo'ladi.

Ramziy ko'rish metodi haqiqatni chuqur anglashning o'ziga xos usuli hisoblanadi. Mazkur metod haqiqatni kuzatish va bilish jarayoni mazmunini o'zida mujassamlashtiradi. Ramziy ko'rish metodi o'quvchilarga obyektlar va ularning ramzlari orasidagi aloqadorlikni anglash imkonini beradi. Ramzlar va uning obyektlari orasidagi aloqadorlikning xarakterini tushuntirgandan keyin o'qituvchi muayyan obyektga kuzatish va uning o'ziga xos belgilarini chizmalar, belgilar, so'zlar yordamida tasvirlashga oid topshiriqlar beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Tojiboyeva X.M. O'quvchi-yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010. – 60 b.
2. ...Jumayev A.Sh. Ijtimoiy faol o'qituvchi shaxsini shakllantirishning ilmiy pedagogik asoslari: Ped.f.n.....dis. – T.: TDPU, 2009. -184 b.
3. Giddens Entoni. Sotsiologiya. Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. – T.: Sharq, 2002. – 848 b.

### **BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA TA'LIMIY O'YINLARDAN FOYDALANISH**

**Umedjonova Lobar Farhodovna, BuxDU Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi II kurs talabasi  
Ilmiy rahbar: f.f.f.d.(PhD) dotsent M. Ro'ziyeva**

Bugungi kunda yurtimizda olib borilayotgan ishlar nafaqat yurtdoshlarimizni, balki jahon hamjamiyatini ham birdek qiziqtirmoqda. Bu ishlar samarasi o'laroq ta'lim sohasiga berilayotgan ishlarni misol qilib keltirsak bo'ladi.

O'sib kelayotgan yosh avlodga sifatli ta'lim berish uchun o'qituvchilardan kuchli bilim va katta mehnatni talab etadi.

Bugungi axborotlashgan zamonda o'quvchilarni dars jarayoniga qiziqtirish, bilimlarini oshirish, o'z mustaqil fikriga ega hamda uni erkin bayon eta oladigan yoshlarni tarbiyalash uchun turli interfaol metod va ta'limiy o'yinlardan foydalanish zarur.

Maktab ostonasiga ilk bor qadam qo'ygan jajji o'quvchi undan qat'iy tartib –intizom talab etuvchi muhitga tezgina moslashib kirishib keta olmaydi, shuning uchun o'quvchi darsda o'quvchilar zerikib qolmasligi uchun ta'limiy o'yinlardan ko'proq foydalanishi maqsadga muvofiqdir. Boshlang'ich sinflarda ularga noma'lum bo'lgan narsalarni o'rgatishda o'qituvchilar va o'quvchilarda bir nechta qiyinchiliklar paydo bo'ladi, bunday muammolarni hal etishda bizga interfaol metod va ta'limiy o'yinlar yordam beradi.

Misol uchun so'z turkumlarini o'rganishda quyidagi ta'limiy o'yinlardan foydalanish mumkin:

**1. “Bilimlar daraxti” o'yini.** Bu o'yinni gap mavzusida qo'llasa bo'ladi. Daraxtga shaxs va narsaning nomini bildirgan rasmlar ilib qo'yiladi. O'quvchilar kim? va nima? so'roqlariga javob bo'ladigan so'zlarni ajratib xattaxtaga yozishadi. Shu so'zlarga mos qanday? va nima qildi?, nima qilyapti? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlarni o'zlari ongli tarzda aytishadi. Natijada ot, sifat, fe'l qatnashgan bitta gap hosil qilishadi.

**2. “Kim g'olib” o'yini.** Ushbu o'yin o'quvchilarni o'tilgan mavzu yuzasidan olgan bilimlarini yanada mustahkamlashga undaydi. Asosiysi, o'quvchilar ham g'olib bo'lishi uchun, ham ko'proq bilim olish uchun kurashadilar. O'quvchilar ikki guruhga bo'linadi. Ularga o'tilgan mavzu yuzasidan ketma-ket ma'lumot aytishlari soriladi va tayyorgarlik uchun vaqt ajratiladi. Qaysi guruh a'zolari mavzu yuzasidan ko'proq va mazmunli ma'lumotlar aytgan bo'lsa, g'olib deb e'lon qilinadi.

**Bilimdonlar guruhi**

**Son shaxs va narsaning sanog'ini bildiradi**

**Sonlar harflar va raqamlar bilan yoziladi**

**Topqirlar guruhi**

**Qancha? Nechta? so'roqlariga javob bo'ladi**

**-inchi qo'shimchasi o'rnida chiziqcha(-) ishlatiladi.**

**3. “Jim” o'yini.** Bunda o'quvchilarning ziyrakliklari, imlo qoidalariga rioya qilishlari tekshiriladi. Talaffuzda tushib qoladigan undosh tovushlarni o'rgatganda qo'llaniladi. O'quvchilar qo'lining bir tarafiga “t” va ikkinchi tarafiga “d” harflari yozilgan kartochkalar tarqatiladi va o'qituvchi so'zlarni navbati bilan yozadi ;

Masalan: Xursan...? oxiriga qo'yilishi kerak bo'lgan harfni o'quvchilar ovoz chiqarmasdan “d” harfini ko'tarishadi, noto'g'ri ko'targan o'quvchi o'yindan chiqadi va o'yin shu tarzda davom etadi.

**4. “Xotira mashqi” o'yini.** Hozirjavoblik va zukkolikni oshirish maqsadida darslarda bu o'yindan foydalanish mumkin. O'quvchi o'z ismini aytadi va shu ism bilan boshlanuvchi biror adib, shoir yoki o'qigan asarlari nomini aytadi:

Adham-Alisher Navoiy.

Doston- Donishmand chol.

Demak, ona tili darslarida ta'limiy o'yinlardan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlash qobiliyatlarini va darsning sifat samaradorligini oshirishga xizmar qiladi.

**АЛЛОМАЛАР АСАРЛАРИДА МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ ТАРБИЯ  
МАСАЛАЛАРИНИНГ ЁРИТИЛИШИ**

**Ашурова Мархабо Сайфуллоевна**

*Бухоро Давлат Университети мустақил изланувчиси*

**Аннотация:** Ушбу мақолада асосан шарқ алломаларининг ижодида маънавий ахлоқий тарбия масалалари ёритилган бўлиб, хулқ, одоб - ахлоқ, тарбия тушунчаларининг мазмун моҳиятига алоҳида урғу бериб ўтилган. Уларнинг тасаввуфий жиҳатлари мақолада устивор аҳамиятга эгадир.

**Калит сўзлар:** ахлоқ, тарбия, маънавият, ахлоқий тарбия, хулқ, одоб

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются вопросы духовно-нравственного воспитания в трудах востоковедов, с особым акцентом на сущность понятий поведения, этикета - нравственности, воспитания. Их мистические аспекты имеют первостепенное значение в статье.

**Ключевые слова:** нравственность, воспитание, духовность, нравственное воспитание, поведение, нравы.

**Annotation:** This article focuses on the issues of spiritual and moral education in the works of oriental scholars, with special emphasis on the essence of the concepts of behavior, etiquette - morality, education. Their mystical aspects are of paramount importance in the article.

Ҳар қандай ривожланаётган давлатда маънавият асослари кучли бўлса, у давлат ҳар томонлама мустаҳкам бўлади. Аслида бу тушунча шарқ алломалари асарларида маънавий ахлоқий тарбия тушунчаси орқали ёрқин ёритилгандир. Жумладан Жалолоддин Румийнинг педагогик қарашларида ҳам инсоннинг ҳаётдаги мақсади, интилишлари, ўзлигини англаши ҳақида фикр юритилиб, инсон тарбияси бевосита унинг камолотига йўналтирилгандир. Мавлоно айтганидек: "Инсоннинг ичи ҳуррият оламида"<sup>1</sup>. Бу ўринда аввало маънавият тушунчасига таърифларни келтирсак ўринли бўлади.

"Маънавият миллатнинг асрлар давомида шаклланган маданий ривожланиши билан узвий боғлиқ бўлган ички интеллектуал ва собит ҳиссий дунёсидир"<sup>2</sup>. "Маънавият - инсоннинг зот белгиси, унинг фаолиятининг таркибий қисми, онги, ақл-заковатининг маҳсули"<sup>3</sup>. "Маънавият-инсон руҳий ва ақлий оламини ифодоловчи тушунча. У кишиларнинг фалсафий, ҳуқуқий, илмий, бадиий, ахлоқий, диний тасаввурларини ўз ичига олади"<sup>4</sup>. Маънавият кўп қиррали ҳодиса бўлиб, ахлоқий (одоб, бурч, маъсулият туйғуси), илмий, ижодий, амалий малакалар (меҳнат, ижодкорлик. Истеъдод, қобилият), диний, мафкуравий қарашларнинг яхлит бирлигидир"<sup>5</sup>. Шундай экан, маънавият жиҳатлари ҳар қандай инсоннинг ҳаёти давомида ривожланиб борувчи кадриятларнинг ўзига хос бир тизимидир. Инсон жамиятда шахс бўлиб шаклланишида одоб, ахлоқ, тарбия тушунчалари муҳим аҳамиятга эгадир ва у инсон фаолиятида янада ёрқин намоён бўлиб боради. Хулқ атвор меёрлари ҳеч ким томонидан аниқ бир назорат ёки тартибда белгиланмайди. Мавлоно айтганидек, "Ўзинг билан жанг қилишда, ўз ахлоқингни тузатишдан бошла"<sup>6</sup>. Шундай экан, уни ҳар бир инсон ўзи мустақил равишда назоратда ушлайди.

Ғазолий қарашларига кўра, кимда ахлоқий хислатлар мўътадил бўлса, демак, унинг хулқи гўзал бўлади. Бунда хулоса шуки, гўзал хулқнинг асоси тўртта: ҳикмат, шижоат<sup>7</sup>, ифбат<sup>8</sup>, адолат. Қалбдаги тўртта асоснинг мўтадил бўлиши, ахлоқнинг гўзал бўлишининг таъминлайди. Шу сабабли "ўрталик мўътадиллик ҳикматга хос фазилят"<sup>9</sup>, - дейди Ғазолий.

Мутафаккир гўзал хулққа икки йўл билан эришилади, - дейди. Биринчиси – илоҳий эҳсон билан. Иккинчиси – қаттиқ меҳнат ва риёзат билан ҳосил бўладиган хулқ. Ғазолий кимки бировнинг хулқи ёмонлигидан шикоят қилса, бу ўзининг хулқи ёмонлигидан далолат беради – дейди. Инсон хулқи ва одоби уни қуршаб турган маънавий муҳит ва инсонларнинг ўзига хос бир ойнаси эканлиги ушбу мисолда яққол намоён бўлади.

Нўширавон Бузуржмеҳрдан сўради: "Ким тарбия қилишга лойиқ". Донишманд жавоб берди: "Шундай кишига тарбия берилсинки, у одоблик ёки насаблик бўлсин. Ва ҳар кишининг зоти паст бўлса, "Ҳар нарса ўз аслига тортганидек, ҳар нарса ўз аслига қайтади", ҳукми бўйича у ўз зотига тортади".

Мавлоно Фирдавсий айтади, ҳар қандай тарбиянинг зохирий ва ботиний жиҳатлари мавжуд бўлиб, ҳар қандай ҳолатда ҳам улар қачондир ўзини барибир намоён қилади. Одатда тарбия натижасида жамият фароғати юзага келади. Шунинг учун бу хусусида уч калима сўз ва бир фикр ёзилди. Энг биринчиси фарзанд (шаҳзодалар) тарбиясидир. "Мамлакат хазинаси"да айтилганки, фарзанд ҳақнинг омонатидир. Ота-она олдида машҳар вақтида бу омонат ҳаққи талаб қилинади.<sup>10</sup> Бундан шундай хулоса чиқариш мумкинки, ҳар қандай фарзандга она сути берилса ва унга чиройли ном танланса тарбиятидаги ўзига хос ўзгаришларни шунда кўриш мумкин бўлади. Қадимда фарзанд она сути билан боқилса, унинг табиати ўзгарувчан бўлади ва инсон пок дин, яхши хулқ билан унинг хизматини қилади.

Аслида ахлоқ, хулқ ва атвор сўзлари арабча сўз бўлиб, улар ўзбек тилида ҳам ўз маъносида ишлатилади. Ахлоқ – ижтимоий онг формаси бўлиб, ижтимоий ҳаётнинг ҳамма соҳаларида инсоннинг хулқ-атворини йўлга солиб турадиган принциплар, талаблар, нормалар ва қоидалар

<sup>1</sup> Жалолоддин Румий. Ичиндаги ичиндаур. Улуғбек Ҳамдам таржимаси-Тошкент.: Янги аср авлоди,2003.-Б.94

<sup>2</sup> Эркаев А. Маънавият- устун йўналиш."Иқтисод ва ҳисоб" журнали.1996.№2-Б.20-22.

<sup>3</sup> Жалилов.А. Мустақиллик маъсулияти.-Т.: Ўзбекистон,1996.-Б.29.

<sup>4</sup> Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 5-жилд.-Т.:" Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти. 2003.-Б. 540.

<sup>5</sup> Абдуллаев М.ва бошқ.Маънавият.-Фарғона,1999.-Б.22.

<sup>6</sup> Жалолоддин Румий. Ичиндаги ичиндаур. Улуғбек Ҳамдам таржимаси-Тошкент.: Янги аср авлоди,2003.-Б.145.

<sup>7</sup> Ғазобнинг ақл доирасида бўлиши.

<sup>8</sup> Дунёга боғлиқ барча истакларнинг ақл ва шарият билан тарбия топиши.

<sup>9</sup> Абу Ҳомид Ғазолий. Риёзатун нафс (Нафс тарбияси). Тошкент.Мовороуннаҳр.2006.-18б

<sup>10</sup> Ўша жой 241-б.

мажмуидан иборат. Ахлоқда жамиятда таркиб топган «яхшилиқ», «шараф», «виждон», «адолат» сингари тушунчаларда мустаҳкамланган одамлар хулқ атвори, нормалари акс этади. Бу ахлоқий тушунчаларнинг ҳаммаси ҳам баҳоланувчи характерга эга. Ёш авлоднинг ахлоқий тарбиясида ахлоқий онг ва ахлоқий туйғуларни шакллантиришига эмас, балки энг муҳими – ўқувчиларни уларнинг маънавий муносабатларида намоён бўладиган фаолиятнинг ҳар хил турларига жалб этилиши мумкин. Ахлоқий муносабатлар – бу жамиятга, меҳнатга, одамларга ва қолаверса ҳар бир кишининг ўзига муносабатидир. Жамият тараққиёти тарихи шуни кўрсатадики, фақат маънавият кенг қулоқ ёйган, илм тараққий этган мамлакатлардагина адолатли жамият қуриш ва унда бир бирига меҳр - оқибатли самимий инсонлар шаклланиши мумкин. Бундай жамиятда одатда халқнинг эртанги кунига ишончи ва бунёдкорлик, яратувчилик ишига эзгуликка интилиши кучли бўлади. Кишиларнинг бир-бирларига, оилага, жамиятга бўлган муносабатларида намоён бўладиган ҳатти-ҳаракатлари, хулқ-атворлари, ўзаро одоблари мажмуи муҳим ҳаётий аҳамият касб этади. Оилада тарбиянинг биринчи куртакларини ота-она амалда кўрсатиб боради. Бу борада Абдурауф Фитратнинг “Оила” рисоласида бола тарбияси хусусида батафсил ёзилган. “Фарзанд тарбияси аслида икки калимадан иборат. Шунинг учун ҳам назарингизда жуда майда муаммодек кўринади. Лекин доно одамлар биладиларки, Бани одамнинг сиёсий, диний, ижтимоий инкилобларининг асоси ана шу икки сўз-“бола тарбияси” дан иборат бирикмага боғлиқ. Бу халқнинг ҳаракат қилиши, давлатманд бўлиши, бахтли бўлиб иззат-ҳурмат топиши, жаҳонгир бўлиши, заиф бўлиб хорликка тушиши, фақирлик жомасини кийиб, бахтсизлик юқини тортиб эътибордан қолиши, ўзгаларга тобе қул ва асир бўлиши, болалиқдан ўз ота-оналаридан олган тарбияларига боғлиқ”.

Ҳар қандай оилада фарзанд тарбияси ҳеч қачон назоратдан четда қолмаслиги керак, чунки боланинг ақлий ҳамда жисмоний тарбияси жамият келажаги учун жуда муҳимдир. Фитрат бу борада “Ахлоқий тарбия - одам ахлоқини камолга етказиш демакдир, яъни одамни шундай тарбия қилиш керакки, феъли ва амали ўзига ҳам бошқаларга ҳам фойдали ва манфаат келтирадиган бўлсин, бошқача айтганда, одамнинг феъли хуши ва ҳаракатида яхши фазилатларни тарбиялаш демакдир”<sup>1</sup>. Ахлоқ жамиятнинг ўзгариши билан ривожланади ёки сўнади, аммо қандай ўзгариш бўлишидан қатъий назар у йўқолиб кетмайди ва даврга қараб такомиллашиб боради. Ахлоқнинг ижтимоий тараққиётида диннинг ўрни бекиёс. Шунинг учун ҳам дин ижтимоий ҳодиса бўлиб – тарбиявий жараёндир. Ахлоқ ва маънавият бир - бири билан ажралмас боғлиқ, чунки маънавияти пок авлодни ахлоқли тарбияли болалар ташкил этадилар.

#### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Жалолоддин Румий. Ичиндаги ичиндадур. Улуғбек Ҳамдам таржимаси-Тошкент.: Янги аср авлоди, 2003.-Б.94
2. Эркаев.А.Маънавият-устун йўналиш.”Иқтисод ва ҳисоб”журнали.1996. №2-Б.20-22.
3. Жалилов.А. Мустақиллик маъсулияти.-Т.: Ўзбекистон,1996.-Б.29.
4. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 5-жилд.-Т.:”Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. 2003.-Б. 540.
5. Абдуллаев М.ва бошқ. Маънавият.- Фарғона,1999.-Б.22.
6. Абу Ҳомид Ғаззолий. Риёзатун нафс (Нафс тарбияси). Тошкент. Мовороуннахр.2006.-186

## **БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАР ШАХМАТ ЎРГАНИШ ОРҚАЛИ МАНТИҚИЙ ФИКЛАШ ҲАМ ИРОДАНИ ШАКЛАНТИРАДИ**

**Холиқов Умиджон Кукчкарович**

**shox75@mail.ru тел:+9989991780**

**Гулистон давлат унверситети**

**Аннотация:** Мақолада бошланғич синф ўқувчилар шахмат ўрганиш орқали мантиқий фиклаш ҳам иродани шаклантиради, шахмат ўйинларидан фойдаланиш орқали уларнинг диққат, идроки, тафаккури, хотираси ва мантиқий фикрлашини ўстиради ва ривожлантиришига бағишланган бўлиб, унда шахмат ўйинини ўргатиш усуллари, йўллари ва самарадорлиги ёритилган

**Калит сўзлар:** бошланғич синф ўқувчилар, шахмат ўйин, идроки, тафаккури, хотираси, мантиқий, диққат, шахсий сифатларини.

<sup>1</sup> Ўша жойдан 88- б

**Аннотация:** статья посвящена развитию и развитию логической фиксации учащихся посредством изучения шахмат, их внимания, восприятия, мышления, памяти и логического мышления посредством использования игр в шахматы, в которых освещаются методы обучения, способы и эффективность игры в шахматы

**Ключевые слова:** младшие школьники, шахматная игра, восприятие, мышление, память, логика, внимание, личностные качества.

**Annotation:** the article is devoted to the development and development of logical fixation of students through the study of chess, their attention, perception, thinking, memory and logical thinking through the use of chess games, which highlight the teaching methods, methods and effectiveness of the game of chess

**Keywords:** junior schoolchildren, chess game, perception, thinking, memory, logic, attention, personal qualities.

Фарзандларимизнинг ақлан ва жисмонан соғлом, руҳан тетик бўлиб вояга етиши юртимиз эртанги куни, истиқболлини белгилаб беради. Бугунги кунда юртимизда ўсиб келаётган ёш авлодга катта эътибор қаратилган. Уларнинг таълим, маданият ва спорт соҳасида илғор бўлишлари учун барча шароитлар яратилган ва яратилмоқда

Сўнги йилларда халқимизнинг саломатлиги тўғрисида ғамхўрлик қилиш, маънавий ва жисмоний баркамол авлодни шакллантириш, интеллектуал салоҳиятни ривожлантиришга хизмат қиладиган спорт тури бўлган ва мамлакатимизда алоҳида ўрин тутадиган спортнинг шахмат турига аҳолини, айниқса ёшларни кенг жалб этиш бўйича бир қатор чора-тадбирлар амалга оширилди.

Мамлакатимизда шахматни аҳоли ўртасида кенг тарғиб қилиш ва уни оммавий спорт турига айлантириш, ўсиб келаётган ёш авлоднинг интеллектуал ва маданий ривожланиши учун зарур шарт-шароитлар яратиш, юқори иқтидорга эга бўлган ёшларни танлаш, саралаб олиш ва уларни профессионал шахматчилар ва халқаро гроссмейстерлар сифатида тайёрлаш тизимини йўлга қўйилди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 9 августдаги “Ўзбекистон Республикасида шахматни ривожлантириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-3906 сонли қарорига мувофиқ мактаб дастурлари доирасида 150 та умум таълим мактабларининг ўқувчиларини тажриба тариқасида шахматга ўқитишни ташкил этиш вазифаси белгиланган эди.

2021 йил 14 январда “Шахматни янада ривожлантириш ва оммавийлаштириш ҳамда шахматчиларни тайёрлаш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” Президент қарори қабул қилинди.

Шу қарор, 150 та умумий ўрта таълим мактабларининг ўқувчиларини тажриба тариқасида шахматга ўқитишни ташкил қилиш амалиёти кенгайтирилиб, яна қўшимча 150 та мактаб (шу жумладан, Қорақалпоғистон Республикаси ва вилоятларда (Тошкент вилоятидан ташқари) 10 тадан, Тошкент вилояти ва Тошкент шаҳрида 15 тадан мактаб) шахматга ихтисослаштирилади; тегишли 1 000 та умумий ўрта таълим мактабида 2, 3 ва 4-синф ўқувчиларини “Жисмоний тарбия” фани доирасида 18 соатлик режа асосида шахматга ўқитиш йўлга қўйилади ҳамда уларга методик ёрдам кўрсатилади қолган барча мактабларнинг 2, 3 ва 4-синф ўқувчилари “Жисмоний тарбия” фани доирасида шахматга ўқитилиши.

Шахматнинг фойдали хусусиятлари ҳақида жуда кўп илмий тадқиқотлар олиб борилган. Улардан энг сермаҳсули-педагогик тадқиқотлардир. Асосий хулоса: "Шахмат-давомли мантқий фикрлашни ривожлантирувчи интеллектуал ўйинлар ичида энг асосийси ва мураккаби".

Шахмат ўйини фикрлашни тартиблаштиради, диққатни жамлашни чиниқтиради ва хотирани ривожлантиради. Айниқса, ўсмирлик йилларида шахмат билан шуғулланиш катта ижобий натижалар беради. Бу борада психолог ва педагоглар етарлича тажриба топлаганлар, ҳамда, мақбул услубий тавсиялар ишлаб чиқилган.

Аввало, Шахмат қизиқарли ўйин. Ўйин қоидаларини ўрганмоқ, уни амалий партияларда синаб кўриш иштиёқи пайдо бўлади. Рақиб билан вариантларни ҳисоблаш тезлиги ва аниқлиги борасида ўзаро баҳс олиб борилади. Тажриба ошиб борган сари вазиятни баҳолаш чуқурлашади ва назарий билимларни пухта ўрганишга эҳтиёж пайдо бўлади. Шу ўринда ҳафсалани пир қиладиган вазият юзага келмаслиги чораларини кўриш ўта муҳимдир. Яъни, фикрларни ривожлантириш кетма-кетлиги тартиби ишлаб чиқилгани маъқул, шахмат ўйин бўлганлиги учун ҳам дастлабки муваффақиятсизликлар кайфиятга салбий таъсир ўтказиши мумкин. Шунинг учун, айниқса, ёш болалар ўртасида энгил масалалар ва таҳлилий машғулотлар кўпроқ ўрганилиши тавсия этилади.

Дастлабки қадамларданок шахмат билан шуғулланувчилар фақатгина катта иштиёқнинг ўзи ғалаба учун етарли бўлмаслигини сезиб қолади. Моддий устунликка эришиш ёки чиройли комбинацияни амалга ошириш пухта тайёргарликни талаб этади ва у объектив қонуниятларга асосланган бўлади. Калта ўйланган комбинация, албатта, вазиятнинг ёмонлашишига олиб келади, кўпинча партияни ютқиштига ҳам сабаб бўлади. Ҳар бир хатога жазонинг муқаррарлиги шахматчидан пухталикини талаб этади: содда комбинацияларни ўрганиш, дебютдаги хатоликлардан фойдаланиш аста-секин чуқур назарий билимларни эгаллаш эҳтиёжигача ўсиб боради. Лекин, тажриба шуни кўрсатадики, фақатгина "китоб бўйича" ўйнаш ғалаба учун етарли бўлмас экан. Содир бўлган вазиятнинг ўзига хос жиҳатлари атрофлича ўрганилади. Шахмат универсалликни талаб этади. Шахматда тўпланган билим ҳаётда ҳам сермулоҳазаликни шакиллантиради, шахснинг ижодий камолатини сайқалайди.

Шубҳасиз, Шахмат хотирани ҳам тоблайди. Шуни қайд этиш лозимки, маълум сондаги сипоҳлар иштирок этувчи аниқ вазиятни ва у билан боғлиқ барча вариантларни эслаб қолиш шахматчи учун етарли деган хулоса – нотўғри, олимлар томонидан олиб борилган кўплаб тадқиқотлар кўрсатишича, шахматчи онгли фаолиятининг моҳиятини аниқ вариантларни эслаб қолувчи механик жараён эмас, маъноли ва мантикий боғланишлари мавжуд қонуниятлар ташкил этар экан. Сабр-бардошлик, изчиллик, юқори интизом ва диққатни бир жойга жамлай олиш-шахматчи муваффақиятининг муҳим жиҳатларини ташкил этади. Давомли, кучли юришлар билан эришилган устунликни озгина эътиборни султаштириш эвазига бой бериш мумкин, қобилияти ва назарий билимлари тенг ўйинчилардан темир интизомчилари, сабр-тоқатлиларигина катта муваффақиятларга эриша олади. Шахмат нафақат фикрлар ва қарашлар кураши, характер ва психиклар кураши ҳамдир. Шахмат ўйинининг яна икки муҳим жиҳати: ўйлаш учун берилган вақтнинг чекланганлиги ва "ушлаганни юриш" қоидаси шахматчида вақтдан унумли фойдаланиш ҳамда беҳудага афсусланмаслик ҳислатларини шакиллантиради. Ажратилган вақт ичида тегишли юришларни амалга оширмаслик ютқишти билан тенг. Демак, вақт бирлиги ичида ечим қабул қилиш лозим. У ёки бу юришлардан бирини танлашда лоқайдликка ўрин йўқ, вақт интервали объектив баҳоланиши зарур. "Ушлаганни юриш" эса "ўтган ишга саловат"нинг ўзи, энди фақат олға ҳаракат қилиш лозим.

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, шахмат ўйини бошланғич синф ўқувчиларнинг ақлини ўстириш баробарида, мустақил, ҳар томонлама тўғри, мантикий фикрлашга ўргатишда улкан имкониятларга эга деб ҳисоблаймиз. Шахмат бошланғич синф ўқувчиларни ахлокий, рухий, маънавий жиҳатдан соғлигини таъминлайди. Шахмат ўқувчи-ёшларнинг фанларни аъло даражада ўзлаштиришга йўл очиб беради. Шахмат ўйнаш қобилияти шаклланган бола ҳеч қачон ёмон йўлга қирмайди, шундан комилликка интилиб яшашга ўрганади.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 9 августдаги “Ўзбекистон Республикасида шахматни ривожлантириш бўйича кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-3906 сонли қарори
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 14 январдаги Шахматни янада ривожлантириш ва оммавийлаштириш ҳамда шахматчиларни тайёрлаш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида ПҚ-4954-сон
3. Муҳиддинов М. Катакларда яширинган олам. -Т.: Ўзбекистон, 1976.
4. Муҳиддинов М. Ўн тўққиз чемпион. –Т.: Юлдузча, 1998.
5. Халайев М, Шахмат алифбоси –Т : Тафаккур -2015
6. “Маърифат” газетаси. 2016 йил 27 февраль № 17 сон 15 бет.
7. Вершинин М. А. Теория проектирования системы формирования логического мышления шахматистов: дис. ... доктора педагогических наук, Волгогр. гос. акад. физ. культуры. — Волгоград, 2005. — 506 с.
8. Костенюк А. К. Требования современного мира к системам образования. Шахматы — как способ стимулирования интеллектуального развития детей // Материалы Международной науч.-прак. конф. — Ч. 3. — Челябинск : Издательский центр ЮУрГУ, 2011. — С.157.
9. Тарасова О. В. Педагогические условия формирования логической культуры младших школьников средствами шахматной деятельности: дис. канд. пед. наук.- Казань, 2005. — 209 с.

## **ҲАРАКАТЛИ ҲИЙНЛАР ОРҚАЛИ ЁШ АВЛОДНИ ЖИСМОНИЙ ТАЙЁРГАРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ**

**Ш.Н. Қодиров,  
БухДУ ўқитувчиси**

*Аннотация: Ушбу мақолада ҳаракатли ҳийнлар орқали ёш авлодни жисмоний тайёргарлигини ривожлантириши, жисмоний тарбия тизимида тутган ўрни ва таълим жараёнида ҳаракатли ҳийнлардан фойдаланиши масалалари ёритилган.*

*Калит сўзлар: восита, ҳаракатли ҳийнлар, соғлом, ёш авлод, жисмоний тарбия, жисмоний тайёргарлик.*

Спорт ва жисмоний тарбияга эътибор кундан-кунга кучайиб бормоқда. Жисмоний тарбия олдида спортни халқимизнинг ҳаётига кўпроқ сингдириш; ёшларни мустақиллик руҳида тарбиялашда жисмоний тарбия ва спортнинг барча турли-туман шаклларида, жумладан, халқ миллий ҳийнларидан кенг фойдаланиш, инсонларнинг соғлигини яхшилаш ва уларни она-Ватан мудофаасига тайёрлаш ва шу сингари катта вазифалар турибди. Халқимизнинг миллий ҳийнлари эса ана шу мақсадда жуда кенг қўлланилиб келинаётган муҳим жисмоний тарбия ва спорт воситаларидан биридир. Шунинг учун халқ миллий ҳийнларига эътиборни кучайтириш зарурияти янада яққол кўринмоқда.

Миллий халқ ҳийнлари ўқувчиларнинг халқимизнинг бир неча асрлик маданий бойликлари ҳақидаги тасавурларини кенгайтиради. Чунки миллий ҳаракатли ҳийнлар жисмоний тарбиянинг энг таъсирчан усулларида бўлиб, ўқувчиларда ақлий, ахлоқий ва нафосат тарбиясини биргаликда мувафакиятли амалга оширишда муҳим воситадир.

Шунинг учун болалар ҳийнларининг руҳи, табиати, иштирокчиларнинг ҳатти-ҳаракатлари каби жиҳатларига ҳам эътибор бериш зарур. Бошланғич синф ўқувчилари жисмоний тарбиясини қизиқарли ва фойдали ўтказиш учун миллий ҳийнлардан фойдаланишда ҳам худди шу хусусиятларга эътибор бериш керак.

Бошланғич синф ўқувчиларида жисмоний тарбия дарсларида кадрларга муҳаббат уйғотиш, халқ анъаналарини авайлаб-асрашга ўргатиш кўп жиҳатдан ўзбек халқ миллий ҳийнларидан унумли фойдалана билишга боғлиқ. Чунки миллий ҳийнлар орқали бола бир томондан жисмоний билимларни эгалласа, иккинчи томондан, уни жисмоний тарбияга қизиқтириш муҳим аҳамият касб этади.

Халқ ҳийнларига эътибор қаратиш Шарқ халқлари маданиятининг жуда кўп элементларини сақлаб қолишга ва улардан амалий фаолиятда фойдаланишга имконият туғдиради. Қадимги маҳаллий халқларимиз учун анъанавий миллий ҳийнлар ва миллий беллашувлар улар ҳаётининг ажралмас бир қисми бўлган, улар халқ маросимларида, расм-русумларда ва урф-одатларда мустақил бир соҳа сифатида фаолият кўрсатиб келган, ҳаётларидан мустаҳкам ўрин олган. Жисмоний тарбиянинг бундай ўзига хос воситалари ёрдамида боболаримиз ўсиб келаётган авлодда чакқонлик, эпчиллик, кучлилик ва сабр-тоқат каби хусусиятларни шакллантирганлар. Фарзандларини ҳаёт қийинчиликларига ва табиатнинг қийинчиликларига нисбатан бардошли, бақувват қилиб тарбиялаганлар.

Ёш авлоднинг жисмоний жиҳатдан тўқис, соғлом, Ватан ҳимоясига тайёр бақувват тарзида ўсиб-улғайишидан халқ ҳам, жамият ҳам манфаатдор, Бунинг учун ўқувчилар жисмоний тарбия билан чуқур шуғулланишлари, турли миллий ҳийнлардан фойдаланиш маҳоратини эгаллашлари керак бўлади. Бу эса ёш авлод тарбиясини янада кучайтириш, уларни ўз халқи, мустақил давлати ва жамият олдидаги бурчини ҳис этиш руҳида тарбиялашдек ғоят муҳим вазифалар билан боғлиқдир. Болаларда мактабда ўқий бошлаган биринчи кунданок меҳнатга муҳаббат, ишчанлик, бошланган ишини охирига етказиш, саботлилик хусусиятларини шакллантириш имкони яратилади. Бунда жисмоний тарбиянинг барча замонавий воситалари билан бирга ўзбек халқ миллий ҳийнлари жуда қўл келади, чунки бу ҳийнлар болаларни руҳий, жисмоний, маънавий жиҳатдан тарбиялашнинг барча жиҳатларини ўз ичига ола билади. Зеро, миллатнинг келажаги бўлган ёшларни соғлом, етук ва комил инсон қилиб тарбиялаш мустақил юртимиз келажагининг замини мустаҳкам бўлишига хизмат этади.

Жисмоний тарбия бола организмнинг ҳар томонлама гармоник ривожланиши, унинг бақувват, кучли бўлиб ўсишини таъминлайди. Соғлом танда соғ ақл деган мақол бежизга айтилмаган. Ўтмиш ота-боболаримиз танани чиниқтиришга ҳам алоҳида эътибор қаратишган ва бунинг учун болаларни жуда ёш чоғидан турли жисмоний машқларни маҳорат билан бажаришга

ўргатишган. Масалан. Амир Темур ва темурий шаҳзодалар жисмоний куч қудратга этук, баҳодир кишилар булишган.

Сохибқирон бундай улуғ салохиятга тинимсиз жисмоний машқлар билан шуғилланиш эвазига эришганлиги аниқ. Жисмоний чиниқишнинг воситалари эса куп. Ана шулардан бири халқ ўйинларидир. Халқ ўйинлари болаларда миллий гурурни ўстириш билан бирга уларни жисмоний чиниқтиради. Маълум бир даврнинг ўзига хос хусусиятларихалқ ўйинларида ҳам ўз аксини топган. Бугунги кунда уларни ўрганиш, ўргатиш, яъни мазмун билан бойитиш бизнинг келажак олдига энг муҳим масъулиятли вазифаларимиздан бири ҳисобланади.

Халқ миллий ўйинлари болаларнинг жисмоний сифатларини ривожлантиришда муҳим роль ўйнайди. Чунки ўйинлар ўқувчиларнинг қизиқишларини оширади, уларга завқ бағишлайди, иш қобилиятларининг тезроқ тикланишини таъминлайди. Ўйинлар туфайли болалар чарчашни унутадилар, машқларни диққат билан бажаришга ҳаракат қиладилар. Халқ миллий ўйинларининг барчаси болаларнинг организмларига яхлит таъсир кўрсатади. Шунинг учун ҳам ўйинларга умумий жисмоний таъсир кўрсатувчи машқ сифатида қараш лозим. Биронта ўйин йўқки, у айрим жисмоний сифатни ривожлантирувчи восита бўлиб ҳисобланмасин. Масалан, «Дўппи кийишда ким ғолиб?» миллий ўйинида фақат чаккон бўлибгина қолмай, балки эпчил, сезгир бўлишга ҳам даъват этилади.

Жисмоний тарбия тизимидаги барча соҳа ва босқичларнинг бирдан-бир ва ягона мақсадинсонни тўғри яшашга тайёрлашдир. Бошланғич синф ўқувчилари жисмоний тарбиясининг вазифалари болаларнинг ёшига хос хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда аниқланади, лекин бунда жисмоний маданиятнинг умумий мақсади кўздан қочирилмайди.

Мактабда бошланғич синф ўқувчилари жисмоний тарбиясида соғломлаштириш, таълим бериш ва тарбия бериш вазифаларини амалга ошириш кўзда тутилади. Халқ миллий ўйинлари орқали бу вазифаларни яхлит ҳолда бажариш имкониятлари кўпроқ кўринади. Шунинг учун педагоглар, жисмоний тарбия ўқитувчилари халқ миллий ўйинларидан дарсларда, дарслардан ташқари машғулотларда халқ миллий ўйинларидан кенг ва доимо фойдаланиш маҳоратини эгаллашлари лозим. Ана шундагина баркамол шахсни тарбиялашдек муҳим вазифалар мустақил давлатимизда тез ва осон бажарилиши кўзда тутилади.

Бизнинг ўзбек халқ миллий ўйинлари воситасида ёшли авлодни жисмоний ривожланиши масалаларига бағишланган мақоламизда. Болаларнинг жисмоний ривожланиши ва жисмоний тайёргарлиги борасида ўйин келтирилган.

Бошланғич синф ўқувчилари жисмоний тарбиясида миллий ўйинлар орқали машғулотларни ташкил этишда, ўқувчиларнинг жисмоний фазилатларини ривожлантириш йўналишлари бўйича илмий тасдиқланган маълумотларни кўпайтириш миллий кадрларимиз боғлиқ миллий ўйинларимизни ўқувчиларга миллийликни англаш йўлида хизмат қилмоғи даркор.

## **BOSHLANG'ICH SINFLARDA TENGLAMALARTUZISH USULI BILAN MASALALAR YECHISHGA O'RGATISH M.H.Hakimova, BuxDU katta o'qituvchi M.Sh.Hamidova, BuxDU talabasi**

**Annotatsiya:** *Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga masala yechish va masalani tenglama tuzish orqali yechishga o'rgatish haqida so'z boradi. Masala yechish malakasini o'quvchilarga shakllantirishda qanday interfaol metodlardan foydalanish yuzasidan fikr yuritilgan.*

**Tayanch tushunchalar:** *Tenglama, matematik tenglik, noma'lum, mulohaza, interaktiv metod, didaktik o'yinlar.*

**Аннотация:** *Статья посвящена обучению в вспомогательных Учащихся решению задачи решению задач с использование муравнений. Состоялась дискуссия отом, какие интерактивные методы использовать для развития навыко в решения задачу учащихся.*

**Ключевые слова:** *Уравнение, математическое равенство, неизвестные, интерактивные методы, дидактические игры.*

Tenglama-ikki yoki undan ortiq ifodalarning o'zaro bog'langanligini ko'rsatuvchi matematik tenglik. Tenglamalarda matematikaning barcha nazariy va amaliy masalalarni hal etishda hamda fizika, biologiya va boshqa fanlarida ham qo'llaniladi. Tenglamalarda bir yoki undan ko'p noma'lum qiymat bo'ladi va ular o'zgaruvchilar yoki noma'lumlar deb ataladi. Noma'lumlar odatda lotin alifbosining harflari yoki boshqa belgilar bilan ifodalanadi.

Boshlang'ich matematika darsligi o'quvchilarni ba'zi xil masalalarni tenglamalar tuzib yechishga o'rgatishni nazarda tutadi. Masalalarni tenglamalar tuzish bilan qo'shish, ayirish, ko'paytirish va bo'lish amallarining noma'lum sonlarini topishga doir soda masalalar yechishga o'rgatish va misollar bilan birgalikda matnli masalalarni tenglamalar yordamida yechib o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlash muhim vazifa hisoblanadi. Mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga, o'z fikrlarini mustaqil bayon qila olishga zamin yaratib, o'quvchilarni fikrlash dunyoqarashini kengaytirib, ularning zehni va hozirjavoblik fazilatini tarbiyalash bosh maqsaddir. O'quvchilar masalalarni tenglamalar tuzish bilan yechishni o'rganib olishlari uchun ular masaladagi berilgan va izlanayotgan miqdorlarni ajratib olishi kerak bo'ladi. Tenglamalarni tuzish yordamida sodda masalalarni yechish ikkinchi sinfdan boshlanadi. Ikkinchi sinfdan tenglamalar tuzish usuli bilan qo'shish, ayirish, ko'paytirish va bo'lish amallarining noma'lum komponentlarini topishga doir soda masalalar yechiladi. Bu masalalarni tenglama tuzib yechishga tayyorlash vazifalari

bajariladi. O'quvchilarga mavzu yuzasidan masalalar yechib ko'rsatamiz: Masalan, "Savatda bir necha anor bor edi. Bo'g'dan yana 17 ta anor uzib kelib savatga solingandan keyin savatdagi anorlar 32 ta bo'di. Avval savatda nechta anor bo'lgan?". Oldin bu masalani qisqacha shartini tuzib olamiz:

- 1) oldin savatdagi anorlar sonini  $x$  bilan belgilab olamiz;
- 2) savatdagi anorlar va yana terib kelib qo'shilgan anorlar sonini  $(x+17)$  deb olamiz;
- 3) barchasi 32 ta bo'ladi va tenglama quyidagicha tuziladi:  $x+17=32$ .

Bor edi-? ta anor

Uzib kelindi-17 ta anor

Bo'ldi-32 ta anor

Masalani tenglama usuli bilan yechishga o'quvchining taxminiy mulohazalari: savatdagi anorlar sonini  $x$  bilan belgilasak, uzib kelingan anorlar 17ta, barchasi 32 ta bo'ldi va savatda qancha anor bo'lgan? Demak, masalaning shartiga ko'ra tenglama tuzib ishlaymiz.

Yechish:  $x+17=32$

$x=32-17$

$x=15$ demak, savatda 15 ta anor bo'lgan. O'quvchilar uchun eng qiyin vaziyat noma'lumni to'g'ri o'rinda ishlatib, tenglamani to'g'ri tuzishdir. O'quvchilarda tushunchalar hosil bo'lishi uchun shunga o'xshash masaladan yana birini tushuntirgan holda ishlab ko'rsatamiz:

Masala: Voleybol to'garagida 17 nafar o'g'il bola va bir necha qiz bolalar bor edi. To'garakka yana 8 nafar qiz bola qo'shib olinganidan keyin qizbolalar soni o'g'il bolalar sonidan 4 nafar kam bo'ldi.

Voleybol to'garagida qancha qiz bola bo'lgan?

- 1) o'g'il bolalar 17 nafar;
- 2) bir necha qiz bolalarni  $x$  bilan belgilaymiz;
- 3) to'garakka yana 8 nafar qiz qo'shildi;
- 4) qiz bolalar soni o'g'il bolalar sonidan 4 nafar kam.

Tenglamani quyidagicha tuzib olamiz:

Yechish:  $x+8-4=17$

$x+4=17$

$x=17-4$

$x=13$ ta

Javob: Qizbolalar soni 13 natar ekan.

Shunday qilib boshlang'ich sinfning boshidan oxirigacha sonli tenglik va tengsizliklarni, tenglamalarni o'qitish, tenglamalar tuzib masalalar yechish jarayoni tizimli oddiydan murakkabga davom ettiriladi. 4-sinfdan ko'p xonali sonlar bilan birgalikda to'rtta arifmetik amalga doir tenglamalarni yechishga o'rgatiladi. Buni amalga oshirishda har doim an'anaviy tarzda emas, balki no'an'anaviy usulda ya'ni interaktiv metoddan foydalangan holda o'quvchilarga masalalarni yechishga o'rgatilsa, dars samaradorligi oshadi. Sababi didaktik o'yinlar va interaktiv metodlar o'quvchilarni darsga faolroq va diqqat bilan qatnashishiga muhim turtki bo'ladi. Boshlang'ich ta'limda motivlar hosil qilishga didaktik o'yinlarning o'rni beqiyosdir. O'yinsiz tom ma'noda rivojlanish bo'lishi mumkin emas. O'yinlar o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni uyg'otadigan uchqundir. Yana dars jarayonida o'quvchilarning diqqatini darsga jalb qilmoq va faolroq qatnashishi uchun ko'roq ko'rgazmali qurollar va rolli o'yinlardan foydalanish o'rinlidir. Masalan matnimiz boshida misol qilib keltirgan savatdagi anorlarni topishga doir masalamizni o'quvchilarga vaziyatni ko'z o'ngida gavdalandirish uchun haqiqiy savatcha va bir nechta anorlarni o'qituvchi dars jarayonida ishlatsa o'quvchi yaxshiroq tushunib yetadi. Yoki ikkinchi masalamizni ko'rsak, bunda voleybol to'garagi a'zolari sifatida o'quvchilarning o'zlarini misol qilib aytilsa masalaning mohiyatini tushunishi osonlashadi. Didaktiko'yinlar ma'lum

birmateriallaryokishart-sharoitlarni talab etmaydi, balki boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'yinni tashkil etish sohasidagi bilim va malakalarini talab etadi. O'yinning ma'lum bir tizim va metodika asosida tashkil etilishigina o'quvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantiradi. 4-sinf o'quvchilari o'rtasida o'tkaziladigan shunday o'yinlardan birini ko'rib o'tamiz: "Kim chaqon" o'yini. Biz quyidagi masalani yechishda "Kim chaqon" o'yinidan foydalanamiz. Bunga ko'ra sinf o'quvchilari 2 guruhga bo'linadi, shunga mos holda o'quv doskasi ham 2 qismga ajratiladi. So'ngra esa masala shartli ravishda o'qituvchi tomonidan o'yin ishtirokchilariga e'lon qilinadi. Ya'ni 1-guruh1-masalani, 2-guruh 2-masalani yechadilar. Qaysi guruh masalani tez va to'g'ri bajarsa, o'sha guruh g'olib sanaladi va bu guruhga rag'bat kartochkalari beriladi. Masala: Bir egatdan 3 qop kartoshka, ikkinchi egatdan shunday 4 qop kartoshka olindi. Hamma kartoshkaning massasi 315 kg. Har qaysi egatdan necha kgdan kartoshka olingan?

Yechish: Har bir egatdan olingan kartoshka kg ni x deb belgilaymiz.

$$3x+4x=315$$

$$7x=315$$

$$x=315:7$$

$$x=45$$

demak, har bir qopdan 45 kgdan kartoshka bor ekan. Bundan:  $3x=3*45=135$  va  $4x=4*45=180$  ni topamiz.

Javob: Birinchi egatdan 135kg, ikkinchisidan 180 kg kartoshka olingan.

3-sinf Matematika darsligidan: Ikki shahardan bir-biriga qarab yo'lga chiqqan avtomobillarning birinchisi 324km, ikkinchisi undan126km ko'p yo'l yurdi. Ikki shahar orasidagi masofa 1211km bo'lsa, ular orasida necha km yo'l qoldi? Masalaning yechimini tenglama tuzish yordamida yeching.

Ushbu masala orqali tenglama tuzishda: 1) ikkinchi avtomobil yurgan yo'l;

2) ikkala avtomobil jami yurgan yo'l; 3)oxirida bosib o'tilmagan yo'l topiladi.

Yechish: Bosib o'tilmagan yo'lni x deb belgilaymiz

$$324+324+126+x=1211$$

$$774+x=1211$$

$$x=1211-774$$

$$x=437$$

Javob:Ikki avtomobil orasida 437 km yo'l qoldi. Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan tenglama tushunchasini kiritishdan asosiy maqsad o'quvchilarda mustaqil hisoblash ko'nikmalarini rivojlantirish, mavhum tasavvurlarni shakllantirish va albatta tenglamalarni ishlash jarayonida ketma ketlikka rioya qilish qonun-qoidalarini o'rgatadi. Demakki, har bir o'qituvchi o'quvchilarni dars jaroyonida faollashtirishi, bolalarning matematik ko'nikmalarini, tenglama tuzish hamda uni mustaqil yecha olish malakalarini rivojlantirib borishi lozim. Masalalarni mustaqil ravishda tenglamalar tuzish orqali bajarish uchun yuqori sinflarda matematikani a'lo darajada o'zlashtirishlariga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.Matematika: 2-sinf uchun darslik /L.O'rinboyeva, Sh.Ismailov, N.Ruzikulova, U.Raxmonov, M. Jumayev, N.Ismailova, N.Usmanova.-T 2021-yil

3.Matematika: 3-sinf uchun darslik/ S.Burxonov, O'.Xudoyorov, Q.Norqulova, N.Ruzikulova, L.Goibova.-T.: "SHarq",2019-yil

3.Matematika o'qitish metodikasi /M.H.Hakimova. T.: "Durdona" nashriyoti. 2021-yil

## **BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARIDA TADBIRKORLIK KO'NIKALARINI SHAKLLANTIRISH ZARURATI**

**Qayimov Laziz Mizo o'g'li**

**BuxDU Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi**

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada mamlakatimiz aholisi va ayniqsa, yoshlarning iqtisodiy bilimini oshirish hamda yangicha fikrlaydigan shaxs– tadbirkorlarni shakllantirish masalasi keltirilgan.

*Annotation.* In this article, the issue of increasing the economic knowledge of the population of our country, especially young people, as well as the formation of new– thinking individuals-entrepreneurs is presented

*Аннотация. В данной статье рассматривается вопрос повышения экономических знаний населения нашей страны и особенно молодежи, а также формирования новых мыслящих личностей – предпринимателей.*

Bozor iqtisodiyoti davriga o'tish mamlakatimiz aholisi va ayniqsa, yoshlarning iqtisodiy bilimini oshirish hamda yangicha fikrlaydigan shaxs– tadbirkorlarni shakllantirish masalasini qo'ydi. Shu bois bugun mamlakatimizda oilaviy tadbirkorlik, kichik biznes bilan shug'ullanuvchi ishbilarmonlar safi tobora kengayib, ularga talab yanada ortib bormoqda. Bu esa tabiiyki, mazkur soha vakillarini tayyorlash, yoshlarni tadbirkorlik ko'nikmalarini egallash ruhida tarbiyalash bo'yicha ta'lim-tarbiya ishlarini rivojlantirishni talab etadi. Bizningcha, mazkur jarayonni uzluksiz ta'lim tizimining boshlang'ich sinflaridan boshlash maqsadga muvofiqdir. Boshlang'ich sinflardagi mehnat ta'limi va tarbiyasining asosiy maqsadi – o'quvchilarga faqat iqtisodiy bilim berishdan iborat emas, balki ularda jamiyatning iqtisodiy va bozor talablari asosida tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Chunki ushbu masalani hal etish uchun boshlang'ich ta'limda tadbirkorlikka oid ta'lim-tarbiya berishning zamonaviy va innovatsion texnologiyalarini, metodlarini, usullarini ishlab chiqish bugungi pedagogik izlanishlarda o'z aksini topishi zarur. Binobarin, tadbirkorlikni rivojlantirish va uni qo'llab-quvvatlash borasida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev doim ta'kidlab keladi: “Tadbirkorlik faoliyatining erkinligi, xususiy mulk daxlsizligini amalda ta'minlash bundan buyon ham davlat siyosatida ustuvor yo'nalish bo'lib qoladi. Biz iqtisodiyotimizni yanada erkinlashtirish, tadbirkorlarga keng yo'l ochib berish siyosatini bundan keyin ham qat'iy davom ettiramiz. Hal qiluvchi ahamiyatga ega bu sohani har tomonlama qo'llab-quvvatlash, uning oldida paydo bo'ladigan to'siqlarni butunlay olib tashlash masalasi davlat rahbari sifatida mening doimiy e'tiborim va nazoratimda bo'ladi”. Shuningdek, 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushini ko'paytirish, uning rivojini rag'batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish, yoshlarni oilaviy tadbirkorlik va xususiy biznesga jalb qilish vazifalari ham keng o'rin olgan. Demak, tadbirkorlikni rivojlantirish va taraqqiy ettirish uchun boshlang'ich ta'limdayoq tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish va bunda dastlabki bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilish zarur bo'ladi. Bu haqda gapirishdan oldin o'quvchilarda tadbirkor, tadbirkorlik tushunchalarining mazmun-mohiyatini bayon etish maqsadga muvofiqdir. Chunki bugungi sharoitda “tadbirkor” deganda aksariyat kishilarning ko'z oldiga biror mahsulotni sotib olib, keyin uning ustiga o'z narxini qo'yib sotadigan shaxslar keladi. Aslida tadbirkor olib-sotuvchi emas, balki “O'zbek tilining izohli lug'ati”da qayd etilganidek, tadbirkor – ishlab chiqarishni yoki boshqa faoliyatni tashkil etuvchi, moliyalashtiruvchi, tijorat yoki sanoat korxonasini foyda olish maqsadida boshqaruvchi shaxs, mulkdor. Shuningdek, izohli lug'atda “Tadbirkorlik”ka tadbirkorga xos xatti-harakat, faoliyat, xislat, deb izoh beriladi. O'qituvchining bunday tushuntirishlari orqali o'quvchilar tadbirkorni oddiy olibsotar emas, balki uddaburon, ishning ko'zini biluvchi, tashabbuskor inson deb bilishadi. Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarining tayanch o'quv rejasiga ko'ra, 1–4-sinflarda “Ona tili”, “O'qish”, “Odobnoma”, “Matematika”, “Atrofimizdagi olam”, “Texnologiya” fanlari tarkibida “Iqtisod va soliq alifbosi” sinfi o'qitiladi. Bu sinfni o'qitishdan asosiy maqsad – kichik yoshdan boshlab o'quvchilarga dastlabki iqtisodiy tushunchalarni singdirish, tadbirkorlik ko'nikmasini shakllantirish, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini, soliqlar va ularning turlarini sodda misollar yordamida tushuntirishdan iborat. Bu maqsadni amalga oshirish, birinchi navbatda, boshlang'ich sinf o'qituvchisining iqtisodiy bilimlarni nechog'li egallaganligiga bog'liq. Chunki o'quvchilarga iqtisod va soliq haqida ta'lim berish o'qituvchidan iqtisodga, tadbirkorlikka taalluqli bilimlarni, tushunchalarni, ko'nikmalarni bilishni talab etadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchilariga bilim berar ekan, ularda aqliy va jismoniy mehnat haqida, tadbirkor, ishbilarmon kishilar to'g'risida, pul, pulni ishlatish, sotuvchi va xaridor, savdo-sotiq, bozor, daromad, foyda, soliq, ishlab chiqarish, narx-navo kabi dastlabki tushunchalarni shakllantira boshlaydi. 1–4-sinf o'quvchisi uchun bozordagi narx-navoni bilib olish juda foydali. O'qituvchi interfaol usullarni qo'llab, bozordagi narx-navoning har kunlik (yoki haftalik) natijalarini o'quvchilarga tushuntirib boradi. Ayniqsa, texnologiya darslarida o'quvchilarni oilada ishlatiladigan buyumlarni tayyorlashga (iloji bo'lsa ularning sotuvini yo'lga qo'yishga), ularga tadbirkorlik uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratib berishga intilish ko'zlangan natijani berishi mumkin. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi tadbirkorning jamiyatdagi o'rnini misollar orqali tushuntirib berishi, yosh tadbirkorlar, fermerlar, ishbilarmonlar, bank-moliya sohasi, soliq, bojxona va boshqa idoralar vakillari bilan uchrashuvlarni tashkil etish, shuningdek, o'quvchilarni ilg'or texnologiyalar bilan tanishtirish maqsadida turli ko'rgazmalar, kichik biznes uchun texnika va jihozlar yarmarkalariga tashrif buyurishini uyushtirish, mahsulotlar ishlab chiqarish jarayoniga

jalb qilish, mahalladagi faol tadbirkorlar haqida soʻzlab berishi ham tadbirkorlik koʻnikmasini shakllantirishda yuqori samara beradi. Bunda oʻquvchilarning ijodiy individualligini rivojlantirish va takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari yechimini topish oʻqituvchi uchun muhim hisoblanadi. Oʻquvchilarda tadbirkorlik koʻnikmasi oʻz-oʻzidan vujudga kelmaydi. Ularda bunday holat va qiziqish avval oilada (ota-onaning shaxsiy namunalari asosida), keyinchalik maktabda oʻqituvchilar tomonidan oʻtkaziladigan darslar, darsdan va maktabdan tashqari turli tadbirlar orqali amalga oshiriladi. 1–4-sinf oʻquvchilarning hayot tajribasi va oʻzlashtirish imkoniyatlarini hisobga olgan holda ular ongiga tadbirkorlik koʻnikmalarini shakllantirishga oid bilim va malaka hosil qilishda yangi texnologiya, integratsion, innovatsion usullardan foydalanish, darsliklarni shu yoʻnalishdagi yangi zamonaviy bilimlar bilan boyitish, fanlarning imkoniyatlaridan foydalanish, mashgʻulotlar va toʻgaraklar asosida muayyan bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish muhim oʻrin tutadi.

Bunday ishlardan koʻzlangan maqsad–1–4-sinf oʻquvchilarining tadbirkorlikka boʻlgan qiziqishini rivojlantirish, ularni yaratuvchanlik, izlanuvchanlik, ijodkorlik, tashabbuskorlik, vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalashdir. Pedagogik tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, boshlangʻich sinf oʻquvchilarida tadbirkorlik koʻnikmasini shakllantirish borasida oʻziga xos qator muammolar mavjud. Birinchidan, boshlangʻich taʼlimda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tadbirkorlik koʻnikmalarini shakllantirishga oid taʼlim-tarbiya berish metodikasi, uning usul va shakllari, didaktik ishlanmalar bugungi zamon talablari darajasida ishlab chiqilmagan. Ikkinchidan, koʻpincha tadbirkorlik koʻnikmasini shakllantirish boshlangʻich sinf oʻquvchilarining iqtisodiy yoʻnalishdagi fan (yoki sinf)larni oʻzlashtirish natijalari va pedagogik kuzatishlar natijasi orqaligina baholanadi. Uchinchidan, tadbirkorlik koʻnikmasini shakllantirish tizimi, garchand chuqur oʻylanib ishlab chiqilgan yoki aniq maqsadga qaratilgan boʻlsa-da, lekin u darhol oʻz natijalarini bermasligi mumkin. Chunki uning natijalari obyektiv va subyektiv sabablarga bogʻliq boʻladi. Toʻrtinchidan, boshlangʻich sinf oʻquvchilarini tadbirkorlik koʻnikmasi va shaxs sifatlarining shakllanishi boshqa kishilar, oila, ijtimoiy muhit, qolaversa, butun jamiyatning taʼsiri ostida kechadi. Shuning uchun mazkur muammolarni bartaraf etish borasida muayyan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish zarurati yuzaga keladi. Xususan:

– “Iqtisod va soliq alifbosi” sinfi mashgʻulotlarida tadbirkorlik koʻnikmasini shakllantirishga xizmat qiladigan metodlardan foydalanish;

– har oyda alohida boshlangʻich sinf oʻqituvchilari ishtirokida seminarlar tashkil etish va pedagoglarning iqtisod va soliqqa oid bilimlarini yanada boyitish;

– sinfdan va maktabdan tashqari mashgʻulotlarga hududdagi yosh tadbirkorlarni taklif qilish va ular ishtirokida master-klasslar tashkil etish (albatta, 1–4-sinflar oʻquvchilari yoshini inobatga olgan holda);

– sinfdan “Yosh tadbirkor minbari” devoriy gazetasini tashkil etish va uni har oyda iqtisod, soliq, savdo-sotiq, daromad, foyda kabi tushunchalar mazmun-mohiyatini yoritish orqali yangilab borish;

– toʻgaraklarda yasalgan buyumlar har chorakning oxirida koʻrgazmalar orqali oʻqituvchilar, ota-onalar, oʻquvchilar jamoasiga namoyish etish va bu orqali maktab bozori va maktab yarmarkalarini tashkil etish;

– mashgʻulotlarda tadbirkorlikka oid savol-javob, testlardan foydalanish va h.k.

Mustaqillik yillarida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va bosqichma bosqich bozor ishlab chiqarishiga asoslangan munosabatlarni qaror toptirish Oʻzbekiston Respublikasida olib borilayotgan davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biri sifatida eʼtirof etildi. Shu bilan birga bozor munosabatining maʼnaviy-axloqiy gʻoyalar hamda milliy qadriyatlarga asoslanishiga alohida eʼtibor qaratildi. Binobarin, bozor ishlab chiqarishining oʻzaro raqobatga aylanishi – uning maʼnaviy-axloqiy negizlarini mustahkamlash zaruriyatini kun tartibiga olib chiqadi. Masalaning dolzarbligini hisobga olish, bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar koʻlamini kengaytirish, tadbirkorlik faoliyatiga yoshlarni tayyorlashda muayyan bilim va tushunchalarni hosil qilishning nazariy, pedagogik shart-sharoitlarini ishlab chiqish, bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. “Tadbirkorlik” tushunchasining mohiyatini yoritishda ushbu faoliyat mazmunida aks etuvchi “uy xoʻjaligi”, “kasanachilik”, “tadbirkor” va “hunarmandchilik tadbirkorligi” kabi turkum atamalarining oʻzaro aloqadorligi va bogʻliqligi hamda ularning yagona jarayon mazmunini yoritishga xizmat qilishini anglash muhim ahamiyatga ega. Tarixga nazar soladigan boʻlsak, kasanachilik azaldan ota-bobolardan bizga meros boʻlib qolgan. Abu Nasr Farobiy va Abu Ali ibn Sinolarning qarashlarida inson ehtiyojlari haqidagi taʼlimot markaziy oʻrinni egallaydi. Farobiyning fikri boʻyicha, kishilarning moddiy ehtiyojlarini jamiyat shakllanishining birlamchi sababi hisoblanadi. Zero, yuqorida aytilganidek, inson bu dunyoning oliy neʼmati va uning ehtiyojlarini qondirish har qanday jamiyatning yashash va rivojlanish shartidir.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim muassasalarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining tadbirkorlik ko'nikmasini shakllantirish masalasini ilmiy-pedagogik nuqtayi nazardan chuqur tahlil qilib, uning metodologik asoslarini ishlab chiqish zarurati tadqiqotimizning mavzusini belgilab beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Шустова Л.П. Автореферат. Формирование гендерной толерантности старшеклассников в специально созданных педагогических условиях. –Ульяновск. 2016. –19 с.
2. Шоумаров Ш., Шоумаров Ф.Б. Муҳаббат ва оила. Тошкент, Ибн Сино. 1990. – 92 б.
3. Штерн. Гендерная психология. СПб., 2015. –123-127. с.
4. Эгамов Х. Ўзингиз қирқинг ва ясанг. 1-синф учун дарслик. – Тошкент, Ўқитувчи, 1995. – 32 б.
5. Эриксон Э. Идентичность: юность и кризис // М.: Прогресс, 2016. –55-63 с.

## **О'QUVCHILARINI МАКТАБДА ИҚТISODIY ТАРБИЯНИ АМАЛГА ОШИРИШГА PEDAGOGIK – PSIXOLOGIK TAYYORGARLIGI**

**Qayimov Laziz Mizo o'g'li**

**BuxDU Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi**

*Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimiz aholisi va ayniqsa, yoshlarning iqtisodiy bilimini oshirish hamda yangicha fikrlaydigan shaxs– tadbirkorlarni shakllantirish masalasi keltirilgan.*

*Annotation. In this article, the issue of increasing the economic knowledge of the population of our country, especially young people, as well as the formation of new– thinking individuals-entrepreneurs is presented*

*Аннотация. В данной статье рассматривается вопрос повышения экономических знаний населения нашей страны и особенно молодежи, а также формирования новых мыслящих личностей– предпринимателей.*

Kuzatishlarimizning ko'rsatishicha pedagogik profilidagi oliy o'quv yurtlarida o'quvchilarini iqtisodiy tayyorgarligi "Pedagogika fani nazariyasi va tarixi" fani zimmasiga yuklatilgan bo'lib, u pedagogika nazariyasining quyidagi mavzu va savollarini o'rganish jarayonida amalga oshiriladi. Jumladan, "Pedagogika fan sifatida. Uning predmeti, maqsad va vazifalari" mavzusining "...pedagogika fanining asosiy kategoriyalari va tushunchalari..." savollarini o'rganish jarayonida o'qituvchi o'quvchilarini "ta'lim", "tarbiya", bilim, ko'nikma va malakalar, rivojlanish kabi kategoriya va tushunchalarning mazmuni bilan parallel ravishda "iqtisodiy ta'lim", "iqtisodiy savodxonlik", "iqtisodiy tarbiya", "iqtisodiy tarbiyalanganlik", "iqtisodiy ko'nikma", "iqtisodiy malaka"larning mazmun-mohiyatini yoritib borishi, ularni maktabda iqtisodiy tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashda asqotadi. Shu munosabat bilan maskur kategoriya va tushunchalarning ta'rifini keltiramiz. **Iqtisodiy tarbiya** – jamiyatning shaxsga mustaqil faoliyatida samarali ko'rsatgichlarni ta'minlovchi aniq iqtisodiy tushunchalar, iqtisodga bog'langan siyosat, qonuniyatlar, asoslar va ularning amalda faoliyati, yo'l-yo'riqlarning yig'indisini o'zlashtirishga imkon beruvchi, izchil, maqsadga muvofiq ta'sirdir.

**Iqtisodiy ta'lim** ijodkor shaxsning shakllanishiga ta'sir etuvchi iqtisodiy bilimlar, ko'nikma va malakalar yig'indisini uzluksiz, izchil, maqsadga ko'ra shaxsning ehtiyoj imkoniyatlarini hisobga olib, turli uslub, aniq dastur, metodikalar bilan yetkazish jarayonidir.

**Iqtisodiy savodxonlik** – mustaqil faoliyat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisini tarkib toptirish har bir shaxsning jamiyatda mavjud bo'lgan darajasini oshirishga, shaxsiy ehtiyojini qondirishga yordam beruvchi samarali faoliyat bilan shug'ullanishini ta'minlovchi iqtisodiy bilim, ko'nikma, malaka, yo'naltiruvchi qoida, uslublar majmuidir.

**Iqtisodiy tayyorgarlik** – shaxs shakllanishida talab, ehtiyoj va imkoniyatga ko'ra tanlangan sohalar, kasblar, mutaxassislik bo'yicha maxsus iqtisodiy, nazariy va amaliy bilimlar yig'indisini tarkib toptirish. O'zlashtirilgan aniq iqtisodiy nazariy va amaliy bilimlar mustaqil faoliyatda samara berishga kafolatlar, ya'ni aniq iqtisodiy ma'lumotlar.

**Iqtisodiy tarbiyalanganlik** -shaxs kamolotini belgilovchi axloqiy sifatlar bo'lib, kishilarning faoliyatidagi xuquqiy siyosati asosida namoyon etilishi iqtisodiy tarbiyalanganlik darajasi – shaxs xatti-harakatidagi samarali, ijtimoiy foydali faoliyat natijalari hayot talabi ekanligini anglash bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti jamiyatni yangilash sharoitida iqtisodiy tamoyillar haqida. Dars, darsdan tashqari mashg'ulotlar va oilada iqtisodiy tarbiya"; "Mehnat tarbiyasi" (... odamlarda ongli mehnatkash, mulkdorlik psixologiyasini shakllantirish ... Bozor munosabatlarini rivojlantirish va iqtisodiy

islohotlar sharoitida o'quvchi yoshlarni iqtisodiy tarbiyalash vazifalari, metodlari va mazmuni...) o'rgatishga bevosita yo'naltirilgan.

Iqtisodiy tarbiya barkamol avlodni tarbiyalashning muhim vositasi sifatida tarbiyaning boshqa yo'nalishlari bilan dialitik o'zaro bog'liqlikda va birlikda bo'ladi.

Iqtisodiy tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, mehnat tarbiyasi insonni mehnat mahsulotlariga bo'lgan o'z ehtiyojlarini qondirish maqsadida tabiat bilan ishlab chiqarish munosabatlariga kirishga da'vat etsa, iqtisodiy tarbiya esa tashkil etishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Iqtisodiy tarbiya o'quvchi yoshlarni iqtisodiyot nazariyasi bilan qurolantiradi, ishlab chiqarishda faol ishtirok etish, mehnatga iqtisodiy anglangan munosabatda bo'lish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalarni shakllantiradi. Iqtisodiy tarbiya o'quvchi yoshlarni nafaqat ishlab chiqarish s ohasida samarali mehnat qilishga, balki mehnat jarayonida tayyorlangan moddiy boyliklarni taqsimlash, almashuvi va iste'mol qilishida qatnashishiga ko'maklashadi.

Iqtisodiy tarbiyaning axloqiy tarbiya bilan o'zaro aloqadorligi mavjud. Iqtisodiy va axloqiy tarbiya o'quvchi yoshlarda mehnatga va mulkka ijobiy munosabatni tarkibining umumiy masalalarini hal qiladi, ularda tejamkorlik, iqtisodiy hisob-kitob qilish, ishbilarmonlikni shakllantiradi. O'quvchi yoshlarda mazkur sifatlarni shakllantirish ularning iqtisodiy bilim, ko'nikma va malakalariga asoslanadi va u jamiyatimizning manfaati va talablari bilan bog'langan.

Axloqiy tarbiyada asosan ma'naviy rag'batlantirish ustuvor bo'lsa, iqtisodiy tarbiyada moddiy va ma'naviy rag'batlantirishni birga qo'shib olib borishni ko'zda tutadi.

Iqtisodiy tarbiyaning "Pedagogik nazariyasi va tarixi" sinfi o'quv dasturiga kiritilgan boshqa tarbiyaviy faoliyat shakllari va turlari bilan bog'liq aloqalarini "Huquqiy tarbiya", "Ma'naviy tarbiya", "Nafosat tarbiyasi", "Jismoniy tarbiya" kabi mavzularni o'rganish jarayonida talabalarga yoritib beriladi. Jumladan, "Nafosat tarbiyasi" mavzusini o'rganish jarayonida pedagogika kafedrasida o'qituvchisi estetik tushuncha va didlarni shakllantirishni uning iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi yoki muvofiq emasligini, shaxs va jamiyatning iqtisodiy imkoniyatlarini hisobga olmasdan amalga oshirib bo'lmashligini talabalarga aniq misollarda ko'rsatib beradi. Estetik va iqtisodiy tarbiyaning o'zaro mustahkamligi, birinchi galda ana shunga bog'liqdir. Bundan tashqari, u mehnat estetikasida va ishlab chiqarishda namoyon bo'lib, mehnat jarayonini gumanizatsiyalashtirish, uning samaradorligi va sifatini oshirish vositasi bo'lib ham xizmat qiladi. Shu vaqtni o'zida mehnatni oqilona tashkil etish, mehnat samaradorligi va sifatini oshirish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirishni shaxsning estetik darajasini rivojlantirishga ta'sirini bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilariga isbotlab berish joiz.

"VII asrdan XIV asrning birinchi yarmi" mavzusini seminar mashg'ulotida o'rganish jarayonida boshlang'ich maktabning "Tarbiya" darsida "Isrofdan yaxshilik yo'q" deb Qur'oni Karimning "A'rof" surasining 31-oyatida bayon qilingan "Yenglar, ichinglar, lekin isrof qilmanglar", degan Alloh taoloning amriga maktab kutubxonasida, o'quv xonalarida, oshxonada kichik maktab yoshidagi o'quvchilar qanday amal qilayotganliklarini ko'rsatish maqsadida ularga kelgusi faoliyatlarida iqtisodiy reydlar o'tkazib turishni, bunda oziq-ovqat, suv, elektr energiyasi, gazdan foydalanilganlikning holati to'g'risida to'plangan materiallarni tahlil qilish orqali o'quvchilarga isrofdan saqlanish bo'yicha aniq ko'rsatmalar berish mumkinligi ta'kidlandi. Shuningdek, seminar mashg'ulotlarida kafedra o'qituvchisi talabalarga har bir o'quvchi uchun eng qimmatli bo'lgan vaqtni behuda o'tkazmaslik, yoshlik chog'idanoq sog'lig'ining qadriga yetmaslik, salomatlikka xavf tug'diradigan odatlarga mukkasidan tushish ham isrof ekanligini uqtirish va uni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar berishi ularning kelgusi ehtiyojlar, ularning cheksizligi, qondirilishi, iqtisodiy hamkorlik, tijorat, savdo munosabatlari kabi iqtisodiy kategoriyalar haqidagi fikr va ta'limotlari hozirgi vaqtda ham muhim ahamiyat kasb etib, bo'lajak o'qituvchilarning iqtisodiy ongi, tafakkurini rivojlantirish barobarida ularning o'zliklarini anglashlari va milliy qadriyatlarimizni tiklashda asqotishini ta'kidlash lozim. Bu esa Boshlang'ich sinflar da o'quvchilarini kelgusi pedagogik foliyatlar uchun muhim bo'lgan "Tabiatshunoslik asoslari", "Tabiatshunoslik o'qitish metodikasi", "Mehnat ta'lim va uni o'qitish metodikasi" va h.k. fanlarni o'rganish jarayonida ularni Beruniy tamonidan bundan 1000 yil avval ishlab chiqilgan usullari ya'ni pul-tovar munosabatlarini yanada rivojlantirish, turli hududlarda zarb qilingan tanga pullar o'rtasidagi haqiqiy nisbatlarini aniqlash, ularni o'zaro almashtirishda adolatli asoslarga ega bo'lish, shuningdek, tanga pul yasashdagi mavjud qallobliklarni oldini olish uchun, ya'ni turli metallardan yasalgan tangalar tarkibidagi qimmatbaho metallarning haqiqiy miqdorini aniqlashni, mazkur fanlarning amaliy mashg'ulotlarida tajribada sinab ko'rish bo'yicha loyihalar taqdimotini tashkil etishni va muhokama qilishni taqozo etadi.

Bulardan tashqari talabalarga kelgusi pedagogik faoliyatlarida halol odamni qalloblik, ta'magirlik qilmasligi, birovlarini qon qaqshatib boylik orttirishdan nafratlanishi, xalq qarg'ishidan cho'chishi, ana shunday insoniy fazilatlariga ega bo'lgan kishi hamisha xiyonat, nopoklik yo'lidan qaytishi, halollik,

poklik, diyonat sari intilishi muqarrar ekanligini kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga yetkazish barobarida ularga iqtisodiy ish-harakat ma'nolarini anglatuvchi mashq matnlari sifatida "Qobusnoma"ning tegishli parchalaridan foydalanish uchun "Ona tili", "Tarbiya" va b.q. fanlarning integratsiyasini amalga oshirish bo'yicha tavsiyalar berish maqsadga muvofiqdir.

Auditoriya vaqtining chegaralanganligi munosabati bilan bu bebaho asarda o'quvchilarining iqtisodiy tayyorgarligini oshirishga hizmat qiladigan iqtisodiy mazmun bilan yo'g'rilgan barcha parchalarni ular bilan birga tahlil qilishga imkoniyat bo'lmaydi.

Shu boiz mustaqil o'qib o'rganish va o'zlashtirish uchun ona tili, ona tili o'qitish metodikasi va b.q. fanlar o'qituvchilari bilan hamkorlikda mazkur asar bo'yicha qisqacha iqtisodiy lug'at ma'lumotnoma tuzish, iqtisodiy qadriyatlarimizni auditoriyada va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarida leksik, frazeologik jihatdan tahlil qilishga imkon beradigan materiallarni saralab olishga jalb qilish joizdir.

Ma'lumki bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tishning muhim vazifalaridan biri, bu jamiyatimizning barcha a'zolarini kundalik faoliyatida amaliy hisob -kitob olib borishga va oqilona tadbirkorlikka o'rgatishdan iboratdir. Bu esa pedagogika kafedrasida o'qituvchisidan ma'ruza va seminar mashg'ulotlarida mazkur vazifalar sirasidan boshlang'ich sinf o'qituvchisining maktabdagi pedagogik faoliyatida turli fanlarni o'qitish jarayonida o'quvchilarga iqtisodiy ta'lim-tarbiya berish bo'yicha ishning mazmunini, shakl, metod va vositalarini aniq mavzu va savollar misolida izohlab berishni taqozo etadi.

Yuqorida bayon qilinginlardan ko'rinadiki, pedagogika tarixini o'rganish bo'lajak o'qituvchilarni zardushtiylik va islom dinining muqaddas kitoblari hamda hadislarida xalqimizni halol mehnat qilishga, poklikka, da'vatlari hamda xalk og'zaki ijodiyoti namunalari, buyuk ajdodlarimizning iqtisodiy ta'limotlari, g'oyalari, fiklari, shuningdek, rivojlangan davlatlarning iqtisodiy tarbiya nazariyasi va amaliyoti bo'yicha erishgan yutuqlari hamda respublikamizda yosh avlodga iqtisodiy ta'lim-tarbiya berishga qaratilgan ma'yoriy hujjatlari bilan qurollantirish, talabalarga boshlang'ich maktabda o'qitiladigan fanlar mazmuniga iqtisodiy ta'lim-tarbiyani singdirish orqali o'quvchilarni tarbiyalash imkonini beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Эриксон Э. Идентичность: юность и кризис // М.: Прогресс, 2016. –55-63 с.
2. Юкина И.И. История женщин России: женское движение и феминизм в 1850 – 1920-е годы: материалы в библиографии. – СПб.: –Алетейя, 2013. – 234 с. (Гендерная коллекция).
3. Юсупова Ф.И. O'quvchilarning individual tayjergarligini amalga oshirishning pedagogik ta'limi. Ж. –Тошкент, 2015. № 5. –90 – 93 б.
4. Юдашина. Н.И. «Педагогика» 2011. -№8. –67-72 с. – Библиогр.: –72 с.  
<http://lib.sportedu.ru/>

### **BOSHLANG'ICH SINIF CHAPAQAY O'QUVCHILARNI YOZUVGA O'RGATISHNING NAZARIY ASOSLARI**

**R. A. Qo'ldoshev,**

*Buxoro davlat universiteti Maktabgacha ta'lim kafedrasida mudiri, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**S. U. Subhonova,**

*Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti magistranti*

*Аnnotsatsiya. Ushbu maqolada chapaqay bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida ota-onalar, tarbiyachi va maktab o'qituvchilariga zarur tavsiyalar berilgan. Shuningdek, farzandingizni o'rganish va rivojlantirishga yordam beradigan bir nechta foydali maslahatlar ham kiritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *chapaqay, o'naqay, o'ng yarim shar, chap yarim shar, ambidekstr.*

Mamlakatimizda boshlang'ich ta'limda o'qitishni sifat jihatdan jadal rivojlantirish, o'quvchilarni mustaqil fikrlash, atrofda voqelikka ongli munosabatda bo'lish, daxldorlik va ijtimoiy faollik kabi sifatlarini, nutq va tafakkurini rivojlantirish, yuksak ma'naviyatli barkamol shaxsni kamol toptirish sog'lom avlodni voyaga etkazishning muhim omili sifatida boshlang'ich ta'lim tizimidan boshlab ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng miqyosda qo'llash zaruratini yuzaga keltirdi. Jumladan, boshlang'ich sinflardan boshlab yozuv savodxonligini oshirish, o'quvchilarning tayanch kompetensiyalari mazmunini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor berilmoqda. «Yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalar, ezgu fazilatlar egasi bo'lgan insonlar etib voyaga etkazish, ta'lim sifatini tubdan yaxshilash maqsadida, avvalo, o'quv dasturlari, metodik qo'llanmalarni ilg'or xalqaro mezonlarga moslashtirish, bolalarning tahliliy va kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun

ularga sermazmun va tushunarli darsliklar yaratish zarur<sup>1</sup>». Bu borada boshlang'ich sinflarda chapaqay o'quvchilarni o'qitish jarayonini modernizatsiyalashning amaliyotdagi holatini tahlil qilish, chapaqay o'quvchilarni faollashtirish orqali boshlang'ich sinf o'qituvchisi va o'quvchilari o'rtasidagi munosabatlarni insonparvarlashtirish mexanizmlarini takomillashtirish mazmuni, usullari, metodlari va vositalarini aniqlashtirish hamda ilmiy asoslash muhim ahamiyat kasb etadi.

Chapaqay o'quvchilarni yozuvga o'rgatishdan asosiy maqsad kichik yoshdagi o'quvchilarga yozishdek murakkab jarayonni o'rgatish orqali, ularning chiroyli yozuv ko'nikma va malakalarini rivojlantirishdan iborat. Yozuvga o'rgatishning oldiga bir qator vazifalar qo'yiladi. Bu vazifalar ko'p qirrali bo'lib o'quvchilarni aqliy rivojlantirishga, ularning atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirishga, axloqiy va estetik didini tarbiyalash, ongli o'qish va yozish malakalarini hamda yozuv daftarlari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Yozuvga o'rgatishning oldiga bir qator vazifalar qo'yiladi. Bu vazifalar ko'p qirrali bo'lib o'quvchilarni aqliy rivojlantirishga, ularning atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirishga, axloqiy va estetik didini tarbiyalash, ongli o'qish va yozish malakalarini hamda yozuv daftarlari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur vazifalarning barchasi o'zaro bog'liq holda amalga oshiriladi. Ularni ijobiy hal qilish esa zaruriy yozuv malakalarini egallashga darslikda o'quvchilar saviyasiga mos tarzda berilgan nazariy va amaliy materiallarning uyg'unlashtirilishi, o'zlashtirish ustida ishlashni maqsadga mos holda uyushtirish, shuningdek, matn sifati, topshiriqlar xususiyati va bolalar aqliy faoliyatining o'ziga xos tomonlarini belgilaydigan qator shart-sharoitlarga bog'liq.

Inson hayotida yozuv muhim o'rin tutadi. Chunki u har kuni turli-tuman qog'ozlar va hujjatlardan foydalanadi. Bularning hammasi chiroyli va bexato yozishni taqozo etadi. Ammo qisqa muddat ichida kichik yoshdagi maktab o'quvchilarida chiroyli, tez va bexato yozish ko'nikma va malakalarini shakllantirish ma'lum bir qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

So'nggi paytda dunyoda chapaqaylar soni ortib bormoqda. Masalan, XX asr boshida ular aholining 4 %ini tashkil etgan bo'lsa, endilikda bu ko'rsatkich 15 %ni tashkil etmoqda. Statistika ma'lumotiga ko'ra, hozirda er yuzida 600 million chapaqay odam bor. Bu har 10-15 nafar kishining bittasi demakdir.

Yozuvga o'rgatish jarayonida harakatlarni bajarishda deyarli barcha holatlarda chap qo'ldan foydalanuvchilar chapaqaylardir.

Odam bosh miyasining rivojlanish jarayonida amallar chap va o'ng yarim sharlar o'rtasida taqsimlanadi. Chap yarim shar zimmasiga nutq, o'qish, yozish, hisoblash, tahliliy faoliyatning mantiqiy, matematik va boshqa murakkab operatsiyalari, o'ng yarim shar zimmasiga esa tashqi olamdagi narsalarning ko'rinishi, rangi va shu kabi yana ko'plab narsalarni aniqlash vazifasi yuklatiladi. Oyoq va qo'l harakatlari ikkala yarim shar o'rtasida taqsimlangan bo'lib, chap yarim shar ixtiyorida o'ng qo'l va oyoq, chap qo'l va oyoq o'ng yarim shar ixtiyorida bo'ladi.

Chapaqay o'quvchi yozishga biroz qiynaladi. Chapaqay bola biror bir matnni yozayotganda chap qo'l yozilayotgan yozuvni berkitib turadi va qayta-qayta yozganlariga qarayveradi. O'ng qo'lda yozadiganlar esa yozganlarini ko'rib turib, davom ettiraveradi va vaqtdan yutadi. Aslida, bu vaqtinchalik holat. Doimiy ravishda chap qo'l bilan yozish natijasida ba'zi chapaqay o'quvchilar o'ng qo'lda yozadiganlardan ham o'zib ketadi.

Ko'pchilik ota-onalar chapaqay bolalarini chiroyli yozishga o'rgata olmayotganliklaridan qiynaladilar. Chunki farzandlari oddiy bolalarday ruchkani ushlay olmaydi. Bu hol ularni asabiylashtiradi. Chapaqay o'quvchilarni yozuvga o'rgatish muammosi bugungi kunda turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Bosh miya chap va o'ng yarim shardan iborat. Bosh miyaning chap yarim sharida nutq markazlari joylashgan. Shuning uchun bosh miyaning chap yarim sharida so'z bilan bog'liq barcha tafakkur g'oyalari amalga oshiriladi. Bosh miyaning o'ng yarim shari ob'ektlarning fazoviy joylashuvini tahlil qilish uchun javob beradi. Masalan, atrof-muhitdagi uylar, daraxtlar, mashinalar, haykallar va har qanday shaklga ega bo'lgan ob'ektlarning shakl-shamoyilini tahlil qiladi. Demak, bosh miyaning o'ng yarim shari dunyoni so'z ishtirokisiz qabul qiladi va bu erda, asosan, ko'rish analizatorining ahamiyati muhim hisoblanadi.

Chap yarim shar esa so'z bilan ifodalangan ma'lumotlarni qabul qiladi va tahlil qiladi. Obrazli qilib aytganda, chap yarim shar, asosan, so'z bilan, o'ng yarim shar esa ko'z bilan dunyoni idrok etadi. Bu uyg'unlik saqlangan bo'lsa, insonning xotirasi mustahkam bo'ladi.

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 29 декабрдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>

Kitobdagi siz ko'rayotgan geometrik shakllarni qabul qilib olish ham o'ng yarim sharning vazifasi. Biroq har qanday fazoviy jism yoki geometrik shakllarni so'z bilan ifodalab berish talab qilinsa, bu erda chap yarim shar yordamga keladi. Chap yarim sharning tili bor. Biroq hozir men keltirib o'tgan misollar o'naqaylar uchun xos.

Chapaqaylarda nutq markazlari bosh miyaning o'ng yarim sharida joylashgan bo'ladi. Chapaqaylarda chap yarim shar bajaradigan aksariyat funksiyalar o'ng yarim shar zimmasiga yuklatilgan. Bundan tashqari, *ambidekstrlar*, ya'ni oliy ruhiy funksiyalarni bajarishda miyaning ikkala yarim shari bir xilda ishtirok etadiganlar ham bor. Bundaylar ikkala qo'li bilan ham bir xil ishlay oladiganlar. Biroq bu degani ikkala qo'li bilan ham yoza oladi, degani emas. Masalan, ambidekstr yozganda, qalamni o'ng qo'lga oladi, nonni kesish uchun chap qo'li bilan pichoqni ushlaydi. "Toza" chapaqaylar 15%dan oshmaydi. Bizning oramizda ambidekstrlar va o'naqaylar ko'p. Ambidekstrlarda nutq funksiyasini bajarishda bosh miyaning ikkala yarim shari ham ishtirok etadi. Shu bois ambidekstrlarda insult sababli nutq buzilsa, u tez tiklanadi.

Chapaqaylar ko'proq amaliyotchi, o'naqaylar esa nazariyotchi bo'lishadi. Chunki miyaning chap yarim shari (ya'ni so'z markazlari joylashgan yarim shar) ustunlik qiladigan o'naqaylar narsa va voqealarni tahlil qilib o'tirguncha, miyaning o'ng yarim shari ustunlik qiladigan chapaqaylar (amaliyotni yaxshi ko'radigan o'ng yarim shar) ishni darrov amalga oshiradi-qo'yadi.

Fliders universiteti professori M. Nikolsning aytishicha, inson faqat genetik jihatdan chapaqay yoki aksincha bo'lib tug'ilishi mumkin. Biroq buni nuqson deyish mutlaqo noto'g'ri. Jismoniy imkoniyatlar teng bo'lganidek, har ikki toifadagi odamlarning aqliy qobiliyati ham teppa-teng[1].

Butunjahon chapaqaylar kunini nishonlash g'oyasi ilk marotaba 1990 yilda Britaniya Chapaqaylar klubi tomonidan berilgan.

1992 yilning 13 avgustida u ilk marta nishonlangan. Klub bu bayramda chapaqay o'quvchilarnilarni maktablarda majburlab o'ng qo'lda yozishga o'rgatishga qarshi ekanliklarini namoyish qilib jamoatchilik e'tiborini tortishga harakat qiladi.

Har yili 13 avgustda norasmiy ravishda Xalqaro Chapaqaylar kuni (International Lefthanders Day) nishonlanadi.

Statistikaga ko'ra, chapaqay bolaning tug'ilish ehtimoli, agar ikkala ota-ona o'naqay bo'lsa, faqat 2%. Agar ota-onalardan biri chapaqay bo'lsa, ehtimollik 17% ga oshadi va agar ota-onalarning har ikkalalari chapaqay bo'lishsa, 46% hollarda chapaqay bolalar dunyoga keladi.

Yana bir maxsus guruh odamlar borki ularni **ambidekstr** deyiladi. Ular har ikkala qo'llari bilan ham bir xil - yaxshi ishlay olishadi. Ular miyasining har ikkala yarim shari teng ravishda rivojlangan. Ambidekstr ko'pincha tug'ma mahorat emas, balki ko'p yillik doimiy mashqlar natijasida yuzaga keladigan iste'dod. Bunga faqatgina tinimsiz mehnat orqali erishiladi. Yer yuzidagi odamlarning faqat 1%, albatta, ikkala qo'l bilan ham teng va to'laqonli faoliyat olib borib biladilar, xolos.

Ma'lumotlarga qaraganda, chapaqay bolalarning qo'pchiligi o'zining chap qo'lda yozishidan uyalar ekan. Bir muddat o'ng qo'lda yozishga harakat qilib, uddalay olmagach, yana chap qo'lda yozishni boshlar ekan.

Ma'lumki, shu paytga qadar chapaqay insonlarning aksariyati noyob iste'dodga ega bo'lishadi, degan aqida mavjud. Ba'zi olimlarning xulosalariga ko'ra, chap qo'lda ishlaydiganlar boshqalardan deyarli farqi yo'q ekan.

Chapaqay bolalar yozishga biroz qiynaladi. Chunki biror - bir matnni yozayotganda chap qo'l yozilayotgan yozuvni berkitib turadi. Ular qayta-qayta yozganlariga qarayveradi. O'ng qo'lda yozadiganlar esa yozganlarini ko'rib turib davom ettiraveradi va vaqtdan yutadi. Aslini olganda, bu vaqtinchalik holat. Doimiy ravishda chap qo'l bilan yozish natijasida ba'zi chapaqay o'quvchilarnilar o'ng qo'lda yozadiganlardan ham o'zib ketadi.

Tajribalardan ma'lum bo'lishicha, katta yoshdagi insonlar orasida chapaqaylar kamchilikni tashkil etardi. Olimlar buni inson yoshining o'sishi bilan izohlaydi. AQShda 20 yoshlilarning 12%, 50 yoshlilar orasida 5%, 80 yoshlilar orasida esa bor-yo'g'i 1%ni chapaqaylar tashkil etar ekan. Buning sabablari hozirga qadar sir bo'lib qolmoqda.

Dunyodagi 85% odam o'naqay. Shu bois asosiy predmet va turli xildagi narsalar ular uchun ishlab chiqarilgan. Agar oilada chapaqay farzand dunyoga kelsa, unga ozgina boshqacha munosabatda bo'lishga to'g'ri keladi. Eng asosiysi - chapaqaylik organizmning kamchiligi emas, balki o'ziga xos xususiyat deb tushunish kerak. Shu bois, bolani kichkinaligidan chapaqaylikni bartaraf etishga, faqat o'ng qo'ldan foydalanishga majburlamaslik kerak. Aks holda bolaning psixik holatida o'zgarish bo'lib, o'qishga nisbatan salbiy holat kuzatilishi mumkin.

**Adabiyotlar**

1. Kraus E. Proposal of a differentiation system "handedness type with variants" for the analysis of changing hand use // between left and right handedness. - Springer, Berlin, Heidelberg, 2019. - С. 157-191.
2. Avezmurodovich O. R. Difficulties in learning to write and read left-handed children //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8 (8), 40. – 2020. – Т. 45.
3. Қўлдошев Р. А. Бошланғич синф чапақай ўқувчиларини ёзувга ўргатишнинг методик асослари. Пед. фан. фал. док... дисс. – Бухоро, 2021. – 146 б.
4. Azimov Y. Y., Qo'ldoshev R. A. Husnixatga o'rgatishning amaliy asoslari (metodik qollanma). GlobeEdit, 2020.-141bet.

**БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМДА ТАБИИЙ ФАНЛАРНИ ЎҚИТИШНИНГ ДИДАКТИК ТАЛАБЛАРИ**

**М. М. Джумаева, ТермезДУ ҳузуридаги ТермезДПИ ўқитувчиси**

**Аннотатсия.** Ўқувчиларнинг табиат тўғрисидаги илмий дунёқарашларини шакллантириш, тафаккурини ривожлантиришда табиат қонунларини асослаб табиийёт ва география ўқтилишида миллий ўқув дастури дидактик талаблари ўқитишда илмий ва амалий билимлар мажмуасини ёритиш табиий ва иқтисодий фанлар блок-модулининг асосий вазифасини белгилаб беради.

**Калит сўзлар.** География, ўқитиш, таълим ва тарбия, кимё, биология, табиат, миллий ўқув дастури.

**Аннотатсия.** Основной задачей блок-модуля естественных и экономических наук является формирование научного взгляда на природу, развитие мышления учащихся.

**Ключевые слова.** География, преподавание, образование, химия, биология, природа, национальная учебная программа.

Lecturer at Termez State Pedagogical Institute at Termez State University

**Annotation.** The main task of the block module of natural and economic sciences is the formation of a scientific view of nature, the development of students' thinking.

**Key words.** Geography, teaching, education, chemistry, biology, nature, national curriculum.

Ёшларнинг билим ва иқтидорини чуқурлаштириш, уларнинг келгусида малакали кадрлар бўлиб Ўзбекистонни янада ривожлантиришдаги иштирокини таъминлаш мақсадида таълим жараёнига замонавий ёндашувлар жорий этилмоқда, шунга жавобан тадқиқот ишимизни самарали ва амалиётга жорий этишда натижавийликка этиборни қаратмиз. [1]

География таълимининг ўқтилиши замонавий таълим технологияларига асосланган ҳолада ўқувчиларда ҳозирги замон талаблари, таълим соҳасидаги жаҳон андозалари ва миллий ривожланиш манфаатларига мос келадиган географик маданиятни, яъни географик дунёқараш, тафаккур ва билимлар, уларни ҳаётий ва касбий амалиётда қўллай олиш кўникма ва малакаларини (компетентликни) шакллантириш;

ўқувчиларда Ер сайёраси ва унинг ҳудудий қисmlари ҳақида яхлит билимларни шакллантириш, табиий, ижтимоий-иқтисодий ҳамда экологик ҳодиса ва жараёнларни тушуниш учун илмий-методологик замин яратиш, табиатдан оқилона фойдаланиш ва уни муҳофаза қилиш борасида ҳаётий кўникмаларини шакллантириш, уларни тахлилий фикрлашга ўргатиш, олган назарий билимлари асосида амалий кўникмаларни шакллантиришга қаратилган халқаро баҳолаш дастури (PISA, TIMSS) талабларига мос келадиган топшириқлар билан ишлашини ривожлантиришдан иборат.

**География таълимининг вазифалари:**

Ер сайёраси ва унинг алоҳида ҳудудлари, жумладан Ватанимиз

Ўзбекистоннинг табиати, аҳолиси ва хўжалиги ҳақидаги тизимли билимларни ҳосил қилиш; табиий ва ижтимоий-иқтисодий жараёнларни кузатиш ва таҳлил қилиш кўникмаларини ҳосил қилиш;

жамият ва табиат ўртасидаги ўзаро муносабатларининг моҳияти ва хусусиятлари, сабаб-оқибатларини тушунтириш ва ййечиш йўллари тўғрисида тушунча ҳосил қилиш, ёш авлоднинг экологик маданиятини, миллий бойликларга нисбатан эҳтиёткорлик ва тежамкорлик муносабатини ўстириш;

турли ахборот манбаларидан фойдаланган ҳолда, табиий ҳамда ижтимоий- иқтисодий объект ва ҳодисаларни тавсифлаш, географик хариталар ва статистик маълумотлар билан

ишлашнинг амалий кўникма ва малакаларини таркиб топтириш;

жой номлари ва географик атамаларни тўғри қўллаш кўникмаларини шакллантириш;

географик билимлар асосида ўқувчиларнинг мантиқий фикрлаш доирасини кенгайтириш;

ўқувчиларни ўлкашунослик тамойили асосида Ватанга муҳаббат, миллий ифтихор,

фуқаролик масъулияти руҳида тарбиялаш;

таълим-тарбияда фанлараро боғланишни таъминлаш;

глобал Интернет тармоғидан фойдаланган ҳолда дарс жараёнига

инноватсион ва ахборот технологияларини жорий этишдан иборат.

Умумий ўрта таълим тизимида география фанининг илмий методик таъминотини ривожлантириш бўйича қуйидаги тадбирлар амалга оширилади:

илгор хорижий тажрибалар, халқаро стандартлар ва миллий анъаналар уйғунлигида география фани бўйича миллий дастур ишлаб чиқиш;

география фани бўйича умумий ўрта таълим муассасалари битирувчиларига қўйиладиган малака талабларини ишлаб чиқиш;

умумий ўрта таълимнинг таянч ўқув режасида белгиланган география фани ўқув юкламасининг минимал ҳажми ҳамда уларнинг синфлар бўйича тақсмоти юзасидан таклифлар тайёрлаш;

таянч ўқув режага мувофиқ география фанининг синфлар ва мавзулар бўйича ҳажми, мазмуни, ўрганиш кетма-кетлиги ва шакллантириладиган компетенциялари асосида ўқув дастурларини ишлаб чиқиш;

география фани бўйича синфлар кесимида ўқув-методик мажмуаларни (дарслик, ўқитувчи учун методик кўлланма, дарсликларнинг мултимедиали иловалари) босқичма-босқич такомиллаштириш;

география фанининг мазмуни, ўзига хос хусусиятлари, малака талаблари ва шакллантириладиган компетенциялардан келиб чиққан ҳолда баҳолаш тизимини ишлаб чиқиш;

география фани бўйича синфлар кесимида ўқув-методик мажмуаларни ишлаб чиқиш қуйидаги принциплар асосида амалга оширилади:

ўқув-методик мажмуалар таълим соҳасидаги давлат сиёсатининг асосий принциплари асосида яратилганлиги;

ўқувчиларнинг ёши, психофизиологик хусусиятлари, билим даражаси, қизиқишлари, лаёқатлари ҳисобга олинганлиги;

ўқувчиларда ватанпарварлик ва миллий ғурур ҳиссини шакллантиришга қаратилганлиги; умумий ўрта таълимнинг зарур ҳажми берилганлиги, ўқувчиларда мустақил ижодий фикрлаш, амалий тажриба кўникмаларини ривожлантиришга йўналтирилганлиги.

Ўқув-методик мажмуаларни ишлаб чиқишга қуйидагича талаблар қўйилади:

**а) дидактик талаблар:**

ўқувчи томонидан ўқув материалларининг тўлиқ ўзлаштирилишини

таъминлаш;

матнлар ахборот беришга эмас, балки ўқув фанининг мазмун-

моҳиятини тушунтириш мақсадларига хизмат қилиши;

ўлкашунослик тамойили асосида ўқувчиларни Ватанга муҳаббат, миллий

ифтихор, ёш авлоднинг экологик маданиятини, миллий бойликларга нисбатан эҳтиёткорлик

ва тежамкорлик муносабатини ўстириши;

илмий дунёқарашни шакллантириш, ватанпарварлик ва миллатлараро тотувлик талабларига жавоб бериши, аниқ далилларга асосланган материаллардан таркиб топиши;

таълимнинг кундалик ҳаёт ва амалиёт ўртасидаги боғлиқлигини таъминлашга, олинган билимларни амалиётда қўллаш олиш лаёқатлари шакллантирилишига, бошқа ўқув фанлари билан узвий боғлиқликни таъминлашга йўналтирилган бўлиши;

расмлар кўринишидаги иллюстрациялар: хариталар, жадваллар, диаграммалар ва фотосуратлар билан безатилган бўлиши;

таянч тушунчалар, атамалар ва шу кабилар луғат кўринишида ифодаланган бўлиши лозим.

**б) илмий-методик талаблар:**

фан-техниканинг сўнгги ютуқларини ўзида акс эттириши;

ўқув фани мавзуларининг мазмунан яхлитлиги таъминланган бўлиши; ўқув фани мавзулари ўзбек адабий тили қоидаларига тўлиқ риоя қилган

ҳолда оддий ва содда, тушунарли ва равон тилда баён қилиниши;

мантиқий кетма-кетликка ва изчилликка амал қилиниши;

миллий ғоя ва Ўзбекистон халқининг менталитетига зид бўлмаган тегишли иллюстрациялар билан бойитилиши;  
саволлар ва амалий машғулот топшириқлари аниқ ифодаланган бўлиши;  
ўқувчиларни фикрлашга, ёзишга, тасвирлашга, таҳлил қилишга, ҳисоблашга, амалий топшириқларни бажаришда педагогик технологияларнинг турли метод ва усулларидан фойдаланиш назарда тутилган бўлиши;

бир тушунчанинг икки хил атама билан ифодаланишига, саналар, статистик маълумотларни келтиришда икки хилликка йўл қўйилмаслик.

**в) педагогик-психологик талаблар:**

кенг жамоатчилик томонидан тан олинган илмий асосланган маълумотлар,  
ўқувчиларнинг билим даражалари, эслаб қолиш қобилиятлари, тафаккури ҳисобга олинган ҳолда воқеа ва ҳодисаларнинг моҳиятини англашга ва амалий қизиқишларини ривожлантиришга, билим олишга ва амалий фаолият билан шуғулланишга бўлган эҳтиёжларини тўлақонли қондиришга йўналтирилган бўлиши;

ўқув фани мавзуларининг ўқувчи ёши ва психофизиологик хусусиятларига мос ҳолда берилиши, маълум фактлар, тушунчалар, қоидалар ва фанлараро боғлиқликни ҳисобга олган ҳолда тушунарли баён қилиниши;

ўқувчиларнинг янгиликларни қабул қилиш қобилиятлари, олдин олган билимларини ўзлаштирганлик даражаси ҳисобга олинган бўлиши лозим.

**г) эстетик талаблар:**

имкон даражасида ёрқин, рангли, қизиқарли ва чиройли бўлиши;  
матнлар ўқувчига маълум ижобий ҳиссий таъсирларни ўтказиши ва ўқув фанига қизиқиш уйғотиши;

бўлим, боб, параграф ва мавзулар матнларининг турли шакл ва ранглар билан ажратилиши, мутаносиблиги таъминланиши;

рasm ва хариталар бадий эстетик талабларга жавоб бериши, аниқ ва тиниқ ифодаланиши лозим.

**д) гигиеник талаблар:**

матн ва иллюстрациялар санитария қоидалари, нормалари ва гигиена нормативларига мос бўлиши;

харфларнинг катталиги ва қоғознинг сифати (оғирлиги, қалинлиги, оқлиги ва шаффофлиги) меъёрий ҳужжатларда белгиланган талабларга мос бўлиши лозим.

Ўқувчиларнинг табиат тўғрисидаги илмий дунёқарашларини шакллантириш, тафаккурини ривожлантиришда табиат қонунларини асослаб беришда биология, табиийёт ва география, физика, кимё, иқтисодий билим асослари ва тадбиркорлик асослари ўқув предметлари муҳим аҳамият касб этади. Табиатда рўй бераётган ҳодиса ва жараёнлар, тирик организмларнинг ривожланиш босқичлари, табиат ва жамият қонунларига инсониятнинг кўрсатадиган таъсирлари ҳақида илмий ва амалий билимлар мажмуасини ёритиш табиий ва иқтисодий фанлар блок-модулининг асосий вазифасини белгилаб беради[6].

Ўқувчининг ички мотивациясининг қанчалик шаклланганлиги табиий ва иқтисодий фанларга қизиқиши, атроф-муҳит муаммоларини англаши вани ҳал қилишда муҳим қарорларни қабул қилишни билиши ҳамда табиий ва ижтимоий муҳитга таъсирини таҳлил қилишда муҳим ўрин эгаллайди.

Фанларнинг ўзаро интеграцияси ўқувчиларда табиатни бутун бир борлиқ сифатида, оламнинг ягона манзарасини тасаввур этишга йўналтириши лозим. Шу билан бирга, ўқувчилар инсон фаолиятининг табиатга салбий ва ижобий таъсири, замон ва макон миқёсидаги глобал экологик муаммоларни ва табиат олдида жавобгарлик ҳиссини тушуниши, шунингдек, соғлом турмуш тарзига амал қилишлари ҳамда табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш кўникмаларини, табиат ва жамият тараққиётига ўз ҳиссасини қўша оладиган компетент шахсни тарбиялашни кўзда тутлади.

Шу билан биргаликда ихтисослаштирилган таълим йўналишида ҳам ёшларнинг истеъдоди ва қобилиятини ҳар томонлама ривожлантириш, уларнинг илм-фанни эгаллашга бўлган интилишларини қўллаб-қувватлаш ҳамда уларни баркамол, жисмонан ва руҳан соғлом шахс сифатида Ватанга садоқат руҳида тарбиялаш мақсадида фанлардаги мавзуларни кенгайтириб ўқитиш мақсадга мувофиқ ҳисобланади.

1. Ўзбекистон Республикасини 2017-2021 йилларда ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947 сонли Фармони.
2. 5A110501-Аниқ ва табиий фанларни ўқитиш методикаси (география). Тузувчи Алимқулов Н.Р. г.ф.н.доцент.ТДПУ. <https://new.tdpu.uz/page/6690>
3. Азатян А.А. Средняя Азия и Казахстан //Географическое общество за 125 лет. – Л.: Наука, 1970.
4. Ақромов З.М. Истиклол ва география // Истиклол ва география. Ўзбекистон.География жамияти IV съездининг материаллари. – Т., 1995. – Б.3-9 .
5. Алимов Р.М. Арифхонов Ш.Р.и др. Центральная Азия: геоэкономика, геополитика,безопасность. Т.: “Шарқ” 2002.
6. Анохин, А. А. География населения с основами демографии : учебник для академического бакалавриата / А. А. Анохин, Д. В. Житин. — Москва : Издательство Юрайт, 2019. — 279 с.
7. Ваҳобов Ҳ. Рафиқов А. Ўзбекистон табиатини муҳофаза қилиш. Тошкент. Ўқитувчи., 2000.  
Электрон ресируслар  
1. [www.tas'hkentpamyat.ru/s'hulc-viktor-lvovich-uchenijj-gidrolog-.html](http://www.tas'hkentpamyat.ru/s'hulc-viktor-lvovich-uchenijj-gidrolog-.html) 2. <http://www.tas'hkentpamyat.ru/babus'hkin-leonid-nikolaevich-uchenijj-geograf-.html> 3. <http://www.tas'hkentpamyat.ru/korzhenevskijj-nikolajj-leopoldovich-dejatel-nauki-.html>

## РОЛЬ ИНТЕГРАТИВНОЙ ПЕДАГОГИКИ В ФОРМИРОВАНИИ ПОЛОЖИТЕЛЬНОЙ ОЦЕНКИ УЧЕБНЫХ ДОСТИЖЕНИЙ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

*Юлия Землина,  
заведующий отделом УзНИИППН имени Кары Ниязи, PhD,  
учитель высшей категории начального образования,*

**Аннотация:** статья раскрывает особенности влияния интегративного обучения на результаты международных исследований в области образования в начальной школе, объясняется взаимосвязь двух популярных видов исследования, рассматривается оценка сформированности ключевых компетенций через предметные задания.

**Аннотация:** мақолада бошланғич синфда таълим соҳасидаги халқаро тадқиқотлар натижаларига интеграциялашган таълимнинг таъсирининг хусусиятлари очиқ берилган, иккита машҳур тадқиқот тури ўртасидаги боғлиқлик тушунтирилган, мавзу вазифалари орқали калит компетенцияларнинг шаклланишини баҳолаш лўриб чиқилади.

**Abstract:** the article reveals the features of the influence of integrative education on the results of international research in the field of education in primary school, the relationship between two popular types of research is explained, and the assessment of the formation of key competencies through subject tasks is considered.

**Ключевые слова:** интегративная педагогика, межпредметные связи, PIRLS, TIMSS.

**Калит сўзлар:** интеграив педагогика, фанлараро алоқалар, PIRLS, TIMSS.

**Key words:** integrative pedagogy, interdisciplinary connections, PIRLS, TIMSS.

Современные требования генерирования информации ставят перед участниками образовательного процесса задачи, направленные на формирование не столько предметных, сколько ключевых компетенций. Диагностировать уровень развития таковых представляется возможным через международные системы оценивания, раскрывающие учебные достижения, в том числе и учащихся начальных классов [1,2].

Однако понятие "учебные" в данном контексте приобретает несколько иное значение: международные исследования направлены на изучение способности учащихся аккумулировать

метапредметные компетенции через предметные навыки. Другими словами, тесты дают возможность учащимся спроецировать предполагаемый ход действий в отношении использования знаний, умений и навыков в жизненной ситуации с опорой на образовательный продукт – ключевые компетенции.

Так, задания мониторингового исследования PIRLS, согласно расшифровке аббревиатуры, направлены на изучение читательской грамотности, а материалы TIMSS работают с предметами математики и естественнонаучного цикла. Между тем оба исследования не ограничиваются диагностикой предметных знаний обозначенных дисциплин: чтобы решить задание, необходимо обладать достаточной сноровкой, аналитическим мышлением, коммуникативными компетенциями, иметь представление о многих сферах деятельности человека. Именно это представление, основанное на концепции межпредметной интегративности, является основным фактором положительной оценки учебных достижений.

Рассмотрим процесс подготовки к выполнению задания PIRLS.

Он включает в себя несколько этапов:

1. чтение инструкции
2. чтение текста
3. ответы на вопросы.

Каждый из этапов основывается на постижении тех или иных навыков, раскрытии умения применять базовые компетенции:

- чтение всей статьи – концентрация внимания, усидчивость;
- при выполнении задания на компьютере – владение техническими навыками;
- использование маркера для выделения опорных фраз – компетенция дифференцирования;
- при ответах на вопросы – логическое и аналитическое мышление и т.д.

Особое внимание следует обратить на темы текстов: материал статей настолько разнообразен, что требует от читателя постоянной работы над расширением кругозора, следовательно, чем ближе будет к читателю тема текста, тем меньше времени он потратит на её изучение в процессе выполнения задания, тем легче будет восприниматься информация от материала.

Невозможно перечислить все направления, к которым имеет отношение содержание заданий PIRLS, ясно одно: с читательской грамотностью связаны все изучаемые предметы – от математики до естествознания, физического и эстетического воспитания. В этой связи можно наблюдать и обратную зависимость: задания TIMSS, раскрывающие математические способности учащихся и оценивающие владение естественнонаучными знаниями, переключаются с предметом читательской грамотности (не стоит забывать, что читательская грамотность – это не упорядоченный процесс поглощения информации с точки зрения лингвистического разбора навыков скоростного чтения, а полноценное рефлексивное отслеживание, исследование и анализ).

Так, при выполнении задания по естествознанию, связанного с составлением пищевой цепи [3], одновременно даётся оценка следующим компетенциям:

- 1) чтение текста – компетенция читательской грамотности;
- 2) запись ответа – письменная грамотность;
- 3) объяснение закона биологии – предметная компетенция;
- 4) применение конструкции "Если...-то..." – логическое мышление;
- 5) оценивание жизненной ситуации – воображение, представление
- 6) расстановка правильного порядка – компетенция математической грамотности и т.д.

Таким образом, для повышения результативности в перечисленных исследованиях важная роль отводится интегрированному обучению, при котором одной из целей является всестороннее погружение обучаемых в целостное жизненное мировосприятие. Невозможен прогресс в исследовании PIRLS, основанный только лишь на умении читать, а в исследовании TIMSS – на математических знаниях или владении информацией о природных явлениях.




Рис. 1.

*Взаимосвязь ключевых компетенций в международных исследованиях.*

Как видно, ключевым решением задач, связанных с повышением результатов при диагностике в данных исследованиях, является периодическое обращение учителя к законам интегративной педагогики, межпредметному взаимодействию, которое порождается инициативностью педагога. Для формирования навыков создания интегрированного урока в начальной школе созданы все условия: возможность вариативного планирования, использование временных ресурсов, преподавание основных предметов различного направления. При грамотном распределении таких возможностей вероятность повышения качества диагностического процесса становится очевидной.

Литература:

1. Основная информация об исследовании PIRLS/Институт стратегии развития образования. Москва – 2016 – 35 с.
2. <https://timss.bc.edu/> - официальный сайт международного исследования TIMSS.
3. <http://etimss.testoko.ru/> - Демонстрационный вариант теста TIMSS 2019.

## BOSHLAG‘ICH SINFDAN MATNLAR YUZASIDAN PIRLS TOPSHIRIQLARINI TAYYORLASHNING METODIK JIHLARI

*Xudoyqulov Jamshid*

*Samarqand viloyati xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlag‘ich sinf o‘qish darslarida matn ustuda ishlash shakllari, o‘quvchilarda badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasini shakllantirish va PIRLS topshiriqlarini tayyorlashning metodik jihatlari o‘z aksini topgan. PIRLS topshiriqlarini tayyorlashning o‘ziga xosligi asoslab berilgan.

**Kalit so‘zlar:** ta’lim, badiiy asar tahlili, kompetensiya, individual yondoshuv, dars, sinfdan tashqari o‘qish, o‘qish savodxonligi, samaradorlik, natija.

**Аннотация:** В статье описаны формы текстовой работы на уроках чтения в начальной школе, формирование у учащихся компетентности в анализе художественного произведения, а также методические аспекты подготовки заданий PIRLS.

**Ключевые слова:** образование, художественный анализ, компетентность, индивидуальный подход, урок, внеклассное чтение, грамотность чтения, эффективность, результат.

**Annotation:** This article covers the forms of text-based work in primary school reading lessons, the formation of students' competence in analyzing a work of art, and the methodological aspects of preparing PIRLS assignments. Based on the specifics of PIRLS assignment preparation.

**Keywords:** education, art analysis, competence, individual approach, lesson, extracurricular

reading, reading literacy, efficiency, outcome.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 997-sonli Qarorida va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-aprelda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi 5712-son Farmonida 2030-yilga kelib, xalqaro tadqiqotlar doirasida reyting bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy fanlar yo'nalishidagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan. Konsepsiya doirasida o'quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish kompetensiyalari va malakalarining rivojlanishiga alohida urg'u berishni hisobga olgan holda, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta'lim dasturlari va yangi davlat ta'lim standartlarini joriy etish, o'quvchilarning bilim darajasini baholashda xalqaro PISA, TIMSS, PIRLS va boshqa dasturlarda doimiy ishtirok etish nazarda tutilgan.

Darsda o'quvchilarning faolligini oshiradigan, tasavvurlarini boyitadigan usullardan foydalanish, asarlarni janr mazmunidan kelib chiqib, rollarga bo'lib o'qish, qahramonlar nomidan qayta hikoya qilish, qahramonning taqdiri haqidagi hikoyani davom ettirish, qiziqarli mavzularda og'zaki hikoya tuzdirish kabi ijobiy topshiriqlardan foydalanish kabi ishlar amalga oshiriladi.[2.36]

O'qish darslari orqali badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasini shakllantirishda sinfdan tashqari o'qish darslari ham keng imkoniyatga ega. Sinfdan tashqari o'qish o'quv dasturi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, unda ko'zda tutilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda yaqindan yordam beradi.[3.78]

Xalqaro miqyosda ta'limni yaxshilash uchun o'tkazilayotgan tadqiqotlardan O'zbekiston ham tajriba uchun foydalanayotgan PIRLS tadqiqoti bo'yicha boshlang'ich ta'limni olgan o'quvchilarda savodxonlik, matnlarni shunchaki mutolaa qilish bilan kifoyalanmay ular ustida mulohaza yuritish, to'g'ri tushunish, badiiy fikrlash, boshlang'ich umumiy ma'lumotlarni olish, ulardan xulosa chiqara olish qobiliyati rivojlanadi, dunyoqarashi o'sadi. Tayyorlanayotgan PIRLS topshiriqlari o'quvchining nafaqat o'qish savodxonligini oshirishi balki o'quvchilarda mantiqiy tafakkurini o'stirishga, matnning mazmuni, uning bosh g'oyasini ongli o'zlashtirib olishga xizmat qilishi kerak[3.43].

Quyida biz 4-sinf "O'qish kitobi"da berilgan Hamidjon Hamidovning "Pahlavon va shoir"[2.110] mavzusi bo'yicha PIRLS topshiriqlaridan na'munalar keltiramiz.

1-topshiriq. Mazkur matn qaysi janrga mansub?

- Ertak
- Masal
- Rivoyat
- Qissa

2-topshiriq. Quyidagi gaplarni matnda sodir bo'lgan voqealar ketma-ketligida raqamlab chiqing. 1- raqam siz uchun qo'yilgan

ketma-



1. Mahmudning Dehliga safari .

\_\_\_\_\_ Pahlavon Mahmudning saroy pahlavoni bilan kurashishi

\_\_\_\_\_ Mahmudning sultonning taklifini rad etishi.

\_\_\_\_\_ Pahlavon Mahmudning sulton bilan suhbat va asirlarni ozod qilish

\_\_\_\_\_ Pahlavon Mahmudning filmi qutqarishi.

3-topshiriq. Pahlavon Mahmudning yosh saroy palvonidan yengilish sababi nima edi?



1
0
8
9

2
1
0
8
9

4-topshiriq. Sulton va Pahlavon nima haqida suhbatlashdi.



\_\_\_\_\_

5-topshiriq. Pahlavon Mahmudning jasorati qaysi voqealarda aks etadi?



\_\_\_\_\_



\_\_\_\_\_



\_\_\_\_\_

1
0
8
9

3
2
1
0
8
9

O'qish darslarida badiiy asar tahlili ustida ishlashni tizimli yo'lga qo'yish orqali badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi shakllantiriladi. Bu esa boshlang'ich sinf o'quvchilarining PIRLS topshiriqlari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etish bilan birga pedagoglar zimmasidagi mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega, intellektual jihatdan taraqqiy etgan, hayotiy kompetensiyalari shakllangan yosh avlodni tarbiyalashdek dolzarb vazifani ijobiy hal qilish imkonini beradi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich ta'limdan davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. – T.: RTM, 2017. – 215 b.
2. Matchonov S., Shojalilov A., G'ulomova X., Sariyev Sh., Dolimov Z. O'qish kitobi (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik). – T.: Yangiyo'l poligraf servis, 2020. – 216 b/160 b.
3. Shodiyeva Q. Nutq o'stirish uslubiyoti. – T.: O'qituvchi, 2008. – 304 b.

#### **UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA O'QUVCHILAR KREATIV SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI**

**Toyirova M.M.**

*Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston Respublikasining 2030 yilga kelib PISA xalqaro baholash dasturi reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish maqsadidan kelib chiqib, umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida kreativ sifatlarni shakllantirish muhimligi, bu borada o'quv jarayonini kreativ yo'naltirish masalalari hamda "Suv va eritmalar" mavzusidagi amaliy mashg'ulot ishlanmasi misolida o'quvchilarda kreativ sifatlarni shakllantirish va rivojlantirish yo'llari ko'rsatib berilgan.*

*Kalit so'zlar: PISA, kreativ sifatlarni, ijodkorlik, anomal xossa, termoregulyator, erituvchi, eruvchanlik, diffuziya, geterogen, gomogen.*

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida O'zbekiston Respublikasining 2030 yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosda o'quvchilarni baholash dasturi reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish maqsadi belgilab qo'yilgan [1]. Ushbu maqsadga erishish uchun bugungi kunda tabiiy fanlarni o'qitishning ko'proq amaliyotga asoslangan hamda shu asosda o'quvchilarda kreativ sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan metodlar keng qo'llanilmoqda.

PISA – bu 15 yoshli o'quvchilarning matematika, tabiiy fanlar va o'qish savodxonligini baholashga qaratilgan xalqaro dastur bo'lib, o'tgan yillarda xalqaro PISA tadqiqotlarida qo'llanilgan testlar o'rganilganda ulardagi topshiriqlarning aksariyati nazariy bilimlarni amalda qo'llashga qaratilgani,

topshiriqlarni bajarishda o'quvchilarni ijodiy, kreativ sifatlarga ega bo'lishi muhim ahamiyat kasb etishi ma'lum bo'ldi. Hozirda o'quvchilarda kreativ sifatlarni shakllantirish faqat bu kabi xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish uchun emas, balki mamlakatimiz ko'p tomonlama rivojlanishi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

“Create” - lotincha so'z bo'lib, - yaratuvchanlik, ijodkorlik degan ma'noni bildiradi. Agar ta'lim jarayoni o'quvchi-talabalar faolligiga asoslangan muammoli, dasturlangan, loyihalar jadallashtirilgan holda kechsa, u holda kreativ yo'nalishga ega bo'lib, o'quvchi-talabalarning faolligi tufayli u yangilik, ijodkorlik sari yetaklaydi[2,449 b.].

O'quv jarayonini kreativ yo'naltirish uchun:

1.O'quv jarayoni o'quv materialini berib borish, boshqa qiziqarli qo'shimcha materiallarni taklif etish va o'quvchilarni izlanishga, ijodkorlikka yo'naltiruvchi material asosida ularni o'z ehtiyoji, xohishi bilan yangilik sari yetaklash.

2. O'quv jarayonini ham shunday o'zgartirish kerakki, o'quvchilar o'quv materiallarining yaratuvchisiga aylanib, berilgan o'quv materiali o'sha yaratuvchilikka xizmat qilsin.

3.O'quv materiallariga yangi qo'shimchalar kiritish orqali evristik strategiya, taktika, metod va usullar taklif etish orqali o'quvchilarning ijodiy fikrlashga bo'lgan qiziqishini oshirish kerak[2.451 b.].

Hozirgi kun ta'lim tizimining bosh va asosiy maqsadi ham ijodiy fikrlaydigan malakali mutaxassislarni va yuksak darajadagi fikr yurituvchi shaxsni tarbiyalash va tayyorlashdan iborat.

Ijodkor yaratuvchi shaxsni, malakali mutaxassisni tarbiyalash - fanga ma'lum bo'lgan bilimlarning o'ziningina o'zlashtirish bilan kifoyalanmay, olingan bilimlar zamirida yangi bilimlarni kashf etishlari bilan muhimdir.

Hozirgi zamon ta'limining bosh va asosiy vazifasi – o'quvchilarning intellektual darajasini, yaratuvchanligini, ijodkorligini, izlanuvchanligini takomillashtirish orqali ularni yangi bilimlarni olish, yapatishga ruhlantirishga qaratilmog'i kerak.

Ma'lumotlarga qaraganda (yoshlar psixologiyasiga ko'ra) olti yoshgacha bo'lgan bolalar 40% iste'dod potensialiga ega ekanlar. Bolalar eng kichik yoshdanoq ijodkorlik, yaratuvchanlikka juda moyil bo'lar ekan. Agar shu davrda u bilan olib borilayotgan ta'lim jarayoniga faqat an'anaviy ta'lim asosida yondoshilsa, undagi ijodkorlikka moyillik so'nib boradi. O'quv-biluv ijodkorlikka yo'naltirilsa - uning faolligi, yaratuvchanlik qobiliyati oshib boradi[2.449 b.]. Shu tufayli, o'quvchilarda nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlarda qo'llash jarayonida mashg'ulot kreativ sifatlarni rivojlantirish maqsadida turli tajribalarni amalda bajarishga asoslanishi lozim. Quyida “Suv – erituvchi” mavzusiga oid amaliy mashg'ulot misolida o'quvchilarda kreativ sifatlarni shakllantirish masalalarini qarab chiqamiz.

Tirik organizmlarning to'qimalarida, hujayralarida suv bo'ladi. Masalan, inson tanasining o'rtacha 65% ini suv tashkil etadi. Agar inson o'z tanasidagi suvning 10-12% ini yo'qotsa, halok bo'lishi mumkin.

Suv o'simliklar, hayvonlar va insonlar hayotida juda katta ahamiyatga ega. Hayotning o'zi, kelib chiqib rivojlanishi ham dengiz suvi bilan bog'liq.

Suvning anomal fizik xossalari ham hayotiy jarayonlarni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Agar suyuqlikdan qattiq holatga o'tishda suvning zichligi boshqa moddalarniki kabi ortganda edi, suv yuzasi 0°C da muzlab, tagiga cho'kardi. Natijada hamma suv muzga aylanib, hayotning ko'plab shakllari qirilib ketar edi. Lekin suv +4°C da eng yuqori zichligiga ega bo'lishi bu kabi hodisaning yuz berishiga yo'l qo'ymaydi. Kam zichlikka ega bo'lgan muz suv yuzasida qoladi va pastki iliq qatlamlarni muzlashdan saqlab turadi, hayot shakllarini sovuqdan himoya qiladi.

Suvning yuqori issiqlik sig'imiga egaligi ham yerdagi hayot uchun foydali. Yer yuzining 3/4 qismini egallagan dunyo okeani suvi quyoshdan olgan energiyani o'zida saqlab turadi. Bu esa yer shari yuzasida normal hayotiy faoliyatni ta'minlovchi o'ziga xos termoregulator rolini bajaradi.

Sanoat asosan chuchuk suv bilan ishlashga moslashgan. Ma'lumotlarga ko'ra, har yili kishi boshiga o'rtacha 8000 l suv ishlatiladi. Bu qatorga xo'jalik ehtiyojlari ham, qishloq xo'jaligi va sanoat ehtiyojlari ham kiradi.

Chuchuk suvning 10 foizi uy ehtiyojlari uchun, qolgani qishloq xo'jaligi va sanoat uchun sarflanadi. 1 kg qand olish uchun 400 l, 1 kg bug'doy olish uchun 1500 l, 1 kg sintetik rezina olish uchun 2500 l atrofida suv sarflanadi.

Suv ko'plab sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda sovitkich, erituvchi muhit, tozalov vositasi kabi vazifalarni bajaradi. Suvning qishloq xo'jaligidagi roli hammamizga ma'lum: o'simliklarni, hayvonlarni sug'orishda faqat chuchuk suvdan foydalaniladi [3.83 b.].

Eritma - erituvchi, erigan modda va ularning o'zaro ta'sirlashuv mahsulotlaridan iborat bir jinsli tuzilmadir. Eritmada modda molekula yoki atom o'lchamlarida bo'lgani uchun erituvchi molekulari

orasida taqsimlangan va tarqalgan bo'ladi. Masalan, dorixonalardagi yodning spirtidagi eritmasida yod molekulari spirt molekulari orasida tarqalgan bo'ladi. Bu eritma tiniq, filtdan o'tganda hech narsa qolmaydi. Bunday eritmalar haqiqiy eritmalar deb ataladi [3.88 b.].

Suyuq eritmalarda erituvchini aniqlash qiyinchilik tug'dirmaydi. Birinchidan, erituvchi erigan moddaga nisbatan muhit sanaladi. Erituvchi molekulari soni erigan modda molekulariga nisbatan ko'proq bo'ladi. Ikkinchidan, erituvchi muhit sifatida eritmaning agregat holatini belgilaydi: agar eritma suyuq bo'lsa, demak muhit ham suyuq bo'lgan. Turli qattiq moddalarning suvda erishidan, masalan tuzlarni, tuzning suvdagi eritmasi hosil bo'ladi, suvning tuzdagi eritmasi emas.

Tabiatda suvli eritmalar juda keng tarqalgan. Hattoki, tabiatda suv mavjud emas, faqat suvli eritmalar mavjud deyish mumkin. Suv erituvchi sifatida tirik organizmlarning suyuq muhitini asosi hisoblanadi – qonni, hujayralararo suyuqliklarni. Juda ko'p o'simlik va hayvon tiplari uchun suv yashash muhiti hisoblanadi [4.95 b.].

Suv inson hayoti va amaliy faoliyatida katta ahamiyatga ega. Oziq- ovqat mahsulotlarini o'zlashtirish jarayoni oziq moddalarni suv yordamida eritma holiga o'tkazish bilan bog'liq. Barcha muhim fiziologik suyuqliklar (qon, limfa va b.) suvli eritmalaridir. Asosida kimyoviy jarayonlar yotadigan ko'plab ishlab chiqarish sohalarida suvli eritmalaridan foydalaniladi.

Suyuq eritmalar ikki yoki undan ortiq tarkibiy qismlardan iborat suyuq gomogen (bir jinsli) tuzilmalardir.

Tabiatda suv juda ko'plab tuzlarni eritgan holda bo'ladi. Umuman olganda, suvda deyarli barcha moddalar eriydi. Ba'zi moddalar juda yaxshi, ayrimlari o'rtacha, yana bir xillari yomon eriydi.

Yomg'ir suvi atmosferaning quyi qavatlaridan o'tadigan qisqa vaqt ichida o'zida sezilarli darajada turli moddalarni erita oladi va bug'latilganda 1000 g yomg'ir suvidan 3-5 g qattiq qoldiq qoladi. Tuproqqa tushgan suv tarkibida erigan moddalar tuproq va tog' jinslaridagi tarkibiy qismlar bilan kimyoviy ta'sirlashib, tabiatda uzluksiz davom etadigan tuproq hosil bo'lishi, tog' jinslarining yemirishi va yangi minerallar hosil bo'lish jarayonlarida faol ishtirok etadi.

Suv shunday erituvchi moddaki, u gazlarni ham (kislorod, vodorod, karbonat angidrid va b.), suyuq moddalarni ham (spirt, kislotalar va b.), qattiq moddalarni ham (tuzlar, minerallar va b.) erita oladi.

Eruvchanlik - moddaning erish qobiliyati.

Suvda biror modda, masalan, qand erishini kuzatamiz. Xona haroratida (20°C) 100g suv 200 g qandni erita oladi. Undan ortiq miqdor qand bu haroratda boshqa erimaydi. Bunday eritma to'yingan eritma deb ataladi, chunki unda ortiqcha miqdor qandni eritib bo'lmaydi.

Eruvchanlik o'lchami moddaning ma'lum sharoitda to'yingan eritmadagi miqdori bilan belgilanadi.

To'yingan eritma - ayni haroratda eruvchi moddadan ortiqcha erita olmaydigan eritma.

Eruvchanlik 100 g erituvchida moddadan qancha erishi bilan belgilanadi.

Agar 100 g erituvchida modda 10 g dan ortiq erisa - yaxshi eruvchan, 10 g dan kam erisa - oz eruvchan, 0,01 g dan kam erisa - amalda erimaydigan modda hisoblanadi [3.85-87 b.].

Qattiq moddalarning suyuqliklarda eruvchanligi — erigan modda, erituvchi modda tabiatiga va temperaturaga bog'liq bo'ladi. Qattiq modda suyuqlikda eritilganida, eritma ma'lum konsentratsiyaga yetganidan keyin qattiq jism erishdan to'xtaydi va eritma bilan qattiq modda orasida muvozanat qaror topadi. Bu dara-

jaga kelgan eritma— to'yingan eritma deb ataladi. Ayni temperaturada har qanday moddaning to'yingan eritmasi konsentratsiyasi o'zgarmas kattalik bo'lib, o'sha qattiq moddaning eruvchanligini xarakterlaydi. Ma'lum sharoitlarda ayni moddaning to'yinish darajasidan yuqori konsentratsiyaga ega bo'lgan eritmasini tayyorlash mumkin: bunday eritma o'ta to'yingan eritma deb ataladi. Lekin bunday eritmalar juda beqaror bo'ladi: ularni chayqatilganida, silkitilganida yoki ularga biror kristall zarracha tushib qolganida ortiqcha erigan qattiq moddani chiqarib yuborilsa, eritma to'yingan eritma holatiga o'tadi.

Erish jarayoni issiqlik chiqarish yoki issiqlik yutish bilan sodir bo'ladi, chunki erish vaqtida ikki jarayon amalga oshadi — biri kristall panjaraning emirilishi, ikkinchisi solvatlanish, erituvchi sifatida suv bo'lsa, gidratlanish sodir bo'ladi [6.113-114 b.].

Osh tuzi oz eruvchan modda. Agar 200 g 20%li osh tuzi (natriy xlorid) eritmasiga yana 20g osh tuzi qo'shilsa, birozdan so'ng ozroq miqdorda -2,4 g erimaydigan cho'kma tushadi. Osh tuzining maksimal konsentratsiyali eritmasi hosil bo'lgani tufayli erish to'xtadi. Bu eritma to'yingan eritma hisoblanadi. Tajribani yana davom ettirish mumkin: olingan eritmaga yana 10g (yoki biron bir boshqa miqdorda) osh tuzi qo'shiladi. Cho'kma massasi ortadi, lekin eritma konsentratsiyasi o'zgarmaydi. Erigan

modda massasi cho'kma massasiga bog'liq emas. Bu to'yingan eritmaning muhim xossasi hisoblanadi. Shu kabi eritmalar konsentratsiyasi asosida moddalarning eruvchanligi bo'yicha hukm chiqarish mumkin [4.97 b.].

Ko'pchilik qattiq moddalarning eruvchanligi harorat ortishi bilan ortadi. Masalan, ayni haroratda tuzning eruvchanligi 30 ga teng. Bu degan so'z 100 g suvda ayni haroratda shu tuzdan 30 g eriy oladi degan ma'noni anglatadi. Demak, moddaning ayni sharoitdagi to'yingan eritmasini haroratni oshirish bilan to'yinmagan eritmaga yoki aksincha, haroratni kamaytirish bilan to'yinmagan eritmani to'yingan eritmaga aylantirish mumkin [3.87-b.].

Qattiq moddalarning ko'pchiligi suvda eruvchanligi harorat ortishi bilan ortadi, chunki ko'pchilik qattiq moddalar eriganda issiqlik yutiladi. Shuning uchun harorat ko'tarilishi bilan ularning eruvchanligi ortadi.

Masalan: tuzli suv tayyorlanganda, 1 stakan sovuq suvga tuz solib aralashirsak, tuz sekin-asta eriydi, ba'zan erimay qolgan tuz idish tagida qolib ketishini ko'rganmiz. Endi shunday miqdordagi tuzni 1 stakan issiq suvga solib aralashirsak, tuz tezda erib ketadi. Ushbu misoldan xulosa qilib aytishimiz mumkin-ki, qattiq moddalarda harorat eruvchanlikka to'g'ri proporsional ya'ni harorat ko'tarilganda tuzlarning eruvchanligi ham ortib boradi va ko'proq miqdorda tuz suvda eriydi [7.66 b.].

Lekin tuzlarning eruvchanligiga harorat ortishining ta'siri turlicha ekanligini mis sulfat ( $\text{CuSO}_4$ ), natriy xlorid ( $\text{NaCl}$ , osh tuzi) va litiy sulfat ( $\text{Li}_2\text{SO}_4$ ) tuzlarining eruvchanligi misolida ko'rishimiz mumkin.

Harorat ma'lum darajaga ko'tarilganda mis sulfatning eruvchanligi shiddatli ortadi, natriy xloridning eruvchanligi shu harorat intervalida deyarli o'zgarmaydi, litiy sulfatning eruvchanligi esa harorat ortishi bilan kamayadi [8.142 b.].

To'yinmagan eritmada ayni moddadan yana qo'shimcha miqdor eritish mumkin. Bir bo'lak qand bir stakan suv yoki choyga solinganda erishni boshlaydi va qandning barchasi erib, konsentratsiyasi oshib borgunga qadar to'yinmagan eritma hosil qiladi. Bu stakanda yana bir necha qand bo'lagini eritish mumkin [4.97 b.].

Agar biror shisha silindr tagiga biror moddani, masalan, kaliy bixromatning quyuc eritmasi solinib, uning ustiga ehtiyotlik bilan suv quyilsa, modda zarrachalari vaqt o'tishi bilan asta-sekin yuqoriga ko'tarilib, butun suyuqlik hajmiga baravar tarqala boshlaydi. Modda zarrachalari garchi suv zarrachalaridan og'ir bo'lsa ham, ular yuqoriga ko'tarilaveradi. Bu o'zaro aralashish jarayoni butun hajmda moddalarning konsentratsiyasi bir xil bo'lguncha davom etadi: bunda diffuziya hodisasi sodir buladi. Lekin, eritmada diffuziya gazlardagi diffuziyaning qaraganda sekin boradi. Ammo suyuqliklardagi va gazlardagi diffuziyaning sababi bitta, u ham bo'la, zarrachalarning tartibsiz harakatidir [6.116 b.].

Eritmalar fizikaviy kimyo fani tomonidan o'rganiladigan eng asosiy sistemalardan biri hisoblanadi. Bu sistemalar hayotda va texnikada juda katta ahamiyatga ega, shu sababli ham fizikaviy kimyo fan sifatida eritmalar nazariyalarini yaratish natijasida vujudga kelgan. Shunga qaramasdan eritmalar nazariyasi hozirgi kungacha ham mukammal emas. Buning sababi, birinchi qarashda oddiy ko'ringan ushbu sistemalarning juda ham murakkabligi bilan bog'liq.

Deyarli har bir texnologik jarayonlarda eritmalar qo'llaniladi. Insonlar iste'mol qiladigan oziq-ovqat mahsulotlarining ko'pi ham suvli eritmalaridir. Hayvon va o'simliklardagi asosiy biokimyoviy jarayonlar hamda kimyoviy reaksiyalarning asosiy qismi ham eritmalarda boradi. Suvning hayotdagi beqiyos ahamiyati mana shular bilan belgilanadi.

Fizik-kimyoviy nuqtai-nazardan eritma deganda nima tushuniladi? Eritma kamida ikkita moddadan (komponentdan) iborat bo'ladi, demak eritma bir necha moddalarning aralashmasidir. Lekin har qanday aralashma ham eritma bo'la olmaydi. Tabiatda uchraydigan barcha aralashmalarni ikkiga bo'lish mumkin: geterogen va gomogen.

Geterogen aralashmalarga suspenziya va emulsiyalarni misol qilish mumkin. Bunday ko'p fazali sistemalar turli qismlarda turlicha fizik-kimyoviy xossalarga ega bo'ladi. Bunday mexanik aralashmalarning komponentlari oddiy usullarda (masalan, filtrlash orqali) bir-biridan ajratilishi mumkin.

Gomogen aralashmalar bir jinsli bo'lib, ularning hamma qismlari bir xil fizik-kimyoviy xossalarga ega bo'ladi. Ularning komponentlari orasida chegara sirt bo'lmaydi va shu sababli oddiy mexanik usullarda bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Eritmalar bir jinsliliigi undagi komponentlarning alohida molekullargacha yoki molekullarning (ayrim hollarda ionlar yoki atomlarning) kichik assotsiatlarigacha bo'linganligi bilan bog'liq. Mana shuning uchun ham chin eritmalarini molekulyar-dispers sistemalar ham deb atashadi.

Eritmalar o'zining tarkibi ma'lum chegarada uzluksiz o'zgarishi mumkinligi bilan kimyoviy birikmalardan farq qiladi. Erish jarayoni moddalarning oddiy aralashish jarayonidan murakkabroq jarayondir, bunda erituvchi bilan eriyotgan modda o'rtasida o'zaro ta'sirlar bo'ladi. Bunday ta'sirlar kimyoviy ta'sirlardan o'z xususiyatlari bilan farq qiladi va bir oz kuchsizroq bo'ladi. Lekin ba'zi hollarda erish jarayonidagi o'zaro ta'sirlar natijasida xuddi kimyoviy reaksiyalardagi kabi issiqlik effektlari kuzatiladi.

Demak, eritma mexanik aralashma bilan kimyoviy birikma o'rtasidagi holatni egallaydi va uni quyidigacha ta'riflash mumkin: chin eritma-tarkibi ma'lum chegarada uzluksiz o'zgartirilishi mumkin bo'lgan bir jinsli molekulyar-dispers sistemadir.

Eritmalarga berilgan ta'rifdan ularning turli-tuman bo'lishi mumkinligi ko'rinib turibdi. Haqiqatdan ham, eritmalar gaz, suyuq va qattiq agregat holatlarida mavjud bo'lishi mumkin. Suyuq agregat holatidagi, ayniqsa suvdagi eritmalar juda katta amaliy ahamiyatga ega. Shuning uchun ham ba'zi olimlar suyuq agregat holatida bo'lgan gomogen aralashmalarni chin eritmalar deb nazarda tutishni taklif qilmoqdalar. Qattiq holatda ham bir jinsli bo'lgan aralashmalar (aralash kristallar, ayrim qotishmalar, mineralar) mavjud bo'lib, mineralogiya va metallurgiyada ularning ahamiyati katta[5,27-28 b.].

Suvdan sanoatda keng ko'lamda foydalanish - oqova suvlar tozaligini va atrof-muhitni himoya qilishni ta'minlash muammosini keltirib chiqarmoqda. Bu masala muammoga kompleks yondashilgandagina ijobiy hal etilishi mumkin.

Insonlarni toza ichimlik suvi bilan ta'minlash uchun ochiq suv havzala-ridagi tarkibi turli xil tuzlar, gazlar, bakteriya va viruslar hamda mexanik aralashmalar dan iborat bo'lgan tabiiy suvni tozalash zarur. Buning uchun ochiq suv manbalaridagi suv uch bosqichda tozalovdan o'tadi.

1-bosqich: Suv mexanik unsurlardan tozalanadi. Buning uchun koagulyatsiya usulida loyqa va turli xildagi qo'shimchalardan tozalanadi.

2-bosqich: Birinchi bosqichdan o'tgan tiniq suv toza qum yordamida filtrlanadi va kolloid holidagi qo'shimchalar hamda zararli mikroblardan tozalanadi.

3-bosqich: Ikkinchi bosqichdan o'tgan tiniq va toza suv xlorlanadi. Aholiga tarqatiladi.

Butunjahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotiga ko'ra, bugungi kunda jahonda 1,2 milliard odam toza ichimlik suvi bilan yetarli ta'minlanmagan.

2050-yilga borib yer yuzi aholisining 75 foizi toza ichimlik suvi yetishmasligi bilan aziyat chekishi mumkin [3.84-85b.].

Suv ayrim o'simlik, hayvon va mikroorganizmlar uchun yashash muhiti bo'lish bilan birga u erituvchi hamdir. Suvda deyarli barcha moddalar turli xil vaqtlarda eriydi. Moddalarning suvda erishidan erimlar hosil bo'ladi.

**Darsning maqsadi:** Suvning erituvchilik xossasini o'rganish. Erish jarayoniga haroratning ta'sirini o'rganish.

**Kerakli jihozlar:** stakanlar, temir qoshiqcha, o'lchov silindri, shisha tayoqcha, soat.

**Kerakli moddalar:** suv (issiq va sovuq), shakar, osh tuzi, qum, quruq choy, ichimlik sodasi, bo'r.

Ishning borishi: 6 ta stakan qora yoki ko'k rangli marker yordamida raqamlanib, ularga 10 ml dan sovuq suv solinadi va 1-stakanga 1 qoshiqcha shakar, 2-stakanga 1 qoshiqcha osh tuzi, 3-stakanga 1 qoshiqcha qum, 4-stakanga 1 qoshiqcha quruq choy, 5-stakanga 1 qoshiqcha ichimlik sodasi, 6-stakanga 1 bo'lak bo'r solamiz va shisha tayoqcha yordamida aralastiramiz. Ozgarishlarni kuzatamiz.

6 ta stakan qizil rangli marker yordamida raqamlanib, ularga 10 ml dan issiq suv solib, 1-stakanga 1 qoshiqcha shakar, 2-stakanga 1 qoshiqcha osh tuzi, 3-stakanga 1 qoshiqcha qum, 4-stakanga 1 qoshiqcha quruq choy, 5-stakanga 1 qoshiqcha ichimlik sodasi, 6-stakanga 1 bo'lak bo'r solamiz va shisha tayoqcha yordamida aralastiramiz. Ozgarishlarni kuzatamiz. Kuzatishlar asosida quyidagi jadvalni to'ldiramiz:

/r	Modda nomi	Eris h darajasi (sovuq suvda)	Eri sh darajasi (issiq suvda)	Eris h vaqti (sovuq suvda)	Eris h vaqti (issiq suvda)	Far qi	Eritma rangi
	Shakar						
	Osh tuzi						
	Qum						
	Quruq choy						
	Ichimlik						

**Бошлангич таълимда халқаро баҳолаш тажрибаси: муаммо, ечимлар ва истиқболлар**

sodasi							
Bo'r							

Xulosa: \_\_\_\_\_

So'rov savollari:

- 1.Eritma nima?
- 2.Erish jarayoniga haroratning ta'siri qanday?
- 3.Barcha moddalarning eruvchanligi bir xilmi?
- 4.Suv har qanday moddani erita oladimi?
- 5.Tevarak atrofingizda qanday moddalar eriganini ko'rgansiz?
- 6.Qishda, yozda, bahor va kuzda moddalar erishida farq bo'ladimi?

**O'rganish natijalari:**

Bilim	Ko'nikmalar	Munosabat va qadriyatlar
1.Tabiatda erish jarayonining ahamiyatini tushuntiring	1.Tabiatda erish jarayonini kuzatadi va o'rganadi	1.Atrofdagi tabiat hodisalariga qiziquvchanlik ortadi
2.Eritmalarga misollar keltiring	2.Eritma tayyorlay oladi	2.Tabiatda erish jarayonining ahamiyatini anglash
3.Eritmalarning tashqi ko'rinishiga ko'ra farqlarini tavsiflash	3.Eritmalarning tashqi ko'rinishiga ko'ra farqlarini tavsiflay oladi	3.Moddalarni erish jarayonidan zararli ta'sirlardan asrash
4.Erish jarayoniga haroratning ta'sirini o'rganish	4.Erish jarayoniga haroratning ta'sirini biladi	
5.Suvning erituvchanligini o'rganish	5.Suvning erituvchanlik xossasini namoyish qiladi	

Shakllantiriladigan kompetensiyalar:

Ilmiy kompetensiya:

Tabiatda suvning erituvchilik xossasini va haroratning erish jarayoniga ta'sirini kuzatish muhim amaliy ahamiyatga ega ekanligini anglaydi.

Amaliy kompetensiya:

Suvning erituvchilik xossasi va moddalarning eruvchanlik xossasidan foydalanib, eritmalar tayyorlaydi;

Haroratning erishga ta'sirini amalda namoyish qiladi.

Fanlararo bog'liqlikni ta'minlash:

Biologiya – o'simlik tarkibidagi moddalarning erishi (choy misolida);

Fizika – issiqlikni ta'sirini o'rganish, erishning fizik jarayon ekanligi;

Matematika – erish vaqtlari orasidagi farqni hisoblash;

San'at- eritmalar ranglariga ko'ra farqlash, rangli eritmalar tayyorlash uchun ijodkorlikka chorlash;

Tarbiya – tabiatga hurmat, atrof-muhitni muhofaza qilish.

Baholash:

/r	Baholanadigan jihatlar	Ball	Izoh
	Mashg'ulot rejasini mustaqil tuzish	2 ball	
	O'qituvchi yoki boshqa o'quvchi yordamida tuzish	1 ball	
	Mustaqil bajarish	2 ball	
	Guruhda hamkorlikda bajarish	3 ball	
	O'qituvchi yoki boshqa o'quvchi yordamida bajarish	1 ball	
	Natijalarni mustaqil asoslash	2 ball	
	O'qituvchi yoki guruhdagi boshqa o'quvchi yordamida asoslash	1 ball	
	Mustaqil xulosalash	2 ball	
	O'qituvchi yoki guruhdagi boshqa o'quvchi yordamida xulosalash	1 ball	

Umuman, o'quvchilar faoliyatida yaratuvchanlik, ijodiy fikrlash har qanday muammoni, vazifani,

loyihani yechishda sermahsul jarayon hisoblanadi. Shunday ekan, o'quv jarayonida o'quvchilar mustaqil ravishda masalaning yechimiga intilsa, o'qituvchi muammoli vaziyatni o'z vaqtida tashkil etsa, o'quvchilarda sekin-asta ko'nikma va malakalar shakllana boradi [2.450 b.].

Xulosa qilib aytganda, nazariy olingan bilimlarni amalda qo'llash jarayonida o'quvchilardagi kreativ sifatlarning shakllantirilishi mamlakatimizni kelajakda nafaqat Xalqaro PISA baholash dasturi bo'yicha kuchli 30 talik davlatlar qatoriga kirish, balki yosh avlodni kundalik turmushdagi har qanday muammoni yechishga qodir, barkamol avlod sifatida shakllanishiga olib keladi.

#### **Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son farmoni.
2. Atayeva N., Salayeva M., Hasanov S. Umumiy pedagogika (Pedagogika nazariyasi va amaliyoti asoslari). O'quv qo'llanma. II kitob. H. Boboyevning umumiy tahriri asosida. -T.: «Fan va texnologiya», 2013, 860 bet.
3. Asqarov I. R., To'xtaboyev N.X., G'opirov K. G'. Kimyo. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. Toshkent:"Sharq", 2017. 160 b.
4. Anfinogenova I.V., Babkov A.V., Popkov. V.A.Ximiya dlya neprofilnix napravleniy. Uchebnik i praktikum dlya akademicheskogo bakalavriata.2-ye izdanie.Moskva:"Yurayt»,2018. 299 b.
5. Eshmamatova N.B., Akbarov H.I. Kimyo (Fizikaviy va kolloid kimyo). Biologiya-tuproqshunoslik fakulteti talabalari uchun uslubiy qo'llanma. Toshkent. 2018.112 b.
6. Olimov N.Q. Fizik va kolloid kimyo. Toshkent."O'qituvchi", 2001. 336 b.
7. Masharipov S., Mutalibov A., Murodov E., Islomova H. Umumiy kimyo. O'rta ta'lim muassasalarining 11-sinfi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari uchun darslik. Toshkent: 2018. 160 b.
8. Korjukov N.G. Obshaya i neorganicheskaya ximiya. Uchebnoe posobie.Pod red.V.I.Delyana.- M.:»Misis:Infra- M»,2004. 512 b.

#### **TA'LIM TIZIMI SIFATINI OSHIRISHDA PISA VA TIMSS KABI XALQARO TADQIQOTLARNING ROLI**

**Abdullayeva Feruza Nurillayevna - Buxoro davlat universiteti Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasini o'qituvchisi.**

***Annotatsiya:** Zamonaviy ta'lim sohasiga qo'yiladigan talablar kundan kunga oshib bormoqda. O'z navbatida hukumatimiz tomonidan ta'lim sifatini oshirishda PISA, TIMSS va PIRLS singari xalqaro tadqiqotlarning joriy etilishi ham muhim ahamiyatga ega. Mazkur maqolada shu haqda so'z yuritimiz.*

***Kalit so'zlar:** ta'lim tizimi, PISA, TIMSS, PIRLS xalqaro tadqiqotlar.*

***Annotation:** The requirements for modern education are growing day by day. In turn, the introduction of international research by PISA, TIMSS and PIRLS by our government is important in improving the quality of education. We will talk about this in this article.*

***Keywords:** education system, PISA, TIMSS, PIRLS international research. Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, PISA, TIMSS, PIRLS xalqaro tadqiqotlar.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasida davlat va jamiyat ahamiyatiga molik dolzarb masalalar qatorida ta'lim sifatini oshirishga, 2021-yildagi xalqaro baholash jarayonlariga munosib tayyorgarlik ko'rish masalasiga alohida e'tibor qaratildi.

Shuningdek, Prezidentimizning farmoni bilan "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" tasdiqlangan bo'lib, unda O'zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA xalqaro baholash dasturining reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish ustuvor vazifa etib belgilangan.

Yangi davlat ta'lim standartlari va umumiy o'rta ta'lim o'quv dasturlarini, shu jumladan STEAM usulini bosqichma-bosqich joriy etish va takomillashtirish ko'zlangan. Xalq ta'limi muassasalari ilg'or jahon tajribasiga tayanib, ta'lim sifatini takomillashtiradilar. Respublikaning quyidagilarda ishtirok etishi bunda yordam beradi:

- PISA o'quvchilarning o'qishdagi yutuqlarini baholash bo'yicha xalqaro dasturda (15–16 yashar o'quvchilarning matematik savodxonligi, o'qish va tabiatshunoslik sohasidagi savodxonligini baholash);

• TIMSS maktabdagi matematika va tabiiy fanlar sohasidagi ta'lim sifatining xalqaro tadqiqotida (4 va 8-sinflar o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlar sohasidagi savodxonligini baholash);

• PIRLS matnini o'qish va tushunish sifatining xalqaro tadqiqotida (boshlang'ich maktab o'quvchilarining matnini o'qish hamda tushunish darajasi va sifatini baholash).

Bundan tashqari, mamlakatimiz TALIS o'qitish va o'qish tizimining xalqaro tadqiqotida (o'qituvchilarning mehnat sharoiti va maktablardagi ta'lim muhitini baholash) qatnashadi.

Bundan tashqari, mamlakatimiz TALIS o'qitish va o'qish tizimining xalqaro tadqiqotida (o'qituvchilarning mehnat sharoiti va maktablardagi ta'lim muhitini baholash) qatnashadi.

Ushbu masalalarni hal etishda umumta'lim muassasalarida shu jumladan quyidagi usullar orqali chet tillarni o'qitishni kengaytirish loyihasiga tayanadilar:

- rus, ingliz, frantsuz, nemis va boshqa tillarga o'rgatadigan maktablar ochish;
- malakali mutaxassislarni tayyorlash va xorijdan jalb etish;
- zamonaviy talablarga javob beruvchi chet tillardagi darsliklarni nashr etish.

Ta'lim sifatini oshirish uchun uning holati va rivojlanish tendentsiyalarini uzluksiz monitoringini olib borish va o'quvchilarning o'quv yutuqlarini ob'ektiv va adekvat baholashni amalga oshirish zarur. Bu ayniqsa, o'quvchilarning keyingi shaxsiy va fuqarolik rivojlanishi uchun zamin yaratadigan umumiy o'rta ta'lim darajasida muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8 dekabrda 997-son "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori bilan xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o'rnatish, o'quvchiyo'shlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llabquvvatlash hamda rag'batlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tashkil etildi. Milliy markazning asosiy vazifalari va faoliyatining yo'nalishlaridan etib:

• umumiy o'rta ta'lim muassasalarining xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta'minlash;

• O'zbekiston Respublikasining xalqaro baholash dasturlarida qayd etgan natijalarini boshqa davlatlar natijalari bilan qiyosiy taqqoslash;

• xalqaro baholash dasturlarini ta'lim jarayoniga joriy etish bo'yicha tizimli monitoring olib borish, ushbu sohadagi ilg'or tajribani ommalashtirish va uning asosida ta'lim muassasalari uchun tavsiyalar va qo'llanmalar ishlab chiqishda ishtirok etish;

• o'qitishning innovatsion usullaridan foydalangan holda o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlar bo'yicha pedagog kadrlarning malakasini oshirish bo'yicha o'quv-uslubiy tavsiyalar tayyorlash kabilar belgilandi.

Quyidagi xalqaro baholash dasturlari bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish belgilandi:

PISA - The Programme for International Student Assessment — 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash;

TIMSS - Trends in International Mathematics and Science Study— 4 va 8sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash;

PIRLS - Progress in International Reading and Literacy Study— boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnini o'qish va tushunish darajasini baholash;

TALIS - The Teaching and Learning International Survey— rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish va ta'lim olish muhitini hamda o'qituvchilarning ish sharoitlarini o'rganish.

Xalqaro baholash dasturlari bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda O'zbekiston Respublikasining ishtirok etishiga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha «Yo'l xaritasi» ishlab chiqildi, unga ko'ra, o'quvchilarning yozma va nutq savodxonliklarini oshirish bo'yicha ilg'or milliy va xalqaro tajribalarni joriy etish; o'quvchilar mustaqil ta'lim olishlari uchun elektron shakldagi ta'limni rivojlantirish, unda o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan xalqaro tadqiqotlar bo'yicha savollar bazasini yaratish hamda boyitib borish; o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko'rish uchun mustaqil ta'limni joriy etish; xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish yuzasidan malakali o'qituvchitreneerlar bilan hamkorlikda hududlarda o'quvlar tashkil etish kabilar belgilangan.

PISA tadqiqotlari PISA (Programme for International Student Assessment) o'quvchilar bilimini baholash xalqaro dasturi, 15 yoshli bolalarning matematika, tabiiy fanlar va ona tilidan hayotiy ko'nikmalarni egallaganligini o'rganishga qaratilgan tadqiqot. PISA tadqiqotlari 2000-yildan boshlangan

va har uch-yilda o'tkaziladi. Tadqiqot natijalari ishtirokchi mamlakatlar o'quvchilari ta'lim yutuqlari, ta'lim tizimida o'zgarishlar, o'rta ta'lim islohotining asosiy yo'nalishlarini shakllantirish va ularning amalga oshirish uchun to'siqlarni aniqlash, natijalarning o'zgarish dinamikasini kuzatish va tanqidiy tahlil qilish imkonini beradi. Xalqaro PISA tadqiqotlarining maqsadi 15 yoshli o'quvchilarning matematika va tabiiy fanlar bo'yicha hamda ona tili bo'yicha savodxonligini baholashdan iborat. Tadqiqot maktab o'quv dasturlarini ishlab chiqish darajasini belgilashga emas, balki o'quvchilar hayot sharoitida o'qitish jarayonida olingan bilim va ko'nikmalarni qo'llash qobiliyatini baholashga qaratilgan.

Shu bilan birga, tadqiqot ishtirokchi mamlakatlar o'quvchilarining natijalaridagi farqlarni tushuntiruvchi omillarni o'rganadi. PISA tadqiqoti baholash topshiriqlari to'plami quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- test topshiriqlari to'plami; ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun so'rovnomalar;
- ta'lim tashkilotlarini boshqarish uchun so'rovnomalar; test yoki so'rov o'tkazadigan shaxs uchun qo'llanma; ta'limni tashkil etish koordinatori uchun qo'llanma;

- test topshiriqlarini, ma'lumotlarni kiritish, qayta ishlash va baholash bo'yicha qo'llanma.

Tadqiqot natijalariga statistik ishlov berish natijasida har bir o'quvchi 1000 balli tizimda quyidagi me'zonlar bo'yicha baholanadi:

- kundalik turmushda yuzaga keladigan real muammolarni aniqlash va ularni matematikadan foydalanib hal qilish;

- muammolarni matematika tilida ifodalash;
- muammolarni matematik bilimlar va usullarni qo'llash orqali hal qilish;
- ishlatilgan usullarni tahlil qilish;
- muammoning yechimini tushuntirish;
- hal etish natijalarini shakllantirish va qayd etish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yunusova D. Matematikani o'qitishning zamonaviy texnologiyalari. Darslik. – T.: Fan va texnologiya, 2011.

2. Turdiev N.Sh., Asadov Yu.M., Akbarova S.N., Temirov D.Sh. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari, T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti, T.: 2015.

3. Ishmuhamedov R. O'quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo'llash uslubiyati. – T.: RBIMM, 2008.

4. Курбанова Ш. Н., Абдуллаева Ф., Очилова Г. О. ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ТЕХНОЛОГИЯ–ЦЕЛОСТНАЯ СИСТЕМА ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА //НОВЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: сборник статей IV. – 2021. – С. 20.

5. Qurbonova S. N., Abdullayeva F. TARBIYA DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH //Scientific progress. – 2021. – T. 2. – №. 6. – С. 1030-1035.

6. Abdullayeva F. METHODOLOGICAL POSSIBILITIES OF ORGANIZATION OF PRIMARY SCHOOL TECHNOLOGY LESSONS WITH PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.

7. Abdullayeva F. TA'LIM TIZIMI SIFATINI OSHIRISHDA PISA VA TIMSS KABI XALQARO TADQIQOTLARNING ROLI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 3. – №. 3.

## **PIRLS КАК ОДИН ИЗ СОВРЕМЕННЫХ АСПЕКТОВ РАЗВИТИЯ РЕЧИ МЛАДШЕГО ШКОЛЬНИКА НА УРОКАХ ЛИТЕРАТУРНОГО ЧТЕНИЯ.**

**Алимова Анастасия Николаевна**

Студент

Бухарский Государственный Университет

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются способы подготовки учащихся к инновационному исследованию PIRLS на уроках литературного чтения в начальных классах. Раскрывается суть международного исследования сравнительного анализа PIRLS для улучшения качества чтения и понимания текста младшими школьниками .

**Ключевые слова:** читательская грамотность, исследование PIRLS, читательская самостоятельность, развитие речи, интерактивный метод.

**Abstract:** This article discusses ways to prepare students for the innovative research of PIRLS in the lessons of literary reading in elementary grades. The essence of the international study of comparative analysis of PIRLS for improving the quality of reading and understanding of the text by younger schoolchildren is revealed .

**Keywords:** reader literacy, PIRLS research, reader independence, speech development, interactive method.

**Anotatsiya:** Ushbu maqola boshlang'ich sinflarda adabiy o'qish darslari davomida PIRLS innovatsion tadqiqoti orqali o'quvchilarni tayyorlash usullarini o'rganadi. PIRLS qiyosiy tahlil bo'yicha xalqaro tadqiqotning mohiyati, boshlang'ich sinf o'quvchilar uchun matnni o'qish va tushunish sifatini yaxshilash mavzusini yoritadi.

**Kalit so'zlar:** o'qish savodxonligi, PIRLS tadqiqotlari, o'qish mustaqilligi, nutqni rivojlantirish, interaktiv usul.

Чтение является совокупностью психических и физиологических процессов перекодировки увиденных знаков и соотношению его звучанию и пониманию. И, в итоге, на основе связи звуковой формы слова с его значением происходит понимание прочитанного. Между техническим и смысловым сторонами процесса чтения имеется близкая связь. В техническую сторону навыка чтения относятся артикуляционное развитие, а главную цель процесса чтения демонстрирует его смысловая сторона. Именно развитие навыка смыслового понимания текста является оценкой приобретения полноценного навыка чтения. Исследование смысловой стороны навыка чтения выявило, что степень осознания после первого прочтения составляет 45-55%. Общеизвестно, что от степени понимания прочитанного обуславливается эффективность работы школьника во время урока. Именно чтения складывается основной фундамент умений ,приобретенных младшими школьниками в будущем ,при переходе в старшие классы.

Всё что нас окружает не застаивается на месте ,а имеет тенденцию развития. Это происходит в различных сферах жизни. Так, к примеру, международное исследование PIRLS является одним из современных аспектов развития навыка читательской грамотности и осмысления текста. Данный анализ создан для определения и развития смысловой и технической стороны чтения. В PIRLS рассматривают два вида чтения – чтения предназначенное для достижения навыка литературного чтения и чтение для овладения и применения информации. Для контроля ученикам дают два произведения, одно из которых -научно-популярный текст, а второе -художественный. Результатом освоения данных является ответы учеников на представленные задания, относящиеся к тексту. Задания к текстам рассматривают четыре навыка- поиск информации, умение делать умозаключения , объяснение и синтезирование сведений, разбор и оценочное суждение содержимого, специфика языковых структур текста. Структура PIRLS заключается в том, что ученикам дается определенный текст, а степенью освоения и понимания прочитанного оценивается в заданных ниже тестов. Вопросы предполагают не стандартный облик теста ( вопрос и 4 пункта ответа) , а ,именно, с творческими заданиями и с тестами требующий обширный ответ , в поисках которого школьнику необходимо задействовать логическое мышление ,память и оценочное суждение. Задания PIRLS предоставляют возможность дать оценку главному читательскому навыку, направленного на выявления смысловой стороны навыка чтения. Это в свою очередь развивает такие умения, как выявлять отдельно изолированную информацию, которая дана в тексте; умение делать выводы из полученной информации; комментировать и объединять отдельные сведения текста; умение оценивать суть, стиль, вид как целого сообщения, так и отдельно взятой информации .В данном исследовании рассматривают знания учащихся, оканчивающих четвертый, а в некоторых странах и пятый, класс начальной школы, поскольку, действительно , данный год обучения является необходимым этапом развития мышления детей .Дальнейшее обучение другим предметам и наукам будет опираться на способности школьника осознать смысл письменного и прочитанного текста, пользоваться языком.

Очевидно, что все виды речевой деятельности координированы, и нельзя развивать какой-либо один из них, не заботясь о развитии всех остальных. В ходе развития читательского навыка совершенствуются главные речевые процессы: процесс памяти, процесс предвидения и предугадывания, процесс эквивалентных замен и т.д. При подготовки к PIRLS младшие школьники сталкиваются с такими затруднениями как объяснение значений слов, словосочетаний , не использовавших в своем лексическом запасе, несформированная читательская самостоятельность и с некоторыми вопросами PIRLS. А именно: отсутствие навыка пользоваться данным текстом для конкретизации своей идеи; несоответствие личного опыта и прочитанной

информации; при условии, когда задание требует развернутый ответ испытывают трудности в высказывании своих мыслей. Во избежание таких случаев учителям необходимо чаще использовать интерактивные методы на уроках литературного чтения, что позволит учащимся привыкнуть к такому роду деятельности. Учителям следует принимать ответы от школьников только в полном, развернутом виде. В период обучения в начальной школе происходит дифференцированное восприятие информации, некоторые ученики хорошо усваивают учебную программу, а некоторым требуется дополнительная помощь со стороны не только учителя, но и родителей, взрослых. Для решения данных проблем на уроках родного языка, чтения учителю необходимо проводить словарные работы с демонстрацией иллюстраций к каждому слову.

В заключении можно сказать, что обучение по традиционной форме развития техники чтения не всегда дает нужных результатов. Для того чтобы учащиеся начали привыкать к интерактивным заданиям как в PIRLS, уже с первого класса на уроках литературного чтения ведётся работа над улучшением читательского навыка и методы проверки понимания текста.

#### **Список источников**

1. Babaeva S. MODELING NATIVE LANGUAGE LEARNING BY DESIGNING EDUCATION. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8 (10), Part II, 1-9.
2. Ш.Б.Бабаева, А.Н.Алимова «Международное исследование PIRLS способствует развитию речи и навыка чтения у младших школьников». scientific progress volume 2 | issue 6 | 2021 issn: 2181-1601
3. «Социальная реальность современного обучения с использованием информационных технологий» Алимова А.Н., Бабаева Ш. Б. Наука и Просвещение (ИП Гуляев Г.Ю.) (Пенза), 2021 УДК: 370 Страницы: 134-136
4. Алимова А. Н “Суть международного исследования pirlz - гарант развития навыка смыслового понимания и качества чтения текста младшими школьниками”. Янгиланаётган ўзбекистонда фан, таълим ва инновация уйғунлиги” мавзусидаги республика б-сон кўп тармоқли илмий- масофавий онлайн конференцияси 1-қисм материаллари с 269-276
5. The effect of Studying Morphology in Modeling Syntactic concepts in the lessons of the native Language in Primary Grades BS Babaeva *Middle European Scientific Bulletin* 5 (10), 84-90
6. «Влияние инноваций цифрового образования на развитие речи младшего школьника» Алимова А.Н. 2022: “Янги Ўзбекистонда миллий тараққиёт ва инновациялар” Published 2022-01-20.c137-141

### **BOSHLANG‘ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILAR NUTQINI O‘STIRISHNING METODIK JIHATLARI**

**Jumaniyozova M.X.- UrDU Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi**

**Xo‘janiyozova G.I.- UrDU Ta‘lim va tarbiyaviy ishlar nazariyasi va metodikasi (boshlang‘ich ta‘lim) mutaxassisligi 1-kurs magistri**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilar nutqini o‘stirishning mazmuni, metodik jihatlari ko‘rsatib beriladi. Ona tili darslarida nutq o‘stirishda lug‘at ustida ishlash metodikasi haqida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** boshlang‘ich ta‘lim, ona tili darslari, til, nutq, nutq o‘stirish, lug‘at ustida ishlash, so‘z ma‘nosini izohlash, faol lug‘at.

**Аннотация.** В данной статье рассмотрены содержание и методические аспекты развития речи учащихся на уроках начальных классов. На уроках родного языка изучается методика работы со словарем.

**Ключевые слова:** начальное образование, уроки родного языка, язык, речь, развитие речи, словарная работа, толкование слов, активный словарный запас.

**Annotation.** This article describes the content and methodological aspects of developing students' speech in primary school lessons. In the native language classes there is a discussion of the method of working on the dictionary.

**Keywords:** primary education, native language lessons, language, speech, speech development, vocabulary work, word interpretation, active vocabulary.

Hozirgi davrda ta‘lim-tarbiya jarayoniga bo‘lgan munosabat yanada yangi pog‘onaga ko‘tarildi. Yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashda va 2020-yilda qabul qilingan “Ta‘lim to‘g‘risida”gi

Qonunni hayotga tatbiq etishda boshlang'ich ta'limdagi ona tili darslari muhim o'rin egallaydi.

Ona tili darslarida yosh avlodga fan asoslaridan ta'lim berish bilan birga ularda turli ko'nikma va malakalar ham shakllantiriladi. Binobarin, boshlang'ich sinf o'quvchilari ona tili darslarida ongli o'qish va savodli yozishga o'rganadilar, og'zaki va yozma nutqning qonun-qoidalarini egallaydilar. Ona tili sohasidagi ko'nikma-malakalar (nutq, o'qish va yozishga oid malakalar) o'quvchilarning o'quv mehnatining zaruriy sharti va vositasidir. O'quvchi o'qish ko'nikmalarini egallash bilan bir qatorda, birinchi navbatda, o'zining ona tilini o'rganishi zarur, chunki ona tili bilimdonlikning, aql-idrokning kalitidir. Ona tili boshqa fanlarni o'qitish vositasi hamdir, barcha fanlar ona tili yordamida o'rganiladi. Ko'rinadiki, ona tili bolaning umumiy kamol topishida ham, unda bilim va mehnatga havas uyg'otishda ham muhimdir.

Milliy o'quv dasturida "Ona tili" darslarida o'quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga yo'naltirish lozimligiga alohida e'tibor qaratilgan. Shuning uchun ushbu dastur va u asosida yaratilajak yangi avlod darsliklarida grammatik qoidalarni yodlatishdan voz kechish, ijodiy tafakkur tarzini shakllantirish, dars va mashg'ulotlarni o'quvchilarning nutqiy malakasini yuzaga keltirishga qaratish maqsad qilib olingan. Amaliyotga joriy etilgan 1-2-sinflardagi "Ona tili va o'qish savodxonligi" darslarida bunga erishilgan desak, yanglishmaymiz.

Hozirgi davrda ona tili ta'limi oldida quyidagi bosh maqsad turadi: ona tili mashg'ulotlari bolalarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq vaziyatiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikma va kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilishi lozim.

Nutq fikrni bayon etish vositasi bo'libgina qolmay, uni shakllantirish quroli hamdir. Fikr nutqning psixologik asosi vazifasini bajaradi, uni o'stirish sharti esa fikrni boyitish hisoblanadi. Aqliy faoliyat tizimini egallash asosidagina nutqni muvaffaqiyatli o'stirish mumkin. Shuning uchun o'quvchilar nutqini o'stirishda materialni tayyorlash, takomillashtirish, mavzuga tegishlisini tanlash, joylashtirish va mantiqiy fikrlashga yo'naltiradigan ish turlariga katta ahamiyat beriladi.

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida nutq o'stirishning muhim vazifalaridan biri lug'at ustida ishlashni yaxshilash, tartibga solish, uning asosiy yo'nalishlarini ajratish va asoslash, o'quvchilarning lug'atini boyitish jarayonini boshqarish hisoblanadi.

Har qanday nutqiy bayon grammatik jihatdan o'zaro bog'langan, mazmunga mos so'z va so'z birikmalarining ma'lum izchillikda joylashtirilishidan tuziladi. Kishining lug'ati qanchalik boy va rivojlangan bo'lsa, uning nutqi ham shunchalik boy bo'ladi; o'z fikrini aniq va ifodali bayon etishiga keng imkoniyat yaratiladi. Shuning uchun lug'atning boyligi, xilma-xilligi, harakatchanligi metodikada nutqni muvaffaqiyatli o'stirishning muhim sharti hisoblanadi.

Ilmiy-metodik adabiyotlarda ko'rsatilishicha, maktabda lug'at ustida ishlash metodikasi to'rt asosiy yo'nalishni ko'zda tutadi:

**1. O'quvchilar lug'atini boyitish, ya'ni yangi so'zlarni, shuningdek, bolalar lug'atida bo'lgan ayrim so'zlarning yangi ma'nolarini o'zlashtirish.** Ona tilining lug'at boyligini bilib olish uchun o'quvchi o'z lug'atiga har kuni ko'plab yangi so'zlarni qo'shishi va shu so'zlar ma'nosini o'zlashtirishi lozim va bunda, albatta, ona tili darslari yordam berishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

**2. O'quvchilar lug'atiga aniqlik kiritish.** Bunda quyidagilarga e'tibor beriladi: 1) o'quvchi puxta o'zlashtirmagan so'zlarning ma'nosini to'liq o'zlashtirish, ya'ni shu so'zlarni matnga kiritish, ma'nosi yaqin so'zlarga qiyoslash, antonim tanlash yo'llari bilan ularning ma'nosiga aniqlik kiritish; 2) so'zning kinoyali ma'nosini, ko'p ma'noli so'zlarni o'zlashtirish; 3) so'zlarning sinonimlarini, sinonim so'zlarning ma'no qirralarini o'zlashtirish; 4) ayrim frazeologik birliklarning ma'nosini o'zlashtirish.

**3. Lug'atni faollashtirish, ya'ni o'quvchilar ma'nosini tushunadigan, ammo o'z nutq faoliyatida ishlatmaydigan nofaol lug'atidagi so'zlarni faol lug'atiga o'tkazish.** Buning uchun shu so'zlar ishtirokida so'z birikmasi va gaplar tuziladi, ular o'qiganlarni qayta hikoyalash, suhbat, bayon va inshoda ishlatiladi.

**4. Adabiy tilda ishlatilmaydigan so'zlarni o'quvchilar faol lug'atidan nofaol lug'atiga o'tkazish.** Bunday so'zlarga bolalarning nutq muhiti ta'sirida o'zlashib qolgan adabiy til me'yoriga kirmaydigan, ayrim adabiy asar va so'zlashuv tilida qo'llanadigan sodda so'z va iboralar, sheva va ijtimoiy guruhga oid so'zlar kiradi. Adabiy til me'yori degan tushunchani o'zlashtirgach, o'quvchilar yuqorida izohlangan so'zlar o'rniga adabiy tildagi so'zlardan foydalana boshlaydilar. Adabiy tilga oid malakalari mustahkamlangan sayin shevaga, jargonga oid so'zlar, so'zlashuv tilida ishlatiladigan sodda so'z va iboralar o'quvchilarning faol lug'atidan chiqib keta boshlaydi.

Ona tili darslarida bajariladigan mashqlar ko'pgina so'z va atamalarni o'zlashtirishga yordam beradi, o'quvchilar predmet, belgi, harakat, sanoq, tartib ifodalaydigan so'zlarni bilib oladilar. Bu

darslarda o'quvchilar lug'ati tartibga solinadi, so'z turkumlarini o'rganish jarayonida guruhlanadi, so'z tarkibi, so'z yasalishi, so'zlarning o'zgarishini o'rganish bilan esa lug'atga aniqlik kiritiladi; ular o'rgangan so'zlaridan o'z nutqlarida foydalana boshlaydilar, natijada lug'atlari faollashadi. O'quvchilar lug'ati maxsus lug'aviy-mantiqiy mashqlar yordamida ham boyiydi, tartibga tushadi.

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida so'zlarning ma'nosini tushuntirish ham o'quvchilar lug'atini boyitishga, nutqini o'stirishga yordam beradi. Xususan, boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan fanlarning atamalari ham tushuntirilishi lozim bo'lgan so'zlar qatoriga kiritiladi. Atamalarining ma'nosini tushuntirish mazkur so'z anglatgan tushunchani yaxshi fahmlab olishga yordam beradi. Masalan, belgi atamasining ma'nosini tushuntirish bilan o'quvchilar belgi keng ma'noda qo'llanishini, uning o'ziga xos jihatlari bilib oladilar. Bu sifat atamasini tez fahmlab olishda ularga yordam beradi.

Ta'kidlash joizki, so'zning ma'nosini tushuntirish juda kam vaqt olishi va darsning asosiy mavzusidan o'quvchilar diqqatini chalg'itmasligi kerak. Buning uchun o'qituvchi har bir darsga tayyorlanish jarayonida ma'nosi tushuntirilishi lozim bo'lgan so'zlarni, uni tushuntirishning eng qulay usullarini va darsning qaysi o'rnida tushuntirishni belgilab oladi. Bu esa o'qituvchidan nutq o'stirishning metodik jihatlari chuqur bilishni taqozo etadi.

### **PIRLS XALQARO TADQIQOTINING TA'LIM TIZIMIDAGI AHAMIYATI**

Saidova Gulruh Halim qizi TDPU v.b dotsent, PhD

**Annotatsiya:** ushbu maqolada ta'lim sifati va samaradorligini oshirish yo'lida xorijiy ilg'or tajribalarni o'rganish, xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi, bu borada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ishlar, shu jumladan, PIRLS tadqiqotiga doir amalga oshirilgan ishlar va ularning tahlillari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** PIRLS, badiiy tajriba orttirish matnlari, axborot olish va undan foydalanish, tushunish jarayonlari

**Аннотация:** В данной статье рассматривается изучение передового опыта повышения качества и эффективности образования, внедрение международных стандартов, работа, проводимая в нашей стране в этом направлении, в том числе работа, сделанная по исследованию PIRLS и их анализ. идет.

**Ключевые слова:** PIRLS, тексты для приобретения художественного опыта, получение и использование информации, процессы понимания.

**Annotation:** This article discusses the study of best practices for improving the quality and efficiency of education, the introduction of international standards, the work carried out in our country in this direction, including the work done on the study of PIRLS and their analysis. goes.

**Key words:** PIRLS, texts for the acquisition of artistic experience, obtaining and using information, processes of understanding.

Хозирда келажакимиз пойдевори бўлган ёшлар тақдири ва уларнинг таълим-тарбияси, уларнинг интеллектуал салоҳиятли ва маънавий етук бўлиши Давлат сиёсати даражасигача кўтарилган.

Ta'lim sifati va samaradorligini oshirish yo'lida xorijiy ilg'or tajribalarni o'rganish, xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyatga ega. Bu borada O'zbekiston Respublikasida qo'yilayotgan amaliy qadamlarga xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarning tashkil etilishi to'g'risida davlat qarorining qabul qilinishi Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) bilan hamkorlik aloqalarining yo'lga qo'yilishini misol sifatida keltirish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivoj- lantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi 5712-son Farmonida 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan.

Shuningdek, konsepsiya doirasida o'quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish kompetensiyalari va malakalarining rivojlanishiga alohida urg'u berishni hisobga olgan holda, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta'lim dasturlari va yangi davlat ta'lim standartlarini joriy etish, o'quvchilarning bilim darajasini baholashda xalqaro PISA,

TIMSS, PIRLS va boshqa dasturlarda doimiy ishtirok etish nazarda tutilgan.

PIRLS dasturi 2001-yilda Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA-International Association for the Evaluation of Educational Achievement) tomonidan tashkil etilgan. Xalqaro tadqiqotni tashkil etish uchun barcha mas'uliyat Boston kollejiga yuklatilgan. Shuningdek, xalqaro tadqiqot uchun topshiriqlarni tayyorlash Germaniya (Gamburg) ma'lumotlar markazida olib boriladi.

PIRLS-Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) tomonidan har 5 yilda bir marotaba o'tkaziladi. **Tadqiqot boshlang'ich sinf o'quvchilarning erishgan yutuqlarini o'rganishda barcha o'quvchilardan emas, balki ushbu qatlamning vakillari sifatida tanlab olingan o'quvchilardan obyektiv testlarni o'tkazish orqali baholaydi.**

Xalqaro baholash dasturi PIRLS (Progress In International Reading And Literacy Study) dunyoning turli mamlakatlari milliy ta'lim tizimida o'qish savodxonligi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar va natijalarni qiyoslashga yo'naltirilgan.

2021-yilda o'tkazilgan PIRLS tadqiqotlarida dasturning birinchi marta raqamli formatda bo'lib o'tdi.

PIRLS dasturida qatnashuvchi mamlakatlar soni yildan yilga ko'payib bormoqda. Masalan, dasturda 2001-yilda 35 ta mamlakat qatnashgan bo'lsa, 2006-yilda 40 ta, 2011-yilda 45 ta, 2016-yilda 50 ta mamlakat va 2021-yilda o'tkazilgan tadqiqotda 60 ta mamlakatning ishtirok etidi.

